

# Тарбия ва таълим

жараёнининг ижтимоий ҳамда  
педагогик - психологик муаммолари:  
таклиф ва ечимлар



**ЁШЛАРГА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК  
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАРКАЗИ**

**«ТАРБИЯ ВА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОЙ  
ҲАМДА ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИ:  
ТАКЛИФ ВА ЕЧИМЛАР»**

**МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ**

Мақолалар тўплами

Тошкент-2022

Тарбия ва таълим жараёнининг ижтимоий ҳамда педагогик-психологик муаммолари: таклиф ва ечимлар / Мақолалар тўплами. – Тошкент, 2022. – 414 бет.

Мазкур тўплам “Тарбия ва таълим жараёнининг ижтимоий ҳамда педагогик-психологик муаммолари: таклиф ва ечимлар” мавзусига бағишлаб ўтказилган Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари асосида тайёрланган. Ушбу тўпламда психология ва педагогиканинг назарий, методологик ҳамда умумпсихологик масалалари, ижтимоий-маънавий ўзгаришлар, ёшларнинг ижтимоий-психологик, ҳуқуқий муаммолари, унинг сабаб ва ечимлари, ёшларнинг хулқ-атвори ва дунёқарашида кузатилаётган ўзгаришлар, ижтимоий-психологик таъсирлар, ижтимоий-психологик муаммоларнинг ёшлар руҳиятида намоён бўлиш хусусиятларини илмий тадқиқ этиш бўйича олиб борилаётган изланишларнинг долзарб йўналишлари, бу борада йиғилган маълумотлар ва улардан амалиётда фойдаланиш имкониятлари юзасидан амалий билимлар тақдим этилади.

Мақолалар тўплами соҳа мутахассислари, маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга масъул ходимлар, педагоглар, амалиётчи психологлар, психология таълим йўналиши талабалари, тадқиқотчилар, психологияга қизиқувчи турдош йўналишлар вакилларига мўлжалланган.

#### **ТАХРИР КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ:**

**МАРҒУБА МИРҚОСИМОВА** - педагогика фанлари доктори, профессор

**ЗЕБО КАСИМОВА** - педагогика фанлари номзоди, доцент

**АБДИМУМИН РАСУЛОВ** - психология фанлари доктори, доцент

**БАҲРОМ ФАРФИЕВ** - социология фанлари доктори, доцент

**ХЎЖАГЕЛДИ АЛИМОВ** - психология фанлари номзоди, доцент в.б.

**МИРМУҲСИН АКРАМОВ** - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

**ФЕРУЗА РАСУЛОВА** - психология фанлари бўйича PhD, доцент в.б.

**АЗАМАТ НАЗАРОВ** - катта ўқитувчи

**САРВАР ҚАХХОРОВ** - таянч докторант, психолог

**МАЪРУФ КУБАЕВ** – стажёр тадқиқотчи, психолог

«Тарбия ва таълим жараёнининг ижтимоий ҳамда педагогик-психологик муаммолари: таклиф ва ечимлар» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференциясини ўтказиш Ўзбекистон ёшлар иттифоқи муассислигидаги Ёшларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатиш маркази Илмий-психологик Кенгашининг 2022 йил 5 январдаги 01-04/01 сонли мажлис баёни билан мақулланган.

Тўпламда келтирилган маълумотларнинг холислиги ва ишончлилигига мақола муаллифлари масъулдирлар.

## ШАХС РИВОЖЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Марғуба Мирқосимова*  
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси профессори, п.ф.д.*

### АННОТАЦИЯ

Мақолада шахс ривожланишининг педагогик-психологик хусусиятлари, тамойиллари ва мезонлари ёритилган. Муаллиф бугунги педагогика фани тараққиёти инновацион педагогика қонуниятлари билан тамойилларига боғлиқ рўй бераётганлигини асослаган.

**Калит сўзлар:** шахс ривожланиши, ривожланиш тамойиллари, педагогик-психологик хусусиятлар, инновацион педагогика, интеграциялаш, таълим тараққиёти.

### ANNOTATION

The development of students' motivation to study social sciences is associated with the organization of the educational process in the context of the integration of traditional and mixed education and the introduction of methods that activate students in educational practice. An integrated lesson model, its stages and criteria for evaluating the results are recommended.

**Key words:** world education, digitalization process, education system, teaching staff, communicative and professional competences, integration requirements, principles, stages of an integration lesson, recommendations.

### АННОТАЦИЯ

Развитие современной личности связано с организацией учебного процесса в условиях интеграции традиционного и смешанного образования и внедрением методов, активирующих студентов в учебной практике. Также особенностям педагогика-психологической развитие. Рекомендуется механизмы педагогико-психологической развитие современной личности.

**Ключевые слова:** образования, коммуникативные и профессиональные компетенции, интеграция традиционного и смешанного образования, интеграционные требования, принципы, рекомендации.

**Мавзунинг долзарблиги.** Мамлакатимизда маънавий-маърифий жараёнларни ташкил этишнинг яхлит тизимини яратиш, ёшларни маънавий таҳдидлардан ҳимоя қилишнинг ташкилий-амалий ва илмий-тадқиқий жиҳатларини такомиллаштириш, мазкур йўналишда давлат ташкилотлари, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ҳамда хусусий секторнинг ижтимоий ҳамкорлигини самарали йўлга қўйишга катта аҳамият қаратилмоқда. Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида маънавий-маърифий ишларнинг самараси ва таъсирчанлигини ошириш, уларнинг кўлами ва миқёсини янада кенгайтириш, мамлакат аҳолиси, аввало, ёшлар қалбида амалга оширилаётган ислохотларга дахлдорлик ҳиссини кучайтириш, тарғибот-ташвиқот ва тарбия йўналишидаги ишларни илмий асосда ташкил этиш, мазкур соҳага доир илмий ва услубий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш, ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини мустаҳкамлашга қаратилган доимий мониторинг тизимини жорий қилишга, таълим-тарбия самарадорлигини оширишга йўналтирилган инновацион технологиялардан фойдаланишга катта эътибор қаратилмоқда.(1.) Ана шу нуқтаи назардан инновацион педагогиканинг тараққиёт босқичлари, қонуниятлари, тамойиллари ва мезонларини аниқлаштириш **долзарб аҳамиятга эга.** Республикамиз олимларидан О.Мусурмонова, С.Нишонова, Б.Х.Ходжаев, Ш.Олимов, Д.Рўзиева,З.Салиева, Ш.Халилова, Н.Эгамбердиева, Н.Азимова , Н.Ачилов , Б.Джураева , А.Кенжабоев , М.Каххарова, М.Қуроновларнинг тадқиқотларида маърифатпарварлик фазилатини ривожлантириш, педагогик фанларни ўқитиш жараёнида бўлажак ўқитувчиларда педагогик маданиятни шакллантириш, жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит барқарорлигини таъминлаш, “Педагогика” курси мисолида бўлажак ўқитувчи шахсини яхлит ривожлантириш, миллий маънавий мерос асосида университет талабаларида хулқ-одоб фазилатларини тарбиялаш, талабаларни маънавий шакллантиришнинг ижтимоий педагогик хусусиятлари, маънавий маданиятни ривожлантиришнинг педагогик

механизмларини такомиллаштириш, компетенциявий ёндашув асосида бўлажак педагогларни тарбиявий фаолиятга тайёрлаш, талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш масалалари, инновацион педагогиканинг тараққиёт босқичлари, тенденциялари ва хусусиятлари ёритиб берилган. (2.)

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДҲ) мамлакатлари олимларидан В.Байденко, А.Беляева, С.Зильберман, В.Игнатова, И.Исаев, О.Марачковская, Л.Супруновалар олий таълимда инновацион технологиялардан фойдаланиш масалаларини тадқиқ қилган бўлсалар, хорижлик олимлардан К.Андерсон, М.Энтони, Н.Олт, В.Лесниак, Д.Тате, П.Говард кабилар ёшларнинг маънавий шаклланиш истиқболлари, бутун ҳаёт давомида узлуксиз маънавий ривожланиш тизими, маънавий шаклланишнинг психологик ва интегратив моделини, педагогик инновация истиқболларини тадқиқ қилганлар.

**Муаммо таҳлили.** Хўш, замонавий шахс ривожланишининг педагогик-психологик тамойилларини қандай изохлаш мумкин?

1. Таълим-тарбия мақсадларининг янги Ўзбекистонни ривожланиш суръати ва жамият эҳтиёжларига мос бўлиши.

2. Таълим-тарбия мазмуни рақамли педагогиканинг тараққиёти билан уйғун тарзда белгиланиши.

3. Таълим-тарбия сифати педагогик таъсирнинг интенсивлиги ва таълим натижаларининг шаффофлигига асосланиши.

4. Таълим-тарбия методлари интерфаоллик, кооперативликка асосланиши.

5. Таълим-тарбия жараёнини бошқаришда субъект-субъект муносабатлари доирасида коррекцион таъсирнинг жадаллигини ҳисобга олиш.

6. Таълим-тарбия жараёнида рағбатлантириш беш таянч устуннинг виртуал-педагогик назорати ва янги ҳаёт субъектларининг интернал мотивларига боғлиқлиги.

Таълим-тарбия жараёнида рағбатлантириш беш таянч устунининг педагогик назоратини талаб қилиш деганда биз **мактабгача таълим ва мактаб таълими, олий ва ўрта махсус таълим тизими** ҳамда **илмий-маданий муассасалар** бўлғуси **РЕНЕССАНСНИНГ ТЎРТ УЗВИЙ ҲАЛҚАСИ**



эканлигини; боғча тарбиячиси, мактаб муаллими, профессор-ўқитувчилар ва илмий-ижодий зиёлилар эса янги **УЙҒОНИШ ДАВРИНИНГ ТЎРТ ТАЯНЧ УСТУНИ, Ота-оналар – БЕШИНЧИ УСТУНИ** эканликларини назарда тутаётимиз. Шу боис, замонавий шахсни ривожлантиришда миллий ва умуминсоний маданиятга аксеологик муносабат, ижтимоий мослашув (фаоллик ва мобилликни)ни тақозо этади; мактабгача; умумий ўрта ва ўрта махсус; профессионал ва олий таълимнинг ўзаро узвий ва мустахкам боғлиқлигига таяниб, ўз-ўзини ривожлантириш ва шахс ҳаётини тажрибасига асосланган (витаган) таълимнинг устуворлигига эришишни кўзда тутади. Бунинг учун жамиятни педагогизациялаш, миллий ва умуминсоний қадриятларни ўзлаштириш; фуқаролик ва ижтимоий фаолликка эришиш; прагмативлик, креативлик, инновацион йўналганлик ҳамда мустақил таълимнинг устуворлиги натижасида анъанавий ва медиа таълимнинг устунлигига эришилади, рағбатлантириш, қўллаб-қувватлаш натижасида замонавий шахс ривожини таъминланади.

**Хулоса.** Мотив, эҳтиёж ва установкаларнинг барқарорлиги; ўз-ўзини таҳлил этиш ва баҳолай олиш; янгиликларга мослашувчанлик; ички куч ва имкониятларига ўзида ишончининг мавжудлиги; когнитив ва психологик тўсиқларни енгиб ўтиш; педагогик-психологик рискларга тайёрлик – психологик мослашувчанликни юзага келтиради. Мулоқотчанлик: самарали мулоқотга киришиш техника ва технологиясига эгалик; эмпатик ва суггестив қобилиятга эгалик; ижобий психологик муҳитни қарор топтириш; инсонпарвар, толерант ва демократик муносабатларни йўлга қўйиш - коммуникатив мослашувчанликка эришишда муҳим аҳамият касб этади. Ўқитувчининг ижтимоий мақоми, роли ва функцияларини чуқур англаши; ўқув, педагогик ва ижтимоий фаолиятнинг хилма-хил турларига иштирок этиш тажрибасига эгалик; ижтимоий талабларга онгли муносабат; касбий-ролли хулқ-атворни ёрқин намоён этиш; шахсий ўз-ўзини таъминлашда қобилиятлилик кабилар ижтимоий мослашувчанликни юзага келтиради. Педагогик касбининг обрўси ва нуфузини оширишга интилиш, педагогик касбига қадриятли муносабатнинг таркиб топганлиги; мунтазам

касбий ўз-ўзини ривожлантириш истаги; юксак касбий-ахлоқий сифатларга эгалик; педагогик касбидан қониқиш ҳисси; педагогик рефлексиянинг ривожланганлиги – касбий педагогик етукликни таъминлайди. Мазкур мезонлар нафақат инновацион педагогика тамойилларини, балки бўлғуси педагогларнинг замонавий касбий сифатларини ҳам тавсифлайди. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Ёш авлоднинг ижодий ва интеллектуал салоҳиятини қўллаб-қувватлаш ва рўёбга чиқариш, болалар ва ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, уларни жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш” (3.) каби муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бу эса илғор хорижий тажрибаларни, инновацион таълим технологияларини республика миллий таълимига кенг жорий этиш натижасида замонавий, яратувчи шахсни шакллантириш механизмларидан амалий фойдаланишни тақазо этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Adorno T. Aspects of Sociologu. Beacon.-2003.-210 p.
2. Б.Х.Ходжаев. Модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ўқувчиларда тарихий тафаккурни ривожлантириш. Монография.-Т.: 2015.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон.

---

## **ШАХС ТАРБИЯСИДА САНОГЕН ТАФАККУРНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ**

*Абдурахмонова Зухра  
Низомий номидаги ТДПУ Психология кафедраси доцент в.б. PhD*

**Аннотация:** ушбу мақолада тафаккур ва саноген тафаккурнинг аҳамияти, шахснинг сифатида тараққий этишида соғлом фикрлашнинг ижтимоий психологик хусусиятларининг олимлар томонидан берилган илмий қарашлари келтирилган.



**Калит сўзлар:** шахс, фикр, тафаккур, саноген тафаккур, мотив, фаолият, хулқ-атвор, фаоллик, комиллик, билим, кўникма.

Бугунги кунда илм-фан ва амалиёт шиддат билан ривожланаётган даврда хорижда ва мамлакатимизда инсон психикаси, унинг тафаккури ҳам рухий ҳолатини соғломлаштириш мақсадида бир қанча дастурлар амалга оширилмоқда. Бу борада бир қатор илмий тадқиқот ишлари олиб борилиб, шахснинг психологик ресурсларини ривожлантиришга қаратилган концепциялар ишлаб чиқилмоқда, бу эса ўз навбатида шахслараро муносабатлар, мулоқот, бошқарув, меҳнат каби фаолиятларига ижобий таъсирини кучайтиришга хизмат қилади. Психолог олимларнинг фикрига кўра ана шундай муҳим шахсий ресурслардан бири саноген тафаккур бўлиши мумкин.

И.П.Павлов (1849-1936) рус академиги таъбири билан айтганда - фикрлаш туфайли инсон «борлиқнинг ҳокимига» айланган бўлса, хайвонлар абадий «табиат кули» бўлиб қолавердилар. Шунинг учун тафаккур воқеликни бавосита, сўз ёрдами билан умумлашган тарзда акс эттириш жараёни ҳисобланади. Атроф-муҳитдаги ҳодисанинг ташқи ифодаси сезги, идрок, тасаввур процессларида ёрқин, образли тарзда, турли аломатлари, фазовий жойлашиши ва ҳаракатида акс этади. Тафаккурда эса инсон уларнинг мураккаб боғланишларини англаб етади [7;8-б.]. Демак, тафаккур – инсон психик фаолиятининг юксак формаси бўлиб, инсон тажрибасида, сезги, идрок ва тасаввур асосида вужудга келган ва тараққий қилиб боради.

Ж.Пиаженинг қарашларига кўра, шахснинг ривожланиш даврларидан 3-давр яъни расман операция даври(11-15 ёшни) айнан ўсмир ёшли ўқувчининг комилликка, мустақилликка, кенг тафаккур юритишга ўтиш босқичидир. Комилликни шакллантиришда аввало, саноген тафаккурни ривожлантириш масаласи қўйилади. Комиллик- ўқувчини ўз саломатлигини асраш ва ўз фаолиятини жамият равнақи, эзгулик сари йўналтириш, шунингдек замонавий ҳаётда мавжуд бўлган турли тиббий, экологик, ижтимоий, иқтисодий таҳдидлардан ўзини муҳофаза қилиш билими ва малакалари мажмуасидан иборатдир[8;30-б.].

Инглиз олими А.Адлернинг (1870-1937) фикрича, инсон ҳаётининг асосий қонуни сифатида шахснинг устунлик ва афзалликка интилишини кўрсатиш мумкин. Бу интилишнинг конструктив йўналишда қўлланиши фаолиятни умумжамоа манфаатидан келиб чиқиб, амалга оширишга хизмат қиладиган шахслар фаолиятида намоён бўлади[1;23-б.].

Рус психолог олими П.Я.Гальпериннинг (1902-1988) фикрига кўра, тафаккур бу ориентирлаш - тадқиқот фаолияти, ориентировка жараёни, яъни ориентировка — бу жараён, ориентировка — фаолиятдир. Олим психология фани интеллектуал масалаларни ечишда субъектнинг тафаккурга ориентировка қилиш жараёнини ўрганишдан иборат деб тушунтиради [4;145-б.].

Немис психиатри К.Леонгарднинг (1903-1988) шахс типологиясига кўра саноген тафаккури ривожланмаган инсонлар - ўзини-ўзи бошқара олмаслик, тафаккур қилмаслик хоҳиш ва интилишлари юзасидан назоратнинг сустлиги, физиологик майлларнинг устуворлиги бу типдаги шахсларда уйғунлашиб кетиши ҳақида фикр юритади. Уларга инстинктивлик, импульсивлик, кўполлик, миждовлик, бадқовоқлик, беадаблик, орсизлик, кўпол муносабатларга мойиллик хосдир. Бундай кишилар турли низо ва мунозараларни келтириб чиқариб, уларнинг фаол иштирокчиси бўлишади. Сержаҳл, серзарда, жиззаки бўлиб тез-тез иш жойларини ўзгартириб туришади, жамоадагилар билан чиқиша олишмайди”- деб уларга таъриф беради[6;54-б.].

А.В.Петровский (1924-2006) “Тафаккур - ижтимоий муҳит асосида вужудга келган, ижтимоий-муносабат бўлиб, нутқ билан чамбарчас боғлиқ, муҳим бир янгилик қидириш ва очишдан иборат психик жараёндир, бошқача қилиб айтганда, тафаккур воқеликни анализ ва синтез қилишда уни бевосита ва умумлаштириб акс эттириш жараёнидир», -деган фикрни илгари сурган.

А.В.Петровскийнинг қарашларидан маълумки, шахснинг тараққий этиши, соғлом бўлиши, саноген тафаккурининг ривожланишида интериндивид (фаолиятда шахсларнинг субъектив муносабатлари) шахслараро муносабатларнинг таъсири муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унда метаиндивид яъни (атрофдаги кишиларнинг “ҳиссаси”) ижтимоий муҳит катта таъсир кўрсатади [8;13-14-б.].

Ю.М.Антонян (1933) тадқиқотларида инсондаги патоген ғоялар муайян воқеа-ҳодиса, нарса-буюмлар ёки ижтимоий тузилмаларга йўналтирилиши, субъектнинг фрустрацияси оқибатида алкоголизм, гиёҳвандлик ёки суицид каби вайронкор ҳаракатлар қилишга ундашени кўрсатиб беради[1]. Бинобарин, шахс ўз саломатлигини (жисмоний, рухий, маънавий) сақлаши, соғлом турмуш тарзини қўллаб-қувватлаши зарурлиги шубҳасиз. Бунда саноген тафаккурни ривожлантириш учун ўсмир ёшидаги ўқувчиларда учраши мумкин бўлган патоген тафаккур хусусиятларини ривожланишини олдини олиш лозим.

Тафаккурнинг аҳамияти тўғрисида Ўзбекистонда психология фанининг илк асосчиларидан бўлган устозимиз М.Давлетшин куйидаги фикрни билдиради: “...Одам кўзининг алоҳида суратда тузилганлиги одамнинг олами билиш имконияти учун мутлақ чегара эмас. Бизнинг кўзимизга бошқа сезгиларгина кўшилиб қолмай, балки шу билан бирга, тафаккуримизнинг фаолияти ҳам кўшилади”[5;43-б.].

Профессор Э.Ғозиев юқорида номлари келтирилган психолог олимлар томонидан тафаккурга берилган таърифларга таянган ҳолда яхлит таърифни келтириб, куйидагича изоҳ берган: “Тафаккур-атроф-муҳитдаги воқеликни нутқ ёрдами билан бевосита, умумлашган ҳолда акс эттирувчи психик жараён, ижтимоий сабабий боғланишларни англашга, янгилик очишга ва прогноз қилишга йўналтирилган ақлий фаолиятдир[ 13;15-б.].” Олим ўз фикрларини давом эттириб: “Тафаккур — инсон ақлий фаолиятининг, ақл-заковатининг, онгли хатти-ҳаракатининг юксак шакли ҳисобланади. Тафаккур теварак-атрофни, ижтимоий муҳитни ҳамда воқеликни билиш қуроли, шунингдек инсоннинг кенг кўламдаги фаолиятини оқилона амалга оширишнинг асосий шарти саналади. Тафаккур жараёнида инсонда фикр, мулоҳаза, ғоя, фараз кабилар вужудга келади ва улар онгда тушунчалар, ҳукмлар, хулосалар шаклида ифодаланади” – деб изоҳлаган.

Э.Ғозиевнинг фикрига кўра: - “Тафаккурнинг мазмундорлиги кўп жиҳатдан эмоционал кечинмаларга — ҳайратда қолиш, таажжубланиш, янгиликни ҳис қилиш кабиларга боғлиқ. Мазкур ҳисларнинг пайдо бўлиши тафаккурнинг кўтаринки руҳда кечишини таъминлайди, кишига завқ-шавқ, мароқ бағишлайди.

Мулоҳазалар, фикрлар, тушунчалар, ҳукм ва хулоса чиқаришларнинг чинлиги (ёлғонлиги), тўғрилиги (нотўғрилиги), адекватлиги (ноадекватлиги) инсонда ишонч ва шубҳаланиш хисларининг мавжудлиги билан белгиланади. Кишилар учун қувончли, ёқимли, мароқли кайфият ва кечинмалар фикр юритиш жараёнларини тезлаштиради, фикрлаш суръатини кучайтиради. Аксинча, нохуш кечинмалар, хафахонлик, қўрқинч, зўр беришлик (стресс) сингари эмоционал ҳолатлар мулоҳаза юритишни сусайтириши, унинг маҳсулдорлигини камайитириши мумкин. Эмоционал ҳолатлар фикрнинг йўналишига бевосита ижобий ва салбий таъсирини ўтказиб туради”[13].

Шахснинг ички ва ташқи тана аъзолари фавқулоддаги ҳодисалар ва вазиятларга мослашган эмас (стихия, ҳалокат, тасодиф, стресс, аффеckt, хавф-хатар-риск). Агар шахсда саноген тафаккур ривожланмас экан, унда турли вазиятлардан қўрқиш билан боғлиқ ҳис-туйғуларни олдиндан сезиш, пайқаш, курашиш, енгиш каби шахсий имкониятлар мавжуд бўлмайди. Шунинг учун ҳаётга энди қадам қўяётган ўсмир ёшдаги ўқувчиларда саноген тафаккурни ривожлантириш ҳар қачонгиданда долзарб аҳамият касб этади. Мактаб амалиётчи психологлари, ўқитувчилар, ота-оналар ва кенг жамоатчилик бу масалага илмий-психологик нуқтаи назардан ёндашишлари шарт.

Соғлом тафаккурда намоён бўладиган тафаккурнинг тезлиги хусусан фавқулодда вазиятларда керак бўлади, бирор қарорни жуда қисқа муддат ичида қабул қилиш талаб қилинади. Фикрнинг тезлиги мактабда ўқувчиларга кўпроқ зарур бўлади. Масалан, айрим ўқувчиларни доскага чиқариб янги масалани ечиш сўралганда, ҳаяжонланиб, бутун синф олдида ўзларини йўқотиб қўядилар. Бу салбий эмоциялар гўё уларнинг тафаккурини тормозлаб қўяди. Фикр жуда секин ва тез-тез муваффақиятсиз ишлай бошлайди. Айрим ўқувчиларнинг ана шу индивидуал хусусиятларини, уларнинг ақлий қобилиятларини тўғри баҳолаш билан махсус ҳисобга олиш зарурдир.

Хулоса ўрнида таъкидлаш мумкингики, саноген тафаккур самараси - у илм, вазият ва амаллардан иборат. Лекин фикрнинг хос самараси илм бўлиб, ундан бошқа нарса эмас. Агар қалбда илм ҳосил бўлса, қалб ҳолати ўзгаради. Қалб

ҳолати ўзгарса, аъзолар фаолияти ҳам ўзгаради. Саноген тафаккур барча яхшиликлар учун асос ва калитдир. Инсоният хавфсизлиги, давлатларнинг миллий манфаатлари, келгуси авлодларнинг барқарор келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарга айланганлиги ҳам, жамият келажаги бўлган ўсмир ёшидаги ўқувчиларнинг саноген тафаккурини ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятларини тадқиқ қилиш ижтимоий талаб ҳисобланади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. СПб., 2003.-Б.23.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. –С.665.
3. Гальперин П.Я., психологии творческого мышления// Вопросы психологии. Г.1982 – № 5
4. Давлетшин М.Г., Абдурахмонов Ф.Р. “Қадимги Шарқ мамлакатларида психологик фикр тараққиёти”. – Т.: 1995. –Б.26.
5. Леонгард К. Акцентуированные личности (сборник). Киев. 1981.-Б.23.
6. Петровский В.А. Психология неадаптивной активности. – М.: Российский открытый университет, 1992. – С.222.
7. Ғозиев Э.Ғ.“Тафаккур психологияси”Т.:“Ўқитувчи»нашриёти, 1990.-Б.15.

---

## ТАСАВВУФДА МАЪРИФАТ ТУШУНЧАСИ

*Алимов Хўжасакелди Мустафоевич  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
“Дин психологияси ва педагогика” кафедраси доценти в.б.,  
психология фанлари номзоди*

Маърифат илмини ботиний илм дейилади. Бошқача айтганда, илм икки хил бўлади: зоҳирий илм ва ботиний илм. Зоҳирий илм деганда ўқиш, ёзиш ва ўрганиш билан эгалланадиган ақлий ва нақлий илм тушунилади. Ботиний илм эса тоат-ибодат, зикр, риёзат, мужоҳада, тафаккур, тақво ва ҳ. лар натижасида Аллоҳ

бандасига эҳсон қиладиган илмдир. Усмон Турар ботиний илм тўғрисида шундай деб ёзади: “Ҳоллар илми бўлган ботин илми одоб илми бўлган зоҳирий илм талабларининг бажарилишидан сўнг Ҳақнинг лутф этилиши билан қозонилади. Ривоят илмини ўрганиб, у билан суннатга мувофиқ амал қилган кишини Аллоҳ дароят (заковат, зийраклик) илмига ворис қилади ”Билганига амал қилганга Аллоҳ билмаганларини ўргатади” ҳадиси шунга ишорадир. Зоҳирий илм билан ботиний илм бадан билан руҳ кабидир, бир-бирини тақозо қилади, тўлдиради”[7.142].

Ботин илмини тасаввуф аҳли бошқа номлар билан ҳам аташадилар: маърифат, ирфон, илми ладун, илми ваҳбий, илми асрор, ғайб илми, мавҳиба илми, фаросат, илми мукошафа, илми ҳузурий ва ҳ.

Тасаввуф аҳли маърифат босқичларини учга бўлишади: илмал яқин, айнал яқин ва ҳаққал яқин. Илмал яқийн ақл-идрок ёрдамида ҳужжат ва далилларга асосланган билимдир. Унинг яна бошқа номи ҳам бор, уни “муҳодара” ҳам дейилади. Муҳодара солиқ қалбида зикр ёрдамида пайдо бўладиган бир лаҳзалик кашфий билим ҳисобланади. Бу даража олимларга ва янги солиқларга хос бўлиб, бунда улар шаръий ва диний билимларни, ҳукмларни қабул қилиб, Аллоҳга ва унинг сифатларига ишониш билан чегараланади. Бу маърифатнинг энг паст даражаси ҳисобланади.

Айнал яқинда билим олиш учун далил-исбот шарт эмас, балки билим кашф йўли билан олинди. Инсонда ёки тажриба ёрдамида қўлга киритилган билимга эҳтиёж йўқ. Фақат кўнгли пок банд билан ғайб олами ўртасидаги пардалар кўтарилади (кашф) ва бунга ўрта ҳолдаги солиқлар (мутаваасситлар) эришадилар.

Ҳаққал яқин банданинг сифати Ҳақ сифатида йўқ бўлади, илм, шухуд ва ҳол жиҳатларидан боқий бўлишдир. Бу даражада “яқин”ни ўйлашдан қутилиш ва ҳаққал яқинда фано бўлмоқ, “Аллоҳнинг мутлақ вужудининг нурига эга бўлмоқ даражасидир”[7.180].

Усмон Турар бу даражаларни қуйидаги мисол билан тушунтиришга ҳаракат қилади: “Каъбатуллоҳни ҳеч кўрмасдан, бошқалар айтган маълумот орқали у ҳақда пайдо бўлган билимга “илмал яқин”, шахсан Маккага бориб, Каъбани



кўриш орқали олинган билимга ”айнал яқин”, Каъба ва уерда қилинган тавоф ва ибодатлар замиридаги илоҳий сирлар ҳақида Аллоҳ томонидан банданинг кўнглига солинган билимга “ҳаққал яқин” дейилади”[7.144]. Тасаввуф таълимоти ва амалиётида бу даражаларнинг бошқа номлари ҳам бор: улар қуйидагилар: “илмал яқин” – “муҳодара” деб аталади; “айнал яқин” – мукошафа деб аталади; “ҳаққал яқин” эса “мушоҳада” деб аталади.

Имом Ғаззолийнинг фикрига кўра, илоҳий билим ҳам икки хил йўл билан амалга оширилади: ваҳий йўли ва илҳом йўли (“Ваҳий – Аллоҳ томонидан пайғамбарларига бевосита фаришталар ёрдамида юбориладиган илоҳий кашф”[8.288]. “Илҳом – илоҳий файз йўли билан қалбда пайдо бўладиганмаъно ва ҳақиқатлар”[10.223]. Олимнинг таъкидлашича, мукамал ва илоҳий руҳ ўқувчидай ва Илоҳий ақл ўқитувчидай бўлиб таълим жараёни амалга ошади. Ўқувчи эса ўқимасдан, шуғилланмасдан барча билим ва ҳақиқатларни ўзлаштиради. Бу ваҳий йўли орқали билим олишдир. “Илҳом англашнинг шундай бир турики, бунда инсоннинг индивидуал руҳи Илоҳий руҳдан ўзининг мусаффолиги баробарида имконият ва қобилиятларга эга бўлади”[9.205]. Ваҳий ёрдамида қўлга киритиладиган билимлар расулларга берилса, илҳом ёрдамида қўлга киритиладиган билимлар авлиёларга берилади.

Имом Ғаззолий ўзининг “Илм китоби” да мукошафа ҳақида шундай деб ёзади: “у ҳиссий аъзолар билан идрок қилиб бўлмайдиган илоҳий сирлардан бир сирнинг, яширин неъматлардан бир неъматнинг номидир. Гоҳида у “руҳ”, гоҳида у “нафси мутмаинна” (хотиржам нафс) дейилади. Шариат уни “қалб” деб номлайди, чунки у илоҳий сирнинг уловидир. Унинг воситаси ила бутун бадан ўша латофатга бир босқич вазифасини ўтайди. Бу сирнинг пардаси фақатгина мукошафа илми билан очилади. Мукошафа илмидаги ўша сирнинг пардасини кўтаришга, уни очиқ зикр қилишга изн берилмаган”[3.133-134 бетлар].

Имом Ғаззолий бу ўринда қалбга “илоҳий сирлардан бири, илоҳий неъматлардан бири” деб баҳо беради ва баданни ўша латофатга (қалбга – Х.А.) бир босқич сифатида кўради. Энг муҳими – бу сирнинг пардаси мукошафа орқали очилиши ва бу очилган сирни яширин сақлаш лозимлигидир.

Абдуллоҳ ал-Ансорий кашф ва мукошафани бевосита илоҳий нурнинг бошланиши, деб ҳисоблайди. Унинг таснифи бўйича, кашф “ишончлилик” даражаси (якийн)га етишишнинг белгиси сифатида қаралади. Яқин солиқни борлиқ ҳақиқатларини мутлақо англашга етиб боради. Унинг олдида илоҳий тажалли пайдо бўлади. Бу ҳолат гўё қуёшнинг чиқишига ўхшайди[6].

Тасаввуф аҳлининг таъкидлашича, кашф ва мукошафа ҳолатлари солиққа “Илоҳий қудрат” (жабарут)нинг ва “Илоҳий ҳокимият” (малакут) нинг олий соҳаларига олиб боради. Бу ҳолатда ҳақиқат солиқнинг қаршисида бутун улуғлиги билан кўзга ташланади.

Шу билан бирга оддий авомнинг онги бу дунёнинг ўзгарувчан ҳодисалари билан алданиб қолади ва уларнинг идроки борлиқнинг ҳақиқатини англаш имкониятидан маҳрум. Шунинг учун тасаввуф аҳли кашф ҳолатида қалбида кечган ҳолатларини, сирларини фақат хос аҳлига, яъни “ҳол” кишиларига айтади. Аҳмад Яссавий ҳам ўзининг “Ҳикматлар”ида “ҳол” илмини “қол” аҳлига айтиш мумкинмаслиги ҳақида ёзади.

Кашф бўйича бевосита асар ёзган ал-Хужвирий (“Кашф ал-маҳжуб”) кашф таълимотини ривожлантиради. Унинг фикрига кўра, солиқдан яширин нарсани, яъни ҳақиқий реалликни очиш “пардаларнинг секин-аста очилиши” натижасида пайдо бўлади. Бу дунёдаёқ “пардаларнинг очилиши” солиққа бир олам завқ-шавқ бағишлайди, солиқ ҳузур-ҳаловат топади. Бу ҳолатни айрим инсонларнинг жаннатда Аллоҳнинг содиқ дўстларига инъом қилинадиган мўъжизаси ҳисобланиб, бу мақомга етган кишилар ўз шогирдларининг фикрларини ўқиш ва келажакни башорат қилиш имкониятига эга бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, билишнинг тасаввуфона назариясига биноан билиш икки йўналишда амалга оширилади ва уларнинг иккаласи ҳам сўфийнинг маънавий-руҳий тараққиётида муҳим роль ўйнайди. Билимсиз тасаввуфга кириб бўлмайди. Жоҳилият йўли билан тасаввуф йўли ҳеч қачон тўқнаш келмайди, улар бир-бирига қарши тушунчалардир.

Шундай қилиб, биз юқорида тасаввуф таълимоти ва амалиётида муҳим ҳисобланган “маърифат” тушунчасини, унинг турларини, кашфни, унинг диний ва психологик томонларини таҳлил қилдик.

### Адабиётлар рўйхати

1. Аҳмад Зиёуддин ал - Кумушхонавий. Жомеъ ул-мутун. – Т.:”Моварауннаҳр”, 2000. - 313 б.
2. Большой психологический словарь. – СМб. Прайн – ЕВРОЗНАК, 2004. – С. 672-б.
3. Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Ихёу улумид-дин. (Дин илмларининг жонлантириш) Илм китоби. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2003. – 231 б.
4. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / А.Д. Кныш; пер. с англ. М.Г. Романов. – СПб.: Издательство «ДИЛЯ», 2004 –С.46 4.
5. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К.1. – Т.: “Ёзувчи”, 1996. – 272-б. -36-бет.
6. Лил Вилкоккс. Суфизм и психология. – М. – СПб.: “ДИЛЯ”, 2005. – С. 254.
7. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: “Истиклол”, 1999. – 180 б.
8. Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе. Пер. с англ., А.А. Ставиской, под редакцией и с предисл. О.Ф. Акимушкина. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1989. – С. 328.
9. Хисматулин А.А. Суфизм. – СПб.: “Азбука-классика”; Петербургское Востоковедение, 2003 –С.224.
10. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2004. – 263-б.

## YOSH HARBIY XIZMATCHILARNING XIZMAT FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA TEMPERAMENTLARINI HISOBGA OLISHDAGI MAVJUD MUAMMO VA KAMCHILIKLAR

*Shermatov Fayzullo Toshtillayevich*  
*O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy insituti boshlig'ining o'rinbosari, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik*

“Har bir jangda muvaffaqiyatning to‘rtidan uch qismi axloqiy - ruhiy omil va faqat to‘rtidan bir qismigina moddiy omilga bog‘liqdir”.

*Faransuz qo'mondoni Napoleon Bonapart*

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodi hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning maqsadi **“Inson qadri uchun”** tamoyili, uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta‘minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Ma‘lumki, **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”** tamoyiliga asosan rivojlanishni harakatga keltirishda va insonlarning yashash tarzida ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazishda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy yangilanishning muhim subekti bo‘lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Har qaysi davlat, har qaysi millat va xalq bugungi hayotini va yorug‘, farovon kelajagini qurar ekan, avvalambor, turli yovuz kuchlardan, yomon illatlardan va harakatlardan o‘z xavfsizligi va chegaralari daxlsizligini, tinch va osuda hayotini himoya qilish va mustahkamlashga alohida e‘tibor berishi zarur ahamiyatga egadir. Uni ta‘minlash maqsadida davlat o‘zining Milliy armiyasini tuzadi. [1, 5-7-b.]

Darhaqiqat Milliy armiyaning o‘zagini shartnoma asosidagi ofitser va serjantlar tashkil etib harbiy jamoalarni o‘zaro birgalikda jipsligini ta‘minlashda harbiy psixologiya va sotsiologiyaning o‘rni katta ahamiyatga egadir. Bunda temperamentning o‘ziga xos qiziq jihati shundaki, insonlar tabiatan bir-birlaridan farq qiladilar. Har bir insonning psixikasi o‘ziga xos. Bu o‘ziga xoslik uning biologik tuzilishi bilan birga

ijtimoiy tuzilishiga ham bog‘liq. Biologik o‘ziga xos tuzilishining asosiy jihati bu uning temperamenti hisoblanadi.

*Temperament insonni boshqalardan farqini ko‘rsatuvchi eng umumiy o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar bilan muloqotda bo‘lib, ularni kuzatib shu narsaga guvoh bo‘lish mumkinki, ularning ba‘zilari xotirjam, boshqasi harakatchan, uchinchisi kamgap va bosiq, to‘rtinchisi quvnoq bo‘lishadi. Ular o‘rtasidagi qanday tafovut ular temperamentlaridagi har xillik bilan izohlanadi. (Temperament tushunchasi lotincha «temperamentum» so‘zidan olingan bo‘lib, «aralashma» yoki «qismlarning nisbati» degan ma‘noni bildiradi). Inson temperamentini tashkil qiluvchi uchta tuzilmani ajratib ko‘rsatish mumkin: insonning umumiy faolligi, uning jismoniy harakatchanligi va emotsional darajasi.*

*Tashqi ta‘sir natijasida kishida bo‘ladigan ruhiy qo‘zg‘alishlarning kuchi va tezligi hamda shaxsning harakat tezligida namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyat – temperament deb ataladi.*

*Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta‘limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o‘zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a‘zolaridagi suyuqliklarning turlicha nisbatda joylashuviga bog‘liq. Gippokrat ta‘biricha, inson tanasida to‘rt xil suyuqlik (xil) mavjud bo‘lib, ular*

**o‘t yoki safro (yunoncha chole),**

**qon (latincha sanguis yoki sanguinis),**

**qora o‘t (yunoncha melas «qora», chole «o‘t»),**

**balg‘am (yunoncha «phlegma») kabilardan iboratdir.**

Ya‘ni:

1) **o‘tning xususiyati** – quruqlikdir, uning vazifasi – tana a‘zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quriq tutishdir;

2) **qonning xususiyati** – issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir;

3) **qora o‘tning xususiyati** – namlikdir, uning vazifasi –badan namligini saqlab turishdir;

4) **balg‘amning (shilimshiq moddaning) xususiyati** – sovuqlikdir, uning vazifasi – badanni sovutib turishdan iboratdir. Gippokrat ta‘limotiga muvofiq, har bir insonda

*shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (latincha temperamentum) lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi, xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, melanxolikda qora o't, flegmatikda balg'am (shilimshiq modda) ustun bo'lishi ta'kidlanadi.*

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda. [2, 68-83-b.]

Turli tarbiyaviy tadbirlarni, ishlarni tayyorlash va o'tkazishda harbiy xizmatchilarning toifalari, yosh xususiyatlari, shaxsiy fazilatlari, xohishlari, qiziqishlari, imkoniyat va sharoitlari, qobiliyalarini hisobga olish bilan birga ularning temperamentlarini ham hisobga olish, ular bilan samimiy munosabat o'rnatishda samarali rol o'ynaydi va imkoniyatlar yaratadi. Buning uchun tarbiyachilar harbiy xizmatchilarning temperamentlari haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Shuning uchun quyida mavjud bo'lgan to'rt temperament haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz:

**Sangvinik** – bu sezilarli psixik faollikka ega, atrofda bo'layotgan voqealarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarini o'zgartirishga intiluvchi, muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklarni nisbatan engil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo'lgan kishi. Ular yangi harbiy xizmatchilar bilan tez til topishadigan, bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko'nikadigan, bir turda bajariladigan ishlarni yoqtirmaydigan, yangi sharoitga osonlik bilan ko'nikadigan xushchaqchaq, harakatlari shiddatli, nutqi tez, kelajakka ishonch bilan qaraydigan, so'zini aniq va ma'noli qilib, imo-ishoralar bilan gapiradigan harbiy xizmatchilardir.

Ular yuqori lavozimlarga intiluvchan, juda faol, har bir narsaga qattiq kulaveradi, yolg'on gaplardan jahli chiqadi va darrov e'tiroz bildiradi. Juda sezgir bo'lishiga qaramay, kuchsiz ta'sirni seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatda, imtizomli, o'zini tiya biladi, boshqara oladi. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi.



Xayolati (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan; tashqi ta'sirlarga hozirjavob va hokazo.

**Flegmatik** – bu yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimiy va chuqur his-tuygʻularga ega, harakatlari va nutqi bir xil maromda boʻlgan, ruhiy holati tashqi tomondan ifoda etiladigan harbiy xizmatchilardir. Flegmatiklar – ta'sirlanuvchanligi, sustligi bilan ajralib turadilar, bir turdagi ishdan ikkinchi turdagi ishga sekinlik bilan koʻchadilar, faolliklari kam, yangi sharoitga qiynchilik bilan maslashadilar. Flegmatiklar chidamliligi, matonati, oʻzini tuta bilishi bilan ajralib turadi. Harakatlari va nutqlari sust, koʻngilsiz hodisa yuz berganda osoyishtalikni buzmaydilar. Ular sabr-toqatli, chidamli boʻlib, soʻzlaganda xotirjam, oʻzga shaxslar bilan hayajonlanmay gapiradilar. [3, 48-51-b.]

Ular his-tuygʻusi (emotsiyasi) kam oʻzgaruvchan, shunga koʻra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Koʻngilsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda boʻladi. Vazmin, kam harakat. Imo-ishorasi, mimikasi koʻzga yaqqol tashlanmaydi. Lekin sergʻayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat sur'ati sust. Farosati uncha yaxshi emas. Diqqatni to'plashi sust, qotib qolgan. Diqqatni koʻchirish qiyin. Introvertirovanlashgan, kam gap, ichimdagini top deydiganelardan. Yangilikni qabul qilishi murakkab. Tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob qaytaradi.

**Xolerik** – bu juda gʻayratli, ishga juda ehtiros bilan berila olish qobiliyatiga ega boʻlgan, tez va shiddatli, qizgʻin emotsional “portlash” va kayfiyatining keskin oʻzgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan harbiy xizmatchilardir. Xoleriklar – koʻtarinki ruhda ishlay oladigan, qarshiliklarni eng oladigan shaxslar boʻlib, ularning ishlash zavqi, kayfiyatining buzilishi bilan tez oʻzgarishi mumkin. Xoleriklar serjahl, oʻzini yaxshi koʻradigan, tez gapiradigan shaxslar boʻlib, ular boshqalardan gapining ohangi oʻzgaruvchanligi bilan ajralib turadilar. Xoleriklarning vazminlik darajasi xuddi sangviniklarnikidek boʻladi. Tarbiyachi va boshqalarga nisbatan oʻzini toʻgʻri tutadi.

Ular juda faol va reaktiv. Koʻpincha reaktivligi faollikdan ustun keladi. Betoqat, serzarda, tinimsiz. Sangvinlikka qaraganda silliqroq, lekin koʻproq qotib qolgan.

*Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat'iylik mavjud. Biroq diqqatni bir joyga to'plashda qiynaladilar.*

**Melanxolik** – bu ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan harakatlar qiladigan va sekin ovoz chiqaradigan shaxslardir. Melanxoliklar tez toliqadigan va o'ziga ishonmaydigan, tashvishsiz, lekin juda sezuvchan, ehtiyotkor va hushyor, nihoyatda arazchan, juda oz kuladigan, faoliyati sust, tortinchoq, kam g'ayrat, arziyas sabablarga ko'ra ko'zlaridan yosh oqib ketadigan, yangi kishilar bilan qiyinchilik bilan til topishadigan shaxslardir. Ular sharoit, ya'ni vaziyat o'zgarsa, qiyinchilik tug'lsa, o'zlarini panaga olib turishadi. Tarbiyachi melanxolik harbiy xizmatchining faoliyatidagi kamchiliklari uchun unga nisbatan yomon munosabatda bo'lsa, urishsa uning ruhini tushirib yuboradi va oqibatda bu shaxs o'z kuchiga shubha bilan qaray boshlaydi.

Ular tortinchoq, g'ayratsiz. Arazchan, xafaxon. Jimgina yig'laydi, kam kuladi. qat'iyli va mustaqilligi past. Tez charchaydi. Dangasa, diqqati barqaror. His-tuyg'usi sekin o'zgaradi.

**Xulosa o'rnida**, yuqorida keltirilgan temperamentlar haqidagi ma'lumotlar umumiy holda berilgan bo'lsa-da, komandir va boshliqlar o'z qo'l ostidagi harbiy xizmatchilarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishlarida qo'l kelishi mumkin. Ammo harbiy psixologlarning ta'kidlashicha, har bir kishida temperament yakka tartibda uchramaydi, ular albatta biri ikkinchisi bilan uyg'unlikda uchraydi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarni lavozimlarga va mutaxassisliklarga tayinlashda albatta harbiy xizmatchining temperamentini inobatga olish zarur ayniqsa aynan bir vazifani bajaruvchi ekipaj, seksiya va guruhlarni tuzishda o'zaro bir-biriga mos temperayentli harbiy xizmatchilardan iborat jamoani shakllantirish yuqori natijalarga erishishga katta yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aynan aviatsiya, artilleriya, tank, havo desant qo'shinlarining ekipajlarni shakllantirishda harbiy xizmatchilarning temperayentlarini o'rganish asosida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi // ma'ruzasidan. 2022. 5-7 b.

[2] Shermatov F.T., Bo'lajak ofitserlarda kasbiy zo'riqishlar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik va o'ziga xos jihatlari: nazariya va amaliyot // Monografiya. 2021. 69-83 bet.

[3] Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O'quv qo'llanma. 2021. 48-51 bet.

[4] Shermatov F.T., Socio-psychological problems concerning formation of stress resistance in future officers //European Journal of Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 12, 2019 Progressive Academic Publishing, UK. – B. 163-167.

[5] Shermatov F.T., Negativnye posledstviya psixologicheskoy travmy u kombatantov i sposoby ix resheniya. g.Yaroslavl 2021. //Sb.po material yejegodnogo Kongressa "Psixologiya XXI stoletiya" (Yaroslavl, 14-16 maya – 2021 – S. 402-408).

---

## МАЪСУЛИЯТЛИЛИК МУАММОСИНИНГ ПСИХОЛОГИЯДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ

*Акрамов Мирмуҳсин Рустамович  
ЎзХИА "Дин психологияси ва педагогика"  
кафедраси доценти в.б.,*

*Азиза Абдурахмонова  
Мумтоз шарқ филологияси факультети  
Психология йўналиши 3-курс талабаси*

Баркамол авлод камолоти ғоясини турмушга тадқиқ этиш учун истиқлолнинг дастлабки кунлариданоқ миллий маънавият, миллий таълим ва тарбия муаммоларини ҳал қилишга жиддий эътибор берилмоқда.

Мамлакатимизда таълим тизимида аниқ ва равшан ҳамда илмий асосланган давлат сиёсати мавжуд.

Маънавий жиҳатдан мукаммал ривожланган инсонларни тарбиялаш, таълим ва маорифни юксалтириш миллий уйғониш ғоясини рўёбга чиқарадиган янги авлодни вояга етказиш, давлатимизнинг энг муҳим вазифаларидан бири бўлиб қолади.

Инсон шахсининг камолга етиши жараёнида маъсулият ҳисси шаклланиб боради. Чунки инсон томонидан кундалик бажарадиган фаолиятларида маъсулиятлилик ҳисси талаб қилинади. Шунга мувофиқ, шахс камолга етиши билан маъсулиятлилик ҳисси шаклланиб боради.

“Маъсулият” сўзи латинчадан олинган бўлиб, ўзбек тилида “жавоб бермоқ” деган маънони англатади. Маъсулият тушунчаси даставвал фалсафий адабиётларда XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб қўлланила бошлаган. Маъсулият тушунчасини биринчи марта фалсафага 1859 йилда Альфред Бэн томонидан киритилиб, “эмоция ва ирода” китобида жазога лойиқлик маъносида қўллаган.

Психологияда масъулиятлилик муаммоси дастлаб боланинг ривожланиш босқичида етакчилик қилган аниқ фаолият мисолида ўрганилган. Кейинчалик эса у ўзаро фаолият жараёнида ўрганилган. Масъулият ҳисси анъанага кўра, дам “қонун ташувчи”, дам алоҳида топшириқни бажарувчи сифатида ва оддий ҳаётий кундалик қоидаларни бажарувчиси сифатида чиқувчи субъектнинг ролини ўзгартириш орқали тадқиқ этилган. Шу сабабли реал масъулиятлилик хулқнинг ташқи кўрсаткичи бўлиб, у ёки бу юклатилган вазифанинг амалга ошириш меъёри бўлиб хизмат қилган. Масъулиятлилик эса концептуал равишда кўпинча шахс сифатида кўрилиб, шундан барча экспериментлар шакллантирувчи характер касб этган.

Психологияда маъсулиятлилик тушунчаси турлича талқин қилинади. Жумладан психологик луғатда қуйидаги тарзда таҳлил қилинади.

Маъсулиятлилик – тан олинган норма ва қоидаларни бажаришни назарда тутувчи субъект фаолиятининг назорат қилиш шаклидир.

Маъсулият – бу шахс маънавий фаолиятининг имкониятлари нуктаи назаридан қараладиган бурчга мослиги.

Фалсафа луғатида эса маъсулият – ўзининг маънавий бурчи ва ҳуқуқий қоидаларини бажариш билан ифодаланадиган шахснинг жамиятга алоҳида ижтимоий ва маънавий ҳуқуқий муносабатини акс эттирувчи этика ва ҳуқуқ категориясидир. Ушбу таърифда маъсулият тушунчаси фақатгина маънавий балки ҳуқуқий ва бошқа ижтимоий муносабатлардан келтириб чиқарилади.

Психологияда масъулиятлилик дастлаб боланинг ривожланиш босқичида етакчилик қилган аниқ фаолият мисолида ўрганилган. Кейинчалик у ўзаро фаолият жараёнида ўрганилган. Масъулият ҳисси анъанага кўра, дам “қонун ташувчи”, дам алоҳида топшириқни бажарувчи сифатида, дам оддий ҳаётий кундалик қоидаларни бажарувчиси сифатида чиқувчи субъектнинг ролини ўзгартириш орқали тадқиқ этилган. Шу сабабли реал масъулиятлилик хулқнинг ташқи кўрсаткичи бўлиб, у ёки бу юклатилган вазифанинг амалга ошириш меъёри бўлиб хизмат қилган. Масъулиятлилик эса концептуал равишда кўпинча шахс сифатида кўрилиб, шундан барча экспериментлар шакллантирувчи характер касб этган.

Бундай экспериментлардан бири С.Л.Рубинштейннинг методологик тамойилини биринчи бўлиб ҳаётга тадбиқ этган Горбачева томонидан ўтказилган. Горбачева Пиаже каби болалар томонидан хулқ-атвор қоидаларини ўзлаштириш жараёни қонуниятини тадқиқ этган, лекин ундан фарқ қилган ҳолда, болаларнинг ўзлари шикоят қилган жараён бузилишларини ўрганган.

Маълумки, мактабгача таълим муассасасида болалар кўпинча тарбиячиларига тенгдошлари томонидан қоидаларнинг бузилишидан шикоят қиладилар. Айнан шундай шикоятлар қонунларга онгли муносабат асосида етила бошлайди. Болалар доимо: нимага у ёки бу қоидани бузди? У ёки бу қоида бузилса нима бўлади? Қоидага амал қилиш ёки уни бузиш чегараси қаерда?,- каби саволлар берадилар. Катталардан тушуниб олгач, қоида бузилишларига уларнинг реакциясини кўриб, бола аниқ намуналарда, ўзининг тажрибасида ва тенгдошларининг тажрибасида хулқ-атворнинг ижтимоий ва ахлоқий меъёрини

ўзлаштирадилар. Бир сўз билан айтганда болани ўзаро ижтимоий ва ахлоқий муносабатларнинг мураккаб турига кириши бошланади.

Болалар мактабгача таълим муассасасига келишининг биринчи дақиқаларидан бошлаб маиший қоидаларни ўзлаштира бошлаганликлари учун илк кунлардан маиший қоидаларни бузилиши ҳақида хабар беришлари ажабланарли эмас. Шунинг учун болалар маиший қоидаларни эртароқ, ўзаро муносабатлар қоидасини кечроқ ўзлаштирадилар. Бола бу даврда қоидаларни фақатгина тарбиячининг тушунтиришидан келиб чиқиб, фақатгина ўзига, шу вазиятгагина тегишли деб идрок этади. Шу тарзда қоидалар бу даврда боланинг “мен”и атрофида “марказлашади”.

Маъсулиятлиликнинг объектив ва субъектив жиҳатлари борасида К.Анисимов томонидан қуйидаги фикри илгари сурилади: “Маънавий маъсулият таҳлили кенг социологик жиҳатларга эга, маъсулият ижтимоий заруратни ифода этувчи, маънавий тамойиллар, қоидалар кўринишида жамият томонидан ўзининг алоҳида аъзолари, жамоаларига қўйиладиган объектив талаблар тўплами сифатида юзага келади. Маъсулият онгнинг ўзига хос ҳолатини намоён қилса, у ҳолда субъектив психологик мазмунда ҳам тақдим этилиши мумкин”.

С.Шварц маъсулиятнинг бировга ёрдам бериш қўллаб-қувватлаш мотиви сифатида кўрсатиб, уни бир қатор турларини ажратиб кўрсатади. Бунда маъсулиятга диффуз тушунчасини киритиб, яъни ёрдам бериш жойида ўзга инсонлар мавжудлиги алоҳида инсонларда маъсулиятнинг намоёиши кўзга ташланади. Бернсенг фикрича ҳар қандай инсон оғир бош мия жароҳатларига учраганлардан ташқари барчаси ўз ҳаётига ўзи маъсулдир, нимани қандай йўл билан ҳал қилишини танлаш ўз қўлидадир.

Климова ўзининг экспериментида маъсулиятлиликнинг кўрсаткичларининг бутун тизимини қўллаган: 1) берилган вазифани зарурлиги ва муҳимлиги, бошқалар учун ҳам аҳамиятга эга эканлигини бола томонидан англанилиши; 2) берилган вазифани муваффақиятли бажаришга йўналтирилган ҳаракат хусусияти (қийинчиликларни енгишга ҳаракат қилади, вақтида киришади, ишни охиригача олиб боради ва ҳ.к). 3) вазифани уч хусусиятини натижаларини эмоционал ҳис



этиш (жиддий вазифа берилганидан қониқиш; бирор самарага эришиш учун ташвишланади; муваффақиятли ижрони англашидан қониқиш ҳис этади ва бошқалар баҳосига куйинади). 4) берилган топшириқни бажарилишига жавобгарлик ҳиссини англаш.

Климова бу кўрсаткичлар масъулиятлиликини бутунлай акс эттирмайди, деб ҳисоблаган. Чунки уларнинг ҳар бири воқеа-ҳодисанинг алоҳида томонини қамраб олади. Шунинг учун боланинг масъулиятлилигини 4 та мезон бўйича баҳолаган. 6-7 ёшли боғча тарбияланувчилари шу мезонларга мувофиқ 3 та гуруҳга бўлинган: юқори, ўрта ва паст масъулиятлилики. Климованинг тадқиқот ишларида фаолиятнинг ижтимоий йўналтирилган мотивларини шакллантиришга урғу берган. Болалар берилган вазифани аҳамияти ва яхши бажарилиши заруратини ҳис қилишлари тушунтириб ўтилган. Бундан ташқари, топшириқни бажариш усуллари муҳокама қилинган ва ниҳоят вазифани бажарилишининг ҳисобга олиши, ҳамда назорати амалга оширилган. Барча усуллар экспериментал гуруҳларда қўлланилган. Тадқиқот охирида экспериментал гуруҳларда масъулиятни юқори ҳис қиладиган болалар сони деярли 3 марта ошган, масъулиятни камроқ ҳис қиладиганлар сони эса 8 марта пасайган. Назорат гуруҳида ҳам масъулиятлилар сони кўпайди, бироқ интенсив равишда эмас. Тарбия тизими самарадорлигидан кўриниб турибдики, боланинг илк ёшиданок масъулиятлиликини сезиларли даражада оширади, лекин бу сифат уларда унчалик барқарор эмас.

Россия психологиясида С.Л.Рубинштейн маъсулиятни умумфалсафий негизи асосда ўрганган. Унинг таъкидлашича инсон хатти-ҳаракатлари нафақат ташқи муҳитга боғлиқ, балки ички детерминацияга ҳам асосланади. Бунда улар қуйидаги позицияларда акс этади: ҳамма каби ва мен ўзим. Инсон ҳамма каби иш кўриб, ўз хатти-ҳаракатлари учун маъсулиятдан қутулади. Мен ўзим эса инсонни оламга бефарқ эмаслигини намоён этиб, шахс маъсулиятини ривожланишига таъсир қилади.

К.А.Абульханова-Славская маъсулиятлилики назариясини шахс томонидан заруратни ўзлаштириш сифатида ишлаб чиқиб, унда эътибор субъектга унинг

эркинлигига қаратилган. Унда инсон ўзига маъсул шахс сифатида қарайди ва ўз маъсулияти даражасини белгилайди. К.А.Абульханова-Славская фикрича, инсон маъсулиятни тўла ўзлаштириши учун зарурат билан ҳоҳиш тенглиги бўлиши (эҳтиёжларни ҳам) лозим экан.

Маъсулият борасидаги С.Розенцвейгнинг фикрлари ҳам эътиборга лойиқдир. Унинг назариясига биноан ҳар хил инсонлар оддий ҳаётий муаммоларига турлича жавоб қайтарадилар: баъзилар доимо ўзини айблайдилар, бошқалар маъсулиятни ташқи омилларга атрофдагиларга юклашади, яна бирлари эса қулай позицияни танлаб на ўзини на бошқаларни маъсул деб билмайдилар.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаб ўтиш жоизки маъсулиятлилик муаммоси ўзбек психологлари томонидан кам ўрганилганлиги сабабли ва маъсулиятлилик шахс сифатларидан бири бўлганлиги учун айниқса, ёш авлодни камолга етказиш жараёнида уларда маъсулиятлилик ҳиссини тарбиялаш, шу билан бирга маъсулият ҳисси ривожланишини тадқиқ қилиш ўзбек психологлари олдида турган долзарб масалалардан бири дейишимиз мумкин.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абульханова-Славская К.А. Типология активности личности в социальной психологии // Психология личности и образ жизни. - М, 1987. - С.10-14
2. Большой толковый психологический словарь / Пер. с англ. – М.: Ребер
3. Волков Б.С. Возрастная психология. В 2-х ч. Учеб. пособие для ВУЗов, спец. ОПД.Ф.01-Психология / Под ред. Б.С.Волкова. – М.: ВЛАДОС, 2005. Ч.2. – 343 с.
4. Климов Е.А. “Индивидуальные стиль деятельности в зависимости от типологических свойств нервной системы” М 1969.
5. Корнилова Т.В. , Смирнов С.Ф. Методологические основы психологии. – СПб.: Питер, 2007. –320 с.

## ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ГУРУҲ РАҲБАРЛАРИНИНГ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

*Шойқулов Бахтиёр Бакирович*  
*Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги*  
*Педагогик инновациялар, касб-хунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни*  
*қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институтининг*  
*“Инновацион таълим технологиялари” кафедраси мудири,*

*Уматалиева Камила Тахировна*  
*Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги*  
*Педагогик инновациялар, касб-хунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни*  
*қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти, доценти*

Бугунги кунда профессионал таълим муассасаларида фаолият юритаётган гуруҳ раҳбарининг маънавий, ақлий салоҳиятлари ҳамда педагогик, психологик ва касбий маҳоратларини ошириш борасида бир қатор ижобий ишлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4884-сон қарори ҳамда мазкур санадаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон Фармони билан профессионал таълим муассасалари гуруҳ раҳбарларини тайёрлаш учун ўқувчилар билан ишлаш, улар психологиясини ўрганиш ва методик таъминлашга қаратилган қисқа муддатли малака ошириш курсларининг ташкил этилганлиги, шунингдек, касб-хунар мактабларида гуруҳ раҳбарлиги учун кўшимча тўловларнинг жорий этилиши бунинг яққол мисолидир.

Шунга кўра, Педагогик инновациялар, касб-хунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институтининг профессор-ўқитувчилари томонидан профессионал таълим муассасалари гуруҳ раҳбарларига тарбиявий ишлар назарияси ва методикаси, тарбиявий соатларни ўтказишнинг замонавий шакллари, гуруҳ раҳбарлари

фаолиятини ташкил этишнинг норматив-ҳуқуқий асослари, педагогик конфликтология, ижтимоий психология, иш фаолиятида рақамли технологиялардан фойдаланиш, психотренинглари ташкил этиш каби модуллар бўйича зарур билим ва кўникмаларни бериб келишмоқда.

Бу ёруғ оламда ҳар бир одам ўзининг меҳрибон ота-онасига, устоз ва муаллимларга нисбатан ҳамиша миннатдорлик туйғуси билан яшайди. Инсон ўз умри давомида қандай ютуқ ва натижаларга эришмасин, қаерда, қандай лавозимда ишламасин, таълим муассасаси даргоҳида олган таълим-тарбияси унинг етук шахс ва малакали мутахассис бўлиб шаклланишида улкан аҳамиятга эга экани шубҳасиз.

Мухтасар айтганда, мактаб деган улуғ даргоҳнинг инсон ва жамият тараққиётидаги ҳиссаси ва таъсирини, нафақат ёшларимиз, балки бутун халқимиз келажагини ҳал қиладиган ўқитувчи ва мураббийлар меҳнатини ҳеч нарса билан ўлчаб, қийслаб бўлмайди.

Шу нуқтаи назардан қараганда, маърифатпарвар боболаримизнинг фикрини давом эттириб, агарки дунё иморатлари ичида энг улуғи таълим муассасаси бўлса, касбларнинг ичида энг шарафлиси ўқитувчилик ва мураббийликдир. Чиндан ҳам, ўқитувчи наинки ўқув хонасига файз ва зиё олиб кирадиган, балки минг-минглаб мурғак қалбларга эзгулик ёғдусини бахш этадиган, ўз ўқувчиларига ҳақиқатан ҳам ҳаёт мактабини берадиган мўътабар зотдир.

*Шахсни тарбиялаш иши ниҳоятда мураккаб фаолият жараёни бўлиб, жуда қадимдан ушбу фаолиятга жамиятнинг етук кишилари жалб этилгандир. Мазкур ҳолат ёш авлод тарбияси, унинг ташкил этилиши мазмуни нафақат шахс камолоти, балки жамият тараққиётини ҳам белгилашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини англатади.*

Юқорида қайд этилган фикрлардан бугунги кун гуруҳ раҳбари шахсига нисбатан қўйилаётган талаблар мазмуни англанилади. Замонавий гуруҳ раҳбари қандай бўлиши зарур?

Гуруҳ раҳбари (педагог) педагогик, психологик ва мутахассислик йўналишлари бўйича тегишли маълумот, касбий тайёргарлик, юксак ахлоқий

фазилатларга эга ҳамда таълим муассасаларида фаолият кўрсатувчи шахс саналади.

Замонавий гуруҳ раҳбари қиёфасида қуйидаги фазилатлар намоён бўла олиши керак (сўз юритилаётган сифатлар моҳиятан гуруҳ раҳбари томонидан амалга оширилиши зарур бўлган вазифа, бурч ва масъулиятларини ифодалайди):

1. Гуруҳ раҳбари жамият ижтимоий ҳаётида рўй бераётган ўзгаришлар, олиб борилаётган ижтимоий ислоҳотлар моҳиятини чуқур англаб етиши ҳамда бу борада ўқувчиларга тўғри, асосли маълумотларни бера олиши лозим.

2. Замонавий гуруҳ раҳбарининг илм-фан, техника ва технология янгиликлари ва ютуқларидан хабардор бўлиши талаб этилади.

3. Гуруҳ раҳбари ўз мутахассислиги бўйича чуқур, пухта билимга эга бўлиши, ўз устида тинимсиз изланиши лозим.

4. Гуруҳ раҳбари педагогика ва психология фанлари асосларини пухта билиши, таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг ёш ва психологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда фаолият ташкил этиши керак.

5. Гуруҳ раҳбари таълим-тарбия жараёнида энг самарали шакл, метод ва воситалардан унумли фойдалана олиши имкониятига эга бўлмоғи лозим.

6. Гуруҳ раҳбари ижодкор, ташаббускор ва ташкилотчилик қобилиятига эга бўлиши шарт.

7. Гуруҳ раҳбари юксак даражадаги педагогик маҳорат, чўнончи, коммуникативлик лаёқати, педагогик техника (нутқ, юз, қўл-оёқ ва гавда ҳаракатлари, мимика, пантомимика, жест) қоидалари чуқур ўзлаштириб олишига эришишлари лозим.

8. Гуруҳ раҳбари нутқ маданиятига эга бўлиши зарур, унинг нутқи қуйидаги хусусиятларни ўзида акс эттира олиши керак:

а) нутқнинг тўғрилиги;

б) нутқнинг аниқлиги;

в) нутқнинг ифодавийлиги;

г) нутқнинг софлиги (унинг турли шева сўзларидан ҳоли бўлиб, фақат абадий тилда ифода этилиши), жаргон (муайян касб ёки соҳа

мутахассисликларига хос сўзлар), варваризм (муайян миллат тилида баён этилаётган нутқда ўзга миллатларга хос сўзларни ноўрин қўлланилиши), вульгаризм (ҳақорат қилиш, сўкиида қўлланиладиган сўзлар) ҳамда концеляризм (ўрни бўлмаган вазиятларда расмий сўзлардан фойдаланиши) сўзлардан ҳоли бўлиши, ўқитувчининг нутқи содда, равон ва тушунарли бўлиши керак;

д) нутқнинг равонлиги;

ж) нутқнинг бойлиги (ҳикматли сўзлар, ибора ва мақоллар, маталлар ҳамда кўчирма гаплардан ўринли ва самарали фойдалана олиш).

9. Гуруҳ раҳбари қийиниш маданияти (содда, озода, бежирим кийиниши), таълим-тарбия жараёнида ўқувчининг диққатини тез жалб этувчи турли хил безаклар (олтин, кумуш тақинчоқлар)дан фойдаланмаслиги, фасл, ёш, гавда тўзилиши, юз қиёфаси, ҳатто, соч ранги ва турмагига мувофиқ равишда кийинишни ўзлаштиришига эришиши лозим.

10. Гуруҳ раҳбари шахсий ҳаётда пок, атрофдагиларга ўрнак бўла олиши лозим.

Гуруҳ раҳбари педагогик мулоқот жараёнининг фаол иштирокчиси сифатида ўзида бир қатор сифатларнинг таркиб топшишига эришиши зарур. Чўнончи, у энг аввало, мулоҳазали, босиқ, вазиятни тўғри баҳолай оладиган, мавжуд зиддиятларни баратараф этишининг уддасидан чиқа олиши зарур. Ўқувчи, ота-оналар ҳамда ҳамкасблари билан мулоҳот жараёнида фикрини аниқ ва тўла баён этилишига аҳамият қаратиши мақсадга мувофиқ. Улар билан муносабат жараёнида сўзни салбий ҳолатлар ҳақидаги далилларни келтиришдан эмас, аксинча, ўқувчи (ёки ҳамкасби, ота-оналар)нинг муваффақиятларини эътироф этиши, уларнинг янада бойишига ишонч билдириши у билан тиллаша олишига имкон беради. Гуруҳ раҳбари шахсининг мазкур талабларга мувофиқ келувчи қиёфаси унинг ўқувчилар, ҳамкасблар ҳамда ота-оналар ўртасида обрў-эътибор қозонишини таъминлайди.

Педагогик фаолиятнинг самарали бўлиши учун гуруҳ раҳбаридида қобилиятнинг қуйидаги турлари мавжуд бўлиши билан бир қаторда педагогик, психологик тайёргарлик ҳам етарли бўлиши мақсадга мувофиқдир:



1. Билиш қобилияти – ўқув предметининг тегшли соҳаларига оид бўлиб, бунда гуруҳ раҳбари ўқув предметини ўқув курси ҳажмидагина эмас, балки анча кенг ва чуқурроқ билиши, унга қизиқиши, оддий тадқиқот ишларини ҳам бажара олиши керак.

2. Тушунтира олиш қобилияти – ўқув материални ўқувчиларга тушунарли қилиб баён эта олиш, ўқувчиларда мустақил фикрлашга қизиқиш уйғотишидир.

3. Кўзатувчанлик қобилияти – ўқувчининг, тарбияланувчининг ички дўнёсига кира олиш қобилияти, ўқувчи шахсини ва унинг вақтинчалик ҳолатларини жуда яхши тушуна билиш билан боғлиқ бўлган психологик кўзатувчанликдир.

4. Нутқ қобилияти – нутқ ёрдамида, шунингдек, имо-ишора востасида ўз фикр ва туйғуларини аниқ ва равшан ифодалаш қобилияти. Бу ўқитувчилик касби учун жуда муҳимдир. Гуруҳ раҳбарининг нутқи аниқ, жонли, образли, талаффузи жиҳатдан ёрқин, ифодали, ҳис – ҳаяжонли бўлиб, унда стилистик, грамматик, фонетик нуқсонлар учрамаслиги лозим.

5. Ташкилотчилик қобилияти – биринчидан, ўқувчилар жамоасини уюштириш, жипслаштириш, муҳим вазифаларни ҳал этишга руҳлантиришини, иккинчидан, ўз ишини тўғри уюштиришни назарда тутати.

6. Обрў орттира олиш қобилияти – ўқувчиларга бевосита эмоционал-иродавий таъсир кўрсатиш ва шу асосда обрў қозона олишидир. Обрў фақат шу асосдагина эмас, балки гуруҳ раҳбарининг ўқув предметини яхши билиши, меҳрибонлиги, назокатлилиги ва бошқа ижобий хислатлар. Ўқувчилар кўполлик қилмайдиган, кўрқитмайдиган, тўғри талаб қўя оладиган гуруҳ раҳбарини жуда ҳурмат қиладилар.

7. Тўғри муомала қила олиш қобилияти – ўқувчилар билан педагогик нуқтаи назардан жуда самарали ўзаро муносабатлар ўрната билиш, педагогик мулоқот маданиятининг мавжудлигини билдиради.

8. Келажакни кўра билиш қобилияти – ўз ҳаракатларининг оқибатини кўра билишда, ўқувчининг келгусида қандай мутахассис бўлишини тасаввур қила

олишида, тарбияланувчида қандай ижобий фазилатларни тараққий эттириши лозимлигини олдиндан башират қила олишида ифодаланади.

9. Диққатни тақсимлай олиши қобилияти – гуруҳ раҳбари учун диққатнинг барча хусусиятлари-ҳажми, кучи, идора қилина олиши, сафарбарлиги кабиларнинг тараққий этиши билан изоҳланади. Қобилиятли, тажрибали гуруҳ раҳбари сабоқни баён қилиши мазмуни ва шаклини, ўз фикрини (ёки ўқувчининг фикрини) диққат билан кузатади, айнаи вақтда барча ўқувчиларни кўриб туради, толиқиши, эътиборсиз ҳолларини эътибордан қочирмайди, ниҳоят ўз хатти – ҳаракатларини ҳам бошқариб боради.

10. Гуруҳ раҳбари юқорида ўргатилган қобилиятлардан таишқари яна бир қанча ижобий сифатларга – аниқ мақсадни кўзлаш, қатъийлик, меҳнатсеварлик, камтарлик каби сифатларга ҳам эга бўлиши керак акс ҳолда ўрта педагогик даражадан юқорига кўтарила олмайди.

Гуруҳ раҳбари тарбия ишини гуруҳ миқёсида хал этишда истикболни тасаввур эта олса, келажакни кўра билиш махоратига эга бўлсагина у мувофақият билан ишлай олади.

## ДИНИЙ МУТААССИБЛИК МУАММОСИНИ ИЖТИМОЙ ФАНЛАРДА ТАЛҚИН ЭТИЛИШИ

*Расулов Абдимумин Ибрагимович*  
*Психология фанлари доктори, доцент,*

*Қаххоров Сарвар Сайфиддинович,*  
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси таянч докторанти*

**Аннотация:** Ушбу мақолада диний мутаассиблик муаммоси, мутаассиб оқимларга янги аъзони жалб қилиш усуллари, унинг ижтимоий-психологик хусусиятлари муҳокама қилинган. Шунингдек, ақидапараст оқимларнинг таъсирига тушиб қолишни сабаблари ёритилган.

**Калит сўзлар:** мутаассиблик, ақидапарастлик, шахс, психология, ахборот олами, гуруҳ, онг.

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема религиозного фанатизма, способы привлечения новых членов в фанатичные секты, его социально-психологические особенности. Также объясняются причины влияния фанатичных течений.

**Ключевые слова:** фанатизм, фанатизм, личность, психология, информационный мир, группа, сознание.

Бугунги кунга келиб бутун жаҳонга хавф солаётган диний экстремизм ва халқаро терроризмни келтириб чиқарувчи омиллардан бири диний мутаассибликдир. Диний мутаассиб оқимларга аъзо бўлганлар ундан чиқиб кетиш учун шахсий ва ижтимоий омиллардан маҳрум бўлган қулларга айланадилар. Оқим вакиллари тафаккурни усталик билан бошқариш усулларидан фойдаланадилар.

Диний мутаассиблик муаммоси бир қатор фанлар тизимида турлича ўрганилган. Жумладан, тарих, социология, фалсафа, диншунослик ва психология фанлари доирасида. Масалан, тарих фани тизимида диний мутаассиблик тарихий

ёндашув асосида таҳлил этилганида диний мутаассибликнинг ривожланишига бир қатор асослар мавжудлигини кўришимиз мумкин. Шунингдек, тарих фани доирасидаги тадқиқотларда диний мутаассибликнинг пайдо бўлишини сиёсий (имомат) масаласидан бошланганлиги ва ривожланишига сабаб бўлувчи асосий омиллар қаторида мафкуравий бўшлиқнинг таъсири алоҳидалиги таъкидланади. “Мафкуравий бўшлиқ, кўпинча, инсонда жамиятдаги мавжуд ҳолат, ижтимоий муҳитни нотўғри идрок этишга, ўзининг иродасини бошқа шахсга бўйсундириш ва дунёқарашида агрессивликни шакллантиришга хизмат қиладиган носоғлом ғоялар билан тўлдирилишига замин яратади”<sup>1</sup>. Қолаверса, А.К. Каримовга тегишли диссертациянинг “Мутаассиб гуруҳлар ғояларининг тарқалиш сабаблари ва уларнинг фаолиятидаги мақсад ва услублар” номли бўлимда халқаро экстремистик гуруҳлар томонидан қўлланилаётган тактик услубларни Марказий Осиё минтақасида фаолияти кузатилган мутаассиб тузилмалар фаолиятида ҳам кузатиш мумкинлиги таъкидланади. Улар аҳоли орасидан асосан, оила аъзолари, яқин қариндошлар, кўпроқ иқтисодий қийинчиликка учраган ёки етарли эътиборга эга бўлмаган шахслар турли йўллар орқали жалб қилинган. Америкалик мутахассис Б.Женкинс мутаассиб-террорчи ташкилотларнинг энг хатарли жиҳати бу узоқ вақт аҳоли ўртасида қўрқув ва ваҳима солишга хизмат қилувчи психологик хужум услуби сифатида талқин қилади.

Тарих фани доирасидаги адабиётларда диний мутаассиблик масаласи хронологик ва ижтимоий-сиёсий ва тарихий бир вазиятнинг тақозоси сифатида таҳлил қилинади. Асосий мавзу бўлиб диний мутаассибликнинг тарихий илдизлари, ривожланиши ва ҳозирги кўринишлари ҳисобланади. Аммо тарих фанлари тизимида мутаассиб шахс, унинг фаолияти, шаклланишининг аниқ системаси, психологик усулларнинг илмий таҳлили ва уларга оид илмий ечимлар деярли учрамайди. Унда бўлган воқеалар даврийлик жиҳатидан таҳлил этилади, холос. Шунингдек, диний мутаассиблик масаласи кенг қамровли муаммо бўлиб, уни фақатгина биргина фан доирасида тўлиқ ўрганиб бўлмайди.

<sup>1</sup>Каримов А.К “Диний мутаассибликнинг тарихий илдизлари замонавий кўринишлари ва унга қарши курашиш асослари” Ўзбекистан мисолида диссертация автореферати. - Т.: 2012. 15. б.

Диншунослик (Исломшунослик) ва Фалсафа йуналишидаги адабиётларни тадқиқ этиб, бошқа тадқиқотларга нисбатан айнан бу фанлар тизимида диний мутаассиблик муаммоси батафсилроқ ёритилганлигини кўришимиз мумкин.

“Мутаассиблик - кенг маънода муайян ғояларнинг тўғри эканлигига қаттиқ ишониш, уларга муккасидан берилганликни, “ўзгалар” ва “ўзгача” қараш ва ғояларга мурасасиз муносабатни ифодаловчи қарашлар ва хатти- ҳаракатларни англатади”. Юқоридаги адабиётда диний мутаассиблик масаласи нисбатан аниқроқ таҳлил этилган бўлиб, унда “ўзгалар” ва “ўзгачалар” алоҳида таъкидланган<sup>2</sup>.

“Диний мутаассиблик эса ўз ақидасининг шак-шубҳасиз тўғрилигига ишониб, бошқа фирқа ва мазҳабларни бутунлай рад этган ҳолда уларни тан олмасликни билдиради”. Мазкур таърифда диний мутаассиблик фаолият сифатида таҳлил этилмоқда. Бу фаолиятни асоси қилиб эса “ўзи”никига шак-шубҳасиз ишониш ва шунини асосида “бошқа” ҳар қандай мазҳаб ва фирқани тан олмаслик, балки ўз қарашларини бошқаларга мажбурлаб сингдириш ҳолати олинади. Қолаверса, диний мутаассиблик фаолиятига хос қатор хусусиятлар санаб ўтилади. Улардан:

1. Диндаги муайян қоидаларни ўз ғояларига ва унда ифодаланган мақсадларига бўйсундириш;
2. Шу мақсадларини амалга оширишда тушунтириш, ишонтириш ва энг асосийси, мурасасизлик, куч ишлатиш ва зўравонликка таяниш;
3. “Соф Ислом”дан чекинган давлат раҳбарларини жисмонан йўқ қилиш ва исломда “ширк” (бутпарастлик)ка барҳам беришга даъво қилиш;
4. Азиз-авлиёлар хотираларига ҳурмат, қабрлари жойлашган ҳудуларни обод қилиш ва озода сақлашни ҳам бутпарастлик деб ҳисоблайдилар;
5. Ақидапарастликка асосланган ғояларни ёйиш орқали давлатга, унинг раҳбарларига бўлган ишончни йўққа чиқариш;

Қолаверса, ушбу манбада мутаассибликни “инсон билимсизлиги ва

<sup>2</sup> Бекмирзаев И., Аллоқулов А. “Исломшунослик асослари”. Тошкент ислом университети, - Т.: 2012. 97. б.

жоҳиллигининг бир шаклидир”, деган фикр илгари сурилади. Диний таассуб тушунчаси фанатизм иборасида ҳам ўз ифодасини топади. Фанатизм ўз ақидасининг шак-шубҳасиз тўғрилигига ишониб, бошқа фирқа ва мазҳабларни бутунлай рад этган ҳолда уларни тан олмаслик, балки уларни диний асосларни бузишда айблаб, уларга қарши уруш очишга чақирадиган омиллардандир. “Диний фанатизм диний экстремизм ва терроризмга замин яратади. Айнан муайян диний конфессия ва ташкилотлардаги ашаддий мутаассиб, фанатик унсурларнинг фаолият мафкурасини “диний экстремизм” деб аталади”<sup>3</sup>.

Ҳозирги даврдаги тараққиёт, халқлараро муносабатлар уруш муносабатидан кўра тинчлик ва ҳамкорликка асосланади. Шу муносабат билан ҳар қандай диндаги таассубона қарашлар, дунёда тинчлик ва тенгликка салбий таъсир кўрсатиши табиийдир. Қолаверса, ҳадисларда “Ибодатнинг яхшиси енгилроғидир” дейилади. Диний манбаларда мутаассибликка қарши қатор чақирув ва буйруқлар мавжудлигига қарамай, шахсларни динга таассубона ёндашувлари уларни диний билимлари саёз эканликларидан хабар беради.

Диний мутаассиб гуруҳларнинг яна бир муҳим жиҳати бу - уларга жамоавий психологик таъсир ўтказиб, дунёвий давлат ҳокимияти фаолиятига нисбатан ишончсизлик ҳолатини шакллантириш мумкин. Бошқа бир адабиётда эса экстремизм тушунчаси лотинча “ашаддий” сўзидан олинганлиги таъкидланади. “Бундай дунёқарашга эга бўлган киши бошқача нуқтаи-назарлар билан умуман келишмайди ва ўз қарашларини амалга ошириш учун сўнгги чора - мавжуд тузумни ағдариб ташлаш, ўз ғояларини куч ишлатиш ёрдамида сингдириш, бошқача фикрлайдиган кишиларни йўқ қилишгача бўлган амалиётни кўллайди”<sup>4</sup>.

Чиндан ҳам, мутаассиб оқимлар фаолиятини таҳлил этишда уларни чора қолмаган тақдирда энг қабих усуллардан ҳам фойдаланишларини яхши биламиз. Бундай разиллик ислом динида катъий қораланган бўлса-да, улар ўз сиёсий мақсадлари йўлида ҳеч нимадан қайтмайдилар.

<sup>3</sup> Бекмирзаев И., Аллоқулов А. “Исломшунослик асослари”. Тошкент ислом университети, - Т.: 2012. 112. б.

<sup>4</sup> Олтинов У., Примов Т. “Ёшларни бузғунчи ғоялардан асраш: муаммо ва ечимлар”. - Т.: 2006. 6. б.



Хулоса қилганда эса, фалсафа тизимидаги адабиётларда диний мутаассиблик бу - мафкуравий қарамлик билан характерланса, диншунослик (исломшунослик) фанларида эса, асосан ақидавий бўлинишлар асосида пайдо бўлувчи ва асл мақсади сиёсий ҳокимиятга эга бўлиш, жамият ва инсонларга катта хавф туғдираётган куч сифатида ифодаланади.

Юкоридаги фанлар тизимида ҳам мутаассиб шахс, унинг ўзига ҳос хусусиятлари, диний мутаассибликнинг шаклланиш омилларига аниқ психологик далиллар билан ёндашилмаган. Диний мутаассиб шахс ва гуруҳни коррекциялашга оид аниқ дастурлар ишлаб чиқилмаганлигини эътиборга олиш лозим.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов А.К “Диний мутаассибликнинг тарихий илдизлари замонавий кўринишлари ва унга қарши курашиш асослари” Ўзбекистан мисолида диссертация автореферати. - Т.: 2012. 15. б.

2. Бекмирзаев И., Аллоқулов А. “Исломшунослик асослари”. Тошкент ислом университети, - Т.: 2012. 97. б.

3. Олтинов У., Примов Т. “Ёшларни бузғунчи ғоялардан асраш: муаммо ва ечимлар”. - Т.: 2006. 6. б.

4. Arena, M. P., and Arrigo, B. A. (2005). Social psychology, terrorism, and identity: a preliminary re-examination of theory, culture, self and society. *Behav. Sci. Law* 23, 485–506. doi: 10.1002/bsl.653.

5. Armstrong, K. (2000). *The Battle for God: Fundamentalism in Judaism, Christianity, and Islam*. New York: Knopf/HarperCollins.

## GURUHLARDAGI RAHBARLIK VA LIDERLIK XUSUSIYATLARI

*Zaripova Nilufar Egamberdiyevna*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*“Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi boshligi*

Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o‘rganilgan muammolardan biri — **turli boshqaruv uslublaridir**. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Rahbarlik masalasi asrlar davomida diqqatni tortdi. Bugungi kunda olimlar-o‘qituvchilar, psixologlar, sotsiologlar va faylasuflar yetakchilikka bo‘lgan intilishni shaxsning “ijodiy instinkti”ning namoyon bo‘lishi sifatida o‘rganadilar. M.Veber tomonidan ishlab chiqilgan avtoritet tipologiyasiga tayanadilar va u yetakchini oliy darajadagi tarbiyalash vazifasini ilgari suradi.

Guruhlardagi o‘zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo‘lib, guruh a‘zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bu borada "lider" va "boshliq" tushunchalari o‘rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

- 1) lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;
- 2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo‘lgan hodisa bo‘lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo‘lishi, amalga oshirilishi mumkin;
- 3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo‘lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo‘ladigan hodisadir;
- 4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo‘lib, guruh a‘zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yunalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro‘y beradi;

5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo‘q bo‘lgan jazolash va rag‘batlantirish tizimiga ega bo‘lib, shu asosda o‘z xodimlariga ta‘sirini o‘tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko‘rsatmalar, tashabbuslarni o‘z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo‘nalishda ko‘plab rasmiy ko‘rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi kiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo‘lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg‘iz bo‘lmaydi, u doimo guruh a‘zolari orasida bo‘ladi, u shu guruh a‘zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a‘zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo‘lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a‘zolari ichida eng bilag‘oni, aql o‘rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchag‘i, ko‘ngil so‘rovchisi, o‘zgalarni tushuna oladigan — emotsional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qat‘iyatli, irodali-irodaviy liderlar bo‘lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko‘ra paydo bo‘ladilar hamda bolalar ongida o‘z sifatlariga ko‘ra obro‘ qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo‘lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko‘rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to‘g‘ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma‘lum guruh ichida so‘zsiz obro‘ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider "ketdik" deb ko‘rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari o‘z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norisimiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To‘g‘ri, ba‘zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo‘lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog‘liq bo‘lgani uchun ham ularning

o‘zgarib turishini hisobga oladigan bo‘lsak o‘qituvchining boshqarish maxorati yoki san’ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obro‘ga ega. Obro‘lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro‘lilik ya’ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro‘ juda samaralidir. Odamlar ko‘ngliga yo‘l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o‘xshashlar obro‘ orttirish mezonlaridandir.

Liderlik va superliderlik haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, Amerikalik tadqiqotchi *Linda Djuell* o‘zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik hodisalardan muhimi bo‘lmish **liderlik** masalasiga o‘zining o‘ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya’ni mardlik va jasorat ko‘rsatish uchun ochiq maydonlar yo‘q bo‘lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog‘i, kamaytirish hisobiga ro‘y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo‘g‘inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya’ni amerikaliklar rahbarni lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko‘rsatish yo‘llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli bo‘lgan tushunchadan biri bu – «*superlider*» tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mants va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «*superlider*dir». Bu shunday shaxski, u o‘z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o‘zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g‘oya shundan iboratki, agar odam eng *avvalo o‘zi uchun lider bo‘la* olsa, o‘zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot yetib keladiki, jamoa o‘zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo‘lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi (pr. ):

I – o‘zi uchun lider bo‘lish, ya’ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o‘zini o‘zi kuzatish, o‘zini o‘zi rag‘batlantirish, hayoliy repititsiyalar va kognitiv tahlillar orqali o‘zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o‘zida boshqalarga o‘rnak bo‘luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o‘zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishontira olish;

III – xodimlariga o‘zlarida tashabbus va o‘ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobilyat egalari bo‘lgan xodimlarni rag‘batlantirish, kerak bo‘lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V – o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o‘zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta’sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko‘rinishidir. Shu ma’noda, liderlik – avval shaxsning o‘ziga, so‘ngra o‘zgalarga bera oladigan ta’sirida ko‘rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta’riflanadi.

Har bir lider yoki boshliq o‘zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o‘z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o‘ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

### **Adabiyotlar**

- 1.G‘oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
- 2.Abdullayeva R.M., Raxmonov A. Shaxsning kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan psixologik xususiyatlarini aniqlash usullari. – T, 2001.
- 3.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 4.[www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru)

## ЧУДЕСНАЯ СИЛА ИСКУССТВА И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ЧЕЛОВЕКА

*Курбанова Гульчехра Абдуллаевна  
Заведующий кафедрой практики Государственной консерватории Узбекистана,  
доцент кафедры музыкальной педагогики, кандидат психологических наук,  
академик АН Туран*

«Музыка выражает человеческие чувства, мечты, желания уникальным художественным языком и активно воздействует на эмоции человека. Музыка — это и наука, и искусство».

(Ф.Стендаль)

По мнению ученого Стендаля, музыка является одним из видов искусства, способным проникать глубоко в сердце человека и отражать его внутренние переживания. Музыка постепенно воздействует на психику человека и создает специфические изменения в организме. Центральная нервная система, другие органы и органы опускаются из брюшной полости, приходят в себя, работают в ритме. В зависимости от тона некоторых мелодий, то есть смысла, человек инстинктивно погружается в мир мыслей и эмоций. Есть мелодии, которые добавляют силы человеку и облегчают его тяготы. В то же время сила воздействия музыки зависит и от настроения инструмента, от общей обстановки, от умения играть музыканта.

Аристотель (IV век до н.э.) также рассматривал музыку как средство гармонизации личности с общественной жизнью. Аристотель разработал учение о мимесисе, раскрывавшем внутренний мир человека и способы воздействия на него через искусство. В теории мимесиса получило развитие понятие «катарсис». По его словам, древнегреческие трагедии очищали сознание зрителя от мук болезни. В процессе глубоких переживаний человек духовно очищается, его сердце поднимается от своей специфики, своей единственности к своей всеобщности.



Аристотель подробно описал музыкальные лады, изменяющие психику. Музыка в одном настроении вызывает сострадание и нежность, а в другом может вызвать нервозность или волнение. Слушая великий спектакль, мы испытываем чувства удовольствия, радости, вдохновения или, как говорят греки, «катарсиса» — процесса внутреннего, духовного очищения и обновления.

Влияние звуков музыки на психику человека также интересовало Абу Насра аль-Фараби и Абу Али ибн Сину. немецкий музыковед И. Маттесон глубоко размышлял о мощном влиянии музыки. Врачи из восточных и западных стран, хорошо знающие, что музыка вызывает у человека положительные чувства, эмоции и переживания, провели множество экспериментов по ее применению в качестве лечебного средства.

В медицине лечение проводится тремя разными способами: словом, травы и ножом. «Есть пациент, которого можно лечить словами», — сказал Абу Али ибн Сина. Логопедия (психотерапия) является одним из основных факторов медицины. Однако слово тоже не всегда оказывает лечебное действие, поэтому в это время, как правило, на помощь приходит музыка. П. И. Чайковский однажды сказал: «Когда слово бесполезно, музыка — самый влиятельный инструмент». Если мелодия привлекла внимание человека, знайте, что она вошла в психику словно ветерок. Известно, что мозг – психика – контролирует и управляет всеми процессами в организме. Расстройство желудка, переваривание пищи, в частности, производительность труда также тесно связаны с психикой. При звуках музыки сердце сразу приходит в себя, начинает биться в смелом, ритмичном ритме, артерии расслабляются, и кровь начинает течь ровно. Это радикально улучшает снабжение организма тяжелыми и сжатыми тканями. В результате каждый участник начинает выполнять свой «долг» с «радостью». Настроение также меняется под звуки музыки. Пациенты перестают испытывать такие чувства, как депрессия, паника или напрасная тревога. Пациентам, которые выздоравливают от такой депрессии, будет легче выздороветь.

Удовольствие от музыки велико для пациентов с сердечными заболеваниями. «В прошлом, до появления современного медицинского

оборудования и лекарств, 30 процентов пациентов с сердечными заболеваниями умирали», — говорит американский ученый Фринк Флуд, позже это число уменьшилось вдвое. И музыка снова уменьшила его». В наше время, в медицинских центрах за рубежом даже сложные операции стали проводить под звуки живой музыки. Безусловно, это дает хорошие результаты.

Де-Бак, французский профессор, освоивший сложнейшие операции на сердце, прodelывает любую операцию под музыку.

Воздействие успокаивающей музыки на психику можно сравнить с успокаивающими и снотворными препаратами, а также голубым, светло-желтым, желтым и голубоватым цветами или хорошим настроением, таким как голубое утро, ветерок, чистое озеро, летний вечер. Потому что все это естественные расслабляющие и приятные факторы.

Томас Эдисон, известный американский изобретатель, когда-то собрал 589 различных музыкальных произведений с помощью людей, хорошо разбирающихся в музыке. Из них были отобраны 112 работ, которые наиболее сильно воздействуют на чувства зрителей. Из них 15 были рекомендованы для творческих целей, 14 для успокоения нервов, 10 для веселья, 10 для укрепления дружеских отношений, 11 для возбуждения любви и 11 для подавления детского возбуждения.

Сторонники «науки» музыкотерапии рекомендовали следующий рецепт: «Лунная соната» Л. Бетховена («Лунная соната») и вторая кантата И. С. Баха для снятия гнева. «Прелюдия» Шонена, пятый квартет Б. Бартока для уменьшения ревности и опера Моцарта «Дон Жуан» против головных болей, а также А. Надо послушать вальс Хачатуряна "Маскарад"...

На самом деле магия музыки, для безумно влюблённых, уникальна.

В Древней Греции была широко распространена «наука музыкальной терапии». Например, математик и философ Пифагор рекомендовал музыку как средство всемерного оздоровления души и тела.

Говорят, что Искандар Зуль-Карнайн также делал многие свои дела под звуками музыки.

Голос сытого человека низкий, а голос голодного человека громкий. По этой причине было принято делать брюшко дутара, гиджака (скрипки и т. д.) пустым. В настоящее время разнообразие музыкальных инструментов значительно увеличилось. Каждый из музыкальных инструментов создаёт неповторимую мелодию и песню.

Абу Али ибн Сина любил звуки успокаивающей музыки и даже сам смастерил гиджак и играл на нём.

Рассказывают, что при звуке флейты змея перестала атаковать и склонила голову, туристы, на которых напали грабители, потерявшие свое имущество, успокоились, а грабители пришли в себя и раскаялись в своих действиях.

В одном из рассказов два озорных барашка играют в погоню и не подозревают, что ушли далеко. Как теперь вернуться к стаду? В этот момент вдалеке слышится звук флейты, и они бегут в этом направлении. Наконец они выходят навстречу к мальчику пастуху который играл на флейте: обе стороны в восторге. Эта флейта останется неотъемлемой частью пастухов.

Когда слышен мягкий и нежный, волшебный и травмирующий, меланхоличный и обольстительный звук дутара, он как будто действительно пытается сообщить нам тайну. Спонтанно наши сердца становятся склонными к страсти. Он пленил ваше сердце, и теперь он медленно ведет вас по улицам жизни. Когда видишь один, идешь домой, думаешь, когда видишь другой, благодаришь. Тогда вы почувствуете себя намного легче и спокойнее.

Вспомните роман А. Кадыри «Последние дни»: Отабек подвергся гонениям в Маргилане и попал в Ташкент. Он входит во двор в глубокой деревне. В страсти чтоб послушать звуки дутара он умоляет колосья. Отабек «...отдается печальному звучанию дутара. Звук дутара был слышен так, как будто он каким-то образом рассказывал историю своего горя. Дутар не плакал просто, а сотрясал всю вселенную и сотрясая больные сердца заставлял их плакать. Не выдержав, Отабек закрыл глаза платком и заплакал. Он хотел остановить слезы, но текущей воли не было в нем. Вся воля была в заветной мелодии дутара, в его нетерпеливом плаче. После «Наво» Отабек слушает «Савта» и успокаивается.

Ведь магия музыки тоже зависит от умения играть.

Некоторые звуки музыки можно назвать радостными тонами. Когда слушаешь такие мелодии, сердце вздымается, как гора. Сердце бьется бодро и смело, лицо открывается, нервы и вены расширяются. Такое же ощущение вызывают свадебная церемония, весенняя пора, цветы и соловьи, радостные реки.

Однажды Фароби Рэй пришел на вечеринку в Тегеране в честь министра Сахиба Аббада. Казалось, никто не узнал его. Фароби вошел на вечеринке и тихо сел в стороне. Примерно через час он взял свой музыкальный инструмент и начал играть замечательную мелодию. Когда он сыграл первую часть мелодии, все вокруг были в восторге. Услышав вторую часть мелодии, они были в состоянии полного отчаяния, рыдая и проливая слезы. Когда прозвучала третья часть мелодии, все взволновались, а потом уснули. Тогда гость написал на ручке музыкального инструмента: «Пришел Фароби, был здесь и ушел».

Говорят, что только один-два человека из тысячи могут быть равнодушны и небрежны к музыке. По этому поводу есть образцовое повествование, хотя и из жизни младенцев.

Спросили мудреца:

- Можно ли узнать дух младенцев?
- “Можно, посмотрим, сможем ли мы собрать вместе всех здоровых младенцев”, — сказал мудрец.

Люди приносили своих младенцев на площадь и клали их рядом. Внезапно площадь наполнилась плачущими криками. Когда мудрец указал на музыкантов, звуки музыки раздались эхом. Большинство детей сразу же перестали плакать. На глазах у некоторых слезы. Только один или два рыдали.

- «По духу ребенка известно, что он есть», — сказал мудрец, указывая на младенцев.

Этот феномен поддерживает теорию психики Букрата хакима, основанную на его опыте. Букрат хаким делил людей на четыре категории по их психике. Люди с красной кровью в теле (сангвиники) были от природы жизнерадостны и чувствительны к впечатлениям так же, как и к музыке. Хотя слизистые

флегматики часто склонны к желчи, они все же находят время для прослушивания музыки. Люди с темпераментом желчи (холерики) — это люди, привыкшие к обоим и мало чем отличающиеся от флегматиков в музыкальном плане. Тело, в котором преобладает чёрная желчь (меланхолия), неуступчиво и безразлично к музыке.

«Я настолько люблю музыку, что даже свое творчество обычно делаю под звуки музыки. На мой взгляд, хорошая, приятная музыка не мешает работе, наоборот, она доставляет удовольствие, поднимает настроение, вдохновляет и ведет в благородный мир», - сказал академик Т.Н. Кори-Ниязи.

Ученые считают, что музыка является настоящим источником силы. Музыка действительно дает человеку жизненные силы, душевное наслаждение.

Если пункт назначения сопровождает хороший человек, или если он поет, то дорога как бы сокращается, и человек не чувствует усталости.

Не зря в одной из сербских пословиц сказано, что разговор сокращает путь, музыка, пение облегчают работу.

При прослушивании какой-то музыки ("Чули Ирок", "Наво", "Караван") можно глубоко задуматься, перед глазами иногда приходит семейная жизнь.

«Колыбельная»... Эта песня настолько успокаивает нервы, что ее прослушивание успокаивает сердца не только детей, но и взрослых. «Колыбельная» всегда играла и играет важную роль в музыкально-эстетическом воспитании детей, — говорится в энциклопедии.

Макомы также имеют одинаковое влияние на сердце. Нужно использовать это чудесное богатство нашего народа для продления жизни, для обогащения нашей жизни на каждом шагу, на каждом вздохе, тогда наш дух и настроение освежится, и мы будем жить счастливо.

Мелодия невольно следует за человеком и входит в мир мыслей и чувств. Он побуждает человека думать, осмысливать в зависимости от сознания и уровня ребенка. Слушать музыку и песни, понимать их глубоко и быть в состоянии увлечься ими – большое счастье.

Но, к сожалению, некоторые недостаточно хорошо понимают язык музыки. Вот почему очень важно позаботиться о передаче музыкальных знаний подрастающему поколению. Ведь следующее поколение, которое будет развиваться во всех отношениях, должно хорошо разбираться в музыке.

Среди многих средств воздействия на юную душу музыка играет главную роль. Наслаждение, присущее нравственно и эстетически воспитанному человеку, выражается в том, что на человеческое сердце воздействуют такие благородные намерения, как добрые слова, увещевания, советы, пожелания доброго пути. Музыкальное образование и этика - это вопрос, который необходимо глубоко изучить и применять. Искусство музыки есть самое тонкое средство привлечения человечества, удивительно влиятельной красоты. Когда человек слушает музыку, он осознает, кто он есть, и если у него есть какие-то отрицательные качества, он понимает, как их устранить. Музыка помогает человеку осознать имеющиеся у него отрицательные качества. Музыка – мощное средство самовоспитания. В процессе обучения, то есть при определении содержания музыкального образования, важно выявить психологические, физиологические особенности развития учащихся. Главная задача воспитания молодежи с помощью музыки – научить ее всему богатству, накопленному за всю историю развития узбекской музыки, и внедрить его в свое сознание. Музыкальное, эстетическое чувство есть результат воспитания в национальном контексте.

В заключение, мир музыкальных звуков, образов, мыслей и эмоций возвышает душу, соединяет ее с бытием, открывает порой необъяснимые возможности воображения, уводит в бескрайние просторы мира, приближает нас к реальности, идеалу, делает нашу жизнь осмысленной, полна смысла духовно богатым и красивым.

Способность музыки воздействовать на психику человека, его здоровье и эмоциональное состояние, положительное влияние глубоких музыкальных переживаний в процессе прослушивания и исполнения музыки - важная основа научных исследований как в медицине, так и в музыке.

Музыкальное образование и этика - это вопрос, который необходимо глубоко изучить и применять. Мир музыкальных звуков, образов, мыслей и эмоций возвышает человеческий дух, объединяет его с бытием, открывает порой необъяснимые возможности воображения, фантазии, уводит в бескрайние просторы мира, приближает нас к реальности, идеалу, делает нашу жизнь осмысленная, осмысленная, духовно богатая и красивая.

#### **Использованная литература:**

1. Музыкальное воспитание в современном мире. М., 1970.
2. Музыкальная эстетика стран Востока. / Под ред. В.П.Шестакова. М., 1967.
3. Матёкубов О. Фараби об основах музыки Востока. Т., 1986.
4. Ибн Сина (Авиценна). Избранные философские произведения. М., 1980.
5. Аль-Фараби. Филосовские тракты. Алма-Ата, 1970.
6. Петрушкин В.И. Музыкальная психология М., 1997.

---

## **BARKAMOL INSON TARBIYASIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNING O'RNINI**

*Karimova Zarifa Gulyamovna  
O'zDK "Musiqiy pedagogika" kafedراسи  
dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi*

Mafkuraviy immunitet insonning diniy qaramlikda milliy mustaqillik ustunlik qiladi degan ishonchiga asoslanadi. Tashqi stimul xususiyatini beruvchi omillarni (yoki hatto kasalliklarni) ma'lum darajada diniy ekstremizm kabi buzg'unchi g'oyalari deb atash mumkin. Ular zaiflashgan odamlarning ongiga kirib boradi, ularning immuniteti keladigan "infeksiya" bilan kurashishga qodir emas. Shu sababli turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet yoshlarni to'g'ri tarbiyalash, ijodiy g'oyalarni, vatanparvarlik va kelajakka bo'lgan ishonchni ularning nozik va tashqi ta'sirida bo'lgan



ongiga singdirish orqali shakllanadi. Ushbu jarayonda ta'lim juda muhim rol o'ynaydi, chunki johillik buzg'unchi g'oyalarning asosiy sababi hisoblanadi.

Hozir biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan zamonlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir davrda yashamoqdamiz. Ma'lumki, mamlakatimizda milliy-ma'naviy tiklanish, yoshlarimiz ongi hamda dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida boyitib borish, milliy ma'naviyatimizni turli tahdidlardan asrash, yoshlarni dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, tashabbuskor, halol va jonkuyar hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladigan qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning puxta bilim olishi, kasb-hunar egallashi, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida kamol topishi yo'lida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, yoshlar ma'naviyati masalasiga nafaqat bugungi kunda, balki oldingi davrlarda ham muhim va ahamiyatli muammo sifatida e'tibor berilgan. Ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini shakllantirish masalasi turli darajadagi jamiyat va falsafa, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning ixtisoslashuvi bilan bog'liq bo'lgan gumanitar bilimlarning birlashmasidan iborat. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" asarida yoshlarni ma'naviy yetuk inson etib tarbiyalash, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lyish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi, yoshlar bilimi, saviyasini oshirish uchun ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerakligi ilgari surilgan [3].

Ma'lumki, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizning bugungi siyosatida yosh avlodni axloqiy va ma'naviy tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi, chunki yangi dunyoqarashga ega bo'lgan ma'naviy yetuk yoshlar jamiyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu

sababli yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha besh muhim tashabbusda ilgari surilgan "ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish" [1] hamda "yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarish" [2] orqali yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularning faolligi, ma'naviyati va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan axloqiy fazilatlar ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda integral omil bo'lib xizmat qiladi, kelajakka bo'lgan ishonchlarini mustahkamlaydi hamda ularni taraqqiyotga yo'naltiradi. Bu esa har tomonlama bilimdon, ma'naviy jihatdan boy, barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xo'sh mafkuraviy immunitet nima? Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari nimadan iborat? Umuman immunitet nima?

Immunitet (lot. immunita - ozod bo'lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet - kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Ya'ni immunitet inson vujudining turli infeksiyon kasalliklarga bo'sh kelmaslik holatini ifodalaydi.

Darhaqiqat, biz immunitet deganda har qanday tashqi ogohlantirishlarga qarshi turish sifatida tushunishga odatlanganmiz. Ushbu tushunchani falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, immunitet deganda tashqaridan boshqariladigan g'oyaga yoki aytiladigan voqea-hodisaga qarshi himoya, nimanidir oldini olish, unga qarshi kurashish ko'nikmasining hosil bo'lishini tushunish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, immunitet tug'ma bo'ladi, mafkuraviy immunitet esa – shakllanadi. Demak, mafkuraviy immunitet - shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimidir.

Darhaqiqat, mafkuraviy immunitet – bu shaxsni, ijtimoiy guruhni, millatni, jamiyatni turli yot g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan murakkab tizim deyish mumkin. Shu sababli, mafkuraviy immunitet tizimi «bilim, qadriyatlar

tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi aniq mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq».

M.Quronov fikricha, mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak, ya'ni «o'smirning fiziologik yosh xususiyatlariga; o'smirning aqliy imkoniyati, his-tuyg'ularining rivojlanganligiga; egallagan bilim va malakasi darajasiga; g'oyaviy shakllanishi uchun mavjud shart-sharoit, uning turmush tarziga» [5, B. 31].

Sh.Shakirov maqolasida harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetining nazariy jihatlari, uning harbiy xizmatchilarning kasbiy fazilatlarini shakllanishiga ta'siri, harbiy xizmatchilarga xos bo'lgan mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismlari va ustuvor yo'nalishlari hamda ularning xatti-harakatlarida, yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishda namoyon bo'lishini tahlil qiladi [6]. Shuningdek, harbiy xizmatchining g'oyaviy immunitetining mazmuni va tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: kognitiv, hissiy, intellektual-irodali va konativ. Ushbu tuzilishga asoslanib, harbiy xizmatchining g'oyaviy immunitetining har bir nomlangan tarkibiy qismining mazmunini aniqlash mumkin [6]. Xo'sh, mafkuraviy immunitetning mohiyati nimada?

Mafkuraviy immunitetning asosiy va birinchi elementi bu bilimdir. «Bilim - ob'yektiv reallikning sub'yekt ongida tizimli aks etishidir. Epistemologik nuqtai nazardan esa, bilim – ob'yektiv ma'noga ega bo'lgan va haqiqatning mohiyatini ochib berishga yordam beradigan hodisa. Bunda bilim to'g'ri tanlansa, ezgu maqsad va faoliyatga yo'naltirilsagina ob'yektiv ma'no-mazmun kasb etadi» [9, B. 15]. Darhaqiqat, insonning ijtimoiy turmush taraqqiyoti asosida bilim yotadi, ya'ni bilim ijtimoiy tajribani harakatlantiradi. Shu sababli jamiyatda to'plangan ilmiy bilimlar o'z dalillari bilan birgalikda odamlarning xilma-xil amaliy harakatlariga asos bo'lgan umumiy boylikni tashkil etadi. Bunda birinchidan, mafkuraviy immunitet tizimini bilish ob'yektiv bo'lishi, haqiqatni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, insonning ma'naviy dunyosini boyitishi va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, bu bilimlar mohiyatan Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Darhaqiqat, yoshlar

dunyoqarashining umumiy tizimida sogʻlom eʼtiqod, ishonch va milliy qadriyatlar tizimining ustuvorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi bilimlar asosida shakllangan qadriyatlar tizimidir. Darhaqiqat, bilim qanchalik obʼyektiv va chuqurroq boʻlsa, ularning asosida shakllangan qadriyatlar shunchalik ishonchli boʻladi. Xulosa qilib aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitet imkoniyatlarini belgilaydi va mafkuraviy tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon boʻlib xizmat qiladi.

Ammo bilim va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini toʻliq aks ettira olmaydi. Zero, mafkuraviy immunitetning ushbu ikki elementi uning uchinchi muhim elementi, yaʼni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-maʼrifiy sohalardagi aniq maqsadlar tizimi bilan bogʻliqdir. Ushbu maqsad ongli boʻlishi kerak va unga erishish uchun qatʼiylik talab etiladi. Bunday aniq tizimsiz na shaxs, na millat yoki jamiyat ochiq yoki yashirin tabiatning mafkuraviy tahdidlariga dosh berolmaydi.

Demak, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin: bilim, qadriyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-maʼrifiy sohalardagi maqsadlar tizimi bilan bogʻliq qarashlar.

Yuqoridagilardan shuni taʼkidlash kerakki, mafkuraviy immunitet - bu maʼnaviy, maʼrifiy, iqtisodiy bilimlarni ongli ravishda idrok etish va shu asosda zamonaviy ijtimoiy voqealarga oʻz munosabatini bildirish koʻnikmalarini shakllantirishdir. Shu bilan birga mafkuraviy immunitet tashqi yoki ichki mafkuraviy taʼsir mavjudligida namoyon boʻladi. Bunda yangi, notanish gʻoyani tanlash uchun odam uni oʻz manfaatlarini "koʻrish" orqali oʻtkazadi. Agar gʻoya maʼlum bir davrda inson manfaatlariga mos keladigan boʻlsa, u holda boshqa gʻoyalarning takliflarini magʻlubiyatga uchratib, uning harakatlariga rahbarlik qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son «Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Qarori. <https://lex.uz/docs/4320700>

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. IV jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2020, 453 b.

3. Quronov M., Qodirov A., Akramova SH. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2018, 112 b.

4. Shakirov Sh. Mafkuraviy imunitet harbiy xizmatchilarning kasbiy fazilati sifatida. Jamiyat va innovatsiyalar–Obshestvo i innovatsii–Society and innovations Special issue -1, No01 (2020).

---

## MUTAFAKKIRLAR MA’NAVIY MEROSINING YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

*Radjabova Sanobar Raximovna  
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi  
“Musiqiy pedagogika” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

“Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma’rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulki bo‘lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik hamda bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.” [1]

Zero, boy madaniy meros va milliy qadriyatlarimizning eng go‘zal an‘analari, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimizning milliy g‘ururini shakllanib, rivojlanishining eng muhim manbaidir.

O‘zbekiston davlati bugun xalqaro miqyosda yangi davrni Yangi O‘zbekiston nomi bilan rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidan borar ekan, o‘zligiga, buyuk ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ilm-fan, ma’naviy va madaniy merosni tiklash hamda, boyitishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani muhim vazifa bo‘lib kelmoqda. Bu boradagi ilmiy tadqiqot, nazariy va amaliy ishlar, xalqimiz milliy madaniyati va ma’rifatini yangi bosqichlarda shakllanib, rivojlanishining muhim asosi – manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois,

davlatimizning haqiqiy tarixi va boy madaniy merosimizni, qanday bo'lsa shundayligicha, to'la tiklash davlatimiz siyosati hamda, Prezidentimiz va olimlarimiz faoliyatining asosiy yo'nalishlariga aylandi.

Har bir davr va avlod o'ziga xos meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday bo'ladi.

Kishilarning dunyoni, undagi qonuniyatlarni o'rganishga bo'lgan intilishlari tushunchalar majmuasi sifatida shakllanib, ular falsafiy yo'nalishdagi bir qator «maktablar» vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Yunonistonlik donishmandlar Misr, Bobil, Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan dunyoviy bilimlarga asoslanib Ioniya, Pifagor, Platon, Ptolomey «maktablari» kabi falsafiy yo'nalishdagi «maktablar»da ilm-fanni rivojlantirganlar. IX-XV asrlarda Markaziy Osiyo zamini o'z bag'rida butun bir avlod, teran tafakkur egalarini voyaga yetkazgani bois, ushbu davr Sharq tarixida Oltin asr yoki Sharq uyg'onish davri deb nom olgan.

XI asrda buyuk xizmatlari bilan tarixda o'z o'rniga ega bo'lgan olim Yusuf Xos Hojibdir. Uning «Qutadg'u bilig» asari baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni anglatadi. Asar nomidan ham uning pand-nasihati, ta'lim-tarbiyaga oid yetuk didaktik asar, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligini anglatadi.

Yusuf Xos Hojib o'z asarida komil inson tarbiyasi haqida fikr yuritarkan, ma'naviy kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlarini va shaxsiy istaklari doirasidan chiqib, boshqalar g'ami bilan yashash, ular manfaati uchun fidoyi bo'la bilishidir, deb ko'rsatadi.[2]

Ma'rifiy qadriyat sifatida bu asar «Axloq- odob, ta'lim va tarbiya hamda ma'lum ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan qomusiy didaktik ruhda yozilgan ta'lim-tarbiya, odob-axloq va hikmat darsligidir». Shuning uchun ham bu asar qadriyat sifatida yillar davomida o'rganiladi.

Abu Nasr Forobiyning aqliy bilish haqidagi ta'limotida inson jismoniy, axloqiy, aqliy jihatdan mukammal bo'lmog'i zarur, ana shundagina u baxtli bo'la oladi, deydi va

baxtni komillik mezoni sifatida talqin qiladi. Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, bu haqida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir. U insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni o'zaro do'stlikka, tinchlikka chaqirib, dunyoda yagona insonlar jamiyatini tuzishni orzu qiladi. [4]

Forobiy inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatni qoralab, inson qadr-qimmatini ulug'lovchi jamiyatni orzu qiladi. U o'zining «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» asarida: «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi», - deb yozadi. [3]

Abu Ali ibn Sino axloqiy tarbiyada ta'lim-tarbiyaning rolini alohida belgilaydi. Shuningdek, yosh avlod tarbiyasida oila va davlatning, jamiyat taraqqiyoti masalasiga katta e'tibor beradi. Ana shunda ma'lumotli, madaniyatli kishilarning o'sishi ro'y beradi, deydi olim. Ibn Sino asarlarida jismoniy va estetik tarbiyaning inson kamolotidagi o'rniga katta e'tibor beradi.

Sa'diy esa inson hayotida do'st bilan dushmanning farqiga etish shaxsiy hayotda ham, ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega, deydi. Sa'diyning «Guliston» asarida inson kamolotida jismoniy yetuklik asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Masalan, har qanday davrda ham ulug'lanadigan mardlik, chaqqonlik, jasurlik, kuchlilik har bir yigit egallashi zarur bo'lgan xislatdir.

Bu xislatlar inson gavdasiga emas, uni egallab olish mahoratiga bog'liq. Ana shunday jasurlik, epchillik, chaqqonlikni ko'rsatuvchi xislatlar ulug'langan hikoyatlar «Guliston»da talaygina.

XVI asrning mashhur tarixchilaridan biri Xondamir o'z zamondoshi Koshifiy haqida bir necha asarlarida yuksak e'tibor va ehtirom bilan tilga olib o'tib shunday muhim ma'lumotlarni beradi: «Mavlono Kamoliddin Husayn Voiz turli xil ma'qul ilmlar va turlicha naql etilgan fanlardan tamom foyda olgan va bahramand...».

Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy» asari ham boshqa ta'limiy-axloqiy asarlar kabi odobnoma tipidagi asarlar qatoriga kiradi va unda javonmardlik ilmining qoidalarini ifoda etilgan.



Futuvvat (javonmardlik) ilmi insonni axloqan poklash, mehru shavqat, himmat va mardlik ko'rsatishni targ'ib etadi. Futuvvat sifatleri mavjud kishini fatiy deganlar. Fatiyning lug'aviy ma'nosi - yoshlik. Bu so'z yosh yigitga nisbatan berilgan. Shu bilan birga majoziy ma'noda insoniy fazilatlar nuqtai nazaridan kamolot chegarasini zabt etgan odamga – yoshlarga nisbatan qo'llanilgan.

Javonmardlikning ruknlari (ustunlari) o'n ikkita bo'lgan.

Asarda keltirilishicha, futuvvat sharti 71 ta bo'lib, uning 48 tasi vujudiy, 23 tasi azaliy deb keltiriladi.

Vujudiyga eng muhimlaridan islom, imon, aql, ilm, muruvvat, shavqat, shijoat, g'ayrat, oliyhimmatlik, pokizalik, sirni saqlash, ustoz xizmatida bo'lish, halollik, mazlumlarga yordam, omonatga xiyonat qilmaslik, shaytoniy nafsga qarshi dushmanlik, zikr va boshqalar kiritiladi. Man qilinadigan (parhez) narsalarga esa pirga qarshi borish, qabih ishlarni gapirish, birovni ortiqcha mazax qilish, gap tashish, ortiqcha kulish, va'daga xilof ish qilish, odamlar bilan muomalada makr-hiyla ishlatish, hasad, zulm o'tkazish, aldash, mol-dunyo orttirishga ruju, hirs qutqusiga uchish, odamlardan ayb qidirish, yolg'on qasam ichish, xalq molidan tama' qilish, xiyonat qilish, bo'hton-tuhmat qilish, yolg'on guvohlik berish, sharob ichish, sudxo'rlik qilish, yomon mahzabli odamlar bilan suhbatlashish va boshqalar.

Futuvvatning barcha qoida-nizomlari ustoz yordamida sinovdan o'tgach, bel bog'lash shartlari bajarilgan va yoshlar javonmardlar jamoasiga qabul qilingan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirgan qadriyatlar bugungi kunda yoshlar va talabalar uchun ham milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimiz an'analariga sodiq bo'lish, shu bilan birga hozirgi zamon talablari va andozalariga mos keladigan ilmiy-amaliy va innovacion tayyorgarligini oshirishga katta hissa qo'shishi shubhasizdir.

### **Adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi yig'ilishidagi O'zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ma'ruzasidan, – T.: 2017, 23 iyun Ma'rifat gazetasi.

2. To'xliyev B. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari. –T.: O'zbekiston, 1991, 64 b.

3. U.Uvatov. Buyuk yurt allomalari – T.: “O‘zbekiston”, 2018, –85 b.
4. Qurbonova G.A. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “Musiqqa nashriyoti”, 2018.
5. Koshifiy Husayn Voiz. Axloqi muhsiniy (“Yaxshi xulqlar”). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010, 664 b.

## ДЕВИАНТ ХУЛҚЛИ ЎСМИРЛАРГА ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИНГ САБАБ ВА ЕЧИМЛАРИ.

*Гулноза Абдуқаҳҳорова  
Қашқадарё ВХТХҚТМОҲ Маркази  
Педагогика психология ва таълим менежменти  
кафедраси катта ўқитувчиси*

Халқаро миқёсда девиант хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий-психологик сабабларини аниқлаш ва уни баҳолаш ўта илмий аҳамият касб этиб, психологик билимлар тизимини модернизациялаш, ижтимоий муҳит талабларига интеграциялаш, девиант хулқ-атворни бартараф этишга қаратилган янги психологик хизмат дастурларини жорий этиш, жамият ҳаётида ёшлар фаоллигини ошириш ва уларнинг касбий камолотини таъминлашга хизмат қилувчи илғор инновацион механизмларни ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

Мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар туфайли ёшлар таълим-тарбиясига оид юртимиз келажаги учун юқори малакали мутахассисларни, юксак интеллектуал, маънавий-ахлоқий салоҳиятга эга бўлган ёшларни тарбиялаш ишларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси лойиҳаси, 2017- 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш”, “Ёш авлоднинг ижодий ва интеллектуал салоҳиятини қўллаб-қувватлаш ва рўёбга чиқариш, болалар ва ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш” каби муҳим вазифаларнинг белгилангани

фикримиз далилидир. Маълумки, жамият ҳар доим инсоннинг ўзини тутиши муаммосига алоҳида эътибор беради, чунки инсоннинг баъзи ҳаракатлари жамиятда умум қабул қилинган ёки расмий равишда белгиланган ижтимоий нормаларга доим ҳам мос келмайдими. Девиант хулқ-атвор масаласининг долзарблиги махсус йўналишдаги психология - девиант хулқ-атвор психологияси доирасида амалга оширилаётган муҳим илмий тадқиқотлар билан узвий боғлиқдир. Девиант хатти-ҳаракатлар – бу инсон хатти-ҳаракатларининг жамият ёки гуруҳлар фаолиятига, меъёрлар, хулқ-атвор қоидаларига, ғоялар ва муносабатларга ҳамда жамият қадриятларига мос келмаслигидир. Жамият нормалари - бу доимий ўзгаришлар олдида ижтимоий тизимни, ҳаётий мувозанатни ушлаб турувчи механизмдир.

Психологияда девиант хулқ ва унга олиб келувчи омиллар бўйича кўплаб хориж тадқиқотлари амалга оширилган. Амалга оширилган кенг қамровли тадқиқотлар девиантхулқ-атвор келиб чиқишининг ижтимоий- психологик, ижтимоий-педагогик, криминологик ҳамда социологик жиҳатларига бағишланган. Биз тадқиқ этаётган муаммога оид эътиборга молик ёндошув сифатида, Т.Парсонс ва В.Майсакларнинг тадқиқотларини мисол қилиш мумкин. Муаллифлар девиант хулқли шахсларни ўрганишда бихевиористик ҳамда психоаналитик ёндошувни энг самарали услуб сифатида кўрадилар. Яъни девиант хулқнинг намоён бўлиши инсон онги ости соҳасида қолган яширин агрессиялар, бошқаларга қаратилган ўч олиш истаклари билан ҳам боғлиқдир. Шунингдек, оиладаги тарбия муҳитининг яхши эмаслиги, нотўлиқ оилавий ҳаёт ва тарбияга таъсир этувчи асоссиз низолар ҳам девиант хулқ намоён бўлишининг шарт-шароитлари ҳисобланади<sup>5</sup>.

Психолог А.Бандура барча девиант хулқли шахсларни уч тоифага ажратади<sup>6</sup>:

-“ижтимоийлашмаган” типли-тажовузкор, ёлғизликка мойил шахслар;

-“ижтимоийлашган” типли-гуруҳларга бирлашган деликвент хулқдаги шахслар яъни жиноятчи тўдалар;

<sup>5</sup>Парсонс Т. Функциональная теория изменения // О структуре социального действия. М.: Академический Проект, 2000 - С.386.

-“ўта хафвли тип-секталар ва тақиқланган гуруҳларга, культмаданиятга аъзо шахслар. Ушбу таснифдан ҳам кўринадики, девиант хулкли ўсмирлар учун, бундай гуруҳлар фаолияти ўзига хос муҳит ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, АҚШ ва Буюк Британияда девиант хулкли шахсларни ўрганишда асосан, криминологик (миқдорий) ва ижтимоий-психологик (сифат) кўрсаткичларга кўпроқ эътибор берилади. Мисол учун жиноятчининг ёши, жинси, ижтимоий ҳолати, маълумот даражаси, оилавий ҳолати ва бошқалар. Мазкур мезонлар жиноятни тез очишга имкон берса, иккинчи ҳолатлар яъни жиноий вазият ва унинг тузилиши, динамикаси, жиноятчи шахси кабилар ижтимоий-психологик жиҳатларни очишга хизмат қилади.

Ҳозирга қадар АҚШ ва Англия девиантологиясида девиант хатти-ҳаракатларнинг 40 дан ортиқ турларига доир назариялар яратилган. Жумладан, социологик, криминологик, ижтимоий-педагогик, психологик-педагогик ҳамда биологик назариялар улар қаторидан ўрин олган.

Замонавий психологик тадқиқотларда шахсдаги девиацияни тадқиқ этишнинг биологик ва психологик назариялари кўпроқ эътироф этилиб, мазкур назариялар деликвент (жиноий) хулқ сабабларини аниқлаш, жиноятни содир этиш учун асос бўладиган ирсий ва психологик омилларни очиб бериш кабилар билан характерланади. Замонавий психологик тадқиқотларда, ўсмир ёшлар орасида девиант хулқ-атвор намоён бўлишининг олдини олиш бўйича ўзига хос йўналишлар яратилмоқда. Бундай илғор ишларнинг замирида социология ва ижтимоий- психология фанининг роли беқиёсдир. Чунки, социология фанида ўз ечимни топа олмаётган кўплаб девиация борасидаги масалалар, ижтимоий – психология соҳаси тадқиқотларида аниқланмоқда. Чунки, социология фани девиант хулқ-атворнинг юзага келиш сабабларини фақат инсоннинг ўзидан эмас, балки жамиятда юзага келадиган шарт-шароитлар, инқирозли вазиятлар, инсон оимилига нисбатан жамиятнинг баҳоси, инсониятга яратилаётган шарт-шароитлар орқали тушунтиришга ҳаракат қилади. Таъкидлаш жоизки, айнан шу ёшдан бошлаб, ўз-ўзини англаш, болалик ҳис-туйғуларини катталар дунёқарашига

ўзгариши, шахсни ички “мени” ва уни англаш даври бошланади. Ўсмирлик даври энг мураккаб палла ҳисобланади. Уларнинг жисми, ақли, онгида бўлаётган ўзгаришлар безовталиқ, ҳис- туйғуларнинг беқарорлиги, ички курашлар сабабчиси бўлиб қолади. Ўсмирлар кўп ҳолларда нафақат жисмоний ривожланишдан, балки бир қанча ижтимоий инсонлараро муносабатларда ҳам безовталиқ, ноқулайликларни бошдан кечирадилар.

Демак, ҳар бир ота-оналар, мактаб ўқитувчилари бу даврда ўсмирлар билан муносабатларда эҳтиёткор бўлишлари, уларнинг ҳар бир ноқулайликларини назардан четда қолдирмасликлари лозим бўлади.

Шуни ёдда тутиш лозимки, ўрта мактаб давридаёқ, ўсмир ёшларда толерантлиқ, эмпатия, комформизм, гуруҳий жипслиқ, альтуризм, ижтимоий онг, қадриятларга содиқлик, жамият равнақиға алоқадорлик ҳисларини шакллантира борилса, унда ёшларнинг девиант хатти – ҳаркатларни баҳолаши, шахслараро муносабатларда ўзини тутиши, вазифаларға бўлган масъулиятлиқ ҳисси, ўз-ўзини назорат қилиши меъёрда кечиши эҳтимолдан ҳоли эмас.

Демак, ўсмирнинг тенгқурлари билан бўлган муносабатлари ҳам унинг ҳаёти учун катта аҳамиятға эға. Шунинг учун ҳам девиант хулқ сабабларини ижтимоий –психологик жиҳатдан ёритиш ўта муҳимдир.

### Адабиётлар.

1.“Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. – 6 (766)-сон. Б.38.

2.Асадов Ю, Р. Мусурманов “Ўсмирлар девиант хатти-ҳаракатининг ижтимоий-психологик хусусиятлари” - Т. Сано стандарт, 2011. – 155 б.

3.Асмолов, А. Г. Психология личности: учеб. / А. Г. Асмолов. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1990.– 336 с.

4.Бондаренко Н.В. Личностно-характерологическая изменчивость подростков / Н.В. Бондаренко // Девиантология: Хрестоматия; ав-тор-составитель Ю.А. Клейберг. – СПб.: Речь, 2007. – 289 с.

5. Визель Т. Г., Сенкевич Л. В., Яньшева В. А., Железнова А. К. Девиантное поведение подростков: теории и эксперименты./

## ШАХС ТАРАҚИЁТИДА ИЛМ-МАЪРИФАТНИНГ ЎРНИ

*Нодиржон Абдулаҳатов  
тарих фанлари номзоди*

Олмон шоири Хейнрих Хайне: “Ҳар бир даврнинг ўз муаммолари бор, уларни ечиш инсоният тараққиётини таъминлайди”, дея инсоният олдидаги муаммоларни ечилмай қолиши кишилиқ жамиятига нақадар катта хавф солишини таъкидлаб ўтган эди. Дарҳақиқат, бугунги кундаги барчамизни ташвишга солаётган мафкуравий хуружлар, “оммавий маданият” таҳдидини бартараф қилмас эканмиз, нафақат бугунги, балки келажак авлодларимизнинг фаровон турмуши хавф остида қолиши мумкин. Зотан, тушунчалар сохтаси билан алмаштирилса, ахлоқ билан ахлоқсизликнинг фарқи қолмаса, қадриятлар қадрсизланса, ҳозирги инсоният тараққиётини ич-ичидан кемираётган қусурлар камаймайди.

Кундалиқ оммавий ахборот воситаларида Ғарб мамлакатларида мактаб ўқувчисининг ўз тенгдошлари ёки ўқитувчисига қарата куппа-кундузи ҳеч иккиланмай ўқ отиши, қурол билан ўқталиши, шафқатсизларча қотилликка қўл уриши билан боғлиқ шов-шувга сабаб бўлаётган ҳодисалар сони тобора ортиб бораётганлиги барчани ташвишга солмоқда. Чунончи, Ғарб мамлакатларида бундай аянчли ҳолатларни юзага келтирувчи омиллар талайгина. Бу, аввало, оммавий ахборот воситалари ва Интернет тармоқларида қадриятлар тизимини оёқ-ости қилинишига қаратилган иллатлар авж олишида яққол кўринмоқда. Бу ҳолат бизга халқимиздаги “Не хилда яшасанг, шу хилда ўйлайсан” деган мақолни эслатади. Хусусан, ҳуқуқшунос олим А.Азизхўжаев ўзининг “Чин ўзбек иши” номли китобида хорижий оммавий ахборот воситаларининг ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиясига кўрсатаётган салбий таъсири тўғрисида жумладан

куйидагиларни келтиради: “Статистик маълумотларга кўра, ўша кўкларга кўтариб макталаётган маданият эгаси бўлган ёш америкалик 18 ёшга келиб, компьютер ўйинларидаги 40 мингга яқин қотилликнинг гувоҳи ёки “муаллифи” бўлиши аниқланган. Бундан ташқари, шундай навқирон ёшда у кинофильмлар орқали 200 мингга яқин зўравонлик ҳаракатларининг шоҳиди бўлар экан. Бу жиҳатдан мутахассислар Ғарб маданиятига “ўлим ғоясини тарқатувчи маданият” сифатини бермоқдалар [1,394-б]”.

Зўравонлик ва ахлоқсизликни тарғиб этувчи ғоялар сингдирилган фильмлар ҳамда компьютер ўйинларига муккасидан кетган болаларда аввалига мантиқий бузилиш жараёни кечса, вақт ўтиши билан унинг ҳиссий кечинмалари ўзгариб боради. Натижада беғубор ёш вужуднинг руҳиятини совуққон, худбин, манқурт, шафқатсиз руҳият эгаллайди. Бора-бора бундай руҳан носоғлом ёшлар ўзлари қўл урган қабих ишлардан уялиш, қизариш ўрнига мағрурлана бошлайдилар. Чунки “оммавий маданият” таъсирида ёшларда энг нозик тушунчалар, айниқса, уялиш ҳисси бой берилмоқда. Қаерда уятчанлик тушунчаси бўлмас экан, ёшлар жиноят сари юз тутаяди. Машҳур рус ёзувчиси Лев Толстой айтганидек, “Уятчанлик кишига табиат томонидан жиноят иш қилишдан сақланиш учун берилган”.

Бу салбий кўринишлар чиндан ҳам ўша “оммавий маданият” томонидан берилган “тухфа”нинг самарасидир. Зеро, “оммавий маданият” аввало, кишини маънан емиришга хизмат қилади. Унинг ҳаёт, борлиқ, одамлараро муносабатлар, дунёқараш ва туйғуларининг қашшоқлашувига, қолиплашувига олиб келади. Бу ҳол ҳозирда **китч** ( заррача бадий-эстетик қимматга эга бўлмаган нарса ва буюмларга юксак андоза тусини бериш), **старизм** (субъектив эҳтиросларга берилган ҳолда эстрада артистлари, актёрлар, спортчилар, теледикторларни илоҳийлаштириш), **комикс** (тагига қисқа матн ёки луқмалар битилган беҳаё матбаа-расм маҳсулотлари), **хеппининг** (аввалдан режалаштирилмаган, ногаҳоний уюштириладиган “кескин” томошалар, масалан, автомобилларни уриб абжағини чиқариш, ёхуд ўт қўйиш орқали ваҳшиёна, оммавий “кўнгил очиш”лар) ва бошқа кўринишларда намоён бўлмоқда. Ушбу таъсирларга берилган инсон ўзининг ноодатий, ғайрихлоқий хатти-ҳаракатлари нотўғри эканлигига шубҳа



қилмайди ва унинг домига – тубанлик ботқоғига янада қуйроқ чўкиб бораверади. Алалоқибат донишманд Георгий фикри билан “Шармандалиқни эккан бахтсизлиқни ўради”. Бу ҳам етмаганидек, ёшларни жаҳолат ва саводсизлиқ сари етаклаб боради. Чунки улар тобора илмга бўлган интилишдан, меҳнат қилишдан ўзларини четга оладилар, яъни итальян файласуфи Жордано Бруно таъбири билан, “Саводсизлиқ – дунёдаги энг осон фан, унга ҳеч қандай меҳнатсиз эришилади”.

Александр Солженицин мустабид советлар тузумининг барча азоб-уқубатларидан, энг муҳими, руҳий очликдан қутулиш мақсадида Америкада яшай бошлаган вақтида бу ердаги талабалар билан бўлган учрашувда шундай хитоб этган эди: “Мен Америкага борсам, жуда бахтли бўламан, деб ўйлаган эдим. Афсуски, бу ерда ҳам руҳий бўшлиқни ҳис этяпман. Сизлар ортиқ моддиятнинг асирига айлангансиз... ҳамма моддиятга эътибор беради, руҳият билан қизиқмайди. Ҳамманинг руҳи бўм-бўш. Ҳолбуки, инсонни инсон қилган жисм эмас, балки унинг пок, комил руҳидир. Сизга тавсиям шуки, руҳингизни ўстиринг, уни гўзаллаштиринг! Фақат ўшандагина мамлакатингизда мавжуд бўлган ва сизни қийнаётган салбий ҳолат барҳам топади”. Ёзувчининг бу айтганларини нақадар тўғри эканлиги Дуглас Норманнинг қуйидаги сўзларидан ҳам билса бўлади: “Миллатнинг орзу ва мақсади тўғрисида унинг рекламасига қараб фикр юритса бўлади”.

Ёзувчи Александр Солженицин юқорида ёшларга айтган хитобига мана бир неча ўн йиллар бўлди. Аммо ўша салбий ҳолатлар камайиш ўрнига ер юзи бўйлаб кенгайиб борди. Бу эса инсоният учун глобал муаммога айланди. Хўш бу муаммолар ечими нимада? Албатта, буни бир-икки сўз билан тушунтириб бўлмайди. Бироқ, мухтасар қилиб айтганда, мазкур муаммоларни фақат миллий, халқона таълим-тарбия, маънавият, ички маданият билан пайванд қилинсагина, одамларни ҳар қандай пасткашлиқдан, тубанликдан асраб қолиш мумкин. Чунки инсондаги ёвузлик ва эзгулик ҳам, зарарқунандалиқ ва ҳожатбарорлик ҳам тарбиянинг мевасидир. Шу ўринда ҳинд мутафаккири Маҳатма Гандининг

куйидаги сўзларини ёдга олайлик: “Агар биз бутун дунёда тинчлик ўрнатишни истасак, ишни болалар тарбиясидан бошлашимиз зарур”.

Аждодларимиз бежиз айнан асосий эътиборни бола тарбиясига қаратмаганлар. Бу борада юзлаб мақолларнинг мавжудлиги фикримизнинг яққол далилидир. Шу ўринда бир мисол. Марғилон шахрининг XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошларидаги маданий муҳити тўғрисида сўз юритганда, тадқиқотчилар шахарнинг таълим-тарбия тизими борасида қизиқарли маълумотлар келтирадilar. Жумладан, француз сайёҳи Мари Бурдон Марғилондаги мактаблар тўғрисида кўрган-кечирганларини ўзининг 1881 йилда чоп этилган “Париждан Самарқандгача” номли китобида қуйидагича тилга олади: “Биз...Марғилон шахридан ўтдик. Барча уйлари худди ҳаммомли уйларга ўхшаб кетади. Бекчурин<sup>7</sup> жанобининг уйи Худоёрхоннинг<sup>8</sup> уруғларидан бири томонидан қурилган... Серҳашам шарқона услубда безалган саройча кенг ва чиройли боғнинг ўртасида жойлашган... Бир катта ҳовузнинг атрофида қамиш девор мавжуд. Бу нарса бола ҳовузда чўмилганликлари учун ўраб қўйилган. [Марғилонда] бир мактабни кириб кўрдик...у муҳташам бўлмаса-да, муаллимлар меҳрибон, болалар эса дарсларни жуда яхши ўқиётган эдилар [2, 299-300-б.]”.

Француз сайёҳи Мари Бурдонга Марғилонда таъсир қилган ҳолатлардан бири бу муаллимларнинг болаларга бўлган меҳрибончилигини зиёда эканлиги бўлган. Дарҳақиқат, ёзма манбаларда ўша даврнинг улуғ шахслари – мураббий устозлар болаларга таълим-тарбия берганликлари таъкидланади. Зеро, болаларнинг мурғак қалбига маърифат уруғини айнан ўша мураббийлар томонидан экилган. Улар ўқувчиларни ўз фарзандидан ортиқ кўриб тарбия қилишганини шоир Ғолиб Марғинович<sup>9</sup> ўзининг “Насаб”номасида келтириб ўтади:

<sup>7</sup> Солиҳ Бекчурин татар миллатига мансуб. Чор Россияси армиясининг «Мусулмонлар батальони» (Мусульманский батальон)нинг штаб капитани бўлган. 1876 йилдан то 1877 йилларгача Марғилон уезд бошлиғи (Уездный начальник) вазифасини эгаллаб турган.

<sup>8</sup> Худоёрхон Шералихон ўғли. Минглар сулоласига мансуб, 1831 йилда Қўқонда туғилган. 1884-йилда Афғонистоннинг Каррух мавзесида вафот этган. 1845–1875-йилларда (танаффуслар билан) Қўқон хони бўлган.

<sup>9</sup> Абдулазиз қори – Ғолиб Марғинович Болтабой ўғли. 1900 йилда Марғилонда туғилган. Кўплаб мўътабар асарлар муаллифи. Уч жилдлик “Тафсир”, “Ислоҳ тарихи”, “Қуръон тарихи”, “Шарҳи асмауллоҳ”, “Улфат”, “Нур тиллари” каби асарлар шулар жумласидан. 1982 йилда 82 ёшда вафот этган.

“...Мулла Абдулкарим ... мен ўқишга кирган пайтим (1906 йил)да жуда қариб мункайиб қолган эди. Дадам ҳам, маҳалладаги бошқа ҳамма ёши улғайганлар ҳам шу устозда ўқиб савод чиқаришганди.

Мулла Абдулкарим устоз соҳибҳол авлиё ва тақводор покиза бир зот эдилар. Шу одамда савод чиқарганларнинг ҳеч бири адашмади, ҳаммалари покиза инсон бўлиб етишдилар ва ҳаммалари ҳам ўзига тинч, дуруст ҳаёт кечирмоқдалар. Мен олти ёшда эдим. Дадам кўлимдан ушлаб, бир даста ширмон билан мактабга олиб келиб, устоз кўлига топширдилар.

Эрта билан мактабга келамиз. Болалар баъзиси “Алифбе” ўқиса, баъзиси “Ҳафтияк”, “Қуръон” ўқийди. Баъзиси “Чор китоб”, Бедил ўқиса, баъзиси “Мантиқ” ўқийди. Баъзилар эса, хат машқ қилади...

Аср яқинлашгач, ҳаммамиз тикка турамиз. Устоз ҳам ўринларидан турадилар. Шунда савол-жавоб бошланади:

Устоз: Уйга борганда нима деб кирасизлар?

Болалар баробар кўл қовуштириб эгилиб таъзим билан: “Ассалому алайкум”, деб кирамиз.

Устоз: Дадаларинг, оналаринг чақирса нима дейсизлар?

Болалар: Лаббай, деймиз.

Устоз: Ишга буюрсалар нима дейсизлар?

Болалар: Хўп деб, дарҳол бажарамиз.

Устоз: Кўчаларда катталарни кўрганда нима дейсизлар, нима қиласизлар?

Болалар: Ассалому алайкум деймиз, йўл бўшатамиз, ишга буюришса хўп деб, дарров қиламиз. Қопларини кўтаришиб уйларига олиб бориб берамиз.

Шундан кейин озод бўлишиб, тўс-тўполон билан уйга кетар эдик. Устозимиздан илгари вақтларда ўқитган шогирдлари ҳозир хотин, бола-чақали, баъзилари набирали бўлишган...

Устозга тайинлик ойлик йўқ эди. Ҳар пайшанба болалар бир донадан нон олиб келишади. Баъзилар буғдой нон, баъзилар зоғора нони. Ҳар йили икки ҳайитда 20-30 тийин, жуда кам ҳолларда 50 тийин, бир сўм олиб келишади. Янги сурага ёки бошқа китобга ўтганда бир товоқ ош келади.

Худо раҳмат қилсун, ўшал устозларимиздан олган таълимларимиз тошга ёзилгандек ҳали ҳам дилимиз лавҳасида туради.

Бир куни дадам устозимизни ҳузурларида ўтириб, “Сизга кўп сабр-тоқат берганда, шу жибилажибон болаларни тоқат билан битта-битта ҳарф ўргатиб саводини чиқарасиз”,– дедилар. Устоз: “Мулла Болтабой, сиз буни билмайсиз, шуларни ўқитганимда неча йил уринсам, шу бола икки хат китобни ўзи ўқиб берганини эшитганимда, шундай шодлик келадикки, шу болага шундай меҳрим товлайдики, ҳамма меҳнатларимни унутаман”, – дедилар”

Ғолиб Марғиновичнинг келтирган хотираларидан маълум бўладики, мактабларда устозларнинг таълим-тарбия борасида ҳаракатлари, аввало, боланинг ҳушахлоқ бўлиб тарбия топишига қаратилган [3,24-6]. Бу эса XIX аср охири XX аср бошларидаги Марғилон маданий муҳитининг ўзига хос жиҳатларидан бири сифатида муҳим аҳамият касб этган.

Дунёнинг машҳур интеллектлари агар инсонга чексиз озодлик берилса, ҳатто у ахлоқдан озод қилинса, дунёқараш ва ахлоқи шаклланиб улгурмаган ҳозирги ёшлар асрлар давомида тўпланган миллий қадриятларга тупуриб, анъаналар ва урф-одатлардан юз ўгириб, тубан, ҳайвоний эҳтиросларнинг қулига айланиб қолишлари хусусида кўпдан бери кенг жамоатчилик олдида чиқишлар қилмоқдалар. Кишилар эътиборини айнан шу мавзуга қаратиш лозимлигини даъват этмоқдалар. Шу жиҳатдан қаралганда айниқса ёшлар тарбиясига доир кўрсатувлар ва эштиришлар сони йилдан йилга ортиб бормоқда. Бундан ташвишланган айрим кимсалар ёшлар мавзусига ҳаддан ортиқ эътибор берилмоқда деган фикрни ҳам айтмоқдалар.

Ўз вақтида атоқли адиб Чингиз Айтматов ҳам бу масалага жиддий ёндашиш зарурлигини таъкидлаб ўтган эди: “Назаримда, бу масалага батафсил тўхташ лозим. Чунки ҳеч кимга сир эмас, табиатни қандай қилиб асраш, очликдан, урушлардан, техникавий тараққиёт келтириб чиқарадиган кулфатлардан ҳимояланиши тўғрисида бош қотиришдан аввал маънавий маънода инсон қандай қилиб инсон бўлиб қолажagini, нафақат ақл-идрокли мавжудот шаклида эмас, балки ҳис қиладиган, виждонли инсон қандоқ бўлиши кераклигини билмоқ керак.

Маълум даражада ҳайвонларнинг ҳам ақли бор. Виждон ва ҳис-туйғу фақат инсонга хос хусусиятдир. Энди Ғарбдаги инсонпарвар файласуфларнинг нуқтаи-назарини қўллаб-қувватлаган ҳолда айтмоқчиманки, бошимизга ёғилиши мумкин бўлган мисли кўрилмаган ҳалокат – бу фақат атом, иссиқлик қуввати каби инсонни (балки, жамики тирикликни) Ер юзидан жисмонан йўқотиб юборадиган хатаргина эмас, айти чоғда инсониятнинг инсонийликни таг-томири билан маҳв этиб юборишга қодир бўлган даҳшатли ҳалокат ҳам рўй бериши мумкин” [3, 124-125].

Ҳозир техник жиҳатдан тараққий этган мамлакатларда ўзгаришлар шу қадар рўй бермоқдаки, кечаги ҳақиқатлар бугун тўқимага айланиб қолмоқда. Бу ҳақда америкалик олим Олвин Тоффлер “Келажак билан тўқнашув” номли асарида қуйидагиларни ёзган эди: “Энг юксак малакали ва интеллектуал жиҳатдан юксак босқичда турадиган жамият аъзолари ҳам этироф этишмоқдаки, улар учун ҳатто фавқулода тор соҳаларда ҳам янги ахборот оқимининг кетидан улгуриб юриш қийин бўлмоқда. Янги билимлар аввалгиларни ё кенгайтиради ёки бўлмаса уларни эскиртириб қўяди. У ҳолда ҳам, бу ҳолда ҳам бунга дахлдор одамлар ўз тасаввурларини қайта қуришга мажбур бўлишади. Улар куни кеча шубҳа қилиб бўлмайдиган ҳақиқат деб ҳисоблаган нарсаларини бугун қайтадан ўрганиб чиқишга мажбурдирлар. Ўқувчи ёшлар учун эшиттиришлар бўйича Федерал комиссиянинг Бош мутахассиси Роберт Хильярд қуйидаги ҳисоб-китобни келтиради: “Ҳозирги суръатлар сақланиб қоладиган бўлса, бугун туғилган гўдак коллежни тугатаётган пайтда мавжуд ахборотнинг ҳажми тўрт баравар кўпаяди, у эллик ёшга тўлганда эса билимлар миқдори 32 марта кўпаяди. Бунинг маъноси шуки, жамики, инсон билимларининг 97 фоизи гўдак туғилгандан кейин бунёдга келади”.

Дарҳақиқат, ёмонликнинг шохобчалари қанча бўлмасин, уларнинг барчасининг асоси илмсизликдандир. Рим донишмандлари: “Илмсиз ўтказилган вақт одамни тириклай гўрга тикади”, деган бўлсалар, юнон донишманди Плутарх кўра “Дағалликнинг ҳам, журъатсизликнинг ҳам илдизи илмсизликка бориб тақалади”. Демак, ахборотлашув жараёнида шахс тараққиётида илмни ўрни

муҳим аҳамият касб этади. Ёшлар томонидан қанчалик илм-маърифатга эътибор берилса, таълим ва тарбия жараёнларида муаммолар кўзга ташланмайди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Т.: “O‘zbekiston”, НМИУ, 2011.
2. Абдулаҳатов Н.У. XIX аср Марғилон уламолари фаолиятида соғлом бола тарбияси // Имом ал-Бухорий сабоқлари. Тошкент, 2014. № 2.
3. Айтматов Ч., Шохонов М. Чўққида қолган овчининг охи зори (Аср адоғида айтилган истиғфор) // Тарж: Н.Боқий, Ё. Хўжамбердиев. – Т.: “Шарқ”, 1998.

## ЭМОЦИОНАЛ ИНТЕЛЛЕКТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

*Шукуров Жаҳонгир Рустамович  
Низомий номидаги ТДПУ тадқиқотчиси*

### АННОТАЦИЯ

*Мақола матнида эмоционал интеллектни илмий асословчи психологик тадқиқотларнинг мазмуни, шахс эмоционал интеллекти ва унинг компонентлари, эмоционал интеллектнинг инсон фаолиятидаги роли каби қизиқарли масалалар ҳам кенг ёритилган.*

**Калит сўзлар:** *шахс, психология, эмоция, эмоционал интеллект, ҳиссиёт, ҳиссий тажриба, умумий интеллект, шахслааро муносабатлар, мулоқот.*

Маълумки, психология фанида ҳозирга қадар, инсон интеллектини тушунтириш борасида кўплаб тадқиқотлар амалга оширилган бўлиб, уларнинг аксарияти умумий интеллект муаммосига бағишланган. Моҳиятан, умумий интеллект ўз мазмунида инсондаги қобилиятлар йиғиндиси, билиш жараёнларидаги ўзига хос хусусиятлар, маданиятлараро фарқ, ижтимоий –

демографик омиллар, яшаш муҳитидаги шарт-шароитлар кабилар билан ҳам характерланади. Бироқ, ўтган асрнинг 90 йилларида психологик тадқиқотларда “эмоционал интеллект” тушунчаси илк бор қўллана бошланди.

Эмоционал интеллектни илк бор ўрганиш ишлари тадқиқотчилардан Г.Айзенк, Дж.Гилфорд ҳамда Г.Гарднерларнинг изланишларида ўз аксини топган. Муаллифлар ўз ғояларида, эмоционал интеллектни шахслараро муносабатлардаги мослашувчанлик қобилияти ҳамда ижтимоий фаолиятдаги инсоннинг муваффақиятли ҳаракатлари деб таърифлашган. Бироқ, бу таърифлар эмоционал интеллект тушунчаси моҳиятини аниқ тушунтириш учун етарли эмас эди.

Тадқиқотчилар Р.Д. Робертс, Дж.Мэттьюс, М.Р.Зайднер ҳамда Д.В.Люсинлар эмоционал интеллектни муаммосида ўзига хос ёндошувни илгари сурадилар. Яъни муаллифларга кўра, эмоционал интеллект когнитив ва шахслилик сифатларидан иборат бўлган мураккаб ақлий жараёндир. Ушбу икки муҳим унсур, эмоционал интеллектни ёритувчи когнитив, мотивацион, шахслилик моделлари орқали тушунтирилади.

Қоидага кўра, эмоционал интеллект тушунчаси моҳиятини англаш масаласида ўзига хос ёндошув мавжуд бўлиб, унда ушбу феноменнинг қўлланилиш эволюциясини ҳисобга олиш аҳамиятли саналади. Қуйида эмоционал интеллект тушунчасининг психология фанида эътироф этилиши билан боғлиқ айрим хронологик босқичларга эътибор қаратамиз.

Гуманистик психология мактабининг машҳур вакилларида бири Абрахам Маслоу, 1950 йилда “ўзини ўзи фаоллаштириш” тушунчасини фанга киритгач, ғарб психологиясида “инсонпарварлик” ғоялари янада кенг тус олди. Ва шахсни ўрганишда интеграл жиҳатлар, яъни инсон табиатида хос когнитив ва аффектив жиҳатлар кўпроқ ҳисобга олина бошлади. Демак, ўзини ўзи фаоллаштириш хусусияти бу, эмоционал интеллектга хос бўлган таркибий элементлардан биридир.



Эмоционал интеллектни нокогнитив жараёнлар билан тушунтириш ҳолати, Р.Бар-Оннинг изланишларида акс этган бўлиб, унга кўра эмоционал маданиятнинг беш таркибий қисми ажратилади. Уларга[6,145]:

- ички шахслилик соҳада ўзини ўзи таҳлил этиш, ассертивлилик, мустақиллилик, ўзини ўзи ҳурмат, ўзини ўзи намоён қилиш;
- шахслараро жабҳада эмпатия, ижтимоий масъулият кўникмалари;
- адаптивлилик жабҳасида муаммоларни ҳал эта олиш, мосланвчанлик, ҳақиқатни тушуниш;
- стрессдан чиқиш лаёқати ҳамда стресс ҳолатини кўтара олиш;
- оптимизм феномени ва ҳоказо.

Эмоционал интеллект феномени борасида, кенг қамровли тадқиқотлар олиб борган рус психологи Д.В.Люсинга кўра, эмоционал интеллектга хос икки жиҳат мавжуд яъни “ички шахслилик” ва “шахслараро” жиҳат. Унинг назарича, эмоционал интеллект куйидагилар орқали тушунтирилиши лозим:

- Эмоцияни англаш яъни ўзи ёки ўзга инсонларнинг эмоционал ҳис-туйғулари тилини тушуна олиш;
- Эмоцияларни идентификациялаш яъни фарқлаш, ажартиш, керакли ўринларда тўғри қўллаш олиш;
- Эмоционал ҳолатларни келтириб чиқарадиган сабаб ва оқибатларни пайқай олиш кўникмаси;
- Кескин эмоцияларни етарлича секинлаштириш, туйғуларнинг интенсивлигини назорат қилиш;
- Экспрессив ифодаларни осон тушуниш;
- Фаолиятида ва муносабатларда у ёки бу эмоцияларни чақира олиш тажрибаси. Муаллиф тасниф этган ушбу унсурлар, меҳнат самарадорлигини белгиловчи омиллар бўлмаслиги мумкин. Бироқ, фаолиятдаги муваффақиятларни таъминловчи тизимлар ҳисобланади.

Эмоционал интеллект эмоционал компетентлилик билан ўзаро боғлиқ ва унга асосланади. Эмоционал интеллектнинг муайян даражаси эмоциялар билан боғлиқ ҳолда аниқ компетенцияларни ўрганиш учун зарур. Масалан,

таниш қобилияти инсонда ўзга инсоннинг ҳиссиётларини англаш ва уларни руҳлантириш, уларга таъсир этиш каби қобилиятларни ривожлантиришга кенг имкон беради.

Эмоционал интеллект табиатини таҳлил этиш асосида, унга алоқадор куйидаги омилларни аниқлаш мумкин:

- Ирсий ўтувчи интеллектуал даража;
- Темперамент хусусиятлари;
- Эмоционал интеллектга таъсир этувчи ижтимоий муҳит;
- Атрофдагиларнинг бола ҳаракатларига эмоционал жавоби;
- Ўз ўзини англаш;
- Қадриятлар;
- Миллий онг;
- Альтруизм;
- Бағрикенглик.

Юқорида келтирилган сифатлар, эмоционал интеллект табиатини тушунтирувчи энг муҳим хусусиятлар ҳисобланади. Шунини алоҳида ёдда тутиш лозимки, эмоцияларни бошқариш деганда, уни “йўқотиш” ёки “тўхтатиш” назарда тутилмайди. Балки, эмоцияларни бошқариш деганда, ўз эмоцияларни кетма – кет боғлай олиш, бирини иккинчисидан фарқлай олиш кабилар ҳам киритилади.

Шахсда эмпатияни ривожланганлиги – бу мулоқот жараёнида суҳбатдошларнинг эмоционал талабларига адекват жавоб қайтариш қобилиятидир. Демак, эмоцияларни бошқариш – бу ўз ҳаёт йўлида фрустрацияли ва агрессиясияли ҳолатларни кескинлашувини камайтира олиш кабилар саналади.

Демак, ҳар бир инсон мақсадга эришиш учун аввало, ўзини ва ўзгаларнинг ҳиссий реакцияларини олдиндан сеза олиши ҳамда тушуниши, атрофидагилар билан самимий муносабат ўрната олиши, бошқа шахслар билан ўзаро тил топиша олиши лозим саналади. Шундай экан, шахс эмоционал интеллектини амалий ва назарий жиҳатдан ўрганиш, замонавий психологик билимлар тизимида долзарб масалалардан бўлиб қолади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Айзенк Г. Ю. Интеллект: новый взгляд // Вопросы психологии. 1995. – N 1. С. 111– 131.
2. Мэйер Дж., П.Соловей, Д. Карузо. Эмоциональный интеллект. – М.: Институт психологии РАН, 2010. – С.92.
3. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект / Даниэл Гоулман; пер. с англ. А. П. Исаевой. - М.: АСТ: АСТ Москва: Хранитель, 2012. – С.57.
4. Salovey P., Mayer J. D., Caruso D. R., Sitarenios G. Emotional intelligence as a standard intelligence // Emotion, 2001. № 1. P. 232 – 242.
5. Cooper R.K. Executive EQ: Emotional intelligence in leaders and organizations / R.K. Cooper, A. Sawaf// New York: GrossetPutnam, 1997.– P. 102.
6. Bar-On, R., Parker J.D.A. Emotional and social intelligence : Insights from the Emotional Quotient Inventory // Handbook of emotional intelligence, San Francisco : Jossey-Bass, 2000. – P. 145.
7. Люсин Д.В. Современные представления об эмоциональном интеллекте / Д.В. Люсин // Социальный интеллект: Теория, измерение, исследования; под ред. Д.В. Люсина, Д.В. Ушакова. – М.: Ин-т психологии РАН, 2004. – С.52.

---

### DESTRUKTIV XULQ-ATVOR PAYDO BO‘LISHI VA SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI

*Sharafitdinov Abdulla  
O‘zMU Jizzax filiali stajyor o‘qituvchisi,  
Yusupov Umidjon Salim o‘g‘li  
O‘zMU Jizzax filiali stajyor o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs og‘ishgan xulqining ko‘rinishlari tavsifi, og‘ishgan xulqning salbiy oqibatlar va ijtimoiy me‘yor ko‘rinishlari kabi yetakchi mezonlar ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Destruktiv xulq, deviant xulq, delinkvent xulq, eros, tanatos, xromosoma nazariyasi, endokrin nazariya, biologik nazariya, destruktiv ustanovka.

Insondagi destruktiv xulq tabiati hozirga qadar psixologiya fanida hali yaxshi o'rganilmagan muammolardan biri sanaladi. Bu muammo 20-asrning o'rtalarida shakllangan. Psixologik yondoshuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinishlarini ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida quriladi:

- buzilgan me'yor turi;
- axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
- ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
- axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.

Shuni ta'kidlash zarurki, "og'ishgan xulq" atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa 9 yoshdan keyin qo'llashimiz mumkin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqi yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Destruktiv xulq 2 ta asosiy turlarda namoyon bo'ladi:

1. Delinkvent tur - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy huquqiy me'yorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti - harakatlarga xulqning yo'nalganligidir.

2. Deviant tur - jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga qarama — qarshi xulqiy ko'rinishlarni namoyon etish.

Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin.

Z. Freyd inson xulqida 2 ta asosiy instinkt borligini ta'kidlaydi: Eros - bu hayot isintiktidir. Undagi quvvat, hayotni saqlash, qayta tiklashga yo'naltiradi. Tanatos – o'lim instiktidir. Undagi quvvat hayotni vayron qilish va to'xtatishga yo'naltiradi. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o'rnini va xulqini belgilaydi.

Destruktiv xulq ko'rinishlarini namoyon bo'lishida negativ ustanovkalar - shaxsning atrofdigilarning aksariga nisbatan salbiy munosabatlari natijasida shakllanadi S.P. Ivanov va V.V. Boyko tadqiqotlarida destruktiv ustanovkalarning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Atrofdagilarga nisbatan fikrlari va xatti-harakatlarida yashirin beshavqatlilik;
2. Atrofdagilarga nisbatan ochiq beshavqatlilik;
3. Insonlar haqida asoslangan negativ fikrlar. Ma'lum bir ijtimoiy vaziyatlarda yuzaga kelgan holatlar asosida unga sababchi bo'lgan insonlar to'g'risida salbiy fikrga ega bo'lish ham shunday;
4. Negativ faktorlar yuzasidan o'zining sheriklari haqida aoslanmagan umumlashtirishlar qilish;
5. Atrofdagilar bilan munosabtlar jarayonida negativ tajribaga ega bo'lish Kleyberg Yu. A va A. Ellislar destruktiv xulq ko'rinishlarini shakllanishida "irratsional ustanovkalar" tushunchasini kiritganlar.

Lombrosoning fikriga ko'ra, biologik xususiyatlar va birinchi navbatda tashqi morfologik xususiyatlar (bosh suyagi shakli) haqidagi o'z xulosalariga asoslanib, jinoyatchilarga xos bo'lgan tug'ma xususiyatlarining natijasi, jinoyatni muqarrar deb hisobladi va jazo ularni tuzatolmasligini aytdi. Lombroso jinoyatchilikning kriminologiyasida eng ko'p talab qilinadigan formulani ishlab chiqdi. Uning formulasida antropologiya institutining asoschisi mahkumlarning antropologik xususiyatlarining o'rtacha hajmini spirtli ichimliklar iste'mol qilgan voyaga yetmaganlarning soni bilan bog'lashni taklif qiladi.

Genetika rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi, tajovuz va jinoyatlarning xromosoma gipotezasi ishlab chiqildi.

Agressiyaning biologik nazariyalarining yana bir yo'nalishi jinoiy va tajovuzkor xatti-harakatlarga gormonal ta'sirlarning rolini o'rganish bilan bog'liq. 1924-yilda amerikalik olim M. Schlapp jinoyatchilarning endokrin tizimini o'rganib chiqdi, u tekshirgan mahbuslarning uchdan bir qismi bilan bog'liq hissiy beqarorlikdan azob chekayotganini aniqladi.

Biz shaxs og'ishgan xulqining turli ko'rinishlari ikkita - o'ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo'nalishli "destruktiv axloq"ning yagona o'qida joylashganini ko'ramiz.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu -oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtayi nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvoriga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rni va roli kattadir. "Ba'zilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas", "hozir yaxshi, ertaga yomon" va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir. Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va hokazolar — bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Destruktiv xulq-atvorni bartaraf etish, ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ijralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalarga amal qilinishiga erishib borishimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. //uslubiy qo'llanma. – T. – 1998, 46-bet.
2. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o'rni. //uslubiy qo'llanma. – T. – 2008, 86-bet.
3. Rozikova M., Aliyeva K. Psixologik tashxis metodikalari . – T., 2013, 16-bet

## ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХОДИСА СИФАТИДА. НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛ ВА ТАЛҚИН

*Азамат Назаров*  
*Ўзбекитсон ҳалқаро ислом академияси*  
*“Дин психологияси ва педагогика” кафедраси катта ўқитувчиси*

Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида бошқарув қарорларининг ижтимоий-сиёсий ва ижтимоий-психологик аҳамияти, унинг мазмун-моҳиятини бугунги кун воқелиги, замонавийлик ва анъанавийлик уйғунлиги нуқтаи назаридан талқин этиш муҳим аҳамиятга эга.

Бугунги кунда бошқарув қарорлари қабул қилишнинг назарий-методологик асосларини таҳлил қилиш борасида кўпгина қарашлар мавжуд. Лекин аксарият тадқиқотларда бошқарув қарорлари қабул қилишнинг иқтисодий жиҳатларига эътибор қаратилганлиги кўзга ташланади.

Қарор – мақсадга эришиш учун биргаликда фаолият юритиш, мувофиқлаштириш ва рағбатлантиришни амалга ошириш йўли акс этган директив ҳужжат. Қарор бошқарув органи ёки раҳбарнинг шундай ҳужжатиديرки, унда



нафақат мақсад белгиланади, балки қатор вазифалар шакллантирилган, бажарилиш муддати курсатилган, ижрочилар кўзда тутилиб, ресурслар (меҳнат, моддий, молиявий) ажратилган, жавобгарлик белгиланган бўлади.

Психология фанида қарор қабул қилиш “ноаниқ вазиятларда дастлабки ахборотларни ўзгартириш асосида мақсад сари олиб борувчи хатти-ҳаракатлар изчиллигини шакллантиришнинг иродавий ҳодиса”дир. Бу тушунчани тасаввур этиш учун асосий тушунчаларни аниқлаб олишга зарурият туғилади.

Қарор қабул қилиш иродавий ҳодиса эканлиги. Инсон хулқ-атворида ирода эркинлиги муаммоси – энг асосий, ҳаётий фалсафий-этикавий муаммолардан бири. Бу муаммони ўрганишда иккита фалсафий ёндашув шаклланган: **детерминизм** (лот. Determinare – аникламоқ) – иродани сабабли боғлиқлик асосида таҳлил этиш, **индетерминизм** – дунёдаги буюмларнинг табиий ҳаракати қонуниятлар ва сабабиятларга бўйсунмайди, инсон хатти-ҳаракати фақат унинг иродасига боғлиқ, деган қарашларга асосланади.

“Фалсафа: қомусий луғати”да “Ирода эркинлиги – инсоннинг бирон ишни бажаришга қаратилган онгли интилиши. Унинг маълум мақсадга қаратилган иродавий фаолиятининг манбаи – объектив оламдан ҳамда дунёни ўзгартиришга қаратилган ва табиатнинг объектив қонунларига таянадиган предмет-амалий фаолиятдан иборат”, деб таъриф берилган. Иродавий ҳодисадаги асосий ҳолат – хатти-ҳаракат мақсадларининг қадриятли таснифларини англаш. Иродага субъект учун “мен хоҳ,лайман” кечинмаси эмас, балки “керак”, “мен қилишим керак” каби далиллар хос. Инсон иродавий хулқ-атвори тузилмаси қарорлар қабул қилиш ва уни амалга ошириш ҳодисасини ҳам ўз ичига олади.

Психология фанида шундай эътироф бор: “Ирода – бу инсоннинг қўйилган мақсадларига эришишга йўналтирилган онгли фаоллиги. “Ирода” тушунчаси моҳиятига инсон томонидан мақсад қўя олиш қобилияти, ўз эмоциясини бошқариш, шахсий гавдасини ва хулқини идора қилиш киритилади”. Инсон иродавий хатти-ҳаракатни амалга ошира бориб, ғайриихтиёрий (импульсив) хатти-ҳаракат қилишни талаб этадиган долзарб (кундалик ва вақтинчалик) эҳтиёжлари ҳокимиятига (мажбурлашига) қарши туради. Агар иродавий хатти-

ҳаракатнинг мақсади ва долзарб эҳтиёжи ўзаро мувофиқ келмаса, у ҳолда қарор қабул қилиш жараёни мотивларнинг кураши билан бирга кечади. Ўз аҳамиятига биноан тенг бўлган мотивлар ва мақсадлар рақобатида ироданинг функцияси тенг бўйсинган мотивларнинг ягона тизимини ташкил этишдан иборат.

Мақсад. Мақсаднинг мавжудлиги – оқилона қарорлар қабул қилиш вазифасини қўйиш ва уни ҳал этишнинг асосий ҳамда зарурий шарти.

Мақсад фалсафий категория сифатида ҳуқуқ мазмунини тушуниш, уни яратиш ва амалга ошириш асосида ётади. Фалсафа ва психологияда мақсад деганда, инсон онги фаолияти ва ҳуқ элементларидан бири тушунилади ҳамда у маълум воситалар ёрдамида амалга оширилади. Мақсаднинг реал ва нореал, қисқа муддатли ва узоқ муддатга мулжалланган, асосий ва иккинчи даражали турлари мавуд. Реал мақсадлар субъектнинг имкониятлари, атроф муҳитнинг ҳолати ва объектив қонуниятларни ҳисобга олса, нореал мақсадлар фақатгина субъектнинг орзу-истакларини ифодалайди, атрофдаги вазиятни ҳисобга олмайди.”

Хатти-ҳаракат. Мақсадга эришиш маълум хатти-ҳаракатларни амалга ошириш воситасида таъминланади. Психологияда хатти-ҳаракат (акция) деганда, анланган мақсадга эришишга қаратилган фаолият бирлиги тушунилади. Мақсадга эришишга олиб борадиган муайян хатти-ҳаракатни танлаш мазкур хатти-ҳаракат амалга ошириладиган вазиятга ҳам боғлиқ.

Вазият. Вазият (*Ситуация* – франц. “ҳолат”, “шароит”, “вазият”) деганда, субъектга нисбатан ташқи шарт-шароит, ҳолат, вазиятлар жамланмаси тушунилади. Вазият субъект хатти-ҳаракати натижасига таъсир этади, шунингдек, у субъектдан мустақил, субъект хатти-ҳаракатидан олдинда мавжуд бўлади, субъектдан ташқари мавжуд.

Юқоридаги тушунчаларни таҳлил этиб, қуйидаги тавсифни таклиф қиламиз: қарор қабул қилиш вазифаси — танлаш қоидалари ва баҳолари мезонларига мувофиқ ҳолда аниқланадиган, мавжуд вазият шарт-шароитларини қайта ўзгартириш натижасида эришиш лозим бўлган фаолият мақсадининг маълум вазиятда намоён бўлиши. Шу тариқа, қарор қабул қилишнинг расмий тавсифи ўз ичига учта элементни олади: **талаб — мақсад**; шарт-шароит (**маълум**) – **вазият**;

изланган мақсад (аниқланиши лозим бўлган, лекин ноаниқ) – *хатти- ҳаракат, мақсадга эришиш йўли*.

Мақсадни шакллантириш асосида маълум мотив (лот. ҳаракатга келтириш, туртиш, итариш) ётади ва у эҳтиёжларни қондириш билан боғлиқ, танлаш асосида шахснинг хатти-ҳаракати ва интилиши ётади, у анланган сабаб, фаолиятга майл уйғотишдир. Инсон ўз фаолияти жараёнида психологияда фаолиятнинг янги мақсадларини яратиш ва мотивларни мақсад-мотивларга айлантириш, деб талқин этиладиган *мақсад қўйиш* функциясини амалга ошириб боради.

Қарор қабул қилиш – инсон хатти-ҳаракатининг энг муқобилини топишга қаратилган ҳаётий муҳим инсоний фаолият. Инсон хулқ-атворидаги қарор танлаш ва қабул қилиш натижаси бўлган хатти-ҳаракат унинг охириги зарурияти трансформация бўлиш занжирининг сўнгги босқичидир. Бошқача айтганда, “Инсон нимани хоҳласа ўшани қила олиши мумкин, лекин унинг хоҳишлари чегарасиз эмас”, “Инсонлар у ёки бу нарсаларни ўйлаганлиги учун эмас, балки ниманидир қилиш керак бўлгани учун қиладилар” .

Ноанъанавий вазиятларда қарор қабул қилиш учун раҳбар ўзидаги фараз қилиш ва олдиндан кўра билиш қобилиятини оқилона таҳлил қилиш ва амалий тажриба билан уйғунлаштириши лозим. Қарорларни лойиҳалаштириш ва уларнинг натижасини кўра билиш учун раҳбар ўзига хос ҳаётий тажрибага эга бўлиши лозим. Бошқача айтганда, бошқарув қарорларини қабул қилишда билимлар (фан), кўникмалар (касбий маҳорат) ва ижод (санъат)нинг уйғунлашуви содир бўлади. Демак, қарор қабул қилиш жараёни назарий билимларни ижодий тасаввур ва олдиндан кўра билиш қобилияти билан уйғунлаштириш, шунингдек, татбиқий технологияларни амалий кўникма ва малака билан бирлаштиришни тақозо этади.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Анфилатов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.
2. Назаров А. Бошқарув психологияси. -Т.: 2021.
3. Назаров А. Менежмент ва маркетинг психологияси. - Т.: 2020.

4. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.

5. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.

---

## СОЦИАЛЬНО – ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СОВРЕМЕННОМ ВУЗЕ

*Назирова Дилафруз Алишеровна  
Преподаватель Узбекистанского Государственного  
Университета Мировых Языков кафедры  
“Педагогика и психологии”*

Если всерьез говорить о проблемах психологии высшей школы и собственно социально-психологических аспектах этой научной области знания, то легко заметить, что, во всяком случае, в рамках отечественной психологии, эта предметная сфера достаточно часто не рассматривается в качестве самостоятельной и самоценной именно в психологическом плане. По-видимому, во многом именно в связи с этой позицией и в связи с относительной слабостью современной отечественной вузовской науки по сравнению с вузовской наукой за рубежом (речь идет, конечно, о гуманитарных областях знания, в том числе и социально-психологического) и теоретические, и особенно конкретно-экспериментальные исследования психологии студенчества занимают далеко не ведущее место в психологических, если так можно выразиться, «контингентных» изысканиях, явно уступая в этом плане работам, направленным на изучение психологических особенностей школьников. Более того, теоретические работы также, как и «учебниковые» тексты по психологии высшей школы, как правило, излишне педагогизированы. Говоря о «педагогизированности» текста, в данном

случае имеется в виду не столько сведение проблемного поля исследования к вопросам чисто педагогического характера (хотя и это имеет место в целом ряде публикаций), сколько то, что способ рассмотрения реальных вопросов педагогической теории и практики выстраивается не в логике исследовательского поиска и научно-диагностической констатации того, «что есть на самом деле», а в логике построения умозрительных моделей желаемого.

Несомненно, в первую очередь, именно в связи с этим сегодня основными исследовательскими направлениями в рамках психологии высшей школы в целом и психологии студенчества как самоценной контингентной группы, в частности, выступают психология познавательной деятельности, психология профессионального становления и психология личности студента. Имеет смысл остановиться на кратком анализе базисных положений каждого из этих направлений исследовательской практики. Приходится констатировать, что в отечественной психологии познавательная деятельность в студенческом возрасте подавляющим большинством авторов рассматривается не просто как ведущая, но и как чуть ли не единственно личностно образующая, а сама личность студента в качестве предмета исследования представляется преимущественно в логике некоего набора качеств и свойств, якобы и обеспечивающих эффективность деятельности этого субъекта образовательного процесса. Наиболее содержательно разработанным в психологическом плане (если речь идет о студенчестве) является такое направление и теоретических, и экспериментальных исследований, как проблематика профессионального становления. Понятно, что существует определенная специфика пути профессионального становления специалиста в разных областях знания. В связи с тематикой данного учебного пособия особый интерес представляют, прежде всего, исследования связанные с профессиональным становлением будущего специалиста-психолога<sup>[5]</sup>. В этом плане наиболее полным является исследование Г. М. Белокрыловой, которое, в частности, посвящено основным психологическим составляющим профессионального становления студента-будущего психолога и, прежде всего, мотивации профессионального самосознания. В этой работе также, как и в целом

ряде других, подробно рассматриваются применительно к студенту-психологу вопросы его профессионального становления в качестве самоценного предмета исследования, анализируются проблемы основных атрибутов деятельности квалифицированного психолога, а кроме того, и само понятие профессионального становления.

Помимо работы Г. М. Белокрыловой, целый цикл работ, посвященных изучению различных аспектов процессов профессионального становления, по своей содержательной сути может быть квалифицирован как межотраслевой в рамках психологической науки — эти работы однозначно относятся к области психологии личности, развития, акмеологии и психологии труда. При этом социально-психологическая составляющая этих исследований может рассматриваться как «фоновая», уточняющая и то, не столько в связи с особенностями протекания данного процесса, сколько в связи с именно социально-психологическим характером будущей профессиональной деятельности студентов-психологов.

Что касается собственно социально-психологических исследований студенчества, то, как показывает анализ литературы, они в подавляющем большинстве носят проблемно-локальный характер и являются достаточно разобщенными, а потому и их результаты трудно сопоставимы. Кроме того, конкретные экспериментальные исследования, посвященные анализу особенностей межличностных отношений в реально функционирующих студенческих группах и изучению специфики именно таких контактных сообществ, крайне малочисленны. В то же время и несколько ранее были проведены конкретные эмпирические исследования, касающиеся проблематики социальной психологии студенчества. Здесь следует отметить, что одной из достаточно разработанных социально-психологических проблем применительно к психологии высшей школы является проблема адаптации студента к новой и при этом референтной для него группе. Так, например, Э. Г. Исаева в своем исследовании показала, что процесс адаптации студента в вузе и его позиция в интрагрупповой структуре студенческого сообщества во многом зависят от того,

какое статусное положение он занимал в своей бывшей референтной группе — школьном классе. А. Д. Гусейнов в рамках своего исследования смог зафиксировать и описать следующую закономерность — процесс индивидуализации наиболее безболезненно в студенческих группах проходят бывшие высокостатусные и низкостатусные школьники в том случае, если на первом году обучения в вузе им удалось удержаться хотя бы в рамках среднестатусного слоя интрагрупповой иерархии неформальной властной структуры студенческого сообщества. Непосредственно к этим исследованиям в содержательном плане примыкает и работа Ю. В. Янотовской, которая, анализируя систему взаимоотношений студента-«новичка» с соучениками, смогла зафиксировать различную поведенческую стилистику новых членов студенческого сообщества с разностатусными товарищами по группе: с высокостатусными студентами «новички», как правило, также, как и с низкостатусными, стремились к достаточно откровенному конфликту, по сути дела, провоцируя первых к признанию себя равными пусть даже в ходе межличностного столкновения, а со вторыми подчеркивая свою несхожесть с ними. Наиболее ровные отношения «новички» пытались выстроить именно со среднестатусными студентами.

Наличие именно этой тенденции межличностной активности «новичка» было зафиксировано и в работах Я. В. Гольдштейна, И. В. Нелисовой и др., осуществленных в рамках групп языкового «погружения» под руководством Г. А. Китайгородской. Конечно, можно привести и еще целый ряд конкретных экспериментальных разработок, раскрывающих тот или иной аспект системы межличностных отношений в учебной студенческой группе и в учебно-воспитательном коллективе вуза, но, к сожалению, подобное перечисление, кроме количественного умножения фактов, не может дать качественно полной картины социально-психологической реальности, которая характеризует современное высшее учебное заведение, так как и «разношерстность» методического инструментария, и несовпадение базовых теоретических позиций разных исследователей не позволяют обеспечить целостное видение. В то же время



именно социально-психологический ракурс рассмотрения проблематики студенчества оказывается принципиально актуальным как раз сейчас, когда в современной обществе наконец учебно-дисциплинарная модель образования, хоть и не без сложностей, постепенно вытесняется личностно ориентированной моделью воспитания и обучения, принципиальную значимость приобретают факторы, касающиеся неформальной стороны отношений межличностной значимости всех субъектов образовательного процесса.

## **ИНСОН ЁШИ УЛҒАЙИШИ ЖАРАЁНИДА ХИССИЁТНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ**

*Тойирова Лайло Изатовна*  
ЎзХИА, “Дин психологияси ва педагогика”  
кафедраси катта ўқитувчиси

*Ўктамova Нихола Шухрат қизи*  
ЎзХИА, Психология (Дин социопсихология)  
йўналиши 2-босқич талабаси

Бизга маълумки, ҳиссиёт психологияси ҳақидаги тасаввурлар унинг ўрганилишига эътибор қаратилмаса тўлиқ бўлмайди. Хиссиётларнинг хилма хиллиги ва уларнинг кечиши жараёнида ўзгариши, уларнинг субъективлиги қандай қилиб уларни илмий ўрганиш мумкинлиги, хиссиётнинг иккиламчи томонларини эмас балки мавжуд хиссиётларни кўриш учун қандай методлардан фойдаланиш лозимлигини аниқлаштиришни талаб этади. Дастлабки даврларданок инсон хиссиётлари соҳаси катта эътибор жалб этиб тадқиқотлар предмети бўлган. Лекин доим ҳам бу ўрганиш психологияни илмий билимлар йўлида кетказмасдан кўпгина саволларни юзага келтирган ва хиссиётлар соҳасида муҳим бўлган омилларни ўзида мужассам этмаган эди.

Эмоциялар билан олиб борилган тадқиқотлар билан таққослаганда психологиянинг бошқа соҳаларида экспериментнинг бутунлай бошқа

кўринишда қўлланилиши ва экспериментнинг нисбатан аниқ характерга эга эканлигини кузатишимиз мумкин. Баъзи тадқиқотчиларнинг илмий изланишларда хиссиёт инсонда у туғилмасдан олдиноқ мавжуд бўлади дейилган.

Масалан, К.В.Шулейкин қониқиш ва қониқмаслик хислари беш олти ойлик туғилмаган болада мавжуд бўлишини аниқлаган. Боланинг хиссиётини ривожланишини кузата туриб Г.Мюнстерберг 20-асрнинг бошларида шундай деб ёзади: “Дастлаб хиссиёт боланинг ўз танасининг холати билан чақирилади. Очлик, чарчоқ ва жисмоний зўриқишлар ёқимсиз, енгил кўзғалиш ва овқат қабул қилиш ёқимли хиссиётларни чақиради. Кейинроқ ванихоят буюмлар сўзлар билан алмашиши босқичи кириб келади ва хаёллар объекти қониқиш ва қониқмаслик манбасига айланади”. Шунга ўхшаш фикрни С.Л. Рубинштейн ҳам келтириб ўтган. Унинг фикрича инсон хиссиётларининг ривожланиши унинг интеллектуал ривожланишидаги каби босқичларни босиб ўтади. У шундай дейди: “Хиссиётлар боланинг хаёли каби бевосита малумотлар билан боғлиқдир. Фақатгина ривожланишнинг белгиланган даражасида атрофдаги яқинларидан мустақил бўлиб яқинларининг тор чегарасидан ташқарига чиқа бошлайди. Эмоцияларнинг бирликдаги доимий объектлардан умумий ва абстракт сохага ўтказилиши хиссиётларнинг танловчан бўлишини юзага келтиради”. У ёки бу хиссиётларга ихтиёрий реакция билдириш усуллари ҳам ёш ўтиши билан ўзгариб боради. Масалан бола кўрқувни хис қила туриб кўп ҳолатларда ота-онасига талпинади. Мактабгача даврдан эса хиссиётлар ижтимоий кўринишга эга бошлайди. Шунинг учун ҳам ўсмирда хавф-хатардан қочиш уят хисси билан ассоциациялашади. Бунинг натижасида ўсмир кўрқувни енгишнинг бошқа усулини топади.

К.Изард таъкидлаганидек ёш улғайиши билан нафақат эмоционал реакциялар балки маълум бир хиссиётларни фаоллаштирувчиларнинг ахамияти ҳам ўзгариб боради. Масалан уч хафтали муддатда аёл овози болада ёқимли хиссиётларни уйғотиб уни кулдирса, кейинчалик бу овоз унда

ёқимсиз хисларни чақиритиши мумкин. Уч ойлик болада онанинг ёнида эмаслиги кучли реакцияни чақирмасда, ўн уч ойлик бола ўзининг жахли чиққанини кўрсатиши мумкин, ўн уч ёшли бола эса онаси уйда эмаслиги ва ўзи ёлғиз қолиб хохлаган ишини қилиши мумкинлигидан хатто хурсанд бўлиши ҳам мумкин. К. Изард, Ю.А.Макаренко ва бошқа психологларнинг аниқлашича базал хиссиётларнинг ривожланиши ва улар хақидаги билимлар иккиламчи хиссиётлари билан боғлиқ тарзда шаклланади. Хаттоки икки-уч ёшли болалар нафақат кўрқув ва хурсандчиликни биладилар балки уларни ихтиёрый тарзда юзларида ифодалаб беришлари ҳам мумкин.

К.Бюлер ёш улғайиши билан ижобий хиссиётлар ривожланишини кўрсатиб ўтади. Болада қониқиш хисси ўйин ўйнаш жараёнида исталган натижага эришилгандан сўнгина юзага келади. Ривожланишнинг кейинги босқичларида нафақат ўйиннинг натижаси балки ўйиннинг ўзи ҳам хузуруланиш бахш этади.

Онтагенез жараёнида эмоционал экспрессияни мулоқот воситаси сифатида қўллаш қобилияти ривожланади. В.Шеннум ва Д.Биодженталь, Дж. Килбрайт ва М. Ярцовер, К. Малатеста ва Дж. Хейвиленд ёш улғайиши билан салбий хиссиётларни назорат қилиш ва унинг ижобий хиссиётларга нисбатан ўзгармаслигининг кучайишини аниқлаганлар.

Ф. Гудинаф ўз тадқиқотларида оналарнинг етти ойликдан етти ёш ўн ойликкача бўлган болаларининг жахл ҳолатини намоён бўлиши ҳикояларини тахлили этиб шуни аниқладики ёш улғайиши билан конкрет объектга йўналтирилмаган жахил камроқ кузатилиб бирон бир объектга йўналтирилган жахл эса кўпроқ кузатилар экан. Шундай экан ҳар бир ёш даври эмоция ва хиссиётлар намоён бўлишининг ўзига хос хусусиятлари билан характерланади.

2. Ёш улғайиши билан эмоция ва хиссиётлар хақидаги билимлар мураккаблашиб кенгайиб боради. Болаларнингнинг онтагенезда хиссиётлари шаклланишини ўрганишга қаратилган тадқиқотлардан бири Дж. Бельскига тегишлидир. Муаллиф ўз ҳамкасблари билан биргаликда болада уч 9

ойликкача бўлган муддатда оилавий мухит характеристикалари билан боғлиқ тарзда негатив ва позитив хиссиётлар намоён бўлишидаги ўзгаришларни ўрганган. Қуйида кўрсатилган жадвалда боланинг эмоционаллиги оиладаги эмоционал мухит билан боғлиқлиги кўрсатилиган.

Оталар бошқаларга нисбатан паст акс эттирилган ориентацияни эгаллаб бола туғилгунига қадар ўз никохларини камроқ позитив баҳолайдилар; ўз аёллари билан болани тарбиялашга киришишларини баҳолаш бўйича келишув мавжудлигини аниқлайдилар.	Оналар нисбатан юқори ўз-ўзларини баҳолашлари билан фарқланадилар; хаётий тажриба ва ўз никохлари ўртасидаги алоқадорликни камроқ негатив баҳолайдилар; бола билан ўзаро таъсирга киришиш катта гармониклик ва тўлиқлик билан характерланади.
Негатив эмоциялар намоён бўлишининг паст даражасидан-юқорига қараб бориши	Негатив эмоциялар намоён бўлишининг юқори даражасидан паст даражага қараб бориши

Я. Дембовскаянинг таъкидлашича янги туғилган болада 3 хил эмоция бўлади. Булар кучли овоздан юзага келувчи қўрқув, ҳаракатни амалга оширишга мажбурлашга нисбатан реакция сифатида пайдо бўлувчи жаҳл ва силлаш тебратишга жавоб сифатидаги қониқишдир. Бу эмоцияларнинг акс этиши эса кулгу ва йиғлаш кўринишида рўй беради. Вақт ўтиши билан бола турли стимулларга жавоб сифатида кула бошлайди. М. Ю. Кистяковскаянинг таъкидлашича 3-4 ойлик болалар ҳар қандай одамнинг гапиришига кулса 5-6 ойлик болалар эса уларга бегона инсон яқинлашганда унга узоқ муддат тикилиб кейин куладилар ёки умуман бошқа қарамасдан ё йиғлай бошлайдилар.

Бола ҳаётнинг биринчи йилининг ярмида аффектив шахслилик алоқалари хурсанд қилувчи таъсирларни идрок этиш бўйича ўз ижобий хиссиётларини катталар билан бўлишишга интилар эканлар. Биринчи йилнинг иккинчи ярмида эса ўзини текшириш ва қўллаб-қувватлашни олиш учун бола онасининг эмоцияларини идрок этишидан тўғри фойдалана олиб онанинг юзининг ўзгаришига қараб ҳаракатни давом эттириш керак ёки керак эмаслигини белгилаб олади. Мактабгача даврдаги болаларнинг хулқ

мотивациясига ва фаолиятига у ёки бу эмоцияларнинг кутилмалари катта таъсир кўрсатади. Мактабгача даврдаги ёшда бошқаларнинг хиссиётларини тўғри белгилаш ривожланиб боради. Бу борада А.М. Шетинина 4-5 6-7 ёшли болаларда тадқиқот олиб борган. А.М. Шетининанинг таъкидлашича экспрессияни идрок этиш типи нафақат боланинг ёши балки унинг тажрибаси ва эмоцияларининг модаллиги билан ҳам боғлиқдир. Мактабга бориш боланинг эмоционал сферасини ўзгартиради. Бунга сабаб фаолият таркибининг кенгайиши ва эмоциоген объектларнинг кўпайишидир. Мактабгача даврдаги болаларда хиссиётларни юзага келтирган кўзғатувчилар мактаб даврдаги болаларга таъсир этмаслиги ҳам мумкин. Кичик мактаб давридаги бола ўзига ноқулай бўлган воқеликларга кучли реакция билдирсада унда хохланмаган эмоционал реакцияларни иродавий куч билан йўқотиш қобилияти пайдо бўлади. Д. И. Фельдштейннинг аниқлашича 10-11 ёшли болаларда ўзига хос ўзига бўлган муносабат кузатилади: 34% ўғил болалар ва 20% қиз болалар ўзларига салбий муносабатда бўладилар қолган 70% болалар эса ўзларидаги ижобий сифатларни кўрсатар эканлар. Кичик мактаб ёшида эмоционал сферанинг ижтимоийлашуви яққол намоён бўлади. 3-синфга келиб ўқувчиларда қахрамонлар ва таниқли спортчиларга нисбатан муносабатлар пайдо бўлади. Шу ёшда Ватанга мухаббат миллий ғурур хисси шакилланади.

Ўсмирларнинг хиссиётлари кўп ҳолатларда мулоқот билан боғлиқ бўлади. Шунинг учун ҳам бошқа одамларга нисбатан шахсий ахамиятли муносабатлар эмоционал реакцияларнинг характери ва таркиби сифатида белгиланади.

Ўсмирларнинг эмоционал сферасига қуйдагилар таалуклидир:

- 1) жуда кучли эмоционал кўзғалувчанлик;
- 2) эмоционал кечинмаларнинг юқори даражадаги барқарорлиги;
- 3) Бездовталикда намоён бўлувчи кўрқувни кутишга тайёргарликни юқорилиги;
- 4) Хиссиётларнинг карама-қаршилиги;

- 5) Бошқаларнинг уни баҳолаши ва ўз-ўзини баҳолаши билан боғлиқ бўлган кечинмаларнинг юзага келиши;
- 6) Гуруҳга мансублик хиссининг кучли ривожланганлиги;
- 7) Дўстликка нисбатан юқори талабларнинг қўйилиши;
- 8) Ватанпарварлик хиссининг юзага келиш;

3. Т.А. Немчиннинг кўрсатишича қарилик даврдаги инсоннинг эмоционал сфераси қуйдаги белгилар билан характерланади: эмоцияларнинг инертлиги ёки лабиллигида ифодаланувчи эмоционал ҳолатлар динамикасининг ўзгариши; олий эмоциялар шунингдек индивидуал ижод билан боғлиқ эмоцияларнинг барқарорлигининг юқорилиги; салбий эмоциялар эгаллаган ўрин ва ролнинг ошиши. Қарилик даврида хиссиётлар намоён бўлишини назорат қилиш сусаяди. Шунингдек бу даврда эмпатиянинг камайганини ҳам кузатишимиз мумкин. Т.А. Немчин бу даврдаги одамлар хиссиётларининг кўп учрайдиган белгилари сифатида кечинмаларнинг у ёки бу модаллигининг барқарор устунлиги: безовталаниш, ғамгинлик, норозилик кабиларни келтиради. Лекин шундай инсонлар ҳам мавжудки уларда қарилик даврида ҳам оптимизм руҳи сақланиб қолган бўлади. Қарилик даврида турли хиссиётларнинг пайдо бўлиши ижтимоий ҳаётдаги ролининг ўзгариши, ҳаётнинг янги шароитлариги мослашиш билан боғлиқдир. Базиларда бу ҳолат ижобий хиссиётларни юзага келтирса баъзиларда эса салбий хиссиётларни юзага келтиради. Пенсияга чиқишни хохламайдиган инсонлар дастлабки даврларда қониқмаслик хис этиб безовталанадилар. Лекин вақт ўтиши билан улар бу ҳолатлариги кўникиб борадилар. Пенсияга чиқишни хоҳловчилар эса ва нихоят уларда ўз севимли машғулоти билан шуғулланиш учун вақт бўлишини ўйлаб қувонадилар. Қарилик даврида кўпинча инсонларда набиралари билан боғлиқ дўстлик, мухаббат муносабатлари юзага келиб набиралари улар учун енг катта қувончга айланадилар. Хиссиётлардаги ўзгаришлар шунингдек инсоннинг жисмоний ва психологик ҳолати билан ҳам боғлиқдир. Қарияларнинг бошқалар учун нимадир қилиб бера олмаслиги уларда айбдорлик ва ҳасад хисларини юзага

келтиради ва охир оқибатда барчага бирдек муносабатда бўлиш, эмоционал назоратнинг пасайиши ошиб боради. Шу вақтнинг ўзида уларда аразчилик ҳам юзага келади. Психиатр ва геронтологиларнинг фикрича қарияларнинг яқинларига керак эмаслиги уларда кучли кечинмаларни юзага келтириб умрларини қисқартирир экан. Шунингдек қарилик депрессиясининг мавжудлиги қариларнинг келажакдан яхшилик кутмасликларига ва уларнинг келажак учун режалар тuzмасликларига сабаб бўлади. Кексалар учун доимий қайғуриш характерли бўлиб заиф акс эттирилган безовталиқ сифатида кўриш мумкин. Кексалар ўз саломатликлари, фарзандлари, набиралари ва давлатдаги ижтимоий иқтисодий ҳолатдан ташвишланадилар. Бошқа томондан кексаларда ёлғизлик хисси ҳам юзага келади. Ўзларининг ҳулки кўпинча ноадекват бўлишини сезиб улар мулоқотдан қочадилар. Ёлғизлик хисси барқарор бўлиб қолганда кексалар бунда ўзларини айблаб ўзларидаги депрессияни кучайтириб юборадилар. Айниқса ўлим ҳақидаги хаёллар кексаларни қаттиқ безовта қилишини кузатишимиз мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, Ҳиссиётнинг кучи, аввало, ёқимли ёки ёқимсиз туйғуларнинг нақадар кучли бўлишидадир. Баъзан ҳиссиётлар жуда тез тўсатдан пайдо бўлади. Масалан, киши бирдан хурсанд бўлиб кетади, дарҳол ғазабга келади, дорҳол аччиқланади ва ҳоказо. Лекин баъзан шу ҳиссиётларнинг ўзи дафъатан ўзгармайди, валки аста–секин туғила бошлайди. Хурсандлик ҳам ғазаб ҳам аста–секин кўзғалади. Ҳиссиёт нақадар кучли бўлса, унинг сиртки кўриниши шу қадар ифодали бўлади. Яна шу нарсани айтиб ўтиш жоизки, булар инсонларнинг ҳаётида қуйидаги ҳолатларни келтириб чиқариши ҳам мумкин: қайғу–ғам, кўрқув сингари мана шундай салбий емотсиялар чоғида инсон организмида ёмон ўзгаришлар бўлиши ҳам мумкин.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Изард К. Эмоции человека. М., 2001.
2. Рубалко Е.Ф. Возрастная и дифференциальная психология. М. 2001.
3. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. М, 1999. 294 с.



## SAMARQANDAGI MIRZO ULUG‘BEK MADRASASI TARIXI VA TA‘LIM TIZIMI

*Xusniddin Xolmatov*  
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*  
*tayanchi doktoranti*

O‘zbekiston tarixida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti yuqori bosqichga yetgan davr Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug‘bek hukmronlik qilgan yillar hisoblanadi. Amir Temur o‘z davlatining taraqqiyot yo‘lida ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bunga “Temur tuzuklari”da keltirilgan quyidagi fikrlar dalil bo‘la oladi: “Biz har bir shaharda masjid va madrasalar, honaqolar qurishni buyurdik, sayohatchilar uchun yo‘llar bo‘ylab rabotlar, daryolarga ko‘priklar qurishni buyurdik” [1:58].

Davlat rahbarining temuriylar hukmronligining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan maorif sohasiga katta e‘tibor qaratganligi Amir Temur tomonidan boshlangan va uning nabirasi Mirzo Ulug‘bek davrida davom ettirilgan ishlar davlatning yuksalganligidan dalolat beradi.

Ma‘lumki, o‘rta asrlarda ta‘lim jarayoni, asosan madrasalarda o‘rgatilgan. Madrasa davlat xizmatiga tayyor bilimli kishilarni tayyorlaydigan muassasa hisoblangan [2:35]. Shu jihatdan, XV asrda yanada yuksak ilmiy marralarni zabt etish, xalq madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida ta‘lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, ilm-fan taraqqiyoti, asosan Mirzo Ulug‘bekning Movarounnahrda hukmronlik qilgan davriga to‘ri keladi. Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurilgan madrasalar Movarounnahr xalqlari madaniyatida ta‘lim-tarbiyani tubdan o‘zgartirishga zamin yaratgan. Ulug‘bek buyrug‘i bilan Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda madrasalar qurilgan. Uning Buxoro va Samarqandda madrasa qurdirishi bir vaqtda boshlangan bo‘lishiga qaramay, Buxorodagi madrasa 1417-yilda qurib bitkazilgan. Samarqand madrasasi ish ko‘lami va ko‘p kengaytirilganligi tufayli 1417-1420-yillarda qurilgan. G‘ijduvondagi madrasa esa, 1433-yilda qurilgan [3:64]. Mazkur masalaga oid fikrlarni Abdurazzoq Samarqandiy o‘z asarlarida, Mirzo Ulug‘bekning madrasalarga, umuman, ta‘lim tizimiga alohida e‘tibor qaratganligini yozib qoldirgan.

Madrasalar turli ko‘rinishda qurilgan bo‘lib, uning tarkibiy qismi katta va kichik hajmdagi turli hujralardan tashkil topgan. Madrasalarda ta‘lim, asosan hujralarda olib borilgan. Madrasa qurish uslubida hujralar soni madrasaning ijtimoiy mavqeyiga teng bo‘lgan. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasida 55 ta hujra bo‘lib, hujralar madrasa binolarining aylana perimetri bo‘ylab 2 qavatda joylashgan. Bundan tashqari, hujralar eshiklari ustidagi bosh peshtoqlar ham o‘ziga xos xususiyatga ega hisoblangan. Ya‘ni ular kun davomida xonaga yorug‘likning kirib borishini ta‘minlasa, kechasi ular talabalarning mashg‘ulotlarini nazorat qilishgan. Eshiklar ustidagi bu teshiklardan yorug‘lik tushsa, bu talabalar o‘qishayotganini anglatgan. O‘rta asr madrasalarida, hujralarning tuzilishi unchalik xilma-xil bo‘lmagan. Ularning aksaryati ikki qavatli qurilgan. Bu inshoot Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi muzeyida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ta‘kidlash joizki, madrasaning o‘zi ikki qavatdan iborat bo‘lib, bino ichida ikki qavatli xonalar bo‘lgan. Hujraning birinchi qavatidan ikkinchi qavatga yog‘och zinapoyalar orqali ko‘tarilish mumkin edi. Ikkinchi qavatda joylashgan hujralar yotoqxonalar vazifasini bajargan. Birinchi qavatda joylashgan hujralar omborxonalar, qiroat xona va suhbat xonalari bo‘lib xizmat qilgan. Bir hujra ikki kishining turar joyini bildirgan. Birinchi qavatdagi hujralarda kitob mutolaasi uchun barcha sharoit yaratilgan, ularda yozish uchun zarur bo‘lgan barcha jihozlar va o‘quvchilarning kundalik ta‘lim-tarbiya jarayonida zarur bo‘ladigan boshqa buyumlar mavjud bo‘lgan. Gigienaga katta e‘tibor berilgan. Buni kirish eshigi oldidagi burchakda joylashgan, vanna yoki dush vazifasini bajaradigan tashnoblalar tasdiqlaydi. Bundan tashqari, hujra burchagida ovqat pishirish va suv isitish uchun zarur bo‘lgan hamma narsa, shuningdek, mo‘rilar bor bo‘lgan. Bu turdagi madrasa qurilishi o‘z davri uchun qulay bo‘lgan va barcha talablarga javob bergan. Bu shart-sharoitlarning barchasi talabalarning barcha qulayliklarga ega bo‘lgan holda o‘qishini ta‘minlagan [4:422]. Shuningdek, madrasaning 55 ta hujrasida esa, madrasaning to‘rt tomonida to‘rtta darsxona yoki auditoriya bo‘lib, g‘arbiy tomonida masjid qurilgan. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi majmuasining o‘ziga xos sifati va boshqa madrasalardan farqi shundaki, madrasa majmuasining o‘z rasadxonasi bo‘lgan, buni astronom va

adabiyotshunos Mavlono Muorudiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida tasdiqlaydi [5:4].

Ma'lumki, mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimi XVI-XVII asrlarda uch bosqich va shunga mos ravishda uchta ta'lim muassasasi ko'rinishida o'qitilgan. Bular “maktabi ibtidoi” yoki “boshlang'ich maktab”, o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumot bergan madrasa, shuningdek, “madrasai oliy” yoki “oliy maktab”dir. O'rta maxsus ta'lim madrasalari madrasatun karbiya (harbiy maktab), madrasatun muallimin (pedagogika instituti), oliy madrasalar yoki universitetlar “madrasai ilm” deb atalgan [6:4].

Mirzo Ulug'bek madrasasi qurilgach esa, ularda o'qitiladigan fanlar tizimi yaratilgan va o'quv jarayoni rivojlantirilgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Oliy Mirzo Ulug'bek madrasasida ilmiy fanlar (Qur'on va hadis asosidagi diniy fanlar) va adabiyotga bo'linganligi o'sha davrda ilm-fan rivojlanganligidan dalolat beradi. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga diplomlar topshirilgan. Ana shunday diplom namunalaridan biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida R – 2683 raqami bilan bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bu diplom Qo'zizod Rumiyo qo'li bilan 1435-yil fevralida yozilgan bo'lib, Muhammad Balxiyga berilgan, deb taxmin qilinadi [7]. Demak, Mirzo Ulug'bek madrasasini tamomlaganlik to'g'risidagi diplom Sharq mamlakatlarida keltirilgan rasmiy hujjat bo'lgan va bu o'z navbatida, ushbu madrasaning Sharq mamlakatlaridagi mavqeyi yuksakligidan dalolat beradi.

Madrasa ta'lim jarayonida, turli fanlar bo'yicha qo'llanmalar, darsliklardan foydalanilgan. O'qitiladigan fanlar falsafa, mantiq, geometriya, astronomiya, matematika, she'riyat, arab, fors, fiqh, tibbiyot va boshqa fanlar bo'lgan. Madrasada dars berish tamoyili barcha fanlarni puxta egallash talabiga asoslangan. Movaraunnahr madrasasida o'quv jarayoni 19-20 yil davom etgan. Ba'zi hollarda, yilnomalarga asoslanib, o'quv jarayoni 21 yilga uzaytirilgan yoki 8 yilga qisqartirilgan, degan xulosaga kelish mumkin [8:76].

Madrasada ta'lim o'quv fanlaridan kelib chiqib, arab, fors va turkiy tillarda olib borilgan. Madrasada xizmatchilari, ya'ni sadr mutavvali (direktor), muid (direktor o'rinbosari), mudarris (o'qituvchi), hofiz (qur'on hofizlari), imom, mukri (qur'on qiroati

o‘qituvchisi), nokit (kuzatuvchi o‘qituvchi), mujovir (yordamchi o‘qituvchi), farrosh, mushdir (o‘quvchi) va boshqalar bo‘lgan. Talabalar soni esa, madrasaning imkoniyatidan kelib chiqib aniqlangan. Kardlar kontingentini shakllantirish va ta’lim muassasasini joriy ta’mirlesh ishlarini sadr mutavalli bajargan.

Madrasaga o‘qishga kirishda talabalarning bilim darajasi natijalar asosida tekshirilib, a’lo (eng yuqori), avsat (o‘rta), adno (past) kabi 3 guruhga bo‘lingan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, talabalarning ma’lum bir guruhga mansubligini aniqlash uchun ular bilimi tekshirilib turilgan. Imtihon Qo‘zizoda Rumiylar raisligidagi maxsus komissiya tomonidan o‘tkazilgan. Ayrim hollarda o‘quvchilarni imtihondan o‘tkazish marosimida Mirzo Ulug‘bekning o‘zi ham qatnashgan [9:38].

Temuriylar davrida yaratilgan va XIX asrgacha mavjud bo‘lgan uch bosqichli ta’lim tizimini bugungi kunda zamonaviy maktab, litsey va oliy o‘quv yurtlari bilan qiyoslash mumkin. Madrasadagi mashg‘ulotlar jadvaliga ko‘ra, haftaning to‘rt kuni – shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari rasmiy o‘qish kunlari bo‘lga. Ikki kun, ya’ni chorshanba va payshanba o‘z-o‘zini tarbiyalash kuni, juma esa, rasmiy dam olish kuni hisoblangan. “Madrasai Oliya”da o‘quv jarayoni yetti oy davom etgan.

Xulosa qilib aytganda, madrasalar talabalarning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa, xalqimizning yillar davomida shakllangan an’analar, urf-odat, odob-axloq me’yorlari, tarixiy-milliy qadryatlarini saqlab qolishga, bugungi kun talabalarini kamtar, xushmuomala, sabr-toqatli, halol qilib tarbiyalashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sog‘uniy A., Karomatov H. Forschadan tarjima. Temur tuzuklari. – Toshkent, “G‘ofur G‘ulom nashriyot-matbaa” 1991 y.
2. Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand. “Zarafshon”. 2007.
3. Shirinov T. O‘zbekistonda ta’lim tarixi va rivojlanish bosqichlari. –Samarqand, 2010.
4. Xushvaqtov N. Information about history of rooms in the madrasahs of the Middle Asia. Молодой учёный 2015 y. № 14 (94).

5. Valixo'jaev B. Surati haft iqlim dar madrasai Mirzo Ulug'bek // Ovozi Samarqand, 1992. 18 apr.
6. Valixo'jaev B. Temuriylar qurg'on madrasai oliyalar // Ma'rifat, 2001. 4-apr.
7. O'zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi Inv. r. R10683 – Sh
8. Мукминова Р. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. /Vakf-name/ – Т.: Наука, 1966.
9. Asrorova L. Buxoro madrasalari tarixidan. – Т.: “Hilol nashr” 2017.

---

## ВАТАН – МУҚАДДАС, УНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ШАРАФЛИ БУРЧДИР!

*Диёрбек Ёрқинович Тожибоев  
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Бош Штаби Қўшинларнинг  
Жанговар ва Кундалик фаолиятини бошқариш маркази бошлиғи,*

*Джамалов Хушидҷон Тураевич  
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Бош Штаби Қўшинларнинг  
Жанговар ва Кундалик фаолиятини бошқариш маркази катта илмий ҳодими*

**Аннотация,** “Ватан-муқаддас, уни ҳимоя қилиш шарафли бурчдир!” ғояси илгари сурилди.

**Калит сузлар:** Ватан-муқаддас, уни ҳимоя қилиш шарафли бурчдир!” ғояси илгари суриш ва ёшларни онгига сингдириш.

**Аннотация:** «Святая Родина, беречь ее - почетный долг!» идея была выдвинута.

**Ключевые слова:** Родина свята, беречь ее - почетный долг! » продвигать идею и внушать ее молодым людям.

**Annotation,** "Holy Motherland, it is an honorable duty to protect it!" the idea was put forward.

**Keywords:** Motherland is sacred, it is an honorable duty to protect it! ” to promote the idea and to inculcate it in the minds of young people.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламдаги ислохотлар замирида ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий ва савдо-иқтисодий масалалар муҳим аҳамият касб этмоқда. Шунинг учун ҳам Президентимиз Шавкат Мирзиёев Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятидаги ўрни тобора юксалиб боришида тинчлик, барқарорлик ва инсонпарварлик тамойилига таянган ҳолда юртимизда яшаётган ҳар бир инсоннинг ҳаёти, орзуси, дарду – армонларини эътиборимиз марказига қўйишни ва бу борадаги вазифалар самарадорлигини оширишни энг муҳим масала сифатида кун тартибига қўймоқда. Айни ижтимоий сиёсат нуқтаи назаридан жойларда иш ўринларини ташкил этиш, тадбиркорлик ва хусусий мулк ривожига кенг имконият очиб бериш, ёшлар, хотин-қизлар, кексалар ва ногиронларга ғамхўрлик кўрсатиш, муҳтож инсонларга эътибор қаратиш масалалари қабул қилинаётган давлат дастурларида ўз аксини топмоқда. Мустақилликнинг 29 йиллиги муносабати билан қабул қилинган “Сен қудрат манбаи, саодат маскани, жонажон Ўзбекистони!” деган ғоя негизида улкан тарихий тажрибалар турибди. Шунингдек, истиқболдаги режаларимизга мувофиқ Ўзбекистон миллий тикланишдан миллий юксалиш сари дадил илгарилаб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Олий Бош Қўмондони, Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” 2018 йил 4 августдаги ПҚ-3898-сонли қарори ва шу асосда жорий этилган Қуролли Кучлар тизимида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш концепциясига мувофиқ “Ватан-муқаддас, уни ҳимоя қилиш шарафли бурчдир!” ғояси илгари сурилди. [1]Шунингдек, Қуролли Кучлар тизимида ҳафтанинг ҳар жума кунини “Маънавий юксалиш ва ватанпарварлик кунини” этиб белгиланганлиги замирида эса ҳарбий хизматчиларнинг маънавий-руҳий тайёргарлигини рағбатлантириб бориш лозимлиги белгиланган. Мақсад мамлакатимиз суверенлигини, ҳудудий яхлитлигини, халқимиз тинчлигини садоқат билан ҳимоя қилиш энг олий вазифа сифатида эътироф этилади.

Юртимизда тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш, инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини таъминлаш, Ватанимизни ҳар томонлама тараққий эттириш, унинг халқаро майондаги обрў-эътиборини юксалтириш борасида кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Демак, 2017-2021 йилларда Ўзбекистан Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, шунингдек, **“Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”** давлат дастури, **“Обод қишлоқ”**, **“Обод маҳалла”**, **“Ҳар бир оила тадбиркор”**, **“Ёшлар-келажагимиз”**, **“Беш ижобий ташаббус”** каби муҳим дастур ва режалар доирасида олиб борилаётган ислоҳотларнинг маъно –мазмунидан келиб чиқиб, мазкур қарорнинг асосий ғоявий тамойилларида инсон омили юқори ўринга қўйилган. [3]

Биз Президентимиз раҳбарлигида эркин бозор иқтисодиётига асосланган ҳуқуқий демократик давлат ва адолатли фуқаролик жамиятини ривожлантириш йўлидан бораётган Ўзбекистан сиёсатида бутун эътибор жамият тараққиётига қаратилганлигига амин бўлдик. Давлат бошқарувини эркинлаштириш, давлат ва жамият қурилишини такомиллаштиришга йўналтирилган кенг қамровли ислоҳотларнинг амалга оширилишида жамоат ташкилотлари, сиёсий институтлар ва оммавий ахборот воситаларининг фаолияти бугунги жараёнлар билан ҳамоҳанг бўлмоқда. Давлат, унинг сиёсати фақат халқ манфаатига, мамлакат фуқаролари осойишталиги ва барқарор турмушини таъминлашга қаратилаётганлиги қабул қилинаётган қонунларда, Президент фармонлари ва қарорларида ўз ифодасини топмоқда ҳамда ҳаётга татбиқ этилмоқда. Бу эса жамиятнинг моддий-маданий қиёфасини белгилаш билан бирга мамлакат фуқароларининг маънавий-маърифий, ахлоқий тафаккур ва дунёқарашига, руҳий кечинмаларига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Ана шунинг ўзи давлат билан фуқаро, ҳокимият билан аҳоли ўртасидаги муносабатларни адолатга таянган ҳолда уйғунлашиб кетиш имкониятини яратади. Юртбошимиз раҳбарлигида халқимиз тинч-осойишта ҳаёт кечирмоқда, мамлакатимизда кадам-бакадам ижобий иқтисодий ўзгаришлар



содир булмоқда. Тадбиркор, билимдон, меҳнатсевар кишилар учун янги имкониятларга йўл очилмоқда.

Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак, деган тамойил ҳаётга кенг татбиқ этиляпти. Суд-ҳуқуқ тизимида адолатга эришиш, фуқароларнинг эртанги кунга бўлган ишончини таъминлаш масаласи ҳамда давлат органлари фаолиятига холис баҳо бериш орқали инсон омилини юксалтириш лозимлигини ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди.

Қабул қилинган қонунларнинг ҳаётийлиги ва ижроси таъминланиши жамиятда устуворлик касб этиши керак. Эндиликда давлат ва нодавлат секторда ҳамда бутун ишлаб чиқаришда мутахассис ходимлар, иқтисодий ислоҳотларга тезда аралашиб кетувчи хизматчилар, бозор муносабатлари талаблари билан ҳозирги илғор жаҳон технологияси талабларига жавоб берувчи кадрлар зарур. Шунинг учун ҳам умумий ишлаб чиқаришдан илғор технологияларга асосланган ишлаб чиқаришга ўтиш, маҳсулотлар экспорти ҳажмини кўпайтириш ва бугунги бозор шароитида янгича фикрлайдиган ходимларни тайёрлаш муҳим вазифа ҳисобланади.

Мамлакатимизда Президентимиз ташаббуси билан ҳафтанинг ҳар пайшанба куни Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси куни, деб эълон қилинганлиги ҳамда сайёр суд мажлисларининг ўтказилаётганлиги, халқ билан очиш ва самарали мулоқот олиб бориш тизимининг йўлга қўйилаётганлиги демократик принципларнинг амалда намоён бўлаётганлигидан далолат. [2]

Таркибий ислоҳотлар кўламларини янада чуқурлаштириш ва кенгайтириш, иқтисодиётни модернизациялаш, барқарор ва мутаносиблаштирилган макроиқтисодий кўрсаткичларни таъминлаш, инвестиция киритиш, эркин иқтисодий зоналарни ривожлантириш, хусусий мулкчилик секторини мустаҳкамлаш ва бизнес учун қулай муҳитни янада яхшилаш, аҳоли даромадлари ва турмуш даражасининг муҳим шарти сифатида аҳолининг иш билан бандлигини таъминлаш, экспортни ҳар томонлама рағбатлантириш борасида давлатимиз раҳбари томонидан амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар мамлакатимиз тараққиётини белгиловчи муҳим омил сифатида эътироф этилмоқда.

Эндиликда, Олий Мажлис Сенати аъзолари ва Қонунчилик палатаси депутатлари ҳар ойнинг охириги ўн кунлигида ўз сайловчилари билан учрашиб, аҳолини қийнаётган муаммоларни қонуний ҳал этиш чора-тадбирларини ишлаб чиқаётганлиги, ҳокимият вакиллари фуқароларнинг мурожаатларига бефарк бўлмаётганлиги ҳам жамиятда юз бераётган ўзгаришларга инсонларнинг дахлдорлик ҳисси билан яшашига замин яратмоқда. Айни пайтда пухта ўйланган қатъий пул-кредит сиёсатини изчил давом эттириш, янги иш ўринларини яратишга муҳим масала сифатида қаралмоқда.

Бугунги дунё ахборот хуружини бошидан кечирмоқда. Шу сабабли ҳам аҳоли тафаккурида ахборотни ўзлаштириш энг долзарб масалалардан бири бўлиб бормоқда. Энди барча шахс ва ижтимоий гуруҳларнинг қизиқиши, кайфияти, ижтимоий ҳолати таҳлил этилар экан, ишсиз қатламни иш ўринлари билан таъминлаш муҳим масала бўлиб қолаверади. Бунда нодавлат секторни тараққий эттириш ҳам энг муҳим самарали воситалардан биридир. Чунки фуқаролик жамияти шаклланишида нодавлат сектор бошланғич бўғин сифатида баҳоланади. Айни шу жараёнларда инсон ўзининг ижтимоий муаммоларини ҳал этишда жамиятнинг субъекти сифатида намоён бўлади. Бизнинг беғамлигимиз, лоқайдлигимиз ва ишимиздаги баъзи камчиликларимиз туфайли айрим ёшлар жинсий гуруҳлар, экстремистлар ва ёт, бузғунчи ғоялар таъсирига тушиб қолганлигини тан олишимиз керак.

Бутун юртимиз бўйлаб улкан бунёдкорлик ишлари амалга оширилмоқда. Шаҳару - қишлоқларимиз қиёфаси кун сайин гўзаллашиб, аҳоли учун намунали лойиҳалар асосида арзон уй-жойлар ва инфратузилма тармоқлари барпо этилмоқда. Қайта тикланувчи электр манбалари, тоза ичимлик суви ва табиий газ таъминоти яхшиланяпти. Бозорлардаги дўконлардаги мул-кўлчилик, дастурхонларимиз тўкин-сочинлигини айтмайсизми. Буларнинг барчаси, авваламбор, мустақиллигимиз, қолаверса, юртимизда ҳукм сураётган тинчлик-осойишталик шарофатидан. Бу барчамизни фидойиликка ундамоқда.

Мамлакатимизда хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналиши

ҳисобланди. Юртимизда истиқомат қилаётган 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари 138 та миллий-маданий марказга бирлашиб, “Ўзбекистон-умумий уйимиз” шиори остида катта бир оиланинг фарзандларидек тинч-тотув яшаяпти. Бунинг замирида улкан инсонпарварлик сиёсати турибди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 майдаги фармонида мувофиқ, Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси ташкил этилди. Бундан кўзланган асосий мақсад эса жамиятимизда миллатлараро ҳамжихатлик ва бағрикенгликни таъминлашга қаратилган давлат сиёсатини изчил давом эттиришдан иборат.

Дунёда глобализация жараёни кучайган, жаҳон миқёсида рақобат, ўзаро қарама-қаршилик тобора авж олаётган, радикализм, терроризм, экстремизм, прозелитизм ва “оммавий маданият” каби таҳдидлар кенгайиб бораётган ҳозирги замонда доимо огоҳ ва ҳушёр бўлиб яшашимиз керак. **“Ўз уйингни ўзинг асра”, “Ўз болангни ўзинг асра”** ғоялари орқали сафарбарлигимизни янада оширишимизни ҳаётнинг ўзи тақозо этмокда. Мамлакат чегаралари дахлсизлигини таъминлаш, Қуролли Кучларимизнинг жанговор салоҳиятини кучайтириш навқирон йигит-қизларимизни том маънода ватанпарварлик руҳида тарбиялашимиз даркор. [4]

Шунингдек, бугунги пандемия даврида ижтимоий-сиёсат марказида давлатимизнинг ўзи турганлиги ва бунга ҳамкор сифатида халқимизнинг фидойи инсонлари томонидан саховат ва кўмак тадбирларининг ташкил этилаётганлиги мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар тамойилида инсонпарварлик ҳислатларини намоён этади.

Айнан, Қуролли Кучлар тизимида олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар натижаси ўлароқ, буюк аждодларимиз - Широқ, Тўмарис, Жалолiddин Мангуберди, Темур Малик, Нажмиддин Кубро, Амир Темур, Бобур каби миллий қаҳрамонларимизнинг кўрсатган жасоратини ҳарбий хизматчиларимизга доимо ўрнак сифатида кўрсатишдан биз доимо фахрланамиз. Ҳозирги кунда Қуролли Кучларимиз ташкилий ва таркибий жиҳатдан анча

такомиллашди. [5]Тузилмаларнинг ҳаракатчанлиги, жанговор қобилияти, ҳарбийларнинг жисмоний ва маънавий тайёргарлиги ошди. Қисм ва бўлинмалар замонавий қурол-яроғ ва жанговор техника билан таъминланган. Қуролли Кучларнинг юксак жанговорлик қобилияти иқтисодий, сиёсий, стратегик ҳамда ҳарбий – техникавий ва илмий куч-қудратини ривожлантириш орқали Ўзбекистон халқининг жипслиги ва ҳар бир фуқарони ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг энг муҳим принципи ҳисобланади. Демак, ҳарбий соҳадаги кенг кўламда амалга оширилаётган ишлар туфайли қатъий интизом, маънавий-маърифий тафаккур юксалади.

Мухтасар қилиб айтганда, Президентимиз Шавкат Мирзиёев бошчилигида мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламдаги ислохотларга ҳар биримиз ўз ҳиссамизни қўшишимиз керак. Зеро, юксак фуқаролик масъулиятининг жамиятга дахлдорлик туйғуси билан уйғунлашуви буюк мақсадларимизнинг амалга ошишида мустаҳкам пойдевор бўлмоқда.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

- 1.[1]Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2016. Б. 26.
2. [2]Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”.Т.: Ўзбекистон. 2017.Б. 56-68.
3. [3]Мирзиёев Ш.М.“Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”.Т.: Ўзбекистон. 2017.Б.16-48
4. [4] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Янги Ўзбекистон газетаси, 25 январь 2020 йил Б.112-126.
5. [5]Каримов И.А.Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2000.Б.23-56.

## O'SMIRLARDA DEZDAPTATSIYA HOLATLARINI SHAKKLANISH OMILLARI

*Yunusova Go'zal Sultonovna*

*Farg'ona davlat unuversiteti Psixologiya kafedrasi*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Dezadaptatsiya sub'ekt tomonidan ijtimoiy me'yor va mezonlarga moslasha olmaslikdir.

Ya'ni shaxs tomonidan qandaydir bir adaptiv jarayon mutanosibligi bo'lmagan holatda ijtimoiy makonda o'ziga boshqa adaptiv manbaalarni topishga intiladi. «Konform» bo'lgan ijtimoiy muhitdagi shaxsning o'rnatilgan ijtimoiy ustanovkalar, me'yor va mezonlarni o'zlashtirishida o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini-o'zgartirish, korreksiyalashga intilishi dezadaptatsiya holatini anglatadi

O'smirda maktabga bo'lgan ongli ravishda qiziqishning shakllanmasligi motiviga sabab bo'ladi. Bunday bolalar maktabga yomon tayyorlangan, uy vazifalariga negativ munosabatda bo'luvchi, maktab baholariga befarq bo'ladigan, o'quv dezadaptatsiyasiga uchrovchi bo'ladilar.

O'quv dezadaptatsiya-bolaning maktabga bo'lgan umumiy qiziqishini saqlanishida bir yoki ikki fanni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan holatdir.

Maktab dezadaptatsiya-bolaning yosh xususiyatida ta'lim olishidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda xulqiy buzilish holatlari o'qituvchilar, sinfdoshlari bilan janjalli vaziyatlar ko'rinishida yuzaga chiqadi. Dars qoldirish odatlari paydo bo'ladi.

Ijtimoiy dezadaptatsiya- bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi, maktab jamoasining talablariga javob berishdan qochish holatlari, turli asotsial jamoalarga kirib ketish, spirtli ichimliklarga giyohvandlik moddalariga qiziqishning ortishi bilan namoyon bo'ladi.

Psixologlar tomonidan dezadaptatsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy psixologik omillar shartli 2 guruxga bo'lingan: -Ijtimoiy yoki ob'ektiv –Shaxsiy yoki sub'ektiv Dezadaptatsiya jarayonida ikkala omil ham o'zaro bog'langan xolda namoyon

bo'lad. Ta'lim sohasidagi dezadaptatsiya o'quv faoliyatidagi buzilishlar, xulqiy og'ishlar, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlardagi nizolar, havotirlanish darajasining ortishi, shaxs rivojlanishidagi buzilishlarda namoyon bo'lad.

Psixologik adabiyotlarda ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya quyidagicha tasniflanadi. Psixogen dezadaptatsiya o'smirning atrofidagi ijtimoiy muhitdagi uning uchun ahamiyatli bo'lgan insonlar bilan muloqoti jaryonidagi buzilishlar natijasida kelib chiqadi. Ko'p hollarda bu uning tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlardagi buzilishlar natijasi bo'lishi mumkin. Emotsional yaqin insonlari bilan muloqot o'smirdagi xissiy kechinmalarining shakllanishining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda o'smirning yaqin ijtimoiy muhitdagi ayrim yaqin insonlar bilan negativ kechimalari, boshqa yaqin insonlar bilan muloqotda kompensatsiya qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda o'qituvchilari, ota-onasi, oila a'zolari bilan muloqoti orqali kompensatsiya qilinsa, tengdoshlari bilan nizoli vaziyatlarning hammasi ham o'smirda patogen dezadaptatsiya holatini keltirib chiqarmasligi mumkin.

O'smirlarda dezadaptatsiya holatini kelib chiqish ehtimoli uning muloqotdagi kompensatsiya jarayoni asotsial ijtimoiy muhit orqali amalga oshgan hollarda ortadi. Lekin boshqa tomondan o'smirning tengdoshlari bilan ijobiy muloqoti undagi oiladagi, yoki maktabda o'qituvchi bilan shaxslaro munosabatlaridagi buzilishlarni kompensatsiya qilish imkonini yaratadi. Dezadaptatsiya holatlari keltirib chiqishida o'smirlar oilaviy anamnezining og'irlashuvi: noto'liq oilalar va oiladan tashqarida tarbiyalanishlik, ko'p ichuvchi ota, ota-onalardan birining ruhiy kasalligi, oiladagi disgarmonik munosabatlar va kelishmovchiliklar, bolalikda o'smirga ota-onaning noto'g'ri munosabati, psixopatologiya darajasining chegaraviy yoki yuqoriligi bilan farq qilishadi. Ko'p xolatlar o'smirning ijtimoiy dezadaptatsiya xolatlarini bartaraf etishda oilaviy tarbiya metodlarini o'rganish, ota-onalarga oilaviy munosabatlarda o'zgartirish kiritish, qandaydir yangiliklar olib kirish, oilaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

***O'smirlarda dezadaptatsiya holatlarini shakllanish omili sifatida quyidagilar ko'rsatiladi.***

1. Oilada iliq emotsional munosabatlarning etishmasligi (hamma narsaga egasan. Senga yana nima kerak? ).

2. O'smirlarni haddan ziyod erkalatib yuborish, istaklarini tezkor bajarish. Arzimagan cheklashlar o'smirlarda suitsidal moyillik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin (yoqtirgan kiyimi, ota-onasiga yoqmasligi, va'da qilingan telefonning qimmat markasidan sotib olib bermaganliklari va h.).

3. Oilada ota-onalar o'rtasidagi surunkali nizolar otaning alkogol moddalarining iste'mol qilishi, ikkinchi nikohining bo'lishi, xonadonda o'g'il farzandning yo'qligi. O'smirning bu vaziyatlarni tuzatishga ojizligi.

4. Ota-onalar tomonidan o'smir xulqini doimiy nazorat qilishga intilish.

5. O'smir uchun ahamiyatli bo'lgan, sevgan insoni bilan munosabatlari ota-onalar tomonidan qat'iyan qabul qilinmaganligi (mahallada sharmanda qilding, sen kabi farzandning boridan yo'g'I afzal, yana o'sha haqida biror gap eshitsam, o'zim seni o'ldiraman,)

6. O'smirning muvaffaqiyatlari yoki muammolariga nisbatan oila a'zolarining befarqligi. Deadaptatsiya holati sog'lom, yoki turli asab psixik buzilishlari mavjud (jismoniy nuqsonli, organik buzilishlarga ega bo'lgan oligofren o'smirlar bu toifaga kirmaydi) o'smirlarda shakllanishini kiritish mumkin.

Deadaptatsiya markaziy nerv sistemasi funksiyalaridagi buzilishlar natijasida ham shakllanishi mumkin. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha bu toifadagi o'smirlarning ma'lum qismida miya funksiyalarining ma'lum miqdorda o'zgarishi aniqlangan. Bu holatlarga olib keluvchi asosiy faktorlar sifatida anamnezda onaning homiladorlik va tug'ish jarayonining og'ir kechadi. Bunday bolalar rivojlanishida nutq funksiyalari rivojlanishining kechikishi, diqqat, xotira rivojlanishdagi og'ishlar kuzatilgan umumiy intellektual rivojlanishda bunday bolalar meyor darajasida bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ma'lum kognitiv qiyinchiliklarga duch kelganlar.

Bunday holatlar quyidagi sindromlarda namoyon bo'ladi:

- nevrozlar;
- astenik sindromi;
- diqqat etishmovchiligi ;



- *giperaktivlik.*

Shunday qilib markaziy nerv sistemasi funksiyalaridagi buzilishlar aniqlangan o'smirlar bilan psixologik pedagogik korreksion tadbirlar olib borilishi asosida nevrolog, psixolog, psixiatrlar logoped, pedagoglarning muntazam kuzatuvda bo'lishlari zarur.

Dezadaptatsiya holatida namoyon bo'luvchi neyrodinamik buzilishlarning namoyon bo'lish shakllaridan birini psixomotor sustlashuv tashkil qiladi. Bunday o'smirlar psixik faoliyat rivojlanishining sustalashuvi, xarakat faolligini pasayishi, emotsional reaksiyalarning past namoyon bo'lishi bilan ajralib turadilar. Bu o'smirlar turli vaziyatlarda tez reaksiya ko'rsata olmaganlari tufayli tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlar jarayonida, o'quv faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarni xis etadilar.

*O'smirlardagi dezadaptatsiya holatlarida o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri stress va frustratsiya vaziyatlarida faollikning yo'qotilishi, hisoblanadi. Bu vaziyatda o'smirlarning muloqot tizimi to'laqonli emasligi avvalo tengdoshlari, yaqin ijtimoiy muhitdagi odamlar bilan aloqalarning buzilganligi unda "yolg'izlik", "begonalashuv", "zerikish" kabi kechinmalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Aynan o'smirlik davrida ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya holatlari o'z vaqtida aniqlab bartaraf etilmasa, o'smir shaxsining kamolotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ya'ni bu holat o'smirni o'z- o'ziga beradigan bahosining yanada pasayib ketishiga, turli tabiatdagi shaxslaro munosabtlardagi nizolarga, shaxs rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyaning pasayishiga, nevroz holatining vujudga kelishiga va hatto psixik buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu tufayli ham ko'pchilik psixologlar bu muammoni o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar.*

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umarov B.M., Usmonov E.M. *Pedagogik qadriytlarning ota-onalar bilan ishlashning ayrim psixologik masalalari (Psixologicheskiy aspektiy sovershenstvovaniye podgotovki uchitelskix kadrov v pedvuzax I universitetax v usloviyax neprerivnogo obrazovaniya). Tezsi dokladov nauchno-prokticheskoy konferensii. Chast 4-T.1994.*

2. *Sulaymonova T.G. O'smirlik davriga xos suicidal xulqning psixologik korreksiyasi imkoniyatlari-T.: TDPI,2011.-71-72-b*

3. *Ball G.A. Poniyatiye adaptatsii I ego znachenije dlya psixologii lichnosti.// Vopros 'y psixologii' 1999№1-S-92-100.*

4. *Starshenbaum G.B. Psixoterapiya ostrogo gorya.// "Sotsialnaya I klinicheskaya psixiatriya" 1994, № 3-S.73-77*

## ЎСМИР ШАХСИ ХУЛҚ-АТВОРИНИ ТАРБИЯЛАШДА ЮЗАГА КЕЛАЁТГАН ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАР

*Кубаев Маъруф Қосим ўғли*

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси тадқиқотчиси*

Тарбия – муайян, аниқ мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида шахсни ҳар томонлама ўстириш, унинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини таркиб топтириш жараёни. Бошқачароқ талқин этилганда, тарбия ёш авлодни муайян мақсад йўлида ҳар томонлама вояга етказиш, унда ижтимоий онг ва хулқ-атворни таркиб топтиришга йўналтирилган фаолият жараёнидир. Турли замон ва маконда ижтимоий тарбия моҳияти турлича бўлиб, унинг мазмуни ижтимоий мақсадлардан келиб чиқиб асосланган. Тарбия ғояси турлича ифодаланган бўлсада, аммо йўналтирувчанлик хусусияти ҳамда объектига кўра яқдилликни ифода этади.

Тарбия хусусида таниқли ўзбек педагоги Абдулла Авлоний шундай дейди: «Ал-ҳосил, тарбия бизлар учун ё ҳаёт, ё мамот, ё нажот - ё фалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидур»<sup>1</sup>. Ушбу фикрлардан англаниладики, шахс тарбияси хуссий иш эмас, балки ижтимоий, миллий ишдир. Зеро, ҳар бир халқнинг тараққий этиши, давлатларнинг қудратли бўлиши авлодлар тарбиясига кўп жихатдан

боғлиқ. Бугунги кунга келиб бу масала айниқса муҳим тус олганлигини кўришимиз мумкин.

Ёшлар билан олиб бориладиган таълим-тарбия ишларининг муваффақияти - уларнинг ёш ва психологик хусусиятларини билиш ҳамда ҳисобга олишга боғлиқдир. Бу ҳолат бурилиш ҳисобланган ўсмирлик даврининг алоҳида хусусияти бўлиб, у кўпроқ шу жаврга таалуклидир. Ўсмирлик даврини ўтиш даври деб юритадилар, чунки ана шу даврда болалиқдан қатталиқ ҳолатига ўзига хос ўтиш даври юзага келади. У психик жараёнларнинг, ўқувчи фаолиятларининг жиддий равишда қайта қурилиши билан боғлиқдир. Шунинг учун ўсмирлик ёши ўзаро муносабат шаклларида, фаолиятни ташкил қилишда қатъий ўзгаришларни талаб қилади. Ўсмирларга таълим-тарбия бериш ишларида учрайдиган айрим кийинчиликлар бу ёшдаги болаларнинг психик ривожланиши қонуниятларини ва хусусиятларини баъзан етарли даражада билмаслик ёки инкор қилиш натижасида пайдо бўлади. Бу давр тарбия учун анча қийин давр ҳисобланади. Чунки боланинг катта одамга айланиш жараёнининг ўзи қийин, бу жараён психиканинг, одамлар билан бўлган муносабат шакллариининг жиддий равишда қайта ўзгариши ҳамда хаёт шароити ва фаолиятининг ўзгариши билан боғлиқдир.

Агар болага болалиқ чоғида унга одоб-ахлоқ ўргатишни эски шакл ва усулларида фойдаланилган бўлса, энди улар бола учун яроқсиз бўлиб қолади. Аввал болалар ота-оналари, тарбиячиларнинг ахлоқ-одоб ҳақидаги гапларини бажонидил эшитган бўлсалар, эндиликда бундай таъсир болани зериктиради ёки ёқмай қолади.

Натижада, ундан катталарнинг фикрларига қарши чиқиш ёки рад этиш каби хислатлар пайдо бўла бошлайди. Булар эса бу даврнинг “қийин”, “мураккаб” давр бўлишига сабаб бўлади.

Ўсмирларга таълим-тарбия беришдаги қийинчиликлар шундан иборатки, бунда ўсмир билан бўладиган муносабатларда унинг хаёти ва фаолиятини назорат қилиш шакллариини ўзгартириш муҳимдир. Уларга таъсир қилишнинг қандайдир янги усуллари ва воситаларини топиш лозим бўлади. Бунда албатта, ҳар бир ёш билан алоҳида муносабатда бўлиш мақсадга мувофиқдир.

Ўсмирларнинг психик тараккиётини ҳаракатга келтирувчи кучлар уларнинг фаолиятлари туғдирган янги эҳтиёжлар билан бу эҳтиёжларни кондиритиш имкониятлари ўртасидаги қарама-қаршиликларнинг юзага келиши ва бартараф қилинишидан иборатдир; бу қарама-қаршиликлар ўсмирларнинг ортиб бораётган жисмоний, интеллектуал ва ахлокий имкониятлари билан уларнинг эски, илгари таркиб топган олам билан ўзаро муносабат шакллари, улар фаолиятининг эски қарама-қаршиликлар, жамият, катталар ва жамоа томонидан ўсмирга нисбатан ортиб бораётган талаблар билан ўсмирлар реал ҳатти-ҳаракатларнинг шакллари ўртасидаги қарама-қаршиликлардир. Бу қарама-қаршиликлар анча юксак даражадаги психик тараккиётни, анча мураккаб шаклдаги фаолият турларини ва шахснинг катор янги психологик сифатларини таркиб топтириш орқали бартараф қилинади. Бунинг натижасида ўсмирнинг психик тараккиётининг янада юксакроқ босқичга ўтиши амалга оширилади. Вақт ўтиши билан ўсмирнинг ҳаётида биологик ва ижтимоий ўзгаришлар пайдо бўлади. Ўсмир ёшдаги биологик яъни жисмоний тараккиётнинг энг муҳим факти жинсий етилиши, яъни жинсий безларнинг ишлай бошлашидир. Натижада кўпчилик ўғил болала 15-16 ёшда, киз болалар 13-14 ёшда балоғатга етадилар. Балоғатга етиш ўсмирларда ўзига хос психологик ҳолатни вужудга келтиради, яъни кишиларнинг ички дунёсига, уларнинг ўзаро муносабатларига қизиқиш, уларни ҳис қилиш ва ҳали аниқ тасаввур қилинмаган севгига эҳтиёж пайдо бўла бошлайди. Бу эса шу даврга хос бўлган “қийинчилик” ларни келиб чиқишига сабаб бўлади. Бу “қийинчиликлар” айниқса ўша ёшдаги болаларга ғоявий-сиёсий тарбия бериш ва уларга тўғри педагогик муомила бўлмаган тақдирда кескинлашиб кетиши мумкин.

Бу даврни чет эл психологиясида “кризис” даври деб ҳам тарифлайдилар. Ўсмирларнинг бундай ўзига хос хусусиятини ижтимоий -тарихий ҳаёт шароитидан ажратиш тушуниш мумкин эмас. Интзомсизлик, ахлоксизлик ҳукм сурган буржуа мамлакатларида, ҳақиқатда ҳам ўсмирларнинг жинсий балоғатга етиши турли ахлоқсизликларга олиб келиши мумкин.

Бизда ўсмирнинг хаёт шароити, унга бериладиган таълим-тарбия ва унинг фаолиятини тўғри ташкил қилиш орқали ижтимоий фойдали меҳнат қилишга жалб қилиш орқали қийинчиликлар бартараф қилинади.

Лекин, афсуски, баъзан ёшларимиз орасида тарбияси “кийик” бўлган, “қийин тарбияланувчи” ёшлар ҳам учраб туради. Тарбияси “қийин” бўлишига сабаб нима?

Тарбияси қийин, инжиқ, хулқида салбий ўзгариши бўлган болаларнинг келиб чиқиши ижтимоий сабабларидан ташқари педагогик ва психологик сабаблари ҳам мавжуд. Ёшларда ноўя хатти-харакатлар пайдо бўлишининг сабаблари ва турткилари ҳар хилдир. Қонунни бузишни ёки қоидага хилоф иш қилиш даражасига қараб тарбияси қийин ўсмирлар жинсий қонунбузар ва оддий қоида бузар гуруҳларга ажратилади.

Ҳар қандай ҳолатда ҳам бундай тарбияси оғир ёшлар жамоаси билан ишлашда ҳар томонлама ёндашиш ва ҳамкорлик ишларини ташкил этиш талаб этилади.

---

## **AUTIST BOLALI OILALARGA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA PSIXOLOGIK VAZIFALARNING O'RNI VA ROLI**

*Avezova Durdona Gafurjon qizi*

*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti*

О‘збекистоннинг миллий истиқлолга еришгач, ижтимоий ва сиёсий соҳада содир бо‘layotgan tub o‘zgarishlar ta'lim tizimini, jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni aqliy, ma'naviy, jismoniy jixatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayonini yangilashni taqazo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-momot masalasiga aylanib bormoqda"<sup>[10]</sup> deb e'tirof etishlari ham yosh avlodning ham ruhan ham jismonan sog‘lom bo‘ishi zarurligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Bolalar huquqlari haqidagi butun dunyo konvensiyasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to‘g‘risida"gi qonun uzoq muddat davolanishga muxtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etish ta'kidlab o‘tiladi. Chunki maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan mustaqil ravishda o‘z faoliyatlarini egallay olmaydilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ta'lim hamma uchun nomidagi Solamanka deklaratsiyasi"ga javoban O‘zbekiston Respublikasida 2005 yilda "Ta'lim hamma uchun" milliy dasturi tuzilib, ushbu dasturni joriy qilish bosqichlari belgilab olindi.<sup>[11]</sup>

Hozirgi kunda yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar va yosh o‘smirlarning ta'limiy, uslubiy yordam olishlari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida davlatimiz tomonidan turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog‘lom avlod ota-ona faxridir. Sog‘lom avlod orzusi ming yillardan beri ajdodlarimizdan o‘tib kelayotgan oilamiz, hayotimiz, intilishlarimiz mohiyati asosiga aylanib ketgan, millatimizga xos ezgu qadriyatlarimizdan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-64-65-66 bandlari, "Sog‘lom avlod uchun" Davlat Dasturining 6/41 bandi, "Oila kodeksi" (1998), "Ona va bola Skriningi" dasturi (1998), "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi (2007), "Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya" (2009), "Yoshlar yili" (2008), "Barkamol avlod yili" (2010), "Mustahkam oila yili" Davlat dasturilari jamiyatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan alohida yordamga muhtoj bolalar, o‘smirlarni ijtimoiy qo‘llash, ularga ta'lim-tarbiya berish kasb-hunarga o‘rgatish, jismoniy chiniqtirish, inklyuziv ta'lim berish, sog‘lom bolalar qatoridan o‘rin olib, o‘z qobiliyati, imkoniyatlarini ko‘rsata olishga asos soluvchi chora-tadbirlar alohida qayd etilgan. 2011 yilning noyabr oyida o‘zkazilgan "Onalik va

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 03.07.2017 yildagi yoshlar bilan muloqot davra suhbat

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2005 yildagi "Ta'lim hamma uchun" milliy dasturi

bolalakni muxofaza qilish" mavzusida o'tkazilgan xalqaro simpozium ham shular jumlasidandir. 2014 yilning "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi yurtimizda yosh avlodga bo'lgan g'amxo'rlikdan yana bir dalolatdir. Mamlakatimizda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizni taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish maqsadida hamda 2014 yil «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan «Sog'lom bola yili» davlat dasturi tayyorlandi.<sup>[12]</sup> «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi 7 bo'lim va 125 banddan iborat bo'lib, unda bolalar tug'ilishi, ta'lim-tarbiyasi, oilada sog'lom muhitni, uning iqtisodiy va ma'naviy-ahloqiy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy soha rivojiga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar aks etgan. Birinchi navbatda, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturida oilada mehr-oqibat va o'zaro hurmat muhiti, yuksak ahloqiy va ma'naviy qadriyatlarni barqaror qilish, yosh oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona va bola salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlar o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning kundalik ro'zg'or yumushlarini yengillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham bilimdon, keng dunyoqarashga ega barkamol va yetuk shaxslarni tarbiyalash ustuvor yo'nalish darajasiga ko'tarildi. Aholining ajralmas bir bo'lagi alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik sog'lom, barkamol qilib tarbiyalash, ularning shaxsiy huquqlarini ijtimoiy himoyalash, ta'lim tarbiya jarayonini mos ravishda tashkil etish,

---

<sup>3</sup> «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi Toshkent 2014



me'yorida rivojlanayotgan bolalarga har tomonlama tenglashtirish natijasida jamiyat taraqqiyotida o'z o'rinlarini toptirishni ta'minlashdek dolzarb masalalar hech qachon davlatimiz siyosatidan chetda qolgan emas. Bolalar autizmi yevropa tibbiyot va psixologiya fanlarida asosan XVIII asrlardan boshlab tadqiq qilina boshlandi. Dastlab fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar Averon o'rmonlarida istiqomat qilgan 12 yoshli bola ("averon mauglisi") ni o'rgandi va undagi xususiyatlar (nutqning rivojlanmaganligi va intellekt buzilishi)ni o'zining "Intellektual funksiyalar buzilishi asosidagi autizm" mavzusidagi ishida (1828) "intellektual autizm" deb nomladi. O'tgan asrning boshlarida (1911) shvesariyalik psixiatr Ye.Bleyler "Erta aqli zaiflik va shizofreniya guruhi" ishida erta autizm to'g'risidagi dastlabki qarashlarni ilgari surdi. Bevosita psixologiyaga "autizm" (grekchadan o'tgan lotincha "autos" - "men", "o'zim" so'zidan) termini esa Ye.Bleyler tomonidan (1928) fikrlashning affekt orqali boshqariladigan alohida turini tasvirlash uchun olib kildi. Amerikalik bolalar psixiatri L. Kanner "Affektiv muloqotdagi autistik buzilish" mavzusidagi maqolasida (1943) o'zining ko'p yillik olib borgan tajribalariga *tayangan holda bolalardagi autizmni sindrom sifatida ilmiy asoslab berdi*. Shu orqali ilmiy iste'molga "erta infantil autizm", "bolalar erta autizmi" va "kanner sindromi" kabi atamalar kirib keldi. Ushbu atamalar tadqiqotchilarning yondashuviga bog'liq holda turli manbalarda turlicha qo'llanilib kelinmoqda. O'z navbatida L.Kanner nazariyasi ustida ham bahs-munozaralar davom etmoqda. Shu o'rinda L.Kannerdan mustaqil ravishda avstriyalik psixiatr G.Asperger psixologiyaga "autistik psixopatiya" atamasini kiritganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

L.Kannerdan keyin autizm quyidagi yo'nalishlarda o'rganilgan:

1. *alohida konstitusional holat sifatida (Rimland V.,Bashina V.M.);*
2. *shizofrenik postpristup holati (Vrono M.Sh.,Bashina V.M.);*
3. *markaziy nerv sistemasining organik patalogiyasi (Mnuxin S.S.);<sup>[13]</sup>*

*Shuningdek, xorijlik va MDH davlatlari tadqiqotchilari tomonidan autistik bolalar xulqining turli o'ziga xos jihatlarining tadqiq etilganligini V.Bettelxeym, M.Vrono, V. Mamseva, G. Suxarevalarning tadqiqotlari misolida ham ko'rish mumkin. O'tgan*

<sup>13</sup> Каннер Л. "Аутические нарушения аффективного контакта" в переводе В. Е.Кагана/ Л.Каннер // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2010.№ 1.-С.85-88

asrning 80-yillariga kelib esa, L.Kannerning klassik qarashlaridan chekinish davri boshlanib, autizmga kelib chiqish sabablari turlicha bo'lgan sindromlar guruhi sifatida qarash rivojlandi va ular sirasida tipik, notipik va asperger autizmlarga bo'lindi.

Bugungi kunda bolalar autizmining tashxis mezonlari Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining "Kasalliklarning xalqaro tasnifi" (ICD-10. WHO, 1987) va Amerika psixiatrlar assosiasiyasining "Tashxis – statistik qo'llanmasi" (DSM-IV. ARA, 1994) asosida belgilanadi va psixik rivojlanishdagi pervaziv nuqsonlar qatoriga kiritiladi.

Odam faoliyatining barcha turida, albatta, nihoyatda kuchli (eng ko'p to'plangan) va nihoyatda barqaror diqqatning ahamiyati juda kattadir. Autst bolalarda asosiy muammo diqqat barqarorligi hisoblanadi, shu sababli autizm sindromli bolalar bilan ishlashda ularning diqqat barqarorligini oshirish eng kata vazifalardan biri.

Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qator shartlarga:

- diqqat ob'ektining mazmundorligiga,
- faoliyatga,
- ish bajarilayotgan vaziyatga,
- odamning ruhiy holatiga,
- irodasiga va qiziqishlariga bog'liqdir.

Diqqat ob'ektining xarakteri va ishning mazmundorligi uning kuchli va barqaror bo'lishi diqqat ob'ektining mazmundorligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Diqqat ob'ekti qanchalik mazmundor bo'lsa, diqqat ham shu qadar kuchli va barqaror bo'lishi mumkin. Mazmunsiz narsalarga diqqatni qaratish va tutib turish ancha mahol ish. Masalan, bir varaq toza qog'ozga chizilgan doiraga uzoq vaqt diqqat bilan qarab shuningdek, tinimsiz bir xil balandlikda va bir xil kuch bilan chiqayotgan tovushni ancha muddatgacha eshitib turish ham qiyin. Bu singari mazmunsiz narsalar ustida diqqatni to'xtatib turishlikka urinib ko'rsak, diqqatimiz har 3-5 soniyadan keyin boshqa narsalarga chalg'iydi yoki tebranib turadi, ya'ni har 3-5 soniya oralig'ida odam goh qunt bilan diqqat qiladi, goh diqqati sustlashadi, bu ikki hol biridan-ikkinchisiga o'tib turadi. Diqqatning tebranish holatini, masalan, quyidagi misolda ko'ra olamiz. Agar kesik piramidaning rasmiga bir necha vaqt tikilib qarab tursak, bunda piramidadagi kichik to'rtburchak goh yuqoriga bo'rtib, goh ichkariga botiq bo'lib ko'rinadi. Diqqatning shunga o'xshash tebranishini

jimjit sharoitda cho‘ntak soatining chiqillashiga quloq solib ko‘rilganda kuzatish mumkin: soatning chiqillashi goh sekinlashadi, goh to‘xtab qoladi; gox, soat yana chiqillay boshlaydi. Idrok qilishdagi bunday o‘zgarishlar - diqqat tebranishining natijasidir. Diqqatning tebranishi, ya’ni qunt bilan diqqat qilish va diqqatning sustlashishi ba’zan bir minut ichida 25-30 martagacha bo‘ladi. Rus psixologi N. N. Langening tekshirishlarida ko‘rsatilishicha, diqqat 2-3 sekundgacha, ko‘pi bilan 12 sekundgacha tebranmay tura oladi. Odam charchagan vaqtida diqqat tebranishining tezligi ortadi. Ammo diqqat qaratiladigan narsaning mazmuni har xil bo‘lsa va ayniqsa bu narsa harakat qilib tursa, diqqat ancha barqaror bo‘ladi. Odam mazmundor ishga diqqat qilganida, uning diqqati 15-20 daqiqa va undan ko‘p vaqt hech bir narsaga bo‘linmay hamda chalg‘imay to‘xtab tura oladi. Diqqatning muttasil 20 daqiqa qaratilgandan keyin boshqa yoqqa bir necha sekund chalg‘ishi ishning borishiga deyarli yomon ta’sir etmaydi. Bunda biroz 2-3 sekund dam berilishi bilan diqqat bir necha soat davomida barqaror turishi mumkin. Shu bilan birga, ish qanchalik mazmunli bo‘lsa, bu ishda xotira, hayol va fikrlash jarayonlari qanchalik samarali va xilma-xil bo‘lsa, odamning shu ishga qaratilgan diqqati shunchalik kuchli va barqaror bo‘ladi. Bola qaysi yoshda bo‘lishidan qat’iy nazar, diqqatini mashg‘ulot vaqtida tarbiyachi tushuntirayotgan mavzuga qaratmasa, tarbiyachi so‘zlarini tushunmaydi, mashg‘ulotning mazmunini, idrok qilolmaydi va materialni zarur miqdorda esda qoldira olmaydi. O‘rganilayotgan materialini dastlabki idrok qilish, uni anglash va mustaqil esda saqlab qolish maqsadida qilinadigan keyingi ishlar bolalardan barqaror diqqatni talab qiladi. Diqqat va diqqatlilikni tarbiyalashda mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil qilishning o‘zigina yetarli emas. Bunda bolalarning uyushqoqligi va intizomligini ta’minlovchi kundalik rejimning izga qo‘yilishi ham katta rol o‘ynaydi. 1-mashq. Har bir o‘quvchiga varaqda yozilgan matn beriladi va quyidagi yo‘riqnoma amalga oshiriladi: Sizga berilgan matndan “2A” harfini toping va o‘chiring. Bu korrektur mashq haftasiga kamida 5 marta 5 minutdan o‘tkaziladi. Mashqni individual va guruhiy tarzda o‘tkazish ham mumkin. Mashq asta-sekin takomillashtirib boriladi. Keyingi bosqichda 1 ta emas, 2 ta harf o‘chirilishi so‘raladi, ulardan biri kvadrat, ikkinchisi dumaloq shakl ichiga olinishi mumkin va h.k. Mashq tugagandan so‘ng tekshiriluvchilarning nechta xato qilganligi aniqlanadi. Bunda

mashq davomiyligi 5 minutdan oshmasligi kerak. Matn ko‘lami 4-5 ta gapdan bir nechta abzatsgacha bo‘lishi mumkin. Topshiriq natijalarini ishtirokchilarning o‘zlari bir-birlarinikini tekshirishlari bilan ham takomillashtirish mumkin. Bunda bolalarning o‘zlari ko‘p xato qilgan tengdoshlariga «jarima» solishlari ham mumkin. Bu metodikani amaliyotda qo‘llash shuni ko‘rsatdiki, 3-4 haftalik mashqlardan so‘ng bolalarda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasi yaxshilanadi. Bu ko‘nikmani mustahkamlash uchun mashqni 2-4 oygacha davom ettirish mumkin. «Farqini top» **mashqi**, bu shakldagi topshiriqlar predmetlar va hodisalarning muhim belgilarini ajratish malakasini talab qiladi. O‘quvchilarni sistematik va maqsadga yo‘naltirilgan holda qiyoslashga o‘rgatish diqqatni o‘z vaqtida aktivlashtirish ko‘nikmasining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Taqqoslash uchun bolalarga detallarning ma’lum sonini o‘z ichiga olgan qandaydir tasvirlar, rasmlar taklif etilishi mumkin. «Hamma narsani payqaysan» **mashqi**

7-10 ta predmetni qator qo‘yib, usti yopib qo‘yiladi. So‘ngra predmetlarning ustini 10 sekundga ochib, bolalardan uning qanday ketma-ketlikda joylashganini eslab qolishlari so‘raladi. Yana predmetlarning ustini yopib qo‘yib, 8-10 sekunddan so‘ng predmetlarning ketma-ketligini so‘rash mumkin. So‘ngra esa, predmetlarning o‘rnini almashtirib qo‘yib, avvalgi holatida qanday ketma-ketlikda joylashgan ekanliklarini aniqlashlari mumkin. Mashqning so‘nggi bosqichida o‘sha predmetlarga qaramasdan, ularning rangini aytib berish so‘raladi. «Sanash» **mashqi**, bolalardan 1 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarni doskaga yoki qog‘ozga yozish davomida aytish taklif etiladi. Bunda sanash oldinga, yozish esa teskari tomonga qarab boradi, ya’ni bir degan holda o‘quvchi qog‘ozga 20 ni yozadi 2 deganda 19 va h.k. Topshiriqni bajarishga ketgan vaqt va xatolar soni sanaladi.

Shuni ta’kidlash joizki, bolalar bilan guruhiiy tarzda olib boriladigan o‘yin va mashqlarni tanlaganda (ayniqsa harakatli o‘yinlar) mazkur toifa bolalarning quyidagi xususiyatlarini inobatga olish zarur: diqqat beqarorligi, yuqori faollik hamda uzoq muddat davomida guruhiiy qoidalarga bo‘ysunishni bilmaslik, ko‘rsatmalarni oxirigacha tinglay bilmaslik va ularni bajara olmaslik, tez charchab qolish va x.k. O‘yin davomida bu toifa bolalar o‘z navbatlarini kutib turishlari juda qiyin va boshqalar manfaatlari bilan hisoblashishlari ham mushkul. Shuning uchun bu toifa bolalarni jamoaviy mashq va

o‘yinlarga bosqichma bosqich jalb etish maqsadga muvofiqdir. Guruhiy o‘yinlar ham aniq qoidalarga asoslangan, diqqatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

***Bir funksiyaning mashqiga qaratilgan o‘yinlar***

O‘yin mashq	Individual	Guruhiy
Diqqat	“Farqini top”, “Man qilingan harakat”	“Man qilingan harakat” “Kontokni uzat”
Harakatni nazorat	“Qo‘llar bilan suhbat”	“Dengiz mavjlanadi”
Impulsivlik nazorati	“Gapir!”, “Eyiladigan yeyilmaydigan narsa-lar”	“Eyiladigan va yeyilmaydigan narsalar”,

Sust funksiyalar mashqini ham bosqichma-bosqich olib borish zarur.

Dastlabki davrlarda faqat bir funksiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va o‘yinlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, faqat diqqatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar yoki bolalarga o‘z impulsiv harakatlarini nazorat qilishga o‘rgatadigan o‘yinlar. Korreksion ishdagi alohida bosqichni bolaga o‘z xatti-harakatlari faolligini nazorat qilishga yordam beradigan o‘yinlarni qo‘llash tashkil etadi. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ba’zi o‘yinlarni ham individual, ham guruhiy tarzda qo‘llash mumkin.

***Ikki yoki uchta funksiyani mashq qildirishga qaratilgan o‘yinlar***

Mashq qildiriladigan funksiyalar	O‘yinlar
Diqqat va impulsivlik nazorati	“Baqirish — pichirlash— sukut saqlash”, “Gvalt”
Diqqat va harakat faolligi nazorati	“Mening uchburchak qalpog‘im” “Postlarni qo‘yib chiq”, “Qotib qol”
barqarorlik nazorati va harakat faolligi nazorati	“Sokinlik soati va “mumkin” soati”
Diqqat, barqarorlik nazorati harakat faolligi nazorati	“Buyrug‘imni eshit”, “Qarsaklarni eshit”, “Dengiz to‘lqinlari”

Mashqlarni olib borishda bitta sust funksiya bo‘yicha mashqlarni o‘tkazib, natijalarni olgandan so‘ng, birato‘la ikkita funksiyani mashq qildirishga qaratilgan o‘yinlarni tanlash mumkin. Avval aytib o‘tganimizdek, bola pedagog yoki psixologning

talablarini aniq o'zlashtira olishi uchun ishni individual tarzda boshlash maqsadga muvofiq, keyinchalik sekin asta uni jamoaviy o'yinlarga jalb etish mumkin. Bunda albatta bolani qiziqitira bilish muhim ahamiyatga ega. Bolada bir vaqtning o'zida ikkita sust funksiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yin va mashqlarda ishtirok etish tajribasi orttirilgandan so'ng, bir o'yinning o'zida birvarakayiga uchta funksiyani ishlab chiqishga qaratilgan murakkab ish shakllariga o'tish mumkin. Yuqoridagi jadvalda u yoki bu funksiyalarni mashq qildirishga mo'ljallangan ba'zi o'yinlar nomlari keltirilgan. Har bir pedagog yoki psixolog o'z imkoniyatiga qarab, mashg'ulotning maqsadi va bosqichiga ko'ra ularni individual yoki guruhiy tarzda qo'llashi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 03.07.2017 yildagi yoshlar bilan muloqot davra suhbat
- 2.O'zbekiston Respublikasining 2005 yildagi "Ta'lim hamma uchun" milliy dastur
- 3.«Sog'lom bola yili» Davlat dasturi Toshkent 2014
- 4.Каннер Л."Аутические нарушения аффективного контакта" в переводе В. Е.Кагана/ Л.Каннер // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2010.№ 1.-С.85-88

---

## ЮКСАК МАЪНАВИЙ ҲИСЛАРНИ ЁШЛАРДА ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ

*Орзикулова Чароз Рахматовна  
Мирзо Улугбек номидаги ЎзМУ Ижтимоий фанлар  
факультети психология йуналиши магистранти,  
Халқ таълими аълочиси*

Янги Ўзбекистонни куриш йўлида катта саъй-ҳаракатларни амалга ошираётган давлатимиз раҳбари асосий эътиборни ёшларнинг таълим ва тарбиясига қаратар экан, агар тарбия мукамал бўлса, ёшларда юксак инсоний



ҳислар маромида шаклланса, таълим ўз-ўзидан юксалишига шубҳа йўқ, деган ғоя асосида ёшларнинг келажагига алоҳида эътибор бериб келмоқда.

Бунинг учун аввало юксак ҳисларни ўзида мужассам этган педагог ўқитувчиларни тайёрлаш ва мунтазам малакаларини ошириб бориш мақсадга мувофиқдир.

Дунё миқёсидаги спорт ва фан олимпиадаларида Ўзбекистон байроғини юқори чўққиларга кўтараётган ёшларимиз ўзларининг йўналишларидан ташқари маънавий ва маърифий жиҳатдан юксак ҳисларни ҳам бутун дунёга кўз-кўз қилиб, миллий ғуруримизга ғурур қўшмоқдалар. Мамлакатимиз ҳудудида эса кўплаб ёшлар ўзларининг ташаббуслари билан бунёдкорлик ишларини амалга ошириб, халқимиз фаровонлиги йўлида ўз фидойилиklarини намоён этмоқдалар. Ана шундай ёшларимизнинг сафлари янада кенгайиши учун, ҳар бир ёшларда фаровонлик ва фидойилик ҳисларини янада такомиллаштириш янгиланаётган Ўзбекистоннинг асосий таянчи ҳисобланади. Мазкур жараёни муваффақиятли амалга ошириш учун эса ёшларда фаровонлик ва фидойилик ҳисларини тўғри англаб етишлари учун илмий асосда юксак инсоний ҳисларни уларга синдириш лозим.

Психология фанлари доктори профессор Э.Ғ.Ғозиев тарифлаганларидек, "Фаровонликка интилиш ҳар бир шахс ўз олдига қўйган қатъий ва аниқ мақсадидан бошланади. Мақсад ўз навбатида эҳтиёж асосида юзага келиб, шахсни режа асосида ҳаракат қилишга ундовчи онг олди фаолиятининг компоненти ҳисобланади. Шахсий фаровонликка етишиши учун мақсадни ўз имкониятдан келиб чиққан ҳолда тўғри қўйиш муваффақиятга эришишнинг дастлабки қадами ҳисобланади".

Юқоридаги фаровонликка интилишнинг таърифида дастлабки урғу мақсадга бериляпти.

Ўқувчида мақсаднинг қатъий ва аниқ бўлиши унинг тўғри касб танлаб, жамиятда фойдали шахсга айланиши учун педагог ўқитувчи ўқувчининг лаёқати ва қобилиятини тўғри баҳолай олиши ва уни йўналтира олиши лозим бўлади. Мазкур ҳолатда ўқувчига тўғри йўналиш бериш учун педагог ўз навбатида ўқувчи



оиласи билан ҳамкорликни йўлга қўйиш лозим. Мақсаднинг амалга ошиши эса ўз навбатида ўқувчида моддий эҳтиёж эмас, балки маънавий эҳтиёжни биринчи ўринга олиб чиқиш орқали касбга нисбатан фидойилик ва унинг таъсирида фаровонлик ҳисини шакллантиришга қўйилган катта қадамлардан бири ҳисобланади. Мазкур илдам қадамларни аниқ режа асосида амалга ошириш эса ўз навбатида ўқувчида ўзига бўлган ишончни орттириб, ҳаракатларидаги аниқликларни юзага чиқаради. Ушбу ҳаракатнинг муваффақияти ўқувчи томонидан онг олдида билвосита ва бевосита умумлашган ҳолда акс эттириши билан уйғунлашиб кетади.

Билвосита акс эттириш деганда ёшларнинг юксак инсоний ҳислар билан билимларини бойитиш, унда асосан миллий ва умумбашарий кадрларга урғу бериш ёшларнинг тасаввури ҳамда мантиқий тафаккури маҳсулдорлигини оширишга ҳизмат қилади.

Бевосита акс эттириш орқали эса, ёшларнинг эгаллаган билимларини амалий ҳаётда қўллашлари орқали фидойилик ва фаровонлик ҳисларини тўғри йўналтиришларига имконият очади.

Умумлаштириш асосида эса ёшлар ўзлаштирган билим ва тажрибаларини онг остида акс эттириб, янги ва янги мақсадлар сари интилишга ҳаракат қиладилар.

Э.Ғ.Ғозиев фаровонликка интилишда онг олди акс эттиришнинг моҳиятини билвосита ва бевосита ҳамда умумлаштириш орқали изоҳлашга ҳаракат қилди. Демак, ёшларда онг олди фаолиятини такомиллаштириш ва мулоҳаза қилишни шакллантириш асосида шахсий фаровонликка таяниб иштимой фаровонликка интилиш юзага келар экан. Шунинг учун ҳар бир ўқувчига ўзининг меҳнати орқали шахсий фаровонлигини яратиш билан бир қаторда ўзи яшаб турган ҳудуд фаровонлигига ҳисса қўшишни сингдириш қанчалик муҳимлигини ҳар бир педагог англаб етиши керак бўлади.

Шахсий фаровонлик тушунчасини ёшларга сингдиришда шахснинг ўз фаолиятидан қониқиши ҳамда мамнун бўлиши механизми имкониятга боғлиқлигини ҳамда ана шу имконият ёшларга яратиб берилаётганлигини

давлатимиз раҳбарияти фаолияти орқали юзага чиқаётганлигини асослаш мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки якка шахс шахсий фаровонликка эришиши мумкин, қачонки у жамиятга маълум даражада манфаати теккандагина.

Ёшларда шахсий фаровонликка интилиш тушунчасини тўғри шакллантириш учун икки асосий омилга урғу берилиши лозим экан. Булар қатъий аниқ мақсад ва яратилган ёки ўзи томонидан юзага келтириладиган имкониятлардир. Ўқувчи мақсад ва имкониятдан тўғри фойдаланса, у ўзини бахтли ҳисоблайди.

Психолог И.Аргайл мулоҳазасича, бахт бу: а) умуман, турмушдан қониқиш кечинмаси, инсон томонидан ўтмиши ва ҳозирнинг умумрефлектор баҳоси; б) ижобий ҳис-туйғуларнинг частотаси ва жадаллиги (интенсивлиги)дир.

Э.Ғ.Ғозиев тарифида эса индивидуал-психологик бахт борлиқдан ва турмушдан қониқиш кечинмалари сифатида намоён бўлади. Фаровонликнинг объектив ва субъектив феноменида (ноёб жиҳатида) икки хил шартланганлик билан тавсифланади:

а) инсон турмуш шароитлари, руҳий ҳолатлари билан боғлиқлиги объектив борлиқ тақозоси;

б) инсон руҳияти, ҳаётини идрок қилиши, унга муносабати, уларнинг маънавий қабул этишга алоқадор субъектив кечинмалар мажмуаси эканлиги.

Юқоридаги ҳар икки таърифдан келиб чиқиб шуни таъкидлашимиз мумкинки, ҳар бир педагог ёшларнинг онгига бахтли болалик имкониятларидан тўлиқ фойдаланган ҳолда бахтга эришиши ва унинг асосида фаровон турмушни ўз қўли билан бунёд этишини илмий ҳамда миллий қадриятлар асосида сингдира олиши лозим.

Ёшларнинг дунёқарашида миллий ифтихорнинг ўрни беқиёс бўлиб, ҳар бир ёш миллий қадриятлар, миллий анъаналар ва миллий тарихидан келиб чиққан ҳолда шу миллатга мансублигини чуқур англаши ва унга нисбатан муносабатини билимлари асосида бойитиб боришининг ўзи юксак ҳислар унда мужассамлигидан далолат беради.

Биз таъкидлаётган юқори инсоний ҳисларни таълим ва тарбия жараёнида шакллантириш учун аввало янгиланаётган Ўзбекистонни фаровонлик йўлидаги стратегияси билан ёшларни қуроллантириш ҳамда келажак сари интилишларида самарали фаолиятнинг моҳиятини ёшлар дунёқарашини кенгайтириш орқали эришиш энг ишончли йўллардан бири ҳисобланади. Бунинг учун эса ёшларга чуқур билим бериш билан бир қаторда маънавият ва маърифатга оид миллий кадриятларни сингдириш педагог ва психологлар олдида турган энг катта долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Ёшларда юқори инсоний ҳисларни шакллантириш ва такомиллаштиришнинг ижтимоий психологик омиллари уни қуршаб турган муҳитга узвий боғлиқ бўлиб, ҳар қандай шароитда ҳам ёшлар шу ватаннинг келажаги эканликларини ҳис этишлари эртанги кунимизнинг фаровонлигини таъминлаб беришига шубҳа йўқ.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Э. Ғ. Ғозиев. Психология методологияси. Т. 2013 й. Ношр.
2. Э. Ғ. Ғозиев. Умумий психология. Т. 2010 й. “Фалсафа жамияти”.
3. И. Аргайл Социални аснова развития мирозрения учащихса. ЛГУ 2018г
4. М.М.Маматов Этнопсихология. Т. 2018 йил “Ижодкор”

---

## TARBIYA VA TA`LIM JARAYONLARINING IJTIMOIIY HAMDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Sodiqova Muattar  
Chilonzor tumani Bolalarni ijtimoiy psixologik  
qo`llab-quvvatlash markazi metodist psixologi*

Ta'lim deganda o'qitishning etakchiligi (tor ma'noda) yoki o'quv sub'ektlarining (keng ma'noda) ikki tomonlama jarayoni, shu jumladan o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati tushuniladi, bu maqsadlar va ularning o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi. O'qitish va o'qish mazmuni, shuningdek, o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish (o'quv

jarayonida). Shu bilan birga, o'qitish mazmuni deganda o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi tushuniladi; o'qitish ostida - o'qituvchining o'quvchilarni o'rganishga rag'batlantirish, o'rganilayotgan materialning mazmunini taqdim etish, o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish orqali ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilish faoliyati; o'rganish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni (aqliy va jismoniy harakatlar) egallashga qaratilgan faoliyati sifatida qaraladi. Rus pedagogik entsiklopediyasi ko'proq narsani beradi. O'qitish deganda o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi maqsadli faoliyati tushuniladi, uning davomida ta'lim, tarbiya va shaxsiy rivojlanish amalga oshiriladi. Umumiy va ijtimoiy pedagogikaga oid atamalarning maxsus lug'atida o'qitish o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan, maqsadli jarayoni sifatida qaraladi, bu jarayonda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, o'quvchilarning potentsial aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish amalga oshiriladi. Bolalar dunyoqarashni shakllantirish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni mustahkamlash amalga oshiriladi. Shunday qilib, o'rganish - bu tizimli va maqsadli rivojlanish va qoniqish va kognitiv faoliyat talabalarni bilimga (umumiy va kasbiy) tanishtirish, uni olish, saqlash va shaxsiy amaliyotda qo'llash usullari orqali bilimlar mustahkamlanadi. Psixologik-pedagogik lug'at mualliflari ham xuddi shunday fikrda bo'lib, mashg'ulotlar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallashga, dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan ikki tomonlama o'zaro munosabatlar jarayonidir degan fikrga kelganlar. Shaxsni rivojlantirishda ta'limning to'rtta asosiy funktsiyasi mavjud: birinchi funktsiya - tarbiyaviy - to'plangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan madaniy qadriyatlar tizimini uzatish orqali amalga oshiriladi; ikkinchisi tarbiya - uning mazmun-mohiyati qadriyat yo'nalishlari va munosabatlari tizimini shakllantirishda; uchinchisi - rivojlanayotgan - kognitiv qiziqishlarni shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga oladi; aqliy jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar, qobiliyatlar va boshqalar; va nihoyat, to'rtinchisi - ijtimoiylashuv - birgalikdagi faoliyat tajribasini o'zlashtirish, ijtimoiy maqbul xatti-harakatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zlashtirish va qo'llashdur. O'qitish

metodikasi o'rganishni muayyan o'quv predmeti materiali bo'yicha o'qitish va o'qitishni amalga oshirish shakllarining yig'indisi sifatida ko'rib chiqadi. Psixologiyada ta'lim o'qituvchi va o'quvchining o'zaro bog'liq va o'zaro bog'liq harakatlarining yig'indisi sifatida harakat qiladi, buning natijasida o'quvchining intellekti boyib boradi va uning aqliy rivojlanishi ortadi. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlari ikki komponent - o'qish va o'qitish bo'lib, ularning birligi o'rganishning asosiy muhim didaktik xarakteristikasi hisoblanadi. Elementar shaklda o'qish va o'qitish munosabatlari o'qituvchi va o'quvchining aniq o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi, lekin uni faqat bunday o'zaro ta'sirga tushirib bo'lmaydi. Bilvosita shaklda bu munosabatlar o'quv dasturlariga kiritilgan. Shu bilan birga, o'quvchi o'quv jarayonining faol sub'ekti bo'lib, didaktik munosabatlar tizimida ham o'qitish ob'ekti, ham o'quv sub'ekti sifatida ikki tomonlama vazifani bajaradi. Bunda o'quvchiga nisbatan ob'ekt o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan o'quv materialidir. O'qituvchi va talabanning o'zaro munosabatlarida rahbarlik roli o'qituvchiga tegishli bo'lib, u o'zlashtirishda talabanning faoliyatini rejalashtiradi, tashkil qiladi va kerak bo'lganda tuzatadi. O'quv materiali shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Shaxsga xos bo'lgan sub'ektiv munosabat yo'naltirilgan ta'lim, sub'ekt-ob'ekt ichida mavjud bo'lib, u belgilanadi va rag'batlantiriladi. Ta'lim-tarbiya munosabatlari masofaviy ta'limda ma'lum bir tarzda amalga oshiriladi. Ushbu turdagi mashg'ulotlarda o'qitish faoliyati, jumladan, yozma topshiriqlar, darsliklar va boshqa materiallar shaklida taqdim etiladi. Uzluksiz ta'limga ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan ehtiyoj kontekstida birlamchi vazifa - olingan ma'lumotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni, talabalarni o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlash. Shu munosabat bilan to'g'ridan-to'g'ri pedagogik ta'sir ko'proq bilvosita yo'l-yo'riq bilan almashtiriladi va o'qitish mustaqil bilish faoliyati shaklini oladi. Shunday qilib, "o'qitish - o'rganish" didaktik munosabati kognitiv munosabatga o'tib, tobora vositachilik qiladi. Pedagogik faoliyatning asosiy tamoyillaridan biri - o'qitishning ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi funktsiyalarining birligi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'qituvchilarning o'qitishni shunday loyihalash va amalga oshirishga qaratilgan alohida sa'y-harakatlari talab qilinadi, shunda o'qitish va o'qitishning mazmuni va protsessual jihatlarini shaxs, jamiyat

va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanadigan funktsiyalarni bajaradi. Psixologlar va pedagoglar o'quv jarayoniga turlicha yondashuvlarga ega. Ba'zilar o'quv jarayonini "aqliy harakatlar nazariyasi" nuqtai nazaridan izohlaydilar, unga ko'ra bilimni faqat avval moddiy shaklda, so'ngra "oddiy shaklda" amalga oshiriladigan muayyan harakatlar tizimini amalga oshirish natijasida o'rganish mumkin.

Shu bilan birga, ta'lim psixologiyasi, pedagogika, umumiy didaktikada o'qitish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim jarayonining o'quvchi tomonidan olib boriladigan o'qitish bilan birlashtirilgan o'zaro bog'liq tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Ta'limning mohiyatini aniqlashdagi mavjud farqlarga qaramay, barcha tadqiqotchilar o'quv jarayonini eng samarali boshqarishni ta'minlashni asosiy vazifa sifatida belgilaydilar. Bundan tashqari, qurilishning ma'lum bir standartiga bo'lgan ehtiyoj qayd etilgan. O'quv faoliyati, ta'lim bosqichlari yoki elementlarini ajratib ko'rsatish, oqilona fikrlashning umumiy usullarini progressiv shakllantirishga rioya qilish natijalariga qo'yiladigan talablarning o'zgarishi munosabati bilan "faol ta'lim" dan foydalanish bilan foydalanish axborot texnologiyalari, bu muammoni shakllantirish (yoki muammoli vaziyatni aniqlash), kognitiv vazifalarni hal qilish, olingan bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyati orqali ta'lim faoliyatini faollashtirishga imkon beradi. O'qitishning muvaffaqiyati o'quvchilarning psixologik salomatligining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uni saqlash va mustahkamlashga so'nggi paytlarda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu muammo ko'p yillar davomida asosan o'quvchilarning maktabdagi muvaffaqiyatsizligi sabablari va mohiyatini o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish nuqtai nazaridan o'rganilib kelinmoqda. Mahalliy va xorijiy psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish "ta'lim muvaffaqiyati" va "o'quv samaradorligi" tushunchalari o'rtasida tez-tez chalkashliklarni aniqladi (bu nuqtai nazarni Yu.K. Babanskiy, B.B.Kulagin, NV Sobol va boshqalar ham qo'llab-quvvatlaydi). Bizning fikrimizcha, "o'quv muvaffaqiyati" tushunchasi "o'quv samaradorligi" tushunchasiga nisbatan ko'proq hajmli bo'lib, o'quv faoliyatining ma'lum darajasini o'z ichiga oladi. "Ta'lim muvaffaqiyati" tushunchasini birinchi marta B.G. Ananyev. Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifga ko'ra, ta'lim muvaffaqiyati sur'at, keskinlik, individual o'ziga xoslik (uslub) optimal kombinatsiyasi

bilan belgilanadi. V.Yaning fikricha. Laudis - ijodiy muammolarni birgalikda hal qilishdan kelib chiqadigan qo'shma ishlab chiqarish faoliyati bilan ta'minlanadigan maqsad va ma'noni shakllantirish jarayonlarini faollashtirish. Bundan tashqari, ta'limning muvaffaqiyati tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda rivojlanish bilan birga ta'lim bosqichlari va darajalarida muvaffaqiyatli o'sishni o'z ichiga oladi. Shaxsiy salohiyat, shuningdek, ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirish va kasbiy faoliyatga kirish orqali jamiyatga moslashish. "Muvaffaqiyat", "o'rganish" va "ta'lim muvaffaqiyati" tushunchalarining o'tkazilgan nazariy tahlili oliy ta'limda "ta'lim muvaffaqiyati" tushunchasiga quyidagi ta'rifni berishga imkon beradi. O'qitishning muvaffaqiyati o'quvchilarning ta'lim muvaffaqiyati bilan o'quv jarayonining teng huquqli sub'ektlari sifatida o'qituvchilarning pedagogik muvaffaqiyatlari nisbatining ajralmas ko'rsatkichidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Babanskiy Yu.K. O'quv jarayonini intensivlashtirish // Hayotda, fan va texnologiyada yangilik № 6. Pedagogika va psixologiya. - M: Bilim, 1987. -- 78 b.
2. Baturin N.A. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik psixologiyasi: darslik. nafaqa. - Chelyabinsk: SUSU, 1999. -- 99 p.
3. Belkin A.S. Muvaffaqiyat holati: uni qanday yaratish kerak - M.: Ta'lim, 1991. - 176 b.
4. Belopolskaya N.L. Aql-idroki pasaygan bolalarda muvaffaqiyatsizlikka hissiy reaksiyalarni tuzatish // Psixologiya savollari. - 1992. - No 2. - B. 33–42



## HARBIY TA'LIM JARAYONIDA KURSANTLARDAGI KASBIY ZO'RIQISHLAR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

*Shermatov Fayzullo Toshtillayevich*  
*O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi AKT va AHI boshlig'ining*  
*o'rinbosari, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*  
*podpolkovnik*

*Mirzayev Tolibjon To'lanovich*  
*O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi toifalangan obe'ktlarni*  
*qo'riqlash qo'mondonining o'rinbosari, polkovnik*

Kasbiy zo'riqish va jismoniy stress hislari boshqa kasblarga qarganda ko'proq harbiy xizmatchilar faoliyatida uchraydigan salbiy emotsional kechinmalardan biri sanaladi. Bu holat nafaqat ayni xizmat faoliyatidagi harbiylarga balki, harbiy bo'lishga endigina bel bog'lagan oliy harbiy bilim yurti kursantlari faoliyatiga ham tegishli hisoblanadi. Chunki ular ko'pincha ekstremal sharoitlarda turli xil vazifalarni bajarishlari kerak bo'ladi. Ushbu holatlarda kasbiy zo'riqishni keltirib chiqaradigan qator omillar mavjud, ularga noqulay iqlim sharoiti, uzoq vaqt yaqinlardan uzilish, muloqotning cheklanganligi, yuqori darajadagi tartib-intizom, ortiqcha jismoniy va ruhiy yuklama mashqlar va hokazo.

Bunday ekstremal sharoitda o'qish va xizmat faoliyatida insonda odatdagi ishlash va dam olishning biologik tartibi buziladi. Og'ir ekstremal sharoitda xizmat qilish, mashg'ulot o'tash kabilar bo'lajak ofitserlarda asabiy charchash, tushkunlik, affektiv reaksiyalar, patologik buzilishlar bilan kechadi. Bu shuni anglatadiki, bo'lajak ofitserlarga nafaqat jismoniy xavf, balki xavotir va nevrozlar ham tahdid qiladi

A.M.Koval va V.N.Mihaylinlarning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, eng ko'p stress omillariga duchor bo'lgan kasb egalari sifatida harbiy xizmatchilar joy olgan [4; 33-36-b.]. Bundan tashqari, 2001 yilda Rossiyada "Karera" jurnali xodimlari tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari ofitserlari eng xavfli kasblar egalari deb olingan Chunki, so'rovnomada xodimlar ish joylarida eng ko'p qiynalganlar sifatida javob berganlar. Demak, nafaqat xorijda balki

mamlakatimizda ham harbiy kasb egalari muammolari, ayniqsa kursantlarning ta'lim olish va mashg'ulotlar vaqtidagi hissiy holatlaridagi zo'riqish holati masalalari yangi psixologik tadqiqotlarga muhtoj hisoblanadi. Agar kasbiy stresslarni oldini olish yoki stressga bardoshlilikni shakllantirish borasida kengroq tadqiqotlar olib borilsa, harbiy xizmat samaradorligi va xodimlarning ishga bo'lgan motivatsiyasi, harbiy xizmat sharoitidagi turli ko'ngilsiz voqealarning oldini olish ehtimoldan holi emas. Hozirgi zamonaviy sharoitda bo'lajak ofitserlarda stressga chidamlilikni shakllantirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Stressga qarshi kurashni shakllantirish bo'yicha ishlar birinchi navbatda ularning harbiy kasbiy faoliyatiga xos bo'lgan stress omillarini o'rganish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi, chunki stressning paydo bo'lishi shaxs tomonidan belgilanmaydi, balki unga berilgan vazifalar bilan xarakterlanadi. Ammo kasbiy zo'riqish omillarining yagona, aniq omillari hali-hanuz aniqlanmagan. Chunki u har doim rivojlanishda va o'sishda bo'ladi.

A.V.Otvetchikov taklificha, harbiylar faoliyatida uchraydigan stress omillari quyidagilarni o'z ichiga oladi [1; 254-256-b.]:

– Psixosotsial va motivatsion mazmundagi ko'ra:

1. Kundalik qizg'in kasbiy faoliyat stresslari. Bunga buyurtmalar, me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadigan turli faoliyat kundalik topshiriqlar kiradi.

2. Favqulodda holatlar bilan bog'liq stressorlar. Ya'ni xavf, tahdid va boshqalar bilan bog'liq aniq harbiy-professional vazifalarni bajarish;

3. Oilaviy hayot bilan bog'liq stressorlar. Ajrashish, yaqinlarini yo'qotish va oiladagi nizolar ham stressli omillar qatoriga kiradi.

4. Javobgarlik vaziyati ya'ni odamlar hayoti va sog'lig'i uchun o'z hayotini havfga qo'yib vazifalarni bajarish va boshqalar.

5. Ijtimoiy muhit mazmunidagi stressorlar. Bu, birinchi navbatda, odatda kursantning o'z oila muhitdan ajralib chiqishi, ijtimoiy aloqalardan o'zilishi va yaqinlardan uzoqlashish kabilar bilan bog'liq.

– Amal qilish vaqti bo'yicha quyidagi stressorlar farqlanadi:

1. Qisqa muddatli ta'sirga ega bo'lgan stresslar (bir necha soatdan bir necha kungacha): tashvish va qo'rquvni keltirib chiqaradi; yoqimsiz jismoniy hislar; sur'at va tezlik (katta hajmdagi ma'lumotni qayta ishlash va qaror qabul qilish zarurati, harakatning maksimal tezligi va tezlikni ko'rsatish zarurati); chalg'itadigan narsalar muvaffaqiyatsiz harakatlar;

2. Uzoq muddatli mazmundagi stresslar (bir necha oydan bir necha yilgacha): charchoqni keltirib chiqaradigan uzoq muddatli vazifalar (ma'lum bir xavf yoki shu xavf bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli kechinmalar, o'z qadriyatlarini himoya qilish, maxsus ob'ektlar, cheklangan vaqt davomida boshliqlarning talablarini bajarish zaruriyati ); izolyatsiya (oiladan uzoq vaqt ajralish va notanish sharoitlar, stressli sharoitlarda xizmat safari va uzoq muddatli harbiy harakatlar o'tkazish. Demak, bularning barchasi harbiy xizmatdagi kasbiy zo'riqish holatlaridir.

Sezgi organlariga ta'sir etish tabiatiga ko'ra, quyidagi stressorlar ajratiladi:

1. Vizual-psixologik stresslar ya'ni yaqinlar, hamkasblar ko'z o'ngida o'lim, portlash ko'rish, murdalar, qon va boshqalar;

2. Sovuqda va issiqda toliqish, tirishish;

3. Gaz va jasadlarning hidlari, sovuq, issiqlik, elektr toki va boshqa ta'sirlar.

Mazkur omillarni bilish kelajakda ofitserlar uchun stressga chidamlilik, ularda stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish, stressni yengishga o'rgatish ishlarini tashkil etishda o'ta muhim sanaladi.

Ayrim eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stress asosan vaziyatda fikrlash va uni baholash usuli mahsulidir, inson o'z qobiliyatini va ekstremal sharoitlardagi darajasini yaxshi biladi. Stressni yengish uchun har bir kishi o'z shaxsiy tajribasi va psixologik bilimlariga asoslangan holda, ma'lum bir strategiyalaridan foydalanadi. Bunda shaxsga xos kognitiv rivojlanish darajasi, o'zini o'zi anglash darajasi va o'zini boshqarish darajasi, shuningdek odamning stressga chidamliligini ta'minlaydigan psixologik xususiyatlari ham keng ahamiyat kasb etadi.

Stressga chidamlilikni ta'minlaydigan eng muhim shaxsiy xususiyatlar orasida tadqiqotchilar quyidagilarni ajratadi:

– Tez qaror qila olish;

- Introspektsiyaning kuchliligi ( o‘zini o‘zi tahlil qilish);
- Psixologik chidamlilik (barqarorlik) va o‘z-o‘zini hurmat qilish;
- Neyropsixik barqarorlik va harbiy shaxsning moslashish qobiliyati.

Shuningdek, kursantlarda stressni qanday boshqarishni o‘rgatish juda muhim sanaladi. Shuningdek, stressni boshqarish deganda, stress ta’sirining oldini olish yoki ushbu ta’sirni minimallashtirishga imkon beradigan strategiyalar, usullar va kombinatsiyalar ham tushuniladi. Stress boshqarishning o‘zi bir necha ko‘rinishda ifodalanishi mumkin:

1) stress paydo bo‘lishidan oldin asosiy harakat uning oldini olish muammolariga qaratilgan bo‘lishi kerak;

2) stress paydo bo‘lganidan keyin asosiy e’tibor stress bilan faol kurashish choralari va undan chiqib ketish variantlariga ham qaratiladi;

3) o‘tkir stressli vaziyatda birlamchi o‘z-o‘ziga yordam choralari amalga oshiriladi ya’ni dam olish, tabiatga sayr, ov, kino, teatr, sport, sevgi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilish kursantlar, muddatli harbiy xizmatchilar va ofitserlarning stressga chidamliligini sifatlarini yanada oshiradi, bu esa o‘z navbatida xizmat vazifalari va o‘quv va xizmat jarayonlari, bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayonining sifatini yaxshilashga keng ta’sir etadi.

Bir tomondan harbiy xizmatni qattiqqo‘l haddan tashqari talabchan komandirsiz, boshliq va rahbarlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, ular xohlamaymiz emas, majburlaymiz tamoyiliga amal qilishadi, uni har bir oliy harbiy bilim yurti muassasalari va bilim yurtlari tashkilotlari qo‘llab-quvvatlashadi. Va buni eng muvaffaqiyatli yo‘l deb hisoblaydilar.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, biz tadqiq etayotgan mazkur muammo harbiy institutlar faoliyati, unda faoliyat olib borayotgan psixologlar faoliyati, harbiy pedagoglar hamda ta’lim olayotgan kursantlar faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, bo‘lajak ofitserlarni o‘qitish va kasbiy kompetentligini oshirishga yordam berish, ulardagi muammolarni o‘rganish, qolaversa, kursantlarining kundalik o‘quv faoliyatidagi ekstremal holatlar hamda ularning salbiy oqibatlarini doimiy ravishda bartaraf etib borishga yordam beradi. Favqulodda vaziyat ob’ektiv va sub’ektiv birlikni anglatadi.

Maqsad - bu o'ta murakkab tashqi muhit va ichki imkoniyat bilan bog'liq jarayondir. Harbiy faoliyatdagi favqulodda vaziyatning ta'siri inson uchun turli xil ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin: a) hatti-harakatlarning pasayishi bilan; b) kutilayotgan xavfni oldini olish bilan; v) faoliyatni samarador kechishini ta'minlash bilan.

A.V.Nosovaga ko'ra, bo'lajak ofitserlarning o'quv va xizmat faoliyati ekstremal holatlarga va kasbiy stress omillariga boy bo'lganligi sababli, kursantlarning bunday sharoitda faoliyat olib borishi quyidagicha amalga oshirilishi kerak [2; 244-246-b.]:

o'ta og'ir sharoitlardagi o'quv mashg'ulotlari va standart kasbiy vazifalarni bajarish algoritmlarini tahlil qilish;

barcha ofitserlar qadimgi zamonlardan toki hozirgi zamonaviy urushlarida qahramonlik ko'rsatgan o'zbek o'g'lonlari va buyuk sarkardalarimizning mashaqqatli qahramonliklari va o'zlarini qurbon qilishgacha borgan jasoratliliklari haqida kursantlarga saboq berishi va hokazo;

dala mashg'ulotlari uchun kunduzgi va tungi jangovar tayyorgarlik standartlarini ishlab chiqish;

kursantlarni uzoq masofaga yurishi, tunda parashyut bilan sakrashga vzvod va jangovar bo'linmalar vazifalarini bajarishda amaliy otishga o'rgatish hamda dala chiqish tadbirlariga tizimli ishtirok etishlari va hokazolar.

A.V.Savatayev fikricha, kursantlarni ko'proq ekstremal sharoitlarga o'rgatish ularda kuchli stresslar ta'siriga tushib qolmaslikka, favqulodda vaziyatlarga tez moslashishlariga katta yordam beradi [3; 22-24-b.].

Bundan tashqari, ekstremal vaziyatlar kursantlarning harakatlariga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, jangovar vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishiga, o'z burchini to'g'ri anglashga, xizmat majburiyatlarini oxirigacha ado etishga yordam beradi. Ushbu masalalar har bir oliy harbiy bilim yurti komandirlar, pedagoglar, harbiy psixologlar, va boshliqlar hamda qo'mondonlarning e'tiborlaridan chetda qolmasligi lozim sanaladi.

Ekstremal sharoitlarda kursantlarning himoyaviy xulq-atvori asosan shaxs faoliyatidagi turli hatti-harakatlarida, irodaviy sohasida, intellektual sohasida, hissiy va kognitiv sohalarida ko'proq namoyon bo'ladi. Chunki harbiy xizmatning qattiq

intizomli muhiti, yopiq muloqot, faqat erkak jamoasida yurish, o‘z-o‘zidan birinchi bosqich kursantlarining istaklariga to‘liq mos kelmaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, qiyin vaziyatdagi xulq-atvorga qarshi kurashish strategiyalarining kursantlar uchun faqat ikkitasi maqbul sanaladi: vaziyatni hal qilishda faol hamkorlik va o‘zi ishtirok etish; boshqalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanish, vaziyatni tushuntirish va yordam izlashga o‘tish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

[1] Otvetchikov A.B. Psixicheskiye sostoyaniya voyennoslujajux v osobyx usloviyax vedeniya boyevyx deystviy. M.: GA VS, 1991. – 256 s.

[2] Psixologicheskaya konsultatsiya, profilaktika i korreksiya v rabote voyskovogo psixologa. Pod. red. A.V.Nosova. - M., 1992. – 246 s.

[3] Savateyev A.B. Psixologicheskiye usloviya sovershenstvovaniya imidja komandira kursantskogo podrazdeleniya. Avtor, dis ... kand. psixol. nauk. -M., 2001. S. 24.

[4] Koval A.M., Mihaylin V.N. Sovremennye podxody k otsenke funktsionalnogo sostoyaniya organizma voyennoslujajux i korreksii yego narusheniy // Voyenno-meditinskiy jurnal. - T. 324, 2003, - №4, S. 33-36 .

[5] Shermatov F.T., “Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy zo‘riqishlar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik va o‘ziga xos jihatlari: nazariya va amaliyot.” // Monografiya. 2021. 69-73 bet.

[6] Shermatov F.T., Beknazarov A.A. “Jangovar stress va uning psixologik oqibatlarini.” // O‘quv qo‘llanma. 2021. 53-bet.

## АХБОРОТЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎҚУВЧИ ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИ ВА ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ШАКИЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

*Қулматов Норқобил Эшмаматович  
СВМИ ТФ катта ўқитувчи,  
Эгамбердиев Яраш Бекмуродович  
СВМИ ТФ магистранти*

Бугунги кунда ахборот, ахборотлашув ва замонавий ахборот технологиялари соҳасида ўқувчилар руҳиятига, дунёқарашига ва хулқ-атворида таъсир кўрсатувчи турли хил вазиятлар мавжуд. Бу биринчи навбатда ўқув фаолияти жараёнларида, ўқув фаолиятидан ташқари вақтларда ўқувчиларнинг ахборот технологиялари билан ахборот олиш, ахборот алмашиш ва ахборот узатиш билан бевосита мулоқотга киришиши билан боғлиқ. Бугунги кунда виртуал олам технологиялари асосида тайёрланган компьютер ўйинлари ва атракционларини ҳам унутмаслигимиз лозим. Замонавий ахборот технологияларидан таълим жараёнларида фойдаланар эканмиз, ўқитувчи-педагоглар қўйидаги ҳолатларга алоҳида эътибор қаратишлари зарур бўлади.

Биринчидан, ахборот технологиялари заминида юз бериши мумкин бўлган янгиликлар анъанавий мулоқот шароитларига олиб ўтилади. Бу ерда руҳий мулоқот воситаларининг роли пасаяди.

Иккинчидан, тескари алоқа кучаяди. Анъанавий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари компьютерлашади. Таълим жараёни учун, шу жумладан, кичик ёшдаги болалар учун ҳам мўлжалланган дастурий ва техник воситаларнинг “инсонлашуви” кузатилмоқда. Юзага келиши мумкин бўлган бундай вазиятлар ахборот технологиялари билан алоқадор фаолиятнинг турли кўринишларининг (шу жумладан таълим олиш билан боғлиқ фаолиятда ҳам) мураккаб ва зиддиятли тузилмасини шакллантиради.

Замонавий ахборот технологияларининг ўқувчилар дунёқарашига ва хулқ-атворида таъсири ортиб, у чегараланган доирадаги руҳий таъсирлардан тортиб, то шахсни тўла ўзгартиришгача (интернетга боғланиб қолиш, компьютер



дастурига оид маниялар, хакерлик синдроми) бориши мумкин.

Уларда мустақил фикр юритишга, ташаббускорликка, мобилликка рағбатланиш пайдо бўлади. Аммо, салбий таъсирлар ҳам юзага келиши мумкин. Таълим жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланувчи педагоглар таълим фаолияти аниқлик, самарадорлик ва башорат қилиш мумкинлик каби сифатлар эвазига ўзгаришини таъкидлашмоқда. Бу эса ўз ичига Интернет билан таниш бўлиш, иш юритиш ва шахсий ёзишмалар маданияти, ўз кайфиятини ифода этувчи махсус белгиларни ўрганишни талаб қилади. Интернет миллатлараро мулоқотни янги босқичларга кўтаради, умуммаданий билишни фаоллаштиради, ёзишмалар жараёнида чет тилларни интенсив равишда ўрганишга шароитлар яратади. Замонавий ахборот технологиялари аста-секинлик билан айрим кўникма ва малакаларнинг йўқолишига сабаб бўлади.

Ахборот алмашинуви мислсиз тезлашган ҳозирги шароитида, Фарбдаги “марказлар” бошқа давлатлар ва халқлар ўртасида Фарбча ҳаёт “жозибалари”ни, жумладан, “оммавий маданият” таъсирини “эркинлик шабадалари” тарзида янада кенг ёйишга ҳаракат қилмоқдалар. Шу ерда Америка Қўшма Штатларининг таниқли сиёсатшуноси, А.Ф. Даллес фаолиятининг изчил давомчиси Збигнев Бжезинскийнинг фикрларини эслаш фойдадан холи бўлмайди: “Маданият жараёнларида Америка жаҳон ёшлари орасида алоҳида жозибадорлиги билан ажралиб туради. Айниқса, Американинг телевизион дастурлари ва фильмлари жаҳон бозорининг тўртдан уч қисмини эгаллайди. Унинг оммабоп муסיқаси, америкаликларнинг ўқишлари, овқатланишларидаги одатлари, кийинишлари ва ҳоказога бутун дунёда тақлид қиладилар”. Бу йўлда “оммавий маданият” намуналаридан, турли ахборот технологияларидан, радиотелевидение, интернетнинг ижтимоий тармоқлари каби воситалардан маккорлик билан фойдаланилмоқда. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А. Каримов мустақиллик йилларида шундай деган эди: “Агар тарихга назар солсак, илгари кучли давлатлар заиф мамлакатларни очикдан- очик босиб олиб, уларга ўз ҳукмини ўтказган бўлса, XX асрнинг охирига келиб, бундай сиёсат янгича бир шакл касб этди. Ҳозирги кунда қудратли давлатлар ва муайян сиёсий марказлар

ўз мақсадларига эришиш учун, аввало ўз таъсир доирасига олмокчи бўлган мамлакатларнинг аҳолиси, айниқса уларнинг ёшлари онгини ўзига қарам қилишга интилади”.[1. Б. 491]

Ахборот тарқалиши ва ахборот алмашунуви жараёнлари жадал ривожининг бугунги глобаллашув жараёнлари кескин кучайган бир шароитида ўқувчи ёшлар тарбиясига кўрсатаётган салбий таъсири қуйидагиларда намоён бўлади.

Биринчидан, ахборот техник воситалари ва жиҳозларининг жадал ва тез суръатларда ривожланиши натижасида Интернет, уяли телефон, телекоммуникациялар ва турли ахборот нашрларининг кириб келиши. Бу воситалар орқали таклиф этилаётган қўштирноқ ичидаги “кадриятлар” кўп ҳолатларда ёшларни, жумладан ўқувчи ёшларни миллий кадриятларимиздан узоқлаштириб қўймоқда, бошқача қилиб айтганда ўзига хос “илдизи йўқ индивид”ларнинг шаклланишига, ўз миллий давлатчилик тарихи илдизларидан узоқлашувига олиб келмоқда.

Иккинчидан, “оммавий маданият”нинг турли хил кўринишлари ёшлар орасида сезиларли даражада тобора кенг тарқалиши. Булар, асосан кийиниш маданиятида, муомила маданиятида, одоб-ахлоқларида, юриш-туришларида, бўш вақтни ўтказишда, дунёқараш ва дидларнинг саёзлашувида, миллий кадриятларга беписандлик муносабатларида намоён бўлмоқда. Бегона, бузғунчи, вайронкор маданият кадриятларни ўзида ифода этаётган “оммавий маданият” ёшларимизда ғарбона индивидуализм, эгоцентризм, нигилизм, андишасизлик, беҳаёлик ва зўравонлик, миллий кадриятларга ва ижтимоий манфаатларга беписандлик билан муносабатда бўлиш каби иллатларни келтириб чиқармоқда. Учинчидан, ёшлар орасида тақлидчилик, ғарбона идеалларга кўр-кўрона эргашиш каби ҳолатлар ҳам кузатилмоқда. Бунда, хорижда кенг тарқалган ахлоқий ва маънавий юриш-туриш андозаларнинг кинофильмлар, мода ва турли хил рекламалар орқали ёшларнинг онги чулғаб олинаётганини сезиш қийин эмас. Оқибатда, ёшлар ўртасида китоб ўқишдан кўра, компьютер ўйинлари олдида вақтини ўтказиш, мазмунан саёз бўлган турли хил жанрдаги фильмларни томоша қилиш одат тусига кириб бормоқда. Глобал тармоқдан фойдаланувчилар аудиториясининг

кўпчилиги ёшлар эканлигини, уларнинг онгини ва дунёқарашини ёт мазмундаги гоёлар билан заҳарлашга қаратилган маълумотлар Интернет контентнинг катта қисмини ташкил этишини қайд этиш зарур. Ҳозирги кунда турли тилларда сўзлашаётган ёшлар учун Интернет тармоғи ўзининг кенг имкониятларини тақдим этмоқда. Бунинг натижасида, ўзларича аборт жамиятини яратмоқдаларки, бу турдаги жамиятлар ўзларини “киберинтернационал NET”, “Интернет болалари”, “Интернет фукаролари (netizens)” деб номлашмоқда. Улар Интернет орқали ёшларни бирлаштириб, давлат ҳокимиятининг расмий хабарларига қарши чиқувчи халқаро киберуюшма сифатида сиёсий майдонга чиқмоқда.

Интернет имкониятларидан ўз манфаатлари йўлида фойдаланишга уринаётгани ва бундай интилишларнинг қандай салбий оқибатларга олиб келиши мумкинлигини эътибордан соқит қилиб бўлмайди. Интернет - инсониятнинг улкан ютуғи бўлиб, бугунги ҳаётимизда катта имкониятлар яратган бўлса-да, бу мўъжиза кучли мафкуравий таъсир кўрсатиш воситаси бўлиб, жиддий муаммоларни келтириб чиқараётгани ҳам ҳеч кимга сир эмас. Бу борада мамлакатимизда ҳам тизимли равишда ташкилий-ҳуқуқий тадбирлар амалга оширилаётганини қайд этиш зарур. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 28 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг жамоат таълим ахборот тармоғини ташкил этиш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ Ўзбекистоннинг турли тузилмалари томонидан ахборотларни узатиш тармоқларида таълим ва ёшлар бўйича яратилаётган ахборот ресурслари ягона “ZiyoNET” миллий таълим тармоғига бирлаштирилди. Бу тармоқнинг ташкил этилиши ахборот хуружларига қарши туришда муҳим омил бўлди.

Кейинги пайтда ижтимоий тармоқларнинг турли сегментларида яшин тезлигида оммалашшига улгурган ва кўплаб мунозараларга сабаб бўлган “Кўк кит”, “Тинч уй” “F57”, “WinX”, “Югурасан ёки ўласан” ва бошқа ўйинлар ҳали вояга етмаган ўсмирларни гуруҳларда эллик кун мобойнида элликта шартларни бажариш талаб қилинадиган бу ўйин охири ўйинчининг ўз жонига қасд қилиши ҳодисаси билан яқунланади. Ахборот хавфсизлиги - бу бевосита вояга етмаган

ўсмирларга таъсир ўтказиш орқали уни ўз ақидаларидан, муқаддас идеалларидан, эътиқодидан айирадиган бузғунчи ғоялардан асрашдир.

Шу сабабдан фуқароларда ва аввало ёшларда ахборот ресурслари ва ахборот воситаларидан самарали фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш ҳозирги даврнинг долзарб масалалардан бирига айланди. Ҳозирги кунда республика аҳолисининг 64 фоиздан зиёдини эса 30 ёшгача булган ёшлар ташкил этишини эътиборга олсак, Интернет ва унинг шакллари бўлган - интернет-телевидение, интернет-радио, электрон почта, онлайн-видео, ижтимоий тармоқлар каби кўплаб ахборот тарқатиш технологиялари имкониятларидан ёшларнинг маънавияти ва билим даражасини оширишда мақсадли ва оқилона фойдаланиш зарурлиги масаласи қанчалик муҳимлиги аён бўлади.

Хулоса қилиб шуни эътироф этишимиз мумкинки, ҳар бир ёш авлод жамиятга кириб келар экан, муқаммал касб - ҳунар эгаллаш билан бирга , унга оммавий ахборот воситаларидан тўғри фойдаланиш, ҳар бир олаётган маълумотлар инсон манфаатларига , жамият қонунларига мос бўлиш билан бирга меъёрларга амал қилишни назорат қилиш ота-она ва барча тарбиячиларнинг муқаддас бурчи, ҳамда вазифаси деб билиши лозим.

### **Фойданалинган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси бўйича видеоселек тор йиғилиши” Тошкент, 30.10.2020 йил

2. Мирзиёев Ш.М. “Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси” –Т: 2020 й.29 декабрь

3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”. -Т., Ўзбекистон, 2017. “Газета. uz”

4.Каримов.И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт мақсадимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - Б. 491.

5.Каримов.И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. -Т.:, Маънавият. 2008 й.

6. “Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Ахборотнома.1997 йил.№4 108-модда.

7. Ахборот-коммуникация технологиялари: ҳуқуқий тартибга солишнинг долзарб масалалари. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари.-Т.: 2009 йил.№2

8.Мўминов А. Ўзбекистон: Ахборотлашган жамият сари.-Т.: Турон замин зиё.2013 йил.

9.Юксак ҳуқуқий маданият - демократик жамият пойдевори // Халқ сўзи. - 2013йил. 25 январь

10.Электрон хизмат тезкор, қулай ва иқтисодий жиҳатдан самаралидир // Халқ сўзи. - 2012. - 14 март.

11.Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари оммавий ахборот воситалари фаолиятини такомиллаштиришда катта ўрин тутди / / Халқ сўзи. - 2012. -16 март.

---

## ТАЪЛИМ ОЛУВЧИЛАРНИ БАҲОЛАШ ТАЪЛИМ СИФАТИНИНГ ГАРОВИДИР

*Шаҳноза Мирзахмедова*

*Педагогик инновациялар, касб-ҳунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институтининг “Инновацион таълим технологиялари” кафедраси, катта ўқитувчи*

Профессионал таълим муассасаларида ўқув жараёнини ташкил этилиши ва олиб борилиши биринчи навбатда унинг сифат назоратини олиб борилишига боғлиқ. Шунга асосан таълим муассасаларида ўқув жараёнини ташкил этиш ва унинг мақсад ва вазифаларини амалга оширишнинг асосий элементларининг педагогик моҳиятини тушуниш, қўйилган мақсадга эришиши учун ўқитишнинг мақсади, ўқув мазмуни, ўқув воситалари, ўқитиш методлари ва баҳолашнинг мониторингини олиб бориш асосида таълимнинг сифат назорати ташкил этилади.

Таълим сифати - таълим муассасаси томонидан таълимга қўйилган мақсад ва вазифаларга эришилганлик даражасидир.

Таълим жараёнини илмий асосда тўғри ташкил этиш биринчи навбатда профессионал таълим муассасаларининг тажрибали, таълим-тарбия ишларига янгича ёндоша оладиган, ўқитишнинг илғор таълим технологияларини дарс жараёнларига жорий эта оладиган, замонавий техника ва технологияларни мустақил бошқара оладиган педагог ва муҳандис-педагогларга боғлиқдир.

**Баҳолаш** – таълим жараёнининг маълум босқичида ўқув мақсадларига эришилганлик даражасини олдиндан белгиланган меъёр ва мезонлар асосида ўлчаш, аниқлаш ҳамда таҳлил қилишдан иборат жараёндир.

### **Нима учун баҳолаш керак?**

- ўқув мақсадларига эришилганликни аниқлаш учун;
- кейинги босқичга ўтишдан олдинги ўзлаштириш даражасини аниқлаш учун;
- натижага эришганлигини тасдиқлаш учун;
- ўқувчиларнинг қизиқишларини аниқлаш учун;
- ютуқ ва камчиликларни аниқлаш учун;
- ўқитувчи ўз фаолиятига тузатишлар киритиши учун;
- ялпи ўзлаштириш даражасини аниқлаш учун;
- таълим жараёни ютуқларини аниқлаш учун;
- ўқувчиларни ютуқларга интиштириш учун;
- ташқи кузатувчиларга, иш берувчиларга, юқори ташкилотларга ва оналарга маълумот бериш учун ва бошқалар.

### **Нимани баҳолаш керак?**

- Назарий билимларни;
- амалий кўникмаларни;
- шахсий фазилатларни.

### **Қачон баҳолаш керак?**

- Таълим жараёни бошида (бошланғич баҳолаш);
- Таълим жараёни давомида (жорий баҳолаш);
- Таълим жараёни якунида (якуний баҳолаш)

Таълим олувчиларнинг билимларни текшириш ва баҳолаш муайян дидактик талабларга жавоб бериши керак. Текшириш ва назорат қилиш тизимли, доимий тарзда бўлиши шарт. Бу талабга риоя этилмаса, таълим олувчиларнинг ўқишга нисбатан муносабати ёмонлашади, билимларнинг сифатига салбий таъсир қилади.

*Билимларни баҳолаш индивидуал характерга эгадир. Ҳар бир таълим олувчи унинг қайси билимлари, кўникма ва малакалари баҳоланаётганини билиши керак. Таълим берувчининг саволларига ва вазифаларига жавоб беришга тайёрлик ҳолати билимларни текшириш ва баҳолаш ўқув жараёнининг муҳим бир бўлагига, унинг таркибий қисмига айланган тақдирдагина рўй беради.*

Таълим олувчининг билимлари, кўникма ва малакалари давлат ўқув режаларининг бажарилиши нуқтаи назаридан текширилади ва баҳоланади.

Таълим олувчиларнинг билимлари, кўникма ва малакаларини текшириш шакллари турличадир. Баъзан таълим берувчи билимларни текширишнинг узок вақт мобайнида бир хилдаги усулларини қўллайди. Унда сўраш, савол бериш, баҳони изоҳлаш соҳасида муайян одат пайдо бўлади. Таълим олувчилар бундай текширишга мослашиб кетадилар, ўқитувчининг қай тарзда сўраши уларга олдиндан маълум бўлади. Улар фақат таълим берувчи учун, уни қаноатлантириш учун жавоб бера бошлайдилар.

*Қуйидаги бешта асосий тамойиллар баҳолаш тизими самарадорлигининг пойдевори ҳисобланади:*

- **Ўқув мақсадларига асосланганлик.**
- **Ҳақиқийлик.**
- **Ҳаққонийлик.**
- **Ишонччилик.**
- **Қулайлик.**

**1. Ўқув мақсадларига асосланганлик.** Самарали баҳолашнинг асосий тамойили ўқув мақсадларига асосланганлик ҳисобланади. Баҳолашнинг сифати ўқув мақсадларига тўғридан–тўғри боғлиқдир. Ўқув мақсадлари баҳолаш мазмунини аниқлаб беради. Ўқув мақсадларининг қўйилиш даражасига қараб,



баҳолашнинг шакли ва усуллари танланади. Шунингдек, ўқув мақсадларига эришиш учун бажарилган фаолият натижаси, баҳолаш мезонларини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга.

*Ҳар қандай баҳолаш тизими лойиҳалаштирилаётганда, баҳолаш топшириқлари берилган таълим мазмуни доирасида бўлиши талаб этилади. Баҳолашни лойиҳалаштираётганда, ҳар доим қуйидаги икки саволни эътиборга олиши лозим:*

- 1. Баҳолаш топшириқлари таълим жараёнидан кўзланган ўқув мақсадларини тўла акс эттирадими?*
- 2. Ўқув мақсадлари даражасига баҳолаш шакллари, усуллари ва мезонлари тўғри танландими?*

*Масалан, йўл ҳаракати қоидалари бўйича олинган билимларни баҳолашда ёзма тест олиши усули мос келиши мумкин. Лекин ундан машинани бошқариш малакаларини баҳолашда фойдаланиб бўлмайди. Бу малакалар оғзаки ёки ёзма эмас, балки амалий фаолиятга асосланган баҳолаш усули ёрдамида баҳоланиши мақсадга мувофиқ бўлади.*

**2. Ҳақиқийлик.** Ўқув мақсадида кўзда тутилган натижанигина баҳолашга қаратилган топшириқ ёки тест ҳақиқий ҳисобланади. У баҳоланиши лозим бўлган билим ва кўникмалар соҳасидаги натижаларга қаратилган бўлиши лозим.

*Таълим олувчининг эришган натижалари тўғрисида асосланган ва ишончли ахборотлар бериши керак. Ўлчаниши талаб этиладиган нарсаларгина ўлчаниши керак. Таълим олувчи эгаллаган билим, малака ва кўникмалар ҳамда шахсий фазилатларни ўлчаш имконини берадиган методлардан фойдаланиши зарур.*

**3. Ҳаққонийлик (объективлик).** Бир-биридан мустақил таълим берувчилар бир хил таълим олувчиларга берилган бир хил топшириқ ва тестлар бўйича бир хил баҳо берган ҳолдагина мазкур топшириқ ва тест ҳақиқий ҳисобланади. Бу ҳаққонийлик ҳар хил вақтларда берилган баҳолар учун ҳам тааллуқлидир. Ушбу мезонлар кўпинча марказлашган ҳолатда, ўтказиладиган ялпи «расмий тестлар»

пайтида амалга оширилади, холос. Таълим берувчи томонидан тузилган тестлар эса, одатда, мазкур талабларни бажармайди.

*Баҳолаш тизими ўқув мақсадларига мос бўлиши, шунингдек, баҳолаш шарт-шароитлари ва мақсадлари билан ўқувчилар олдиндан танишган бўлишлари лозим. Таълим олувчиларга бир хил мураккабликдаги ва ҳажмдаги топшириқлар берилиши керак.*

**4. Ишончлилик.** Натижаларни баҳолаш мобайнида ҳар хил усуллардан фойдаланиш мумкин. Лекин бу усулларни танлашга қўйиладиган асосий шарт ишончлилик ҳисобланади. Услуб ишончли бўлиши учун баҳолаш асосли ва аниқ маълумотларга асосланган бўлиши зарур. Бунда топшириқ ёки тестнинг ўрганиш мақсадларини назорат қилишга йўналтирилганлиги қанчалик ишончли эканлиги назарда тутилади.

*Баҳолаш ишончли бўлиши учун таълим олувчиларда бир-бирига ўхшаши, аммо ҳар хил шароитларда баҳолаш ўтказилганда, натижалари бир хил бўлиши керак. Баҳолаш методининг ишончлиги турли методларнинг натижалари билан таққослаш орқали аниқланади. Баҳолаш тизими ишончли бўлиши учун турли экспертлар ёрдамида турли вақтларда баҳолаш ўтказилганда, унинг натижалари бир-бирига ўхшаши бўлиши керак.*

*Баҳолаш ишончлигининг икки томони бор:*

**1. Баҳолаш усулининг ишончлиги.** Агар фойдаланилаётган баҳолаш усулининг ишончлиги юқори бўлса, талабанинг ўзлаштириш даражаси баҳолашнинг ҳар хил усулларидан фойдаланганда ҳам ўзгармай қолади (олинган натижалар бир хил, ўзгармас бўлади).

**2. Баҳолашнинг ўзлаштириш даражасини ҳисобга олиш ишончлиги.** Таълим олувчининг ўзлаштириш даражасини баҳолаш усулининг ишончлиги деб, баҳолаш бошқа жойда ва бошқа имтиҳон олувчи томонидан ўтказилганда ҳам, унинг бир хил бўлиши, ўзгармаслиги тушунилади.

*Баҳолаш усулининг ишончлилик даражаси қуйидаги ҳолатларда кўпроқ бўлади:*

- ҳамма таълим олувчилар қўйилган талабни аниқ тушунса;

- баҳолаш шартлари олдиндан маълум қилинса ва унга риоя қилинса;
- ҳамма натижалар баҳолашнинг олдиндан келишилган мезонларига тўла асосланган бўлса;
- тасодифий хатоларни камайтириш мақсадида мос баҳолаш турлари қўлланилса.

**5. Қулайлик.** Баҳолаш тизими ўқув мақсадларидан келиб чиққан ҳолда, ўқув ва ишлаб чиқариш стандартларига мос бўлиши, мураккаб бўлмаслиги, назорат ўтказувчи ва таълим олувчи учун қулай бўлиши лозим. Баҳолашни ўтказишда имкон қадар компьютерлардан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Топшириқ ёки тест пайтида балл бериладиган бўлса, балл бериш ўрганиш мақсадларини назорат қилишга мослаштирилган бўлиши лозим. Бунда мавзунинг муҳимроқ бўлган қисмларига унчалик муҳим бўлмаган қисмларига нисбатан кўпроқ балл бериш керак бўлади.

**Баҳолаш, унинг моҳиятидан келиб чиқиб, икки хил шаклда ўтказилиши мумкин:**

1. Мезонга асосланган баҳолаш
2. Меъёрга асосланган баҳолаш.

**Мезонга асосланган баҳолаш** баҳоланувчининг таълим жараёнида қўлга киритган натижаларини, билим, малака ва кўникмаларини олдиндан белгиланган ўқув мақсадлари асосида ишлаб чиқилган, ҳамма учун умумий ва бир хил мезонларга кўра таққослаш ва ўлчашдан иборат бўлган баҳолаш шаклидир. Бундай баҳолаш мезонларни аниқ белгилаб берувчи ўрганиш мақсадлари бўйича натижаларга баҳо бериш имкониятини яратади. Бу орқали натижалар тўғридан-тўғри ва холис баҳоланади, шунингдек, кучли гуруҳларни кучсиз гуруҳлардан яхшироқ фарқлаш имконини беради. Бу баҳолаш шакли икки босқичдан иборат бўлиб, биринчи босқичда баҳоланувчининг эришган натижалари аниқланади, иккинчи босқичда эса, натижалар мезонларга таққосланади ва ўлчанади.

*Мезонга асосланган (ёки мақсадли) баҳолаш*

Афзаллиги	Камчилиги
<ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Ўқув мақсадига мувофиқ баҳоланади;</li> <li>▪ таълим олувчининг ўзлаштириш даражасини объектив баҳолайди;</li> <li>▪ баҳолаш ўзининг аниқ кўрсаткичларига эга бўлади;</li> <li>▪ таълим олувчи олган баҳосида йўл куйган хатоларини яққол кўриб туради;</li> <li>▪ баҳоланувчини таълим олишга йўналтиради;</li> <li>▪ баҳоланувчиларнинг баҳоланаётган соҳадаги кучли ва кучсиз томонларини холисона аниқлаб беради, уларнинг ўз билими ва малакаларига бўлган ишочини оширади;</li> <li>▪ ҳамма учун бир хил билим ва малака талабларини ўрнатади;</li> <li>▪ таълим мазмунини аниқлаб беради; баҳоланувчиларнинг ўз фаолияти натижаларига бўлган масъулиятини оширади.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Мезонларни ишлаб чиқиш кўп вақт талаб қилади;</li> <li>• мезонларнинг объективлиги, ҳаққонийлиги ва аниқлигини аниқлашга нисбатан талабларнинг кўплиги</li> <li>• Ижтимоий фан йўналишлари бўйича мезонлар ишлаб чиқишда қийинчиликларга дуч келинади.</li> </ul>

**Меъёрга асосланган баҳолаш** нисбий баҳолаш шакли бўлиб, баҳолашдан сўнг баҳоланувчиларнинг таълим жараёнида қўлга киритган натижаларини ўзаро таққослаш орқали ўлчашдан иборат.

*Бу баҳолаш шакли ҳам икки босқичдан иборат бўлиб, биринчи босқичда баҳоланувчининг эришган натижалари аниқланади, иккинчи босқичда эса, бу натижалар ўзаро таққослаш орқали ўлчанади. Меъёрланган (нормага асосланган) баҳолашда баҳо бир неча кўрсаткичларга ва таълим олиш шарт-шароитига кўра,*

ўзгариши мумкин бўлади. Масалан, ўқитувчи томонидан ҳайрихоҳликнинг пайдо бўлиши, ўқитувчининг ўта қатъийлиги сабабли ҳам баҳо ўзгариши мумкин.

**Меъёрий (нормага асосланган ) баҳолаш**

<b>Афзаллиги</b>	<b>Камчилиги</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ўқитувчи ортиқча вақт сарфламайди;</li> <li>• турли шарт-шароитга осон мослаштириш мумкин;</li> <li>• баҳо бўйича кўрсаткичлар умумий тарзда олинади;</li> <li>▪ муайян баҳоланувчилар гуруҳи ичида уларнинг ўзлаштириш даражасига қараб табақалаштириш имконини беради;</li> </ul> <p>баҳолаш натижасида гуруҳ ичидан маълум сондагиларини ажратиб олиш имконини беради (масалан, коллежга кириш имтиҳонлари натижасида бошқаларга нисбатан энг юқори кўрсаткич кўрсатган 25 кишини ажратиб олиш мумкин).</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Баҳолашда билим билан хулқни баҳолаш аралаштириб юборилади;</li> <li>• баъзан хулқни баҳолаш билимни баҳолашни белгилаб қўяди;</li> <li>• баҳолар ўқитувчи томонидан субъектив белгиланиши мумкин;</li> <li>• таълим олувчига нисбатан симпатия ҳам баҳони юқори қўйиб юборишга олиб келади;</li> <li>• билимларни объектив ва ҳаққоний баҳолашнинг пасайишига имконият яратади.</li> </ul>

**Таълим берувчининг шахсий қарашлари билан боғлиқ бир неча баҳолаш хатолари мавжуд:**

**• Хайрихоҳлик хатоси**

Агар таълим берувчи бирор таълим олувчига нисбатан ҳайрихоҳлик билан қараса, бу баҳонинг бироз юқорироқ бўлишига олиб келиши мумкин.

**• Юқори талаб қўйиш хатоси**

Агар таълим берувчи ўзига нисбатан юқори талаблар қўйса ва худди шундай юқори даражадаги талабларни таълим олувчиларга нисбатан қўлласа, бу баҳонинг бироз пастроқ бўлишига олиб келиши мумкин.

- **Ўртача баҳо бериш хатоси**

Бу хато таълим олувчиларнинг натижалари ўртача баҳоланишини билдиради.

Бунинг сабаблари таълим берувчининг ўта яхши ёки ўта ёмон баҳо беришдан қўрқиши бўлиши мумкин.

- **Ўз фикрини ўзгартирмаслик хатоси**

Таълим берувчи ўзининг биринчи фикрини ўзгантиришни хоҳламаслиги туфайли, ўз назоратининг натижаларини ўзгаришсиз қолдиради. Бир марта содир бўлган воқеа туфайли таълим берувчида бирор таълим олувчи тўғрисида қолган ижобий ёки салбий таассурот, кейинчалик бу таълим олувчининг шахсиятига оид барча бошқа хусусиятларига эътибор бермаслигига олиб келади.

- **Ёқтирмаслик хатоси**

Бирор таълим олувчини ёқтирмаслиги ёки унга нисбатан салбий фикрда бўлиши туфайли таълим берувчи таълим олувчига ёмон баҳо қўяди. Бу хато «хайрихоҳлик хатоси»нинг аксидир.

Таълим берувчининг баҳолашдаги хатоликларининг олдини олиш учун қуйидагиларга амал қилиш керак:

- Баҳолаш мезонларини аниқ ишлаб чиқиш ва уларни тўғри танлаш.
- Назорат варағини ишлаб чиқиш.
- Баҳоловчининг бир эмас, балки иккита бўлиши.
- Баҳолаш усулларини тўғри танлаш.
- Самарали баҳолаш тизимини қўллаш.
- Баҳолаш топшириқларини ва уларга жавобларни имкони борича ёзма равишда ўтказиш ва расмийлаштириш.

**Баҳолашда учрайдиган хатоларнинг олдини олиш учун қуйидагиларга риоя қилинса, мақсадга мувофиқ бўлади:**

- Баҳолашдан олдин таълим олувчилар билан талаблар ва баҳо мезонлари муҳокама қилиниши лозим.
- Баҳо мезонларга мувофиқ қўйилгач, таълим олувчиларга маълум қилинади.
- Таълим берувчи таълим олувчи билан биргаликда олинган баҳоларнинг натижаларини ва йўл қўйилган хатоларни муҳокама қилишлари ҳамда сабабини аниқлашлари лозим.
- Хатоларни тузатиш чора-тадбирларини белгилаб олишлари лозим.

Профессional таълим муассасасида таълим жараёнларини сифатли ташкил этиш, ўқитувчиларни ижодкорлиги, изланувчанлиги, педагогик маҳоратларини баҳолаб бориш ва меҳнатларига яраша моддий ва маънавий рағбатлантириб бориш таълим мазмуни ва сифат кўрсаткичларини оширишнинг асосий элементларидан биридир.

## ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*Салим Жумаев*

*Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия Жамоат ҳафсизлиги университети  
Жиноий ҳуқуқий фанлар кафедрасида катта ўқитувчиси*

Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги низоми Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги ва «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари резервидаги хизмат тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунларига мувофиқ тайёрланган бўлиб, тарихий-миллий тажрибанинг таҳлили ва ҳарбий-таълим соҳасида эришилган жаҳон миқёсидаги ютуқларни қамраб олади. Юксак умумий ва ҳарбий маданиятига, ижодий ва ижтимоий фаолликка, ижтимоий-сиёсий ҳаётда мустақил равишда мўлжални тўғри ола билиш маҳоратига эга бўлган, истикбол вазифаларини илгари суриш ва



ҳал этишга қодир ҳарбий кадрларнинг янги ватанпарвар авлодини шакллантиришга йўналтирилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев алоҳида уқтириб ўтганидек, “Ҳарбийлар халқимизнинг маънавий етук фарзандлари бўлиши керак. Бунинг учун шахсий таркибнинг маънавий етуқлигини, ҳарбий хизматчиларнинг жанговар тайёргарлигини юксалтириш лозим. Сиз Амир Темур, Жалолиддин Мангуберди каби буюк аждодларимиз ворислари эканлигингизни доим ҳис қилиб, шунга муносиб хизмат қилсангиз, ёшларимиз ватанпарварлик, она юртга садоқат туйғуларини сизлардан ўрганади.” [].

Ҳарбий хизматчиларнинг психиофизиологик ва касбий тайёргарлиги такомиллаштириш ҳар томонлама камол топган, жамиятда турмушга мослашган, ҳарбий тактик қарорларни онгли равишда танлаш, кейинчалик пухта ўзлаштириш учун ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, психологик-педагогик ва ўзига хос ижтимоий-психологик шароитларни яратишни, жамият, давлат, оила олдида ўз жавобгарлигини ҳис этадиган фуқароларни тарбиялашни назарда тутди.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларига қуйидаги талаблар қўйилади:

муддатли ҳарбий хизматчилар эгаллаб турган лавозими бўйича ҳарбий ихтисосликни сифатли ўзлаштириши, ишониб топширилган қурол ва ҳарбий техникани ишлата билиш кўникмаларини эгаллаши, мустаҳкам ҳаётий позиция, ватанпарварона дунёқараш, юксак маънавий-ахлоқий ва жисмоний сифатларга эга бўлиши, ҳарбий бурчни бажаришга тайёр туриши зарур;

оддий аскарлар таркибига мансуб контракт бўйича ҳарбий хизматчилар муддатли ҳарбий хизматчиларга тааллуқли бўлган сифатларни эгаллаш билан бир қаторда, ҳарбий касбни чуқур ўзлаштириши, ўзаро боғлиқ мутахассисликларни ўрганиши, вазиятнинг турли шароитларида жанговар ва хизмат вазифаларини бажариш вақтида ишониб топширилган қурол ва ҳарбий техникани қўллашнинг мустаҳкам кўникмаларига эга бўлиши лозим;

сержантлар таркибига мансуб контракт бўйича ҳарбий хизматчилар маънан етук, ҳарбий бурчни бажаришга руҳан тайёр бўлиши, ҳарбий касбни мукамал

билиши, қурол-аслаҳа ва ҳарбий техникани моҳирона қўллай олиши ҳамда уни сақлаш ва ундан фойдаланишда эҳтиёткор бўлиши керак. Уларга бўлинмаларда юксак жанговар руҳ, соғлом маънавий-руҳий муҳит яратиш, бўйсунувчиларда Ватанга содиқлик ва ватанпарварлик ҳисларини доимий равишда тарбиялаб бориш, уларни ҳарбий ихтисосликлар ва зарурий кўникмаларни ҳосил қилиш вазифалари юклатилади;

офицерлар таркибига мансуб контракт бўйича ҳарбий хизматчилар профессионал тайёргарликка эга командир (раҳбар), ҳарбий бўлинмаларга командирлик (раҳбарлик) қилиш, мураккаб вазиятларда тезкор мослашиш ва мустақил ҳаракат қилиш, ностандарт қарорларни қабул қилиш ҳамда шахсий намунаси билан бўйсунувчиларни жанговар ва хизмат вазифаларини ҳал этишга йўналтира олишга қодир, ҳарбий ишга оид чуқур билимлар, юксак маънавий-руҳий сифатлар, кенг дунёқараш, интеллект, яхши ташкилотчилик қобилиятига эга, ишониб топширилган қурол-аслаҳа ва ҳарбий техникадан тўғри фойдаланиш ва уни сақлашни биладиган мутахассис бўлишлари зарур.

Юқорида санаб ўтилган сифатлар ўзини ҳарбий хизматга, Ватанга хизмат қилишга бағишлаган ҳар бир фуқаро учун ҳаётий мақсад бўлиб қолиши ва машаққатли меҳнат асосида шакллана бориши, нафақат экстремал шароитларда, балки тинчлик даврида кундалик хизмат давомида ҳам сингдирилиб, намоёиш этилиб борилиши лозим.

Ишлар тажрибаси ворисийлигини таъминлаш, ёш ҳарбий хизматчиларнинг ҳарбий хизматга мослашуви, касбий шаклланиш ва юклатилган хизмат вазифаларини мустақил бажариш қобилиятини ривожлантириш жараёни тезлашишини таъминлаш мақсадида ҳарбий хизматчиларга юқори даражали касбий сифатларга эга бўлган, тайёргарлиги энг яхши ҳарбий хизматчилар ва Қуролли Кучлар фахрийлари орасидан мураббийлар бириктирилади.

Мураббийлик тартиби вазирликларнинг идоравий ички ҳужжатлари билан белгиланади.

5. Қуролли Кучлардаги ҳарбий хизматга ватанпарварона дунёқараш, юқори маънавий-ахлоқий сифатлар, зарурий интеллектуал савия, билим доираси кенг,

шунингдек жисмоний тайёргарликка эга бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари киради.

6. Қуролли Кучларни контракт бўйича ҳарбий хизматчилар билан бутлаш номзодларни ҳарбий-касбий саралаш йўли билан амалга оширилади, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан тайинланадиган шахслар бундан мустасно.

7. Қуролли Кучларни бутлаш территориал ва экстерриториал тамойиллари асосида амалга оширилиши мумкин.

Территориал (экстерриториал) тамойил бўйича бутланадиган бўлинмалар ва/ёки мутахассисликлар рўйхати вазирликлар раҳбарлари томонидан белгиланади. [“Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 сентябрдаги ПҚ-4447-сон қарори]

Ўзбекистон Республикасида амалга оширилган ҳарбий таълим ислохотларининг бош мақсади асосан ҳарбий хизматчиларнинг шахси ва касбий тайёргарлигини ҳар томонлама ривожлантириш асосида янги давр учун баркамол ватанпарвар шахсни етиштиришдан иборатдир. Шунга кўра, ҳарбий хизматчиларнинг касбий тайёргарлигининг мазмунининг янги моделларини танлаши, уни амалиётда оқилона қўллаши ўқув-билиш жараёни самарадорлигининг ортишига, ҳарбий хизматчи эгаллаши керак бўлган билим, кўникма, малакалар шахс фазилатларининг такомиллашувини таъминлашда фаол иштирок этиши зарур.

1. Ҳарбий таълим мазмунининг янги моделлари, унинг мақсадлари мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий, илмий-техникавий ва ахборот-технологик омиллар таъсирида мунтазам тарзда янгиланиб туришини узлуксиз таъминлашни талаб қилади. Шунга асосланиб, ҳарбий хизматчининг амалдаги таълими мазмунида шахс, жамият, фан-техника, инсон хавсизлигини таъминлаш эҳтиёжларининг чамбарчас боғлиқлиги ўз ифодасини топиши лозим. Бугунги кунда таълим жараёни ишлаб чиқариш, фан-техника, маданият ва маънавият ютуқларини ўрганиш тизими билан интеграциялашувини эътиборга олиб, Ўзбекистон Республикаси янги ҳарбий тактик истиқболининг тараққиёти ҳақида

ёшларда ёрқин тасаввур ва фикрларни шакллантириш лозим. Ҳарбий таълим мазмунида, энг аввало, ўқитиш жараёнининг тарбиявий имкониятлари, ҳарбий хизматчи эгаллайдиган билим, кўникма малакалардан ҳарбий ҳаракатлар ва ватан мудофаасида фойдалана олиш салоҳиятини юксалтириш жоиз. Таълим жараёнида ҳарбий хизматчи саводхонлиги, маълумотлилиги, маданиятлиги, ҳуқуқий-иқтисодий билимдонлиги, ҳарбий-мудофа тайёргарлиги юксак даражаларининг таъминланиши шарт. Шунга кўра, мазкур жараёнда ҳарбий хизматчиларни ўзлаштираётган билим ва тушунчаларни мустақил таҳлил қилишга ва ҳолисона фикр билдиришга ўргатиш зарур. Анъанавий ўқитиш методлари билан янги ҳарбий таълим технологияларини уйғунлаштириш туфайли ўқув-тарбия жараёнида субъект-субъект муносабати асосида ҳамкорлик муҳитини қарор топтириш лозим бўлади. Зеро, бугунги таълим жараёнида ўқувчи таълимнинг ҳам объекти, ҳам субъекти сифатида гавдаланиши мумкин. Бу жараёнда эса ҳарбий хизматчиларнинг психиофизиологик ва касбий-психологик тайёргарлигини шакллантириш муҳим ўрин тутди. Қолаверса касбий-психологик тайёргарлик талабларига жавоб бера олмайдиган ҳар қандай ҳарбий хизматчининг фаолият самарадорлигига эришиш учун ҳарбий хизматчисининг ўзига хос психологик тайёргарлигини тадқиқ қилиш муҳим аҳамият касб этади.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 сентябрдаги ПҚ-4447-сон қарори
2. *Захарик С. В.* Формирование психологической устойчивости у воинов-десантников к влиянию факторов современного боя (на основе опыта боевых действий в Афганистане): Дис... канд. психол. наук. — М., 1993.
3. *Индюченко А. Д.* Психологическая подготовка воинов-танкистов к активным боевым действиям: Дис... канд. психол. наук. — М., 1988.
4. *Кампеано М.* Опыт военной психологии, индивидуальной и общей. — СПб., 1902.
5. *Ремарк Э. М.* На западном фронте без перемен. — М., 1972.

6. *Сенявская Е. С.* Психология войны в XX веке: исторический опыт России. — М., 1999. С.163.

## БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИДА МУЗОКАРАЛАРДАГИ ҚИЙИНЧИЛИКЛАР: ТЎСИҚЛАР, КОНФЛИКТЛАР, МАНИПУЛЯЦИЯЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

*Азамат Назаров*  
Ўзбекитсон ҳалқаро ислом академияси, “Дин  
психологияси ва педагогика” кафедраси катта  
ўқитувчиси,

*Убайдуллаев Шохрух Шарофиддин ўғли*  
Ўзбекистон ҳалқаро ислом академияси,  
Психология (Дин соционпсихология) йўналиши талабаси

Музокарачилар учун қийинчиликлар истисно бўлмай, балки кўпроқ одатий ҳолатдир. Бироқ кўпчилик тўсиқлардан, ўткир ҳиссий муносабатдан, ноодатий хатти-ҳаракатлардан, очик ва яширин манипуляциялардан кўрқишади, чунки бундай кўринишлар режаларни бузади, иложсизлик, умидсизликни келтириб чиқаради ва кескинликнинг кучайишига олиб келади, бундай ҳолатларда тўсиқлар пайдо бўлиши муқаррардир. Кўпинча улар қарши томон оппонентини бўйсундиришни мўлжаллаганда, куч ва қатъиятлиликни текширганда унга таъсирни кучайтириш учун ишлатилади. Бундан ташқари, тўсиқлардан янги маълумотлар олиш, альтернативаларни қидиришда фойдаланилади.

Тўсиқларга қуйидаги хатти-ҳаракатлар ҳам олиб келиши мумкин:

- *"Бизда ҳаммаси яхши, хавотирланишга асос йўқ"* каби шахсий куч ва туйғуларга ортикча баҳо бериш;
- Музокаралар олиб бориш учун соҳаларни изламаслик. *"Биз кўпроқ нарсани қилишга қодир эмасмиз"* ;
- Самимийлик ёки ўз имкониятлари ҳақида аниқ маълумотнинг йўқлиги, йиғилишлардаги: *"Нега бизга ишонмайсиз? Биз масалаларга етарлича*

масъулият билан ёндашамиз” мазмунидаги устунлик қиёфаси;

- Туннел хулқ-атвори: "Биз фақат яхшиликни тилаймиз, лекин шерикларимиз масъулиятсиз, тажовузкор, жиноятга аралашган ва ҳ."; "Агар улар курашмоқчи бўлсалар, бунга эга бўлишади. Бизга ҳеч нарса қолмайди”.

- Икки томон учун катта йўқотишлар билан тавсифланадиган курашнинг авж олишига ёки тўсиққа олиб борадиган эскалация.

- Эскалация томон ривожланишга мойиллик, бу бўйича ташвишланиш, шахсий манфаатларни: "Эскалациянинг оқибатлари биз учун қанчалик жиддий бўлади? Биз қанчалик ўзаро боғлиқмиз?" дея аниқлаш.

#### **Муаммони ҳал қилиш йўллари:**

*Вақтдан тўғри фойдаланиш: кечиктиришлар, уларни узайтириш;*

*Турли хил фикрлардан фойдаланиш;*

*Алтернативалар бўйича қўшма тадқиқотлар;*

*Воқелар йўналишини тубдан ўзгартирадиган асосий таклифларни киритиш;*

*Юқори даражадаги маслаҳатлашувлар, музокараларни ўтказиш ва ҳ.;*

*Муҳокама қилинадиган масалалар сонини чеклаш.*

#### **Конфликт музокараларни ривожлантириш омили сифатида.**

Музокаралар билан боғлиқ конфликтларнинг ривожланаётган функциялари тўғрисидаги меъёрлар музокаралар жараёнининг қуйидаги бир қатор умумий хусусиятларига асосланади:

*Биринчидан,* музокаралар уларнинг иштирокчилари манфаатларини мувофиқлаштириш механизми ҳисобланади.

*Иккинчидан,* музокаралар ушбу манфаатлар нафақат мавжуд бўлган, балки тушунилган тақдирда ҳам ўринлидир.

*Учинчидан,* музокаралар томонлар манфаатларининг ўзаро боғлиқлиги мавжуд бўлган ҳолларда ўтказилиши мумкин.

*Тўртинчидан,* ўзаро боғлиқлик иштирокчилар манфаатларининг қарама-қарши мазмунини истисно қилмайди ва шунинг учун у табиатан **жанжалбон**дир. Масалан, бир томоннинг нархни ошириши иккинчи томоннинг оладиган фойдаси

камайишига олиб келади. Бундай ҳолатда ўта қаттиқ ва ўжар хатти-ҳаракатлар музокараларнинг ўзига хавф солади, чунки келишув жараёни ўрнига истиқболсиз қарама-қаршилик ва конфликт юзага келиши мумкин.

Шу билан бирга, музокаралардаги конфликтлар, умуман ҳаётда бўлгани каби, ривожланишнинг муҳим воситасидир. Бу, биринчи навбатда, музокаралар жараёнининг ўзига: хатти-ҳаракатлар, ҳиссий жиҳат, назорат, кучни ишлатиш ва ҳ.ни тавсифловчи ҳодисаларга тегишлидир.

Шундай қилиб, музокаралардаги конфликтлар иштирокчиларга қуйидагиларга имкон беради:

1. Ўз манфаатларини шерик манфаатлари билан ўзаро боғлаган ҳолда чуқурроқ англаш.
2. Қаршилик сабабларини таҳлил қилиш ва тўсиқлар пайдо бўлганда мақбул вариантларни топиш.
3. Муносабатларда кучларнинг маълум бир мувозанатни сақлаш.
4. Конструктив психологик муҳитни яратиш.
5. Тактик усуллардан мослашган ҳолда фойдаланиш.
6. МуроСага эришишда позицияларни ўзгартириш, тузатиш ва яхшилаш учун воситаларга эга бўлиш.

Музокараларда конфликтлардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятларга ва реал механизмларга, белгиларга ва изоҳларга эга бўлиб, уларни англаш ва улардан фойдаланиш музокаралар жараёнининг самарадорлигини оширишга имкон беради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Анфилатов В. С. Системный анализ в управлении М.: Финансы и статистика, 2002.
2. Назаров А. Бошқарув психологияси. -Т.: 2021.
3. Назаров А. Менежмент ва маркетинг психологияси. - Т.: 2020.
4. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления.-Международный научный журнал. г.Казан. 2020., №3.



5. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. г. Казань, апрель, 2020 г.

---

## ESHITISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALAR ESHITUV-NUTQIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASHDA "SPEECH VIEWER" DASTURI IMKONIYATLARI

*Mirsaid Yunusov Xudayarovich*

*Jizzax davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedراسi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** "Speech Viewer" dasturining korreksion ish jarayoniga qo'llanilishi an'anaviy sharoitlarga qaraganda samarasi tezroq, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarda talaffuz malakalarini mashq qilishga undashga, so'ngra uni uzoq vaqt davomida rivojlantirishga imkon yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Animatsiya tasvir, gipermatn, videologiya, "Speech Viewer" ("Ko'rinadigan nutq"), vizualizatsiya, ovozli modulyatsiya, ovozli tahlil va sintez.

Hozirgi vaqtda jahon axborot-ta'lim makoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimini shakllantirish jarayonining o'qitish texnologiyalari tarkibiga zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos kelishi va bolaning axborot jamiyatiga uyg'un kirib borishiga hissa qo'shishi kerak bo'lgan o'qitish texnologiyalari mazmuniga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik nazariya va ta'lim jarayonidagi sezilarli o'zgarishlar bilan birga keladi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar eshituv-nutqiy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashga qaratilgan pedagogik faoliyatda video materiallar alohida o'rin tutadi. Videologiya materiallari va animatsiya turli xil jarayonlar va hodisalarni o'rganish bilan

bog'liq o'quv materiallari bilan ishlashda juda foydalidir, ularning audiologik tavsifida ushbu patologiyaga ega bolalarning so'z boyligi cheklangan. Bundan tashqari, video materiallar, ayniqsa, videoni yozib olish mumkin bo'lgan jarayonlar va hodisalarni o'rganishda yordam beradi, animatsiya yordamida videoni yozib bo'lmaydigan jarayonlar va hodisalarning turli dinamik modellarini tasvirlash mumkin. Animatsiya tasvirning alohida tarkibiy qismlarini izohlovchi multimediali videolar bilan birga bo'lishi mumkin, bu esa eshitishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashda ham muhimdir.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bir qator axborot texnologiyalarining asosi bo'lgan gipermatn eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish doirasida ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Birinchidan, o'quv materialini tashkil etishning gipermatnli shakli, shu jumladan giperaktiv grafikalar, diagrammalar, jadvallardan foydalanish, bilimlarning tizimli ko'rinishini rivojlantirishga yordam beradi, bu ayniqsa eshitishida muammolari bo'lgan bolalar uchun juda muhimdir. Ikkinchidan, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga taqdim etilayotgan gipermatnning chuqurlashib borayotgan darajalarida bolalarning so'z boyligini rivojlantirishga qaratilgan ko'p miqdordagi tasviriy materiallarni, shuningdek gipermatnli va boshqa matnli tushuntirishlarni joylashtirish kerak.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining afzalliklari asosida o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishga imkoniyatlar mavjud.

“Speech Viewer” xorijiy kompyuter dasturi ("Ko'rinadigan nutq" dasturi) nutqning asosiy akustik tarkibiy qismlari haqida qo'shimcha ma'lumotni vizualizatsiya qilish, shuningdek, vizualizatsiya yordamida ishlatiladigan animatsion rasmlarga eshitishida muammolari bo'lgan bolalar kirishlari mumkin. Dasturning ko'lami yetarlicha keng va talaffuz ustida ishlashning barcha jihatlarini qamrab oladi.

“Speech Viewer” dasturining funktsionalligi ("Ko'rinadigan nutq") o'qituvchining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari jihatidan quyidagi vazifalarni hal qilishda eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limida yordamchi vosita sifatida samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi:

- an'anaviy so'rov ma'lumotlarini to'ldiruvchi eng obyektiv ma'lumotlarni olish uchun eshitishida muammolari bo'lgan bolaning nutqining ritmik va intonatsion tomonlarini tekshirish;

- talaffuzni mashq qilish motivatsiyasini va ularga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish;

- to'g'ri nutqiy nafasni shakllantirish;
- ovoz buzilishini rivojlantirish va tuzatish;
- ovozli modulyatsiyalarni ishlab chiqish;
- oddiy tempni shakllantirish va nutqning birlashishi;
- ovozli talaffuz buzilishlarini tuzatish;
- o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning keyingi bosqichlarida "Ko'rinadigan nutq" dasturini qo'llash maqsadga muvofiqdir:

- eshitishida muammolari bo'lgan bola nutqining talaffuz tomonini tekshirish;
- boshlang'ich talaffuz qobiliyatlarini shakllantirish;
- artikulyatsion tuzilmalarni shakllantirish va takomillashtirish;
- qo'yilgan tovushlarni avtomatizatsiyalash va differentsiyalash;
- o'rganilgan talaffuz malakalarini erkin so'zlashuvga joriy etish;
- ovozli tahlil va sintezni shakllantirish;
- o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish.

Dasturning imkoniyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, eshitishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashda nutqning talaffuz tomonlarini turli tomonlarini tuzatish uchun yordamchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin:

- nutqiy nafasni rivojlantirish;
- ovozlar ustida ishlash;
- tovushli talaffuz malakalarini shakllantirish;
- temp - nutqni ritmik tashkil etish;
- nutqning intonatsion tomonini korreksiyalash.

"Ko'rinadigan nutq" dasturidan eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga nisbatan maktab internatlarida yordamchi o'quv qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

"Ko'rinadigan nutq" dasturining korreksion ish jarayoniga qo'llanilishi an'anaviy sharoitlarga qaraganda samarasi tezroq, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarda talaffuz malakalarini mashq qilishga undashga, so'ngra uni uzoq vaqt davomida rivojlantirishga imkon yaratadi.

"Speech Viewer" ("Ko'rinadigan nutq") kompyuter texnologiyasi talaffuz malakalarini rivojlantirishning samarali vositasidir.

### Adabiyotlar:

1. Yunusov, M. (2021). Maxsus ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalarining o'рни. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). Извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711>

2. Yunusov, M. (2021). Eshitish qobiliyatini rivojlantirish darslarida multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). Извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>

3. Yunusov, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi eshitish qobiliyati cheklangan bolalar talaffuzini korreksiyalashda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4599>

4. Yunusov, M. (2021). Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirishda axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(3). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4062>

5. Yunusov, M. (2021). Daun bolalar nutqini korreksiyalashning zamonaviy usullari. *Scienceweb academic papers collection*.

6. Yunusov, M. (2021). Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning innovatsion ko'rgazmali usullari. *Scienceweb academic papers collection*.

7. Yunusov, M. (2021). Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda o'quv faoliyati uchun motivatsiyani oshirish vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. *Scienceweb academic papers collection*.
8. Yunusov, M. (2021). Kar bolalarni o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. *Scienceweb academic papers collection*.
9. Axrorova, S. (2019). Медико-педагогические и психологические основы подготовки детей с синдромом аутизма к социальной жизни. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Axrorova, S. (2020). Hozirgi zamonda autizimli bolalarning ta'lim-tarbiya muammosi . *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(75)*. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6485](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6485)
11. Axrorova, S. (2020). Медико-педагогические и психологические основы подготовки детей с синдромом аутизма к социальной жизни. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(74)*. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6488](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6488)
12. Axrorova, S. (2021). Ранний детский аутизм и работа по развитию речи. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2)*. извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
13. Axrorova, S. (2021). Игра как средство коррекции аутистического поведения у детей теория и практика терапии игрой. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>
14. Axrorova, S. (2021). Autizm sindromiga chalingan bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olish va korreksiyalash. *Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari, 1(3)*. Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4061>
15. Axrorova, S. (2021). F 84 bu qanday tashxis? Muammolar va yechimlar. *Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari, (2)*. Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2907>

## ЗАМОНАВИЙ РАҲБАР ШАҲСИДА ЛИДЕРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҲБАР БОШҚАРУВ УСЛУБИНИНГ ЎРНИ

*Элмуродов Улузбек Юсуп ўғли  
Самарқанд Давлат университети  
Умумий Психология кафедраси ассисенти*

**Аннотация:** Ушбу мақола замонавий раҳбарларда лидерлик қобилиятини ривожлантиришда раҳбар бошқарув услубининг аҳамиятини тадқиқ этишга қаратилган. Бошқарувнинг директив, бепарволик ва коллегиял услублар ҳамда меҳнати жамоасининг муносабатларини белгиловчи раҳбар шахсининг эмоционал интеллекти борасида тадқиқот олиб борилган. Коррекция амалиётида иштирокчиларнинг директив ва бепарволик услублари коллегиял услубга ва эмоционал интеллекти оширилишига эришилган.

**Калит сўзлар:** раҳбар, лидер, бошқарув услуби, директив, бепарволик, коллегиял, эмоционал интеллект

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется важности стиля лидерства в развитии лидерских качеств у современных лидеров. Проведено исследование директивных, халатных и коллегияльных методов управления, а также эмоционального интеллекта руководителя, определяющего установки трудового коллектива. В коррекционной практике директивный и небрежный стили участников позволили добиться коллегияльного стиля и повышения эмоционального интеллекта.

**Ключевые слова:** лидер, лидер, стиль управления, директивность, халатность, коллегияльность, эмоциональный интеллект.

**Annotation:** This article focuses on the importance of leadership style in developing leadership skills in modern leaders. A study was conducted on the directive, negligent and collegial methods of management, as well as the emotional intelligence of the leader who determines the attitudes of the labor community. In the correction practice, the directive and negligent styles of the participants achieved a collegial style and increased emotional intelligence.

**Keywords:** leader, leader, management style, directive, negligence, collegial, emotional intelligence

**Кириш:** Замонавий раҳбар шахсида лидерлик қобилиятини ривожлантириш ижтимоий психология соҳасидаги долзарб масала ҳисобланади. Лидерлик қобилиятига эга бўлган раҳбар меҳнат жамоасининг фаолиятида муваффақиятини таъминлашга интилади. Меҳнат жамоасининг фаолият мотивациясини юзага келтиришда раҳбар бошқарув услубининг ўрни муҳим аҳамият касб этади.

#### **- Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review):**

К.Левин авторитар, либерал, демократик бошқарув услубларини ажратган. [1] Раҳбарликнинг авторитар [директив] услуби бошқарувнинг ҳаддан ортиқ марказлашуви билан характерланади. [2] Либерал услубда раҳбар ходимлар олдида муаммони кўяди, уларга иш шароитларини яратиб беради. [3] Демократик услубдаги раҳбар мақсадга интилувчан, босиқ, кўпчиликнинг фикрига таянади.[4]

Р.Лайкерт икки лидерлик услубини, ишга йўналган лидер ва ходимларга йўналган лидер турларини ажратган. [5] Биринчи услубда раҳбар вазифаларни режалаштиради, иккинчи услубда ходимлар ўртасидаги муносабатларни яхшилашга интилади.[6] Р.Хаус фикрича, ташкилотда мақсадга эришиш раҳбарнинг ходимларни мақсадга эришиш учун йўналтириш ва мотивация бериш услубига боғлиқ.[7] Врум ва Йеттон айтишича, энг яхши бошқарув услуби мавжуд эмас, ҳар сафар, аниқ вазиятга қараб, бошқарувнинг у ёки бу услубини қўллаш зарур. [8]

#### **- Тадқиқот методологияси (Research methodology).**

К.Левин томонидан ўрганилган бошқарув услублари [9], Ф. Фидлернинг вазиятга хос самарали бошқарув модели [10], Р.Хаус томонидан яратилган йўл-мақсад назарияси [7], Врум-Йеттон бошқарув услуби модели [8] тадқиқотнинг методологияси ҳисобланади.



- **Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).** Тадқиқотда тажриба гуруҳида (ТГ) 143 нафар, назорат гуруҳида (НГ) 93 нафар, жами 236 нафар раҳбар ҳамда 101 нафар ходим жами 337 нафар иштирокчи қатнашган. Диагностик босқичда “Меҳнат жамоасида бошқарув услубини аниқлаш методикаси” (В. Захарова, А.Журавлева) ёрдамида раҳбар шахсининг жамоада бошқарув услуби ўрганилди. Сўровномада директив, бепарволик, коллегиял компонентлар келтирилган бўлиб, раҳбар бошқарув жараёнида қайси услубни қўллаши ходимлар томонидан баҳоланди. (1-жадвал).

**1-жадвал**


**Раҳбар шахсининг жамоада бошқарув услуби**

**n=337 / ТГ n=143/ НГ n=93 / ходим n=101**

№	иштирокчи	вилоят	КОМПОНЕНТ						
			директив		бепарволик		коллегиял		жами
				%		%		%	
1	Раҳбар (эркаклар) ТГ	Самарқанд вилояти	31	52,5	18	30,5	10	16,9	59
		Қашқадарё вилояти	28	50,0	20	35,7	8	14,3	56
		жами (вилоят)	59	51,3	38	33,0	18	15,7	115
2	Раҳбар (аёллар) ТГ	Самарқанд вилояти	4	30,8	7	53,8	2	15,4	13
		Қашқадарё вилояти	5	33,3	7	46,7	3	20,0	15
		жами (вилоят)	9	32,1	14	50,0	5	17,9	28
3	Раҳбар (эркаклар) НГ	Самарқанд вилояти	18	46,2	14	35,9	7	17,9	39
		Қашқадарё вилояти	19	54,3	12	34,3	4	11,4	35
		жами (вилоят)	37	50,0	26	35,1	11	14,9	74

4	Раҳбар (аёллар) НГ	Самарқанд вилояти	4	44,4	3	33,3	2	22,2	9
		Қашқадарё вилояти	3	30,0	5	50,0	2	20,0	10
		жами (вилоят)	7	36,8	8	42,1	4	21,1	19
жами			112	47,5	86	36,4	38	16,1	242

Раҳбар шахсининг жамоада бошқарув услубини ўрганиш бўйича ўтказилган ходимлар томонидан баҳолаш натижалари 1-расмда диаграмма кўринишида тасвирланган.



### 1-расм. Раҳбар шахсининг жамоада бошқарув услуби

Жадвалда келтирилган раҳбар шахсининг жамоада бошқарув услуби тадқиқот натижалари қуйидаги кўрсаткичга эга: жами 47,5% директив компонент; жами 36,4% бепарволик компонент; жами 16,1% коллегиал компонент намоён бўлган. Олинган натижаларга асосан директив бошқарув услуби юқори даражада намоён бўлган бўлиб, бундай бошқарув услубида лидерлик қобилияти намоён бўлмайди. Шу сабабли иштирокчилар билан психокоррекция амалиёти ташкил этиш талаб қилинади. Психокоррекция амалиётининг асосий мақсади иштирокчиларда лидерлик қобилиятини ривожлантириш орқали раҳбар бошқарув услубини коллегиал кўринишга ўзгартиришдан иборат.

Психокоррекция амалиёти тажриба гуруҳи иштирокчиларида олиб борилди. Назорат гуруҳида умумий суҳбат асосида ташкил этилган. Психокоррекция амалиёти 4 босқичда бўлиб ўтди. Биринчи босқичда психоанализ, иккинчи босқичда гештальт ва когнитив хулқ-атвор, учинчи босқичда трансакт анализ, тўртинчи босқичда гуманистик ёндашув ва психодрама техникалари қўлланилди. Бошқарув услубини ўзгартириш тўртинчи босқичда амалга оширилди. Янги ишлаб чиқилган “Ташкилотчи лидер” номли психологик тренинг бошқарув услубини коллегиял кўринишга ўзгартиришда ижобий самара берди.

Коррекция амалиёти самарадорлигини аниқлаш босқичида иштирокчиларнинг тажрибадан олдинги ва кейинги натижалари таққосланди ҳамда кўрсаткичлар ўзгариши таҳлил қилинди. Раҳбар иштирокчиларнинг директив, бепарволик, коллегиял компонентлар кўринишдаги бошқарув услубларининг намоён бўлиши келтирилган. (2-жадвал)

**2-жадвал**

**Раҳбар шахсининг жамоада бошқарув услуби динамикаси  
n=337 / ТГ n=143/ НГ n=93 / ходимn=101 (G-мезон бўйича)**

Т Г Н Г	ТОТК	директив		бепарволик		коллегиял		
			%		%		%	
Т Г	ТО	59	51,3	38	33,0	18	15,7	
	ТК	0	0,0	2	1,7	113	98,3	
	ТО-ТК	59	51,3	36	31,3	95	82,6	
	ИЎ	59	51,3	36	31,3	95	82,6	
	СЎ	0	0,0	0	0,0	0	0,0	
	ЎЙ	0	0,0	2	1,7	18	15,7	
	р	0,01						
	Раҳбар	ТО	9	32,1	14	50,0	5	17,9

Т Г	(аёллар)	ТК	0	0,0	1	3,6	27	96,4
		ТО-ТК	9	32,1	13	46,4	22	78,6
		ИЎ	9	32,1	13	46,4	22	78,6
		СЎ	0	0,0	0	0,0	0	0,0
		ЎЙ	0	0,0	1	3,6	5	17,9
		р	0,01					
Н Г	Раҳбар (эркаклар)	ТО	37	50,0	26	35,1	11	14,9
		ТК	36	48,6	26	35,1	12	16,2
		ТО-ТК	1	1,4	0	0,0	1	1,4
		ИЎ	0	0,0	1	1,4	1	1,4
		СЎ	1	1,4	1	1,4	0	0,0
		ЎЙ	36	48,6	25	33,8	11	14,9
р	0,05							
Н Г	Раҳбар (аёллар)	ТО	7	36,8	8	42,1	4	21,1
		ТК	6	31,6	9	47,4	4	21,1
		ТО-ТК	1	5,3	1	5,3	0	0,0
		ИЎ	0	0,0	0	0,0	0	0,0
		СЎ	1	5,3	0	0,0	0	0,0
		ЎЙ	6	31,6	8	42,1	4	21,1
р	0,05							

Жадвалда келтирилган кўрсаткичларга асосан коррекция амалиётидан кейинги раҳбар шахсининг жамоада бошқарув услуби динамикаси: ТГ Раҳбар (эркаклар) коллегиял услуб 98,3%; ТГ Раҳбар (аёллар) коллегиял услуб 96,4%; НГ Раҳбар (эркаклар) коллегиял услуб 16,2%; НГ Раҳбар (аёллар) коллегиял услуб 21,1% намоён бўлган. Коррекция амалиёти самарадорлиги ТГ иштирокчиларида юқори бўлганлиги аниқланган.

Лидерлик қобилияти ва лидерлик самарадорлиги асосий шкалаларининг тажрибадан кейинги диагностик натижалари ҳамда раҳбар шахсининг жамоада

бошқарув услуги шкалаларининг тажрибадан кейинги диагностик натижалари ўзаро корреляцион таҳлил қилинди. (3-жадвал)

3-жадвал

**Лидерлик қобилияти ва бошқарув услугишкалаларнинг ўзаро боғлиқлиги корреляцион таҳлили (Пирсон кор.коэф. бўйича)**

Шкалалар	Директив	Бепарволик	Коллегиал
Лидерлик қобилияти	0,04	0,09	0,95**
Лидерлик самарадорлиги	0,06	0,11*	0,93**

Изох: \* $p \leq 0,05$ ; \*\* $p \leq 0,01$ ;

Жадвалда келтирилган лидерлик қобилияти ва бошқарув услугишкалаларнинг тажрибадан кейинги кўрсаткичлари ўзаро корреляцион боғлиқлиги қуйидаги таҳлилга эга:

- лидерлик қобилияти ва коллегиал услуги шкалалари корреляция коэффиценти  $r=0,95$  юқори корреляцияга эга бўлиб, коллегиал бошқарув услуги юқори даражада намоён бўлган.

- лидерлик самарадорлиги ва коллегиал услуги шкалалари корреляция коэффиценти  $r=0,93$  қуйи корреляцияга эга бўлиб, коллегиал бошқарув услуги юқори даражада намоён бўлган.

Коррекция амалиётидан кейинги диагностик босқичда раҳбарнинг шахсининг эмоционал интеллекти диагностикаси бўйича ТГ ва НГ иштирокчиларнинг коррекция амалиётидан олдинги ва кейинги кўрсаткичлари динамикаси таҳлил қилинди. (4-жадвал)

**Раҳбар шахсининг эмоционал интеллекти**  
**n=236 / ТГ n=143/ НГ n=93 (t-стъюдент мезони бўйича)**

шкала	ТГ/ НГ	ТО М	%	ТК М	%	t
Эмоционал билимдонлик	ТГ	8,5	47,2	15,5	86,1	3,47***
	НГ	9,4	52,4	9,9	54,7	1,98*
Ўз эмоцияларини бошқариш	ТГ	8,1	44,7	15,3	85,0	3,64***
	НГ	8,8	48,6	9,6	53,2	2,16*
Ўзини ўзи ундаш қобилияти	ТГ	10,2	56,5	16,1	89,3	3,54***
	НГ	9,4	51,9	9,5	52,5	2,03*
Эмпатия	ТГ	10,9	60,6	15,7	87,4	3,41***
	НГ	11,5	64,0	11,5	64,0	1,97*
Бошқалар эмоционал ҳолатларини билиш	ТГ	11,9	66,1	16,2	89,9	3,58***
	НГ	11,7	65,0	12,0	66,7	2,23*
Умумий эмоционал интеллект	ТГ	49,5	55,0	78,8	87,5	3,74***
	НГ	50,8	56,4	52,4	58,2	2,17*

Изоҳ: \* $p \leq 0,05$ ; \*\*\* $p \leq 0,001$

Жадвалда келтирилган кўрсаткичларга асосан коррекция амалиётидан кейинги раҳбар шахсининг эмоционал интеллекти кўрсаткичлари ТГда эмоционал билимдонлик - 86,1%; ўз эмоцияларини бошқариш - 85,0%; ўзини ўзи ундаш қобилияти - 89,3%; эмпатия - 87,4%; бошқалар эмоционал ҳолатларини билиш - 89,9%; умумий эмоционал интеллект - 87,5%; НГда эмоционал билимдонлик - 54,7%; ўз эмоцияларини бошқариш - 53,2%; ўзини ўзи ундаш қобилияти - 52,5%; эмпатия - 64,0%; бошқалар эмоционал ҳолатларини билиш - 66,7%; умумий эмоционал интеллект - 58,2% даражада намоён бўлган.

Лидерлик қобилияти ва лидерлик самарадорлиги шкалаларининг тажрибадан кейинги диагностик натижалари ҳамда раҳбар шахсининг эмоционал интеллекти шкалаларининг тажрибадан кейинги диагностика натижалари ўзаро корреляцион таҳлил қилинди. (5-жадвал)

**Лидерлик қобилияти ва эмоционал интеллект шкалаларнинг  
тажрибадан кейинги ўзаро боғлиқлиги корреляцион таҳлили  
(Пирсон кор. коэф. бўйича)**

Шкалалар	Эмоционал билимдонлик	Ўз эмоцияларини бошқариш	Ўзини ундаш қобилияти	Эмпатия	Бошқалар эмоционал ҳолатларини билиш
Лидерлик қобилияти	0,83*	0,87**	0,91**	0,78*	0,73*
Лидерлик самарадорлиги	0,86**	0,89**	0,94**	0,83**	0,78*

Изоҳ: \* $p \leq 0,05$ ; \*\* $p \leq 0,01$ ;

Жадвалда келтирилган лидерлик қобилияти ва эмоционал интеллект шкалаларнинг тажрибадан кейинги ўзаро корреляцион боғлиқлиги қўйидаги таҳлилга эга:

- лидерлик қобилияти ва ўзини ундаш қобилияти шкалалари корреляция коэффиценти  $r=0,91$  бўлиб юқори корреляцияга эга. Лидерлик қобилияти ва ўзини ундаш қобилияти шкаласи ўртасида юқори алоқадорлик намоён бўлган.

- лидерлик самарадорлиги ва ўзини ундаш қобилияти шкалалари корреляция коэффиценти  $r=0,94$  бўлиб юқори корреляцияга эга. Лидерлик самарадорлиги ва ўзини ундаш қобилияти шкаласи ўртасида юқори алоқадорлик намоён бўлган.

**Хулоса ва таклифлар (Conclusion / Recommendations).** Замонавий раҳбарларда лидерлик қобилиятини ривожлантиришда раҳбар бошқарув услубининг аҳамияти тадқиқотда ўрганилди. Диагностик босқичда намоён бўлган бошқарувнинг директив ва бепарволик услублари коррекция амалиёти натижасида коллегиял услубга ўзгартирилди. Меҳнати жамоасининг муносабатларини белгиловчи раҳбар шахсининг эмоционал интеллекти коррекция амалиётида оширишга эришилди.



- раҳбар бошқарув услубини коллегиял услубга ўзгартириш орқали лидерлик қобилиятини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш мумкин;
- раҳбар шахсининг эмоционал интеллектини ошириш натижасида меҳнат жамоаси ижобий муносабатларини таъминлаш ҳамда лидерлик қобилиятини ривожлантириш мумкин.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Эгамбердиев Ф.Т., Нишонова Д.Б. Раҳбарлик услубларининг асослари. Иқтисод ва молия жунрალი №9, 2017. 60-68 б.
2. Первякова С.А. Стиль руководство и его влияние на эффективность управленческой деятельности. Журнал Управление образованием. №11, 2009. 2-4 с.
3. Ширяева Д.К., Чиркунова Е.К. Выбор наиболее эффективного стиля руководства при управлении на предприятиях. Журнал Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, №1(27), 2018. 187-191 с.
4. Евтихов О. В. Психология управления персоналом: теория и практика. - СПб.: Речь, 2010. - 319 с.
5. Gallo P., Gonos J. Model for leadership style evaluation. Management: Journal of Contemporary Management Issues, Vol.18 No.2, 2013. pg.157-168
6. Kahya S., Pabuccu H. Evaluationing leadership styles within the scope of Rensis Likert's system-4 model by using Fuzzy ANP approach. International Refereed Academic Social Sciences Journal. Is.:15, Vol.:6, 2015. pg. 1-23
7. Дафт Р.Л. Уроки лидерство. – М.: Эксмо, 2006. – 480 с.
8. Шеклтон В. Психология лидерства в бизнесе. – СПб.: Питер, 2003. – 222 с.
9. Бендас Т.В. Психология лидерства: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2009. – 448 с.
10. Сельченко К.В. Психология лидерства. Хрестоматия. – Мн.: Харвест, 2004. - 368 с.

## ЁШЛАРНИ ИНТЕРНЕТДАГИ АХБОРОТ ХУРУЖЛАРИДАН АСРАШ МАСАЛАЛАРИ

*Абдупаттаев Мумин Мирзо Муроджон ўғли*  
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси стажёр-тадқиқотчиси*

Инсоният яратилибдики бир-бири билан мулоқот қилади, ахборот алмашади. Авваллари ахборот алмашиш воситалари сифатида мулоқот, хатлар, элчилик жўнатмаларидан фойдаланилган бўлса, бугунги давримизда бу ишлар биргина тугмани босиш билан амалга оширилмоқда. Дунё ахборот майдони ҳисобланган интернет тармоғи шу даражада улканлашиб кетганки, унда тарқатилаётган хабарларнинг тўғриси билан нотўғрисини ажратиб олиш мураккаблик касб этмоқда.

Замонамизда ахборотга ижтимоий-психологик қурол сифатида ҳам қаралади. XIX асрларда Ғарб дунёсида кенг истеъмолда бўлган “Ким темирйўлга эгалик қилса, бутун дунёга эгалик қилади” ибораси, XXI асрда “Ким ахборотга эгалик қилса, дунёга ҳукмронлик қилади” иборасига ўзгарди. Катта-катта корпорациялар, сиёсий кучлар дунёдаги бошқарувини “ахборотни керакли тартибда, ўз манфаатларига мослаб тарқата олиш” сиёсати устига қуришмоқда. Шунинг учун, ёшларда “бутунжаҳон ўргимчак тўри”да тарқатилаётган ахборотларни саралаш, тўғриси билан нотўғрисини мустақил ажрата олиш кўникмаларини шакллантириш зарур.

Интернет ёшлар диний эҳтиёжлари ва манфаатлари ривожидида ҳам ижобий, ҳам салбий таъсирга эга. Бир томондан анъанавий, соғлом диний эътиқод эгалари учун жамиятда диний маърифатни юксалтиришда асосий ёрдамчи вазифасини ўтаётган бўлса, иккинчи томондан дин ниқоби остидаги сохта, экстремистик, террористик рухдаги турли бузғунчи оқимлар ва миссионерлик фаолияти орқали турли мақсадларни кўзлаган янги диний ҳаракатлар учун асосий тарғибот-ташвиқот макони бўлиб қолмоқда. Ҳозирда мафкуравий таҳдидлар аҳолининг маълум бир қатламлари, айниқса, ёшларда ахлоқсизлик каби бузғунчи ғояларни сингдиришга уринишдек кўринишларда содир бўлмоқда.

Юртимизнинг 90%дан зиёд аҳолиси ислом динига эътиқод қилади. Муқаддас манба Қуръонда хабарларни текшириш ва аниқлаш зарурлиги ҳар бир мусулмон инсонга шарт қилинган. Бу борада Хужурот сураси, 6-оятда: *“Эй иймон келтирганлар! Агар фосиқ хабар келтирса, аниқлаб кўринглар, бир қавмга билмасдан туриб мусийбат етказиб қўйиб, қилганингизга надомат чекувчи бўлманглар”*<sup>14</sup> – дейилади. Ушбу оятнинг тафсирида уламолар бу каби вазиятда ўша маълумотнинг ҳақиқат экани маълум бўлгунича кутиш лозимлиги, уни шошиб қабул қилиш мумкин эмаслигини айтадилар.

Интернет сайтлари орқали ёшларга кучли салбий таъсир этувчи дин ниқобидаги ахборотларни қўйидагича таснифлаш мумкин:

1. Дин ниқоби остидаги экстремизм ва терроризм ғоялари.
2. Сиёсий, иқтисодий ва бошқа мақсадларни кўзлаган миссионерлик ва прозелитизм фаолияти.
3. Эзотерик, бутпарастлик мазмунидаги сохта диний ҳаракатларнинг фаолияти.
4. Ҳали аниқ текширилмаган, ўз исботига эга бўлмаган хужумкор сохта ахборотлар(дезинформация) ва бошқалар<sup>15</sup>.

Бугунги шиддатли глобаллашув даврида ёшларнинг онгу шуурини интернет орқали кириб келаётган бузғунчи ғоялар ва таъсирлардан самарали ҳамда ишончли ҳимоялаш тобора долзарб бўлиб бормоқда. Бу эса, ўз навбатида ёшлар келажагига бефарқ бўлмаган жамиятнинг барча аъзоларини янада хушёр ва огоҳ бўлишини, ёш авлоднинг ғоявий-мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш борасидаги олиб борилаётган ишлар кўламини янада кенгайтиришни талаб қилади. Кўплаб бузғунчи интернет сайтлари ва ижтимоий тармоқларга нисбатан таъқиқ қўйилиши мумкин. Албатта, ушбу тақиқлар орқали ёшларни интернет оламидаги турли кучларнинг хатарли таҳдидларидан, кераксиз ва салбий ахборотлардан сақлаш кийин. Бу тақиқлар фақатгина вақтинчалик чора сифатида

<sup>14</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Тошкент: “Нил-Нашр” нашриёт-матбааси, 2021. – 632 б.

<sup>15</sup> Қаранг: Ш.Тўраев ва бошқалар. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларни ахборот-психологик хуружларидан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари.- Тошкент, “Турон замин зиё”, 2016.

хизмат қилади. Президентимиз Ш.Мирзиёев такидлаганидек “...кўплаб болаларимиз китобдан узоқлашиб, кўп вақтини ижтимоий тармоқларда ўтказаётгани – бу ҳам бор гап. Албатта, биз интернет ва бошқа замонавий ахборот манбаларининг ўрни ва аҳамиятини инкор этмаймиз. Бугунги ҳаётимизни интернетсиз тасаввур қилишнинг ўзи қийин”<sup>16</sup>.

Ёшларни ахборот-психологик хуружлари таъсирига тушиб қолишининг олдини олиш хусусида қуйидагиларга эътибор қаратиш жоиз:

**Биринчидан**, ёшларни юксак маънавиятли этиб тарбиялаш зарур. Бу борада таълим тизимида ёшларнинг маънавий билимларини ошириш билан кенгайтириш керак. Тарихдан маълумки буюк алломаларимиз баркамол авлод тарбияси хусусида ўз асарларида, шеърларида, рубоийлари ва ғазалларида баён қилганлар. Бинобарин, буюк аждодларимиз, ота-боболаримиз қадимдан бебаҳо бойлик бўлмиш илму-маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шарти ва гарови деб билган. Қачонки ёшлар юксак маънавиятли, тарбияли ва билимли бўлсагина юксак мақсадга эришилади.

**Иккинчидан**, аҳолининг ҳуқуқий онги ва бу борада ахборот коммуникация технологиялардан тўғри фойдаланиш маданиятини ошириш мақсадга мувофиқ. Аҳоли билан ҳуқуқий тарғибот компьютер технологиялари ва маърифат бўйича ишларни амалга оширишда оммавий ахборот воситалари, шу жумладан, босма ва электрон оммавий ахборот воситалари, замонавий ахборот коммуникация технологияларидан самарали фойдаланиш, ушбу ишга фуқаролик жамияти институтларини ролини ошириш, уларга имконият ва шароит яратиш бўйича комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқиш. Мазкур ҳолатда оммавий ахборот воситаларининг барча тизимларида электрон оммавий ахборот воситалардан оқилона ва самарали фойдаланишга доир тушунчаларни мунтазам бериб боришни йўлга қўйиш зарур.

**Учинчидан**, ёшлар ўртасида китобхонликни кенг йўлга қўйиш. Бу борада миллий ва жаҳон адабиёти намояндаларининг етук асарларини саралаш, таржима

---

<sup>16</sup> Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б. 529.

қилиш зарур. Ҳаммамизга маълум китоблар - инсониятнинг энг яқин дўсти ва маслакдоши, бебаҳо мероси ҳисобланади. Унинг маънавиятимиздаги ва жамиятимиздаги ўрни ва аҳамияти ниҳоятда катта. Ҳаётимиз чироғи, барча эзгуликларнинг дояси, адолат куйчиси бўлган китоб ўқувчисини ҳар доим яхшиликка чорлайди, эзгу ишларга даъват этади. Шунинг учун ҳам аҳоли, хусусан, ёшлар ўртасида китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш уларнинг юқоридаги “хуружлар”га тушиб қолишини олдини оладиган муҳим восита ҳисобланади.

**Тўртинчидан,** интернетдан фойдаланиш маданиятини ошириш. Бугун кундалик турмушда, таълим жараёнида интернет технологияларига катта ўрин ажратилмоқда. Унда фойдали маслаҳатлар, ўқитиш дастурлари, қўлланмалар, электрон китоб ва дарсликларнинг мавжудлиги фойдаланувчиларнинг турли янгиликлардан тез хабар топиши, илмий ва тадқиқот ишларини олиб боришларида катта ўрин эганламоқда. Аммо тармоқдан фойдаланишнинг иккинчи томони мавжудки, у ҳам бўлса, интернет саҳифаларига наркотиклар, беҳаё фильмлар, ахлоқсиз ўйинлар, диний, ирқий дискриминацияни тарғиб қилувчи материаллар ва бошқа салбий, ёт ғоялардан иборат виртуал оламга кириб қолиши туфайли ёшлар ўртасида ўз жонига қасд қилиш, маданиятимизга зид ахлоқсиз беҳаё ишларга қўл урилаётгани сир эмас. Бунинг учун шу каби ёт ғояларнинг салбий тасирларини янада чуқурроқ ўрганиш ва бу борада тарғибот ва ташвиқот ишларини олиб бориш мақсадга мувофиқ.

**Бешинчидан,** ижтимоий тармоқлардан оқилона фойдаланишни ўргатиш зарур. Бугун мамлакатимизда ёш авлод орасида интернет тармоғи тарқатилишининг фаол тарзда ўсиши кузатилаётганлигини эътиборга оладиган бўлсак уларни тўғри йўлга йўналтириш устувор вазифалардан биридир. Аммо, мамлакат вебресурслари аҳоли талабларига тўлиқ жавоб бераётгани йўқ. Шу мақсадда интернет тармоғида миллий контентни ривожлантириш мақсадида ишларни жадаллаштириш, тармоқда миллий контентни барпо этишни рағбатлантириш ва ривожлантириш муҳим чораларни ишлаб чиқиш зарур.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги постмодерн жамиятда асосий зиддиятлар билим ва билимсизлик ўртасида юз беришини ҳисобга олсак, энг асосий устивор вазифамиз ёш авлодни диний-миллий қадриятлар асосида тарбиялаш, улар қалбида ўз халқи, Ватанига меҳр-садоқат туйғусини кучайтириш, уларнинг ҳар хил бузғунчи кучларнинг ахборот хуружларидан огоҳ этиш, муносиб ҳимоя қилишдан иборат бўлиши лозим.

Жамият хавфсизлигига раҳна солиш мақсадида мамлакат барқарорлигига путур етказишга интилаётган мафкуравий, ғоявий ва информацион хуружлар ва хатарларга қарши доимо огоҳ булиш ҳар бир ватандошимизнинг муқаддас бурчидир. Айниқса, ахборот хуружларининг олдини олиш, ахборот хавфсизлигини таъминлаш, мамлакатни ички ва ташқи хавфлардан ҳимоя қилишнинг муҳим омилларидан биридир.

## **ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Уматалиева Камила Тахировна*

*Институт педагогических инноваций, переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования. д.ф.п.н (PhD),*

*Шойкулов Бахтиёр Бакирович*

*Институт педагогических инноваций, переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования. к.ф.м.н Заведующий кафедры “Инновационные образовательные технологии”*

В условиях реформирования системы профессионального образования методическая работа имеет особую ценность. Формирование специалиста с современным мышлением, способного успешно самореализоваться в жизни, могут только преподаватели, обладающие высоким уровнем профессиональной компетентности. При этом в понятие «профессионализм» включаются не только предметные, дидактические, методические, психолого - педагогические знания и

умения, но и личностный потенциал педагога, в который входят система его профессиональных ценностей, его убеждения, его установки.

На развитие всего перечисленного выше направлена методическая деятельность в профессионально образовательных учреждениях. Важно, чтобы в ходе этой деятельности педагог стал самым активным субъектом процесса совершенствования. Уже одно это требует не эпизодического, а комплексного подхода к многогранной методической работе. Благодаря разработанным методическим работам в профессиональном образовании педагог приобретает и закрепляет за собой определенный статус, совершенствуя образовательный процесс, способствуя повышению качества образования в соответствии с квалификационным требованием подготовки специалистов. Методическая работа помогает педагогу избавиться от устаревших взглядов, делает его более восприимчивым к внешним изменениям, что в конечном итоге повышает его конкурентоспособность.

Главное в методической работе - оказание реальной, действенной помощи педагогу. Методическая работа в профессиональном образовании - это специальный комплекс практических мероприятий, базирующийся на достижениях науки, передового, педагогического опыта и направленный на всестороннее повышение компетентности и профессионального мастерства каждого преподавателя и мастера производственного дела. Этот комплекс ориентирован на повышение творческого потенциала педагогического коллектива в целом, а в конечном счете - на повышение качества и эффективности образовательного процесса: роста уровня образованности, воспитанности и развития учащихся.

Понятие «методическая работа», «методическая служба», «методист» появились менее ста лет назад, - в начале XX века, хотя материалы о зарождении организационных форм методической деятельности можно найти еще в XIX веке.

Анализ историко-педагогической литературы позволяет сделать вывод, что система методической работы имеет глубокие корни. Она всегда ставила и решала вопросы, исходя из потребностей системы образования и, прежде всего,



педагогов. Современная практика показывает, что вопросы, решаемые в рамках методической работы, сегодня оказываются практически теми же самыми, только чуть иначе поставленными: проблема совершенствования профессионального уровня педагогов была и остается важной социально-педагогической проблемой конца XX - начала XXI века; основной задачей методической работы и прошлых лет. На основании этого мы можем утверждать, что содержание методической работы и ее организационные формы не остаются стабильными, а постоянно видоизменяются от складывающейся ситуации в системе образования.

Как любая человеческая деятельность, методическая работа должна иметь свои цели и задачи. В работах разных авторов встречаются различные трактовки целей и задач методической работы.

Российский учёный Симонов В.П. утверждает, что главная цель методической работы - это непрерывное совершенствование квалификации педагога.

#### **Основные задачи:**

- повышение профессионального и культурного уровня педагогов;
- стимулирование его служебной и общественной активности;
- совершенствование педагогического и методического мастерства на основе идей педагогов - новаторов и творчески работающих преподавателей;
- совершенствование методов и стиля взаимодействия с учащимися;
- приобщение преподавателей к исследовательской деятельности.

Также выделены выделяет следующие основные функции и задачи методической службы:

- изучение и творческое понимание всех нормативных программно- методических документов;
- активное внедрение и использование достижений и рекомендаций психолого-педагогической науки;
- изучение и внедрение в практику достижений педагогов-новаторов;
- создание сплоченного коллектива единомышленников, бережно сохраняющих традиции образовательного учреждения;
- диагностика и прогнозирование результатов образовательного процесса;

- стимулирование инициативы и творчества членов педагогического коллектива и активизация его деятельности в исследовательской, поисковой работе;
- выявление и предупреждение недостатков, затруднений и перегрузки в работе педагогического коллектива;
- использование в воспитательно – образовательном процессе современных методик, форм, видов, средств и новых технологий;
- развитие мировоззрения, профессионально-ценностных и личностно-нравственных качеств педагогов.

Проанализировав все эти определения, можно сделать вывод, что основными задачами следует признать:

- информирование кадров;
- обучение;
- выявление, изучение, распространение опыта;
- методическое обеспечение;
- диагностика и прогнозирование образовательного процесса.

Если задачи методической работы можно сформулировать достаточно точно, то с определением содержания часто возникают определенные трудности. Эти трудности определяются, в первую очередь, характеристиками объекта управления.

Также необходимо отметить несколько содержательных моментов методической работы в зависимости от ситуации и производственных задач:

- работа с молодыми специалистами;
- деятельность по адаптации педагогических кадров;
- работа с педагогическими кадрами при вхождении в новую должность;
- организация работы с кадрами по итогам аттестации;
- обучение при введении новых технологий и инноваций;

На наш взгляд, это наиболее подходящая структура содержательной стороны методической работы. При четком определении целей, задач и содержания методической работы, не составит труда подобрать соответствующие формы, осуществления методической работы.

## АЛЛОМА АБУ БАРКОТ НАСАФИЙ “АЛ-ВОФИЙ” АСАРИНИНГ ИҚТИБОСИ

*Ахмедов Сайқал Абдурахмонович  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси таянч докторанти*

Абу Баркот Насафий барча шаръий илмларда китоблар ёзишлиги билан бир қаторда фикҳий асарлари билан алоҳида эътибор қозонган. Аллома яшаган давргача ҳам бу ўлкаларда ханафий фикҳи бўйича бир қанча мўтабар китоблар битилган. Улар орасида “мутунлар” номи билан алоҳида эътиборга сазвор бўлган асарлар ханафий фикҳида асос вазифасини бажариб келган. Алломанинг “ал-Вофий” асари ҳам мана шундай мўтабар асарлар орасидан жой олган. Шунингдек Имом Насафийнинг яна бир асари “ал-Канз” асари ҳам устозлар ва илм толиблар орасида илик самимият билан қабул қилинган. Ушбу асар аллома яшаб ўтган ва ҳозирги даврга қадар асосий қўлланма вазифсини бажариб келмоқда.

Ханафий фикҳида асос ҳисобланган матн китоблари бўлиб улар қуйидагилардан иборат:

1. “Мухтасар Қудурий”;
2. “Ал-Мухтор лил-фатва лил-Муvsилий”;
3. “Канзу ад-дақоқий лил-Насафий”;
4. “Ал-Виқоя лил-Махбубий”;
5. “Ад-Дурру ал-мухтор”;

Ханафий фикҳида биринчи бўлиб Имом Муҳаммад ибн Хасан китб ёзган. Олимнинг китоби ундан кийин келган олимларнинг фикҳий муътамад киоблари учун асос ҳисобланади.

Имом Муҳаммад “роҳимахуллоҳ”нинг фикҳий асарлари қуйидагилардан иборат улар зоҳирурривоят ҳам айтилади. Ушбу “Зоҳир-ривоят” олти асарни ўз ичига олади :

- “Ал-Мабсут”
- “Аз-Зиёдат”
- “Ал-Жомиъ ас-сағир”

- “Ас-Сияр ас-сағир”
- “Ал-Жомиъ ал-кабир”
- “Ас-Сияр ал-кабир”.

Имом Насафийнинг “ал-Канз” ва “ал-Кофий” асарларининг асоси бўлган “ал-Вофий” “ал-Ҳидоя ” асари услубида ёзилган.

Шуни алоҳида айтиб ўтиш жоизки, “ал-Канз” асари ёзилишида олимлар: “агарда ал-Вофий бўлмаганида ал-Канз” китоби ҳам бўлмас эди, деган эътирофни келтиришади.

---

## PSIXOLOGIYADA SHAXS FAOLIYATI VA UNING TADBIQ ETILISHI

*Nazarova Guljaxon Akramovna  
Toshkent viloyati Bo'ka tumani 33-maktab amaliyotchi psixologi*

Ma'lumki, inson o'z tabiati jihatidan faol (ya'ni har doim bir maqsad asosida harakat qiladigan) mavjudotdir. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlari uchun turli tuman faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Faoliyat doimo organizm bilan muhitning o'zaro bir-biriga ta'sir etib turishining ifodasidir. Faoliyat deganda tirik organizmni ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faolliги tushuniladi.

Odam faoliyati hayvonlarning xatti-harakatlaridan tubdan farq qiladi. Hayvonlarning faolliги ularning nerv sistemasi va psixikasining rivojlanganligiga qarab birmuncha murakkab bo'lishi mumkin. Ammo ularning hayoti har qanday hollarda ham tashqi borliqning talabiga organizmning biologik moslashishi bilangina chegaralanadi. Odamning xulq atvori, faoliyati esa tamomila boshqacha xarakterdadir. Inson hayvonlar xatti harakatlaridan farq qilib, avvalo ijtimoiy xarakterga egadir. Inson o'zining sa'yi harakatlarini ilk yoshidanoq, butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga yo'naltirib boradi. xatti harakatlarning bu turi shu qadar o'ziga xosli, uning ifodalash uchun maxsus termin faoliyat termini qo'llaniladi. Inson faoliyatiga xos bo'lgan

xususiyatlardan yana biri, u bilish jarayonlari va iroda bilan chambarchas bog`liq bo`ladi, ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas. Faoliyat kishining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligi bo`lib hisoblanadi.

Inson faoliyatining ma`lum motivlari, maqsad va amalga oshiruv usullari bo`ladi. Inson faoliyati ma`lum motivlar asosida yoki motivlar uchun bajariladigan, ongli suratda tug`ilgan extiejlar inson xatti-harakatini asosiy motivlaridir.

Motiv bu birinchidan insonni faoliyatga undaydi, ikkinchidan o`ziga xos jihatlarni namayon etadi va maqsadga erishish uchun zarur yo`l va usullarni tanlashga yordam beradi. Motivlarga ehtiyojlar, qiziqishlar, emotsiya va hislar, e`tiqod va ideallar, ustanovka va odatlar kirishi mumkin. Faoliyat tizimini quyidagi sxemada aks ettirish mumkin. Kishining o`z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol muayyan maqsadga yo`naltirgan jaraeni sifatida alohida ajralib turadi.

Extiejlar kelib chikishiga va predmetiga ko`ra farqlanadi:

1. Tabiiy extiejlar - bu insonning o`zini va avlodini xaetini saqlab qolishga qaratilgan faolligida namoen bo`ladi. Bularga oziklanish, uyquga extiej, nasl qoldirishga bo`lgan ehtiyoj.

2. Madaniy ehtiyoj - odamning insoniyat madaniyati maxsuliga bog`liq bo`lgan faolligida namoen buladi. Ularning bog`lanishi insoniyat tarixining boshlanishiga borib taqaladi. Madaniy ehtiej ob`ektiv bo`lib, tabiiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan predmetlar, vositalar kiradi. Predmetga ko`ra moddiy va ma`naviy ehtiejlar bo`ladi.

1. Moddiy ehtiyojlar - kishining moddiy ma`daniy predmetlarga vositalarga bo`lgan bog`liqligida namoen bo`ladi. Bular ovqatlanishga kiyinishiga uy-joyga maishiy turmush ashyolariga va boshqalarga ehtiyoj sezilishi.

2. Ma`naviy ehtiyoj ma`naviy madaniyatni o`zlashtirib olishda va yaratishda namoyon buladi. Ma`naviy ehtiejlarga o`qish, ilm, san`at, muzika tinglash, kinofil`m, teatr va shu kabilar kiradi. Ixtiyoriy (ongli irodaviy) harakatlarning ixtiyorsiz (ongsiz impul`siv) xatti-harakatlardan asosiy farqi kandy motivlar asosida amalga

oshirilganligiga bog`liq. Ehtiyoj asosida odamda faoliyatning motivlari ya'ni muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog`liq bo`lgan ichki-turtki kuchlar paydo bo`ladi. Shu boisdan motiv odamni faoliyatga undovchi sababdir. Motivlar bir-biridan ehtiyoj turlariga qarab hamda ijtimoiy xarakteriga ega bo`lishiga qarab farqlanadi. Anglash darajasiga qarab esa anglangan qiziqishlar ishonch intilish xavas ideal kabi va anglamagan, mayl, ishqibozliklar bo`lishi mumkin. Odam qandaydir motivlar asosida ma'lum bir faoliyatga kirishar ekan, ko`zlangan maqsadga erishmaguncha harakat kilaveradi. Maqsadga erishilganligidan so`ng faoliyat tugallanadi. Maqsad bu odamning biron ishni bajara turib nimagadir intilishidir.

Faoliyat maqsadi deganda biz ana shu faoliyat oxirida qo`lga kiritiladigan natijani tushunamiz. Faoliyat voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday shaklidirki, u orqali tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir ko`rsatadi. Fiziologlar K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, U.A.Asratyanlarning tadqiqotlari muskullarining ishi bevosita sa'i harakat vazifalari bilangina emas, balki hamisha sa'i harakat ruy berayotgan shart sharoitlar bilan ham boshqarilishini ko`rsatadi. Sa'yi harakatlarning bajarilishi uzliksiz ravishda nazorat qilib va uning natijalari harakatining maqsadi bilan taqqoslangan holda to`g`irlab boriladi. Sa'yi harakatlarni boshqarish teskari aloqaga binoan amalga oshiriladi. Sezgi a'zolari ana shunday aloqa vositasi, narsalar va sa'i harakatlarning muayyan idrok etiladigan va harakat mo`ljallari, belgilari axborot manbai bo`lib xizmat qiladi. Teskari aloqaning bunday shaklini P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atadi.

Shunday qilib oshyoviy (yoki boshqa xildagi tashqi) harakatning bajarilishi ma'lum bir sistemaga oid sa'yi-harakatlarni amalga oshirish bilangina cheklanmaydi. Muqarrar ravishda sa'yi-harakatlarning joriy natijalari harakatlar ob'ektining xususiyatlariga muvofiq tarzda sa'yi-harakatlarni sensor (hissiy) nazorat qilishni o`z ichiga oladi. Miyaga tashqi muhitning holati, unda sa'yi - harakatlar qanday ro`y berayotganligi va uning natijalari haqida axborotni etkazib turadigan hissiy arientirlarning o`zlashtirishi ana shu jarayonning negizi hisoblanadi. Bo`lg`usi harakat modellari (sa'yi-harakat programmasi) va uning natijasi maqsadining programmasini miyada ushbu harakatning o`zini oldindan hosil qiladigan andozalarini fiziologlar

“harakat aktseptori” va oldindan aks ettirishi (P.K.Anoxin) harakatlantiruvchi vazifa va bo`lg`usi ehtiyoj andozasi (N.A.Bernshteyn) zaruriy mohiyatning va “kelajak andozasi” deb atadilar. Rejalashtirish xatti- harakatlari nazorati va boshqaruvchi qator fiziolog, psixologlar tomonidan – P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, E.Astrotyan va boshqalar tomonidan aniqlangan xatti- harakat qismlari va ularning vazifalarini quyidagi sxemada ko`rish mumkin

Inson faoliyati ayrim hollarda tashqi tomondan ifodalansa (harakatlarda, yurish-turish va hokazolarda) boshqa hollarda esa u ichki harakatlarga ega bo`ladi. Ana shu nuqtai nazardan sa`yi - harakatlarini ikki turkumga ajratish mumkin: a) tashqi (real, predmetli, jismoniy amaliy, motor) harakatlarga; b) ichki; v) jismoniy, ruhiy, psixik, aqliy, intellektual sa`yi - harakatlar. Tashqi, real (predmetli) sa`yi - harakatlardan ichki, timsoliy, sa`yi-harakatlarga ko`chirilishi o`tish jarayonini interizatsiya (ma`nosi, ichki tarzga aylanish) deb atashadi.

Interiorizatsiya tufayli kishi psixikasi ma`lum bir vaqt ichida uning nazariy e`tiborida bo`lmagan narsalarning timsolida foydalanish qobiliyatiga ega bo`ladi. Akliy amallarning tashqi predmetlari bilan bo`ladigan sa`yi - harakatlar (amallarga) ko`chirilishiga ichki psixik faoliyatning eksteriorizatsiyalashuvi (ma`nosi, ichkini tashqi tarzga aylanish) deb qarash mumkin.

Kishi faoliyatining tashqi (jismoniy) va ichki (psixik) jihatlari chambarchas bog`liqdir. Tashki jihat odam tashqi olamga ta`sir ko`rsatish uchun qiladigan sa`yi-harakatlar motivlashtiruvchi, bilimiga undovi va boshqaruvi ichki psixik faoliyat bilan belgilanadi va yo`naltiriladi.

#### 4. Faoliyatning asosiy turlari. Pedagogik faoliyat xaqida tushuncha.

Faoliyat hamisha kishining boshqa odamlar munosabati sistemasida yuz beradi. U boshqa odamlarning yordami va ishtirokini taqoza etadi, ya`ni birgalikdagi faoliyat xususiyatiga ega bo`ladi.

Faoliyatning quyidagi turlari mavjud:

1. O`yin; 2. Mehnat; 3. Ta`lim.

Bola faoliyatining oddiy shakllarini o`zlashtirish uchun dastlabki shart - sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o`yin faoliyati hisoblanadi. O`yin faoliyati



bilan organizmda kuch-quvvat almashinuvi o`rtasidagi bog`lanish o`yinga nisbatan mayillik tug`ilishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, o`yin bolalarda ham o`z faoliyatini ruyobga chiqarish shakli, hayot kechirish va faoliyat ko`rsatish shakli bo`lib xizmat qiladi. Faoliyatga bo`lgan ehtiyoj uning ko`zg`atuvchisi bo`lsa taqlid qilish va tajriba esa manbai hisoblanadi. Faoliyatning alohida turi bola hayotida sodir bo`ladigan vaqt ham etib keladi. Bu maqsadi bevosita muayyan axborotni harakatlarni xulq-atvor shakllarini o`zlashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Sub`ektning o`rganishini o`ziga maqsad qilib olgan bunday o`ziga xos faoliyat ta`lim deb ataladi.

Ta`lim quyidagilardan tarkib topadi.

1. Bilim axborotni o`zlashtirilishi.
2. Faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topadigan usullar va harakatlarning o`zlashtirilishi malakadir.
3. Qo`yilgan vazifa va ilgari surilgan maqsadga mos keladigan usullar va jarayonlarni to`g`ri tanlash hamda nazorat qilish uchun ko`rsatilgan axborotdan foydalanish yo`llarining egallanishi-ko`nikmalar hosil qilinishidir.

Shunday qilib, ta`lim kishiining harakatlari muayyan bilimlar malakalar ko`nikmalarni o`zlashtirib olishga qaratilgan ong bilan idora qilingan joydagina yuz beradi.

Ta`lim o`ziga xos insoniy faoliyatdir. Bola faoliyati va xulq - atvorini ularning insoniyat ijtimoiy tajribasini o`zlashtirish sari yo`naltirishdan iborat jarayon o`qitish deb ataladi. Bola shaxsning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatadigan jarayon - tarbiya deb ataladi. Mehnat bu ma`lum bir ijtimoiy foydali moddiy va ma`naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo`naltirilgan faoliyat demakdir. Mehnat faoliyati kishining eng etakchi, asosiy faoliyatidir.

Kishilarning mehnat faoliyati o`z mohiyatiga ko`ra ijtimoiy hisoblanadi. U jamiyat extiyohlari bilan shakllanadi, belgilanadi yo`naltiriladi va boshqariladi.

## O'SPIRINLARDA DINIY ONG VA UNI SHAKLLANTIRISH

*Dusmuxeimedova Shoirra*  
*O'zXIA Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*  
*PhD, dotsent,*

*Yuldosheva Gavhar*  
*O'zXIA Din Psixologiyasi yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim jihatlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir. Barkamol inson ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek, jamiyatning-ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxs bo'lib, bunday shaxsni tarbiyalash bugungi kun talabidir.

Yoshlarga oid davlat siyosati ular hayotida alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, shaxsga xos xususiyatlarning shakllanishida o'spirinlik davri muhim hisoblanadi. O'spirinlik bu, insonning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, fuqaro va vatanparvarlik ma'naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir. Psixologiyada o'spirinlik odatda jinsiy yetilish davridan boshlanib, kattalikka qadam qo'yish bilan tugallanadigan rivojlanish bosqichi sifatida qaraladi.

O'spirinlikning eng muhim psixologik xususiyati bu, ular bu yoshda o'zlarining ichki dunyolarini kashf etadilar. Ular o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar hamda aqliy va jismoniy imkoniyatlarini qiyosiy baholay oladilar. Ularning yana bir xususiyati murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o'z qadr-qimmatini sezish kabi xislatlardir. Umuman, o'z-o'zini anglash o'spirin uchun quvonchli, hayajonli hodisadir. Ayni vaqtda bu his dramatik xavotirli kechinmalarga ham sabab bo'lishi mumkin. O'spirin kechinmalarida asosiy o'rinni uning kelajak haqidagi o'ylari egallaydi. O'spirinlar uchun yana bir muhim kechinma o'zining tashqi ko'rinishi haqidagi fikrlarni eshitishdir. Juda ko'pchilik o'spirinlar o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirishni xohlashadi. Tashqi ko'rinishlaridagi ozgina kamchilik ular

uchun “fojia” darajasiga ko’tariladi. Umuman, refleksiyaning o’sishi, o’z “men”iga qiziqishning ortishi barcha o’spirinlarga xos xususiyatdir. Lekin bu kechinmalar shaxs rivojlanishining qiyinchiliklari bo’lib, o’tkinchi xarakterga ega, umuman olganda o’spirinlik juda baxtli davr sifatida esda qoladi. O’spirinlarda refleksiyaning kechishi ko’pgina ijtimoiy, individual-tipologik, biografik omillarga bog’liqdir. Bu davrda o’spirin shaxsiga e’tibor har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi va ularning ota-onalaridan esa katta mas’uliyat talab etadi. O’spirinning diniy ongi ham bu davrda o’ziga xos ko’rinishga ega bo’ladi.

Diniy ong ijtimoiy ong shakli sifatida, ijtimoiy mavjudotni diniy shaxs sifatida shakllantiradi. Diniy ong muayyan diniy tasavvurlar, obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida shakllanadi. Ijtimoiy ongning tarkibiy elementlarining ishlashi va o’zaro ta’sirining tahlili shuni ko’rsatadiki, din barcha sohalarga kirib boradi, barcha elementlarga aniq ta’sir ko’rsatadi, butun dunyoga, oilaga, jamiyatga nisbatan munosabatni belgilaydi.

Eng keng tarqalgan shaklda, din - jamiyat, guruh, shaxs ma’naviy hayotining bir sohasi, amalda esa dunyodagi ma’naviy mahorat va ma’naviy ishlab chiqarish sohasining alohida yo’lidir. Butun jamiyatga nisbatan din ijtimoiy tizim bo’lib, faoliyatni amalga oshiradigan murakkab tuzilma sifatida shakllanmoqda.

Din ong o’spirinda dunyoqarashni shakllantirishni (butun dunyoni tushuntirish va undagi shaxsiy hodisalar va jarayonlarni tushunish, dunyodagi hissiyot va in’ikosda aks ettirish), xotirjamlik (hissiy qabul yoki rad etish), dunyo munosabatlarini baholashni o’z ichiga oladi. Diniy ong o’spiringa shaxs sifatida mavjudligiga ma’no berish, kelajakda yaxshiroq hayotga umid qilishni, azob-uqubatlardan, baxtsizlikdan qutilishni, nevrozdan xalos bo’lishga va boshqalarni shakllantirishda yordam beradi.

Diniy ongning o’ziga xosligi shundaki, u hissiyotga asoslangan imondir va bu, o’z navbatida, o’spiringa kundalik hayotda qabul qilingan xatti-harakatlarga va qonun-qoidalarga rioya qilishga, hamdardlik (empatiya)ga, o’z his - tuyg’ularini nazorat qilishga yordam beradi, bu esa tegishli urf-odatlarini va marosimlarni bajarishida ko’zga tashlanadi. Diniy ongning asosiy mazmuni - bu boshqa haqiqatda bo’lgani kabi, butun olamni yaratuvchisi bo’lgan Xudoga ishonish va unga sig’inish, turli diniy an’ana va

qadriyatlarga rioya qilish orqali ilohiy haqiqat yo'liga kirish g'oyasiga asoslanadi. Bundan tashqari, diniy ong o'spirinlarda e'tiqod, imon, dindorlik, taqvodorlik hissini tug'diradi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, diniy ong inson ma'naviy borlig'ining bir qismidir. Diniy ongni turli davrlarda va turli holatlarda insonda xususan o'spirinlarda shakllantirish mumkin. Bu insonning diniy munosabatlar tizimiga kiritilishi va diniy g'oyalar, qadriyatlar va hissiy me'yorlarni qabul qilishi orqali sodir bo'ladi. Ko'pincha diniy ong oilaviy muhitning (oilada diniy ta'lim berish) va mahalliy atrof-muhitning ta'siri ostida, shuningdek, diniy rahbarlar va vazgo'ylarning ta'siri ostida shakllanadi. Diniy ong, ma'lum diniy g'oyalar va qadriyatlar, shuningdek, ma'lum bir din va diniy guruh asosida ham shakllanishi mumkin.

Yetarlicha diniy bilimlarning yetishmasligi yoxud, aksincha, haddan ortiq mutaassiblik o'spirin diniy ongiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ko'pincha diniy ong tashqi holatlar va hatto majburlash, bosim ostida ham shakllantiriladi. Bu mavjud davlat dinini, shaxs e'tiqodini va boshqa dinlarning mavjud bo'lish huquqini e'tirof etmasdan ularning izdoshlarini dushman va xiyonatkor deb e'lon qilishda va boshqa salbiy holatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ba'zan odam ichki inqiroz (yoki nevroz) va keyingi hissiy, ruhiy kechinmalar natijasida dinga ehtiyoj sezadi. O'spirinlarga xos psixologik xususiyatlarni inobatga oladigan bo'lsak bunday holat ularda ko'proq kuzatiladi. Diniy e'tiqodga erishish va uni saqlab qolish jarayoni diniy tajriba deb nomlanadi. Ana shunday diniy tajribaning yetishmasligi o'spirin ongiga osongina yot g'oya va qarashlarning singdirilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'spirinning shaxs sifatida shakllanishiga, jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta.

Yuqoridagilardan bugungi kunda diniy ong va uni shakllantirish masalasi naqadar dolzarb masalalardan ekanligini ko'rish mumkin. O'spirinlarda mustahkam e'tiqod, sog'lom diniy ongni shakllantirish ota-onalar, pedagoglar, psixologlar, dinshunoslar oldiga muhim vazifalarni qo'yadi. Zero, farzandlar yurtning kelajagi va ertangi kunning chinakam umid nishonalaridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.R. Xalilova. Yosh va pedagogik psixologiya fanidan maruzalar matni - N.: “Navoiy”- 2005.-16-17- betlar
2. Veber M. Dinshunoslik sotsializmi - Moskva.”Inion Ras”-1985.-40-bet
3. Bella R. Din sotsiologiyasi. - Moskva.-1972.-265-bet.

---

## ЁШЛАРДА МУЛОҚОТ ВА МУОМАЛА КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

*Исмойилова Нафиса Исройиловна*

*Самарқанд вилоят юридик техникуми психологи*

**Аннотация.** Ушбу мақола ёшларда мулоқот ва муомала кўникмаларини ривожлантиришнинг психологик асосларига қаратилган бўлиб, инсоннинг моҳияти ижтимоий-сиёсий муносабатлар йиғиндиси эканлиги ва инсоннинг жамият аъзоси сифатидаги ўрни, инсонда жамиятда дахлдорлик сифатларининг бўлиши, ҳар бир кишининг мулоқот ва муомала жараёнида кўзга кўринмас ришталардан фойдаланиш, таълим-тарбия жараёнида самарага эришиш учун барчаси психологик билимларга таянган ҳолда амалга ошириш каби муҳим вазифаларни ўз ичига олган.

**Таянч иборалар:** Таълим, тарбия, билим, кўникма, малака, масъулият, мулоқот, муомала, ғоя, урф-одатлар, садоқат, маданият, комиллик, бағрикенглик, сабр-тоқат, маънавият, маърифат.

Кишининг кундалик ҳаётининг асосий қисми меҳнат қилиш, таҳсил олиш ва бошқа жамоат ишларини бажариш билан ўтади. Ҳар бир инсон ўзининг ташқи кўриниш, маънавий-ахлоқий гўзаллигига эга, шу билан бир қаторда мулоқот ва муомала ҳам муҳим таъсир этувчи воситадир.

Мулоқот— инсонлар ўртасида биргаликдаги фаолият эҳтиёжларидан юзага келадиган боғланишлар ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир. Мулоқот жараёнида ахборот алмашилиши яъни коммуникатив томон муҳим ўрин тутди ва у мулоқот давомида мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок этишларида намоён бўлади. Киши биргаликда фаолият кўрсатаётганда заруратга кўра бошқа одамлар билан бирлашиши, улар билан мулоқотга киришиши, яъни алоқа ўрнатиши, ўзаро ҳамжиҳатликка эришиши, керакли ахборот олиши ва жавоб тариқасида ахборот бериши лозим. Мулоқот жараёнидаги ўзаро биргаликдаги ҳаракат, яъни нутқ жараёнида фақат сўзлар билан эмас, балки ҳаракатлар, имо-ишоралар билан ҳам бир-бирини тушунишдан иборат. Демак, мулоқот-шахслар орасидаги нутқли ёки нутқсиз ўзаро алоқа жараёнидир.

Муомала - мулоқотнинг таркибий қисми бўлиб, шахсий хулқ-атворлар, мулоқотнинг ёқимли ёки ёқимсиз бўлиши одамларнинг ўзаро муомалаларига боғлиқ бўлади. Муомала мулоқотнинг сифат даражасини белгилайди ва у ҳис-туйғулар, кечинмаларнинг ифодаланишидир.

Муносабат – мулоқот иштирокчилари ўртасида алмашилган воқеа-ҳодисаларга ҳар бир кишининг ўзига хос ёндашувидир. Яъни, мулоқот ва муомала жараёнидан сўнг маълум бир хулосаларга келинади.

Инсоний муносабатлар шундай ўзаро таъсир жараёнларки, унда шахсларо муносабатлар шаклланади ва намоён бўлади. Бундай жараён дастлаб одамлар ўртасида рўй берадиган фикрлар, кечинмалар, ташвишу – қувончлар алмашилувини назарда тутди. Одамлар мулоқотда бўлишгани сари, улар ўртасидаги муносабатлар тажрибаси ортгани сари улар ўртасида умумийлик, ўхшашлик ва уйғунлик каби сифатлар пайдо бўладикки, улар бир-бирларини бир қарашда тушунадиган ёки «яримта жумладан» ҳам фикр аён бўладиган бўлиб қолади, айрим ҳолларда эса ана шундай мулоқотнинг тиғизлиги тескари реакцияларни — бир-биридан чарчаш, гапирадиган гапнинг қолмаслиги каби вазиятни келтириб чиқаради. Масалан, оила муҳити ва ундаги муносабатлар ана шундай тиғиз муносабатларга киради. Фақат бундай тиғизлик оиланинг барча

аъзолари ўртасида эмас, унинг айрим аъзолари ўртасида бўлиши мумкин (она-бола, қайнона-келин ва ҳ.к.).

Мулоқот қонуниятларини билиш ҳамда муомала ўрнатиш малакалари ва кўникмаларини ривожлантириш бугунги кун ёшлари учун, айниқса муҳим. Характернинг таркиб топишида мулоқот жараёни одамлар ўртасидаги ўзаро муносабатнинг энг муҳим шarti ҳисобланади. Одамнинг ақли, иродаси, тарбияси, назокати ва шу кабиларнинг барчаси мулоқот туфайли шаклланадиган хислатлардир. Шу билан бирга, бош оғриғи, асаббузарликлар, юрак ва бошқа турли касалликлар, шунингдек, ичкиликка, гиёҳванд моддаларга ружу қўйиш, ҳатто ўз жонига қасд қилиш кабилар ҳам мулоқотнинг натижасидир. Мулоқот жараёнида – унинг маданияти деганда, нима тушунилади? Мулоқот маданиятига биринчидан, ўз-ўзини билиш ва бошқа одамларни тушуна олиш қобилияти, яъни уларнинг психологик хусусиятларини тўғри баҳолай олиш, иккинчидан, уларнинг хулқи ва ҳолатларига нисбатан мос муносабат билдира олиш, учинчидан, ҳар бир одамга нисбатан шахснинг индивидуал хусусиятларига энг маъқул келадиган мулоқот шакли, усулларини танлай билишдир. Мулоқот энг аввало, одамни одам томонидан идрок қилишидан бошланади, унда дастлабки ўзаро баҳолаш амалга оширилади. Бу жараёнда одам ҳақидаги маълумот, идрок этилаётган одамнинг ҳаётий тажрибаси, эмоционал муносабатлар муҳим роль ўйнайди.

Ёшлар ўртасида бир-бирларини тушунишнинг етишмаслиги кўпинча мулоқотдаги тўсиқ – шахслараро муносабатларнинг бузилишига олиб келади. Ҳамма одамлар ҳам ёшлигидан бошқа одамларнинг эмоционал ҳолатларини ҳис қилиш, улар билан ҳисоблашиш, тушунишга ўргатилавермайди. Шунинг учун ҳам кўпчилик ҳолатларда, ҳатто бир-бирига энг яқин одамлар ҳам бир-бирига нохушликларни келтириб чиқариши мумкин. Албатта, бундай ҳолат бир-бирига ёмонлик ва ёвузлик қилиш ниятида эмас, балки, шунчаки бир-бирини тушунмасликлари учун содир этадилар. Юксак онгли, маданиятли шахсгина бошқаларни тўғри тушуниши ва мулоқот жараёнини тўғри ташкил этиши мумкин. Мулоқот давомида суҳбатдошнинг ташқи қиёфаси, кийиниши, ўзини тутиши, ҳиссий ҳолати, овози мулоқот давомида суҳбатдошга жуда кўп маълумотни



беради. Суҳбат давомида яхши тинглашни билиш ҳам, инсоннинг қандай суҳбатдош эканлигини белгилайди. Ўзаро муносабатларга киришаётган томонлар муносабатдан кўзлайдиган асосий мақсадлари — ўзаро тил топишиш, бир-бирини тушунишдир. Яъни, мулоқот фаолияти шундай шарт-шароитки, унда ҳар бир шахснинг индивидуаллиги, бетакрорлиги, билимлар ва тасаввурларнинг хилма-хиллиги намоён бўлади ва шуниси билан у инсониятни асрлар давомида ўзига жалб этади.

Ҳар қандай фаолиятдан зерикиш, чарчаш мумкин, фақат одам мулоқотдан, айниқса, норасмий самимий, бевосита шаклидан чарчамайди, яхши суҳбатдошлар доимо маънавий жиҳатдан бир-бирларини суҳбат давомида рағбатлантирадilar. Мулоқот фақат инсонлар ўртасидагина амалга оширилиши мумкин. Инсон боласи айнан бошқалар билан мулоқотда ва муносабатда бўлиш жараёнида шахсга айланиб боради, ижтимоий тажриба ва маданиятни эгаллаб боради.

Ҳар бир кишининг ўз «Мен»и атрофдагилар билан бўладиган мулоқот жараёнида шаклланади. Шахснинг ҳаёт йўллари аввал оилада, боғча, мактаб, институт, ишхона, кексалар орасида, яъни гуруҳ ва жамоаларда ривожланади. Шу сабабли психологик таъсир кўрсатиш суҳбатдошининг ҳиссиётлари, фикрлари ва хатти-ҳаракатларига қандай таъсир этаётганлиги билан муҳимдир. Мулоқот давомида психологик таъсирнинг уч воситасини кузатиш мумкин. Биринчидан, сўз орқали муомала жараёнидир. Монологик нутқ ва диалогик нутқда одам ўзидаги барча сўзлар захирасидан фойдаланиши, энг таъсирчан сўзларни топиб, суҳбатдошига таъсир кўрсатиши лозим бўлади. Иккинчидан, нутқни безовчи, уни кучайтирувчи ёки сусайтирувчи овоз оҳангидир. Бунга нутқнинг баланд ёки паст товушда ифодаланаётганлиги, артикуляция, товушлар, тўхташлар орқали суҳбатдошнинг қай даражада самимийлигини билиш мумкин. Очиқ юз ва дадил овоз билан «Сизга албатта ёрдам бераман!», деб айтилган фикрга тез ишониш мумкин. Учинчидан, нутқсиз- мимика (имо-ишора), пантомимика, қарашлар, бир-бирини бевосита ҳис қилиш тушунилади. Уларнинг барчаси мулоқот жараёнини янада кучайтириб, суҳбатдошларнинг бир-бирларини яхшироқ билиб олишларига ёрдам беради. Масалан, яқин кишингиз сизга қарамасдан, чехрасини очмасдан

атрофга аланглаб, «Кўришганимдан хурсандман», деб айтса ишончли бўлмайди, албатта. Суҳбат давомида инсонлар кўпроқ ташқи қиёфадаги имо-ишораларни таъсири кучли эканлигини таъкидлаш лозим бўлади. Кейинчалик суҳбат охирида суҳбатдошига нисбатан муносабатини ўзгартириши мумкин. Албатта, инсоннинг фикр-мулоҳазасига қараб маълум бир муносабат пайдо бўлади. Халқ ичида юрган бир мақолни келтириб ўтиш жоиз бўлади. “Ташқи кўринишга қараб кутиб олишади, фикрга қараб кузатишади”. Мулоқотнинг қандай кечиши ва кимнинг кўпроқ таъсирга эга бўлиши шерикларнинг ролларига ҳам боғлиқ.

Мулоқот ёшларнинг жамиятда ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятларининг ички психологик механизмини ташкил этади. Мулоқотнинг инсон ҳаётидаги аҳамияти беқиёсдир. Инсон боласи айнан бошқалар билан мулоқотда, муносабатда бўлиш жараёнида шахсга айланиб боради. Мулоқот орқали инсон ижтимоий тажриба ва маданиятни эгаллаб боради. Янги туғилган инсон бошқалар билан мулоқотда бўлиш имкониятидан маҳрум бўлса, у ҳеч қачон шахсга айлана олмайди, яъни у ўз психик тараққиёти бўйича орқада қолиб кетади. Зеро, инсон психик тараққиёти мулоқотдан бошланади. Мулоқотсиз инсоният жамияти бўлиши мумкин эмас. Айнан мулоқот ҳамкорликда фаолият юритувчи индивидлар жамоасини шакллантиради, ҳамкорликдаги фаолият режасини тузиш ва уни руёбга чиқариш учун индивидлар ўртасида мулоқот амалга оширилиши шарт. Мулоқот воситасида ҳамкорликдаги фаолият ташкил этилади ва амалга оширилади, муносабат ўрнатилади, ривожлантирилади. 1938 йил Ричард Бард ўз хоҳиши билан Антарктида музликларида 6 ой танҳо қолади. Бир томондан у тажриба натижаларига қизиқса, иккинчи томондан кундалик ҳаётнинг ғала-ғовуридан биров дам олишни истаган эди. Кейинчалик у мазкур даврни қуйидаги сўзлар билан эслайди "Бу ердаги ҳаётим давомида бора-бора ҳар бир ҳаракатим, ҳар бир ишим тобора мазмунсиз, мантиқсиз, мақсадсиз бўлиб бораётгандай эди. Хавф-хатарлардан кўркмайдиган одам бўлсам-да, негадир бу ерда томнинг босиб қолишидан хавфсирай бошладим. Овқатланишимда мунтазамлик йўқолди, ювинмай қўйдим". Инсондаги бундай руҳий ҳолатнинг юзага келиши мулоқот эҳтиёжининг қондирилмаганлигидандир.

Хулоса шуки, ҳар бир инсон жамиятда иштирок этар экан, албатта, бошқалар билан ҳамкорлик қилишда муомала маданияти ва санъатига эга бўлиши керак. Бу вазифа ёшларни муомала ва мулоқот этикасига ўргатишни ҳар қачонгидан ҳам долзарб қилиб қўймоқда. Мулоқотга киришиш ижтимоийлашув жараёнида барча сифатлардан олдинроқ шаклланадиган қобилиятлардан бири саналади. У табиий ва ҳаётда ҳар дақиқада дуч келинадиган жараёнaddir. Бола тили жуда яхши чиқиб улгурмай, атрофидагилар билан фаол мулоқотга кириша бошлайди. Бола улғаяр экан, йиллар ўтган сари онгли, ақлли, ҳар бир гапини ўйлаб гапирадиган бўла бошлайди. Бу унинг жамиятда шахс сифатидаги мавқеини белгиловчи воситадир.

Ҳар бир инсоннинг ижтимоий тажрибаси, унинг инсоний қиёфаси, фазилатлари, ҳатто нуқсонлари ҳам мулоқот жараёнининг маҳсулидир. Ҳар қандай мулоқотнинг энг содда вазифаси – суҳбатдошларнинг ўзаро бир-бирларини тушунишларини таъминлашдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ш.М.Мирзиёев “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” “Ўзбекистон” 2019 йил.
2. Ғозиев Э.Г. Муомала психологияси. Т.,-2001.
3. Тожиев.Ё., Маллабоев.М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т. Иқтисодиёт, 2006.
4. Расулов.Р, Мўйдинов. Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. Тошкент 2011
5. Миртожиев.М, Маҳмудов.Н. Тил ва маданият. Тошкент. Ўзбекистон 1992.

## ТАЪЛИМНИ МУВАФФАҚИЯТЛИ АМАЛГА ОШИРИШДА ХОТИРА ЖАРАЁНИНИНГ ЎРНИ

*Каримова Шахноза Камоловна  
Педагогик инновациялар, касб-хунар таълими бошқарув ҳамда  
педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини  
ошириш институти катта ўқитувчиси*

Ҳар томонлама етук, жаҳон стандартларига тўла жавоб бера оладиган, рақобатбардош кадрларни тайёрлаш давлатимиз ва жамиятимиз томонидан илгари сурилаётган энг муҳим мақсадлардан бири ҳисобланади. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун эса, ёш авлодни ҳар томонлама етук бўлишларини таъминлаш ҳам устувор вазифа саналади.

Ҳозирги кунда таълим тизими соҳасида тубдан ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев “Таълим-тарбия соҳасига янгича ёндашув – барқарор тараққиёт гарови” деб айтиб ўтганидек, мустақил Ўзбекистоннинг бугунги ва эртанги кунини таъминлайдиган баркамол шахсни тарбиялаш ва уларни жаҳон стандартлари талабларига жавоб берадиган тарзда тайёрлаш ўқитувчига боғлиқ. Хотира – шахс психик ҳаётини белгилаб берувчи хусусиятдир. Унинг аҳамияти ўтмиш воқеаларини қайд этиш билан чекланмайди. Ахир ҳозирги замондаги ҳеч қандай ҳаракатни жараёнлардан ташқарида тасаввур қилиб бўлмайди; энг оддий психик актнинг содир бўлишида ҳар бир элементни кейингисига боғлаш учун эса сақлаб қолиш катта аҳамиятга эга. Бундай боғланишга лаёқатсиз бўлган инсоннинг ривожланиши мумкин эмас. Фақат хотира инсонийлик маданиятининг йўқолиб кетмаслигига, тафаккуримизнинг тадбиқ этилишига ва туйғуларимизнинг кечишига кўмак беради. Бош мия пўстлоғида пайдо бўладиган ташқи олам образларисиз йўқолиб кетмайди. Улар узоқ вақт давомида сақланиб қоладиган из қолдирадилар. Психикамиздаги хотира уларнинг захираси бўлиб хизмат қилади. Унда кечадиган барча жараёнлар мнемик жараёнлар деб аталади (юнончадан «мнема» - хотира).

Шундай қилиб, хотира – бу инсон томонидан ўтмиш тажрибасини эса олиб қолиш, сақлаш ва кейинчалик эслаш жараёнидир. Инсон ҳаётида хотиранинг

ўрни бекиёсдир. Хотирасиз инсон «абადий гўдаклик ҳолатида» қолган бўлар эди (И.М. Сеченов). С.Л. Рубинштейн таъкидлаганидек: «Хотирасиз дақиқа мавжудотлари бўлар эдик. Ўтмишимиз келажак учун ўлик бўларди. Ҳозирги замон кечмишига кўра ўтмишда бадар йўқоларди»<sup>17</sup>. Хотиранинг психик жараён сифатида ўзига хос хусусияти унинг атроф-олами бевосита акс эттиришга йўналмаганлиги, моддий жисмлар ва ҳодисалар билан иш эритмаслигидан иборат. Жисмлар оламини акс эттириш идрок ва тафаккурда амалга оширилади. Хотира қабул қилинган образ ва тушунчаларни «иккинчи акс эттириш» билан иш кўради.

Ҳар бир билиш жараёни узлуксиз хотирага айланади, ва ҳар бир хотира бирор бир бошқа нарсага айланади. Ҳар бир психик жараён бошқа жараённи амалга оширишнинг шарти бўлиб хизмат қилади (ёки ўша жараённинг кейинги босқичи). Бу унинг «иккиламчи» маҳсулотга айланиб, тасаввурда амалга ошиш қобилиятига эга бўлишини, жараённинг кейинги ривожланиши учун таянч вазифасини ўташи мумкинлигини билдиради.

Хотиранинг кейинги хусусияти унинг бир йўналишга: ўтмишдан келажакка қаратилганлигидир. Инсон хотирасининг асосий ишлаш механизми унинг келажакка йўналтирилганлигидир. Хотиранинг асосий вазифаси унинг келажакка хизмат қилишидир. Ўтмишни акс эттириш келажакда натижага эришишнинг воситаси сифатида намоён бўлади.

Хотира хусусиятларининг орасида унинг қуйидаги табиий хоссалари ажратилади:

- ёдда сақлаш тезлиги – ахборотни хотирада сақлаб қолиш учун зарур бўлган такрорлашлар сони;
- унутиш тезлиги – эсда қолганларнинг хотирада сақланиш муддати;
- ёдда сақлаш ҳажми – инсоннинг маълум вақт ичида эсда олиб қолишга қодир бўлган жисмлар ёки далиллар сони;
- ўзлаштирилганларни ёдда сақлаш давомийлиги – инсоннинг зарур ахборотни маълум вақт оралиғида ёдда олиб қолиш қобилияти;

<sup>17</sup> Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2-х т. М., 1989. Т.1. Б.302.

- қайта тиклаш аниқлиги инсоннинг хотирада сақланиб қолган ахборотни аниқ сақлаш, асосийси эса, аниқ ишлаб чиқиш қобилияти;
- хотира шайлиги – талаб этилганларни дарҳол эсга тушириш малакаси.

Хотира қаерда сақланади? Минг йиллар давомида тиббиёт ходимлари хотиранинг сақланиш жойи–бош мия эканлигига ишонар эдилар. Ўтган асрда аввал хотирадан кўтарилган воқеалар ҳақидаги ахборотни ўтмиш қаъридан юзага чиқариш қобилияти учун жавобгар бўлган бош мия нуқталарини излаш ишлари бошлаб юборилган эди. Лекин мия қутиси қанча тадқиқ этилмасин, ахборот тўплаш ва сақлаш вазифасини бажарувчи ҳеч қандай соҳа аниқланмади. Маълум бўлишича, бу вазифани яхлит миянинг ўзи, унинг ярим шарлари бажаради.

Инсоннинг хотираси янги маълумотларни қабул қилишда муҳим жараён ҳисобланади. Маълум материални эсда олиб қолиш ҳаёт фаолияти давомида индивидуал, яъни шахсий тажрибани тўплаш билан боғлиқдир. Эсда олиб қолиш нерв тизимининг эгилувчанлиги, ўзгарувчанлиги кўзғатувчилар таъсирида ўзида гўё бир из қолдириш, сақлаш имконияти туфайли юзага келади. Ҳар қандай инсоннинг мияси эгилувчанлик хусусиятига эга бўлиб, унинг даражаси ҳар хил бўлади. Шахс хотирасининг сифати миянинг фаоллиги ва турли фаолиятга тўғридан-тўғри боғлиқ равишда ривожланади. Хотира, яъни эсда олиб қолиш, идрок қилинаётган нарсалардан ҳосил бўлган образлар ўртасида ассоциацияларнинг юзага келишидан иборатдир. Шу боис, инсон хотирасидаги ассоциациялар 3 турга ажратилади. Булар ёндошлик ассоциацияси, ўхшашлик ассоциацияси ва қарама қаршилик ассоциацияларидан иборатдир. Ёндошлик ассоциациясининг асосида вақт ва фазовий муносабатлар ётади. Бошқача қилиб айтганда, ёндошлик ассоциацияси бир неча нарса ёки ҳодисаларни айна бир вақтда ёки кетма- кет идрок қилишдан ҳосил бўлади.

Ҳозирги идрок қилинаётган нарса билан илгари идрок қилинган нарса ўртасида маълум ўхшашлик бўлса, бу нарсалар ўртасида ўхшашлик ассоциацияси ҳосил бўлади. Ҳозирги идрок қилинаётган нарсалар билан илгари идрок қилинаётган нарсалар ўртасида қарама-қаршилик белгилар ва хусусиятлар бўлса, бундай нарса ўртасида қарама-қаршилик ассоциацияси юз беради. Эсда олиб

қолишда ассоциацияларнинг аҳамияти муҳимдир. Эсда олиб қолиш инсон фаолиятининг хусусиятига бевосита боғлиқдир. Психологлар А.А.Смирнов, П.И.Зинченко тажрибалари шуни кўрсатадики, эсда олиш у ёки бу фаолиятдагина самарали бўлиши мумкин. Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, ўқув материалларининг маъносига тушуниб эсда олиб қолиш йўли оқилона йўл бўлиб қолмасдан, балки у механик эсда олиб қолиш жараёнидан ўзининг самарадорлиги билан кескин даражада ажралиб туради. Жаҳон психология фани тўплаган маълумотларга қараганда, ўзлаштирилаётган материални механик тарзда эгаллашга нисбатан унинг маъносини тушуниб ўзлаштириш бир неча марта маҳсулдордир. Эсда олиб қолиш жараёнида ўзлаштирилаётган материалнинг маънога эга бўлиши ёки бўлмаслиги муҳимдир. Психолог А.А.Смирнов маъноли материални эсда олиб қолишнинг болалар учун енгил кўчиши уларнинг ёш хусусиятларига боғлиқ нарса эмаслигини таъкидлаб ўтади. Чунки болалар ҳали тушуниб олмаган материални гўё маъноси яшириниб ётгандек қабул қиладилар.

Қатор психолог олимларнинг мулоҳазаларига биноан:

- ❖ Материални эсда олиб қолиш даражаси ёш даврлари хусусиятига эга эмас, балки яккаҳол шахсий хусусиятларига боғлиқдир.
- ❖ Механик эсда олиб қолишнинг одат тусига кириб қолиши ҳам даврларининг хусусияти эмасдир.
- ❖ Сўзларни эсда олиб қолиш механик эсда олиб қолишнинг бирон бир хусусиятидир.

Хотирага оид индивидуал хусусиятларнинг вужудга келишига одамнинг касбкори ҳам анча таъсир кўрсатади. Чунончи, рассомларда кўриш хотирси, муסיқачиларда эшитиш хотираси кўпроқ тараққий қилган бўлади. Ўқувчи ўқув материални маъносига тушуниб эсда олиб қолар экан, унинг тафаккури ишга солинади, яъни ўқувчи матнда берилган ҳар бир сўзнинг ва гапларнинг маъносини тушунади, сўз ва гапларда ифодаланган фикрларни фахмлаб олади, ёки гаплар айрим сўзлар ўртасидаги мантиқий боғланишларни ўзи мустақил очади. Эсда олиб қолиш самарадорлигини ошириш - таълим муваффақиятининг гарови эканлигини англаган ўқувчи ўз устида ишламоғи лозим.



## ONKOLOGIK KASALLIKLAR BILAN OG‘RIGAN BEMOR BOLALAR RUHIY HOLATINING PSIXOLOGIYADA O‘RGANILISHI

*Kurbaniyozova Ra`no Yuldashevna*  
*Urganch Davlat Universiteti "Pedagogika va Psixologiya"*  
*kafedrasi o`qituvchisi*

Hozirgi davrda onkologik kasalliklar klinik psixologiya muammolari ichida markaziy o‘rinda turadi. Zamonaviy terapiyaning imkoniyatlari shunga olib bordiki, kasallanganlarning ko‘pchiligi kasallik boshlanganidan keyin uzoq vaqt davomida davolanish jarayonida bo‘ladi, ma’lum qismigina tuzalganlar kategoriyasiga kiradi. Ayniqsa, bolalik davrda o‘smanning turlaridan bo‘lgan leykoz har yili o‘shish tendensiyasiga ega, tibbiyot va jamiyat o‘tkir leykozdan to‘liq tuzalish muammosiga duch kelmoqda. SHundan kelib chiqib, barcha onkologik bolalarga beriladigan invalidlik holdagi faqat birgina o‘smaga qarshi davolash jarayoni mazkur muammoni to‘liq yecha olmaydi.

Psixologiyada onkobemor bolalarda kasallik sababli psixologik o‘zgarishlar namoyon bo‘lishi masalasi bo‘yicha xorij olimlarining ishlari salmoqli. Ayniqsa, onkologik kasallik kasallik bola jismoniy holatiga ta’siridan tashqari uni psixikasida ham sezilarli buzilishlarni keltirib chiqarishini E.Benisha va I.E.Meyer, Guskova A.K., SHakirova I.N., Isaev D.N, Kireeva I.P., Lukyanenko T.E., SHats I.K., Binger S.M., Ablin A.R., Feurste R.C., Parloff M.B., Spinetta J.J., Maloney U. Va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. E.Benisha va I.E.Meyer klinik tibbiyotda tarli og‘ir somatik kasalliklarda, shu jumladan, bolalar onkologik kasalliklarida turli ruhiy bulishlar bo‘lishini ko‘rsatgan [3]

Bemor bolani psixologiyasini uning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari bilish, shubhasiz tibbiy yordam samarasini oshiradi. Bolalarda o‘smanni davolash muvaffaqiyatlari psixologlarni, pedagoglarni, ijtimoiy xodim vazifalarini o‘zgartirgan. Bolani davolanishida hospitalizatsiyaga reaksiya ko‘pgina omillarga bog‘liq, asosan ulardan: bolani yoshi, shaxsiy xususiyatlari, intellektual funkcionallik darajasi, otalarning xulqi, hayotiy stereotipning keskin o‘zgarishi kabilar. SHuni alohida

ta'kidlash kerakki, bemorlardagi salbiy emotsiyalar har safar kasalxonaga yotganda kuchayaveradi, kasalxonaga yana qayta kirish bilan bog'liq travmatizatsiya chuqur va davomli bo'ladi.

Shunga qaramasdan, barcha bemor bolalar kasallikning yorqin namoyon bo'lishidan uni jiddiy, kasallikni xavfli ekanligini ta'kidlaydilar. Kasallikning nisbatan qulay davrlarida o'zining holatining jiddiyligini inkor qilmagan holda hayotning to'liq davom etishini mumkin emasligiga urg'u beradilar ("sport bilan shug'ullanish" "maktabga borish", "basseynga borish" mumkin emas). Boshqalar orasida o'z kasalligining o'rnini aniqlab, uning xususiyatlarini ta'kidlaydilar. Bu bilan kasallikning unchalik katta stajiga ega bo'lmagan (1 yilgacha) bolalar o'zlarining kasalliklarini xuddi "boshqalarning ichida kam uchraydigan, yomon va qiyin" kasallik sifatida baholaydilar. Kasalligi uzoq davom etuvchi xususiyatga ega bolalar uni "eng asosiy", "barcha kasalliklarni ichida eng salbiysi" deb baholaydilar.

Tez- tez bolalar o'limning sof fiziologik masalasiga qiziqadilar: murdaga, ko'mish jarayoni, mozor kabilarga qiziqish bilan savol beradilar. Bolalar bilan bunday suhbatlarda shunday qilish kerakki, ular bu suhbatda qo'llab-quvvatlashni his qilsinlar. Hech qanday holatda bola bilan ayniqsa uning tashabbusi bilan bo'layotgan bu suhbatdan qochmaslik kerak. Bunday suhbat yaxshi tayyorlangan mutaxassis (psixolog, onkolog, pedagog) bilan olib borilishi yoki ota-onalar bu mavzuda instruksiyalangan bo'lishi kerak. Lekin ko'pincha o'limdan qo'rqish oddiy suhbatlarda kuzatiladi, o'yinlarida, rasmlarida namoyon bo'ladi, buning asosida izolyasiyadan qo'rqish yotadi. 13-17 yoshdagi kattaroq bolalar o'z kasalliklariga bilish ehtiyojlari, tengdoshlaridan ajralish (turli joylarga borish, birgalikda vaqtni o'tkazish) va boshqa chegaralanishlar kabi ehtiyojlari qondirilishidagi to'siqlar sifatida yomon munosabat bildiradilar.

Bolaning ijtimoiylashuvidagi eng muhim omil bu maktab hisoblanadi. Onkokasal bolalar aksariyat hollarda kasalxonalarda bo'lganligi, davomli davolanish kurslarini olganliklari, astenizatsiya va shu kabilar sababli tez tez maktab bilan bog'liq muammolar paydo bo'lib turadi. Eng muhimlari sifatida:

- maktabga bora olmaslik yoki tez tez dars qoldirishlar;
- materialni o'zlashtirishda qiyinchiliklar va pasayish;

- sinfdoshlari tomonidan tushuna olmasliklar.

SHunga bog'liq holda bemor bola uchun maktab salomatlik va to'liq hayotning eng muhim obrazi sifatida tushuniladi. Bemor va sog'lom o'quvchilar solishtirilganda, shu narsa aniqlanganki, bemor bola sog'lom bolaga qaraganda maktabni yaxshi baholaydi va bemor bolalar, sog'lom bolalarda kuzatilmaydigan holda maktabni kelajakda o'zni haqida ijobiy tasavvur qiladilar.

Og'ir kasal bo'lgan bolaning psixologik holati bir necha omillar bo'yicha aniqlanadi:

A) Bo'limga kirishda ko'pchilik qo'rqishadi. 7 yoshgacha bo'lgan bolalar odatda kasalxonaga yotqizishga bo'lgan munosabatini tavsiflaydi, ular shunchaki “ Men uyga qaytishni juda “,- deb aytadilar. O'smirlar esa kasalligining diagnostikasi va qanday kechishiga qiziqishadi. Bolaning tajribasining chuqurligi, yoshi, kasallikning tabiati, qolish muddati, aniqlanadi. Kichik yoshdagi bolalarni og'riqli manipulyatsiyalar qo'rqitadi.

B) Tashxis yashiringan bolalarning davolanishga toqat qilishlari qiyinroq, Ular g'azablangan, tajovuzkor, o'zini tutib turolmaydigan, sabrsiz bo'lib qolishadi. Odatda vaziyat ota-onalarning bolalar bilan ko'proq samimiy bo'lishi uchun o'zlarida kuch va so'z topganda yaxshilanadi. Ammo haddan tashqari samimiylik bola uchun og'ir yuk bo'lishi ham mumkin. Buning uchun ushbu mavzuni muhokama qilish ma'lum psixologik muvozanat talab qiladi. Bolaga kasalligi to'g'risida tushuntirishda uning yoshini, shaxs xususiyatlarini (xarakter, temperament), uning kasallik tajribasini, intellektual va ma'naviy rivojlanishini, tarbiyasini inobatga olish kerak. Izoh oddiy, tushunarli va nozik bo'lishi kerak. [6].

C) Intensiv va uzoq muddatli davolanish jiddiy psixotraumatik omil. Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra 13-14 yoshgacha noxush tuyg'ular va og'riqlarga katta ahamiyat beriladi. O'g'il bolalarga og'riqqa toqat qilish qiyinroq.

Bola kasalligi paytida oilaviy munosabatlar juda zarur va bu uning ruhiy holati va xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Bolaning kasalligi oila uchun jiddiy sinov. Og'ir kasal bo'lgan bola oiladagi quyidagi munosabatlarni ko'rsatishi mumkin.

1. O'zboshimcha xatti-harakatlar, oila manfaatlarini to'liq e'tiborsiz qoldirish, barcha oila a'zolarini o'ziga xizmat qildirish va kasallikka bo'ysunish;
  2. Oilaga befarqlik, muammolari bilan yashash, o'ziga g'amxo'rlik qilish;
  3. Oilaga to'liq bog'liqlik, to'liq itoatkorlik, ota-ona oldida aybdorlik hissi;
  4. Oilaviy munosabatlar o'zgarimasligi yoki ba'zi vaziyatlarning o'zgarishi ;
- Kasallik o'sib borishi bilan munosabatlar o'zgarib borishi mumkin.

Sog'lom bolaning o'lim haqidagi tushunchalarining rivojlanishi bir necha bosqichlar orqali shakllanadi [4].

1. 4-5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'lim nima ekanligini tushunmaydilar. Ular hamma narsani jonli hisoblashadi. Bu yoshda bolalar narsalarni ajralmas birlik deb qabul qilishadi. Jonli va jonsizni ajrata olishmaydi..

2. 5-7 yoshda bolalar o'lim haqida o'ylashni va gapirishni boshlaydilar. O'lim qo'rquvini, vujudning cheklanganligini anglay boshlaydilar. Mashhur bolalar psixologi A.I. Zaxarov bolalarni 5 yoshdan so'ng abstract tafakkuri rivojlanib, "men" i shakllana borishini aytgan. Bu davrda bola hayajonli kashfiyotni: oxir-oqibat u boshqa barcha odamlar kabi vafot etishini anglaydi. Bungacha bola barqarorlikka ishongan, atrofdagi hamma narsa abadiy yashaydi deb o'ylaydi [5]. Asta-sekin o'lim haqidagi o'lim qo'rquvi fikrlar va muqarrar ravishda o'lim qo'rquvi bu fikrlarga hamroh bo'ladi. Qizlar o'g'il bolalarga qaraganda juda qo'rqishadi, chunki ular o'lim to'g'risida aniqroq asosga ega. Umuman sog'lom, psixologik jihatdan yetarli darajada rivojlanayotgan bola bu yoshdagi o'limni qabul qilmaydi, bu unga ta'sir qiladigan og'ir narsa.

3. 7-10 yoshdan keyin bolalar o'limni aniqroq tushuna boshlaydilar. Agar bola o'lim haqidagi fikrlardan jiddiy muammolarsiz o'tsa, uzoq kelajakni tasavvur qila oladi.

4. Katta o'spirinlik davrida bolada o'lim tushunchasi kattalardek shakllangan [1].

Og'ir kasal bolalar yaqindagi yoki mumkin bo'lgan o'lim haqida muhokama qilishga qodir. Ular biz taxmin qilgandan ko'ra ko'proq narsani tushunishadi. Hattoki, yosh bemor bolalar, ayniqsa, onkologik bemorlar, kasallikning og'irligini va o'lim qo'rquvini boshdan kechirishadi. O'lim qo'rquvi bolalik tajribalari ko'pincha o'yinlarda va rasmlarda o'zini namoyon qiladi [ 2].

SHunday qilib xulosa qilish mumkinki, onkologik kasalliklarida uchraydigan psixologik o'zgarishlar haqidagi diapozoni keng bo'lib ularda turlicha talqinlar bayon qilingan. Har qanday kasalik asosan shaxsga zarar yetkazib, uning ehtiyojlar sistemasini, ustunovkalari, emotsional –irodaviy xususiyatlarni butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Ayniqsa, onkoloik kasallikalarda organ patologiyasidan tashqari, ruhiy-hissiy buzilishlar ham kuzatiladiki, bu belgilarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya jarayonlarida psixolog e'tiborga olishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Aleksandrova O.V. Bolezn i smert. Besedy s psixologom ostresse. – SPb.: Tipografiya Mixaila Fursova, 2015. – 152 s. 6
2. Ариес Ф. Возрасты ж изни // Ф илософи я и методология истории. М., 1977.
3. Березин Ф.Б., Мирошников М.П., Соколова Е.Д. Методика многостороннего исследования личности. -М., 1994. -158 с
4. Малькина-Пых И.Г. Психосоматика: Справочник практического психолога. - М.: Эксмо, 2005.- 992с
5. Zaharov A.I. Nevrozy u detey. – SPb.: Delta, 1996. – 480 s
6. SHats I.K. Psixologicheskoe soprovojdnie tyajelobolnogo rebenka. Monografiya. – SPb.: Rech, 2010. – 192 s.]

---

## **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ПРОБЛЕМНЫХ СЕМЕЙ**

*Самира Рахимова  
методист Республиканский центр профессиональной ориентации  
и психолого-педагогической диагностики учащихся*

Государство уделяет большое внимание семьям, имеющим детей. Нет необходимости доказывать насколько ценным является детство для института общества, которое хочет и надеется иметь позитивно настроенную молодёжь-

наше завтра, наше будущее.

Семья, является главным институтом воспитания. Приобретённые навыки поведения и общения в семье, сформированные в детском возрасте, он сохраняет в течение всей последующей жизни.

Семья- основной институт социализации и воспитания детей! В ней ребенок находится большую часть своей жизни, и этот институт длительное время воздействует на формирующуюся личность. В связи с этим он является практически эталоном воспитания. Ни один из аналогичных альтернативных видов воспитания не может сравниться с семьей.

Известно, что семья может выступать в двух основных качествах: положительного, и отрицательного фактора воспитания.

Любовь родителей ребёнка их забота и отношение –являются положительным воздействием на личность ребенка. Безразличие и отгороженность от детей – является пагубным воздействием на развитие и формирование личности ребёнка. И именно к таким детям применяется термин «социальное сиротство» - сиротство при живых родителей.

Данные семьи нуждаются в полноценной социально-психологической помощи. помощи.

Сущность и принципы сопровождения проблемной семьи

«Сопровождать, как объясняет словарь Ожегова, – значит следовать вместе с кем-то, находясь рядом, ведя куда-нибудь или идя за кем-то».

«Сопровождение ведет к позитивным результатам в том случае, если оно опирается на деятельность самих сопровождаемых. Сопровождение семьи предполагает развитие ресурсов и расширение возможностей семьи в решении возникающих проблем. Сопровождать – не значит решать всегда за семью, родителей их проблемы. Это значит создать условия, побуждающие членов семьи к самостоятельному и ответственному решению своих проблем и преодолению возникающих трудностей. Сопровождение проблемной семьи связывают с понятием поддержки и помощи.» \*

Социально-педагогическое сопровождение проблемной семьи можно

рассматривать в нескольких аспектах:

- как профессиональную деятельность специалистов, способных оказать помощь и поддержку семье в решении ее проблем;
- как процесс, содержащий комплекс целенаправленных последовательных действий, помогающих семье, родителям конструктивно решить свои проблемы;
- формировать осознание у членов семьи решать проблемы с опорой на собственные ресурсы;
- ситуативные действия должны быть подчинены стратегической цели;
- социально-психологические воздействия выстраиваются на основе системного обобщения информации об индивидуальных особенностях членов семьи;
- необходимы терпимость и принятие разнообразных форм поведения детей, владение знаниями о детской возрастной психологии, о кризисах развития;
- действия сопровождающих направлены на поддержание дружеских, партнерских отношений, позволяющих обеспечить поддержку родителей и детей.

Функция социально-педагогической поддержки. Это процесс совместного определения с родителями и детьми собственных интересов, целей, возможностей и путей преодоления препятствий (проблем) (О.С. Газман).

Необходимо поддержать семью, родителей, ребенка в поиске решения проблем, возникших в процессе воспитания детей, установления супружеских отношений, а не решать за них эти проблемы. Реализация функции психолого-психологической поддержки предполагает опору на наличные силы и потенциальные возможности родителей и детей, веру специалистов, сопровождающих в эти возможности.

Успешность реализации функций социально-психологического сопровождения проблемной семьи зависит от того, как учитываются субъектами сопровождения принципы, то есть основные положения, которыми необходимо руководствоваться, взаимодействуя с семьей.

Исходя из вышеизложенного, определены следующие принципы социально-педагогического сопровождения проблемной семьи:



- вариативности, гибкости и мобильности при организации социально-психологического сопровождения;
- регулирования взаимодействия семьи, детей и родителей, с окружающими людьми, социумом;
- обеспечения субъектной позиции сопровождающих и сопровождаемых;
- оптимистической стратегии (М.И. Рожков);
- непрерывности, системности и преемственности сопровождения;
- взаимодействия всех субъектов социально-психологического сопровождения.

Существуют разные семьи, и в каждой семье свои проблемы и трудности очень сложно выработать единое и однозначно правильное решение о том, как сопровождать семью, как с ней взаимодействовать специалистам-психологам при их сопровождении. Главное, чтобы выбранный способ сопровождения отвечал основному требованию-«Не навреди»

#### **Использованная литература:**

\*Учебное пособие «Социально-педагогическое сопровождение проблемных семей»

Байбородова Людмила Васильевна, Лебедева Татьяна Сергеевна, Тарханова Ирина Юрьевна

---

## **ЎСПИРИНЛИК ДАВРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Юсупова Гулбаҳор  
Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириши ва психологик-  
педагогик республика таъхис маркази психолог-методисти*

Ўспиринлик - бетакрорлик хислати, ўзига хослиги бошқа одамлардан кескин фарқланиши билан ҳарактерланади. У ижтимоий ҳаётда бажараётган ролларнинг кўлами кенгайди, лекин барчасини эгаллаш имкониятига эга

бўлмайди. Шунингдек ролларда ўзини синаб кўриш билан чекланади. Вақтни янгича ҳис қилиш, психосексуал қизиқиш, патоген жараёнларни намоён бўлиши хосдир.<sup>18</sup>

Ҳаётдаги бу ўзгаришлар илк ўспиринлик шахсига, уни ўзини англашига таъсир кўрсатади. Ўсмирлардан фарқли ўлароқ илк ўспиринлар катта ҳаётни тасаввур этмайдилар, балки ундан идрок этадилар. Унинг мустақиллиги ортиши билан бир қаторда катталарга муносабатлари ҳам ўзгаради. Катталар ўсмирга кўпроқ бола деб қарасалар, илк ўспирин ёшдагиларга катта одамдек муносабатда бўладилар.

Илк ўспиринлик ёши даврига 15-18 ёшлардагилар (умумий ўрта таълим, академик лицей, касб-ҳунар коллежи ўқувчилари) кирадилар. Бу даврда ўқувчи жисмонан бақувват, ўқишни тугатгач, мустақил меҳнат қила оладиган, олий мактабда ўзини синаб кўрадиган имкониятга эга бўлади, маънавий жиҳатдан етукликка эришади. Илк ўспирин 16 ёшида мамлакат фуқароси ва 18 ёшида эса сайлаш ҳамда сайланиш ҳуқуқига эга бўлади. Буларнинг барчаси илк ўспиринга фуқаро сифатида ижтимоий жиҳатдан вояга етиши, ҳаётда ўз ўрнини топиши, ўз тақдирини ўзи ҳал қилиши ва етук шахс сифатида маънавий ўсиши учун жамики шарт-шароитларни яратади.

Кейинги вақтларда психологлар қизиқарли фактни аниқладилар. Биринчидан, юқори синфдаги ўқувчи қизлар, ўсмир қизлар сингари, ўғил болалар ва ўспиринларга қараганда катталарнинг таъсирига кўпроқ берилишига мойилдирлар.

Мустақил меҳнат фаолиятига ўтиш истиқболнинг таъсири остида катта мактаб ёшидагилар учун ҳарактерли бўлган келажак мақсадлар сари йўналиш таркиб топади. Катта мактаб ёши ҳаётда ўз-ўзини аниқлаб олиш ёши бўлиб, бу вақтда ўқувчи ўзининг меҳнатдаги истеъдодини жиддий равишда излай бошлайди, унда ўзининг келажакдаги касбини белгилаб олиш интилиши пайдо бўлади.

<sup>18</sup> Ф.М.Йўлдошева. Ёш давлари психологияси. Маърузалар матни. Термиз: 2013, 27-бет

Агарда ўсмирликда асосий фаолият муомала, шахслараро муносабат бўлиб ҳисобланса, илк ўспиринлик даврига келиб, ундан олдинги онтогенетик босқичдан фарқли ўлароқ ўқишга нисбатан қизиқиш жонлана боради, чунки бу даврда таълим субъектлари олдида академик лицей ҳамда касб-хунар коллежларини битиришдек масъулият ётганлиги ҳаракатлантирувчи куч функциясини бажаради. Билиш ва когнитив жараёнларнинг барқарорлиги ўсганлиги, такомиллашганлиги, касбий малакалар шаклланганлиги ўқув жараёнининг сифат ва миқдор жиҳатдан ўзгарганлигидан далолат беради. Ўзгаришларнинг миқдорий жиҳатдан кўринишларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

1. *Яққол (конкрет) ва мавҳум (абстракт) илмий тушунчалар ўртасидаги муносабатлар.*
2. *Когнитив фаолиятнинг жараёнлари, операциялари ривожланганлиги: таққослаш, қиёслаш, умумлаштириш, таснифлаш ва ҳоказо.*
3. *Эсда олиб қолишнинг рационал усуллари (сўз-манتيқ хотирасига асосланган ҳолда).*
4. *Муаммоли вазиятлар ва уларнинг ечимини топиш имкониятлари.*
5. *Ижодийлик (креация) усуллари вужудга келаётганлиги.*
6. *Ўзини ўзи баҳолаш ва назорат қилиш уқуви шаклланаётганлиги.<sup>19</sup>*

Ўспирин – ёшлар касб эгаллашда касб–хунар ва мутахассисликнинг ижтимоий нуфузига алоҳида эътибор қаратади. Натижада касблар ўртасида кескин тафовутлашув келиб чиқади. Аслида ҳар бир касб–хунар ва мутахассисликнинг ижтимоий аҳамияти мавжуд. Этикдўз ёки тикувчининг жамиятдаги ўрни ҳисобчи ёки сотувчиниқидан кам эмас. Айтайлик, нўноқроқ тадбиркордан иқтидорли тикувчи кўпроқ даромад топиши мумкин.

Бугунги ўспиринларига ҳаётга нисбатан хушёр, ақлий – амалий қараш, ёрқинлик ва мустақиллик хосдир. Мактабни тугаллаш вақтига келиб жуда кўп ўсмирлар ахлоқий жиҳатдан шаклланган ва маълум ахлоқ нормалари

<sup>19</sup> Ғозиев Эргаш. Онтогенез психологияси. Назарий-эксперимент таҳлил. Монография. "Ношир". Тошкент: 2010, 182-бет

катъийлашган хусусиятларга эга бўладилар. Ўспиринларда ахлоқий дунёқараш билан бир қаторда ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, илмий, маданий, диний ва бошқа соҳалар бўйича маълум бир қарашлар вужудга келади. Жуда кўп йиллардан бери ўспиринларни яхшилик ва ёмонлик, ҳақиқат ва ноқонунийлик, ахлоқийлик ва ахлоқсизлик масалалари ташвишлантириб келади. Ҳозирги давр ўспиринлари ҳар бир нарсага ишонувчан ёки салбий муносабатда бўлмай, балки ҳаётга реал, ақлий, амалий қарайдиган, кўпроқ ёрқин ва мустақил бўлишга интилувчи ёшлардир.

Касб тўғрисидаги тассавурлар билан реал имкониятнинг мувофиқ келиши асосий шартлардан биридир. Агарда имконият реал шарт – шароитга мос келса ва албатта ўспирин бу жараёнда мустақил фикр юритишини намоеън эта олса ижобий натижага эришилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ғозиев Эргаш. “Умумий психология” ЎЗМУ Ўқув методик Кенгаши нинг 2002 йил. Мажлис билан нашрга тавсия этилган. «Университет» нашриёти, 2002
2. Ғозиев Эргаш. Ўқувчиларинг ўқув фаолиятини бошқариш. Тошкент, 2002.
3. Ғозиев Эргаш. Онтогенез психологияси. Назарий-эксперимент таҳлил. Монография. "Ношир". Тошкент: 2010
4. Иванов П.И., Зуфарова М. «Умумий психология» Т., 2008 йил
5. Ильин Евгений Павлович "Психология, творчества, креативности, одаренности". 2011
6. Ишмухаммедов Р., Абдулқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. Тошкент, 2008

## AMALIY MASHG‘ULOTLARDA MAQSADNI BELGILASH SMART TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH VA O‘QUV JARAYONIDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Xaydarov Botir Mashrapovich*

*Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv*

*hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va*

*ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi*

Professional ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu ishlab chiqarish ta’limi hisoblanadi, chunki bu jarayonda bir yoki bir nechta kvalifikatsiyalar doirasida kasbiy amaliy ko‘nikmalarni egallanadi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, jamoada ishlash, kommunikativ, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga o‘rgatish uchun ishlab chiqarish ta’limi ustasidan zamonaviy usullardan foydalanish zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda deyarli barcha soha korxonalarida malakali payvandchilarga bo‘lgan ihtiyoj yuqori darajada sezilarli bo‘lib qolmoqda. Ammo hozirgi bosqichda ularni tayyorlash darajasi zamon hamda ish beruvchilarning talablariga to‘liq javob bera olmayapti.

Payvandchilarni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlashning asosiy shakli mutaxassislik bo‘yicha kasbiy mahorat va kompetensiyalarini shakllantirishdir. Ularni tayyorlash sifati ko‘p jihatdan ishlab chiqarish ta’limi ustalarining malaka darajasiga hamda amaliyot o‘tish uchun tayyorgarlik qilishiga bog‘liq. Bo‘lajak payvandachilarni egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari maxsus fan o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustasining o‘quv materialiga qanchalik ega bo‘lgani va uni o‘quvchilarga yetkazib bera olishi, o‘quvchilarni individual xususiyatidan kelib chiqib o‘zlashtirish darajasi, ko‘rgazmali qurollarni mavjudligi, o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun moddiy-texnika bazasi holati, undan foydalana olishi,

o‘qitishning usullari qanchalik to‘g‘ri tanlanganligiga va boshqa bir qancha omillarga bog‘liq.

Ishlab chiqarish ta‘limi ustalari har bir o‘quvchining shaxsini shakllantirish va rivojlantirishning turli tomonlarini bir vaqtda amalga oshirgan holda, uning individual qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarga o‘quv materialini bo‘yicha mustahkam bilim va ko‘nikmalar berishlari zarur. Shu sababli ishlab chiqarish ta‘limi ustalarining maqsadi ta‘limning barcha bosqichlarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasbiy rivojlantirish va tarbiyalash bo‘yicha ishlarni yagona jarayonga birlashtirish imkonini beradigan yangi shakl va uslublarni topish dolzarb masala sifatida ko‘riladi.

O‘quvchilarni kasbga o‘rgatish jarayonida ishlab chiqarish ta‘limi ustasi maqsadni to‘g‘ri belgilay olishi judayam muhim xisoblanadi, chunki inson barcha harakatlarini maqsadga erishish uchun yo‘naltiradi. Maqsad so‘zining ma‘nosiga e‘tibor qaratamiz.

Maqsad — inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o‘ylangan natijasi. Maqsadning shakllanishiga subyektning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Maqsadning real va noreal, qisqa muddatli va uzoq muddatga mo‘ljallangan, asosiy va ikkinchi darajali va b. turlari bor. Real Maqsadlar subyektning imkoniyatlari, atrof muhitning holati va obyektiv qonuniyatlarni hisobga olsa, noreal Maqsadlar faqatgina subyektning orzu-istaklarini ifodalaydi, atrofdagi vaziyatni hisobga olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda samarali va dunyoda taniqli bo‘lgan zamonaviy maqsadni belgilash SMART texnologiyasidan foydalanish ishlab chiqarish ta‘limi ustasi uchun muhim rol uynadi.

SMART - bu maqsadlarni belgilash va shakllantirish texnologiyasi. SMART qisqartmasi “aqli maqsad” degan ma‘noni anglatadi va inglizcha so‘zlardan bosh harflarni birlashtirib, haqiqiy maqsad qanday bo‘lishi kerakligini bildiradi: Spesifik (aniq) - Measurable (o‘lchanadigan) - Attainable (erishiladigan) - Relevant (muvofiq) - Time-bounded (Vaqt bilan chegaralangan).

Spesifik (aniq) – Maqsad imkon qadar aniq bo‘lishi va uni belgilashda yakuniy natija aniq ko‘rsatilishi kerak.

Measurable (o'lchanadigan) – Maqsadlar o'lchanadigan bo'lishi kerak, shunda ularga erishilganligini mezonlar yordamida bilish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, nafaqat yakuniy, balki oraliq baholash mezonlarini ham belgilab olish samara beradi. Bu maqsad sari to'g'ri yo'nalishda harakat qilayotganlikni anglatadi, va vaqtda tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Attainable (erishiladigan) – Maqsadlarga tashqi omillar va ichki resurslar nuqtai nazaridan erishish mumkin bo'lishi kerak.

Relevant (muvofiq) – Maqsadlar umumiy, shuningdek, strategik maqsadlar bilan bog'liq bo'lishi va ularga erishish uchun harakat qilish kerak.

Time-bounded (Vaqt bilan chegaralangan) – Maqsad aniq vaqt bilan chegaralanishi kerak, unga erishish uchun aniq muddatlar hamda oraliq nazorat bosqichlar bo'lishi kerak.

Shunday qilib ishlab chiqarish ta'limi ustasi maqsadlarini shakllantirsa, unda, maqsad aniq, erishiladigan, malaka talablari ish beruvchilarning talablariga muvofiq, belgilangan muddatda bajarilishi va erishilganligini o'lchash imkoniyati bo'ladi.

Maqsad to'g'ri belgilangandan so'ng unga erishishda qo'llaniladigan zamonaviy vositalar va metodlarni aniqlab olish zarur bo'ladi.

Professional ta'lim tizimida o'quv jarayonini elektron o'quv qurollari bilan ta'minlash borasida anchadan buyon faol ishlar olib borilmoqda. Maxsus fan va amaliy mashg'ulotlarda o'qitishning an'anaviy usullari bilan birgalikda elektron ta'lim vositalaridan foydalanish ko'p hollarda o'rganishning yuqori darajasini ta'minlashi hammaga ma'lum [ ]. Lekin ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun fan va texnikaning hozirgi kun yutuqlarini aks ettiruvchi zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangalik darajasi ko'p hollarda qoniqarli emas. Elektron o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va ulardan amaliy foydalanish ta'lim muassasalari kutubxona fondida payvandlash yo'nalishlarga oid adabiyotlarning yetarli miqdorda taminlanganligi kadrlar tayyorlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi vaqtda payvandlash ishlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishning eng istiqbolli yo'nalishlardan biri bu, zamonaviy axborot texnologiyalarini, jumladan, internet imkoniyatlarini yanada keng joriy etishdan



iborat. Bu, birinchi navbatda, o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirishga, axborot-qidiruv faoliyatini tashkil etishga, o'z-o'zini nazorat qilishga qaratilgan usullarni yaratish jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari bilan bog'liq. O'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o'quv materialiga ko'proq moslashishiga, ularning qobiliyatlarini hisobga olgan holda, o'quv jarayonining turli bosqichlarida o'qitish intensivligini tartibga solish imkoniyatini, turli hil ta'lim resurslaridan foydalanish, o'quv materiallarni bir biri bilan taqqoslash, to'ldirish imkoniyati paydo bo'ladi, o'quv materialini tasviriy vizual shaklda o'zlashtirish, elektron darslik va innovatsion o'quv qo'llanmalardan foydalaniladi

Bugungi kunga qadar payvandchilarni o'qitishning barcha bosqichlarida axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish bo'yicha jahonda yetarli tajriba to'plangan. So'nggi paytlarda payvandchilarni tayyorlash sohasida yoy bilan manipulyatsiya qilishning amaliy usullarini o'rgatish uchun simulyator (trenajyor)lar innovatsion o'quv vositalari hisoblanadi.

Professional ta'limda simulyatsion ta'lim – bu realistlik modellashtirish hamda o'qish jarayonida amaliyot darslarini imitatsiyalashga asoslangan turli murakkablikdagi va realistlik o'quv modellaridan foydalangan zamonaviy ta'lim texnologiyasidir.

Simulyatsion ta'limni alohida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan pedagoglar olib borishi maqsadga muvofiqdir. Ular ishlab chiqarish korxonalarinig mutaxassislar bilan hamkorlikda turli xil vaziyatlar uchun ssenariylar ishlab chiqish, metodik ishlarni tashkil qilish, injener-texnik xodimlar bilan o'quv vositalari bilan ishlash jarayonida texnika xavfsizlik qoidalarini ta'minlash qoidalariga amal qilishlari lozim. Maqsad - imitatsion faoliyatni real holatga maksimal darajada yaqinlashtirish va shu orqali o'quvchilarda payvandchi kasbiga ko'yilgan kompetensiyalarni shakllantirish.

O'qitishning texnik vositalaridan darsda foydalanish o'quv materialni taqdim etish shaklini o'zgartirish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini bir vaqtning o'zida nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish bilan amaliy ishlarni bajarish hamda dars davomida ushbu jarayonni tuzatish uchun yangi imkoniyatlar beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkin bo'ladiki o'quvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida avvalom bor maqsadni to'g'ri belgilash, keyin unga muvofiq zamonaviy

o‘qitish vositalari va usullarini tanlansa, o‘quvchilarda ta’lim olishga qiziqishi ortib boradi va ta’lim standartlaridagi zarur kasbiy kompetensiyalar shakllanadi.

### Foydalanilgan manbalar

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/maqsad-uz/>
2. <http://marifat.uz/uchitel-uz/rubriki/nauka/smart.htm>
3. <https://www.mental-skills.ru/dict/smart/>
4. <https://in-scale.ru/blog/ceci-smart/>
5. <https://blog.oy-li.ru/tehnologiya-smart/>
6. <https://learnvirtual.eu/ru/160-apolo-weldtrainer>
7. <https://zarnitza.ru/catalog/uchlab/tehnologii-i-proizvodstvo/professionalnaya-podgotovka/trenazher-svarshchika-maloampernyi-iskra/>
8. <https://zarnitza.ru/catalog/uchlab/tehnologii-i-proizvodstvo/professionalnaya-podgotovka/trenazher-svarshchika-maloampernyi-iskra/>

---

## UYUSHMAGAN YOSHLARNI YOT G‘OYALARDAN ASRASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Turgunova Aziza*  
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi o‘qituvchisi, PhD,*

*Murodov Olim*  
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*  
*“Dinshunoslik” yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonida har jabhada yoshlar faolligini oshirish vazifalari belgilandi. Unda yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi, ularning bandligini ta‘minlash, ilmiy va badiiy kitoblarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, “ommaviy madaniyat” va boshqa yot

g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish, yoshlarni ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga jalb etish, xalq mafaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash kabi masalalar ochib berildi.

Jamiyatdagi uyushmagan yoshlar guruhiga loqaydlik munosabatida demografik salbiy o‘zgarishlar jumladan, yoshlarning chet elga ishlash maqsadida chiqib ketishlari, submadaniyatlar va “ommaviy madaniyat” ta’sirida nazoratsiz yoshlarni zararli odatlarga oson berilishi, deviant xulq-atvor kabi bir qator nomaqbul oqibatlar yuzaga kelayotganligi sir emas. Shu bois ham “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida bir necha o‘rinlarda uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga yordam berishga urg‘u berilgan.

Ushbu masalalarni yechimi esa bugungi kundagi ijtimoiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqdir. Negaki, barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi bizning jamiyatimiz ham siyosiy xavflar qatori, ijtimoiy xavflardan ham holi emas. Darhaqiqat, I.V. Zadorin tadqiqotiga e’tibor qaratsak, unda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida, aynan ijtimoiy xavflar – ijtimoiy xavfsizlikka rahno soluvchi eng asosiy omil sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy xavflarni aniqlash jarayonida eng asosiy xavflar sifatida “Diniy ekstremizm”, “Millatlararo nizolar”, “Milliy o‘zlik va qadriyatlarni yo‘qotish” kabilarni kiritadi. Yana bir tadqiqotchi Y.Margulyan ijtimoiy xavflar qatoriga aholi o‘rtasida turli ma’naviy qadriyatlarni inkor etish, tajovuzkorlik, o‘zaro ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi “Ommaviy axborot vositalari”ni ham kiritadi .

Bunga qarshi kurash, tahdid va tajovuzlarni bartaraf qilish O‘zbekiston fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning muhim burchlariga kiradi. Shuning uchun ham aytish mumkinki, ijtimoiy xavfsizlik muammolarini o‘qitish, o‘rganish va ularni bartaraf qilish zarurati bugungi kunning talablari sirasiga kiradi.

Sababi ijtimoiy xavfsizlik, ijtimoiy muammolarni hal etishda siyosiy hokimiyatning o‘rni va roli, fuqarolik jamiyati institutlarining, jumladan yoshlar tashkilotlarining funksiyalari, shuningdek, mazkur muammolarga oid turli xil

konsepsiyalar , to‘g‘risida aniq tizimli bilim, tasavvurlarni shakllantirish globallashuv sharoiti va uning salbiy ta’sirlaridan himoya vositasini ham bajaradi.

Hozirgi kunda mutaxassislar oldida ijtimoiy xavflar, asosiy tushunchalar, strukturalari, funktsiya va vazifalari, ularni hal etish yo‘llarini yoritish, ijtimoiy xavfsizlikni barqarorlashtirish konsepsiyalarini tadqiq etish, xavflar to‘g‘risidagi turli qarashlarni tahlil qilish va ularning mazmun-mohiyatini yoshlar ongi va yoshi nuqtai nazaridan ochib berish, ijtimoiy xavfsizlik to‘g‘risida ilmiy va nazariy bilimlarning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish masalalari ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Xavflarni shurtli ravishda ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy-g‘oyaviy, iqtisodiy, eko xavflarga bo‘lib tadqiq qilar ekanmiza hozirda xavflarning zamonaviy ko‘rinishlaridan biri ijtimoiy xavflarga kiruvchi aholi turmush darajasining pastligi; daromadlar o‘rtasida asossiz tafovutlarning yuzaga kelishi va tavofutning keskin ortib borishi; aholisonining tez sur‘atlarda ortibborishi; bandlik masalasini hal etilmasligi natijasida, ishsizlar sonining ko‘payishi; qonunustivorligi va adolattamoyillariningbuzilishi; xotin-qizlarning ijtimoiy faol emasligi; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi sustkashliklar; infratuzilmaning zamon talablariga mos kelmay qolishi kabi xavflar siyosiy xavflardan ichki va tashqi tahdidlar, inson huquqlari va erkinliklarini, jamiyatda siyosiy-ijtimoiy muvozanatni buzilishi, tolerantlikni susayishi, diniy murosasizlik, tajovuzkor millatchilik, korrupsiyaning kuchayishi, maddohlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, mintaqaviy majoralar, mahalliy urushlar, chegara davlatlardagi beqarorlik, uchinchi qo‘llar tomonidan qurolli qarama-qarshilikning rag‘batlantirilishi, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabilar, ma‘naviy-g‘oyaviy xavflardan g‘oyaviy bo‘shliq, «Ommaviy madaniyat»ning insonlar ongi va milliy qadriyatlarga salbiy ta’siri, ta’lim-tarbiyaning zamonaviy talablariga mos kelmay qolishi,mamlakatni jahon ilmiy-texnika taraqqiyotidan ajralib qolishi, AKTlarining rivojlanmaganligi va jahon tarmog‘idan ajratib qo‘yilishi, ko‘r ko‘rona yondashuvga asoslangan piyar texnologiyalar kabilarni, iqtisodiy xavflar dan investitsiyaviy muhitidagi beqarorlik, milliy iqtisodiyotning raqobatbardosh bo‘lmagan mahsulotlar bozori, innovatsiyalarni joriy etilishidagi sustkashliklar, iqtisodiy integratsiyaning mavjud emasligi, bozor infrastrukturasi rivojlanmaganligi, pul muomalasidagi beqarorlik, xarajatlarning ortib ketishi hamda

huquqiy bazaning nomukammalligi kabilarni, eko xavflardan ekologik tanglik, genofondning buzilishi, ekologik omillarga nisbatan bepisandlik, atrof muhit va aholi sogʻligʻi uchun zararli ishlab chiqarishlar, utilizatsiyaning samarali texnologiyalaridan foydalana olmaslik, ichimlik suvi tanqisligi, zararli oziq-ovqatlar va farmakologiya mahsulotlariga nisbatan nazoratning susayishi hamda tabiiy va texnogen ofatlarni kiritishimiz mumkin.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyida tavsiyalarni berish mumkin.

- Uyushmagan yoshlar oʻrtasida ijtimoiy xavflarning siyosiy oqibatlarini hamda siyosiy xavflarning ijtimoiy tahdidlarga yoʻl ochib berishi boʻyicha alohida tushuntirish ishlarini kuchaytirish. Yoshlar ittifoqi doirasida yoshlar qiziqqan va ular uchun muhim boʻlgan sohalarni aniqlab yetuk mutaxassislar bilan professional suhbatlar, seminar treninglar tashkil etish. Yoshlar qatlamining siyosiy jarayonlarga ishtirokini toʻliq taʼminlashga erishish, millatlararo munosabatlarda konstitutsiyaviy tamoyillar va diniy bagʻrikenglik tamoyillarining buzilishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida manzilli yondashuv asosidagi chora tadbirlarni koʻrish;

- Glabollashuv jarayonining yoshlar ijtimoiy munosabatlariga taʼsirini hisobga olgan holda ularni sport va siyosiy-ijtimoiy, madaniyat va siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga kengroq jalb etish, yoshlarni tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash va ijtimoiy loyihalar ishiga jalb qilish kerak;

- Mamlakat yoshlarining ijtimoiy - siyosiy xavfsizlikni taʼminlashda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini yana jonlashtirish, hayotda oʻz oʻrnini topishlariga yordam berish va hamkorlik ishlarini kuchaytirish kerak boʻladi.

## ЗДОРОВЬЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ЛИЧНОСТИ В ГЛОБАЛЬНОМ МИРЕ

*Федюнина Диана Станиславовна  
Ташкентский Государственный Педагогический  
Университет имени Низами, 3 курс*

**Аннотация:** «В статье показано влияние на психическое здоровье человека. В настоящее время экологические требования создают условия для развития и поддержания индивидуального здоровья. Психологическое благополучие связано с опытом отношений индивида с самим собой, с жизнью и с другими. Психологическое благополучие человека является показателем личной готовности к работе.»

**Ключевые слова:** «здоровье, личность, благополучие, эмоциональный, развитие, жизнедеятельность»

### **Введение**

В настоящее время все более актуальной становится вопрос психологической обеспеченности индивида для анализа психологов. Это ассоциируется с насущной психологической подготовки и опыта. Вовремя идентифицировать, на чем основывается органичное состояние человека, на каких эмоционально-оценочных позициях оно основывается, как фигурирует в упорядочении поступка. По мере усиления психогенного фактора важно найти пути достижения психического и физиологического самочувствия, благополучия и общего совершенствования качества жизни. Необходимо разработать методы и предложения, которые помогут личности осведомиться с любыми проблемами психического здоровья гораздо более благосостоятельной жизнедеятельности.

Обстоятельная эмоциональная позиция – одно из главных требований гармоничного формирования индивида. Эмоциональная гармония – это цель, к которой каждый стремится на простирации всего существования, и эта гармония проникается особым наполнением в каждом возрасте. Также растет число исследований эмоционального преуспевания человека, в которых подчеркивается

компетентность и незаменимость эмоционального благополучия индивидуума на фазах его совершенствования.

В возвышенном функционировании личности организовываются патетичные потребности и увлечения, расстанавливаются проекционные намерения, раскрываются его духовные ценности и складываются способы осуществления идей на практике. Это имеет отличительную черту человеческих действий как духовно-ценную и сознательно-деятельный акт. Глубокий, всесторонний и последовательный прогресс в создании и потреблении сегодняшних духовных ценностей является свидетельством психического здоровья и зрелости общества, людей и личности. Одной из целей социальной реформы является интеллектуальное развитие. Обязанность страны и народа в целом заботиться о духовном и культурном богатстве личности и общества в целом. Наконец, количество психически наполненных людей зависит от их психологического здоровья и их общего здоровья.

Термин «психическое здоровье» является противоречивым. Это не просто болезнь или травма, а физическое, психическое и социальное здоровье. Можно определить «психическое здоровье» как минимальный ресурс организма и его способность адаптироваться к новым ситуациям с течением времени. [1]

Психическое здоровье — это состояние покоя, чувствительности к внешнему миру, отсутствие выражения эмоциональной боли (фобии, тревоги). Согласно отчету Специального комитета Всемирной организации здравоохранения «психическое здоровье и психосоциальное развитие детей», это «недоступность физических и психологических расстройств, вызванных различными деструктивными факторами и стрессами, воздействующими на психику и аффилирована совокупно». [2]

Состояние жизни — единое понятие, устанавливаемое совокупностью духовного и биологического, их важной ролью и условиями, необходимыми для ее выполнения. Это система ресурсов, отражающая физическое, социальное и психическое благополучие. Качество жизни является социально-психологическим



и содержится в оценке степени благотворности личности всевозможным углом зрения общества, которая зависит от уровня его нужд и требований.

Эмоциональное благополучие, представляясь компонентом психологического состояния личности, рассчитывает полное удовлетворение потребности в социуме, формирование благожелательных семейных взаимоотношений, доброжелательных связей в учебном, трудовом коллективах между учащимися и учителями, составление подходящего чувственного обстоятельства жизненных условий. Отрицательное патетическое самоощущение индуцирует происхождение темпераментной безучастности, разрыв интерпсихических взаимоотношений, вызывает одиночество и ослабляет активную жизнедеятельность человека.

Упоенное благополучие, входящее в состав психического здоровья личности, включает в себя целостную сатисфакцию во внутриличностной коммуникации, создание заботливых семейных связей, плодотворных взаимоотношений в учебных и рабочих группах между участниками, создание выгодного экспансивного окружения для средств совместной деятельности. Нежелательное патетичное расположение духа индуцирует рьяную сепарацию, распад человеческих отношений, приводит к одиночеству и ослабляет жизненную активность субъекта.

Ажитация, в которой сосредотачивается ощущения субъекта, можно назвать главным атрибутом благополучной жизнедеятельности. Психологическое здоровье является частью эмоционального состояния. Позитивное отношение отражает уровень уверенности в себе, самовыражении и принятия себя в событиях жизни. Позитивный настрой также рассматривается как условие самоудовлетворенности, социализации, стабильной работы и жизненными факторами. Эти группы формируют психологический вид здорового образа жизни. Эмоциональное настроение является признаком удовлетворенности жизненным опытом, отвечающим индивидуальным потребностям.

Есть пути к психическому здоровью, которые следят за психологическим благополучием личности. К ним относят гедонистический (субъективный) и эвдемонистический (объективный).

При рассмотрении субъективного подхода психическое благополучие и здоровье учитываются в наслаждении (не только физического, но и достигая высших целей) и избегания состояние нехватки ресурсов. Правильное понимание природы психологического благополучия отличается от гедонистической точки зрения базовыми условиями и показателями, наиболее распространенными из которых являются «переживание счастья» или «субъективное ощущение грамотности». Несмотря на свою популярность, она подверглась критике. Наиболее важным из них является игнорирование теории. Только ясность теории ставит под сомнение, является ли переживание счастья точным показателем психологического состояния и состояния здоровья человека.

Объективный подход исследует психическое здоровье и благосостояние в целом как самореализацию в определенных жизненных ситуациях и требованиях. Примирительно этому устремлению, в некоторых случаях жизненные препятствия, негативные и даже причиняющие страдания переживания могут стать основой для улучшения своего психического благополучия, путем более глубокого понимания жизни, осознания собственных жизненных целей или создания более слаженного взаимопонимания. Являясь показателями психологического здоровья, эти атрибуты рассматриваются как мера личностной реализации своего исходного потенциала и реализации смысла жизни как основы раскрытия себя и окружающего мира, источника развития и творческой деятельности. [3]

Научные исследования к дилемме психологического здоровья складываются, с одной стороны, по характеристикам участников, с другой стороны, по характеристикам взаимодействий между участниками. Когда мы описываем образовательную среду, мы должны показать, что это факт, включает в себя результаты, предназначенные для сохранения здоровья человека и возможности для развития.

Стрессу способствуют современные условия жизни, в которых происходит формирование и развитие личности молодежи, в том числе ситуации, связанные с высоким интеллектуальным напряжением и нервно-эмоциональным напряжением. В этом возрасте формируются различный жизненный опыт, установки на положительный или отрицательный взгляд на жизнь, уверенность личности в своей способности решать проблемы, ответственность за свое благо или проблемы.

Это сложно для тех, кто участвует в процессе обучения, чтобы развивать утвердительное отношение, творческие стратегии, позитивное мышление у молодых людей. В большинстве случаев психическое здоровье является показателем социального и психологического единства, хорошей упорядоченной работы и здоровья индивидуума, что играет важную роль в формировании личности психолога и является важнейшим условием эффективного общения.

В ряде исследований установлены важные качества личности, такие как: самосознание и самопринятие, способность к критике и самокритике, стремление к профессиональному и личностному воспитанию, умение ладить с людьми, энтузиазм применительно к работе и ее задачам, наличие жизненных перспектив. Эти личностные особенности, по сути, близки к структурным составляющим феномена духовной обеспеченности. Успешность личности можно рассматривать как степень личностной готовности к инициативности.

Несколько исследований выявили важные черты личности, такие как взгляды на жизнь, мировоззрение и внутренняя гармония, умение анализировать. Эти черты личности приближаются к структурным компонентам психического благополучия. Личностное благополучие может быть использовано как психологический индикатор желания человека действовать.

Психическое благополучие открывает отблеск в различных интерпсихических взаимодействиях. Сатисфакция межличностными отношениями и взаимодействиями можно считать мерой личного счастливого человека и его давления на совершенствование личности в целом. Уровень психического здоровья обязан быть не ниже среднего для гармоничной личности.

Этот уровень психического здоровья характеризуется такими характеристиками как потребность быть в малой группе и быть частью большой группы, давать пространство другим, стараться поддерживать здоровые и доверительные социальные отношения, оценка социальной ответственности.

Стороны знают и принимают процесс обучения, формирования личности, положительная самооценка и развитие социально-психологического мышление развивает способность строить долгосрочные отношения, основанные на доверии, через эмпатию. Отношения с другими людьми важны как части духовного благополучия человека.

Оптимальное функционирование всех психических организаций, надлежащих для жизнедеятельности человека. Психическое здоровье можно соотнести как неотъемлемую часть психологического здоровья человека. Это состояние, когда биологическое здоровье сочетается с личным здоровьем, развитие личности и подготовка к такому подъему также направлены на всестороннюю реализацию целей.

Психологически здоровый субъект имеет к себе доброе отношение, открыт к совместной деятельности, устойчив к стрессу и защищен от несчастий, так как он оснащен незаменимыми средствами, чтобы противостоять жизненным трудностям (использует эффективные стратегии преодоления барьеров.)

#### **Список литературы:**

1. Борис Гурьевич Мещеряков, Владимир Петрович Зинченко. Большой психологический словарь.
2. Глоссарий терминов по вопросам укрепления здоровья. – Женева: Всемирная организация здравоохранения, 1998. – 35 с
3. Маркевич, О.В. Психологическое здоровье и субъективное благополучие студентов-психологов / О.В. Маркевич // Психологическое здоровье в контексте развития личности: Материалы III Международной научно-практической конференции, Брест, 7 апреля 2010 г. / Брест. гос. ун-т им. А.С. Пушкина. – Брест: БрГУ, 2010.

4. Идобаева, О. А. Исследование эмоционального благополучия современных подростков как предпосылка коррекционной работы школьного психолога: дис... канд. психол. наук / Идобаева Ольга Афанасьевна

## RAHBAR KADRLAR INNOVATSION ETAKCHILIGINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Nurabullaev Tanirbergen Allambergenovich*  
*Nukus davlat pedagogika instituti "Psixologiya"*  
*kafedراسi tayanch doktoranti*

Innovatsion faoliyatni ta'minlaydigan rahbar etakchiligining mohiyati va mazmuni turli xil atamalar yordamida ochib beriladi. Tashkiliy psixologiya va boshqaruv psixologiyasida, innovatsion etakchilik xarizmatik transformatsion, o'zgarishlarda liderlik hamda tadbirkorlikda etakchilik kabi yondoshuvlarda ko'rib chiqiladi. Mazkur atamalarning mazmuni qobiliyatlarni, shaxsiy xususiyatlarni, xulq-atvor strategiyasini, funktsional sohasini, menejerning xatti-harakatlarini tashkiliy madaniyatga qo'shilish usullarini, innovatsiyalarni yaratish va targ'ib qilish samaradorligini belgilaydigan menejerlar faoliyatining ko'p bosqichli tizimini o'z ichiga oladi. Innovatsiyalarda samarali etakchilikni ko'rsatadigan ta'riflarda keng tarqalgan bo'lib, o'zgarishlarga e'tibor berish, ahamiyatsiz bo'lmagan yorqin maqsadni ko'rish, unga erishish bilan bog'liq hissiy tajribalarni yaratishdir[1; 22 – b].

Innovatsiyalarda etakchilik uslublarini aniqlashning nazariy yondashuvlari. A. Vas, R.L. Daft, e. Sheyn, V.G. Gryazeva-Dobshinskaya, V.A. Il'in. A. Vas innovatsion etakchilik haqida noaniq va noaniq sharoitlarda samarali boshqarish qobiliyati sifatida yozadi. Muallifning fikriga ko'ra, innovatsion rahbar tashkilotdagi o'zgarishlarni

qo'llab-quvvatlaydi, xodimlarning sodir bo'layotgan o'zgarishlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorligiga jasorat va ishonchni namoyish etadi. Bundan tashqari, ta'kidlangan innovatsion etakchilar izdoshlarning fikr-mulohazalarini qabul qilishadi, xatolarni tan olishga va ularni ijobiy tajribada qayta ishlashga, samarali moslashishni qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlarni shakllantirishga va himoya qilishga tayyor va o'zgarishlar natijasining yorqin qiyofasiga ega.

L.R.Daft innovatsion etakchilikni namoyon etish usuli sifatida "kundalik o'zgarishlarning strategiyalari" haqida yozadi[2;18-b]. Tadqiqotchi o'zgarish strategiyasini xodimlarni yangilikka undaydigan va rag'batlantiradigan xulq-atvori stsenariylari sifatida belgilaydi. Tashkiliy o'zgarishlarning yangi me'yorlari va qadriyatlarini tasdiqlash "yorqin o'zini namoyon qilish" strategiyasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Rahbar nostandart xatti-harakatlarni namoyish etadi, g'ayrioddiy va yorqin ishlarni amalga oshiradi, boshqacha bo'lish istagi muvaffaqiyatga olib borishini ko'rsatib beradi va shu bilan xodimlarni asta-sekin kompaniyani tashkiliy o'zgarishlarga tayyorlaydi. Muallif potensial ijodkorlarga nisbatan kamsitishni yo'q qilishga imkon beradigan o'zgarishlarni taklif qiladigan mavzuga nisbatan cheklangan e'tiqodlarni olib tashlashga qaratilgan innovatsion rahbar strategiyasini ta'kidlaydi. Innovatsion etakchi uchun ularning atrofida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash guruhlarini shakllantirish muhimdir. Bunday guruhlar ba'zida tashkilotning boshqa xodimlari uchun yangiliklarga qanday munosabatda bo'lishning konstruktiv namunalariga aylanadi. R.L. Daft o'zgarishlar strategiyasi innovatsiyalar sohasida menejment menejerlari uchun rivojlanish dasturlarini yaratish uchun qimmatli manbadir[3;86-b].

P.S. Senge innovatsion etakchilik haqida o'zini o'zi o'rganadigan tashkilotda talab etilayotgan etakchi sifatida yozadi. Muallifning fikriga ko'ra, o'zgarishlarni yaratadigan rahbar yangiliklarni amalga oshirishda faol bo'ladi, zarurat tug'ilishidan oldin harakat qiladi. Rahbar o'zgarishlarni samarali amalga oshirishni rasmni ishlab chiqishdan boshlaydi. Kelajak, tashkilotning qadriyatlarini va uning maqsadlarini moslashtirish. O'zining qarashlarini amalga oshirishda u birinchi navbatda jarayon

uzoq muddatli tizimli o`zgarishlarni yaratishga imkon beradigan tashkiliy jarayonlarni boshqarish dizayniga tayanadi[4;56-b].

O`zgarish qadriyatlarini tarjima qilish qobiliyati orqali innovatsion etakchilikni ko`rib chiqish e. Sheyn tomonidan ko`rib chiqilgan. Muallifning fikriga ko`ra, kompaniya ichida yangilik yaratish va uni bozorda ilgari surish faqat qiymat paradigmasining o`zgarishi, so`ngra uning izdoshlari g`oyalari va e`tiqodlarining o`zgarishi bilan mumkin. Shunga asoslanib, innovatsion rahbarning asosiy vazifasi ular bilan o`zaro aloqada bo`lish va ularni yangi tashkiliy madaniyatni qabul qilishga tayyorlashdir[5;87-b]. Ushbu muammoning echimi innovatsion rahbar tomonidan odamlarning tushunchalarini o`zgartirish orqali mumkin. Muallif innovatsion etakchilik va tashkiliy madaniyat bir jarayonning ikki tomoni deb hisoblaydi. Madaniyatlarni guruhlar va tashkilotlar rahbarlari shakllantirishi haqiqat bo`lgani kabi, mavjud madaniyat ham rahbarlarni tanlash mezonlarini belgilashi haqiqat. Innovatsion etakchilik sharoitida mavjud madaniyatning nomuvofiqligini aniqlash, innovatsion etakchiligini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish, rivojlantirish, imkoniyat yaratishga qodir bo`lgan "madaniy inqilob" ni aniqlash va qo`llab-quvvatlash muhimdir.

Yu.O. Petrova innovatsion etakchilarni shakllantirishning asosiy muammolarini ochib beradi, ular uchun tashkilotga qarshi turishga tayyor bo`lish muhimdir.kompaniyangiz madaniyati. Umumiy qabul qilingan me`yorlardan tashqariga chiqish samarasiz madaniy namoyishni rad etish va yangi aqliy mezonlarni yaratish va efirga uzatish uchun zarurdir[6;94-b].

Innovatsion etakchilikka tizimli yondashuvni V.G. Gryazeva-Dobshinskaya, innovatsion etakchilikni sub`ektning aqliy faoliyatining turli darajalaridagi innovatsion va barqarorlashtiruvchi faoliyatning muvozanati deb hisoblaydi, bu faoliyatning aniqlik-noaniqlik darajasiga muvofiq, standart shakllar ichida va tashqarisida faoliyatning moslashuvchan kombinatsiyasida namoyon bo`ladi, inson va moddiy resurslarni boshqarish, ularning kapitallashuvini oshirishda samarali bo`lgan samarali o`zgarishlarga rahbarlik qilish qobiliyati.

Innovatsion etakchilik - bu ikkita kichik tizimga ega bo`lgan murakkab tizimiy hodisa - menejerlar faoliyatining turli darajalarini (intraindividual, individual va



metaindivial) o'z ichiga olgan qidirish va barqarorlashtirish faoliyati, bu "Korxonalar menejerlarining innovatsion etakchiligining resurslari" diagnostik dasturi yordamida tahlil qilinishi mumkin. [7;78-b].

V.G.Gryazevoy-Dobshinskayaning yondashuvi metodik jihatdan tasdiqlangan va asosli bo'lib, empirik tadqiqotlar uchun innovatsion etakchilikning asosiy tarkibiy qismlarini operatsiyalashtirishni o'z ichiga oladi[8;55-b]. "Islohot etakchi", "o'zgaruvchan etakchilik" atamalari O.S. Vixanskiy va A.I. Naumov kiritgan.

Innovatsion etakchilikka nisbatan ushbu yondashuvning cheklanganligi - bu barqarorlashuv davrida innovatsiyalar paydo bo'lishiga qaratilgan rahbar faoliyati fenomenologiyasini tahlil qilishdan chetlatishdir. Bir-birini to'ldiruvchi funktsional etakchilik uslublari kontseptsiyasi doirasida I.K. Adizes "tadbirkor" uslubini tavsiflaydi. Ushbu etakchilik uslubining asosiy yo'nalishi uzoq muddatli muvaffaqiyatli tashkiliy natijalarni shakllantirishdir. Buning uchun "tadbirkor" etakchi o'zgarishlarni boshqarish bilan shug'ullanadi, shu jumladan innovatsiyalarni joriy qilish orqali. A.K. Adizesning so'zlariga ko'ra, "tadbirkor" menejeri, tashabbuskor munosabati, kelajakdagi mumkin bo'lgan tahdidlarga javob berishga tayyorligi va faqat paydo bo'layotgan imkoniyatlarni kuzatib borishi bilan ajralib turadi[9;11-b].

Innovatsion etakchilik nazariyalarini tahlil qilish rahbar-menejerning namoyon bo'lishi va tashkiliy madaniyat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik g'oyasiga olib keladi. etakchilikning namoyon bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri ma'lum bir tashkiliy madaniyatda muhim bo'lgan qadriyatlarga bog'liq, shuning uchun biznes jarayoni ishtirokchilarining konsolidatsiyasi va kompaniyani boshqarish tamoyillari kompaniyaning tashkiliy madaniyatiga bog'liq. Ushbu izchillik, ayniqsa, korxonalar o'zgarishi davrida va etakchilik va tashkiliy madaniyat vektorlarining izchilligi manbaga aylanishi mumkin bo'lgan, korxonaning o'zgarishi davrida va murakkab xavf tug'diradigan innovatsion faoliyat davrida juda muhimdir. Shunday ekan, innovatsion etakchilik to'g'risida alohida tadqiqotlar olib borish va uni rahbarning boshqaruv madaniyati va boshqa ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqish o'ta muhim sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Евланов А. Г. Теория и практика принятия решений / А.Г. Евланов. - М.: Экономика, 2005. – 175 с.
  2. Асмолов, А.Г. Культурно-историческая психология и конструирование миров / А.Г. Асмолов. – М.: Изд-во «Институт практической психологии»; Воронеж: МОДЭК, 1996. – 768 с.
  3. Адорно Т. В. Исследование авторитарной личности. - М.: Серебряные нити, 2001. – 416 с.
  4. Шумский А. Е. Основы теории принятия решений Текст. / А.Е.Шумский. Вл-к.: Изд-во ДВГАЭУ, 1999. – 72 с.
  5. Аксеновская, Л.Н. Ордерная концепция организационной культуры: вопросы методологии / Л.Н. Аксеновская. – Саратов: Издательство СГУ, 2005. – 348 с.
  6. Кулагин О. А. Принятие решений в организациях: Учеб. пос. - СПб.: Изд. дом «Сентябрь», 2009. – 148 с.
  7. Философия: хрестоматия / сост. П.С. Гуревич. - М., 2002. – 443с.
  8. Бодуан, Ж-П. Управление имиджем компании. Паблик Рилейшнз: предмет и мастерство – М.: Имидж-Контакт. 2001. – 240 с.
- Психологический словарь / Под ред. Зинченко В.П., Мещерякова Б.Г. 2-е изд., - М.: Педагогика-Пресс, 1996. Аверченко, Л.К. Психология управления / Л.К. Аверченко. – М., 1997. – 239с.

## ИЖТИМОЙ МУҲИТНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШ – ЎСИБ КЕЛАЁТГАН ЁШ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА

*Ахмадуллин Рафаэль Фуатович  
Қуролли Кучлар Давлат музейи, илмий-услубий ва  
илмий тадқиқот ахборот маркази етакчи илмий ходими*

Мамлакатимизда иқтисодий ва сиёсий соҳаларда амалга оширилаётган кенг қамровли ишлар билан бир қаторда, ўсиб келаётган ёш авлоднинг таълим-тарбияси, эртанги куни, уларнинг жисмоний ва ақлий жиҳатдан баркамол ривожланишлари борасида давлат миқёсида улкан даражадаги ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги «Таълим тўғрисида»ги ЎРҚ-637-сонли Қарори, 2017 йилнинг «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили», 2018 йилнинг «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили», 2019 йилнинг «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили», 2020 йилнинг «Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили», 2021 йилнинг «Ёшларни қўллаб-қувваълаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили» ва 2022 йилнинг юртбошимиз томонидан “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили” деб аталиши ҳамда ушбу йилларда амалга ошириладиган тадбирлар юзасидан Давлат дастурларининг қабул қилиниши, қолаверса, юртбошимизнинг бугунги Ўзбекистон ёшлари тарбияси тўғрисида тўхталиб, “Биз ёшларимизни бошқаларнинг қўлига бериб қўймаймиз, уларни ўзимиз тарбия қиламиз” - деб таъкидлашлари юртимизда ёшлар тарбиясига алоҳида эътибор берилаётганлигидан далолатдир.

Бугунги кунда ёшлар тарбияси муаммолари деярли барча мамлакатлар учун умумий масала ҳисобланади. Ёшлар тарбияси мавзуси бўйича Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясида шундай деди: “Бугунги дунё ёшлари – сон жиҳатидан бутун инсоният тарихидаги энг йирик авлоддир, чунки улар 2 миллиард кишини ташкил этмоқда. Сайёрамизнинг эртанги куни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб

камолга етиши билан боғлиқ. Бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намоён қилиши учун зарур шароитлар яратиш, зўравонлик ғояси “вируси” тарқалишининг олдини олиш, бунинг учун ёш авлодни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, унинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш борасидаги кўп томонлама ҳамкорликни ривожлантириш лозим, деб ҳисоблаймиз.

2018 йил 12 декабрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг ялпи сессиясида Ўзбекистон томонидан ишлаб чиқилган “Маърифат ва диний бағрикенглик” тўғрисидаги резолюция бир овоздан қабул қилинди. Биз ана шу икки омил ёшлар тарбияси масалаларига бевосита боғлиқ бўлгани учун уларни айтиб ўтмоқдамиз.

Соғлом авлод – жаҳонга юз тутган Ўзбекистонда қурилаётган адолатли, ҳуқуқий, инсонпарвар жамиятнинг таянчи. Соғлом авлод жисмоний ва маънавий баркамол кишилардан иборат. Баркамол кишиларнинг жисмонан қудратли салоҳияти, маънан тетик руҳи, ақли, хуш одоби ҳамиша олмосдай чакнаб туради. Баркамоллик куртаклари, аввало, соғлом она сути орқали она қорнида, оилада пайдо бўлиб, шаклланади, болалар боғчаларида, мактабларда, олий ўқув юртларида, маҳаллаларда, жамиятда ривожланади.

Маълумки, ижтимоий объектив шарт-шароитлар ва ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари ўсмирнинг онги, хоҳиш-иродасига бўйсунмаган ҳолда таъсир этади ва унинг онги, дунёқараши, шахс сифатида шаклланиши ва хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради.

И.П.Павловнинг таъкидлашича, инсон ва ҳайвон хулқ-атвори мазмуни нафақат нерв системасининг туғма хусусиятлари, балки организмга доимо таъсир этиб турувчи ташқи таъсирлар, яъни доимий равишда бериб бориладиган тарбия ёки таълим жараёнига ҳамда ижтимоий муҳит таъсирларига ҳам боғлиқ бўлади.

Бир қатор тадқиқотчиларнинг таъкидлашларича, инсон одобли ёки одобсиз, олижаноб ёки эгоист, жиноятчи ёки соғлом хулқли бўлиб тўғилмайди. Шахсдаги у ёки бу хилдаги хусусиятлар ва установакалар кишининг ижтимоий ҳаёт фаолияти, уни қуршаб олган объектив шарт-шароитлар ва воқеа-ҳодисалар таъсирида вужудга келади. Ушбу шарт-шароитлар ва объектив муносабатлар характери индивиднинг шахс сифатида шаклланишига асос бўлиб хизмат қилади.

Демак айтиш мумкинки, шахс хусусиятларининг шаклланиши нафақат инсон организмнинг наслий хусусиятларига, балки энг аввало у алоқада бўлган ижтимоий муҳитга ҳам кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади. Ижтимоий турмуш шарт-шароитлари провард натижада инсон хулқ-атворининг шакл ва тамойилини белгилаб беради.

Болалар ва ўсмирлар тарбиясининг бузилиши ва улар хулқида оғишларнинг келиб чиқиши ва ижтимоий муҳит ўртасида ўзига хос таъсир доираси мавжуддир. Ушбу ўзаро таъсир механизми назаримиза 3-хил кўринишда намоён бўлади.

*Биринчидан*, носоғлом ижтимоий муҳит билан шахснинг ўзаро алоқалари ўсмирларда ижобий қарашларнинг салбийлашувига олиб келса, *иккинчидан* шахс ва носоғлом ижтимоий муҳит ўртасидаги ўзаро алоқа кишига ижтимоий меъёрларга тўғри келмайдиган муайян йўл-йўриқни, хусусан ғайриқонуний вазифаларни бажариш бўйича ролларни тақсим этади. *Учинчидан* эса ғайриқонуний йўл-йўриқлар ва роллар тақсимоти ўсмирда аста-секин ижтимоий муҳит талаб ва меъёрларига нисбатан деформациялашувнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Ушбу деформациялашув шахс хулқида ўзига хос ўзгаришларни келтириб чиқаради. Шунинг учун ҳам хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг аксарият қисми ижтимоий муҳитга нисбатан деформациялашув поғонасида бўладилар.

Ўсмирларда ижтимоий муҳитга нисбатан бўлган деформациялашувнинг юзага келиши ва уларда ижтимоий позициянинг мавжуд бўлмаслиги ёки тусатдан йўқолиши (мактабадан ҳайдалиш, оилада носоғлом муҳитнинг мавжудлиги, ишидан, яқин кишидан маҳрум бўлиш) ўз навбатида ноқонуний, ноахлоқий позициянинг шаклланишига олиб келади. Яъни, турли хил ғайриқонуний, ноахлоқий гуруҳларга қўшилиш, референт гуруҳларнинг ташкил этилишига сабаб бўлади. Шу боисдан жиноятчилик кучасига кира бошлаган ўсмир кўпинча мактабни ташлайди, ўзича ишга кирмоқчи бўлади, кўпчилиги эса умуман фойдали машғулот билан шуғулланмайдилар.

Кузатишларимизга қараганда, хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг аксарият қисми ижтимоий фойдали машғулотларда қатнашмайди, газета, журнал ёки бадиий адабиётлар ўқишмайдилар. Ўқиганларида ҳам ўзига хос қизиқишлар (кўл телефонидаги интернет орқали олинган расмлар, турли ўзаро ёзишмалари, эълонлар ва бошқалар) билан чекланадилар. Уларда театрга бориш, дарслик ва бадиий китоблар ўқиш бўйича кўрсатгич даражаси анча пастдир. Аммо кинотеатр, видеобар, дискотекларга қатнашиш даражаси анча юқорилиги кузатилади. Ушбулардан кўринадики, ижтимоий фойдали машғулот билан шуғулланиш, китоб, газета ўқиш, театрларга бориш ўсмирларда ижтимоий фойдали, ижобий позицияларнинг ва установкаларнинг пайдо бўлишига олиб келади.

Аксинча ҳолатларда эса болалар ва ўсмирлар хулқида салбий позиция ва установкаларнинг шаклланишига имконият яратилади. Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ижтимоий муҳит воқеа-ҳодисалари ва шарт-шароитларининг таъсир этиши ўсмирлар хулқ-атвори мазмунини белгилаб беради. Агарда ижтимоий муҳитдаги воқеа-ҳодисалар ва шарт-шароитлар ўсмирга ижобий таъсир этса ўсмир хулқида ижобий хислатлар, аксинча ҳолатларда эса салбий хислатлар, ғайриқонуний установкалар шаклланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 19 март куни ёшларга эътиборни кучайтириш, уларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларда ахборот технологияларидан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши бўлиб ўтди.

Ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказишни ташкил этиш долзарб масала ҳисобланади. Ёшлар қанчалик маънавий баркамол бўлса, турли ёт иллатларга қарши иммунитетини ҳам шунчалик кучли бўлади.

Давлатимиз раҳбари ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича 5 та муҳим ташаббусни қуйидагилардан:

Биринчи ташаббус ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади.

Иккинчи ташаббус ёшларни жисмоний чиниктириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган.

Учинчи ташаббус аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган.

Туртинчи ташаббус ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган.

Бешинчи хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутди.

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи ташаббуси билан “Ёш китобхон” танловининг Низоми ҳам тасдиқланган. Низомга кўра танлов тўрт босқичда ташкил этилади. Сўнгги босқич танловнинг Республика босқичи бўлиб, ҳар йили ноябрь-декабрь ойлари давомида “Ўзбек адабиёти билимдони”, “Жаҳон адабиёти билимдони”, “Шеърят” ҳамда “Буюк мутафаккир ва адиб” каби 4 та шарт бўйича ўтказилади. Танловнинг Республика босқичида 1-ўринни эгаллаган 3 та ёш тоифасидаги иштирокчиларнинг ҳар бири “Президент совғаси” сифатида енгил автомобил, диплом ва “Ёш китобхон” статуэткеси билан тақдирланади.

Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг ижтимоий муҳити соғлом хулқли болалар ва ўсмирлар ижтимоий муҳитидан ўзига хос тор доирадаги дунёқарашга эгаллиги, низоли вазиятлар доирасининг кенглиги, қатъий ҳаётий позициянинг, келажакка нисбатан ижобий қараш, мақсад ва интилишларнинг йўқлиги ва шу каби бир қатор жиҳатлар билан фарқланади. Қуйида биз ушбу жиҳатларни кенгроқ таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз.

1. Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг хатти-ҳаракатлари оила аъзолари томонидан қўллаб-қувватланиш ҳолати. Бунда ўсмирнинг



ноқонуний хатти-ҳаракатига оила аъзолари ва яқинлари томонидан ижобий муносабат билдирилади. Бундай иш қилма, қилаётган ҳаракатинг ноқонуний дейиш ўрнига ота-она ва атрофдагилар уларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатларини маъқуллашади ёки унга эътибор беришмайди. Натижада ўз ноқонуний ҳаракатининг маъқулланишини ҳис этган ўсмир яна бошқа бир ноқонуний ҳаракатга қўл ўради. Оқибатда салбий хулқ-атвор ўсмирнинг бутун фаолиятини, онгини қамраб олади.

2. Соғлом хулқли болалар ва ўсмирларга қараганда носоғлом хулқ-атворга эга бўлган болалар ва ўсмирларга ижтимоий муҳитдаги салбий таъсирларнинг бир жойга тўпланган ҳолда (концентрациялашган) таъсир этиши ҳолати. Яъни, хулқ оғишига эга бўлган ўсмирга ижтимоий муҳитдаги салбий таъсирлар тўпланган ва ҳар тарафлама ҳолда таъсир қилади. Бошқача қилиб айтганда, ўсмирнинг ноқонуний, ноахлоқий психология ҳукм сураётган муҳитга тушиб қолиши унга ҳар томонлама яъни, ҳам маънавий, ҳам руҳий, ҳам жисмоний, ҳам кўргазмали тарздаги таъсир ўткази. Бу ўсмирда жиноятчилик хулқининг келиб чиқиши учун қулай ижтимоий муҳит ва шарт-шароит бўлиб хизмат қилади. Натижада ўсмирда носоғлом хулқ-атвор психологияси шаклланади.

Соғлом хулқли болалар ва ўсмирларда эса тўпланган, ҳар тарафлама салбий таъсир этиш муҳитининг мавжуд бўлмаслиги уларда ғайриқонуний хулқ-атвор келиб чиқишининг олдини олади.

3. Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирларнинг соғлом хулқли болалар ва ўсмирларга қараганда тез-тез низоли вазиятларга тушиб қолиш ҳолати. Бунда тарбияси оғир ўсмир низоли вазиятлар муҳитига тез-тез тушиб қолади. Бунинг сабаби биринчидан, у ҳаёт кечириётган ва фаолият юритаётган ижтимоий муҳитнинг носоғломлигига боғлиқ бўлса, иккинчидан жиноятчи болалар ва ўсмирлар хулқ-атворидаги психопатологик ўзгаришлар ва уларнинг ёш даври хусусиятлари низоли вазиятларнинг кўпроқ юзага келишига сабаб бўлади.

4. Хулқ оғишига эга бўлган болалар ва ўсмирлар томонидан амалга оширилаётган ноқонуний хатти-ҳаракатларга катта ёшдаги кишилар ва ота-оналарнинг эътиборсизлиги ҳолати. Бунда ўз ноқонуний ҳаракатларининг

жавобсиз қолишлигини, катталар томонидан маъқулланишлигини ҳис этган ўсмир низоли вазиятларга барҳам беришда ноқонуний йўлни танлайди. Чунки у ота-онасидан, атрофдагилардан жазо олмаслиги билади. Бу эса ўсмирга янги-янги ноқонуний ҳаракатларни бажаришга имконият эшигини очиб беради.

Бугунги ўсмирларнинг истак-эҳтиёжлари олдинги ўсмирларга қараганда анча ўсган. Улар яхши кийинишини, дам олишини, турли жойларни кўришини, магнитоло ёки видеотехникаларга, уяли телефонга эга бўлишни хоҳлайдилар. Оилада эса буларга эга бўлишликка имконият мавжуд эмас. Натижада ушбу эҳтиёжларни қондириш йўлида болада ғайриқонуний хатти-ҳаракатларни бажариш истаги пайдо бўлади. Бундай истаклар болани ўз - ўзидан ғайриқонуний ҳаракатларни бажаришига мажбур қилади.

Кузатишларимиздан маълум бўлишича, вояга етмаганлар фикр доирасининг торлиги, дунёқарашининг саёзлиги, маънавий-маърифий жиҳатдан суст ривожланганлик ҳолати улар хулқ-атворида нуқсонларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади.

Маънавий олами тор, дунёқараш ва ақлий тараққиёти ўзига яраша ўсмир бундай пайтда ўз эҳтиёжларини қондиришнинг ғайриқонуний томонларини излайди ва ўғирлик, йўлтўсарлик, босқинчилик жиноятларига қўл ўради. Кўпинча бундай ҳолатларда болалар ва ўсмирлар қонуний йўл билан пул топишни, меҳнат қилиб бойликка эришишни ўйлаб ҳам кўрмайдилар. Натижада бундай ўсмирларда ғайриқонуний хулқ-атворнинг келиб чиқишига замин яратилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, болалар ва ўсмирларда тарбиянинг бузилиши ва хулқ оғиши келиб чиқишининг ижтимоий-психологик сабабларини ўрганиш вояга етмаганлар тарбияси бузулишининг олдини олишда ва баркамол авлодни тарбиялашда муҳим ҳисобланади. Бундай муҳим ижтимоий масалани ҳал этиш инсоният ва кенг жамоатчилик учун бир қатор ижтимоий тадбирларни амалга оширишни тақоза қилади. Ушбу тадбирларни амалга оширишнинг муҳим шарти сифатида жамият ва ижтимоий турмушда юзага келаётган муаммоларни бартараф этиш ва ижтимоий муҳитни соғломлаштириш намоён бўлади.

### Фойдаланган адабиётлар:

1. Шавкат Мирзиёев. “Янги Ўзбекистон Стратегияси”.
2. 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси материалларидан.
3. Шавкат Мирзиёев 2017 йил сентябрда Нью-Йоркда бўлиб ўтган БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқидан.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги «Таълим тўғрисида»ги ЎРҚ-637-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 19 март кунда ўтказилган видеоселектор материалларидан.
6. Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами. Тошкент-2020 йил

---

## JADID MA'RIFATPARVARLARINING IJTIMOIIY TARBIYAGA OID QARASHLARI (HOJI MUIN MISOLIDA)

*O'g'iloy Abdullayeva*  
*TDPU katta o'qituvchisi*

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyotida yosh avlodni ijtimoiy faol shaxslar sifatida voyaga yetkazish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki hozirda respublikamizning qariyb ko'p qismini yoshlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Yoshlarimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, ma'naviy olamini boyitish va go'zallikka intilishni kuchaytirish” vazifasini alohida ta'kidlab o'tgan. Ularning bu goyasini davom ettirgan holda hozirda

yurtboshimiz tomonidan ham qator qaror va qonunlar bilan birgalikda alohida e'tibor berilib, keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bu esa o'ziga xos ijtimoiy tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Albatta tarbiya bor joyda yuksalish va o'sish mavjudligini har bir inson yaxshi biladi. Jadid ma'rifatparvarlari o'zlarining qator asarlarida tarbiya mavzusiga juda ko'p murojaat etishgan.

Ajdodlarimizning ijtimoiy, ma'naviy qadriyatlariga asoslangan ta'limotlaridan foydalanish, ijtimoiy hayotga tatbiq etish asosida qator har xil ma'naviy tahdidlar va tanazzulga uchrashdan himoyalab kelgan. Xususan, jadid ma'rifatparvarlarining ma'naviy merosi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari yosh avlodning kamol topib o'sib ulg'ayishida asosiy manbalardan hisoblanadi.

Jadid ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Shakuriy, A.Avloniy, H.Muin, M.Abdurashidxonov singari ma'rifatparvar fidoyilarning qoldirgan o'lmas merosi bugungi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirishi, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Jadidlar o'zlarining harakat dasturlarida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning eng maqbul yo'llarini, diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun rivojlangan chet davlatlarida ilm olishlari va ularning dunyoqarashini oshirish kerakligini ham ta'kidlashgan. Ular turmushdagi qoloqlik, ilmsizlik, g'arib va qashshoqlikdan faqat milliy ongini shakllantirish orqali xalos bo'lish mumkinligini ijtimoiy faol harakatlari natijasida o'zlarining asarlari, gazeta va jurnallardagi chiqishlari orqali ko'rsatib boradilar. Tarixdan yaxshi ma'lumki, Behbudiy: "Haq olinur, berilmas. Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi. Biz musulmonlar, xususan Turkiston musulmonlari istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqlikka aslo fikr va niyatimiz yo'q"-deb yozadi.

Shu davrning yosh jadidlaridan biri Ismatulla Rahmatullayev: "Yosh avlod eng avvalo ilm-fan taraqqiyotidan xabardor bo'lishi mehnatning tagi rohat ekanligi, xalq to'q bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi, bekorchidan hamma bezor. Tirik bekorchidan o'lik afzal."- degan fikrlari orqali yoshlarga tavsiya beradi.

Ijtimoiy tarbiyaga oid pedagogik merosimizda jadid ma’rifatparvarlaridan biri Hoji Muinning (1883-1942) qarashlari ham muhim o’rin tutadi. Hoji Muin 1900 yili ma’rifatparvar Sayidahmad Vasliy (1869-1925) bilan tanishib, undan saboq oladi. Uning o’zi “Vasliy” nomli maqolasida ilk ustoziga shunday baho beradi: “Vasliy XX asr boshlarida maydonga otilib chiqib, usuli jadid maktablariga yordam va tarafdorlik eta boshlagan haqqoniy olimlarimizdan biridir”. Vasliy Hoji Muinning diniy va dunyoviy ilmlar egasi bo’lib yetishida katta ta’sir ko’rsatdi.

1901 yildan boshlab Hoji Muin maktabda o’qituvchilik qila boshladi va 1903 yili hatto Samarqandning Xo’ja Nisbatdor mahallasida o’z hisobidan yangi usuldagi maktab ochdi. 1903 yili u Mahmudxo’ja Behbudiy bilan tanishdi va umrining oxirigacha unga munosib shogird bo’lib qoldi. 1909 yildan Abdurauf Fitrat bilan do’stlashib, hamkorlik qila boshladi. Hoji Muinning ijtimoiy faol va yetuk pedagog bo’lib yetishida ana shu uch shaxs - Vasliy, Behbudiy va Fitratlarning ta’siri katta bo’ldi.

Hoji Muin turkiy, fors-tojik, arab va rus tillarini mukammal bilar edi. Bu hol uning ijtimoiy pedagog sifatida voyaga yetishida muhim ro’l o’ynagan. U jadid ma’rifatparvarlari orasida ijtimoiy tarbiya to’g’risida eng ko’p fikr yuritgan pedagoglardan hisoblanadi. Uning fikricha, millatning baxti - ijtimoiy muammolarni hal etishdadir. Bu haqda shunday yozadi: “Dunyoda o’zining hayotini himoya qilmoqchi va o’z maishatini (turmush tarzini) ta’min etmoqchi bo’lg’on kishining tabiat qonunlari va hayot sharoitlari qanday tadbirlar ko’rarga va qanday choralar izlarga tutunmog’i qancha lozim bo’lsa, sarbastona va ma’sudona bir suratda yashajakchi bo’lg’on bir millatning hay’at majmuasi ham ijtimoiy hayotidagi vazifalarni bajarishga bog’liqdir». Demak, bu fikrdan shunday xulosalar kelib chiqadi:

- alohida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash bilan millatning (jamiyatning) ijtimoiy muammolarini hal qilish mumkin;
- shaxsni ijtimoiy tarbiyalash tabiat qonunlari va real ijtimoiy sharoitlarga asosan amalga oshiriladi;
- ijtimoiy tarbiya vositasi asosida shaxs mas’udona (baxtni) hayot kechirishga yo’naltiriladi.

Bunday qarash XX asr I choragida jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega edi. Diqqat qilinsa, unda tarbiyaning dunyoviylik printsipiga amal qilish ilk rejaga qo'yilmoqda. Hoji Muin ijtimoiy tarbiyada dunyoviylik printsipiga asoslanish masalasiga doir fikrida umrining oxirigacha qoldi. U nohaq ravishda "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olinganida ham o'z fikridan qaytgan emas. Pedagogning asarlarini tahlil qilish shunday mulohazaga olib keladi: ijtimoiy tarbiya jamiyat rivoji uchun zaruratdir va u keng ko'lamda olib borilishi kerak.

Hoji Muin ehtiyoj darajasidagi ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish uchun quyidagilarga amal qilishni tavsiya qiladi:

1. Oilani isloh qilish. Bunda nikohning ixtiyoriyligi va qonuniyligiga qat'iy rioya qilish; to'y, nikoh va ta'ziya marosimlaridagi isrofgarchiliklarga chek qo'yish; oilada bola tarbiyasiga alohida e'tibor berish muhimdir.

2. Bolalar bog'chalari tashkil qilish. Bunda taraqqiyparvarlik mamlakatlarda kuzatilganidek, turar joylarning eng yaxshi maskanlarini bolalar bog'chalariga aylantirish va ularda yuksak darajadagi tarbiyani yo'lga qo'yish katta ahamiyatga egadir.

. Ta'lim maskanlarini kengaytirish. Buning uchun yangi usuldagi maktablarni ko'paytirish, xalq dorilfununlari ochish, qizlar maktablari tashkil qilish, turli kasb-hunar o'rgatuvchi o'quv kurslari tashkil etish va o'qituvchilar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

4. Matbuotni kuchaytirish. Bunda kundalik gazeta, jarida (jurnal) va devoriy varaqalarni nashr etishga va ular vositasida "xalqning ko'zini ochish"ga e'tibor berish muhimdir.

. Davrning ilg'or kishilaridan ibrat olish. Bu borada pedagogimiz o'z davrining mashhur kishilari Behbudiy, Vasliy, Shokir Muxtoriy kabilarni namuna sifatida tasvirlab ko'rsatadi.

6. Ijtimoiy illatlarni isloh qilib borish. Bunda boylikka o'chlik, poraxo'rlik, tanballik, g'ofillik, xiyonatkorlik, bahillik kabi xulqiy illatlarni bartaraf qilishga e'tibor berish ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bo'ladiki, Hoji Muin o'z davrida bugungi kunimizga hamohang bo'lgan qarashlarni ilgari surgandi. Shu tariqa u o'z davrida keng

ko'lamli ijtimoiy tarbiyaning yo'lga qo'yilishini orzu qilgandi. Shunday qilib, Hoji Muin ijtimoiy tarbiya masalasida o'ziga xos qarashga ega edi. Bu qarash bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatni tortadi. Negaki uning maqsadi odamlarni "ijtimoiy xastaliklardan xalos etish" edi.

#### **Foydalanilgan adabiyolar:**

- 1.I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T-2008.
- 2.Hoji Muin. Tanlangan asarlar.- T-2005.
- 3.Qosimov B, Dolimov U. Ma'rifat darg'alari.-T-1980.
- 4.Behbudiy M. Tanlangan asarlar.-T: Ma'naviyat 2009
- 5.Sh.Rahmatullayev."Alifbe ta'limi" 1915

---

## **ЁШЛАРГА ТАЪЛИМ - ТАРБИЯ БЕРИШДА, ОЛИБ БОРИЛАДИГАН ИЖТИМОЙЛАШУВНИНГ УЗЛУКСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ**

*Холмуминова Ойгул Жумаевна*

*Термиз давлат университети Ижтимоий фанлар факультети*

*Бошлангич таълим кафедраси Катта ўқитувчиси, педагогика*

*фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик инқирозларнинг олдини олишда аҳолининг, айниқса, ўсиб келаётган ёш авлоднинг экологик-ҳуқуқий таълим ва тарбияси ҳамда экологик маданиятини такомиллаштириб бориш ҳал қилувчи омиллардан бири саналади. Мустақил йилларида мамлакатимизда ёшларимизнинг таълим ва тарбияси масаласига алоҳида эътибор бериб келинмоқда. Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти



Ислом Каримов ташаббуси билан 2012 йилни “Мустаҳкам оила йили”<sup>20</sup> деб эълон қилинди ва мазкур йилни бундай деб номланиши, оилада экологик-ҳуқуқий таълим ва тарбияни олиб борилишини замон талаби даражасида олиб борилишини ҳам тақозо этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2018 йил 7 февраль куни хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш масалаларига бағишланган йиғилиш бўлиб ўтди. “Унда хотин-қизлар қўмитаси, маҳалла ва бошқа жамоат ташкилотлари йиллар мобайнида фақатгина турли тадбир ва йиғилишлар ўтказиш билан чекланиб, ижтимоий вазияти оғир оилалар, аёллар ва ёш-қизларга чинакам ёрдам бериш бўйича самарали фаолият олиб бормаган. Бунинг оқибатида жойларда қўллаб масалалар тўпланиб қолган, уларнинг ечими бўйича аниқ манзилли ишлар амалга оширилмаганлиги”, - алоҳида таъкидланди<sup>21</sup>.

“Ёшларимизнинг ҳаётий муаммоларига янада кўпроқ эътибор қаратиш, уларга мос бўлган замонавий иш ўринларини кўпайтириш, эзгу интилиш ва ташаббуслари, инновацион ғояларини қўллаб-қувватлаш, ёш авлодимизнинг ижтимоий-маиший шароитларини яхшилаш бундан буён ҳам барча даражадаги давлат идораларининг энг асосий, ҳал қилувчи вазифаси бўлиб қолади”<sup>22</sup>-деб таъкидлаган эди Президент Шавкат Мирзиёев.

Мазкур ғоя юртимизда экологик муаммоларни олдини олиш, экологик қонунчиликни такомиллаштириш, экологик хавфсизликни таъминлаш ҳамда бу борада хорижий мамлакатлар тажрибасидан кенг фойдаланиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилишга ҳамда ўқувчиларни экологик-ҳуқуқий таълим-тарбиясини янада оширишга ҳам тааллуқли. Ушбу

---

<sup>20</sup>Каримов И.А.Бизнинг йўлимиз-демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир.Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 19 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.//Инсон ва қонун, 2011 йил 8 декабрь

<sup>21</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2018 йил 7 февраль куни хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш масалаларига бағишланган йиғилишда сўзлаган нутқи.Хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш доимий эътиборимиз марказида бўлади.//Халқ сўзи,2018 йил 8февраль

<sup>22</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевни“Ўзбекистон ёшларига байрам табриги” (<http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1876>) 29.06.2018.

талаблар авваламбор Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 50-моддасида “Фуқаролар атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар” ва Конституциянинг 55-моддасида “Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий захиралар умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасида”,<sup>23</sup>-деб кўрсатилгани ҳам оилада экологик ҳуқуқий таълим ва тарбияни олиб боришда алоҳида аҳамиятга эга.

Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Қонунчилик палатаси томонидан 2016 йил 12 августда қабул қилинган Сенат томонидан 2016 йил 24 августда маъқулланган “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги<sup>24</sup> қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони<sup>25</sup> унга кўра, оила институтини мустаҳкамлаш бўйича, энг аввало, “Соғлом оила-соғлом жамият” концептуал ғоясини ҳаётга татбиқ этишга йўналтирилган ягона давлат сиёсатини олиб бориш, бу соҳада норматив-ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилганлиги, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йилги қарорига кўра, “Ўзбекистон Республикасининг экологик таълим тизимини ривожлантириш Концепцияси”ни қабул қилинганлиги, айниқса Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги ПФ-5618-сон фармони билан тасдиқланган, “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш Концепцияси”<sup>26</sup>ни қабул қилинганлиги бу борада олиб борилаётган ишлар давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири этиб белгиланганлигидан далолат беради.

<sup>23</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2019.-40 б.

<sup>24</sup>Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонуни, Халқ сўзи, 2016 йил, 15 сентябрь

<sup>25</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2 февраль 2018 йилги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. // Халқ сўзи, 2018 йил, 3 февраль

<sup>26</sup>Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2019 йил 14 январь, 1-2-сон, 7-модда

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Президентининг алоҳида “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги<sup>27</sup> қарори қабул қилинди ва унда жумладан, ўқувчиларга экологик-ҳуқуқий таълим-тарбия бериш билан боғлиққуйидаги бир қатор камчиликлар мавжудлиги эътироф этилди:

Биринчидан, мактабгача таълимни бошқаришнинг амалдаги ҳолати тизимли муаммоларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этиш, мазкур соҳада, жумладан, нодавлат секторда замонавий технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш имконини бермаяпти; иккинчидан, мактабгача таълим соҳасига инвестицияларни жалб қилишга, жумладан, ижтимоий-ҳаммабоп мактабгача таълим муассасаларини ташкил этиш, уларни моддий-техник жиҳатдан қайта жиҳозлаш ва илғор педагогик технологияларни қўллашга қаратилган давлат-хусусий шериклик механизмлари жорий қилинмаган; учинчидан, мактабгача таълим муассасалари инфратузилмаси ва моддий-техник базасининг амалдаги ҳолати болаларни мактабгача таълим муассасалари билан тўлиқ қамраб олишни таъминлашга имкон бермаяпти, мамлакатда аҳоли сонининг ўсиши айрим мактабгача таълим муассасаларининг ҳаддан ташқари бандлигига олиб келмоқда; тўртинчидан, миллий маданий-тарихий қадриятларни акс эттирувчи ва болалиқдан китоб ўқишга қизиқишни уйғотувчи ўқув-методик, дидактик (шу жумладан, ўйинлар ва ўйинчоқлар) материаллар ва бадиий адабиётларни тайёрлаш ҳамда мактабгача таълим муассасалари фаолиятига жорий этиш ишлари замонавий талабларга жавоб бермайди; бешинчидан, кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлашнинг амалдаги тизими мактабгача таълим соҳасини болаларни тарбиялаш ва ҳар томонлама ривожлантириш масалаларини профессионал даражада ҳал этишга қодир юқори малакали мутахассислар билан таъминлай олмайди; олтинчидан, мактабгача таълим муассасалари ходимларини моддий рағбатлантириш тизимининг паст даражада эканлиги малакали кадрларни жалб қилиш имконини бермаяпти; еттинчидан, мактабгача таълим муассасаларида

<sup>27</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. //Халқ сўзи, 2017 йил, 9 сентябрь

болаларга тиббий хизмат кўрсатиш бўйича ҳудудий соғлиқни сақлаш органлари ишини ташкил этишдаги камчиликлар болаларнинг ҳаёти ва соғлиғини ҳимоя қилиш, шу жумладан, соғлом овқатланишини таъминлаш бўйича профилактик чора-тадбирлар самарадорлигининг пасайишига олиб келишлиги алоҳида кўрсатилди.

Эндиликда ўқувчиларга “ҳуқуқий таълим ва тарбия”ни ҳамда “экологик-ҳуқуқий таълим-тарбия” бериш замон талаби бўлиб таълим ва тарбия институтининг алоҳида субинститутларидан бири бўлиб қолмоқда. Бу эса, оилада баркамол авлодни шакллантиришда янги-янги талабларни амалга оширишни тақозо этади.

Бугунги кунда Президент”....ёшларни ҳар томонлама баркамол шахс қилиб, ватанпарварлик ва миллий мустақиллик ғояларига содиқлик руҳида тарбиялашга, шунингдек, ўқувчиларда бой илмий, маданий ва маънавий меросимизга, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган маънавий ва ахлоқий сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган педагогик жараёни замонавий педагогик технологиялар асосида ташкил этишликни<sup>28</sup> алоҳида таъкидлаб ўтди. Юқорида кўрсатилган концептуал ғояга асосан, мактаб ўқувчиларига экологик-ҳуқуқий таълим ва тарбия бериш қуйидаги йўналишларда олиб борилиши модель асосида кўрсатилган:

Оилада экологик-ҳуқуқий таълим ва тарбияни олиб борилиши ёшларни табиатга, атроф-табиий муҳит ва унинг бойликларини севишга, муҳофазалаш ҳамда бундан оқилона фойдаланишдаги дастлабки экологик ҳуқуқий онгини, таффақурини ҳамда тушунчаларини шакллантиришга ёрдам беради. Президент Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда, “Оила масаласини комплекс ўрганиб, мавжуд ҳолатни таҳлил этиш, мониторинг қилиш ва баҳо беришга, илмий тадқиқотлар орқали оила фаровонлигини оширишга хизмат қиладиган янги тизим яратилди”... Албатта, бу борада белгиланган чора-тадбирларнинг мазмуни, сифати ва самарасини ошириш учун ҳали кўп иш қилишимиз керак. Бугунги кунда изчил

<sup>28</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-хунара таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.//Халқ сўзи, 2018 йил, 26 январь

амалга оширилаётган “Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла”, “Ёшлар-келажагимиз”, “Ҳар бир оила-тадбиркор” каби дастурлар айна шу мақсадларга қаратилгани билан аҳамиятли”<sup>29</sup>.

Шу муносабат билан, оила даврасида ҳуқуқий саводхонликни оширишга мўлжалланган, элементар ҳуқуқий билимларни ўргатишга қаратилган ва кундалик ҳаётдаги муҳим масалалар юзасидан ҳуқуқий қўлланма тайёрлаш ва бепул тарқатиш ва болалар учун ҳуқуқий мавзуларда ва одоб-ахлоқнинг оддий ва кундалик қоидаларини билишни, шунингдек, ватанпарварлик, қонунларни ҳурмат қилиш, ўзбек халқининг тарихи ва миллий қадриятларини ўргатишни тарғиб қилувчи турли мультипликацион фильмларни яратишга алоҳида эътибор берилганлигига<sup>30</sup> ўта муҳим.

2. Мактабгача таълим муассасаларида экологик-ҳуқуқий таълим ва тарбияни олиб борилиши эса, ёш болаларни оилага нисбатан экологик ҳуқуқий онги, таффақурини анча шаклланидан далолат беради. Бу ёшда болаларимиз ўз қилмиш оқибатларини яхшилик ва ёмонликка йўналтирилганлигини тушуна оладилар. Шу боис тарбиячилар бу ёшдаги болаларга нисбатан она табиатга ва атроф-муҳитга нисбатан яхши хислатларни намоён этишга, жонли табиат бойликларини кўрсатиб уларни асрашга йўналтириш содда китоб ва расмлар орқали уларга ижобий таъсир қилишга кўмаклашишлари лозим. Шунингдек, янги авлод ҳуқуқий дарслик ва ўқув қўлланмалари тизимини яратиш. Бунда умумтаълим мактаблари бошланғич синф ўқувчилари учун ҳуқуқий билимларни кўргазмаларни ўргатишга қаратилган ўқув қўлланмаларини, таълим муассасалари учун ҳуқуққа оид фанлари бўйича ўқув дарслик ва қўлланмаларини тайёрлаш чораларини кўриш мақсадга мувофиқдир. Зеро, бу жараён оиладаги ижобий психологик- педагогик ҳолатларни давоми бўлиб, оилада экологик-ҳуқуқий таълим ва тарбияни олиб борилишини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

<sup>29</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишлаб ўтказилган тантанали маросимдаги нутқи.//Халқ сўзи, 2019 йил 8 март

<sup>30</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги ПФ-5618-сон Фармони билан тасдиқланган, “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш Концепцияси”.//Ўзбекистон Республикаси қонун

## ЁШЛАР ЎРТАСИДА КОМПЬЮТЕРГА ТОБЕЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШ

*Ёкутой Ўктамова*

*Ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш ва психологик-педагогик Республика таъхис маркази психолог-методисти*

**Калит сўз:** Компьютерга тобелик, психологик тобелик, Компьютер касаллиги, эмоционал наркомания.

**Аннотация:** Мазкур мақолада ёшлар ўртасида юзага келаётган компьютерга тобелик ҳолатларини аниқлаш ва уни олдини олиш бўйича билим ва кўникмаларни шакллантириш, ҳамда салбий одатларни олдини олиш учун керакли тавсиялар берилган.

Кейинги вақтларда деярли барча оилаларда компьютер, планшет, мобил телефон каби замонавий қурилмалар мавжуд. Мазкур қурилмалар функцияларига турли ўйинлар ҳам киритилган. Албатта, бу ўйинлар болаларнинг эътиборидан четда қолмайди. Бундан ташқари, интернет-кафеларда ҳам болалар компьютер ўйинларини қизиқиб, завқ билан ўйнаётганларининг кўп бор гувоҳи бўлганмиз. Ўйин бола учун унинг олам ва атрофидаги воқеликни билишга бўлган эҳтиёжларини қондираётганга ўхшайди. Психологларнинг маълумотларига кўра, компьютер ўйинларини ўйнайдиган 10-15% кишилар уларга тобе бўлиб қолишар экан. Тобелик асосида эса роҳатланишга нисбатан эҳтиёж ётади. Мазкур тобелик ҳар қандай ёшда пайдо бўлиши мумкин, бироқ у ўсмирларда ўта таъсирли бўлади.

“Компьютерга тобелик” тушунчаси 1990 йилда пайдо бўлди. Мутахассислар тобеликнинг бундай турини ўзига хос “Эмоционал наркомания”га тааллуқли деб ҳисоблашади. Компьютерга тобелик оғишган хулқ-атвор турларидан бири ҳисобланади ва у ўзининг эмоционал рухий кайфиятини ўзгартириш усули ёрдамида кундалик ташвишлардан қочишга интилиш ҳолати

билан характерланади. Бундай пайтларда инсоннинг психикаси тормозланади, индивидуал шахсий ривожланиши тўхтайтиди.

Бугунги кунда компьютерга тобелик пайдо бўлишининг иккита асосий психологик механизми фарқланади: *воқеликдан узоқлашиши ва ўзганинг родини қабул қилиши эҳтиёжи*. Улар одатда бир вақтнинг ўзида ишлайдилар, бироқ тобеликнинг шаклланишига таъсир кучи бўйича бири иккинчисидан олдинлаб кетиши мумкин. Иккала механизм ҳам салбий ҳаётий кечинмаларни компенсация қилиш жараёнига асосланади, яъни агар инсон ўз ҳаётидан тўлиқ мамнун бўлса, ҳал қилинмас психологик муаммолари мавжуд бўлмаса ва ўз ҳаётини бахтли ҳамда самарали деб ҳисобласа, мазкур механизмларнинг таъсири кузатилмайди.

**Компьютер касаллиги** – бу секин-аста шаклланадиган касалликдир. Агар виртуал оламга кириб қолган кишини 2 соат ёки ундан кўпроқ муддатга компьютердан узоқлаштирилса, у ичмаса туролмайдиган алкоголикка ўхшаб ўзида абстинент синдромни ҳис этади. Компьютерга тобелик билан игроманиянинг илдизлари бир хил.

Компьютерга тобеликнинг асосий белгиларини кўриб чиқамиз:

- ишдан ёки компьютердан узоқлашадиган бўлса, тажовузкорона кайфият пайдо бўлади, илтимосларга эътибор ҳам бермайди;
- агар компьютер олдида одатдагидан камроқ ўтирадиган бўлса, ўзини эзилган ҳис этади;
- ишда ёки ўқишда муаммолар пайдо бўлади;
- мулоқотда, шахсий низолар кўринишида муаммолар пайдо бўлади;
- инсон атрофдагилардан қанча вақт компьютер олдида ўтирганини, қандай сайтларга кирганини яширади;
- ўзга ишлар билан шуғулланган пайтларда ҳам фақат компьютер, ўйинлар, Интернет ҳақида ўйлайди ва гапиради;
- инсоннинг кун тартиби, овқатланиши ва уйқуси бузилади, компьютердан узоқлашмасдан туриб овқат истеъмол қилади;
- бесабрлик, нохуш кайфият ва компьютерга қайтишни мунтазам ўйлаш ҳолатлари кузатилади.



Компьютерга тобеликнинг шаклланиши секин-аста кечади. Психологик тобеликнинг қуйидаги босқичлари фарқланади:

- **енгил қизиқиш босқичи:** ўйинга нисбатан турғун эҳтиёж ҳали шаклланмаган, ўйин жараёни инсон учун муҳим қадрият ҳисобланмайди;
- **қизиқиш босқичи:** компьютер ўйинларини ўйнашга нисбатан эҳтиёж кузатилади;
- **боғланиш босқичи:** ўз ўзини англаш ва ўз ўзини баҳолашга нисбатан жиддий ўзгаришлар кузатилади, ўйин реал оламни тўлиқ сиқиб чиқаради;
- **тобелик босқичи:** компьютерга тобеликнинг сўнгги босқичи инсонда ўйин фаоллигининг сўниши, индивиддаги психологик тузулманинг соғайишга қараб ўзгариши билан феъл-атворланади, бироқ бундан кейин ўйинга нисбатан қизиқиш ортади ва илк ҳолатга тушиб қолинади.

Компьютер ўйинлари орасида мантиқий ва ривожлантирувчи ўйинлар ҳам кўп бўлиб, болалар тафаккурини ўстириши, болаларни ўйлашга мажбур этадиганлари ҳам талайгина. Ўқувчи болаларнинг идроки ўйинлар воситасида янги ахборотларни осон қабул қилиши мумкин. Компьютер ўйинлари билан болаларнинг кунига бир соатдан ортиқ бўлмаган вақт мобайнида шуғулланиши, ҳатто уларда ижобий ўзгаришларни бериши ва умуман, зарарли бўлмаслиги ҳам мумкин. Айрим компьютер ўйинлари болаларга санаш, ҳисоблаш, ўқишни ўргатиши ва уларнинг диққатини жамлашга ўргатиши ҳам мумкин, бу борада махсус йўналтирилган ўйинлар яратилган. Улар бола хотирасини мустаҳкамлаши, ижодий тафаккур ҳамда тасаввурларини шакллантириши ва ривожлантиришга ёрдам беради.

Агар бола меъёрдан ортиқ шуғулланиб, салбий мазмундаги компьютер ўйинлари билан монитор экрани олдидан тургиси келмай, узоқ вақт шуғуллана бошласа, бу ҳолат катта муаммоларга олиб бормасдан, тезроқ олдини олиш зарур. Бола ўн ёшдан кичик бўлса, бу, айниқса, хавфлидир. Бундай ҳолатдаги компьютер ўйинлари болада ҳам жисмоний, ҳам руҳий салбий таъсирга эга бўлиши мумкин. Болалигидан ҳарақациз ҳолатда ўйинлар билан овора бўлиб вақт ўтказишга

ўрганган бола кейинчалик ҳам жисмоний фаолликдан қочиб, дангасаликка ўрганиб қолади.

Натижада, боланинг саломатлигида ҳам салбий таъсирлар: иштаҳа йўқлиги, уйқусизлик, нутқи ва жисмоний нуқсонлар кузатила бошлайди.

Бундай ҳолат юзага келмаслиги учун ота-оналар қуйидаги тавсияларга амал қилишлари зарур:

1. Ота-оналар боланинг олдида доим ўзлари намуна бўлишлари.
2. Боланинг хоҳиш-истакларини ҳеч қачон камситмай, тўғри тушунтира билиш.
3. Фарзандларига дўст бўлиш, ишончини қозониб, зарур ҳолатларда қўллаб-қувватлаш.
4. Компьютер ўйинларига қизиқа бошлаган даврида болага зарур бўлган қоидаларни тўғри тушунтира билиш.
5. Болани компьютерда шуғулланишдан бутунлай чекламаслик. Ахир замонавий ҳаётимиз айнан компьютер технологияларига боғлиқ.
6. Фарзандларга компьютерда таълимий, мантиқий ва ривожлантирувчи ўйинлар билан шуғулланишни тавсия этиш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ковако В.И. Иситиш технологияси: мактаб ўқувчилари ва компьютер / В.И. Колко. - м .: "Вако" нашриёт уйи, 2007 йил.
2. Леонтев В.П. Компьютер энциклопедияси Мактаб ўқувчилари. - м .: Олама-Пресс Тегизаси, 2006
3. Рязантева И.А. Компьютер - дунёга ёки ёлғизлик учун йўл.
4. <http://www.rjevka.com/kids/> бола ва компьютер

## ЎСПИРИНЛАРДА СОЦИАЛ ТОЛЕРАНТЛИКНИНГ ШАКЛЛАНИШ МЕЪЗОНЛАРИ

*Сатторова Махлиё Дилмурод қизи  
Термиз давлат университети  
Психология кафедраси ўқитувчиси*

**Аннотация:** Ушбу мақола ўспиринда социал толерантликнинг шаклланиши муаммосига бағишланган. Социал биғрикенглик тушунчасининг мазмуни ва унинг ўспиринларда шаклланишининг психологик жиҳатлари ёритилган.

**Калит сўзлар:** ўспиринлик ёши, толерантлик, социал толерантлик, когнитив, эмоционал, хулқ-атвор.

**Annotation.** This article is devoted to the problem of the formation of social tolerance in the adolescence. The content of the concept of social resilience and the psychological aspects of its formation in adolescences are covered.

**Keywords:** spinal age, tolerance, social tolerance, cognitive, emotional, behavioral

**Аннотация.** Данная статья посвящена к проблеме социальной толерантности подростковый возраст. В статье рассматривается смқсл понятия социальной толерантности и особенности его формирования у подростковый возраст.

**Калит сўзлар:** юношеский возраст, толерантност, социальный толерантност, когнитивный, эмоциональный, поведенческий

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев эътироф этганларидек, - “Ўзбекистон аҳолисининг асосий қисмини болалар ва ёшлар ташкил этаётган хозирги давр ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш, давлат ижтимоий сиёсатининг истиқболга мўлжалланган, узоқни кўзлаган, Ўзбекистоннинг буюк келажagini яратишга қодир бўлган ёш авлодни тарбиялаб вояга етказиш, инсонни олий қадрият санаб, инсон манфаатларини ҳамма нарсадан устунлигини таъминлашни талаб этмокда .

Комил инсонни тарбиялаш ва уларни толерантлик руҳида тарбиялаш масаласи Шарқ мутафаккирлари Абу Райҳон Беруний, Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Унсурул Маолий Кайковус, Хусайн Воиз Кошифий, Алишер Навоий, Абдулла Авлонийлар томонидан ўрганилган.

Педагог олимлардан Д.Ж.Шарипова, М.Куронов, В.Андриянова, Ф.Р.Қодирова, Г.Акрамова, Р.Медитова, З.Салиева, Г.Арипова, Б.С.Гершунский, О.Б.Скрябина, В.С.Кукушин, О.О.Кащенко, И.В.Миротворскаяларнинг ишларида таълимнинг турли босқичларида ўқувчиларда толерантлик фазилатини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари ёритиб берилган.

Бу борада психолог олимлар Ғ.Б.Шоумаров, Э.Ғозиев, В.Каримова, Б.Кодиров, М.Мирҳосилов, Н.Соғиновлар ва педагог олимлар Р.Жўраев, О.Мусурмонова, М.Э.Ахмедова, Р.Маматкулова, Ш.А.Атаджанов, Ў.Ш.Асқарова, А.Ш.Мухсиеваларнинг илмий тадқиқот ишларида ўз аксини топган.

“Бағрикенглик” сўзининг маъноси, лотинча “чидамлилиқ” ва “сабр-тоқат” демакдир. Одатга кўра, бағрикенглик – тажовуссиз бегона қарашларни қаршилиқсиз қабул қилиш демакдир. Ўзбек тилида бағрикенглик тушунчаси, қалбнинг кенглиги сифатида белгиланади, турли миллатларнинг миллий урф одатлари, миллий маданияти ва диний эътиқодларлар ҳамкорлиги акс этади.

Ўзаро суҳбат натижасида биз ўзаро тушунишга эришиш, ёши, жинси, ижтимоий мавқеи, касби, ижтимоий келиб чиқиши, дини, миллати, соғлиги ва бошқалардан қатъий назар инсонларни севиш, уларга ғамхўрлик қилиш, ёрдам кўлини чўзиш, инсон сифатида ёндошиши билан бирга ҳаётни севиш, одамларни севиш, ўзини ва муносабатларни қадрлаш кабиларни ижтимоий бағрикенгликка дахлдор тушунчалар сифатида қарашимиз мумкин.

Талабалиқ даври ўспиринилиқ ёш даврига тўғри келади. Ўспиринлиқ даври психологияда икки босқичга ажратилсада, умумий маънода бу давр шахс ҳаётий позицияси шаклланишининг янги босқичи сифатида эътироф этилади. Шунинг учун ҳам бу даврнинг бошланиши илк ўспиринлиқ даври бўлиб, «камолот бўсагаси» деб таърифланади. Бу камолот босқичи физиологик, психологик ва ижтимоий чегараларни ўз ичига олади. Ўспиринларнинг “катта” ижтимоий

мақомини эгаллаши, бу тараққиёт даврининг қонкрет мазмуни биринчи навбатда ижтимоий шароитлар билан белгиланади. Ёшларнинг жамиятда тутган ўрни, уларнинг мавқеи, улар эгаллайдиган билимларнинг ҳажми ва бир қатор бошқа факторлар ижтимоий шароитларга боғлиқдир. Ўспиринлик - бу одамнинг фуқаро сифатида шаклланиши, унинг ижтимоий жиҳатдан етилиши, ўз тақдирини ўзи ҳал қилиши, ижтимоий ҳаётга фаол иштирок этиши даври, фуқаро ва ватанпарварнинг маънавий сифатлари таркиб топадиган даврдир.

Айнан талабалик ёшида социал толерантлик хусусиятлари шакланганлигини ўрганиш ва уни ривожлантиришнинг психологик усуллари тадқиқ этиш муҳим ижтимоий-психологик аҳамиятга эга. Рус психологи Л.И.Божович илк ўспиринлик даврида шахс мотивацион соҳасининг ривожланишига урғу беради: ўқувчиларнинг ҳаётда ўз ўрнини ва ички позитсиясини аниқлаши, дунёқарашнинг шаклланиши ва унинг билиш фаолиятига, ўз-ўзини англашга ва ахлоқий онга таъсири назарда тутилади.

“Толерантлик” тушунчаси узоқ асрлар давомида шаклланди ва ҳозирги вақтда ҳам турли белгилар билан тўлдириб борилмоқда. Толерантлик тушунчаси турли маданият ва халқнинг тарихий тажрибаси билан боғлиқликда хилма-хил кўринишларда намоён бўлади. Ўзбек тилида нашр этилган луғатларда “толерантлик” тушунчасининг “бағрикенглик” тушунчаси билан синоним сифатида ишлатилиш ҳолати кўзга ташланади: “Бағрикенглик – ўзгаларга нисбатан меҳр-муруватли, ғамхўр, сахий, кенгфёълли бўлган, ана шундай маънавий фазилатларга эга кишиларни ифодаловчи тушунча. Бағрикенглик ўзгаларнинг дунёқарашини, диний эътиқоди, миллий ва этник хусусиятлари, анъана ва маросимларига ҳурмат-эҳтиромда бўлиш, муомала-муносабатда камситиш ва таҳқирлашларга йўл қўймаслик, инсонийликни ҳамма нарсадан устун ҳисоблаб, жамоада, иш жойларида, маҳалла-қўйда бунга риоя этишни англатади.

Социал толерантлик – бу жамиятнинг хилма хил гуруҳлари билан ўзаро шериклик муносабати бўлиб, жамияда барқарорликни таъминлаш, турли ижтимоий гуруҳлар таркибида фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қизиқишларини ҳимоя қилишни назарда туради. М.Вебернинг таъкидлашича ҳуққ-атвор

ижтимоий ҳисобланади, “мазмунан бошқа одамларнинг хулқи билан таққосланадиган”. Социал толерантлик шахснинг ўзи ва ҳамфиқрлар гуруҳига шунингдек, этник ва ҳуқуқий доирасига нисбатан ижтимоий масъулиятидир.

Бошқа гуруҳлар мавжуд бўлиши ва ҳуқуқларини тан олиши шахснинг нафақат, ўзининг у ёки бу ижтимоий гуруҳ вакили сифатида англаши, балки уларнинг қадриятларини фарқлай олишини таъминловчи ижтимоий-психологик баркамоллиги билан боғлиқдир. Бошқа кишиларнинг бошқа гуруҳга мансублиги ва ҳуқуқларини тан олувчи хулқ-атвори социал толерантлик деб аташ мумкин. Ўспиринларда асарларни ўқиш ва тушунтириш орқали мустақил фикрлаш, мулоҳаза юритиш ва мунозараларга киришишга атрофдаги муносабатлар фикр сабр-тоқатли ва толерант бўлишга ўргатади. Унда аста-секин табиат ва жамият ҳақида ўзининг нуқтайи назари, эътиқоди, қараши шаклланади.

Маълумки, шахснинг анашу фазилатлари унинг фикрлаши, мустақил ўйлаши, тўғри ҳукм ва хулосалар чиқариши, қатъий қарорга кела олиши натижасидир. Ўспиринларнинг адабий асарни баҳолаши, у ҳақда шахсий фикрларни билдириши, муаммо юзасидан баҳслашуви инсоний хислатларнинг муайян даражада иштирок этиши танқидий тафаккурнинг айнан ўзгинасидир. Турмушда учрайдиган ноўрин танқидийлик эса ўспириннинг бадиий диди ва ҳаётий тажрибаси заифлигидир.

Бағрикенгликнинг бундай турини бошқа жиҳати С.Л. Братченконинг фикрича, бошқа кишиларнинг турли эмоционал кўринишларига чидамлилиқ асосида муносабатда бўлиш билан боғлиқдир. Ривожланган «аффектив бағрикенглик» инсонга нафақат ўзининг эмоционал жараёнларини, балки бошқаларнинг кечинамаларини уларни асабийлаштирмасдан, уларга салбий маъно юклаган яхши англашга имконият яратади.

Ўспиринларда бағрикенгликни ташкил этувчи кўпгина элементларни махсус ўқитиш ва социал-психологик тренинглари ўтказиш йули билан шакллантириш мумкин бўлади. Аксарият психологик-педагогик ишланмаларда бағрикенгликни шакллантирадиган ёндашувларга асосий эътибор қаратилади.

Ўспирин ёшдаги талабаларда толерантликни шакллантиришда эмпатиянинг аҳамияти беқиёс ва бу фикрни деярли барча тадқиқотчилар маъқуллаган. Толерантликнинг эмоционал ташкил этувчисининг аҳамияти шундаки, айнан шу улчов коммуникатив жараёнда суҳбатдошларнинг ўзаро умумийликка эришишлари, узилган инсоний алоқаларни тиклашлари имконини беради. Бундан ташқари, эмпатия суҳбатдошлар ўртасидаги когнитив ёки хулқ-атвор текислигида юзага келиши мумкин бўлган қарама-қаршиликларни бартараф этиш ёки юмшатиш имконини беради.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуллаева Ш.А. Организация работы по воспитанию толерантности в средних общеобразовательных школах Современное образование 2017 №2
2. Ш.А.Дўстмухамедова, З.Т.Нишанова, С.Х.Жалилова, Ш.Т.Каримова, Ш.Т.Алимбаева “Ёш даврлари ва педагогик психология” Т.,2010, 159-163 б.
3. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. / Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири А.Х.Саидов. - Т.: «Адолат», 2004. -498-б
4. Усманова Н. Межнациональная и межрелигиозная толерантность //Правда Востока . - 2008. - 1 апр
5. З.Т.Нишанова Н.Г.Камилова Д.У.Абдуллаев “Ривожланиш психологияси.Педагогика психология” Т.,2018, 386-387 б.



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MAKTABGA TAYYORLOV GURUH BOLALAR TAJRIBALARI UCHUN LABARATORIYA TASHKIL ETISH YUZASIDAN MUAMMONING O'RGANGALLIK DARAJASI VA LABORATORIYA HUDUDINI TASHKIL ETISHDA KUTILAYOTGAN IJOBIY NATIJALAR

*Djanpeisova Gauzar Erkinovna*

*A.I Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika unversitetining Toshkent shahridagi filiali Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*Igamberdiyeva Aziza Abdurashitovna*

*Maktabgacha ta'lim muassasalari direktori va mutaxisilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti*

**Annotasiya:** Maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda “Ilk qadam” va “Ilm yo’li” variativ dastur asosida katta va maktabga tayyorlov guruh bolajonlari uchun xavfsiz, qiziqarli, tabiiy- ekologik tajribalar orqali bolajonlarni aniq fanlarga bo’lgan qiziqishlarini uyg’otish, shakillantirish, iqtidorlarni rivojlantirish, atrof olam bilan yaqindan tanishtirish, dunyo qarashlarini kengaytirish, ta’lim sifatini yanada yuksaltirish, faoliyat jarayonida innivotsion metolarni qo’llash, tarbiyachi pedagoglarning bolajonlar bilan qiziqarli tajribalar orqali komunikativ yondashuvini mustaxkamlash, jajji olimlarni yaratish va albatta maktabga sifatli tayyorlash bo’yicha amalyotga qo’llangan nazariya yoritib berilgan.

**Annotation:** This article highlights theories about increasing children’s interest in the exact sciences through safe, exciting, natural environmental experiments, the formation and development of talents, familiarization with the outside world, expanding the worldview, improving the quality of education, using innovative methods in the learning process, strengthening communicative approaches by teachers through entertaining experiments with children, creation of little scientists and high-quality preparation of children for school based on the variable programs “The First Step” and “The Path of Science”.

**Аннотация:** В данной статье освещены теории о повышении интереса детей к точным наукам через проведения безопасных, увлекательных,

естественных экологических экспериментов, формировании, развитии талантов, ознакомлении с окружающим миром, расширении мировоззрения, повышении качества образования, использовании инновационных методов в процессе обучения, укреплении коммуникативных подходов педагогами через проведения занимательных экспериментов с детьми, создания маленьких ученых и качественной подготовки детей к школе на основе вариативных программ "Первый шаг" и "Путь науки".

**Kalit so'zlar:** laboratoriya hududi, o'quv dasrur, ko'nikmalar, mantiqiy fikrlash, maktabgacha yoshdagi bolalar, pedagogika, tashabbuskorlik, maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, mustaqil fikrli bo'lish, har tomonlama rivijlanish, maktabga tayyorlov guruh, tahlil, muammonin o'rgangallik darajasi, ijobiy natijalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari.

**Keywords:** laboratory area, curriculum, skills, logical thinking, preschoolers, pedagogy, initiative, preschool education, foster child, independent thinker, comprehensive development, school preparation group, analysis, degree of studying problem, positive results, preschool educational organisations.

**Ключевые слова:** лабораторная зона, учебная программа, навыки и умения, логическое мышление, дети дошкольного возраста, педагогика, инициативность, обучение, дошкольное образование, воспитанник, независимый мыслитель, всестороннее развитие, группа подготовки к школе, анализ, степень изученности проблемы, положительные результаты, дошкольные образовательные организации.

Ilm olishning eng chuqur ildizi va pilla poyasi bu "Maktabgacha yoshdagi davr"ga to'g'ri keladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 5-7 bo'lgan bolalarda atrof muhitni anglash, tabiatga qiziqish kuchli bo'lib, ko'plab ma'lumotlarni qabul qilish jarayonida bo'ladi. Demak, biz farzandlarimizni bolaligidanoq ilm-fanga qiziqтира olishimiz va bilim olishlari uchun sharoit yaratib berishimiz asosiy maqsadlarimizdan bo'lmog'i lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlar oylik, haftalik mazvulari asosida faoliyat olib boriladi. "Ilm-fan va tabiat" markazidagi faoliyat bolajonlarni tabiat atrof olam va ilmga bo'lagan

qiziqishlarini ijobiy o'sishidagi rivojlantiruvchi markazdir. Albatta mazkur markazdagi xaftalik mavzular asosida olb boriladigan qiziqarli tajribalar bolajonlarning tabiatni asrash, ekologik madaniyatni shakillantirish, mantiqiy fikirlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijasi ijobiy kutilayotgan maxsus bolajonlar uchun mo'ljallangan "laboratoriya hududi" esa qiziqarli va eng asosiysi xavfsiz tajriba maydoni bo'la oladi.

Maktabgacha pedagogikaning vazifalaridan biri bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olish extiyojini shakillantirish, aniq fanlarga qiziqtirish, bolalarda mustaqil va erkin fikirlashga o'rgatuvchi ilg'or texnologiyalar, samarali va innovatsion metodlarni qo'llash maqsadida MTT larida xavfsiz laboratoriya faoliyatlarini olib borish uchun laboratoriya xududini tashkil etish. Ota onalar bilan hamkorlikni mustaxkamlash, MTT ga bo'lgan ishonchini yanada oshirish. Kelajagimiz bo'lgan bolajonlarning bilimlarini rivojlantirish, mustaxkamlash, kichik olimlari shakillantirish va albatta maktabga sifatli tayyorlashda mazkur laboratoriya xududi o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi. Bolajonlar uchun mo'ljallangan laboratoriya hududini tashkil etishdan asosiy maqsad: Yosh avlodni ilm fanga qiziqtirish, faoliyatga yangicha metod orqali jalb etish, maktabga sifatli tayyorlash va albatta bizning kelajagimiz bo'lgan murg'ak qalb egalarini yetuk, bilimli, komil inson etib voyaga yetgazishda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'z hissasini qo'shishdan iborat!

Kimyo, fizika fanlari va kimyoviy mo'jizalar haqida ko'p eshitgansiz hamda o'qigansiz. Ana shunday mo'jizalarni o'z qo'llari bilan yaratishni va yonidagi do'stlarini lol qoldirishni orzu qilmagan inson bo'lmasa kerak. MTT da esa, bu imkoniyatdan foydalanib mazkur fanlar asosida bolajonlar qiziqarli faoliyat mashg'ulotlarda ishtirok etishlari, bilm olishlari, variativ qo'llanma yordamida o'z orzularini amalga oshirishlari, qiziqarli eng asosiysi xavfsiz laboratoriya tajribalarida kichik tadqiqotchi bo'lishlari mumkin.

Mazkur loyiha nafaqat bolajonlar uchun ijobiy natijani ko'rsatadi balki, tashkilotdagi pedagog xodimlarni ham o'z ustida ishlashlari, malaka oshirishlari, fikr, g'oyalar ustida ishlashlari uchun turtki bo'la oladi. Negaki shiddatli bugungi kunda har bir ilm va ma'rifat o'chog'idagi pedagog xodimdan o'z ustida muntazam ishlashlari va

zamon talabiga javob berishligi talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda doimo pedagog hodimlar izlanishda bo'lmog'i lozim!

**Mavzuning dolzarbligi:** Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki yosh avlodni ilm fanga qiziqtirish, kikchik olimlarni shakillantirish, aniq fanlaga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, faoliyatga yangicha metod orqali jalb etish, qiziqarli tajribalar yordamida ilm fanga qiziqtirish. Erkin, mantiqiy fikrlashni o'rgatish. Dunyo qarashlarini kengaytirish, rivojlantirish va maktabga sifatli tayorlashdan iborat va albatta bizning kelajagimiz bo'lgan murg'ak qalb egalarini yetuk, bilimli, komil inson etib voyaga yetgazishda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'z hissasini qo'shishdan iborat!

Mazkur loyihani yo'lga qo'yilishi O'zbekiston Maktabgacha Ta'lim sohasida o'zining ijobiy va salmoqli natijasini ko'rsatadi.

#### ***Natijalarning ilmiy asoslanganligi va ishning amaliy ahamiyati:***

№2-sonli DMTTning katta va maktabga tayyorlov guruhida laboratoriya faoliyatlari olib borildi. Bolajonlarda mustaqil va erkin fikirlashga o'rgatuvchi ilg'or metodlarni qo'llanganligi, tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatning amalda qo'llanilishi o'z ijobiy natijasini ko'rsatdi. Loyihaning yaratishda TKTI professor o'qituvchilari hamkorligi yo'lga qo'yildi va TKTI rahbariyati tomonidan ko'rib chiqilib maqqullandi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Закон республики Узбекистан «Об образовании». ЗРУ-637 от 23.09.2020.
2. Закон “О дошкольном образовании и воспитании” Республики Узбекистан Принят Законодательной палатой 22 октября 2019 года. Одобрен Сенатом 14 декабря 2019 года. (Национальная база данных законодательства, 17.12.2019 г., № 03/19/595/4160; 27.04.2021 г., № 03/21/685/0373, 12.10.2021 г., № 03/21/721/0952)
3. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах» УП № 4947 от 7 февраля 2017 года // Учитель Узбекистана. – Ташкент, 2017. – № 6 (2453). – 10 февраля. – 70 стр. <http://lex.uz/docs/3107036>

4. Шин А.В. Развитие дошкольного образования - стратегическая цель на ближайшие годы: <https://yuz.uz/ru/news/razvitie-doshkolnogo-obrazovaniya---strategicheskaya-tsel-na-blijayshie-god>
5. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики (Учебник). 2017, 258 стр.
6. Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш // пед.ф.б.ф.д. (PhD) диссертация автореферати –Тошкент: МТТРМҚТМОИ, 2019. – 25 б.
7. Туйчиева И.И. Мактабгача таълим ташкилотларида тайёрлов гуруҳи болаларининг фикрлаш фаоллигини ривожлантириш // пед.ф.б.ф.д. (PhD) дисс...автореферати. –Тошкент: МТМРМҚТМОИ, 2020. 46 б.

---

## ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТ ЭҲТИЁЖЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ

*Жабборов Жамшид Азимович*

*Қарши ДУ таянч докторанти*

Эҳтиёж – инсон организми ва шахсини, жамият ҳаётини фаолиятини сақлаб туриш учун зарур бўлган моддий ва маънавий маҳсулотларга талаб, муҳтожликдир. Назарий ва амалий иқтисодиётнинг фундаментал категорияларидан бири. Эҳтиёж субъект билан унинг фаолияти ўртасидаги боғланишларни ифода этади ва мақсадлар, майллар, интилишларда ва пировардида ҳатти-ҳаракатлар, феъл-атворда юзага чиқади. Фаолият соҳасига қараб меҳнатга, билимга, мулоқотларга; объектига қараб моддий, маънавий; субъектига кўра яқка (шахсий), гуруҳий, жамоавий, ижтимоий эҳтиёж бўлиши мумкин. Эҳтиёжнинг умумий қонунияти – уларнинг умуман бевосита инсон фаолиятига, хусусан, ижтимоий ишлаб чиқаришга боғлиқ бўлишидир. Айни

пайда фаолликка ундовчи куч бўлган эҳтиёж, ўз навбатида, ҳаёт шароитларига танлама таъсир кўрсатади, уларнинг ўзига хос томонларини белгилайди, у ёки бу фаолият усулларини ва эҳтиёжни қондирадиган предметлар ишлаб чиқаришни рағбатлантиради. Масалан, бир вақтлар кишиларда автомобилга пайдо бўлган эҳтиёж уларни яратиш йўлида изланишларнинг бошланишига сабаб бўлди, бутун бир саноат тармоғининг пайдо бўлишига олиб келди<sup>31</sup>.

Эҳтиёжларнинг барқарор гуруҳларини аниқлашнинг қийинлиги ва ноаниқлиги кўплаб тадқиқотчилар томонидан эҳтиёжларнинг энг муносиб таснифини яратилмаслигига олиб келди. Олимларнинг турлича таснифи ўз соҳаларидан, унда эҳтиёжларнинг аҳамиятидан келиб чиқиб ёритилган: файласуфлар, иқтисодчилар, психологлар, социологлар, маънавиятшунослар эҳтиёжлар тизимини турли гуруҳларга ажратади. Масалан, полшалик психолог К.Обуховский эҳтиёжларнинг 120 таснифни санаган, рус психологи П.М. Эршов эса “Потребность человека” (1990 й.) китобида эҳтиёжларнинг энг муваффақиятли иккита таснифини кўриб чиқади. Буюк рус ёзувчиси Ф.М. Достоевский одамларнинг кўплаб қизиқишлари ва эҳтиёжларини уларнинг таркибини мураккаблаштириш орқали уч гуруҳга ажратади: 1. Ҳаётни таъминлаш учун зарур бўлган моддий неъматларга бўлган эҳтиёж. 2. Билим эҳтиёжлари. 3. Одамларнинг бутун дунё бўйлаб бирлашиш эҳтиёжлари. Немис файласуфи Гегел эҳтиёжларни 4 гуруҳга ажратади: 1. Жисмоний эҳтиёжлар. 2. Қонун эҳтиёжлари, қонунлар. 3. Диний эҳтиёжлар. 4. Билим эҳтиёжлари<sup>32</sup>.

Ўзбек олимларидан А. Эркаев “ижтимоий-маънавий эҳтиёжларни мазмуни, вазифалари, аҳамияти, муайян ижтимоий онг шаклига мансублигига қараб икки гуруҳга бўлади: 1. Умуммаънавий, яъни маънавият яхлит тизим, бус-бутунлик сифатида тақозо этадиган ва вужудга келтирадиган эҳтиёжлар; 2. Маънавиятнинг нисбатан мустақил таркибий қисмлари сифатида ижтимоий онг шакллари тақозо

<sup>31</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Э ҳарфи, “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Т.:281-бет.

<sup>32</sup> Бережной Н.М. Человек и его потребности / Под ред. В.Д. Диденко; Моск. гос. ун-т сервиса. - М.: Форум, 2000. - 170 с.

этадиган ва вужудга келтирадиган эҳтиёжлар<sup>33</sup>. Олим соғлом ва носоғлом эҳтиёжларга ижтимоий-фалсафий нуқтаи-назардан таъриф берган<sup>34</sup>.

Бугунги кунда эҳтиёжлар – турли шакллари, хусусиятлари, сифат, белги, миқдор ва бошқа жиҳатлари билан бир-биридан фарқланади. Инсон эҳтиёжлари таркибига методологик жиҳатдан ёндашиб, уни турли гуруҳларга ажратдик:

**1-жадвал**

<b>Эҳтиёжлар таснифи</b>		
<b>Субъектига кўра эҳтиёжлар</b>	индивидуал	ҳар бир алоҳида инсоннинг эҳтиёжи
	гуруҳий-жамоавий	оилавий ёки кишиларнинг бирон мақсадда бирлашган гуруҳлари (меҳнат жамоаси, турли уюшмалар) эҳтиёжлари
	табақавий	турли қатламларга хос бўлган эҳтиёж: эркак ёки аёл, кекса ёки бола, бой ёки камбағал, шаҳарлик ёки қишлоқлик одамнинг эҳтиёжи
	миллий	муайян элат, миллат, халқнинг хоҳиш-истакларини, манфаатларини ўзида мужассам этган эҳтиёжлар: озодлик, ҳурфикрлилик, қадриятлар тизими ва ҳ.к.
	умуминсоний	ер шари миқёсида таркиб топган глобал эҳтиёжлар: демократия, табиий ресурсларни асраш, тинчлик, ҳамкорлик, жамиятни адолатли бошқариш ва ҳ.к.
<b>Мазмунига кўра эҳтиёжлар</b>	табиий-физиологик	овқатланиш, чанқоқни қондириш, уйқу, насл қолдириш, турли хавф-хатардан сақланиш
	моддий-иқтисодий	Озиқ-овқат, кийим-кечак, турар-жой, ишлаб чиқариш қуролларини такомиллаштириш, моддий неъматлар яратиш, таъминот, турмуш фаровонлигини юксалтириш, савдо-сотик, иқтисодий ҳамкорлик, иқтисодий алоқаларни таъминлаш тизими, инфратузулмаси, транспорт ва ҳоказо каби қатор эҳтиёжлар
	ижтимоий-маънавий	Инсонни ҳар томонлама камол топишига ҳизмат қиладган эҳтиёжлар: билимларни ўзлаштириш, касб эгаллаш, ҳизмат кўрсатиш, таълим олиш, тиббий кўрикдан ўтиш, турли маданий тадбирларда қатнашиш, одамлар ўртасидаги алоқалари (мулоқот ва суҳбатлар) ва ҳоказо.
<b>Фаолият турига кўра эҳтиёжлар</b>		меҳнат қилиш, мулоқотда бўлиш, дам олиш, иш қобилиятини тиклаш, иқтисодий фаолият юритиш, спорт билан шуғулланиш ва бошқа эҳтиёжлар.

<sup>33</sup> А. Эркаев “Маънавиятнинг уч қонуни”. “Тафаккур” журнали. 2017 йил 2-сон 20-26 бетлари.

<sup>34</sup> А.П.Эркаев. “Маънавият – миллат нишони”. Тошкент “Маънавият” 1997 й. 40-б.



<b>Қондирилиши жихатидан</b>	якка (индивидуал)	Моддий эҳтиёжлар, айниқса жисмоний-физиологик эҳтиёжлар асосан якка тартибда қондирилади: озиқ-овқат, кийим-кечак, уйқу, насл қолдириш, спорт билан шуғулланиш, тиббий кўрикдан ўтиш ва ҳ.к.
	биргаликда	ижтимоий-маънавий эҳтиёжлар биргаликда қондирилади: билим олиш эҳтиёжи, маънавий тадбирларда иштирок этиш, хизмат кўрсатиш, табиий ресурсларни асраш, тинчлик, ҳамкорлик, жамиятни адолатли бошқариш ва шу кабилар
<b>Келиб чиқишига</b>	Табиий	Табиий эҳтиёжлар инсон томонидан яратилмайдиган, асосан физиологик эҳтиёжлардир.
	Маданий	Инсоннинг амалий яратувчанлик фаолияти (моддий ва маънавий маҳсулотларни яратиш) натижасижа пайдо бўладиган эҳтиёжлар
<b>Эҳтиёжларни қондиришдан</b>	шахсий эҳтиёжлар	Кишиларнинг яшаш учун зарур, шахсий истеъмолини қондирадиган неъматларга бўлган эҳтиёжи
	ишлаб чиқариш (яратувчанлик)	Инсон ҳаётига керакли неъматларни ишлаб чиқариш, яратиш учун зарур бўлган иқтисодий ресурсларга эҳтиёжи бўлиб, улар моддий, меҳнат, ахборот, молиявий ресурслардир.
<b>Инсонга таъсир этишига кўра</b>	Соғлом	Инсоннинг эркин камолотига хизмат қиладиган, ундаги ижобий қобилиятларни, фазилатларни бойитадиган, ривожлантирадиган эҳтиёжлар
	Носоғлом	нафснинг кучайишига, молпарастликка, шахватпарастликка, мансабпарастликка, инсондаги салбий қобилиятларнинг кучайишига хизмат қиладиган эҳтиёжлар

XXI асрда кишиларнинг ўз мавжуд ҳолатидан қониқмаслиги, доимо олға бориш, янгиликка интилиши, мавжуд эҳтиёжларининг ўсиши (юксалиши) илм-фан, янги технологиялар соҳасидаги оламшумул кашфиётлар ҳамда илмий ютуқларга олиб келмоқда.

Эҳтиёжлар қандай гуруҳларга бўлинмасин, қай жихатдан ёндашилмасин, улар бир-бири билан боғлиқ, бири иккинчисини тақозо қилади, ҳамда ягона умумжамият эҳтиёжлари тарзида шаклланади.

## ТАЛАБАЛАР АКАДЕМИК ЎЗЛАШТИРИШИНING ПСИХОЛОГИК ДЕТЕРМИНАНТЛАРИ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА

*Жабборова Малоҳат Азимовна*  
*Қарши ДУ педагогика институти*

**Аннотация:** Мақолада талабалар академик ўзлаштиришининг психологик детерминантлари долзарб муаммо сифатида ёритилган бўлиб, илмий тадқиқот ишининг жаҳон ва ўзбек олимлари томонидан ўрганилганлик даражаси, илмий ишнинг назарий ва методологик асослари илмий таҳлил қилинган.

**Калит сўзлари:** талаба, таълим, ўзлаштириш, психологик детерминант, тадқиқот, глобаллашув.

Жаҳонда бугунги глобаллашув шароитида шахсни ҳар томонлама вояга етказиш, унда комилликни ва малакали мутахассисга хос сифатларни шакллантиришда таълим муҳим ўрин тутди. Бугунги тезкор давр талабаларни ҳам қисқа муддатда асосли маълумотлар билан қуроллантириш, улар томонидан турли фан асослари пухта ўзлаштирилиши учун зарур шарт-шароитларни яратишни тақозо этмоқда. Замонавий шароитда таълим жараёнини барча имкониятларига кўра, шахсни ривожлантириш, ижтимоийлаштириш ва унда мустақил, танқидий, ижодий фикрлаш қобилиятини тарбиялашга йўналтирилиши талаб қилинмоқда. Бунда таълим талабанинг фикр ва хулқ стратегиясини инобатга олган ҳолда унинг шахси, ўзига хос хусусиятлари, қобилиятини ривожлантиришга йўналтирилиши, педагогик-психологик шарт-шароитларни тўлалигича талабанинг индивидуал имкониятларини рўёбга чиқариш, қобилиятини ривожлантириш, шахс сифатида камолотга етишини таъминловчи, тафаккур ва дунёқарашини бойитиш, унинг академик ўзлаштариш кўрсаткичларини ошириш масалалари бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Республикамизда ёшлар доимо давлат ва жамият диққат марказида эканлиги сабабли мустаҳкам ҳуқуқий асосга эга кучли ёшлар сиёсати олиб борилмоқда. Таълим соҳасидаги ислохотларнинг аҳамиятини маълум бир демографик кўринишда акс эттирадиган бўлсак, Ўзбекистон умумий аҳолисининг 35% ини 16 ёшгача бўлган ўсмирлар, 62% идан кўпроғини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади. Бу масала Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 20 дан ортиқ қонун ва фармонларда ўз аксини топган. Шунингдек, 2021 йилнинг “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” деб эълон қилиниши ҳам ёшларни фаоллаштириш, уларнинг ҳаётда ўз муносиб ўринларини топишига кўмаклашиш устувор вазифа сифатида белгилаб берилган. Натижада талабалик даврида индивидуал имкониятлар самарали рўёбга чиқарилишини белгилаб берувчи психологик омилларни ўрганиш асосида бу жараёнга фаоллаштирувчи таъсир кўрсатишнинг амалий усуллари такомиллаштириш йўналишларида илмий изланишларни чуқурлаштиришга имкониятлар яратилди.

Мазкур диссертация иши Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги, 2017 йил 5 июлдаги ПФ-5106-сон “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги Фармонлари, 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сон “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги”ги қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги 472-сон “Психология соҳасидаги кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, шунингдек, ушбу фаолият тизимига тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга муайян даражада хизмат қилади.

Таълим сифати таълим фаолиятининг шаклланишига боғлиқ. Ўқув фаолиятини шакллантиришга бағишланган кўплаб илмий тадқиқотлар ўтказилиб,

ечимлари ишлаб чиқилган бўлсада, ўқув фаолиятининг ишлаш механизмлари ва турли гуруҳлардаги талабаларни ўқитишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш жаҳон психологиясида долзарблигича қолмоқда. Жаҳон психологиясида талабаларнинг ўзлаштириш масаласи Дж. Кеттелл, Ч. Спирмен, Д. Гилфорд ва бошқаларнинг изланишларда мумтоз тадқиқотлар сифатида ўрганилган. Ўз навбатида рус психологиясида бу масалани Б.Г. Ананиев, А.Н. Леонтиев, Б.Ф. Ломов, К.К. Платонов, С.Л. Рубинштейн, В.Д. Шадриков; талабалар ўқув фаолияти муаммосига ёндашувлар Г.С. Абрамова, Л.И. Божович, С. Выготский, П.Я. Галперин, В.В. Давыдов, И.В. Дубровина, А.Н. Леонтиев, С.Л. Рубинштейн; талабаларнинг таълим фаолияти муаммосига ёндашувлар Г.Н. Александров, О.Ф. Алексеева, И.А. Аливердиева, Б.Г. Ананиев, Т.Н. Болдышева, М.М.Гарифуллина, Н.С Козлов, Н.В Кузмина; талабалар малака ошириш муаммосига оид тадқиқотлар Е.Ф.Зеер, Э.А.Климов, Т.В.Кудрявцев, А.К.Маркова, Ю.П.Поваренков, В.Д.Шадриков каби олимлар томонидан ўрганилган.

Ўзбек психологиясининг етакчи олимлари М.Г.Давлетшин, Э.Ғ.Ғозиев, Б.Р.Қодиров, Ғ.Б.Шоумаров, В.М.Каримова, А.М.Жабборов, Н.С.Сафаев, З.Т.Нишанова, Д.Г.Мухамедова, А.И.Расулов, Б.М.Умаровлар томонидан таълим жараёни ва унинг психологик хусусиятлари ўрганилган, аммо талабалар академик ўзлаштиришининг психологик детерминантлари муаммоси юзасидан алоҳида изланишлар амалга оширилмаган.

Режалаштирилган тадқиқот ишимизнинг назарий ва методологик асосларини қуйидаги илмий ғоялар ташкил этади:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қонунлари, Президентнинг қарор, фармон ва фармойишлари ҳамда бошқа талабалар академик ўзлаштиришига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги ғоялар;

2. Ҳориж олимлари томонидан ишлаб чиқилгин талабаларнинг академик ўзлаштиришининг психологик детерменантларини аниқлаш концепциялар, назариялар ҳамда методикалар.

3. Ўзбек психология мактаби вакиллари М.Г.Давлетшин, Э.Ғ.Ғозиев, Б.Р.Қодиров, Ғ.Б.Шоумаров, В.М.Каримова, А.М.Жабборов, Н.С.Сафаев,

З.Т.Нишанова, Д.Г.Мухамедова, А.И.Расулов, Б.М.Умаровларнинг таълим жараёни ва унинг психологик ташкил этиш хусусиятларига бағишланган илмий қарашлари.

Тадқиқотнинг мақсади сифатида талабалар академик ўзлаштириши детерминантларининг психодиагностикаси ва психокоррекцион-ривожлантирувчи технологияларини такомиллаштириш усул ва воситалари олинди.

Илмий тадқиқот доирасида бир қатор вазифаларни белгилаб олдик: талабалар академик ўзлаштириш детерминантларинининг ҳориж ва ўзбек психологиясида тадқиқ этилганлик ҳолатини таҳлил қилиш; талабалар академик ўзлаштиришига таъсир этувчи детерменантларнинг психодиагностикасини ишлаб чиқиш; талабалар академик ўзлаштиришининг психологик детерминантларини татқиқ этиш мезонларини яратиш; талабалар академик ўзлаштиришидаги детерминантлар кўрсаткичининг психологик таҳлилинини ўтказиш; талабалар академик ўзлаштиришининг психокоррекцион – ривожлантирувчи дастурини ишлаб чиқиш; талабалар академик ўзлаштиришида юзага келувчи муаммоларни ижтимоий-психологик ечимларини такомиллаштириш.

Тадқиқотнинг объекти сифатида олий таълим муассасасаларида (ижтимоий-гуманитар, табиий ва аниқ фанлар йўналишидаги) таҳсил олаётган талабалар жалб этилади.

Тадқиқотнинг предмети талабалар академик ўзлаштиришининг психологик детерминантларини тадқиқ этиш жараёни ташкил этади.

Илмий изланишлар давомида кўплаб усуллардан фойдаланиш белгилаб олинди. Тадқиқотда кузатиш, суҳбат каби усуллар қўлланилади, бунда талабаларнинг кундалик ўқув фаолияти кузатилиб, тўпланган маълумотлар махсус кундаликка қайд қилиб борилади. Бундан ташқари талабалар академик ўзлаштиришини аниқлашга оид психологик методикаларидан фойдаланилади. Шунингдек, педагогик-психологик эксперимент (талабаларнинг ўзлаштиришига таъсир этувчи детерменантларнинг психодиагностикаси, коррекцияси ва назорат тажрибалари орқали коррекцион дастурнинг самарадорлигини аниқлаш)

кўлланилиши, математик статистика методлар (К.Пирсоннинг  $r$ -корреляция коэффициентини, Стьюдентнинг  $t$ -мезони)дан тадқиқотда олинган эмпирик материалларни қайта ишлаш ва уларнинг статистик аҳамиятлилик даражасини аниқлаш учун фойдаланиш белгилаб олинди.

Тадқиқотнинг амалга ошириш босқичлари:

Биринчи босқич: тадқиқот муаммосининг психологик тадқиқотларда ўрганилганлик ҳолати бўйича назарий материаллар тўплаш, дастлабки эмпирик тадқиқотлар ўтказиш учун тадқиқот мезонлари, тадқиқот танланмаларини танлаш, тадқиқот методикаларини саралаш ва татбиқ этиш.

Иккинчи босқич: тадқиқот методикаларини тадқиқот объектларида синовда ўтказиш, эмпирик натижаларни қайта ишлаш, уларнинг психометрик ва статистик мезонлар бўйича мувофиқлигини текшириш. Эмпирик материалларни психологик талқин этиш учун яхлит материаллар шаклига келтириш. Диссертациянинг дастлабки иши вариантини шакллантириш.

Учинчи босқич: диссертациянинг ишчи варианты асосида оригинал шаклини таёрлаш. Диссертациянинг тугалланган тадқиқот иши сифатида дастлабки муҳокамага тақдим этиш.

---

## ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ.

*Абдурасулова Лобар*

*Жиззах давлат педагогика институти талабаси*

Таълим – тарбиянинг давлат ва жамият учун кадр – қимматини олдиндан белгиловчи ижтимоий негизлар муҳимлигига қарамай, улар асосий нарсани – таълимнинг шахс билан боғлиқ қадриятларини, яъни инсонларнинг ўз билимига,

унинг даражаси ва сифатини оширишга рағбатлантирадиган муносабатларини акс эттириши лозим.

Шу нуқтаи назардан, таълим қадриятлари таркибидаги умумий ва хусусий жиҳатларини, уларнинг ўзаро бир – бирини тўлдириши, бойитиб боришини кўриш муҳимдир. Мазкур қадриятларни таҳлил қилиш умумлаштиришда зарур бўладиган тизимли ёндашиш ўз навбатида, “таълим қадриятлари” тушунчасининг яхлитлигини назарда тутди. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, таълим сифатини оширишда таълимий қадриятларнинг ўрни ва аҳамиятига тўхталиб ўтиш лозим деган фикрга тўхталиб илмий тадқиқот ишимизнинг объектини белгилаб олишга ҳам имконият яратилади.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ва Вазирлар Маҳкамасининг таълимга оид бир қатор қарорларидан кўзланган асосий мақсад билимли, ижодкор, изланувчан, дунёқараши кенг, жамият тараққиёти учун хизмат қиладиган ёшларни тарбиялашдан иборатдир. Бундай вазифаларни тўлақонли амалга ошириш учун албатта таълим сифатига эътибор қаратиш лозим.

Бизга маълумки, таълим тизими ҳар қандай жамиятнинг ажралмас таркибий қисми бўлиб, маданиятнинг кўрсаткичи ва тараққиётининг асоси ҳисобланиб, боғловчи бўғин сифатида, ижтимоий тажриба ҳамда жамият ривожини таъминлайди.

Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган таълим соҳасидаги ислохотларнинг асосий мақсади – баркамол шахс ва малакали мутахиссларни тарбиялашдан иборатдир. Бу мақсаднинг тўлақонли амалга оширилиши узлуксиз таълим тизимини ижтимоий талабларга мувофиқ равишда қайта шакллантиришга боғлиқ.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислон Каримов Кадрлар тайёрлаш миллий модели ҳамда дастури халқнинг ижтимоий-иқтисодий, маънавий ва маданий ривожланишининг, интеллектуал салоҳиятининг ортиши ҳамда жамият тараққиёти ва равнақини таъминлашдаги аҳамиятини баҳолаб, шундай дейди: “Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг амалга оширилиши, ҳеч



бир мубалағасиз айтиш мумкинки, бизнинг гуллаб-яшнаётган, кучли демократик давлат барпо этиш ва фуқоролик жамиятини шакллантиришдан иборат стратегик мақсадимизга эришишнинг асоси бўлиб хизмат қилишимиз лозим”.

Таълим жараёнининг сифати, таркибидаги умумий ва хусусий жиҳатларини, уларнинг ўзаро бир – бирини тўлдириши, бойитиб боришини кўриш муҳимдир. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, таълим сифатини оширишда педагогик технологиялардан фойдаланишнинг ўрни ва аҳамиятини асослаш ўтиш жоиздир.

Шу ўринда педагогик технология тушунчаси нимани англатишига тўхталиб ўтиш лозим. Педагогик технология – ўқитувчи маҳоратига боғлиқ бўлмаган ҳолда педагогик муваффақиятни кафолатлай оладиган, ўқувчи шахсини шакллантириш жараёнининг лойиҳасидир.(В.Беспалько).

Педагогик технологиянинг моҳияти дидактик мақсад, талаб этилган ўзлаштириш даражасига эришишдан иборат бўлиб, уни тадбиқ этишни ҳисобга олган ҳолда таълим жараёнини илгаридан лойиҳалаштиришда намоён бўлади.(У.Нишоналиев).

Педагогик технология – бу ўқитувчининг ўқитиш воситалари ёрдамида ўқувчиларга муайян шароит ва кетма-кетликда таъсир кўрсатиш ва бу фаолият маҳсули сифатида уларда олдиндан белгиланган сифатларни шакллантириш жараёнидир. (Н.Сайдахметов). Ушбу таърифлардан хулоса қилиш мумкинки, педагогик технология баркамол инсонни шакллантириш фаолияти.

Демак, биз таълим жараёнини педагогик технологиялардан фойдаланиш орқали ташкил этишда қуйидагиларга эътибор қаратишимиз керак:

- ўқувчи шахсининг ривожланишига;
- таълимга оид меъёрий хужжатларга;
- мустақил мутоала қилишига;
- ўқиш асосида билим олишига;
- ўз-ўзини англаб етишига;
- ўз кучи ва имкониятларига ишонч билан қарашига;
- ўз бурчига масъулият билан ёндашишига;
- ўзи ва ўзгалар меҳнатининг қадрига етишига;

- мустақил фикрлай олишига;
- ўз фаолиятини мустақил ташкил эта олишига;
- ўз олдига мақсад қўя олишига;
- ўқув меҳнатига ўзида ҳоҳиш-истак уйғота олишига;
- ҳарқандай вазиятда фаоллик кўрсата олишига;
- тезкор фикрлай олишига;
- манбалардан унумли фойдаланишига;
- бошқалар фикрини ҳурмуа қилишига;
- Ўқувчилар дунёқарашига;
- маълумотларни эсда сақлаб қолишига.

Таълим жараёнида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш, дарс жараёнида интерфаол методларни қўллаб дарс ўтиш бугунги кун таълимининг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Чунки таълим жараёнига қўйилаётган энг асосий талаблардан бири анъанвийликдан яъни бир хилликдан чекиниб, ҳар бир дарсимизда ҳар хил усуллардан фойдаланиб ўтишни тақозо этади. Таълим жараёнида ҳар хил интерфаол методлардан фойдалансак, биз ўқувчиларга бераётган таълим сифати янада ошади.

Интерфаол методлар ўқитувчи-ўқувчи ҳамда ўқувчиларнинг ўзаро фаолиятида намоён бўлади. Интерфаол методларнинг бош мақсади ўқув жараёни учун энг қулай вазият яратиш орқали ўқувчининг фаол, эркин фикр юритишига муҳит яратишдир. Интерфаол методлар асосида ўтган дарсни ташкил этиш этиш шундай кечадики, бу жараёнда бирорта ўқувчи четда қолмайди, яъни билган, ўйлаган фикрларини очик-ойдин билдириш имкониятига эга бўладилар.

Таълим жараёнида интерфаол методлар орқали ташкил этишда қуйидаги ўқитиш муҳити яратилади:

- ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида соғлом муҳит яратилади;
- ўқиш ва тадқиқотларга кўмаклашади;
- ўқув материалларига эга бўлади;
- ижодкорликка рағбат берилади;
- фикрлар ва ахборотлар алмашинувиға имкон яратилади;

- нутқий ривожланишни рағбатлантиради;
- маълумотларни мустақил олиш кўникмалари шаклланади.

Таълим сифатини ошириш ва уни юксалтиришга таъсир этувчи ташқи ва ички омиллар мавжуд. Бу омилларни тўғри ташкил этиш педагоглардан юксак малака, масъулият, маҳорат, ижодкорлик, билимдонлик, нотиклик, ташкилотчилик каби хислатларга эга бўлишни талаб қилади.

Ўзбекистон Республикасида таълим тизими сифатини оширишда инновацион фаолият ривожланиши педагогик технологиялар ва инновацияларни бошқариш муаммоларининг методологик асосларини замонавий талабларга асосланган ҳолда ишлаб чиқиш зарур. Таълим тизими сифатини оширишда инновацион фаолият самараси таълим тизимининг инновацион мақсадлари ва имкониятларига, ходимларнинг инновацион фикрлаш қобилиятларига боғлиқ.

## ЁШЛАРГА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ СИНГДИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ

*Алибеков Даврон Абдуракибович  
ЖДПИ ўқитувчиси, фалсафа доктори (PhD),  
Абдурақибова Динора  
Жиззах давлат педагогика институти талабаси*

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда ёшларнинг эзгу мақсадларини ҳаётга татбиқ этишлари учун зарур барча шароитлар яратилмоқда. Ёшлар муаммолари давлат сиёсати даражасида ҳал этилмоқда. 2017 йил 30 июнда мамлакатимиз ёшлари ҳаётида янги саҳифа очилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан Ўзбекистон ёшлар иттифоқи ташкил этилди, унинг асосий фаолияти ёшларнинг барча ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ва амалга оширишга қаратилди. Шунини алоҳида қайд этиш лозимки, ҳозирги глобаллашув асрида ёшларнинг дунёқараши, фикри кун сайин ўзгариб бормоқда.

Ёшлар келажакда ўз касбининг моҳир устаси бўлиб шаклланишида замонавий ахборот технологияларининг ўзига хос ўрни бор. Замонавий ахборот

технологиялари деганда биз бугунги куннинг энг сўнги ютуқларидан бўлган коммуникатив технологияларни назарда тутганмиз. Бу борада мультимедиали воситалар ёрдамида биз таълим мазмунини бойитишга қаратилган, йўналтирилган педагогик технологиялардан фойдаланиб, талабалар онги ва қалбида миллий қадриятларни шакллантиришга қаратилган мулоқотли ишчи дастурдан кенг фойдаланилади.

Ёшларни юксак ахлоқ ва интизомли қилиб тарбиялаш, уларнинг сифатли таълим олиши ва ватанпарварлик руҳида вояга етиши мамлакат иқтисодий ва сиёсий тараққиётининг калити ҳисобланади. Бу эса ижтимоий барқарорлик ва муваффақият асосидир.

Ёшларда ижодий тафаккурлашни шакллантиришда, энг аввало, кекса авлоднинг доно тажрибасини уларнинг онгига сингдириш, инсоний фазилатларни шакллантириш ва ривожлантириш, Ватан ва миллат олдидаги бурч ва масъулиятни ҳис қилишга ўргатиш, қонунларга риоя этиш фазилатларини қарор топтиришдан иборат. Чунки Ватанга содиқлик, ватанпарварлик ўзининг қудратли илдизлари билан оила, авлод-аждодларнинг номус-ориға чуқур эҳтиром билан қарашга, инсоннинг ўз виждони ва бурчига содиқлигига бориб тақалади. Шундагина ёш авлод Ватан ва юрт манфаати йўлида, қолаверса, эртанги келажак йўлида пок ва виждонан ишлашга интилади.

Ёш авлодга таълим бериш жараёнида табиий ва тасвирий кўرғазмали материаллар лаборатория ёки намоёиш қисми машғулотларида қўлланиладиган қурол ва асбоблар, ўқув ускуналари, проекцион фонар, микроскоп ва бошқа аппаратлар, шунингдек, мавзуга оид бошқа ўқув материалларидан келтирилган далиллар (маълумотлар, исботлар, таъриф, қоида) нинг ишлатилишидир.

Ўқитишнинг асосий воситалари-асосий ўқув мазмунига эга бўлган режалар, ўқув дастурлари, дарслик ва қўлланмалар.

Ўқитишнинг қўшимча воситалари-ўқувчилардаги билим, малака ва кўникмаларни шакллантирувчи масалалар, машқлар тўплами, маълумотномалар, тарқатма материаллар, кўрғазмали воситалар ва бошқалар.

Булардан ташқари ахборот-коммуникацион технологияларини амалда жорий этишда дидактик асослар ҳам керак бўлади. Чунки маълумотлар базаларисиз таълим-тарбиявий дастур тузиб бўлмайди. Бу борада ўқув режасидаги фанлар блокларида тадқиқот муаммосига кўпроқ тегишли бўлган педагогика туркумидаги фанлар ва она тили ҳамда болалар адабиёти каби мутахассисликка кўпроқ тегишли бўлган фанлар бор. Биз ўз тадқиқот ишимизда шу фанлар ёрдамида маънавий қадриятларни сингдиришга эътиборни қаратганмиз.

Бунинг учун танланган фанлар бўйича маълумотлар ва улар асосидаги маълумотлар базаси тузиб олиб, ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишни эътиборга олган ҳолда ахборотли таълимот тайёрланиб олинди. Шу асосда кўмакчи компьютерли тизим ишлаб чиқилди ва унга мос мулоқотли ишчи дастурлар ишлаб чиқилди. Мазкур йўналишдаги ишларимиз амалий аҳмиятини она тили ва болалар адабиёти фанлари мисолида кўрсатиб ўтамиз. Бу иккала фанни танлаганимизнинг сабаби шундан иборатки, она тили саводхонликнинг асосини ташкил этади. Болалар адабиёти эса одоб ҳақидаги фан ҳисобланади.

Мулоқотли ишчи дастурлар «Тил сеҳри» ва «Адабиёт гулшани» деб номланган бўлиб, улар ёрдамида таълим мазмуни бойитиб борилади. Ушбу мулоқотли ишчи дастурлардан фойдаланиш талабалар учун ҳеч қандай қийинчилик туғдирмайди. Бунда замонавий ахборот технологиялари воситаларидан бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини таълим-тарбия жараёнларига тайёрлашда маъруза, амалий, семинар, лаборатория машғулотларидан бемалол фойдаланиш мумкин.

Бундай интегратив машғулотлар талабаларга маълумотларни ахборот тарзида қабул қилиш, маълумотларни тўплаш, ўз фикрини баён этиш, касбий малакаларини ривожлантиришларига шарт-шароитлар яратиб беради. Шунинг учун ҳам ўқитишнинг бундай шакллари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ. Бироқ юртимизда фан ва тухниканинг жадал суратлар билан ривожланиши таълим шакллари мазмунини бойитиш, ўзгартириш лозимлигини

кўрсатмоқда, яъни бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини тайёрлашда ҳам таълим шакллари мазмунига инновацион ёндошувни амалга ошириш вақти келди.

Талабаларда миллий-маънавий қадриятларни шакллантиришда ахборот-коммуникацион технологияларидан кенг фойдаланиш давр талабига айланиб бораётганлиги сабабли ҳам биз ўз илмий тадқиқот ишимизда олға сураётган ғояни дарс шаклларининг барча кўринишида амалга ошириш мумкин.

Мисол учун она тилидан маъруза ўтиляётган бўлса, унда мавзуга мос келадиган матнлар, мусиқа, тасвирлар, видео клиплар ҳамоҳанглигида матн компьютер воситасида катта экранга чиқади. Бундай технология юқорида айтиб ўтилганидек махсус ишлаб чиқилган дастурлар асосида олиб борилади. Дастурлар мазмунини асосан матнлар ташкил этади. Ҳар иккала дастурга матнларни танлашда қуйидаги мезонларга таяндик.

Асосий мезон сифатида миллий ғоянинг бош ғояси-озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш ва асосий ғоялари ва улар мазмун-моҳияти ўрганилаётган фанлар материаллари таркибига сингдирилиши жараёни қаралди.

Бунда она тили дарсларида машқларни ечишда, матнлар устида ишлашда, компьютер учун ишлаб чиқилган дастурдан фойдаланиб, ўз билимларини аниқ бир мавзу юзасидан бойитиши ва шу билан бир қаторда миллий-маънавий қадриятларни чуқур ўрганиб олиши мумкин.

Бугунги кунда барча таълим муассасаларида компьютер синф хоналари ташкил этилган бўлиб, дарсларни ноанъанавий тарзда олиб бориш, ҳар бир мавзуга ижодий ёндошиш имконияти яратилмоқда. Биз томондан таклиф қилинаётган усулларда, амалий дарс жараёнларида талабалар топшириқларни олиб дастур билан ишлаш орқали назарий билимларини синаб кўради. Бунда иш жараёни тугагач, ҳар бир талаба ўзи олган билими қай даражада эканлигини синаб кўриш имкониятига ҳам эга бўлади.

Ёшларда ижтимоий фаолликни ривожлантиришда, уларда ҳаётга, миллий-маданий меросимизга нисбатан фаол муносабатни шакллантириш, уларнинг маънавий соғлом, руҳан тетик ривожланиши учун таълим жараёнида зарур шарт-шароитларни яратиш мақсадга мувофиқ. Бу жараёнда эса инсоннинг ўзлигини

англаши муҳим саналади. Чунки, инсон ўзлигини рўёбга чиқариши ўзига боғлиқ эканлигини қанча тез тушуниб етса, у ҳаётга шунчалик чуқурроқ қарайди, олдида муҳим мақсадлар қўяди. Ёшларни тарбиялашда улар руҳиятига ўз-ўзини англаш туйғуларини сингдириш орқали ижтимоий етукликка эришувини таъминлаш муҳимдир. Чунки, бу туйғу инсоннинг маънавий шаклланиши жараёнида вояга етади.

## МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ СИНГДИРИШ ОРҚАЛИ ЁШЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

*Алибеков Даврон Абдуракибович  
ЖДПИ ўқитувчиси, фалсафа доктори (PhD),  
Алибекова Олесия Эгамназаровна  
Жиззах шаҳар 27- мактаб ўқитувчиси*

Бугунги жадаллик билан ривожланаётган даврда юртимизда олиб борилаётган ислоҳатлар, айниқса таълим соҳасидаги янгиликлар, таълим жараёнига инновацион ёндашувлар ёш авлодни маънавий қадриятларни ҳурмат қилишга уни эъзозлашга, авайлаб асраб, келгуси авлодга етказишга қаратилган. Янги Ўзбекистонни барпо этиш, уни ривожлантириш замирида янгича фикрлайдиган, юксак билимга, ташаббускор, етакчилик қобилиятига эга бўлган мутахассисларни етказиб бериш талаб этилади.

Бугунги ёш педогог кадрларнинг маънавий-ахлоқий қиёфаси асосан уларнинг билим даражаси, дунёқараши ва тафаккур доирасининг кенглиги асосида шаклланади. Маънавий-ахлоқий сифат инсон шахсини асосан руҳий-манавий-ахлоқий жиҳатларини ўз ичига олади. Маънавий баркамол инсон комиллик сифатларини ўзида мужассамлаштирмоғи лозим. Булар асосан езгу фаолият, эзгу ният ва инсонийлик сифатларини яъни, садоқатлик, меърибонлик, инсонийлик, адолатлилик, фидоийлик, меҳнатсеварликни қамраб олади.



Ҳозирги кун талабидан келиб чиққан ҳолда ёш авлод маънавиятини юксалтириш, уларда экологик маданиятни шакллантириш жараёнларида ўқитувчи шахсига қўйиладиган талаблар қуйдагилардан иборат:

- инсонпарвар, ўқувчиларни севиши, уларга бирдек фарзандига бўлгандек муносабати;

- улғайиб келаётган ёш авлодни ҳар томонлама тушиниш, уларга бу борада амалий ёрдам бериш;

- ҳар бир ўқувчини психологик хусусиятларини инобатга олиш уларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олиш;

- ақлий жисмоний, маънавий, руҳий, эстетик жиҳатдан ёшларни фарқлай олиш;

- таълим- тарбия жараёнида ўқитувчи адолатли ва холисона жиҳатдан ёндошиши;

- маънавий - ахлоқий сифатларда шахсий намуна кўрсатиш (чекмаслик, спиртли ичимликларни, наркотик моддаларни истеъмол қилмаслик, қўпол муомалада бўлмаслик);

- ўқувчиларини касб танлашларида амалий ёрдам бериш, маслаҳатларини аямаслик;

- жонкуяр, ташаббускор, ўз касбининг устаси ва фидоий бўлиш;

- ёшларнинг касбий - малака кўникмаларини тўғри шакллантириш, касбига бўлган муҳаббатини янада ошириш;

- таълим жараёнида замонавий технологияларни қўллай билиш;

- ўқувчиларни тўғри психодиагностика қилиш, қобилиятларини ўз вақтида аниқлаб, йўналиш кўрсатиш варивожлантириш;

- иқтидорли ёшларни замон талабига жавоб берувчи технологияларни яратишга қизиқтириш;

- келажакда мамлакатимизни ҳар томонлама гуллаб яшнашига талабаларни жалб этиш.

Юқорида кўрсатиб ўтилган талаблар билан чекланиб қолмасдан ҳар бир педагог-ўқитувчи ўз касбини севувчи жонқуяри, изланувчанлиги асосида иш олиб бориш муҳим ҳисобланади.

Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури асосида бўлғуси педагог мутахассисларини маънавий-ахлоқий қиёфаси асосан мулоқат жараёнида яққол кўзга ташланади. Мулоқат ҳозирги кунда асосий муаммо сифатида педагог ва психолог олимларнинг диққат марказидан муҳим ўрин эгаллаган. Ўқитувчида мулоқотнинг ўзига хос жиҳатлари бўлиши лозим:

- Мулоқотнинг интерактив томони, яъни мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини тушинишлари;
- Мулоқотнинг коммуникатив томони, яъни мулоқотга киришувчилар ўртасидаги ахборотлар алмашув жараёни;
- Мулоқотнинг перцептив томони, яъни мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок қилиш жараёни.

Ёш авлодга маънавий қадриятлар бўйича маълумотларни ахборотларга айлантириб етказиб беришга ота-боболаримиздан бизгача етиб келган улкан бой маънавий қадриятларимиздан кенг фойдаланиш йўллари ёритилади. Ўқувчиларга бу боада билим беришда маълум бир тизимга асосланган ҳаракатларни бугунги кун талабларига жавоб берадиган қилиб фойдаланиш имконияти яратилади. Бунда:

Биринчидан қадриятлар тўғрисида тўлиқ маълумотлар бериш;

Иккинчидан қадриятлар тўғрисидаги маълумотларни тематикаларга ажратиш;

Учинчидан маълум бир тематиканинг моҳиятини ёритиш;

Тўртинчидан қадриятларнинг маънавий жиҳатларини ёритувчи маълумотларни тўплаш;

Бешинчидан маънавий қадриятларни бир бутун тизимга келтириш талаб қилинади.

Бўлажак мутахассисларни касбга тайёрлаш жараёнида табиат билан боғлиқ бўлган билимларни бойитишда қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ бўлади:

- Табиат сирларини ўргатувчи манбалар билан ишлаш;
- Маълумотлар моҳиятини тўлиқ англаш;
- Табиатда рўй берадиган табиий воқеалар сабабларини ўрганиш;
- Табиий қадриятлар моҳиятини онгли равишда қалбга жо қилиш;
- Ота-боболаримиздан бизгача етиб келган манбаларга бефарқ бўлмаслик;
- Табиатни авайлаб асраш;
- Ёш авлодни атроф-муҳит билан таништиришда унинг жозибаси ва фойдали томонларини тушунтириб кетиш орқали самарадорликка эришиш мумкин.

Бизга маълумки умумтаълим мактабларида маънавиятга оид ҳамда табиат билан боғлиқ бўлган фанлар мавжуд. Ушбу фанлар моҳияти ўқувчиларнинг маънавият ва табиат тўғрисидаги билимларини ижтимоий ҳаёт ҳақидаги тасаввурларини кенгайтириш, ўқувчиларнинг ахлоқий кўникмаларини бойитиш, болаларда одамлар ҳаётига қизиқиш уйғотиш ва шу билан бир қаторда оила, мактаб ва жамоат жойларида ўзларини тута билиш кўникмаларини шакллантириш борасида бир қанча тадбирларни амалга ошириш назарда тутилган. Бундай жараёнларни амалга ошириш учун эса биринчи навбатда ёшларда инсонларга нисбатан муҳаббат ва ғамхўрлик, инсон меҳнати билан яратилган нарсаларнинг қадрига етиш, уйда ва мактабда ижтимоий фойдали меҳнатга қизиқиш, табиатни асраш ҳисларини тарбиялашга қаратилган.

Ўқувчиларида экологик маданиятни шакллантириш учун аввало эртанги кунда уларга дарс берадиган ўқитувчиларнинг ўзида экологик билимларини бойитиш зарур.

Умумтаълим мактабларида табиатшунослик билан боғлиқ фанлар бошқа фанлардан фарқ қилиб қуйидаги вазифаларни бажаради:

- ✓ Ўқувчиларда атроф-муҳит тўғрисидаги маънавий-ахлоқий кўникмалар негизида шаклланади.
- ✓ Ўқувчилар ота-боболаримиз томонидан яратилган энг гўзал ахлоқ тизимини ўрнатади.
- ✓ Ўқувчиларни атроф-муҳит билан таништириш самарали таълим олишларига имкон яратиб беради.

Табиат тўғрисидаги билимлар таълим жараёнини ташкил қилишнинг мазмуни, шакли, услублари интеграциясини таъминлайди. Масалан, “Она табиат” бўлимини ўрганишда ўқувчиларни она табиат кучоғига олиб чиқиш, у ерда суҳбатлар уюштириш, табиат гўзаллиги билан таништириш ўзининг самарасини беради. Ўқувчиларда дунёни экологик идрок этишни, табиат бурчагидаги ҳайвонлар ва ўсимликларни парвариш қилишни, табиатга муҳаббатни уйғотиш каби кўникмалар шакллантирилса мақсадга мувофиқ бўлади.

---

## **PEDAGOGLARNI KASBIY KOMHETENTLIGINI OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARDAN FOYDALANISH**

*Orifova Saboat Yakubovna  
Namangan viloyat XTXQTMOHM pedagogika va psixologiya, ta'lim  
texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi,*

*Olimjonova Sadoqat Axrorjon qizi  
Namangan davlat universiteti 1 kurs magistranti*

Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlantirish bu borasida jahon mamlakatlarning ilg'or g'oyalari, tarbiyaviy, ta'limiy nazariyalari, mutaxassislar tayyorlashning boy amaliyoti, hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasidan foydalanish hamda milliy, hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, shu negizda yangisini ishlab chiqish va keng ko'lamda qo'llash bosh omil sanaladi.


Bu borada avvalo pedagog shaxsi va uning kasbiy maxoratini oshirish uchun olib borilayotgan ko'plab ilmiy - amaliy anjumanlar, seminarlar, tadbirlar uzluksiz davom etmoqda. Quvonarlisi shundaki mana shunday tadbirlarda qatnashishning o'zi shaxsan o'zinning kasbiy faoliyatim bo'yicha zarur ma'lumotlar olishga va amaliyotda qo'llashim uchun katta yordam bermoqda.

Shu o'rinda kompetentsiya tushunchasiga izoh berib ketamiz:

“Kompetensiya”- lotincha, kasbga loyiq, munosib, mos degan ma noni anglatadi

“Kompetensiya” tushunchasi-sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va ijobiy sifatlarini o'zida namoyon etish qobiliyatidir

Kompetensiyaning turlari



Ko'p yillardan buyon pedagoglar bilan ishlash mobaynida ularning kasbiy kompetentligini oshirish hamda psixologiya fani bo'yicha o'qituvchi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tezroq, osonroq va qulayroq usullarini qo'llash borasida tajribalar yig'dik. Olib borilayotgan amaliy mashg'ulotlar jarayonida aynan psixologik treninglarning samarasi juda yaxshi natija bermoqda. Kuyida ana shunday mashg'ulotlardan na'munalar keltiramiz:

### **Tanishuv**

**Maqsad:** Qatnashchilarni yaqindan tanishtirish va notanish auditoriya oldida fikrini erkin gapirishga o'rganish.

**O'tkazish qoidasi:** Boshlovchi (trener) koptokni xoxlagan qatnashchiga otadi va tinglovchi o'z ismini aytib, malaka oshirish markaziga kelishidan asosiy maqsadini aytilishi va u qatnashchi ham ko'tokni boshqa qatnashchiga otishi kerak va hokazo barcha qatnashchilar o'z fikrini bildiradi.

### Soat

**Maqsad:** Qatnashchilarni o'z-o'zini tushunish va taxlil qilishga o'rgatish:

**O'tkazish qoidasi:** Qatnashchilarga navbat bilan o'zlarining kundalik faoliyatida kunning qaysi vaqtida o'zlarini yaxshi xis qilishlari va nima uchun aynan shu vaqtni tanlaganliklarini aytib beradilar.

(Izoh: tinglovchilar ko'proq o'z xarakatlariga o'zi javob beradigan vaqtni tanlaydi, trener tanlangan vaqt erkinlikdagi vaqt ekanligi, erkinlikning o'ziga xos tomonlarini izohlab beradi)

### Ruhiyat va harakat

**Maqsad:** Qatnashchilarni o'z ruhiy xolatlari va harakatlarini taxlil qilishga o'rgatish.

**O'tkazish qoidasi:** Qatnashchilar navbat bilan doira stuldan har doimgi tabiiy yurishlarini yurib beradi. Qolganlar esa ana shu yurishga qarab undan mazmun topishga urinadilar. Masalan: jiddiy, loqayd, bezovta, xotirjam vahokazo.

### Nazorat va tuzatish mashqi

**Maqsad:** Qatnashchilarni kasbiy mahoratini oshirish.

**O'tkazish qoidasi:** Qatnashchilar ikki guruhga bo'linadi va har bir juftlik kuyidagi muammoli vaziyatlarni taxlil qilib, bu vaziyatlardan chiqish byicha fikrlarini bildiradi. Boshqa qatnashchilar qo'shimcha fikr mulohazalar bildirishlari mumkin.

1. O'quvchi a'lochi o'quv materialini yaxshi o'zlashtiradi, lekin fe'l atvori ko'pchilikni kayfiyatini buzadi.
2. O'quvchi yuvosh, o'z kuchiga ishonmaydi darsga tayyor bo'lsa ham xech qachon qo'l ko'tarmaydi.
3. Doim kech qoluvchi o'quvchi.
4. Sizni xatoingizni to'g'rilaydigan o'quvchi.
5. Darsingizdan zerikkan o'quvchi

6. Ruxan tushgan o'quvchi.
7. O'quvchi to'palonchi har darsda sherigiga tanchlik bermaydi.
8. Xayoli parishon o'quvchi.
9. O'quvchilar guruxidagi ruhiy muhitni buzib turadigan (g'iybatchi) o'quvchi.
10. Tengqurlaridan bilim jixatdan ilgari lab ketgan o'quvchi. U bu maktabdan qoniqmayapti.

### **O'z-o'zini boshqarish**

**Maqsad:** Qatnashchilarni turli xil vaziyatlarda o'zlarini darsga ruhiy tayyorlashga o'rgatish.

**O'tkazish qoidasi:** Trener shunday ko'rsatma beradi: Qatnashchilar o'zlarini bo'sh qo'yib, faraz qiling sizni bugun darsga kirishga umuman xoxshingiz yo'q. SHunda agar hozir kayfiyatim bo'lganida, quvonch bilan sinfga kirib o'quvchilarimga yangi ma'lumotlar berar va bundan ko'nglim yorishgan bo'lar edi, bolalarga nimadir berganimdan ichki qoniqish xosil qilar edim vahokazo so'zlar bilan o'z –o'zlariga ta'sir qilishga o'rgatiladi.

### **Menga yoqdingiz**

**Maqsad:** Insonlarni yaxshi tomonlarini ko'rishga, ularni rag'batlantirishga, o'zidagi nuqsonlarni tarbiyalashga o'rgatish va guruhda ruhiy yaqinlikni shakllantirish.

**O'tkazish qoidasi:** Trener boshchiligida qatnashchilar malaka oshirish kursiga kelganlaridan buyon shu guruhda kimning qaysi xislati yoqqanligini ko'ptok otish orqali bajarishlari kerak. Masalan, “menga falonchining muomila madaniyati yoqdi”, “menga o'z fanini yaxshi bilishi yoqdi ” vahokazo.

Psixologik treninglar o'tkazish trenerdan katta maxorat talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Matmuratova N.B. O'qituvchilarga psixologik yordam beruvchi o'yin va mashqlar. O'quv-uslubiy qo'llanma.- T.: TDPU, 2006 y.
2. Jabborov A. Pedagogik texnologiyaning etnik asoslari.- T.: “Zarqalam”, 2006y.



## **BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLARNING ROLI**

*Ibragimova Muqaddam Obidovna*  
*Namangan viloyat Kosonsoy tuman 10-IDUM amaliyotchi psixologi*

*Tursunova Osiya Zokirjonovna*  
*Namangan viloyat Kosonsoy tuman 32-maktab psixologi*

Agar bizning o'qitishimiz asosan ongni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, agar taqlidiy xulq atvor hissiyot bilan bog'liq bo'lsa, bunda "yuksak ong" o'yin tufayli mashq qilinadi va shakllanadi.

P.V.Simonov

Taniqli metodolog olim G. P. Shchedrovskiyning ta'kidlashicha, o'yin – bu bolalar rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki vujudga keltirilgan bolalar hayotining alohida shaklidir; bu jihatdan qaraganda, uning ijodkori alohida odamlar emas, balki umuman jamiyat bo'lsa ham, o'yinning vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni "ommaviy", "tabiiy-tarixiy" bo'lsa ham alohida pedagogik ijoddir, unda tabiiy tarixiy qonuniyat alohida kishilarning xilma-xil faoliyati orqali o'ziga "o'ziga yo'l ochgan".

O'yin dastavval – faoliyat mahsuli, uning vosistasi odam voqelikni qayta quradi, dunyoni o'zgartiradi. Bolaning dunyoga ta'sir ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojining namoyon bo'lishi ilk bor o'yinda shakllanadi.

O'yinning mohiyati shundan iboratki, unda natija emas, balki jarayonning o'zi muhimdir. Bola o'ynaydigan vaziyatlar tasavvur etilgan bo'lsa ham ular boshidan kechiradigan tuyg'ular realdir.

O'yinning bu o'ziga xos xususiyati o'zida katta tarbiyaviy imkoniyatlarini mujassamlashtirgan, chunki o'yin mazmunini boshqarib, o'yin syujetiga muayyan rollarni kiritib, pedagog shu tariqa o'ynayotgan bolalarning muayyan ijobiy tuyg'ularini programmalashtirishi mumkin. Birinchidan, odam uchun ijobiy tuyg'ularni boshidan kechirish tajribasining o'zi muhimdir, ikkinchidan, kechinmalar orqaligina faoliyat

ijobiy munosabatni tarbiyalashi mumkin. O'yin noo'yin faoliyatiga munosabatni shakllantirishning boy imkoniyatlariga ega.

S.L.Rubinshteyning ta'kidlashicha, bola u yoki bu rolni o'ynar ekan, u shunchaki soxtalik bilan begona shaxsga ko'chmaydi; rolga kirar ekan, u o'z shaxsini kengaytiradi, boyitadi, chuqurlashtiradi.

Har doim bolalarning o'yinidagi markaziy jihat ular uchun eng muhim bo'lgan narsa, ya'ni boladagi mavjud ehtiyojlarga javob beradigan mazmun bo'lib chiqadi. Shu sababli bir xil mazmun turli yoshdagi bolalarga turli mohiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bolalarning o'yini natijasida ular faoliyatining shunday mahsulotlari qoladiki, ularning mazmuni eng ko'p tarzda o'qish ehtiyoji bilan bog'liqlikdan yaqqol dalolat beradi.

“O'yinda maqsadlari individ uchun o'z ichki mazmuni bilan ahamiyatli bo'lgan harakatlarga sodir etiladi. O'yin faoliyatining asosiy xususiyati va uning asosiy jozibasi bilan qiyoslanadigan go'zalligi ana shunda”, - deb yozadi S. L. Rubinshteyn.

Demak, agar o'yin harakatlari o'z mazmuniga ko'ra bola uchun ahamiyatli bo'lmasa, u o'yinga, o'yin holatiga kirmasligi, rolni hech qanday his – tuyg'usiz, shunchaki bajarishi mumkin. Ijod jarayoniga bo'lganidek, o'yinga ham odamni zo'rlik bilan uning irodasiga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Kam o'ynaydigan bola o'z rivojida orqada qoladi, chunki L. S. Vigotskiyning ifodasi bo'yicha o'yinda “bola o'zining o'rta yoshidan kattaroq, o'zining odatdagi xulq-atvoridan yuqoriroqdadir; u o'yinda o'zidan bir bosh yuqoriroqdir. Bola o'yinda o'zining odatdagi xulq-atvor darajasidan yuqoriroqqa sakrashga uringandek bo'ladi. Amalda bola o'yin faoliyati orqali harakat qiladi”.

L. S. Vigotskiy o'yinning quyidagi aqlga sig'maydigan tomonlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bola eng kam qarshilkka uchraydigan yo'ldan boradi (qoniqish hosil qiladi), lekin eng katta qarshilik yo'ldan harkat qilishga o'rganadi. O'yin – iroda va mahorat maktabidir.

2. Odatda bola o'zi hohlagan narsadan voz kechishda ham qoidaga bo'ysunishni xis etadi, bu yerda esa qoidaga bo'ysunish eng ko'p darajada qoniqish hosil qilish sari

olib boradigan yo'ldir. O'yin bolaga istakning yangi shaklini beradi, ya'ni istakni o'yindagi roli va uning qoidalari bilan qiyoslaydi. O'yinda bola eng yuqori natijalarga erishish mumkinki, bu natijalar ertaga uning real o'rtacha darajasi, uning axloqiga aylanadi.

Pedagogika va psixoterapiyada bolalar o'yin jarayonida xususan rolli o'yinlardan odamovilik, potologik tortinchoqlik, nutq sustligi va hatto duduqlanish kabi illatlarga yo'liqqan ayrim bolalar uchun tuzatish vositasi sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, sahnalashtirilgan va rolli o'yinlar bolalarga huzur bag'ishlaydi. Ana shunda ularning g'ayrati shunchalik kuchli bo'ladiki, hatto o'yinda ishtirok etmayotgan tomoshabin bolalarning qo'shilishi o'yin samaradorligini yanada oshiradi. Bundan tashqari o'yin jarayonida o'yin qatnashchilari orasida xayrixohlik va qo'llab - quvvatlash muhiti bo'lishi kerak. Bunday muhit amaliyotchi psixolog va pedagoglar tomonidan yaratiladi.

Quyida yuqorida ta'kidlangan o'yin va mashqlarning psixoterapevtik imkoniyatlarini o'zida ifodalovchi amalda foydalanish uchun juda qulay bo'lgan mashg'ulotlar tavsiya etiladi.

### **Timsox va qurbaqalar**

**Maqsad.** Bolalarda epchillik, chaqqonlik va vaziyatni to'g'ri taxlil qilish malakalarini rivojlantirish.

**O'tkazish qoidasi.** Bolalardan biri timsoh bo'ladi. U bir chetda ko'zini yumib turadi. Qolganlar qurbaqa bo'lib, xovuzda o'ynab, sayr qilib yurishadi. Timsox ko'zini ochib oyoqlarini tapirlata boshlaganda, qurbaqalar tezlik bilan berkinishlari kerak. Berkinishga ulgurmagan qurbaqalar timsoxga yem bo'lishadi.

Qochish uchun davraga qog'ozlar terib qo'yish mumkin. Qog'ozlar soni qurbaqalar sonidan kam bo'lishi kerak. Timsoh kelganda bolalar qog'ozlarni ustiga chiqib olishlari kerak. Har safar o'yin takrorlanganda qog'ozlar kamaytirib boriladi.

### **Brounlar (ko'rlar) harakati**

**Maqsad.** Sezgi va idrokni rivojlantirish.

**O'tkazish qoidasi:** Barcha ishtirokchilar aylana bo'ylab turadilar. Bolalar ko'zlarni yumib turli tomonlarga harakat qilishadi. So'zlashish mumkin emas. Boshlovchi qarsak chalishi bilan hamma to'xtaydi va ko'zini ochadi.

Yana hamma ko'zini yumib avvalgi harakatlarini davom ettirishadi. Bu safar jijillab ovoz chiqarib harakatni to'xtatishadi va ko'zlarini ochishadi.

Muhokama:

Harakatlanishga nima halaqit qildi?

To'qnashib ketmaslikka nima yordam qildi?

### **Orolcha**

**Maqsad.** Psixologik (barer)to'siqlarni yo'qotish, xarakatchanlikni rivojlantirish

**O'tkazish qoidasi.** Qatnashchilar suv toshqini bo'layotganligi sababli orolchaga chiqib olishlari kerak. Orolcha sifatida arqondan tayyolangan doiradan foydalanamiz. Hamma orolga joylashgach, ular tashqariga chiqadilar. So'ngra doira xalqa kichraytiriladi. Yana hamma orolchaga joylashishi kerak. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Har safar xalqa kichraytirilib boriladi.

### **O'rgimchak to'ri**

**Maqsad.** Jismoniy faollikni ta'minlash, irodaviy sifatlarni tarbiyalash

**O'tkazish qoidasi.** Jixoz: arqondan tayyorlangan "o'rgimchak to'ri". To'ring kataklari soni, ishtirokchilar soni bilan teng bo'lishi kerak.

Qatnashchilar o'rgimchak to'rining bir tomonidan ikkinchi tomoniga to'ring hech qaeriga tegmasdan o'tishlari kerak. Agar biror qatnashchi o'rgimchak to'riga tegib ketsa, orqaga qaytadi va qaytadan mashqni bajarishlari kerak bo'ladi.

### **Foydalanilan adabiyotlar**

1. "Jamoada ruhiy muhit" . A.Anikaeva. 1994 yil
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ АСОСИ СИФАТИДА

*Худайбердиев Ўктамжон Салиевич*

*Педагогик инновациялар, касб-ҳунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти, ф.м.ф.н., бошқарма бошлиғи,*

*Шорахимов Муротхон Шамаксудович*

*Педагогик инновациялар, касб-ҳунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти, ф.м.ф.н., доцент*

**Аннотация:** Мақола инновацион технологиялардан фаол фойдаланиш, масофавий таълимни ривожлантириш билан боғлиқ замонавий таълимдаги муҳим ўзгаришларга бағишланган. Инновацион интерактив технологиялардан карантин даврида масофавий таълим шаклида фойдаланиш масалалари муаммолари, камчиликлари ва чекловлари таҳлил қилинган.

Ҳозирги глобаллашув жараёнлари таълим тизимини модернизация қилишни тақозо этмоқда. Таълим соҳасидаги инновациялар, жумладан машғулотларда инновацион технологиялардан фойдаланиш ушбу ўзгаришларнинг асосий воситаси бўлиб хизмат қилади. Замонавий интерактив технологияларнинг таълим соҳасига кириб келиши ўқитувчиларга таълим мазмуни, усуллари ва ташкилий шакллари сифат жиҳатидан ўзгартириш, ўқувчиларнинг интеллектуал имкониятларини мустақамлаш ва таълимнинг барча босқичларида таълим сифатини ошириш имконини беради.

Бушунги кунда таълим соҳасига инновацион технологияларни жорий этиш масаласи катта илмий қизиқиш ўйғотмоқда ва илмий тадқиқотларга сабаб бўлмоқда.

Хусусан, олимлар инновацияларни таълим муассасалардаги жараёнлари ва хизматларини такомиллаштиришга, янги корпоратив қадриятларни яратишга олиб келадиган муҳим ўзгаришлар деб ҳисоблашади. Шу билан бирга улар таълим соҳасидаги инновацияларнинг асосий мезони сифатида инновацияларнинг

барқарорлигини кўрсатиб, кўплаб таълим муассасалари ўзини инновацион деб ҳисоблашини таъкидлайдилар. Бироқ, таълимдаги аксарият инновациялар тасодифийдир. Фақат бир қатор таълим муассасалари таълим хизматлари сифатига таъсир қилувчи инновациялар натижалари устидан назоратни амалга оширадилар [1].

Бошқа олимлар таълим муассасаларини жихозлаш, технологик инновациялар билан таъминлаш, онлайн ва офлайн курсларни жорий этиш етарли эмас деб ҳисоблашади. Уларнинг фикрича, таълим муҳитига инновацион технологияларни жорий этиш билан бирга чуқур тизимли ва таркибий ўзгаришларни жорий этиш зарур [2].

Бир қатор муаллифлар инновацион таълим технологияларини ишлаб чиқувчилар таълим инновацияларига тарих, анъаналар ва мафкуравий қарашлар жиддий таъсир кўрсатадиган ижодкорлик сифатида қараш таклифини илгари сурадилар [3].

“Таълимда инновациялар” тушунчасини ҳисобга олган ҳолда, муаллифлар таълим инновацияларини техник таркибий қисмидан ташқари, сиёсий, маданий, ижтимоий, бюрократик таркибий қисмларини ҳам ажратиб кўрсатишни таклиф қиладилар. Бундан ташқари, инновацион жараён иштирокчилари ва инновацион технологиялар ўртасида “воситачи” вазифасини бажарувчи ўқитувчи таълим инновацияларини жорий этишда етакчи ролни ўйнаши таъкидланади. Шунингдек, муаллифлар “кўзга кўринадиган ва аниқ” ижобий натижаларни инновациянинг асосий мезони деб ҳисоблайди [3].

Олий таълимнинг инновацион шакллари бўйича таниқли мутахассис инновацион технологияларни жорий этишнинг ўзига хос хусусиятларини таълим муассасалари мисолида очиб берган [4]. У таълимга инновацияларни жорий этиш муаммоларини кўриб чиққан ҳолда, муаллиф инновацияларни жорий этишда асосий тўсиқлар сифатида қонунийлик (легитимлик), пул маблағлари ва технологияларни кўрсатиб, уларни комплекс ёндашув асосида енгиб ўтиш мумкинлигини билдиради.

Таълимга инновацияларни жорий этиш имкониятлари ва истиқболларини ўрганиш натижасида муаллифлар томонидан инновацияларни амалиётга жорий этиш учун институционал асоснинг йўқлиги (тузилма, кадрлар, молиявий маблағлар) ва таълим муҳитининг инновацияларга нисбатан консервативлиги этироф этилган [1-4].

Муаллифлар таълимга инновацияларни жорий самарадорлиги ошириш учун инновацион фаолият ва юқори технологияли маҳсулотларни бозорларга олиб чиқиш соҳасида консалтинг тизимини яратиш ва ривожлантириш; таълим соҳасида академик ва корпоратив мактабларнинг афзалликларини бирлаштириш; амалиётга йўналтирилган инновацион технологияларни фаол жорий этишни таклиф этган.

Мухтасар қилиб айтганда, мутахассислар, талқинларнинг турфа турлигига қарамай, таълим соҳасида инновацияларни аниқлашга имкон берувчи бир қатор, яъни янгилик, тизимлилик, прогрессивлик (прогрессив хусусият), мураккаблик каби умумий белгиларни ажратиб, таълим соҳасида анъанавий ва инновацион технологияларни бирлаштириш зарурлиги тўғрисида хулосага келишган [1-4].

Масофавий таълим (МТ) интернет воситалари ва интерфаол технологиялардан фойдаланиш орқали масофадан туриб ўқитувчи ва таълим олувчиларнинг бир-бирлари билан эришиладиган ўзаро таъсири сифатида талқин этилади [5].

Бинобарин, МТ мустақил таълим шакли бўлиб, унда ахборот ва инновацион технологиялар етакчи восита ҳисобланади [6]

COVID-19 пандемияси сабабли масофавий ўқитиш (МЎ) ни барча таълим ташкилотларида ўқитиш шакллари орасида биринчи ўринни эгаллаганини инобатга олиб, МЎ амалга ошириш хусусиятларини – яъни унинг маълум истиқболлари ва чекловларини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ.

МЎнинг анъанавий, маълум афзалликларидан ташқари (чексиз миқдордаги таълим олувчиларни ўқитиш имконияти, реал вақт режимида ўқитиш ва онлайн маслаҳатлар ташкил этиш, ўқув адабиётлари ва сарф материалларини харид қилиб олишни молиялаштиришни камайтириш, яшаш ёки иш жойида ўқитиш, таълим



олувчиларни ўқитишнинг индивидуал жадвалини тузиш ва уларнинг мустақиллигини ривожлантириш ва бошқалар), ҳозирда МЎ кенг жорий этиш билан боғлиқ муаммоли масалаларга тўхталамиз [7].

Бугунги кунда ўқитувчиларга “юқоридан” МЎга ўтиш юзасидан аниқ услубий тавсиялар, рақамли ўқув-услубий материалларининг яхлит тизими, ўқув жараёнини ташкил этишга оид тегишли таълим воситалари берилмаган.

Карантин даврида ҳамма жойда ва таълим муассасаларида тезкор равишда юқори сифатли МЎга ўтиш имкони бўлмади, чунки ўқув фанини (предметини), ўқув курсини масофавий тизимга ўтказиш, одатда, битта ўқитувчи эмас, балки бир нечта мутахассисларнинг меҳнатини талаб қилади. Бу ерда давомийлиги аниқ белгиланган видео маърузаларни тайёрлаш ва ёзиб олиш, видео ва аудио материалларни таҳрирлаш, тестлар, графикалар, матнлар, тақдимотлар, анимацияларни тайёрлаш, керакли адабиётларни танлаш, материалларни махсус онлайн-платформаларга жойлаштириш, контент (мазмун) билан ишлаш ва ҳ.к.лар назарда тутилади.

Ўқитувчилар томонидан кундузги таълим тизими машғулотлари учун мўлжалланган материалларга қўйиладиган талабларга жавоб берадиган етарли даражада тўлиқ ва яхлит материаллар тайёрлай олмаслиги мумкин. Бундан ташқари, бу салбий жиҳатлар маълум бир ўқитувчига берилган ўқув фанлари тури ва сонига мутаносиб равишда ортиб боради. Шу билан бирга, махсус таълим платформаларида МЎни тармоқ бошқарув тизимлари етарли даражада ривожланмаган [8].

Бир томондан, МЎ турли хил ахборот технологиялари ва хизматларидан фойдаланишга имкон берса, бошқа томондан, ўқитувчилар ва таълим олувчилар янги ахборот технологияларини хотиржам ўзлаштиришга вақтлари ва имкониятлари бўлмади, бу "ўзлаштириш" машғулотларни ўтказиш давомида амалга оширилди.

Бу ҳолат фанлардан синовларни қандай топшириш, мустақил ишни қандай амалга ошириш кераклиги тўғрисида тўлиқ тушунчага эга бўлмаган таълим олувчиларга ҳам тегишли.

Уйдан туриб дарсларда қатнашиш таълим олувчиларнинг масъулияти ва эътиборини пасайтиради, ўқитувчи услубий назоратни амалга ошира олмайди ва таълим олувчининг машғулотларда “иштирок этиш эффекти” кузатилмайди. Мўъқув жараёнининг барча иштирокчиларининг мавжуд таълим технологияларига мослашишини талаб қилади: интернет технологиялари ва иловаларини яхшироқ билган таълим олувчилар ўқув материаларини фаолроқ ўзлаштиради ва шунга мос равишда уларни ўқитиш самараси юқорироқ бўлади.

Мўъда таълим жараёни иштирокчилари ўртасида шахслараро алоқа ўрнатиш имконияти бўлмайди. Оддий визуал алоқаларнинг камайиши, тўғридан-тўғри ижтимоий мулоқот қура олмаслик ва бундай мулоқотда ҳиссий компонентнинг етарли эмаслиги ахборот технологиялари воситаларининг билвосита характерга эга бўлганлиги билан боғлиқ.

Ўқув материалларини берилишига ўзгартиришлар киритиш, машғулотлар давомида таълим олувчиларни ўқишга мотивациясини рағбатлантириш, дарсда интизомни кузатиш учун тақдим этилаётган интернет маълумотлар экраннинг ортидаги таълим олувчилар томонидан қандай қабул қилинаётганлигини кузатиб бўлмайди, шу боис бундай ўқитишнинг муваффақияти ва самарадорлиги пасаяди.

Таълим олувчилар билан визуал алоқа ва шахслараро муносабатларни ўрнатиш имкони бўлмаса, ўқитувчи ўқитиш усулларини танлашда ва педагогик технологияларни амалга оширишда, таълим олувчиларнинг хулқ-атвори ҳамда жорий ва оралик ўзлаштиришларини назорат қилишнинг замонавий усулларини жорий этишда қийинчиликларга дуч келади.

Масъулият нуқтаи назаридан ўқитувчилар учун ўз иш жойи ва атрофини тўғри ташкил этишга аниқ мақсадли ёндашиш, ажратилган вақт доирасида интизомли бўлиш муҳим аҳамиятга эга. Ўқув курсини (дастурини) тузиш учун ўқитувчига кундузги шаклдаги машғулотга тайёргарлик кўриш вақтидан кўра кўпроқ вақт керак бўлади. Ўз навбатида, электрон-ахборот таълим муҳитида онлайн ва электрон таълим ресурслари билан ишлашда таълим олувчиларнинг техник тайёргарлиги етарли эмас.

Таълим олувчилар дарсларга тайёргарлик кўриш, адабиётлар билан ишлаш, умуман курсни ўтишда ҳар доим ҳам ўқитувчининг назорати ва ёрдамисиз ўқув вақтларини режали ва самарали ташкил қила олмайдилар. Кўпинча, интернет алоқанинг узилиши, ўрнатилганлиги дастурлар ва моддий-техник ускуналарнинг ҳар хиллиги, ишламайдиган интернет-ҳаволалар ва таълим олувчиларнинг потенциал аудиториясини камайтирувчи бошқа турли хил техник қийинчиликлар кузатилади.

Мўда ўқитувчи ҳамда таълим олувчилардан кўп вақт талаб этилади. Ўқув курсини олиб бориш (дарс ҳақида ҳисобот, кейинги дарс материалларини ишлаб чиқиш, таълим олувчиларнинг саволларига жавоб бериш, компьютер ускуналари билан ишлаш) кўп вақт сарфлашни талаб қилади. Аслида, ўқитувчиларда нафақат методик, балки умуман илмий-педагогик фаолиятнинг ажралмас қисми бўлган илмий ишларни ҳам талаб даражасида бажаришига вақт қолмайди.

Таълим олувчилар нафақат ўқитувчи билан, балки тенгдошлари билан ҳам доимий, кундалик мулоқотдан маҳрум бўлади. Шахсни мулоқотда бўлиши, уни ижтимоийлаштириш ва тарбиялаш таълим ташкилотида амалга оширилади, Мў жараёнида эмас.

МТ технологиялари ёрдамида айрим фанлардан амалиётга йўналтирилган машғулотларни ўтказиш деярли мумкин эмас (чет тили, театр санъати, олий тиббий таълим тизимидаги фанлар, спорт фанлари ва бошқалар).

Мў доимий равишда қўлланилганда кўриш қобилиятига (кўзга) катта юк тушади, педагогик жараённи ташкил этилиши нуктаи назаридан ҳамма жараёнлар бир томонлама ва доимий такрорланувчан кўринади.

Агар таълим муассасасида дарсларни турли аудиторияларда ўтиш, шахслараро мулоқотни кўзда тутувчи анъанавий маърузалар ва амалий машғулотларни ўтказиш, ҳаракатланиш, сайр қилиш, тенгдошлар билан мулоқот қилиш, ўз вақтида тушлик қилиш имконияти бўлса, уй шароитидаги Мў мобайнида қайд этилган ўқув-ижтимоий ва маиший (кундалик) жихатлар йўқлиги сабабли таълим олувчиларда қўшимча пессимистик стресс омили пайдо бўлади [9].

Фақат Мўдан фойдаланиш мавжуд меҳнат бозори, мамлакат иқтисодиёти учун малакали мутахассислар тайёрлашни тўлиқ таъминлай олмайди. Шу маънода, таълимнинг турли соҳаларида рақамли таълим муҳитининг мақсадли моделини тадбиқ этиш тажрибаси фақат электрон ўқитиш технологиялари ва МТ технологияларини жорий этишга эмас, балки ўқитишнинг фаол усулларини жалб қилган ҳолда кундузги таълим шакли асосида тизимли ўқитишга ҳам таяниши лозим [10].

Таълим соҳасидаги экспертлар ва мутахассислар замонавий шароитда иккинчи ўқув йилини доимий тарзда Мў шаклида таълим олаётган шахслар шаклланган билим, малака, кўникма, компетенцияларнинг етарли бўлмаган ҳажми, мустақил ўқишга ва узлуксиз касбий ривожланишга (таълимга) етарлича кучли мотивациясиз келажак касбига кириб боришини таъкидлашган. Тахмин қилиш мумкинки, бундай Мў натижасида меҳнат бозори сифати паст бўлади.

Айтиш мумкинки, ҳозирги вақтда Мў таълимнинг кундузги ва сиртки шакллар учун янги босқич бўлиб хизмат қилмоқда, бунда, махсус ахборот технологияларидан (шахсий компьютер, махсус дастурлар ва ускуналар, интернет тармоғи, мобил иловалар) фойдаланиш мумкин.

Шу билан бирга, Мў мажбурий чорадир. Пандемия даврида Мў га нисбатан муқобил ўқитиш тизими йўқ ва таълимда бу катта йўқотишларга олиб келади. Жамият одатдаги телевидение орқали “дарс ўтиш” босқичидан ўтганимизни тушунади. Олдинда Мўнинг психологик, педагогик, ахборот, иқтисодий, таълимий, ахлоқий, ташкилий жиҳатлари билан боғлиқ бир қанча масалалар мавжуд, уларнинг ҳал этилиши Мўни етарли даражада амалга оширилишини ва масофавий таълим жараёнини унификациялаш имкониятини беради.

Масофавий таълим бошқа таълим турларидан фарқ қиладиган ўқитиш усуллари, воситалари, шаклларида фойдаланишни назарда тутди. Таълим олувчиларнинг профессор-ўқитувчилар ва бир-бирлари билан мулоқот шакллари ҳам ўз-ўзини ўқитиш тизимининг элементи сифатида ҳисобга олиниши зарур. Шу билан бирга, масофавий таълим шакли анъанавий таълим шакллари билан бир хил таркибий қисмлардан иборат бўлиши керак, яъни,

таълимнинг ушбу шакли учун ижтимоий буюртма томонидан белгиланган ўқитишнинг асосий йўналтирилган ўқув мақсади, амалдаги ўқув дастурларида белгиланган фан мазмуни, ишнинг ташкилий усуллари ва шакллари, таълим воситалари (телекоммуникация, компьютер техникаси, кейс-технология ва шунга ўхшаш техник элементлар ва технологик компонентлар) бўлиши керак.

Таълимнинг ушбу шакли сифати ва самарадорлиги бевосита интерактив тармоқ орқали дарс олиб бораётган ўқитувчиларга боғлиқ. Улар энг янги педагогик усулларни қўллай оладиган, ахборот технологиялари соҳасидаги инновацияларни биладиган ва ноёб ахборот муҳитида ишлашга тайёр универсал ўқитувчилар бўлиши лозим.

Бу ҳолатда муаммо шундаки, бизда бундай мутахассислар тайёрланмайди. Бундан ташқари, тармоқларда таълим олувчиларни ахборот билан таъминлашнинг шакли ва мазмуни муаммоси мавжуд. Ўқув материалларининг тузилмаси ва интернет тармоғида тақдим этилиши масаласи ҳар томонлама, шу жумладан, ҳуқуқий жиҳатдан ҳам ҳал қилинмаган. Масофадан ўқитилаётган таълим олувчиларнинг билимини баҳолаш масаласи ҳам ечимини кутмоқда. Бу саволлар ечими МТ учун (юқорида қайд этилган) меъёрий-ҳуқуқий базанинг йўқлиги муаммосига тақалади [11].

Таълимнинг масофавий шаклини жорий этишда таълим жараёнининг ўзига хос эҳтиёжларига мос равишда доимий янгиланадиган ва мослашувчан ягона ноёб ўқув-ахборот интерактив муҳитини яратиш лозим. Мазкур муҳит виртуал кутубхоналар ва маълумотлар базалари, электрон ўқув қўлланмалари, виртуал лаборатория ва синфлар, тармоқ маслаҳат хизматлари ва бошқа шунга ўхшаш тузилмалар каби турли хил электрон ва тармоқ ахборот манбаларини ўз ичига олиши керак. Анъанавий таълим шаклида бўлгани каби МЎ тизими асосида ҳам ўқитувчи, дарслик ва таълим олувчи бўлиши керак.

Шунингдек, ўқитувчи ва таълим олувчи ўртасидаги ўзаро муносабатлар тизимли билимлар олишнинг асосий ва муҳим омилларидан бири сифатида ташкил этилиши лозим. МЎ шаклини яратишга энг муҳим асос сифатида фанлар бўйича интерактив шаклдаги ноёб ўқитиш мажмуини яратиш, МЎнинг дидактик

базасини ишлаб чиқиш ва ўқитувчи-тьюторларни (ўқитишни мувофиқлаштирувчи) тайёрлаш ҳисобланади. Бундай ўқитувчиларни тайёрлаш Мўнинг муаммоларини ҳал қилишнинг асосий усулларида биридир [12].

Электрон таълим тизими томонидан қўйилган мақсад ва вазифалар янги дидактик имкониятларни тақдим этган ҳолда жиддий технологик ва педагогик ечимларни талаб қилади. Бутун таълим тизими соҳасида электрон таълимни интеграциялашуви муқаррар. Эндиликда бу жараёни турли хил қисқа муддатли вазиятлар (масалан, пандемия) билан боғлаб бўлмайди.

Келажакда тайёрлаётган кадрларимиз муваффақиятли бўлишлари учун ҳаётга шиддат билан кириб келган электрон таълим имкониятлари туфайли пайдо бўлаётган ва мустаҳкамланаётган барча кўникмалар зарур бўлади. Шу боис Мўни илмий асосланган ҳолда, изчил ва мақсадли ташкил қилиш ҳамда амалиётга кенг жорий қилиш, бугунги камчилик ва нуқсонлар туфайли ундан воз кечиш жамият ва мамлакатнинг ривожланиш мақсадларига мувофиқ эмаслигини инобатга олиш лозим.

#### Адабиётлар:

1. Furst-Bowe Julie A., Bauer Roy A. Application of the Baldrige Model for Innovation in Higher education. New directions for higher education, no. 137, pp. 5-14, 2007.
2. Issing Ludwig J, Schaumburg Heike. Educational Technology as a Key to Educational Innovation: State of the Art Report from Germany. Tech Trends, v45, no 6, pp. 23-28, 2001.
3. Guillermo Orozco-Gomez. Can we be more creative in thinking about how to scale up educational innovation? Journal of Educational Change, no 7(4), pp. 345-349, 2006.
4. Kinser Kevin. Innovation in Higher Education: A Case Study of the Western Governors University. New directions for higher education, no. 137, pp. 15-25, 2007.
5. Е.С.Полат, М.Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева. Теория и практика дистанционного обучения// Учеб. пособие для студ. высш. пед. уч. зав. М.: издательский центр «Академия», 2004. с.17.

6. Хусяинов Т.М. История развития и распространения дистанционного образования // Педагогика и просвещение, 2014. № 4. с. 30-41.

7. *Дегтярева А.П., Загорский В.В.* Стратегии и эффективность работы в системах дистанционного образования // Вестник Московского университета. Серия 20: Педагогическое образование. 2016. № 1. с. 67-74.

8. *Гринишкун В.В.* Проблемы и пути эффективного использования технологий информатизации в образовании // Вестник Московского университета. Серия 20: Педагогическое образование. 2018. № 2. с. 34-47.

9. *Марчук Н.Ю.* Психолого-педагогические особенности дистанционного обучения//Педагогическое образование в России. 2013. № 4. с. 78-85.

10. *Кузнецова И.В.* Цифровизация обучения: от микрокалькулятора к веб-технологиям // Вестник Тверского государственного университета. Серия: Педагогика и психология. 2020. Вып. 2 (51). с. 187-191.

11. Громова Т. В. Формирование готовности преподавателя к деятельности в системе дистанционного обучения. - М.:Тезарус, 2006.- с. 32.

12. Авраамов Ю. С. Практика формирования информационно-образовательной среды на основе дистанционных технологий. Телекоммуникации и информатизация образования. - 2004.- № 2. - с. 40-42.

---

## IJODKOR TALABALARNING MOTIVATSION SOHASINI TADQIQ ETISH

*Indira Rahimova*  
*O'zMU dotsenti,*  
*Bo`riyev Abror Ibragim o`g`li*  
*O'zMU magistranti*

Hozirgi kunda talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyati ta'lim faoliyatining eng muhim jarayonidir. A.Maslou, E.Yu.Nikitin, V.V.Balashovlarning ishilarini talabalarning tadqiqot faoliyatining motivatsion sohasiga bag'ishlangan. Har bir talaba butun o'quv faoliyati yillarida ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanib keladi, jumladan: kurs



ishlari, insholar yozish, ilmiy konferentsiyalarda qatnashish, maqolalar yozish va boshqalar.

Ijodkor talabalarning ilmiy faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, talaba bu bosqichda o'rganib boradi, rivojlanadi, dunyoqarashini o'zgartiradi. Talabalar va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarining pasayishi oliy o'quv yurtlarida ilmiy sohaning faoliyati va rivojlanishini shubha ostiga qo'yishi mumkin. Ammo universitetlar faoliyatining ilmiy yo'nalishi doimo strategik yo'nalish sifatida ko'rib chiqilib hisobga olingan.

Shu bois talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish zarur. Motivatsiya atamasi insonni har qanday faoliyatga undaydigan jarayonni anglatadi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga motivatsiyasini shakllantirish uchun uning mohiyatini hisobga olish kerak.

Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'limi Davlat ta'lim standartining ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlari ulushini oshirishga doir talablari talabalarning bilish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtirishning ob'ektiv zaruratidan kelib chiqadi.

Ilmiy ijodni rag'batlantirish muammolarini muhokama qilayotgan muallif va ijodkorlarning ko'pchiligi A. Maslouning motivatsiya nazariyasiga tayanadi [3], bu nazariya bundan tashqari ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi deb ham ataladi va quyidagi qoidalarga asoslanadi:

Inson shaxsiyatining yaxlitligi g'oyasi motivatsion nazariyaning asosi; motivatsiya fiziologik harakatlar bilan cheklanmaydi; motivatsion nazariya xulq-atvorni shakllantirishda o'tkinchi maqsadlardan ko'ra fundamental maqsadlar, ularga erishish vositalaridan ko'ra maqsadlar muhimroq, ong osti omillari onglidan muhimroq ekanligini hisobga olishi kerak; motivatsiya nazariyasi hayvonlar ustida olingan eksperimental ma'lumotlarga emas, balki insonning xatti-harakatlariga qaratilgan; har bir xulq-atvor akti bir nechta motivatsion omillar ta'sirida shakllanadi; inson ehtiyojlarini ierarxiya sifatida ifodalash mumkin; xulq-atvorni ta'minlash uchun atrof-muhitni, shu jumladan ijtimoiy sharoitlarni hisobga olish kerak, ammo bu shartlarni xatti-harakatlarning yagona hal qiluvchi omili deb hisoblash mumkin emas; motivatsiya

nazariyasi va xulq-atvor nazariyasi bir xil narsa emas, motivatsiya xulq-atvorni shakllantirishning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Yutuq, muvaffaqiyatga erishish motivlari tadqiqotchilar tomonidan ham olimlarga, ham ishbilarmonlarga xos bo'lgan chuqur omil sifatida e'tirof etiladi va u eng yuqori mezonlarga javob berish va raqobat muhitida muvaffaqiyatga erishish istagi, maqsadlarga eng samarali erishish istagi sifatida belgilanadi. Ijodkor talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati motivlarining rivojlanishiga ta'lim muassasasi muhiti, rahbarning shaxsiyati, o'quv va ilmiy ishlarni olib borish shakllari va usullari ta'sir qiladi. [2]

Ijodkor talabalarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida ilmiy-tadqiqot faoliyatini optimal tashkil etish universitet bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshiradi, talabaning o'zini ijodiy shaxs sifatida anglashga yordam beradi, ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashish, maqolalar chop etish, o'quv-uslubiy maqolalar chop etishda tajriba orttirish imkonini beradi. yordam beradi va zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun asos yaratadi.

J.Dyui tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda o'quvchilar ijodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'riflangan:

- majburiy muvofiqlik,
- avtoritar munosabat va avtoritar muhit,
- o'qituvchining qattiqqo'lligi,
- kinoya va masxaralarning namoyon bo'lishi,
- yomon baho,
- muvaffaqiyatga yomon yo'naltirish,
- shaxsga dushmanlik.
- rivojlangan divergent fikrlash bilan va boshqalar [1].

Shunday qilib, tadqiqot faoliyatining motivatsion va operatsion sohalarining qisqacha tavsifi shuni ko'rsatadiki, o'rganishga integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan kognitiv faoliyatning yanada murakkab va rivojlangan shakllari o'ziga xos psixofiziologik mexanizmlar bilan tavsiflangan ko'payish, izlanish va ijodkorlik elementlarini o'z ichiga oladi. Ularning ko'pchiligi (yangilik omili, bog'lanishlarni

anglash va tahlil qilish va boshqalar) izlanish va ijodiy yondashuvga yo'naltirilgan tadqiqot kognitiv faoliyatida va bir xil o'quv predmeti doirasida namoyon bo'ladi. Biroq, ijodkor talabalarning rejalashtirilgan tadqiqot faoliyatiga integratsiyalashgan yondashuv kontekstida bilishning barcha mexanizmlari o'ziga xoslikka ega bo'lib, aqliy faoliyatning izchilligi va dinamikligining muhim darajasi bilan tavsiflanadi, bu esa barcha tarkibiy qismlarda ijobiy dinamikani ta'minlashga imkon beradi. Tadqiqot faoliyatining motivatsion va operatsion sohalari (qobiliyat, fikrlash, motivlar va boshqalar), shu bilan innovatsion rejimda ishlaydigan keng funksional diapazondagi tadqiqotchi-mutaxassislarni tayyorlash uchun psixologik-pedagogik sharoitlar yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dyui J. Tafakkur psixologiyasi va pedagogikasi (Biz qanday fikrdamiz.). - M: Labirint-K, 1999.)
2. Materova A.V. Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish. RUDN universiteti axborotnomasi, seriyasi Psixologiya va pedagogika, 2012 yil, №1.
3. Maslou A. Shaxs psixologiyasi. - M.: Nauka, 1982 yil.

---

## **ZAMONAVIY BOSHQARUVDA JAMOANI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**

*Ismailov Kamolatdin Kurultaevich  
Toshkent farmasevtika instituti , i.f.n., dotsent,*

*Ismailova Shamsiya Kurultaevna  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti, p.f.n.*

Boshqaruvni samarali amalga oshirishda rahbar kadrlar muhim o'rin tutadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning taqdiri ko'p jihatdan davlat idoralarida mas'ul lavozimlardagi rahbarlar faoliyati, ularning ishga bo'lgan munosabati, jamoa bilan ishlash ko'nikmalari, zamonaviy insoniy sifatlari va boshqaruv mahoratiga bog'liqdir.

Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit mutaxassislarning umumiy faoliyatidan va rahbarning shaxsan o'ziga xos xulqiy xususiyatlaridan, xodimlarning o'zaro munosabatlaridan kelib chiqqan xolda o'zgarib boradi. Bu o'rinda jamoaning psixologik muhitiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri bu - rahbarning ijtimoiy-psixologik qiyofasi ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Jamoadagi psixologik muhit uning hamma a'zolari faoliyati natijasida vujudga keladi. [1,28 b.]

Jamoa –bu umumiy maqsadlarga erishishda hamkorlikda mehnat qiladigan shaxslar guruhi. Samarali jamoa hamkorligi jamoaviy ruh, o'zaro qo'llab-quvvatlash, vakolatlarning to'g'ri taqsimlanishi, mas'uliyatning belgilanishi kabi tamoyillarga asoslanadi.

Rahbarning shaxslik xususiyatlari xodimlar va quyi hamda yuqori bo'g'in rahbarlari, jamoat tashkilotlari bilan ishbilarmonlik va iliq ma'naviy-ruhiy aloqalarni o'rnatish, shuningdek, jamoada sog'lom muhit va ko'tarinki kayfiyatni yaratishga imkon beradi.

Inson muayyan guruh, jamoaning a'zosi bo'lib ongli ravishda eng bilimdon, vijdonli, or-nomusli, tashkilotchi va boshqaruvda mahoratli, rostgo'y, tashabbuskor, mas'uliyatli, mehnatsevar, ishbilarmon va raqobatbardosh shaxsni rahbar, lider deb tan oladi.

Jamoa bilan ishlaganda rahbarning faoliyati temperamenti va boshqa shaxsiy xususiyatlarini umumlashib, uning boshqaruv uslubini belgilaydi. Ayni shuni hisobga olgan holda aytish lozimki, boshqaruv faoliyatini olib borayotgan kishi nafaqat o'z shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qolaversa, birinchi o'rinda xodimlarning ham o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda boshqaruv uslubini belgilashi kerak. Ya'ni rahbarlik faoliyatini amalga oshirishda har bir jamoa a'zosining xususiyatlarini inobatga olish muhim ekanligi amaliy faoliyat natijalarida o'z aksini topmoqda.

Jamoani rivojlantirish tabiiy jarayon bo'lmay, balki psixologik boshqariladigan vaziyatdir. Boshqaruv samaradorligi uning rivojlanish qonuniyatlarining qay darajada tadqiq qilinganligi, jamoa rahbarining vaziyatni qanchalik to'g'ri tashxis qilishi va iqtisodiy, ma'muriy hamda ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish vositalarini to'g'ri tanlashiga bog'liqdir.[2,15 b.]

Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari va uning o'zini - o'zi boshqarish imkoniyatlari qanchalik to'laroq hisobga olinsa, boshqaruv shunchalik samarali bo'ladi. Korxonada va tashkilotda jamoani boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib rahbarda quyidagi kompetensiyalarning mavjud bo'lishini talab qiladi:

1) Jamoa a'zolari va uning tarkibidagi xodimlar shaxsiy-psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlarga ega bo'lish.

2) Rahbarning shaxsiy kuzatuvlari va mantiqiy xulosalari asosida jamoada shaxslararo munosabatlar haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lish.

3) Xodimlar kompetensiyasi, ishga bo'lgan munosabati, mehnat intizomi kabi kasbga oid xususiyatlarini muntazam tahlil qilib borish.

4) Xodimlarni rag'batlantirish usullari va ularning jamoa a'zolari shaxsiga ta'sirini bilishi lozim bo'ladi.

Bu talablar rahbar zimmasiga jamoa a'zolari o'rtasidagi samimiy, do'stona munosabatlarni yuzaga keltirish, muloqot qilish, hamkorlik jarayonida uyg'unlashib ketadigan jamoaviy ruhni shakllantirish vazifasini yuklaydi. Rahbar o'z xodimini sinchkovlik bilan kuzatishi orqali uning shaxsidagi qatlamlar o'rtasida uyg'unlik yoki ziddiyatni his qilishi mumkin. Rahbarning bunday nuqtai-nazarga ega bo'lishining yana bir sharti - xodim ruhiyatidagi ziddiyatlarga tashkilot miqyosida shakllangan muhit ham sabab bo'ladi. Demak, tashkilotda shakllangan me'yorlar nosog'lom bo'lsa, xodim nizoli harakatlarga yo'l qo'yishi va u o'z e'tiqodi va qadriyatlariga zid ravishda qaror qabul qilishi mumkin. Aynan ichki poklik, samimiylik va inson tabiatining yaxlitligi o'zgaga ta'sir etishdagi asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi. [1,32b.]

Muvaffaqiyatli rahbarlikka oid shaxslik xislatlarini talqin etar ekanmiz, shu mavzu yuzasidan chet el olimlari tomonidan o'tkazilgan ba'zi bir tadqiqot natijalariga murojaat etamiz. [2,23b.]

Rahbarning o'ziga bo'lgan ishonchi. O'ziga bo'lgan ishonchni vaziyatni boshqarish va ish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish qobiliyati deb ta'riflash mumkin. O'ziga bo'lgan ishonch rahbarning o'z zimmasiga javobgarlikni olishga qo'rqmasligidan, tashabbus ko'rsatib, muammol vaziyatlarda ishlashga tayyorligidan dalolat beradi. Shaxslararo munosabatlarda ishonch,

xushmuomalalik va qat'iyatlilik, turli nuqtai- nazarlarni inobatga olish, asosli dalillar mavjud bo'lgan holatlarda o'z fikrini o'zgartirishga tayyorlik va yakuniy qaror qabul qilish, yuzaga kelgan nizolarni samarali hal qilish kabi sifatlar bilan tavsiflanadi.

Muvaffaqiyat va g'ayrat-shijoat. Ushbu kompetensiyani maqsadlarga erishishda o'z qobiliyat va imkoniyatlaridan keng darajada fidoiylik bilan foydalanish, samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirib borish shijoati deb ta'riflash mumkin. Ushbu malakaga ega bo'lgan rahbarlar har doim muammoning yechimi bo'yicha shaxsiy javobgarlikni o'z zimmalariga olishga, bor imkoniyatlarini ishga solib, masalani to'liq hal qilishga harakat qiladilar.

Tashabbuskorlik rahbarning tashkilot maqsadlariga erishishda yangilikka intilish, tashabbuslarni ilgari surish, qo'shimcha mas'uliyatni zimmasiga olish, belgilangan ko'rsatkichlardan ortiqroq tadbirlarni belgilash, turli muammolarni oldindan bashorat qilish va ularni bartaraf etish qobiliyati bilan ta'riflanadi.

Jamoa bilan ishlash. Jamoa bilan ishlash jarayonida maqsadlarning oqilona qo'yilishida yetakchilik qilish, xodimlarni to'g'ri motivatsiyalash, vakolatlarni taqsimlash, o'zaro muloqotni samarali yo'lga qo'yish kabi sifatarning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'z navbatida, guruh a'zosi jamoaga sodiq bo'lishi, umumiy qabul qilingan qarorlarni qo'llab-quvvatlashi, ustunlikni egallab olishga urinmasligi yoki lozim paytlarda individual ishlashi kerak. U yangi ma'lumotlar, g'oyalar paydo bo'lganda jamoaning boshqa a'zolari bilan o'rtoqlashishi zarurligini tushunishi va o'z g'oyalar fikrini qabul qilishi kerak, chunki bu o'z navbatida faoliyat samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, bu kompetensiyani rivojlantirish uchun jips jamoada quyidagi tamoyillar yetakchi bo'lishi lozim: guruh maqsadlarining aniqligi; guruhning har bir a'zosi o'z rolini tushunishi; jamoada do'stona mikroiklim; samarali qaror qabul qilish jarayonida qatnashish; guruh a'zolarining axborotlar bilan ta'minlanganligi; jamoa ichidagi nizolarni boshqarish kabilardir.[4]

Kommunikativlik - bu jamoada o'zaro axborot va turli ilg'or g'oyalar bilan almashish, muloqot ehtiyoji va ko'nikmasi hisoblanadi. Kommunikativlik shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida jamoa a'zolari bir-birlari

bilan o‘zaro ruhiy hamjihat bo‘ladilar, axborot almashadilar. Kommunikativlikning quyidagi jihatlari muloqot samaradorligiga ta’sir qiladi: *perseptiv*, ya’ni idrok qilish sohasiga taaluqli bo‘lgan xususiyatlar, *empatiya*, ya’ni xodimning psixik holatini tushunishga tayyorlik, o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o‘zaro hamkorlikka bo‘lgan yuksak rivojlangan *ehtiyoj* ekanligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Jamoachilik munosabatlari tizimida kasbiy kompetensiyalarining talab darajasida keng namoyon qila olmasliklariga sabab sifatida ta’lim jarayonida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta’minlanmaganligi ekanligini ko‘rsatishimiz mumkin. Shuning uchun ham oliygohlarda bo‘lg‘usi mutaxassislarni kasbga tayyorlashda dual ta’lim imkoniyatlarini jadal qo‘llash kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Shunday qilib, boshqaruvda zamonaviy rahbar qiyofasi, uning yetakchi kompetensiyalari, faoliyatida samaradorlikni oshiradigan psixologik xususiyatlar, shuningdek, jamoani shakllantirish, tashkilot strategik maqsadlari sari yo‘naltirish, boshqarish kompetensiyalari va ularning ijtimoiy ahamiyati masalalari bilan tanishib o‘tdik. Bunday xislatlarning rahbar faoliyatida namoyon bo‘lishi, shaxsdan muntazam tartibni va o‘z ustida ishlashni, bilimlarini mustaqil oshirishni, ilg‘or tajribalarni o‘rganishni, jamoani rivojlantirish bo‘yicha malakalarini takomillashtirib borishni talab qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Ғозиев Э., Тошимов Р. Менежмент психологияси.- Тошкент, “Университет”, 2001.53-66 б.
2. F.Kotler.- The World's Foremost Authority on Marketing Answers Your Questions.- New York-Atlanta-Shanghai-Tokyo-Washington.- 2006.80-95 p.
3. Gulyamov S., Qosimov G‘., Holmirzaeva D., Saidaxmedov S.- Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti.-Тошкент, 2013, 249-259 бетлар.
4. Осеев А.А.Социально-психологический портрет руководителя: Идеальная модель и способы его измерения. // Ж.: Вестник московского университета, 2019, № 1, 126-144 стр.



## МУЛОҚОТ ВА ШАХСЛАРАРО ЗИДДИЯТЛАР

Зуфарова Малика

Шайхонтоҳур тумани 136 мактаб психологи

Ижтимоий ҳаётда, шахслараро муносабатларда айрим алоҳида низолар, ўзаро келишмовчиликларни бўлиб туриши муқаррар. Шунинг учун баъзан олимлар зиддият ёки низоларнинг нафақат салбий, балки ижобий томонлари ҳам бўлиши мумкинлигини очик эътироф этадилар. Масалан, Г. Андреева айрим зиддиятларнинг конструктив оқибатлари тўғрисида ёзади. Унинг фикрича, баъзан икки шахс ўртасида келиб чиққан низо уларнинг истикболда тўғри хулоса чиқариб, шунадё ҳаракатни бошқа қайтармасликка, омилкорликка, хушёрликка ундайди. Ёки бир қарашда танбеҳга assolанган шахслараро зиддият шахсни ўз устида муттасил ишлашга, ўз хулқини ўзи тузатишига сабаб бўлади. Бундай низолар оқибатида кўра **конструктив** деб аталади. **Деструктив** низонинг оқибати эса кўпинча салбий бўлиб, у шахслараро антогонизмни келтириб чиқаради, томонларнинг асаблари чарчайди, улар хасталаниб қолиши ҳам мумкин. Ёки эр ва хотин ўртасида, ёхуд қайнона ва келин ўртасидаги низо оила ажримига сабаб бўлиши ва бир бутун оила бузилиб кетиши мумкин. Хўш, ижтимоий психологик феномен сифатида низо ёки зиддиятга қандай таъриф бериш мумкин?

**Конфликт, низо ёки зиддият** – бу айрим алоҳида олинган шахс онгида, ёки шахслараро мулоқот жараёнида, гуруҳ доирасида ёки гуруҳлараро ўзаро мулоқот ва таъсир пайтларида бирор муаммо, масала ёки қарашлар борасида бир-бирига тўғри келмайдиган, қарама-қарши фикр, қараш ва позицияларнинг тўқнашуви оқибати пайдо бўлган салбий ҳиссиётларга тўла муносабатлар маромини билдирувчи ижтимоий психологик ходисадир.

Конфликтни келтириб чиқарувчи омиллар, сабаблар ниҳоятда кўп, лекин уларни 5 асосий гуруҳга бўлиб ўрганиш мумкин:

1. **Информацион-ахборот омиллари:** мулоқот жараёнида шерикларга нотўғри тарзда етиб келадиган нотўлиқ, ноаниқ фактлар, миш-мишлар; шубҳалар, тўла аниқлик киритилмаган атайлаб ёки билмай туриб деярли хуфёна тарзда етказилаётган маълумотлар; ахборот манбаига нисбатан ишончнинг йўқлиги; айрим ходиса, воқеаларга алоқадор бўлган тортишув ва клишмоқчиликларга сабаб бўлган қоидалар, ақидалар, чақириклар, қонун нормалари ва бошқалар ҳам шахслараро ёки гуруҳлараро зиддиятларнинг омили бўлиши мумкин.

2. **Жамият миқёсидаги айрим тизимларнинг фаолиятига боғлиқ омиллар:** мулкчиликка оид муаммолар, ижтимоий мақом талашиш, хокимият йўналишидаги амал ва хисоботларга оид жанжаллар, турли ижтимоий нормалар, анъаналар, стандартлар, хавфсизлик масалаларидаги қарама-қаршиликлар, рағбатлантириш ва жазолаш, уй-жой, мулк тортишувлари, ресурслар, товар, хизмат ва фойдалар тақсимоти жараёнларида кузатиладиган низолар;

3. **Қадриятларга алоқадор омиллар** (ўзимиз эътироф этган ёки рад этган тамойиллар): жамоавий, группавий ёки шахсий эътиқод, ишонмаган ва ишонган қадриятларимиз ва уларнинг хулқда намоён бўлиши, мафкуравий, маданий, диний, ахлоққа оид, сиёсий, профессионал қадриятлар ва эҳтиёжлар борасида келиб чиқиши мумкин бўлган низолар;

4. **Муносабатлар омили:** бундай омиллар бевосита ўзаро алоқалар ва мулоқотдан инсоннинг қониқиши ёки номаъқул, деб эътироф этишидан келиб чиқади. Шахслараро ўзаро муносабатларда кўпроқ бир шахснинг кутишларига бошқа бир инсоннинг ёки одамларнинг муомаласи мос келмаслиги ҳолатларида шахсий низолар келиб чиқадики, уларнинг бартараф бўлиши турли вазиятларда турлича тус олиши, чўзилиб кетганда, баттар “газзак” отиши, қисқа фурсатда хал этилса, муаммо хал бўлиши ҳам мумкин. Шахсий мулоқотдаги низолар шахснинг ҳаётий тажрибаси, маълумотлилиги даражаси, профессионал маҳоратига боғлиқ равишда турли кўринишларда ўз ечимини топиши мумкин;

5. **Хулқ-атвор билан боғлиқ омиллар:** манфаатлар, қизиқишлар, ўзига бўлган баҳога зид келадиган ёки хавф-хатар туғдирувчи вазият пайдо бўлиши билан гўёки, ҳимоя воситаси сифатида пайдо бўлувчи омиллар туркуми бўлиб, бу

иккинчи томоннинг худбинлиги, адолатсизлиги, масъулиятсизлиги ёки лоқайдлик, бепарволик оқибатида келиб чиқади. Низокашлар бундай шароитда ўзларига нисбатан бўлаётган салбий муносабатни хатти-ҳаркатда кўриб, сезиб турганлари боис ҳақагарчилик келиб чиқади ва бу конфликт билан тугайди.

Конфликт ёки низолар ўзаро муносабатлардаги одамларнинг субъектив хатолари сабабли ҳам келиб чиқиши мумкинки, шу нуқтаи назардан ҳам конфликтларнинг турлари фарқланади:

**Шахснинг ўзига алоқадор бўлган ички низолар** – одатда бевосита ижтимоий психология томонидан ўрганилмайди, бу каби низолар умумий, педагогик ҳамда патопсихологиянинг предмети бўлиб, у асосан бир инсон қалбидаги турли ҳис-кечинмалар, истак-ҳохишлар ва мотивларнинг бир бирига зид келиши, қарама-қарши фикрларнинг пайдо бўлиши оқибатида юзага келади. Бундай низо шахсгагина маълум бўлмайди, баъзан эса одам қилиб қўйган ишининг айнан ўзининг ички низолари оқибати эканлигини англамаганда унга психоаналитик ёки патопсихолог ёрдамга келади.

**Шахс ва гуруҳ ўртасида содир бўладиган низолар** одатда бир шахс қарашлари, хатти-ҳаракатининг у мансуб бўлган ёки иши тушган гуруҳнинг нормалари, ҳулқ-атвор маромларига зид келиши, шахс кутишларининг гуруҳ нормаларидан оғиши оқибатида келиб чиқади. Агар бу меҳнат жамоасида рўй берса, бу гуруҳ аъзоларининг малакасизлиги ёки раҳбарнинг одамларни бошқаришдаги уқувсизлиги натижасида келиб чиқиши мумкин. Демак, бундай жамоада психологик, маънавий муҳит носоғлом бўлмайдики, шахс билан бошқа шасхлар ўртасида келишмовчиликка олиб келади.

**Гуруҳлараро зиддият ёки низо** - икки ёки ундан ортиқ гуруҳларнинг бир-бирлари билан мurosага келишолмай қолган тақдирда рўй беради ва бунда уларнинг ўз мақсадлари эришишларига бир-бирларининг ҳалақит беришлари асосий омиллардан ҳисобланади. Кўпинча муайян формал, расмий гуруҳ аъзолари гуруҳбозликка берилиб, ҳар бир кичик гуруҳ манфаатлари бир-бирига мос келмай қолганда ҳам низо келиб чиқади. “Гуруҳбозлик” деб аталмиш бундай ҳолат ҳам ижтимоий психологик нуқтаи назардан зарали бўлиб, бу яхлит жамоадаги

маънавий муҳитга жиддий салбий таъсир кўрсатади. Баъзан бир жамоа раҳбарияти ва расмий тизими билан гуруҳ ичидаги норасмий тузилма ўртасида ҳам низо келиб чиқади. Лекин бу ҳолатларни соғлом рақобатга асосланган манфаатлар келишмовчилиги, масалан, сиёсий партиялар ўртасидаги рақобатдан фарқлаш лозим.

**Шахслараро низо** – бир ёки бир неча конкрет шахсларнинг ўзаро ёки гуруҳ доирасидаги зиддиятидир. Бу кенг тарқалган низолардан бири бўлиб, бундай низолар расмий жамоаларда ҳам норасмий мулоқотлар оқибатида ҳам юзага келиши мумкин. Бундай низолар одамларнинг феъл-атвориغا ҳам, конкрет вазиятларга ҳам боғлиқ тарзда келиб чиқиши ва вазиятнинг характериға боғлиқ холда турлича кечиши мумкин. Кенг тарқалган шахслараро низолар бири – бу эр ва хотин, ота-она ва фарзандлар, қайнона-келин ўртасидаги низолар ҳисобланади. Уларнинг табиати ҳам, давом этиш муддати ҳам, хал бўлиш йўллари ҳам турлича бўлиб, ҳар қандай кўринишда ҳам барибир бундай низо икки ва ундан ортиқ шахслар ўртасидаги психологик масофани тобора узоклаштиради, самимиятнинг камайишиға олиб келади.

Шахслараро низоларнинг келиб чиқиши қуйидаги ҳолатларға боғлиқ бўлади:

- меҳнат жараёнлари ва ишлаб чиқариш вазиятларига;
- жамоа аъзоларининг шахсий хусусиятларига;
- турли вазиятларға шахснинг субъектив муносабатига;
- шахслараро муносабатларнинг турли вазиятлардаги турлича намоён бўлишиға.

Шахслараро низо очик ёки яшириш тарзда намоён бўлиши мумкин.

**Очиқдан очик юз берадиган низолар** одатда тортишиб қолган шахсларнинг тўғридан-тўғри, бевосита хатти-ҳаракатлари тарзида намоён бўлади. Бундай низони кузатиш, қайд этиш ва унга кеарк бўлса, аралашиш ҳам мумкин бўлади. Яширин низо эса очик намоён бўлмайди, балки у турли хуфёна усуллар билан амалға оширилади. Ташқаридан караган одам бундай низонинг мавжудлигини сезмайди.

Баъзан низолар объектив сабаблар, шарт-шароитлар боис вужудга келади. Масалан, агар бу ишлаб чиқаришда бўлса – иш шароитларининг ёмонлиги, хизмат вазифаларининг ноўрин тақсимланганлиги, кадрлар салоҳиятига беъэтиборлилик, меҳнатни рағбатлантиришдаги адолатсизлик кабилар одамлар ўртасида муайян тангликларни келтириб чиқарадики, бу шахслараро ўзаро муносабатларда ўз аксини топиб, уларнинг ўзаро ва ходимларнинг раҳбарлар билан урушиб қолишига, яширин ёки очик конфронтацияга олиб келади. Бу каби низоларни бартараф этиш учун уни келтириб чиққан объектив шарт-шароитларни ўзгартириш ёки камчиликларни йўқотиш орқалигина амалага оширилади. Чунки жамоадаги бундай низолар ўзига хос сигнал функциясини бажарадики, у орқали раҳбарлар меҳнат жамоасида номаъқул психологик муҳит пайдо бўлаётганлигидан хабардор бўладилар.

Субъектив сабаблар ёки омиллар туфайли келиб чиқадиган низоларга аксарият ҳолатларда одамларнинг ўзлари, уларнинг шахсий хусусиятлари, улардаги эҳтиёж, истак ва маслакларнинг номутаносиблиги асос бўлади. Бунда қарор қабул қилувчининг қарори бошқаларга номаъқул бўлиши, улар меҳнати адолатсиз баёъланиши, айрим шахсларнинг эса очик табиатан жанжалкаш эканлиги сабаб бўлади.

Бундан ташқари, низолар қуйидагича тоифаланади:

- **горизонтал** – бир-бирига бўйсунмайдиган, тобе бўлмаган оддий ходимлар ўртасида;
- **вертикал** – ўзаро бир-биридан амал поғонаси бўйича фарқ қилувчилар, масалан, раҳбар билан ходим ўртасида;
- **аралаш** - шахслараро муносабатларда у ва бу ҳолат уйғун келганда. Одатда ишлаб чиқариш фаолиятида энг кўп тарқалган низо тури вертикал ва аралаш бўлиб, улар жами низоларнинг 70-80 фоизини ташкил этади.

### **Низоларни бартараф этиш усуллари**

Низоларнинг олдини олиш ёки у пайдо бўлган бўлса, бартараф этиш учун унинг келиб чиқиш сабабини, асосий айбдорларни ёки объектив сабабларни аниқлаш лозим. Мутахассислар низоларни бартараф этишнинг кўплаб усуллари

ва йўллари борасида тавсиялар ишлаб чиққанлар. Масалан, Х. Корнелиус ва Ш. Фейерлар уни хал қилиш учун **низо харитасини** тузишни таклиф этади. Унга кўра, низоли вазиятни аниқлаш учун қуйидагилар инобатга олиниши лозим:

- 1) низони келтириб чиққан муаммонинг умумий қирраларини очиш, масалан, агар ишлаб чиқаришдаги низо иш хажмининг тўла бажарилмаганлиги сабабли келиб чиққан бўлса, аввало иш тақсимооти диаграммасини тузиш керак;
- 2) низонинг асл сабабини аниқлаш, зеро, айнан шу иш одатда энг мушкул иш ҳисобланади;
- 3) низонинг ҳақиқий иштирокчиларини аниқлаш – алоҳида шахсми, гуруҳми ёки уюшмами;
- 4) низога сабаб бўлган шахсий хоҳиш, истаклар, низокашларнинг айнан нимани истаётганлигини аниқлаш;
- 5) низога қадар низокашларнинг ўзаро муносабатлари қандай бўлганлигини билиш;
- 6) бевосита низода иштирок этмаган, лекин унинг ижобий хал этилишидан манфаатдор бўлган шахсларнинг низога муносабати.

Бу каби стратегия аввало низонинг чуқурлашиб кетмаслиги, унга яна кўплаб шахсларнинг аралашиб кетмаслигини таъминлайди.

Табийй, мутахассислар ва олимларни шахслараро муносабатлар жараёнида турли вазиятларда пайдо бўладиган низоларни баратарф этиш масаласи қизиқтиради. Рус олим Г.Н Смирнов турли низоларни баратараф этишга имкон берувчи икки гуруҳ усулларни таклиф этади – тизимий ҳамда шахслараро.

**Низоларни хал қилишга боғлиқ бўлган тизимий усулларга у қуйидагиларни киритади:**

- 1) *ишга нисбатан қўлланиладиган талабларни тушунтириш*, масалан, ишчи ёки ходим ўз хизмат вазифасини тўлақонли адо этолмаганлиги сабабли у билан раҳбар ўртасида низо келиб чиққан бўлса, низони баратараф этишга аҳд қилган икмса шу хизмат лавозимига қўйиладиган талаблар, ходимнинг меҳнат ҳуқуқлари билан қаторда унинг бурч ва масъулиятини ҳам яна бир маротаба уқтириб қўяди;

2) *мувофиқлаштирувчи ва бирлаштириш усуллари*. Одатда бир ходимнинг иш самараси бошқа бир ходимга ёки ходимларга, қолаверса, бошқа тузилмаларнинг аниқ ва яхши ишлашига боғлиқ бўлади. Шунинг учун бир ходим ёки ходимлар гуруҳида низоли вазиятнинг пайдо бўлишига бошқа бир тузилма ишидаги номувофиқликлар сабаб бўлиши мумкин. Бундай шароитда раҳбар низони баратараф этиш учун ўша бошқа айбдор тузилманинг фаолиятини аниқ йўлга қўйиши, ёки ходимлар ўртасида мурося бўлиши учун бошқа бир қўшимча мувофиқлаштирувчи бир бўғинни ишлаб чиқаришда жорий этиши мумкин. Масалан, ишлаб чиқариш низосининг сабаби – хом ашёнинг вақтида етказиб берилмаётганлиги бўлса, раҳбар таъминотчилар ишини мувофиқлаштиради, улар фаолияти билан ишлаб чиқарувчилар ўртасида бирлик ва ҳамжиҳатлик бўлишига эришиш йўлида аниқ йўналишларни белгилайди;

3) *барча ишлаб чиқариш субъектлари фаолиятини ягона мақсад атрофида бирлаштириш* ҳам ишлаб чиқариш жараёнларида низоларнинг содир этилмаслигини кафолатлайди. Бундай шароитда раҳбарлар ва гуруҳ лидерларининг роли катта бўлади;

4) *разбатлантириш тизимини жорий этиш* самарали иш усулларида ҳисобланади. Бундай шароитда одамларнинг хулқ-атворида таъсир этиш, пайдо бўлиши мумкин бўлган низоли вазиятларга барҳам бериш ёки содир бўлган бўлса, уни баратарф этиш учун ташаккур билдириш, мукофотлаш, хизмат лавозимни кўтариш кабиларни қўллаш ижобий самара бериши мумкин.

Низоларни бартараф этишнинг **шахсларо муносабатларга алоқадор усуллари**га куйидагилар киради:

1) *бош тортиш* – низога нисбатан шундай реакцияки, бунда низога гувоҳ бўлганлар аслида унинг мавжудлигини тан олмайдилар, унга аралашидан бош тортадилар. Одатда бундай шароитда раҳбар ё айна пайтда вақти йўқлигини, имконият йўқлигини, низонинг сабаби арзимас ҳолат эканлигини важ қилиб, уни ҳал қилишга аралашидан бош тортади. Ёки у вазият тақозоси билан пайдо бўлган низо вақт ўтиши билан ўз ўзидан ечимини топади, одамлар инсофга келиб қолишига умид қилади;



2) *текислаш* – бу низолашувчи томонлардан бирини мавжуд ҳолатга “кўндириш”, мослаштириш ва шу йўл билан ўзининг ҳам муайян манфаатларини ҳимоя қилишдир. “Маъли мен ютқазсам ҳам, сенинг ишинг битиб кета қолсин” деган нақлда низога аралашган шахс вазиятни юмшатишга эришади, гўёки “ўзни қурбон қилиб” бўлса ҳам томонларнинг ярашиб кетиши учун барча имкониятни яратади;

3) *компромисс* – бу очик мулоқот ва вазиятни, низокашларнинг хулқ-атвори ва фикрларини муҳокама қилиш йўли билан иккала томон учун ҳам маъқул бўлган ечимни қидиришдир. Бу усулнинг самарадорлиги шундаки, низога аралашган шахс иккала томоннинг ҳам айбини, улар томонидан йўл қўйилган хатоларни очик, холис ўртага ташлайди ва энг маъқули – ўар бир шахс ўз бурч ва масъулиятларини тарозига солиб олишлари эканлигини уқтиради. Натижада иккала томонда ҳосил бўлган танглик маълум маънода юмшайди ва оқилона қарорлар қабул қилиш имконияти туғилади. Низокашлар жанжал бўлгандан кўра ёмон бўлса ҳам бир қарорга келинганлигидан хурсанд бўлиб, ўз фикрларидан маълум маънода қайтадилар, вақт ўтгач эса вазият умуман юмшаб, томонлар ярашиб кетиши мумкин. Одатда оилавий низоларда компромисс йўлини тутган оиланинг катта аъзоси ёки эркак киши низонинг олдини олишга эришади, бунда бирор томоннинг “бир гапдан қолиши” катта роль ўйнайди;

4) *рақобат* – одатда бир томоннинг иккинчиси устидан устун келиши ҳисобига бошқасининг батамомо енгилишини назарда тутлади. Яъни, бунда “Мен ютишим учун сен мутлоқ енгилишинг шарт” деган тамойил устивор бўлади. Бундай усул албатта, психологик нуқтаи назардан самарасиз ва нотўғри бўлса ҳам, айрим ҳолатларда масаланинг айнан шу тарзда ечилиши бошқаларнинг иқтидори ёки иродасининг кучайишига сабаб бўлиши мумкин. Масадан, оилавий мажорода келин агар ноҳақ бўлиб, ёшлиги туфайли аразлаб, барчанинг дилини хира қилиши ва ушбу вазиятда барибир қайнонанинг сабр билан устун келиши, барибир айтганини қилдириши ёш келинчакнинг келгусини шу каби хатти-ҳаракатни бошқа қайтармаслиги учун сабоқ бўлиши мумкин;

5) *ҳамкорлик* – бу низони ҳал қилишнинг шундай усулики, бунда иккала томоннинг шахсий манфаатлари низони келтириб чиқаран муаммодан устун қўйилади. Бундай ҳолатларда низокашлар бир томон манфаатининг инобатга олинмаслиги, иккинчи томоннинг бошқа манфаатини ерга уришини тушунгани учун ҳам мураса йўли тўғри эканлиги, яхшиси мавжуд муаммони ечишга тенг киришиш лозимлиги фикрига келиб тўхтайдилар.

Шундай қилиб, реал ҳаётда низонинг келиб чиқиши, унинг қандай кечиши ва ечими уни келтириб чиқарган вазиятдан ҳам кўра, ушбу вазиятда иштирок этаётган инсонларнинг унга нисбатан субъектив муносабатларига боғлиқ бўлади. Шунинг учун ҳам ҳар қандай низоли, зиддиятли ҳолатларда унга алоқадор бўлиб қолган инсонлар қўйидаги қоидаларни ёдда тутишлари лозим:

1. Низоли вазиятда ақл эмас, балки ҳиссиётлар устун бўлишини унутманг, ҳиссиётлар эса одамнинг жаҳли чиқиб, ақли кетиб қолишига туртки бўлади ва у ўз хатти-ҳаракатлари ва гапирётган сўзларини назорат чилиш қобилиятидан маҳрум бўлади. Вақт ўтиши билан шу қилган ишингиз учун ўзингиз қаттиқ азият чекиб, хижолат бўлиб қолишингиз мумкин. Шу боис ҳам ишдами, оиладами ёки жамоатчилик жойларидами одамлар билан мулоқот қилганда, уларнинг инсоний нафсониятига тегадиган, шаъни ва ориятига тегиб кетадиган мулоҳазалардан ўзингизни сақланг, ўзингизни ўзгалардан устун қўйишдан эҳтиёт бўлинг, камтарлик шиорингиз бўлсин.

2. Ўзгалар билан муомалада уларнинг ҳурматини жойига қўйиб, сўзлашишнинг юмшоқ маромини танланг. Масалан, “Кечирасиз..”, “Сиздан миннатдор бўлардим, агар...”, “Сизга малол келмайдими?” каби ибораларни ишлатиш одатга Сизга нима сабабдандир ёмон муносабатда бўлаётган инсонни ҳам юмшатади, ундаги салбий ҳисларнинг жунбушга келишига йўл қўймайди.

3. Иш фаолият билан боғлиқ мунозараларда агар суҳбат таранглашиб бораётган бўлса, иккала томоннинг манфаати тўғрисида эмас, асл масаланинг, муаммонинг моҳияти хусусида кечишига эътибор бериб, ҳолис фактларга кўпроқ урғу беринг. Имкон борича суҳбатдошни тинглашга интилинг, зеро, тинглаш олиш маҳорати сизнинг яхши суҳбатдош эканлигингизнинг муҳим

кўрсатгичидир. Бу ўринда Дейл Кареги каби мулоқот усталарининг тажрибасини эсланг.

4. Ҳар қандай масала хусусида унинг ечими ягона бўлмаслигини унутманг, чунки барча ҳолатларда қийин вазиятдан чиқишнинг бир қатор усуллари, йўллари бўлиши табиий. Шунинг учун Сизнинг фикрингизга зидроқ келаётган фикрни суҳбатдошдан эшитганингизда, “Балки мен хато қилаётгандирман” деб унинг фикрлаш тарзидаги тўғри мулоҳазаларни таҳлил қилинг, унинг фикридаги ижобий ва салбий жиҳатларни ажратинг, уларнинг реал оқибатларига баҳо бериб кўринг. Бундай ҳолатларда ҳеч бўлмаганда “Мен Сизнинг фикрингизга тўлиқ қўшилмасамда, берган таклифингизни албатта ўйлаб кўраман, менга бироз имкон беринг” десангиз олам гулистон!

5. Низоли вазиятнинг ҳал бўлишининг ўзингиз учун манфаатли томонларини англаг ва ўзингизга шундай савол беринг: “Агар ечим топилмаса, нима бўлади?”. Бундай муносабат низони шахслараро муносабатлардан муаммонинг ечимига кўчирилишига туртки бўлади.

6. Агар суҳбатдош иккалангиз ҳам аччиқланиб турган бўлсангиз ва иш урушиб қолишгача бориб етаётганлигини англасангиз, ўзингиздаги ички тангликни, “зарда”ни чиқариб юборишга ҳаракат қилинг. Чунки агар аччиғингизни ташқарига чиқарсангиз, бу у томоннинг ҳам қайнаб кетишига сабаб бўлиб, вазиятни назорат қилиб бўлмай қолади. Энг яхшиси, ўзингизни тийиб, гапиришдан тўхтанг, майли суҳбатдошингиз ичидаги тўкиб солаверсин, ундаги жаҳл ва салбий ҳиссиётларни бетига айтишдан ўзингизни тийинг, келгусида унинг шундай важлҳатга тушиши мумкинлигини унутманг.

7. Сиз билан урушиб қолган одамнинг ҳам қандайдир фазилатлари, яхши сифатлари борлигини унутманг ва диққатингизни ана шу жиҳатларга қаратинг. Масалан, эр ва хотин урушиб қолган пайтда аёл қанчалик баланд овозда ўз дардини тўкиб солаётганлигига қарамай, унинг фарзандларнинг онаси, меҳрибон эканлигини, уларга шунадй қилиқлар қилмаслигини эр ёддан чиқармаса бас.

8. Суҳбатдошингизга сизнинг ўрнингизга туриб, масалани ҳал қилиш йўлини ўйлашга чорланг, масалан, унга тахминан шундай мурожаат қилинг:

“Мени ўрнимда бўлганингизда нима қилган бўлар эдингиз?” Бундай мурожаат суҳбатдошни ҳиссиётлардан реал вазиятни холис баҳолаш мақомига ўтишига асос бўлади ва унда танқидий руҳни бироз бўлса-да, юмшатади.

9. Суҳбатдош олдидаги афзалликларингиз, хизматларини миннат қилиб, хаспўшланганг. Содир бўлган низоли вазият ва воқеанинг сабабчиси фақат суҳбатдошингиз эканлиги фикридан қайтинг.

10. Пайдо бўлган зиддият қандай хал бўлишидан қатъий назар, шу инсон билан батамом муносабатларни узил-кесил узиб ташланганг. Масалан, агар бу эр ва хотин ўртасидаги ихтилоф бўлиб, у ажрим билан тугаган тақдирда ҳам ўртада фарзанд борлигини, барибир ҳаёт сўкмоқларида бир кун бўлмаса бир кун учрашиб, қандайдир янги бир муаммони биргаликда хал қилишга тўғри келишини сира унутманг.

Шу каби вазиятлар турли фаолият жабҳаларида учраши мумкин, юқоридаги қоидаларни унутмаслик инсоннинг ўзига, саломатлигига, одамлар орасидаги обрўсига бевосита алоқадор эканлигини, яшаш баъзан зиддият ва низолар билан янада яхши бўлишини ҳеч ким унутмаслиги керак.

---

## ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

*Насиба Каримова*

*Қашқадарё Вилояти Қасби тумани 45-мактаб психологи*

Республикада туб демократик ўзгаришлар юз бераётган бир даврда табиий равишда, олдимизда психологиянинг қонуниятларини ва илмий асосларини ўрганиш ҳамда улардан ўз фаолиятимизда кенг фойдаланиш лозимлиги вазифаси қўйилмоқда. Узлуксиз таълим тизими жараёнида таълим-

тарбия олувчи ва берувчи шахсларнинг психологик хусусиятларини, уларда ўзаро муносабатларнинг психологик асосларини ўрганиш жуда муҳим масаладир. Ҳар қандай жамиятнинг тараққиётини белгиловчи асосий омиллардан бири таълим-тарбия ишларининг самарадорлигини оширишдир. Жамият истиқболи кўп жиҳатдан ўқув муассасаларида тайёрланаётган мутахассисларнинг маҳоратига, юқори интеллектуал даражасига боғлиқдир. Ақлан зукко, креатив қобилиятли, изланувчан, мустақил мулоҳаза юритувчи ўғил ва қизларга энг қулай шарт-шароитлар, имкониятлар яратиш, уларнинг ҳаёт ҳамда фаолият кўрсатаётган микромуҳитида ижобий иқлимни яратиш, махсус ташкил қилинган, ҳозирги замон талабларига жавоб берувчи ўқув - тарбиявий, методик воситалар, асбоблар, қуроллар билан жиҳозланган билим масканларида ўқитиш - бу давр талабидир. Ақлий жиҳатдан ривожланган, юксак қобилият ва истеъдодли ёшлар жамиятнинг илмий - техник тараққиётини ҳаракатга келтирувчи улкан куч - қувват бўлиб, улар қадрият, маънавият, руҳият ва фанда, маданият, санъат ва ҳунармандчиликда миллий имкониятларни жаҳон стандарти даражасига олиб чиқа оладиган қудратга эгадир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, бугунги кунда “Олдимизда турган энг муҳим ва долзарб масалалардан бири – юксак маънавиятли, замонавий билим ва касб-ҳунарларга, ўз мустақил фикрига эга бўлган ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашдан иборат эканини яхши тушунамиз. Мамлакатимиз аҳолисининг ярмидан кўпини ёшлар ташкил этишини инобатга олсак, бу нақадар жиддий масала экани янада яққол аён бўлади. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар Стратегиясининг 4.5 бандида “жисмонан соғлом, руҳий ва интеллектуал ривожланган, мустақил фикрлайдиган, қатъий ҳаётий нуқтаи-назарга эга, Ватанга содиқ ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш” тарзида қўйилган вазифаларни бажаришда талаба ёшлар ўртасида соғлом рақобат муҳитини яратиш ва уни узлуксиз такомиллаштириб бориш талаб этилади. Ёшлар ўртасида олиб борилаётган турли

йўналишдаги ўқув, илмий, маънавий-маърифий ва тарбиявий ишлар орасида соғлом рақобат муҳитини яратиш, ибратли ёшларнинг ютуқларини жамоа ўртасида кенг тарғиб қилиш масаласи ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган йўналишлардан бири ҳисобланади. Муассасаларда психологик хизматни назарий методологик таъминлаш психологик ва педагогик ташхис назариясини яратиш мутахассисларнинг педагогик психологик ташхиснинг касбга йўллашнинг ижтимоий-иқтисодий руҳий ва ҳуқуқий томонларини чуқур билиши ва тушунишини тақозо қилади. Бу борада ташхис лаёқат, иқтидор, қобилият, истеъдод ва талант тушунчаларининг моҳиятини тўғри тушуниш ва талқинқилиш муҳим аҳамият касб этади. Ташхис истеъдодли ёшлар билан ишлашнинг дастлабки бир босқичи бўлиб, уларни ўз лаёқати жисмоний-руҳий имкониятлари ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда олиб борилади.

Амалиётчи психологлар фаолиятини такомиллаштиришнинг яна бир маъсулиятли қийин, лекин жуда муҳим томони ташхис амалиётини услубий таъминлашдир. Фикримизча, муассасаларда ишлаётган амалиётчи психологлар учун психодиагностик методикалардан фойдаланиш психологик тузатиш ва ривожлантириш ишларини ташкил этиш учун ўтказилиши лозим бўлган семинар тренингларнинг ташкил этиш бўйича қўлланмалар тайёрлаб семинар тренинглар ташкил қилиш лозим. Ушбу семинар тренингларда бу адабиётлар тарқатилса, ҳарбий қисм ва муассасаларда психологик хизмат самарадорлигига ҳамда психологик педагогик ташхис савиясига ижобий таъсир қилган бўлар эди. Муассасаларда психологик хизматнинг жорий этилиши касбий тайёргарлик ҳамда таълим-тарбия жараёнини психологик таъминлаш учун катта аҳамият касб этмоқда.<sup>35</sup> Буни ҳозирги кунда ёшларни касб ўзлаштиришларида бир қатор психологик халақит бераётган муаммоларни олдини олишга нисбатан талабнинг ортиб-бораётганлигида яққол кўриш мумкин. Ёшлар, амалиётчи психологларга асосан ўзларининг шахс хусусиятларини, иродавий сифатлари, ҳис-туйғулари, ўз-ўзини бошқариш имкониятини, интеллектуал салоҳият

<sup>35</sup>Узлуксиз таълим тизимида психологик хизмат муаммолари. Т.: 2007, 45 –б.

даражасини психодиагностик услублар ёрдамида аниқлаш ва ўз имкониятларини руёбга чиқариш, ривожлантириш, касбга йўналтириш, шахслараро муносабатлардаги муаммоларни ҳал этиш масалалари бўйича муурожаат қилишлари мумкин. Бундан ташқари ёшлар оила аъзолари, фарзандларини ва ота-оналар билан ўзаро муносабатларида бир-бирларини тўғри тушуниш улар билан ишончли муносабат ўрнатиш масалаларига кўпроқ қизиқадилар. Бу ҳолат ўз навбатида муассасаларда психологик хизмат самарадорлигини ошириш учун юқори малакали психолог мутахассислар билан ташхис амалиётини услубий воситалар илмий асосланган қўлланмалар билан таъминлаш ҳамда ташхис жараёнининг назарий-методологик асосини яратишни тақозо этади.

### АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ:

1. Каримов И.А. *Ўзбекистон мустақилликка эришиши остонасида.* –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ 2011.
2. Ш.М.Мирзиёев "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбарнинг кундалик қондаси бўлиши керак".–Т.: “Ўзбекистон”- 2017.
3. Ш.М.Мирзиёев "Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз".–Т.: “Ўзбекистон”- 2017.
4. Рогов М.Г. *Настольная книга практического психолога.* –Р.: Владес, 2000.
5. *Тест творческого мышления П.Торренса. Методические рекомендации по работе с тестом для школьных психологов.* -М.: Прогресс, 2001.



## ЗАМОНАВИЙ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ МАЗМУНИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ

*Зухра Имомова*

*Қашқадарё вилояти Қамашчи тумани 1-мактаб психологи*

Республикада туб демократик ўзгаришлар юз бераётган бир даврда табиий равишда, олдимизда психологиянинг қонуниятларини ва илмий асосларини ўрганиш ҳамда улардан ўз фаолиятимизда кенг фойдаланиш лозимлиги вазифаси зарурат сифатида намоён бўлади. Узлуксиз таълим тизими жараёнида таълим-тарбия олувчи ва берувчи шахсларнинг психологик хусусиятларини, уларда ўзаро муносабатларнинг психологик асосларини ўрганиш жуда муҳим масаладир. Ҳар қандай жамиятнинг тараққиётини белгиловчи асосий омиллардан бири таълим-тарбия ишларининг самарадорлигини оширишдир. Жамият истикболи кўп жиҳатдан ўқув муассасаларида тайёрланаётган мутахассисларнинг маҳоратига, юқори интеллектуал даражасига боғлиқдир. Маънавият, маърифат ва замонавий ахборотлар мажмуаси - келажак сари одимлаётган инсоният ва ёшлар олдида қандай миллий ва минтақавий муаммолар, қийинчиликлар, синовлар турганлигини етарли даражада аниқ тасаввур этишга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

Замонавий ижтимоий-психологик фаолият халқ хўжалиги хизматлари соҳасига мансуб бўлиб, кадрлар тайёрлаш сифати ва самарадорлигини ошириш, баркамол шахсни тарбиялаш ҳамда ёшларнинг ҳар томонлама гармоник, тўлақонли психологик тараққиётини таъминловчи оптимал шарт-шароитларни яратишни мақсад қилиб кўяди.

Замонавий ижтимоий-психологик хизмат мутахассиси ўзининг шахс хулқ-атвори ва психик фаолияти, психик тараққиётнинг ёш қонуниятлари, касбий билимлари, ёшлар ва катталар, тенгдошлари билан ўзаро муносабат хусусиятлари, ўқув-тарбия жараёнини ташкиллашувига таяниб, шахсга индивидуал ёндашув

имкониятларини беради, унинг қобилиятларини аниқлайди, меъёрдан четлашишларнинг эҳтимолли сабабларини, психологик коррекция қилиш йўллари аниқлайди.


Замонавий ижтимоий-психологик хизмат мутахассиси фаолиятининг тадқиқот ва таъсир ўтказиш объекти таълим муассасалари тарбияланувчилари, ўқитувчилари, ота-оналар, имконияти чекланган аҳоли қатлами, оилалар бўлиб, ҳисобланади. Уларни алоҳида ёки гуруҳий шаклда тадқиқ қилиш мумкин. Замонавий ижтимоий-психологик хизмат мутахассиси ўз фаолиятини маънавий-маърифий ишлар бўйича мутахассис, тиббиёт ходимлари, муайян комиссиялар, ота-оналар ҳамда таълим муассасаси жамоаси билан узвий алоқада амалга оширади.

Замонавий ижтимоий-психологик хизмат мутахассиси лавозими бўйича умумий раҳбарликни муассасанинг маънавий-маърифий ишлар бўйича масъул шахс олиб боради. Психологик хизмат мутахассиси шахсларнинг ёш хусусиятларини ҳамда жадал ривожланишини ҳисобга олувчи, улар психикасининг барча жабҳаларини қамраб олувчи динамик тараққиётга кафолат берувчи дастур ишлаб чиқаришга бутун фаолиятини йўналтиради, ижтимоий ўсиш талабига жавоб берувчи, умуминсоний, этнопсихологик қонуниятлар камолатига етакловчи моделни таркиб топтиришни бош мақсад деб танлайди.

Муассасаларда психологик хизматнинг жорий этилиши касбий тайёргарлик ҳамда таълим-тарбия жараёнини психологик таъминлаш учун катта аҳамият касб этмоқда.<sup>5</sup> Буни ҳозирги кунда ёшларни касб ўзлаштиришларида бир қатор психологик жиҳатдан халақит бераётган муаммоларни олдини олишга нисбатан талабнинг ортиб-бораётганлигида яққол кўриш мумкин. Ёшлар, амалиётчи психологларга асосан ўзларининг шахс хусусиятларини, иродавий сифатлари, хис-туйғулари, ўз-ўзини бошқариш имкониятини, интеллектуал салоҳият даражасини психодиагностик услублар ёрдамида аниқлаш ва ўз имкониятларини руёбга чиқариш, ривожлантириш, касбга йўналтириш, шахслараро муносабатлардаги муаммоларни ҳал этиш масалалари бўйича мурожаат қилишлари мумкин. Бундан ташқари ёшлар оила

аъзолари, фарзандларини ва ота-оналар билан ўзаро муносабатларида бир-бирларини тўғри тушуниш, улар билан ишончли муносабат ўрнатиш масалаларига кўпроқ қизиқадилар. Бу ҳолат ўз навбатида муассасаларда психологик хизмат самарадорлигини ошириш учун юқори малакали психолог мутахассислар билан ташхис амалиётини услубий воситалар ва илмий асосланган қўлланмалар билан таъминлаш ҳамда ташхис жараёнининг назарий-методологик асосини яратишни тақозо этади.

Психолог фаолияти доирасига кирувчи вазифалар:



Психодиагностика у ёки бу муаммо, қийинчиликларнинг психологик сабабларини аниқлаш фаолияти сифатида психологик хизматда марказий ўринлардан бирини эгаллайди.

К.М.Гуревич фикрича, психодиагностиканинг вазифаси шахснинг индивидуал-психологик хусусиятлари ҳақидаги ахборотни тўплашдир. Ақлий жиҳатдан ривожланган, юксак қобилият ва истеъдодли ёшлар жамиятнинг илмий - техник тараққиётини ҳаракатга келтирувчи улкан куч - қувват бўлиб, улар фанда, маданият, санъат ва ҳунармандчиликда миллий имкониятларни жаҳон стандарти даражасига олиб чиқа оладиган қудратга эга бўладилар. Мазкур нуқтаи назардан муаммога ёндашиш истеъдодли ёшларни излаб топиш, уларга оқилона кўрсатма бериш, муайян йуналишга бошқариш мақсадга мувофиқ, чунки уларнинг ҳар қайсисига хос бўлган индивидуал хусусиятлар, ички куч-қувват, яширин имкониятларини очиш, тарбиялаб такомиллаштириш, таъсир ўтказувчи омилкор воситалар топиш, яъни уларни жамият эҳтиёжи, талаби,

ривожланиш имкониятига мос равишда мақсадга мувофиқ йуналтириш ҳалқимизнинг азалий орзу-умидлари, истиқбол режалари, хоҳиш иродаларини ушалиши демакдир.

Демак, психологик хизматнинг ижтимоий соҳадаги ўзига хос омиллари сифатида мутахассислар билан ишлаш, услубий ишланмаларни яратиш, мутахассисларни зарур билимлар билан қуроллантириш масалалари муҳим аҳамият касб этади.

### Адабиётлар.

1. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. – 6 (766)-сон. Б.38.

2. Асадов Ю, Р. Мусурманов “Ўсмирлар девиант хатти-ҳаракатининг ижтимоий-психологик хусусиятлари” - Т. Сано стандарт, 2011. – 155 б.

3. Асмолов, А. Г. Психология личности: учеб. / А. Г. Асмолов. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1990.– 336 с.

4. Бондаренко Н.В. Личностно-характерологическая изменчивость подростков / Н.В. Бондаренко // Девиантология: Хрестоматия; ав-тор-составитель Ю.А. Клейберг. – СПб.: Речь, 2007. – 289 с.

---

## PSIXOLOGIK XIZMATDA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR

*Nomozova Mohinur Sherali qizi  
Qo‘qon davlat pedogogika instituti Pedogogika va psixologiya fakulteti  
2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Shaxs tarbiyasi. uning ijtimoiy-psixologik kamolati har qanday davlatning bosh strategik maqsadlaridan biridir. Chunki shaxsni ma‘lum ezgu g‘oyalar,

ijtimoiy psixologik va yuksak intellektual shaxs sifatida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar:** psixologik maslahat, shaxs, muloqot, autism, psixologik korreksiya, ahloq, suhbat.

Ayni dam maxsus maktab va maktab-internatlarda faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi psixologlarning faoliyatida o'quvchilar ruhiy holatlarini o'rganish, xulq atvoridagi o'g'ishlarni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish, stress, nizo va ko'plab salbiy emotsional kechinmalarining oldini olish ishlarini to'g'ri tashkil qilish psixologik xizmatning samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mana shunday muammoli holatlarni yo'qotishda esa psixologik xizmat sohasida mavjud bir qancha yo'nalishlar yordam beradi.

Shaxs shakllanishidagi inqirozli davrlarning o'quvchilar xulq-atvoriga ta'siri. Shaxsning shakllanishi dunamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho igarilashib ketsa. goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Ba'zan inqirozli davrlarni boshidan o'tkazayotganlar esa o'zlarini jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog'liq xotirjamlikni yo'qotib qo'yadilar. Ruhiy tushkunliklar natijasida o'z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar. xuddi shu bois.o'zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Mazkur holatlarni o'rganar ekanmiz. bunda barcha yondashuvlarga. tamoyillarga. yo'l-yo'riqlarga zamon ruhi orqali nazar tashlash talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan psixik buzilishning boshlanishi va namoyon bo'lish jarayoni. uni tashkil qiluvchi xususiyatlari hamdakechishining asosiy holatlarini chuqur tahlil qilish xulq-atvor rivojlanishining nazariy namunalarini tuzish va shakllantiruvchi tajriba majmuasini yaratish. Psixokorreksion ruhiy tuzatish zarur hisoblanadi. Xulq-atvor psixologiyasida. jumladan jahon psixologiyasi fanining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Ko'p hollarda esa bu psixologik kategoriya sifatida qaraladi.

Inqirozli davrlar orasida o'smirlilik davri o'zining xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o'smirlarni voyaga yetkazishnin o'ziga xos qonuniyatlari. xususiyatlari. imloniyatlari. xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. O'smirlilik davri taqlidchanligi.

muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi. hissyotlilik. mardligi. tantililgi bilan farqlanadi. O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B. Elkonin va T.V.Dragunovlarning ta'kidlashicha. o'g'il-qizlarning bu davrda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi. tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi. O'smir o'quvchilarning to'g'ri va to'liq ta'lim va tarbiya olishi uchun oila va maktabning o'rni beqiyosdir.

Muammoni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari. Mazkur muammoni bartaraf etishda quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud:

- Xulqida og'uvchanligi bo'lgan o'quvchilar. ularning sinf rahbarlari. ota-onalari bilan tizimli ishlash.

- Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

- Maktab rahbariyati va jamoasi o'rtasidagi munosabatlarni kuzatish va turli muammoli vaziyatlarni oldini olish yuzasidan olib boriladigan tadbirlar o'tkazish.

- Psixologik profilaktika yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlarni maqsadli va uzluksiz olib boorish.

- Psixologik diagnostika yo'nalishi bo'yicha olilib boriladigan ishlar.

- Psixologik korreksiya yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar,

- Psixologik maslahat yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlar.

- Psixologik pedagogik konsiliumlar va ularni o'tkazish tartibi.

- Voyaga yetmagan bolalarni o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishni amaliyotga muntazam joriy etish.

Sinfdagi o'quvchilar sonining tobora ortib borishi. maktabga jiddiy his-hayajon tangliklari bilan keladigan o'quvchilar sonining ortib borayotganligi va bilim va axloq darajalari turlicha bo'lgan o'quvchilarlardan iborat sinflar bilan ishlashga to'g'ri kelayotgan bir vaqtda. o'qituvchilar talabalarni rag'batlantirish va boshqarishning samaradorligini oshirishga tobora ko'proq ehtiyoj sezishmoqda. Turli xil jismoniy va ruhiy nuqsonlari mavjud o'quvchilarni sinflarga qo'shish harakatining kuchayib borayotganligi va sinflarda ta'lim borasida muammolari mavjud o'quvchilar sonining

ko‘payib borayotganligi va sinflarda ta‘lim borasida muammolar mavjudligi o‘quvchilar uchun psixologik muammo yaratishga sababchi bo‘ladi. O‘sib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz. kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak o‘quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni. jumladan xulq-atvorida og‘ishi borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Maktabda psixologik muammolari bor o‘quvchilar bilan psixologik maslahat o‘tkazish shartlari. Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o‘zgarib rivojlanib o‘zgarib boradi. bu esa individuallik. shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi.

Shuningdek. quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixologik yo‘llarini aniqlash.

- O‘smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi. hayotga munosabati. o‘z-o‘ziga ishonchi. irodaviy – hissiy o‘zini boshqarishni tahlil etib. shularga mos ravishda maslahat berish.

- Maqsadga erishishda o‘smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.

- Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o‘smir hayotidagi ijtimoiy. Shaxsiy vazifalarni hal etish.

- Ayniqsa, o‘smirlar bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish. maslahat berishda aaniq maqsad qo‘yish.

Qolaversa amaliyotchi psixolog psixologik maslahat berishdan tashqari o‘smirlar bilan reja asosida psixokorreksion mashg‘ulotlarni yakka va guruhlar asosida olib borishi kerak bo‘ladi. Maktablarda amaliyotchi psixologlar tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlashda sinf rahbari ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha director o‘rinbosari. ota-onalar qo‘mitasi. mahalla fuqarolar yig‘ini. voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori. Yoshlar Ittifoqi. hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Psixologlar va pedagoglar tomonidan dezadaptatsiyalangan xulqning oldini olishga qaratilgan bir qator tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Ularning keltirgan tavsiyalariga ko‘ra. sinf jamoasi a‘zolarida sog‘lom psixologik munosabat



hissini shakllantirish va bu jamoada tarbiyasi qiyin o‘smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini keltirish biz aytgan muammolarga barham berar ekan.

Hozirgi davrning muhim xususiyatlaridan biri bugungi zamon talablariga mos keladigan, yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: Fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bo‘lgan mustaqil shaxsni voyaga yetkazishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Afsuski, bugun maktablarimizdagi bir qancha o‘quvchi yoshlarimizning ruhiyatida, xulq-atvorida muammolar uchrab turibdi. Ularning kelib chiqish sabablarini esa biz yuqorida ko‘rib chiqdik. Lekin ularni bartaraf etilmasligi oqibati ko‘plab salbiy holatlarga olib keladi, bu ham o‘ziga va o‘zgalarga qolaversa. Butun jamiyatga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Shuning uchun bu jarayonda maktab amaliyotchi psixologi bir qator psixologik tadbirlar amalga oshirishi va mazkur o‘quvchilar bilan ko‘p suhbat uyushtirishi kerak. Shuning uchun biz ta‘kidlaganimizdek maktab amaliyotchi psixologi psixologik xizmat sohasidagi bir qator yo‘nalishlarini ishga solgan holda ruhiyatida buzilishlari bor o‘quvchilar bilan birga psixokorreksion ishlarni amalga oshirishi va mavjud muammolarni bartaraf etishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, bu vazifalarni amalga oshirishda amaliyotchi psixolog bilan birgalikda sinf rahbari ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, ota-onalar qo‘mitasi, mahalla fuqarolar yig‘ini, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori, Yoshlar Ittifoqi, hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Shundagina psixologik xizmatni to‘laligicha amalga oshirgan bo‘lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur, 2010. 150-b
2. Mahmudova D.A. Psixokorreksiya asoslari. – Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti, 2011. 128-b
3. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU, 2006. 128-b

## ЁШЛАР ТИЛНИНГ ЛЕКСИК ҚАТЛАМИДА НОАДАБИЙ СЎЗЛАР

*Ахмедова Муяссар Хадиматовна*

*Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети*

*Психология кафедраси доценти, психол.ф.н.*

Жамият ривожланиши билан, айниқса XXI асрда яшаш суръати тезлашган. Шунга боғлиқ ҳолда мулоқот жараёни кенгайган, луғат бойлиги ошган. Бунда ҳар қандай янги тушунчага камида битта сўз тўғри келиши инкор этилмайди. Оммавий коммуникацияларнинг шиддат билан тараққий этиши оқибатида янгича сиёсий ва ижтимоий ўзгаришларни акс эттирувчи минглаб янги сўзлар қўшилди.

Тилнинг лексик қатлами асосий бирлик сифатида жуда бой бўлиб, унинг бир қисми нофаол, яъни қўлланилиши чегараланган сўзлардан иборат. Булар диалектизмларни ташкил этади<sup>36</sup>. Яъни улар адабий тилнинг потенциал захираси ҳисобланиб, бунга терминлар, эскирган сўзлар, неологизмлар, жаргон ва арготизмлар киради. Жаҳон тилшунослигида сленг ҳам мавжуд.

Сленг сўзининг этимологияси аниқланмаган ёки ҳозирги вақтга қадар тилшуносликда баҳсли бўлиб қолмоқда. Ўзбек тилшунослигида сўнги йилларда сленглар ишлатилсада, ўзининг тўлиқ таърифига эга эмас, шунингдек, луғат тузилиши жихатидан тадқиқотлар ҳам олиб борилмаган.

Лекин инглиз, рус тилшуносликларида сленг<sup>37</sup> луғат таркиби мавжуд бўлиб, ҳозирги вақтда уларнинг луғат бойлиги кенгаймоқда.

Турли тил воситаларини танлаш ва фаоллаштириш ҳар қандай конкрет вазиятда мулоқот мақсадлари, вазифалари ва шароитларига, шу билан бирга ижтимоий муҳит, маълум ёшдаги гуруҳ ва бошқа кўплаб омилларга боғлиқ. Шундай тарзда тил функционал қатламларга бўлинади. Булар ижтимоий

<sup>36</sup> Ўтаева И. Инглиз ва ўзбек тилларида нофаол сўзлар. Магистр Акад. дар. олтиш учун т.э. дисс-я. СамДЧТИ 2014.

<sup>37</sup> Инглиз тилшунослигида сўзлашув нуткида бироз қўпол ва ҳазил буёғига эга бўлган, адабий нутққа қабул қилинмаган сўз ва иборалар бўлиб, улар “сленг” термини билан юритилади.

диалектлар бўлиб, уларни 3 катта гуруҳга, яъни жаргонлар, шартли-профессионал тиллар ва аргога бўлиш мумкин.

Жаргон (фр. jargon маълум бир гуруҳга оид сўз). Бирор бир ижтимоий ёки профессионал гуруҳга хос, фақат уларни ўзи тушунадиган ва адабий тилдан фарқ қиладиган сўз ва иборалар, деб таъриф берилади ўзбек тилининг изоҳли луғатида<sup>38</sup>. Жаргонли нутқ, кўпгина тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, кўп жиҳатдан эмоционал ва экспрессив бўёқли бўлади. Улардаги эмоционал-экспрессив бўёқдорлик тўртта турга бўлинади: кинояли, расмий-ҳазил, номаъқул, тажовузкор.

Жаргон – бу ўз аъзоларини таниб олиш ҳамда қолган лисоний ҳамжамиятдан ажралиб олиш мақсадида маълум ижтимоий гуруҳ томонидан қўлланадиган ярим очик лексик-фразеологик кичик тизим. Жаргон ташувчилари онгли ёки онгсиз равишда лисоний ўйинда иштирок этадилар ва бу билан сунъий равишда диглоссия вазиятини юзага келтирадилар (улар шу билан бирга меъёрий адабий тил ташувчилари ҳам бўлишлари мумкин). Жаргон сўз ва ибораларнинг қўлланиш сабаблари уларни ажрата олиш ва таний олишдан ташқари нутқий ҳаракатлар (воситалар)ни тежаш установакасида ҳам яширинган. Жаргонли нутқ ёрқин эмоционал-экспрессив бўёқдорлиги билан характерланади. Жаргон ўз ташувчиларининг қадриятлари кўрсаткичи сифатида ҳам намоён бўлиши мумкин.

Жамиятда қайсидир ижтимоий ҳодиса қанча кенг тарқалса, мазкур жаргон лексикаси ҳам сўзлашув нутқида шунчалик кенг кириб боради. Янги жаргон сўзлар эски тушунчаларни янгилаш учун пайдо бўлади.

Ҳозирда дунёнинг деярли барча тилларида ўсмирларни ифодалайдиган махсус сўз ва иборалар борки, уларнинг хулқ-атвори ва диди меъёрдан шу даражада ортиб бориши кузатиляптики, у жамиятда хавотирдан кўра кўпроқ шубҳаланиш ва сергак бўлишга ундайди. Айтиш керакки, ёшларда у ёки жаргон сўзларга нисбатан мода худди кийим модаси каби тез ўзгаради.

<sup>38</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Электрон кутубхона. Ж харфи. 74-бет.

Жаргонизм - чекланган фойдаланиш сўзлашуви, дастлаб бир гуруҳ ичида маълумотларни сақлаб қолиш зарурияти, бирлашган касб, ёш, ижтимоий мақом билан боғлиқ. Жаргон сўзлари меъёрий эмас ва қисқартирилган лексик қатламдир. Жаргон (мактаб, талаба), армия, ўқитувчи, театр ва хоказо қатламларда мавжуддир.

Жаргон конформ интилишларини амалга ошириш каби бошқалар ва уларнинг қадриятлари билан ўзини аниқлашнинг бундай воситаларидан бири ҳисобланади. Ушбу психологик жиҳатдан ғайратли ва афсуски, ижтимоий жиҳатдан қўллаб-қувватланадиган жараёнга қарши туриш жуда қийин. Ва ёшлар жаргони она тилида сўзлашадиган маданиятда зафарли ҳаракатни давом эттирмоқда, уни фаол ижодий позиция ўрнига унинг ўрнини босувчи дунёқарашнинг суррогатланган шакллари ва номаъқул конформизм билан алмаштирмоқда.

Ёшларнинг жаргон сўзлари психологик ва ижтимоий жиҳатдан асосли комплекси бўлиб, барча тил жамоалари учун улар бутунлай мустақил нутқ сифатида узлуксиз хизмат қилади. Бундан ташқари, жаргон, тегишли луғатларда кенг қатлам ҳосил қилади. Шундай қилиб, доимий "имконсиз", "ёмон", "улар шундай дейишади" жаргонни имкон қадар жиддийроқ кўриб чиқиш у ҳақида тўлароқ маълумот йиғиш мақсадга мувофиқ.

Баъзи ҳолларда мактаб ўқувчиларига мавзуларни баён этиш жараёнларидан ташқари мулоқот чоғида жаргон сўз бирикмалари қўлланилган ҳолда сўзлашишни инкор этиш мушкул.

Ёшликнинг ижтимоий-психологик шаклланиши воситаси сифатида жаргоннинг истехзоли, тажовузкорлиги, қасддан қўполлиги, бу корпоратив-рамзий тил таълимининг психоллингвистик моҳиятининг барча тадқиқотчилари томонидан мутлақо ажралиб туради. Ёшлар учун жаргон — ўзингизни билувчи деб ҳисоблаш имконини берувчи билимлар тўплами; яна бир катта билувчи пайдо бўлгандан сўнг, рақобат учун истак пайдо бўлади. Бироқ, бу ўсмирлик даврида амалга ошириладиган ғояларни, фикрларни, йўлни танлашга фаол таъсир қилувчи шахсни шакллантириш воситасидир.

Ҳозирги вақтда ўсмирлар адабий тилдан фарқли бўлган ноадабий (жаргон) сўзлар учун синонимларни излашга, асосан бутун сўзлашув тизимини ўзгартиришга бир қана омилларни келтириб ўтиш мумкин: ижтимоий ва ахлоқий қадриятларни қабул қилиш асосида гуруҳда исталган ижтимоий мақомга эришиш; ҳар бир компонентнинг энг катта ифодаси учун нутқни янада чуқурроқ ифодалашга интилиш; ҳар қандай вазият ва сабабга кўра талаб қилинган нутқ ниқобини яратиш; тўлиқ конформизмга интилиб яшайдиган ёшларда муроасага қаршилиқ кўрсатиш; бироқ конформизмнинг шахснинг ижодий йўналишига мутаносиб равишда мос келиши (юнонча ёшлиқ тилининг ижодкорликнинг энг кенг тарқалган шакли, психологик жихатдан қарама-қарши бўлган ҳодисаларни боғловчи) эканлигини таъкидлаш керак; ёшларнинг рақобатбардош (агностик) интилишларини рўёбга чиқариш; уларнинг ўзини-ўзи тушунишини оптималлаштириш; мустақиллик учун интилишни аниқлаш.

Шундай қилиб, ҳозирги кунда тилнинг жонлироқ ва табиийроқ бўлиши учун жаргон, арго, сленглар матбуотда ва ҳатто адабиётларда (фақат детектив жанрдагина эмас) ҳам ишлатилаётганлиги кузатилмоқда. Ҳатто юқори даражадаги давлат арбоблари ҳам ўзларининг оммавий чиқишларида сўзлашувга хос иборалар, арготизмларни қўллашади. Демак, буларга фақат тилни ифлослантирувчи ҳодиса сифатида муносабатда бўлиш мумкин эмас. Зеро у оддий сўзлашув сўзлари каби тилнинг ажралмас таркибий қисми ҳисобланар экан уларни психоллингвистик, социоллингвистик жихатдан ҳам чуқурроқ ўрганиш замон талабларидан биридир.

### Адабиётлар рўйхати:

1. Лисовский В.Г. Социология молодежи. Учебник. М. 1996: 350 – 353
2. Матюшенко Е. Е. автореферат диссертации по филологии, специальность ВАК РФ 10.02.01 диссертация на тему: Современный молодежный сленг. Волгоград 2007г.
3. Ўтаева И. Инглиз ва ўзбек тилларида нофаол сўзлар. Магистр Акад. дар. олтиш учун т.э. дисс-я. СамДЧТИ 2014.

## НУТҚ ИНСОН УЧУН ҚУДРАТЛИ ҚУРОЛ

*Шодиева Нодира*

*Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети*

*Психология кафедраси ўқитувчиси*

Нутқ - одамлар ўртасида биргаликдаги фаолият эҳтиёжларидан келиб чиқадиган боғланишлар ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир. Нутқ (муносабат) биргаликда фаолият кўрсатувчилар ўртасида ахборот айирбошлашни ўз ичига олади. Бунда муносабатнинг коммуникатив жихати ҳисобга олинади. Кишилар муносабатга киришишда аввало тилга мурожаат қиладилар. Нутқнинг яна бир жихати муносабатга киришувчиларнинг ўзаро биргаликдаги ҳаракати - нутқ жараёнида фақат сўзлар билан эмас, балки ҳаракатлар билан ҳам айирбошлашдан иборат.

Нутқ шахсларо муносабатларнинг шундай кўринишидирки, унинг ёрдамида одамлар бир-бирлари билан ўзаро рухий жихатдан алоқага киришадилар, ўзаро ахборот алмашадилар, бир-бирларига таъсир ўтказадилар, бир-бирларини ҳис қиладилар, бир-бирларини тушунадилар. Шунингдек, нутқ инсоннинг индивидуал хусусиятларини ўзида мужассамлаштирган бўлади. Ҳар бир инсоннинг ўзи каби нутқи ҳам бетакрор. Кишининг нутқи орқали унинг фикрлаш доираси, нутқий луғат бойлиги, қизиқишлари, характер хусусиятлари, ҳасталиклари, ҳиссий ҳолати, кайфияти кабиларни антқлаш мумкин.

Одамнинг кулиб боқиши кўп жихатдан инсонинг суҳбатдошига ёки аудиторияга ўзини қандай гап билан мурожат этишга боғлиқ бўлади. Инсон нутқи қаерда бўлишдан қатъий назар минбардами, мажлисдами, иш столидами ўзининг шахсий хусусиятларини тўлиқ намаён бўлишни билиши керак. Шу сабабли инсонинг қабул қилиш хусусияти нутқий хулқидан эканлигидан билиш керак бу маълумотни билиш фойдали ва зарур ҳисобланади. Биз кўп вақтларда ўзимиз

кўрмаган ҳолда руҳий ҳолат интеллект, эрудицияларимизни сигналли эшитувчиларимизни қабул қилишларини тасаввур қилиб кўрамиз.

Эрудиция асосан нутқнинг мантиқийлигини, бойлиги, ўринлилиги билан баҳоланади. Туртки берилган саволга инсон фикрини баён қилаётганида ўзининг нуқтаи назарини тасдиқлаш учун тасодифан, кутилмаган (спонтан) ҳолатга тезда аргументлар топиб, аниқ тил бирликларини топа олиши ҳаммага маълум бўлади, бу эрудитли киши. Вайсақи кишида сўзлар жуда кўп бўлса-да уларнинг маъно моҳияти жуда саёз ёки деярли бирор фикр (арзигулик) мантиқ бўлмайди. Эрудиция чуқур ва серқирра билимга эга бўлиб, сўз бойлиги билан боғлиқ бўлади. Маълумки барча эрудитлар нутқий фаолияти серқирра бўлмаслиги мумкин. Сўзга жуда камбағаллари ва сўз ижодиёти суствлари ҳам мавжуд.

Сўзловчининг интеллекти айтилаётган сўзларнинг лексик бойлиги ва мантиқийлиги билан баҳоланади. Интеллектнинг ривожланганлиги сўзларни эркин танлашида турли-туманлиги, енгил яратилишига сўз бойлигининг турли тартибсизликлари кўп холларда бузилишига олиб келади.

Нутқ аудиторияга гапирувчининг руҳий ҳолатидан ҳам хабар беради. Шунинг учун инсонларда кўпинча ҳаётий кузатувчанликни уйғотади.

Инсонлар руҳияти босими остида таранг ҳолда бўлса, ўзининг фикрини баён этишда нутқида сўзларни жумлаларни ифода этишда қийинчиликка дуч келишади. Буни кўрсатиб берувчи бир қанча омиллар мавжуд, жумладан:

а) оддий ҳолатдаги нутққа нисбатан таққосланганда пауза (тўхтатиш)нинг миқдори ва узунлиги ортиб боради. Бу паузалар беқарорликни англатади. Ташқаридан кузатилганда бундай ҳолат сўзловчи нима гапиришини билмай қолаётгандай туюлади. Одатда бундай ҳолатлар паралингвизм (икки тилликлар) нутқида кўпроқ учрайди. Гапни ўртасида ўйламасдан такрорлаш ёки сўз топиш учун “мана шу”, “бу”, “умуман” кабилар қўлланилади. Гап орада ёки пауза (тўхташ) жараёнини тўлдириш учун “кўрдингизми”, “биласизми”, “мана”, “яна” каби сўзлар ишлатилади.

б) такрорлашув ёки босим ҳолатида сўз турлари, луғат рангбаранглиги камайиб кетади. Бундай ҳолатларда нутқ луғатини камбағаллигини кўрсатади;



сўзловчи асосан кундалик ҳаётида қўллайдиган лексик бирликлари билан боғланиб қолади ва шу сўзлар иштирокида фикрини баён этишга ҳаракат қилади. Баъзи бирлари бундай пайтда фикрни такрорлашга мойиллиги ортади. Буларни барчаси аудитория сўзловчини иштиёқсиз қабул қилишга мослаштиради.

в) босим остидаги нутқ грамматик тугалланмаганлиги билан ҳам характерланади. “ Хўп, бу қандай инструксия?”, “ Хмм умуман олганда ...”, “Сизга маълумки ...”, “бу муаммо охиригилардан эмас”

Кўп ҳолларда уч бўлақдан иборат бўлган узун гаплар учраб туради. Буларни биринчи марта қабул қилишда тушуниш қийин бўлади. Одатда сўзловчи бундай пайтда қийинчилик билан гапни яқунлайди. Мана шундай ҳолатларда тингловчи нутқининг кетма-кетлигини англаб, кузатиб боришни тўхтатади, кўпинча унга етиб ҳам бормади.

Нутқ инсон психикасини ўлчовчи асосий восита. Нутқ асосида тингловчилар психиканинг бузилиши ёки меъёрини хулосалайди. Хатто паталогияни аниқ ажрата олиш мушкул бўлади. Баъзан камчиликларни илғай олиш мумкин. Баъзи камчиликларни фақат мутахассислар фарқлай олишади. Психиатрлар учун ҳарактерли бўлган касаллик белгилари қуйидагилардан иборат:

Логоррея - тўхтовсиз гапириш. Тингловчининг саволи, ёки жавоби, ёки эътирози кабиларини тугатмасдан бошқа мавзуга ўтиб кетади. Ҳикоя гапиреди, янги персонажларни киритади ва бошқаларни сўзлайди. Бундайларни сўздан тўхтамайдиган дейишади.

Нутқ персевацияси – инсон онгида қандай фикр ёки бир мураккаб бўлмаган тасаввурни ҳавотирланишни таъсирланиши натижасида бир хилда ва бир неча бор такрор айтилиши ҳисобланади. Сўзловчи гапирётган гапларидан бошқасига ўта олмайди, қайта-қайта қисман ёки тўлиғи билан фикрини такрорлайверади.

Нутқнинг узилувчанлиги ёки нутқнинг боғланмаслиги – нутқ грамматик жиҳатдан тўғри тузилган бўлиши мумкин, лекин уни тушуниб бўлмайди. Бундай нутқнинг маъно мазмуни йўқ.

Нутқнинг ёпишқоқлиги – мураккаб бўлмаган ҳодисани ҳаддан ортиқ мулохазакорлик ва батафсиллик билан ифодалаши, нутқий хиралик, олифта-олимлик дейилади.

Насихатгўйлилик ва ақиллилик – асоссиз ва натижасиз мулохаза. Мантиқсиз бемаза фикрлар.

Мана шу ва турли хил ноодатий хусусиятларнинг сўзловчи ҳақида мавжуд бўлиши оммавий аудиторияга ёқимсиз бўлади ва нотиқнинг салоҳиятини тушуриб юборади. Бунда кўпчилик бирор қарорга келишга албатта қийналишади. Лекин нуқсонли нутқни тинглаш жараёнида сўзловчига нисбатан ёқимсизлик ҳиссини қабул қилишади.

Юқорида санаб ўтилган ҳолатлар аниқ патология ёки бузилиш ҳисобланади. Булар сўзловчи шахснинг деярли нозик жиҳатлари саналади.

Демак, нутқий фаолият ташқи таъсирлар, намуналар асосида ўзгариши мумкин. Бунда инсон нутқидаги камчиликларни тuzатиш, қайта тарбиялаши, шахсий имкониятини руёбга чиқариши мумкин. Чунки нутқ инсон учун қудратли қурол ҳисобланади, уни пухта эгаллаш келажакка замин ҳозирлайди, комиллик сари етаклайди.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Пашук Н. С. Психология речи. Мн., Изд-во МИУ, 2010.
2. Ладанов И.Д. Практический менеджмент. М. 2012.
3. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. М. 2008.

---

## **СУИЦИДАЛ ТЕРРОРИЗМНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК ТАҲЛИЛИ**

*Азамат Бахриддинов*  
*психолог*

XX асрнинг иккинчи ярми инсоният тарихи саҳифаларида сиёсий, миллий ҳамда диний терроризмнинг ривожланиши билан алоҳида ўрин эгаллади. Асримизнинг дастлабки йигирма йилида ҳам шахс, жамият

ва давлат хавфсизлигига путур етказувчи терроризмнинг таркибий қисмига айланган суицидал терроризм ҳодисаси бош омил ва кенг қўлланилаётган жиноий ҳодиса сифатида ўзини намоён қилмоқда.

Бугунги кунда терроризмнинг барча учун мақбул ва ягона тан олинган тушунчаси йўқ бўлиб, америкалик мутахассислар Т.Арнольд ва М.Кеннеди “терроризм тушунчасига ягона таъриф бериб бўлмайди” деб ҳисоблайдилар<sup>39</sup>.

Шунингдек, кўпгина мутахассислар таъкидлашича, ҳозирги кунгача, терроризм тушунчасига ҳуқуқий ёки ижтимоий нуқтаи назардан ҳам аниқ таъриф берилмаган<sup>40</sup>.

Шу билан бирга, айрим мутахассислар терроризмга ўзгача қараш керак деб ҳисоблайдилар. Хусусан, М.Каменева фикрича, терроризм бу ўзида бир қанча белгиларни мужассамлаштирган ҳодиса бўлиб, таҳдид кўринишидаги ғайриқонуний ҳаракатни амалга ошириш ҳисобланади<sup>41</sup>.

Юқоридаги фикрларнинг мантиқий давоми сифатида айтадиган бўлсак, ўзини ўзи қурбон қилувчи террорчилар содир этадиган ҳодиса, яъни суицидал терроризмнинг ҳам умумтан олинган таърифи мавжуд эмас.

Шу нуқтаи назардан қараб, суицидал терроризмнинг мазмуни ва моҳияти тўғрисида фикр юритилса, айтиш мумкинки, **суицид** –сўзи лотинча *sui caedere* — ўзини ўлдириш, яъни қасддан ўзини ҳаётдан маҳрум этишдир.

2000 йил 15 декабрда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан қабул қилинган “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги қонуннинг 2-моддасида кўрсатилишича: “Терроризм - сиёсий, диний, мафкуравий ва бошқа мақсадларга эришиш учун шахснинг ҳаёти, соғлиғига хавф туғдирувчи, мол-мулк ва бошқа моддий объектларнинг йўқ қилиниши (шикастлантирилиши) хавфини келтириб чиқарувчи ҳамда давлатни, халқаро ташкилотни, жисмоний ёки юридик шахсни бирон-бир ҳаракатлар содир этишга ёки содир этишдан тийилишга мажбур қилишга, халқаро муносабатларни мураккаблаштиришга, давлатнинг

<sup>39</sup> Ражабова М. Диний экстремизм ва терроризмга қарши кураш муаммолари. – Т.: “Ўзбекистон”, 2003. Б.143.

<sup>40</sup> Белашева И., Ершова Д., Есян М. Психология терроризма. Учебное пособие. – Ставрополь.: Издательство СКФУ, 2016. С.10.

суверенитетини, ҳудудий яхлитлигини бузишга, хавфсизлигига путур етказишга, курулли можаролар чиқаришни кўзлаб иғвогарликлар қилишга, аҳолини кўрқитишга, ижтимоий-сиёсий вазиятни беқарорлаштиришга қаратилган, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига жавобгарлик назарда тутилган зўрлик, зўрлик ишлатиш билан кўрқитиш ёки бошқа жиноий қилмишлар” ҳисобланади.

Терроризмга қарши кураш йўналишида изланиш олиб борган ва олиб бораётган олимлар томонидан суицидал терроризмга нисбатан таърифлар берилган бўлиб, улар мазкур ҳодисани ўз қарашларидан келиб чиққан ҳолда тушунтириб беришга ҳаракат қилганлар.

*Жумладан, АҚШнинг Чикаго университети олими Я.Урда суицидал терроризмга қуйидагича изоҳ беради:*

- *Суицидал терроризм бу, жиноятчи ўзини ўлдирган ҳолда қилган ҳужум ҳисобланади. Ҳужумни амалга ошириш учун қилинган ҳаракатлар суицидал террорчилик ҳаракати ҳисобланмайди.*

- *Мажбурий жазолаш инструментиدير (воситасидир).*
- *Суицидал терроризм кучсизлар қуролидир.*

*Ундан, ҳарбий ютуқларга эриша олмаганда фойдаланилади. Тарихдаги яхудийлар, ассасинлар, япон камикадзелари ва бошқалар бунга мисолдир. Юқорида санаб ўтилган белгилар суицидал терроризмни терроризмнинг бошқа кўринишларидан фарқлари ҳам бўлиб ҳисобланади<sup>42</sup>.*

Шунингдек, айрим ғарб мутахассислари фикрича, суицидал террорчилик ҳаракатларида ижрочилар томонидан қўлланиладиган тактикалар турли хил бўлишидан қатъий назар, улар орасида битта ўхшашликни ажратиб кўрсатиш мумкин. Қоида тариқасида айтиш мумкинки, кучсиз томон моддий-техник

<sup>41</sup> Каменева М. Основы методики выявления террориста-смертника на объекте // Вестник Московского университета МВД России, Педагогические и Психологические науки, 2010, №10. – С.10.

<sup>42</sup> Urda J. Suicide terrorism – history, specifics, and trends. НАТОнинг Терроризмга қарши кураш мудофаасини такомиллаштириш марказининг Суицидал терроризмга қарши ҳимоя курси, Анкара, 15-19 апрель 2019 йил.

томондан кучли душманга нисбатан нисбатан енгилроқ радикал чоралар самара бермайди деб хулоса қилганидан кейин суицид тактикасини қўллайди<sup>43</sup>.

М.Греншоу, Б.Женкинс ва У.Лакер ҳамда бошқа тадқиқотчилар мазкур ҳодиса пайдо бўлишининг асл сабаблари ҳозирги кунга қадар маълум эмаслигини эътироф этган ҳолда, суицидал терроризм фақатгина терроризмнинг бир усули дея баҳолайдилар. Юқоридаги тадқиқотчилар мазкур ҳодисани ўрганишда унинг ижрочиларини шахсий мотивини таҳлил қилиш лозим дея ҳисоблайдилар<sup>44</sup>.

Шунингдек, суицидал террорчилик ҳаракатларини амалга оширувчи шахсларнинг суицидал хатти – ҳаракатларини ўрганиш жуда мушкул дея, бунга икки ҳолатни сабаб қилиб кўрсатадилар:

**Биринчидан**, суицидал террорчилик ҳужумини содир этган шахс деярли барча ҳолларда ҳалок бўлади;

**Иккинчидан**, худкуш – террорчилар тайёрланадиган яширин гуруҳларга, жойларга кириш ва маълумот олиш мушкуллигидир.

Рус олими С.И.Иванов ҳам юқоридаги фикрга қисман қўшилиб, ушбу ҳодисага қуйидагича таъриф беради, яъни суицидал терроризм бу – бевосита ижрочининг ўлими билан боғлиқ террорчилик ҳаракатини амалга оширишнинг усули ҳисобланади<sup>45</sup>.

Ю.Антонян ва М.Давитадзелар фикрича<sup>46</sup>, террорчилик ҳаракатини содир этишда атрофдаги шахслардан ташқари, унинг ижрочиси ҳам ҳалок бўладиган ҳодисани суицидал терроризм дея баҳолаш мумкин. Улар, худкуш - террорчини тирик бомба сифатида эътироф этадилар, яъни ижрочи танасида яширинган портловчи мосламани ҳаракатга келтиради ёки самолёт ёхуд бошқа транспорт воситасидан фойдаланган ҳолда бирор – бир объектга ўз жонини қурбон қилиш йўли билан ҳужум қилади. Бундай ҳужумдан фақат суицидал террорчилик

<sup>43</sup> Harmon V., Mujkic E., Kaukinen C. and Weir H. *Causes and Explanations of Suicide Terrorism: A Systematic Review*. Article 9 (December 2018). <https://www.hsaj.org/articles/14749>

<sup>44</sup> Алгоритмы самоубийственного терроризма. <http://www.agentura.ru/press/about/jointprojects/washprofile>.

<sup>45</sup> Бобров В., Гусаренко Я. Терроризм смертников как реальная угроза безопасности в современном обществе // Журнал "Научный аспект", 2019, №1. – С.543.

<sup>46</sup> Антонян Ю., Давитадзе М. *Этнорелигиозные конфликты: проблемы, решения. Учебное пособие*. – М.: «Щит-М», 2004. – С.93.

ҳаракатини содир этишдан ихтиёрий қайтган, портловчи мосламаси ишламай қолган ёки қисман ишлаган шахсина тирик қолиши мумкин.

Шунингдек, Терроризм ҳақида глобал маълумотлар базасида (Global Terrorism Database (GTD) суицидал терроризм бу – жиноятчи террорчилик ҳужумидан сўнг тирик қолишни мақсад қилмаганига далиллар мавжуд ҳодиса сифатида кўрсатиб ўтилади<sup>47</sup>.

Шуни таъкидлаб ўтишимиз лозимки, яъни террорчилик гуруҳи (ёки унинг раҳбари) томонидан олдига қўйилган мақсадга (давлат ҳудудий яхлитлиги ва суверенитетини бузиш, давлат хавфсизлигига путур етказиш, давлатга кўпроқ талофат етказиш, аҳоли орасида кўркувни ва давлатнинг тинчликни таъминлашдаги функциясига нисбатан ишончсизликни пайдо қилиш ва бошқалар) бошқа йўллар билан эришишнинг иложиси бўлмаганда, суицидал терроризмга мурожаат этади. Умуман олганда, суицидал ҳужумларга фақатгина терроризм жиноятини содир этиш жараёнида эмас, балки урушлар вақтида ҳам дуч келинганлигини кўриш мумкин. Масалан, худкушлар ҳужумлари II – жаҳон уруши даврида япон аскарлари (камикадзе) томонидан амалга оширилган. Бундан кўриниб турибдики, алоҳида ҳолларда, яъни уруш жараёнларида давлатлар ҳам суицид билан боғлиқ ҳужумлардан манфаатдор бўлиши мумкин. Фикримизча, уруш даврида душманни ҳалок этиш учун амалга оширилган худкушлик ҳаракатлари суицидал терроризмга боғлаш нотўғридир. Шунингдек, суицидал террорчилик ҳаракатларининг объектига комбатант бўлмаганлар айланганида уни терроризм тушунчаси билан боғлаш тўғрироқ бўлади.

Ундан ташқари, ҳозирги даврда мутахассислар орасида “суицидал терроризм” атамаси ўз ичига қандай тушунчаларни қамраб олиши лозимлиги юзасидан ягона бир тўхтамга келинган фикр мавжуд бўлмасда, баъзи олимлар мазкур терминни тор маънода тушуниш кераклигини маълум қилсалар, баъзилари эса кенг маънода тушуниш кераклигини таъкидлайдилар.

<sup>47</sup> Новиков А. Сравнительный анализ террористической тактики политического убийства и терактов смертников // Журнал “Сравнительная политика”, 2019, №1. – С.134.

Хусусан, суицидал терроризмга нисбатан классик ёки фанда кўпроқ фойдаланиладиган тушунчани исроиллик тадқиқотчилар Б.Ганор ва И.Швейтцер очиб беришга ҳаракат қилган. Б.Ганор ушбу ҳодисани қуйидагича ёритишга ҳаракат қилади: “Суицидал террорчилик ҳужуми – бу ҳужумкор ҳаракатнинг усули бўлиб, ҳужумнинг самарали яқунланиши ижрочининг ўлимига боғлиқ бўлади. Бу жуда кам учрайдиган вазият бўлиб, ижрочи агарда ўзини ўлдирмаса, амалга ошираётган топшириғи яқунланмай қолишини тўлиқ тушуниб етади, яъни у тирик қолган тақдирда мақсадига ета олмаслигини билади”<sup>48</sup>.

И.Швейтцер<sup>49</sup> маълум қилишича, худкушлар содир этадиган террорчилик ҳужумини ушбу ҳодисага ўхшаш экстремизм шаклларида ажратиб олиш зарур. Ушбу ҳодисаларни ажратиб олишдаги ягона белги бу – ижрочининг содир этадиган ҳаракати натижасида қурбон бўлиши ёки қурбон бўлмаслиги билан боғлиқдир. Унинг ёзишича, тарихий замонлардан бошлаб XX асргача ўзини қурбон қилувчиларнинг тимсолини кўплаб кузатиш мумкин (яъни, Фаластинда I асрда яҳудий сикарийларнинг фаолиятида, ўрта асрларда ассасинларнинг мусулмон секталарида, XVIII асрда Осиёдаги мустамлакачиликка қарши курашда ҳамда XX ва XXI асрларда фаластинлик арабларнинг ҳаракатларида). Ушбу ҳодисанинг тарихий кўринишидан бугунги кундаги фарқи ижрочига тирик қолиш учун ҳеч қандай имкон қолмаслиги билан фарқланади. Бугунги кунда юқоридаги салбий ҳодиса террорчиларни мақсадга йўналтирилган ва секин ҳаракатга келувчи одам – бомбаларга айлантиради. Шундан келиб чиқиб, И.Швейтцер “Суицидал терроризмнинг моҳиятини қуйидагича очиб беришга ҳаракат қилади: “Шахс томонидан онгли равишда қасддан содир этиладиган, зўравонлик кўринишидаги сиёсий асосланган ҳужум, ўзи ва ўзи танлаган объектни портлатиш йўли билан содир этилади. Ижрочининг ортга қайтишни истамайдиган қасддан ўзини ўлдириш йўли билан содир этган ҳаракати ҳужумнинг дастлабки муваффақият билан тугашига сабаб бўлади”.

<sup>48</sup>Ganor B. The Rationality of the Islamic Radical Suicide attack phenomenon// Countering Suicide Terrorism. Herzliya, 2001. – P. 6.

<sup>49</sup>Schweitzer Y. Suicide Bombings – The Ultimate Weapon? <http://ict.org.il/Articles/tabid/66/Articlsid/68/currentpage/25/Default.aspx>, 2001.



Олим томонидан 2000 йил февраль ойида Исроилда бўлиб ўтган худкуш – террорчиларга қарши кураш муаммолари юзасидан биринчи халқаро конференцияда суицидал терроризм ҳодисасига таъриф берилган ва бу кўпчилик томонидан маъқулланган эди. Унинг таърифига кўра<sup>50</sup>: “суицидал терроризм – бу индивид (индивидлар) томонидан фаол ва мақсадга йўналтирилган тарзда ўзи ва ўзи томонидан танланган объектни йўқ қилиш билан содир этиладиган ҳолда сиёсий асосланган кучни қўлланилишидир. Бунда, ижрочининг ўлими террорчилик операция муваффақиятининг кафолатидир. Келтирилган таърифдаги “сиёсий асосланган кучнинг қўлланилиши” тушунчаси ўз ичига мафкуравий, диний, миллатчилик ёки бир вақтнинг ўзида ушбу мотивларнинг барчасини қамраб олади.

---

## ҲУҚУҚНИ МОҲОҒАЗА ҚИЛУВЧИ ОРҒАН ХОДИМЛАРИНИНГ ОММАВИЙ ЧИҚИШЛАРДА ФУҚАРОЛАР БИЛАН ИШОНЧЛИ МУНОСАБАТЛАР ЎРНАТИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Азамат Бахриддинов*  
психолог

Ҳуқуқни моҳоғаз қилувчи органлар (ҲМҚО) фаолиятида шахслар билан муносабатга киришишда бир қанча психологик, педагогик ва ижтимоий омиллар борки, уларни ўрганиш ва амалда жорий қилиш ҳар бир ходим учун касбий тайёргарлик ва касбий муҳим сифатларни шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Масалан, инсонлар билан муносабатга киришишда, уларни тушуниш ва (тўғри) мулоқот ўрнатиш учун, уларнинг хатти-ҳаракатлари, мимика ва ишораларидан самарали фойдаланиш.

Оммавий нутқ сўзлаш, шахсларни ишонтириш, уларнинг хатти-ҳаракатлари ва кайфиятига таъсир ўтказиш ҲМҚО ходимлари фаолиятида катта аҳамиятга эга. Афсуски, ҲМҚО ходимлари кўпчилик орасида, мажлис, оммавий мулоқот

---

<sup>50</sup>Иванов С.Терроризм смертников: исторический аспект //Вестник Удмуртского Университета, Экономика и право,

жараёнларида нутқ сўзлаш билан боғлиқ вазиятларда шахслар билан талаб даражасида фаолият олиб бора олмайдилар, фуқароларни ўз сўзларига ишонтира олмаслик ҳолатлари учраб туради. Оммавий тадбирларда ХМҚО ходимлари нутқ сўзлашининг, мурожаат қилишининг аҳамиятли хусусиятларидан бири – бу нутқнинг раволиги ва ҳамма учун тушунарли бўлишидан ташқари, унинг ишонарли оҳангда айтилиши ҳисобланади. Юқоридаги фикрлардан келиб чиққан ҳолда ХМҚО ходимлари эгаллашлари лозим *асосий хислатларни келтириб ўтамиз:*

– Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва қонун ости ҳужжатлари, ХМҚОларидаги қарор ва буйруқларини мукамал билиш ва уларни талабларига амал қилиш;

– хизмат фаолиятига тегишли вазифаларни чуқур англаш;

– кенг дунёқарашга эга бўлиш, билим, тажрибаларини такомиллаштириш;

– мулоқот юритиш мақсади, аудиториянинг ўзига хос тарафларини ўрганиш, инобатга олиш;

– шахсларнинг психологик ҳолатини тушуниш, йўналиш олиш, ўзини ва атрофдагиларнинг кайфияти ва хатти-ҳаракатларини назорат қила олиш.

***Нутқ сўзлашнинг техник жиҳатлари*** – «паразит» сўзларни ишлатмаслик, урғуни тўғри қўйиш, нутқ сўзлашнинг ноанъанавий усулларида фойдаланишни талаб этади. Оғиз билан нафас олиш четдан қараганда кулгули ҳолатни келтириб чиқариши билан бир қаторда, айтилаётган маълумотлар қанчалик долзарб ва аҳамиятга эга бўлмасин тингловчилар томонидан қизиқиш пайдо қилмаслигини унутмаслик лозим. Бундай хатога йўл қўйиш орқали ўзимизга нисбатан тингловчиларда салбий муносабатни вужудга келтираемиз.

Нутқ сўзлашда тингловчиларнинг диққатини жалб қилишда муҳим вазифа жумлаларни (сўз бирикмаларини) тўғри тузиш ҳисобланади. *Қуйида тингловчилар томонидан яхши қабул қилинадиган жумлалар таркибини келтираемиз:*

- Тингловчилар томонидан осон ва тез қабул қилинадиган жумла 10–13 сўздан иборат бўлади;
  - 14–18 сўздан иборат жумлалар, ўртамиёна, яхши, лекин эътиборсизлик билан қабул қилинади;
  - 19–25 сўздан иборат жумлалар, фақат тингланиб, мазмун моҳият касб этмайди;
  - 25–30 сўздан иборат жумлалар, қийинчилик билан, иродавий зўр бериш, диққатни мажбурий тўплаш орқали тушунилади;
  - 30 сўздан иборат жумла умуман тингловчи томонидан қабул қилинмайди.
- Шунинг учун қисқа жумлалардан тузилган маълумотларни тингловчиларга етказиш осон ҳисобланади.

**Нутқ сўзлашнинг ҳиссий жиҳатлари** тингловчилар олдида ҳиссиётларни самарали бошқаришдан иборат.

- Жамоа олдида ҳаяжонланмаслик, лекин ҳиссизлик ифодаси ҳам бўлмаслиги талаб этилади;
- Ҳиссий кўзгалувчанликнинг юқорилиги – сўзларни шошиб, тез, бақриб талаффуз қилиш, бўлиб-бўлиб гапириш, билмай мантиқан нотўғри тузилган сўзларни ишлатиш, жуда кўп имо-ишораларга йўл қўйиш, гапириш суръати ва тезлигини бошқара олмасликда намоён бўлади ва албатта, тингловчиларга салбий таъсир этади;
- Нутқ экспрессив усулда (ҳиссий йўналтирилган ҳолда) баён қилиниши зарур, бир ерда михланиб туриш мақсадга мувофиқ эмас;
- Имо-ишоралардан унумли фойдаланиш маълумотларнинг қабул қилинишини 30% га оширади;
- Нутқ сўзлаганда умумэътироф этилган қоидалардан бири - баланд овозда (бақриб эмас), ўзига ишонч ҳисси билан уйғунликда сўзлаш.

Жамоа диққатини тўлиқ тўплаган ҳолда керакли сўз, жумла ва ибораларга сукут сақлаш билан урғу бериш лозим. Шунинг ёдда сақлаш жоизки, диққати энг зўр жалб

қилинганда, жамоа сизни узоғи 20 дақиқа эътибор билан тинглаши мумкин, кейинги дақиқаларда у ҳеч нарсани эшитмайди.

Қуйида Б.Швальбе ва И.Швальбелар томонидан оммавий нутқ сўзлаш салоҳиятини оширишга қаратилган *тавсияларни келтирамиз*.

– Жамоага ўзингизни мосланг (аудиториянинг салоҳияти, кайфияти ва ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда).

– Маъруза мобайнида айтаётган сўзларингизга тўлиқ ишончингизни намоён қилишга ҳаракат қилинг (энг муҳими!).

– Нигоҳингиз тингловчиларга йўналтирилиши лозим, бир нуқтага қараманг, сизга тикилиб ўтирган нигоҳлардан қочишга уринманг, ҳаракат ҳам қилманг;

– Нутқингизни бошлашдан аввал аудиторияга кўз югуртириб олинг (сизни тинглашга тайёр эканликларига ишонч ҳосил қилаётгандек).

– Жимлик ўрнатилгандан сўнггина маърузани бошланг.

– Маърузани жамоадаги тингловчиларга мурожаат билан бошланг, мурожаатдан сўнг узоғи бир сониялик сукунатга йўл қўйиш мумкин.

– Нутқ равонлигига эътибор беринг: нутқингиз жуда тез ёки бир оҳангда бўлиши тингловчини тез чарчатиб қўйишини унутманг.

– Биринчи жумладаноқ жамоани нутқингизга бўлган жавоб реакциясини баҳолашга, ўрганинг.

– Ноаниқ, қалтис, вазиятга тушиб қолсангиз, нутқингизни қатъият билан, ҳар бир сўзингизга урғу бериб, ишонарли оҳангда давом эттиринг.

– Нутқ сўзлаш сизга қийинчилик туғдираётганини, толиққанингизни, ўзингизга ишонмаётганингизни асло кўрсатманг.

– Нутқингизга бефарқ ўтирган тингловчини жалб қилишни энг осон йўли бу барча сўзларингизни унга қарата (яъни нигоҳингизни қаратиб) гапиришда давом этишдир;

– Сизни синаш, ўзингизни йўқотишингиз учун қилинган ҳар қандай хатти-ҳаракатлар олдида асло ожизлик қилманг. Берилган саволга жавобни

билмасангиз-да ўзингизга қатъий ишонган ҳолда хоҳлаган жавобингизни беришдан чўчиманг.

– Жамоани қанчалик салбий баҳоласангиз (кўпчилик нутқ сўзлашдан олдин тингловчиларни ҳеч нарсани билмайди, мен ақлли ва дономан деб қабул қилишади) уни бошқаришингиз шунчалик қийин кечади. Аудиториядаги тингловчиларни ақлли деб ҳис қилиш ўз ақлий имкониятларингиздан тўлиқ фойдаланиш имкониятини беради.

Инсонда сўзлаш қобилияти тахминан 500 минг йил илгари пайдо бўлган. Ибтидоий аجدодларимизда яшаш, ўзини ҳимоя қилиш учун бир-бирлари билан сўз орқали муносабатда бўлиш зарурати туғилган. Бу эса улардаги лаб, тил, ҳиқилдоқ каби аъзоларнинг тузилиши ва функциясини ўзгаришига сабаб бўлган ва аста-секин гапириш хусусияти пайдо бўлган.

Нутқнинг ривожланиши инсонларнинг ўзаро муносабатларини кенгайтириб, меҳнат турларининг янада кўпайиши ва онгнинг ривожланишига олиб келган.

Нутқ ва тафаккур ўзаро чамбарчас боғлиқ жараёнлардир, чунки бошқаларнинг гап-сўзларини эшитгач, уларнинг маъносига қараб фикрлаш зарурати юзага келади, фикримизни эса нутқ орқали баён этамиз.

Инсонни ҳайвондан фарқлайдиган асосий хусусиятларидан бири унда оғзаки ва ёзма нутқнинг ривожланганлигидир. Нутқ сезги аъзолари орқали қабул қилиниб, шартли рефлекс ҳосил қилиш хусусиятига эга.

Инсоннинг нутқи тарбия, ўқиш, билим олиш жараёнида ривожланади. Нутқнинг ривожланишида овоз чиқариб ўқиш, шеър айтиш, кўшиқ куйлаш, мусиқа тинглаш муҳим роль ўйнайди.

Нутқнинг асосий вазифаси шахслар ўртасида ўзаро алоқа воситаси бўлишдир. Нутқ алоқа жараёнида тафаккур қуроли бўлиб хизмат қилади. Яъни фикрлар нутқ ёрдамида шаклланади, айтилади ва тушунтирилади.

Оғзаки нутқ орқали ҳиссиётларимиз (ҳиссий кечинмаларимиз) сўзлар билан қилинган тасвирларда, оҳангда, қофияда, саволларда, сўзлар орасидаги сукутда, айниқса талаффузда яққол намоён бўлади.

Масалан, бирон кишининг исми тилга олинганда шу кишига нисбатан турли

ҳиссиётлар, муносабатлар кўзғалади: шахс ўзидаги меҳр-муҳаббат, ғазаб, кўркув, нафрат, кибр каби психик ҳолатларни юзидаги мимикаларида атайин (психик жараён, темперамент турига қараб) ёки беихтиёр ифодалайди.

Инсоннинг қиёфасидаги физиологик ўзгаришларга қараб унда устунлик қилаётган фикр, ҳис-туйғулар, муносабатлар ҳақида, аёлларда эса косметика, кийим-кечак, пойафзалга қараб шахс тўғрисида маълум бир фикрга келиш мумкин.

Масалан, ҳарбий кийим ҳар доим инсонларда қатъий талаб, тартиб ва интизом тариқасида намоён бўлган.

Демак мулоқот жараёни шахсларнинг қизиқишлари, дунёқарашлари, муомала ва маданиятлари билан узвийдир.

Мулоқот асосан фаолият кўрсатувчилар ўртасидаги ахборот алмашув жараёнини қамраб олади. Мулоқотни муаммо сифатида нафақат ижтимоий психология, балки фалсафа, педагогика, мантиқ, криминология ва этика ҳам ўрганади.

---

## КОПИНГ-СТРАТЕГИЯЛАР ТАСНИФИГА ДОИР ҚАРАШЛАР

*Мухиддинова Умида  
ЎзХИА таянч докторанти*

**Аннотация:** Ҳозирги даврда жамиятнинг эътибори низоли, стрессли, хавотирланиш ҳолатини юзага келтирувчи вазиятлардаги хулқ-атвор стратегияларини ўрганишга тобора кўпроқ қаратилмоқда. Аввало, бу шахснинг ижтимоий шароитга узвий алоқадорлиги билан боғлиқ бўлиб, деярли ҳар бир киши инқирозли вазиятларга дуч келади ва уни енгишда маълум бир стратегия ишлаб чиқади. Мазкур стратегияларни илмий жиҳатдан ўрганиш бошланганига кўп бўлмаган бўлса ҳам, бу соҳада қатор ишлар амалга оширилди. Мақолада

копинг-стратегиялар тушунчаси мазмун-моҳияти ва унинг таснифига доир баъзи бир ёндашувлар таҳлил этилган.

**Калим сўзлар:** копинг, копинг-стратегия, адаптация, психодинамик ёндашув, стресс психологияси, мотивация.

Кундалик ҳаётимизда биз доимо қандайдир қийинчиликларга дуч келамиз ва уларга ечим топишда турли хатти-ҳаракатларни амалга оширамиз. Қийинчиликлар индивид ресурсларини ошириб, стрессга олиб келади. Бу ҳолат эса ўз навбатида психологик ва жисмоний толиқишга сабаб бўлиб, маълум бир фаолиятни муваффақиятли бажаришга салбий таъсир этиши мумкин. Амалий жиҳатдан олиб қаралганда, қийинчиликларни енгиб ўтиш (копинг)ни ўрганишга доир тадқиқотлар инсонларнинг психологик барқарорлигини таъминлаш масаласи билан бевосита боғлиқдир. Копинг-стратегияларни ўрганиш масаласи нафақат мамлакатимизда, балки бутун дунёда долзарб аҳамиятга эга бўлган муаммолардан дейиш мумкин. Чунки жамиятда содир бўлаётган катта миқдордаги стрессли вазиятлар инсонларнинг психологик барқарорлигини бузиши, ва айниқса ҳозирги пайтда глобал муаммога айланган пандемия масаласи бунга ёрқин далилдир.

“Копинг” тушунчасини, одатда, шахсий, шахслараро ва касбий муаммоларни самарали ечимини топишга йўналтирилган, стресс чақирувчи вазиятлар талабларига инсонни мослаштириш, яъни уларни енгиш, енгиллаштириш ёки юмшатиш орқали психологик барқарорликни қайта тиклаш сингари турли жараёнлар билан боғлашади. Одатда, “копинг” тушунчасига стрессга нисбатан жавоб реакциясининг стратегияси сифатида қаралади, лекин проактив копинг ҳам мавжуд бўлиб, у бўлажак стрессорни олдини олишга ва бўлиши мумкин бўлган стрессли вазиятга тайёргарликка йўналтирилган бўлади.

Копинг-стратегияларни тадқиқ этиш катта ва мураккаб тарихга эгадир. Копинг-стратегия муаммосининг ривожланишига таъсир этган уч асосий манбаани ажратиш мумкин:



1. Психодинамик ёндашув доирасида бошланиб, замонавий тадқиқотчилар томонидан давом эттирилган *психологик ҳимоя*ларни ўрганишга қаратилган тадқиқотлар. (Никольская, Грановская, 2001)

2. Инсоннинг касаллик ҳолати ва соғлиғига таҳдид солувчи стрессли вазиятларга нисбатан реакциясини ўрганишни ўз ичига олувчи *стресс психологиясига* оид тадқиқотлар. (Lazarus, Folkman, 1984)

3. Муваффақиятга эришиш мотивацияси, ўзини ўзи бошқариш, мақсад қўйиш, ўқиш, меҳнат ва бошқа фаолиятларда муваффақиятсизлик ҳамда қийинчиликларга дуч келганда субъект томонидан юзага келадиган реакцияларни ўрганиш асносида амалга оширилган фаолият мотивациясига доир тадқиқотлар. (Леонова, 2011; Brown et al., 2005; Carver, Scheier, 2000)

Биринчи йўналишда психологик барқарорликка эришиш учун турли хил ҳимоя механизмларининг ролини аниқлашга доир тадқиқотлар бўлган бўлса, иккинчи йўналишда эса айнан стресс чақирувчи вазиятларнинг ўзи тадқиқ этилиб, уларга нисбатан бўладиган жавоб реакцияларнинг типлари ўрганилган. Учинчи йўналиш ўзини ўзи бошқариш жараёнида ҳамда самарали фаолиятни амалга оширишда копингларнинг ролини тадқиқ этган. Охириги йилларда копинг-стратегиялар шахс потенциалининг бир компоненти сифатида талқин этилиб (Леонтьев, 2011), олимлар томонидан фаолиятдаги турли вазиятларда ўзини ўзи яхши бошқара олишни белгилаб берувчи шахс омиллари тизими, деб қаралмоқда.

Копинг-стратегиялар хилма-хилдир. Ҳозирги кунга қадар тадқиқотчилар томонидан ҳаётий қийинчиликларни енгиб ўтишга доир 400 дан зиёд стратегиялар ажратиб кўрсатилган (Skinner et al., 2003) ва уларни классификациясини ишлаб чиқишга уринишлар бўлган, аммо умумий тасниф ҳалигача мавжуд эмас. Дастлаб Р.Лазарус томонидан икки тоифа, яъни муаммони ечишга йўналтирилган ва эмоцияларга йўналтирилган (стрессор томонидан юзага келган дистрессни минималлаштиришга қаратилган) копинг-стратегияларга ажратиш таклиф этилган. Бошқа таснифларга кўра, муаммога қаратилган ёки муаммодан қочишга йўналган копинг-стратегиялар мавжуд. А.Н.Поддьяков қийинчиликларни уларнинг манбасига асосланиб (объектив характерга эгами ёки

бошқа шахслар томонидан атайин юзага келтирилганми) ажратишни ва шунга мувофиқ уларни енгиб ўтиш учун зарур бўлган усул ва ресурсларни ҳам фарқлашни таклиф қилади (Поддьяков, 2008). Тузилишига кўра бошқалардан мукамалроқ бўлган таснифлардан яна бири копинг-стратегияларни уч тоифага ажратади:

- 1) когнитив адаптация стратегиялари;
- 2) хулқий адаптация стратегиялари;
- 3) эмоционал ориентировкалашган стратегиялар (Weiten, Lloyd, 2008).

Когнитив адаптация стратегиялари тафаккурдан фойдаланиш билан боғлиқ бўлиб, вазиятга нисбатан муносабатни ўзгартиришга йўналган, мисол учун, инкор этиш, ментал дистанциялаш, мақсад ва қадриятларни ўзгартириш, юморга мурожаат этиш каби. Муаммога йўналтирилган стратегиялар муаммонинг сабаби билан ишлашга қаратилган бўлиб, унинг манбаасини ўзгартириш ёки йўқотиш мақсадида маълумот тўплаш, муаммони ечишга ёрдам берувчи янги кўникмаларни ўрганиш, режалаштириш ишларини амалга оширади. Эмоционал ориентировкалашган стратегиялар эмоциялар билан ишлашга йўналган бўлиб, стрессни тушуна олиш, салбий кечинмаларни бошқара олиш, медитация, тизимли релаксация амалиётини ўз ичига олади. Одатда, инсон ҳаёти давомида копинг-стратегияларнинг уччаласидан ҳам фойдаланади.

Юқорида қайд этилган таснифлардан ташқари яна бир қатор классификациялар ҳам мавжуд. Копинг-стратегиялар адаптив, ноадаптив ва қисман адаптив бўлиши мумкин:

- адаптив стратегиялар – муаммога фаол ечим топиш (ҳамкорлик, альтруизм);
- ноадаптив – муаммодан бутунлай қочиш (реалликдан кетиш, босим, агрессия, итоаткорлик)
- қисман адаптив – маълум бир сабаб кўрсатиб муаммодан қочиш (қочишни маскировка қилиш, эмоционал бўшашиш, эътиборсизлик).

Турли вазиятларни енгиб ўтишдаги асосий вазифа номаълум шароит ва танқидий вазиятларда инсоннинг психик ва эмоционал мувозанатини сақлашдан

иборатдир. Бундай мувозанатни сақлай олиш шахсининг индивидуал-психологик хусусиятлари билан бирга ижтимоий тажрибасига ҳам боғлиқдир.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Поддьяков А.Н. Преднамеренное создание трудностей и совладание с ними // Психологические исследования: электрон. науч. журн. 2008. № 1 (1). [Электронный ресурс]. URL: [http:// psystudy.ru](http://psystudy.ru)
2. Никольская И.М., Грановская Р.М. Психологическая защита у детей. СПб.: Речь, 2001.
3. Lazarus R., Folkman S. Stress, appraisal and coping. N.Y.: Springer, 1984.
4. Леонова А.Б. Стресс-резистентность и структурная организация процессов саморегуляции деятельности // Психология саморегуляции в XXI веке / Отв.ред. В.И. Моросанова. СПб.; М.: НесторИстория, 2011. С. 354–373.
5. Brown S.P., Westbrook R.A., Challagalla G. Good cope, bad cope: Adaptive and maladaptive coping strategies following a critical negative work event // Journal of Applied Psychology. 2005. 90. 4. 982–798.
6. Carver C.S., Scheier M.F. On the structure of behavioral self-regulation // M. Boekaerts, P.R. Pintrich, M. Zeidner (eds). Hand book of self-regulation. San Diego: Academic Press, 2000. P. 42–80.
7. Леонтьев Д.А. Личностный потенциал как потенциал саморегуляции // Личностный потенциал: Структура и диагностика / Под ред. Д.А. Леонтьева. М.: Смысл, 2011. С. 107–130.
8. Skinner E.A., Edge K., Altman J., Sherwood H. Searching for the structure of coping: a review and critique of category systems for classifying ways of coping // Psychological Bulletin. 2003. 129. 2. 216–269.
9. Weiten W., Lloyd M.A. Psychology applied to modern life. Wadsworth Cengage Learning, 2008.

## РОЛЬ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ В СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Мухиддинова Умида  
Докторант МИАУ,  
Мухиддинова Феруза.  
Студентка УзГУФКС*

Во время соревнования спортсмен сталкивается с такими стресс-факторами, которые практически не возникают на тренировках. И, если спортсмен сталкивается с неудачей на соревновании, то это достаточно часто формирует у него устойчивую реакцию повышенной тревожности на подобные ситуации (негативный опыт), который как мы писали ранее, сказывается на успешности совладания с ситуациями, провоцирующими стресс, в дальнейшем.

Умение спортсмена осознанно и самостоятельно изменять собственные состояния и процессы, происходящие в организме (например, возбуждением и тревогой) и умение управлять ими – это те индивидуально-психологические факторы, которые обуславливают повышение надежности выступления спортсмена.

Одним из ведущих факторов в определении надежности соревновательной деятельности является именно психологический фактор. Наибольшее количество исследований надежности направлено на изучение именно психологического фактора, поскольку реализация сложных приемов невозможна без психической регуляции.

В.Б. Коренберг среди психологических факторов, содействующих повышению надежности исполнения спортсменом упражнения, выделяет: самоконтроль, управление вниманием и эмоциями, идеомоторную настройку и уверенность в правильности выполнения программы.

В.В. Давыдов отмечал, что преобладающее большинство исследователей, изучающих надежность спортсмена, сходятся во мнении, что психическая надежность – это «стабильная эффективность» его выступлений. При этом психологические механизмы психической надежности имеют различную

трактовку: как «психологический резерв», как совокупность психических свойств, помогающих избежать стресс и его последствия, как психическую устойчивость, как особый результат целенаправленного учебно-тренировочного процесса, и т. д.

В.А. Плахтиенко и Ю.М. Блудов определяют надежность как свойство, способствующее результативному осуществлению целевых задач в специфических условиях, в течение определенного времени.

Согласно концепции психической надежности В.Э. Мильмана, ее структура состоит из четырех компонентов:

- соревновательная эмоциональную устойчивость;
- саморегуляция;
- стабильность-помехоустойчивость;
- мотивационно-энергетический компонент.

По мнению В.Э. Мильмана компонент эмоциональной устойчивости обеспечивает соразмерность эмоциональной оценки ситуации и адекватность эмоциональных реакций. Большинство исследователей, соревновательная эмоциональная устойчивость понимается как фактор, определяющий психическую сопротивляемость стрессорам и одно из наиболее значимых и первостепенных из специальных свойств личности спортсмена, поскольку стрессоры действуют через эмоциональную сферу личности. При этом, большинство ученых подчеркивают, что смысл эмоциональной устойчивости спортсмена заключается не в том, что он перестает ощущать сильные эмоции, а в том, что эти эмоции в конкретных ситуациях спортивной деятельности достигают адекватной и оптимальной степени интенсивности, и в то же время отличаются стабильностью определенных качественных особенностей и всегда нацелены на осуществление спортивных задач. Однако исследователи считают, что уровень эмоциональных переживаний должен изменяться соответственно ситуации спортивной деятельности, поэтому он должен быть не только устойчивым, но и динамичным.

Эмоциональная устойчивость спортсмена проявляется в способности контролировать свое эмоциональное состояние и воздействовать на него, приводя

к оптимальному эмоциональному возбуждению, не позволяя при этом ему доходить до уровня, негативно влияющего на результативность и самочувствие спортсмена. Основным параметром этого свойства можно считать адекватность эмоциональной оценки ситуации и соразмерность эмоциональных реакций в условиях соревновательного выступления.

Среди важных форм эмоциональной устойчивости в спорте особенно выделяют стрессоустойчивость, свойства которой заключаются в:

- стабильности функциональных и психических возможностей организма и их выносливости при воздействии стрессоров;
- сопротивляемости к экстремальным воздействиям;
- адаптированности личности к различным жизненным обстоятельствам и условиям конкретных экстремальных ситуаций;
- способности успешно восстанавливаться при возникающих чрезмерных функциональных нарушениях, связанных с воздействием стресс-факторов.

Известно, что копинг, стрессоустойчивость и эмоциональная устойчивость – неразрывно связанные для личности процессы. Поскольку, именно копинг-стратегии способствуют адаптивному личностному реагированию к требованиям ситуации, нахождению оптимального выхода из неблагоприятных ситуаций и смягчению возможных последствий стрессовой ситуации.

Надежность соревновательной деятельности во многом также определяется способностью саморегуляции спортсмена.

Спортивная саморегуляция проявляется в способности спортсмена осознанно регулировать изменения в эмоциональной, двигательной и внутренней функциональных сферах, в характере самоконтроля соревновательного поведения. Процесс саморегуляции направлен на создание оптимального предстартового психологического состояния, в зависимости от целей и условий деятельности.

Саморегуляция спортсмена выражается в его способности осознанно регулировать свое состояние, а также, в степени самоконтроля соревновательного

поведения. Этот процесс определяется способностью спортсмена осуществлять контроль над причинами возникающих эмоциональных и психологических состояний и их различными проявлениями, умением мысленно моделировать различные соревновательные ситуации, управлять концентрацией, реакцией и скоростью переключения внимания на различные объекты, отвлекаться от воздействия тревожных и раздражающих психологических факторов и ситуаций, применять вербальные и невербальные специальные приемы. Конкретные проявления саморегуляции всегда специфичны, так как связаны с особенностями деятельности и непосредственного окружения. Поэтому при регулярном и своевременном использовании специфических приемов развивается самостоятельное специальное свойство. В спортивной деятельности это проявляется особенно отчетливо.

Так, В.А. Плахтиенко и Ю.М. Блудов в своих исследованиях выявили, что в группах эффективных спортсменов одним из факторов, влияющих на надежность спортсмена, является способность противостоять стрессу.

Способность самоконтроля и управления эмоциями, помогает психике противостоять перегрузкам и выделяется среди значимых психологических показателей, способствующих формированию психической надежности.

Следовательно, изучение содержательных особенностей копинг-стратегий спортсменов командных видов спорта с разным уровнем психической надежности, представляется нам актуальным.

### *Список литературы*

1. Гиссен, Л. Д. Время стрессов. Обоснование и практические результаты психопрофилактической работы в спортивных командах / Л.Д. Гиссен – М.: ФиС, 1990. – 192 с.
2. Горская, Г.Б. Динамический анализ психологических ресурсов конкурентоспособности спортсменов / Г.Б. Горская // Ресурсы конкурентоспособности спортсменов: теория и практика реализации. – 2018. – № 1. – С. 64-66.
3. Давыдов, В.В. О некоторых принципах построения учебно-



тренировочного процесса в связи с проблемой надежности / Давыдов В.В., Жоров П.А. // Психическая надежность спортсменов высокого класса и методы ее совершенствования: материалы межд. научн. конф./ Под ред. К.П. Жарова и В.А. Плахтиенко. – М.: ГЦОЛИФК, 1977. Т.1. – С. 92-96.

4. Довжик, Л.М. Спортивная травма как жизненное событие: автореферат дис. ... кандидата психологических наук: 19.00./ Л.М. Довжик. – Москва, 2018. – 26 с.

8. Иванов, В.Д. Волевая саморегуляция и ее формирование в спортивной деятельности / В.Д. Иванов, И.Н. Нурмухаметова, И.А. Бец // Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Челябинск: Южно – Уральский государственный университет. – 2013. – № 31. – С. 99-106.

9. Ильин, Е.П. Психология спорта. / Под ред. Е.П.Ильина. – СПб.: Питер, 2012. – 352 с.

10. Малкин, В.Р. Психотехнологии в спорте: учеб. пособие / В.Р.Малкин, Л. Н. Рогалева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та. – 2013. – 96 с.

11. Мильман, В.Э. Некоторые вопросы повышения спортивной надежности/ В.Э. Мильман // Материалы Всесоюзного симпозиума:

*«Практические аспекты психологической подготовки спортсменов».* – М., 1976. – С. 121-129.

12. Мильман, В.Э. Стресс и личностные факторы регуляции деятельности. Стресс и тревога в спорте: междунар. сб. науч. ст. / сост. Ю.Л. Ханин. – М.: Физкультура и спорт. –1983. – С. 24-46.

## ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ИМКОНИАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Курбанова Зарифа Бокижановна*

*НамДУ психология кафедраси в.б.доценти*

Ақлан етук, ахлоқан пок, жисмонан бақувват, руҳан бой авлодга таълим–тарбия бериш мустақил давлатимиз олдидаги энг муҳим ва долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Ҳар қандай жамиятнинг ижтимоий–иқтисодий тараққиётини инсон тафаккури ва ақлий салоҳияти, маънавияти ва маданияти белгилаб беради. Инсондаги ушбу хислатлар бевосита жамиятда, оила ва таълим муассасаларида ривожланади. Таълим ва тарбия тизими эса фарзандларимизнинг ривожланаётган қобилиятларини тўғри йўналтириш, уларнинг интеллектуал имкониятларига асосланиб кучли шахслар қилиб тарбиялашга хизмат қилади. Ёш авлодга таълим – тарбия бериш, уларнинг интеллектуал билимларини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш долзарб ижтимоий эҳтиёжлардан бири сифатида доимо долзарб масала бўлиб келган.

Ўқувчиларнинг интеллектуал имкониятлари ва иқтидорини эрта ташхис қилиш, аниқланган кўрсаткичлар асосида улар билан коррекцион-ривожлантирувчи ишларни олиб бориш амалий психолог фаолиятининг энг асосий йўналишларидан биридир.

Ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзи тамойилларини қарор топтириш, уларни гиёҳвандлик, ахлоқсизлик, ташқаридан кириб келаётган тубан “оммавий маданият”нинг турли иллатлари хавфи ва зарарли таъсирларидан ҳимоя қилиш зарур. Бундай салбий омиллар таъсирига толерантлик, ўзини турли ахборот хуружларидан муҳофаза қилиш, юксак ахлоқий фазилатлар ҳамда юқори даражадаги билим ва интеллектуал салоҳиятни тақозо этади. Шунинг учун ёшларнинг ақлий тараққиёти ёки интеллектуал ривожланишини янада юқори даражага кўтариш лозим.

Ёшларнинг ақлий тараққиётини ўрганиш бугунги кундаги энг муҳим вазифалардан биридир. Интеллект латинча *intellectus* сўзидан олинган бўлиб, у одатда ақл-идрок, англаш, тушуниш, фаҳмлаш деган маъноларни англатади. Интеллект инсоннинг маълум даражада мустаҳкам, барқарор ақлий қобилиятлари тизимини ташкил этади.

Интеллект кишининг мавҳум фикр юритиши, билимларининг ўзаро муносабати, уларнинг атроф-муҳитга мослашишдаги таъсири, таълим дастурларини ўзлаштиришга, сонли амалларни бажаришга нисбатан қобилияти, луғат бойлиги, предмет ҳамда ҳодисалар ўртасидаги ўхшашлик ва фарқларни ажрата олиш уқуви, нутқ тезлиги ёки суръати, фикрлаш тезлиги, мантиқийлиги, изчиллиги ва хотира кучида намоён бўлади.

Мутахассисларнинг таъкидлашларича, мураккаб технологик жараёнларни назорат қилиш, арифметик масалани ечиш, замонавий машинани таъмирлаш ёки бирор чет тилини ўрганиш давомида одамнинг мияси ҳеч қачон бирдай ишламайди. Баъзи кишиларда умумий интеллект даражаси бошқаларники билан тенг бўлиши билан бирга, айрим фаолият турларини бажаришда яққол устунлиги сезилиб туради.

Интеллект муаммосини ўрганишда асосий диққат-эътибор интеллектнинг ёш хусусиятига боғлиқлиги, жинсга ва дунёга келиш тартибига алоқадорлиги, этнос, элат, миллатга тааллуқлиги, оиланинг ижтимоий-иқтисодий шароитига, она-оналарнинг маълумотига боғлиқлиги ва бошқа масалаларга қаратилмоқда.

Кўп ҳолларда “интеллект” термини ўрнига тафаккур тушунчаси ишлатилади. Олимларнинг таъкидлашларича, интеллектнинг асосий вазифаси уюшқоқлик, тартиблилик ва адаптация (мослашиш, кўникиш) дан иборат бўлиб, у қуйидаги ривожланиш босқичига эга:

- а) сенсомотор (сезиш, туйиш билан боғлиқ) интеллектнинг ривожланиш босқичи (туғилишдан то 2 ёшгача);
- б) тафаккур ривожланишининг дастлабки даври (2 ёшдан 7 ёшгача);
- в) аниқ тафаккур жараёнлари ёки ақлий ҳаракатлар даври (7-8 ёшдан 11-12 ёшгача);

г) расмий ҳаракатларни амалга ошириш даври (13 ёшдан кейин)) [2.88]

Интеллектнинг ўсиши болада нутқ пайдо бўлишидан илгари бошланади. Интеллектнинг куртаги боланинг дастлабки тартибсиз хатти-ҳаракатларида ўз ифодасини топади. Кейинчалик мақсадга йўналтирилган ҳаракатлар актини амалга ошириш натижасида ва таҳлил қилиш ёрдамида интеллектнинг генетик илдизини ўрганиш учун муҳим имкониятлар яратилади.

Психология фанида интеллектуал фаоллик муаммосига алоҳида ёндашув билан қаралади ва унинг репродуктив (қайта тикловчилик), эвристик (топқирлик); креатив (ижодкорлик) даражаси мавжудлиги асослаб берилган.

Интеллектуал фаолликнинг юқори даражаси бўлган креативлик одамларнинг олдин мавжуд бўлмаган бирор нарсани яратиш, кашф қилиш, янгилик элементларини вужудга келтириш жараёнидир. Замонавий узлуксиз таълим тизимининг энг муҳим вазифаларидан бири ҳам юқори даражадаги касбий тайёргарлик ва креатив қобилиятга эга ёш мутахассисларни тайёрлашдан иборатдир.

Инсон фаолиятида интеллектнинг бир неча турларини кузатиш мумкин: мавҳум интеллект - бу мавҳум, вербал (сўзли) ва математик белгиларни тушуниш ҳамда уларнинг ёрдами билан турли ақлий ҳаракатларни амалга ошириш қобилияти бўлса, умумий интеллект одамларни тўғри баҳолай билиш, уларнинг хулқини тўғри башорат қилиш ва шундан келиб чиққан ҳолда бошқалар билан муносабатга киришиш қобилияти деб тавсифланади. Ижтимоий интеллект ижтимоий ахборотларни қайта ишлаш билан боғлиқ бўлган ментал қобилиятларнинг аниқ ва мутаносиб гуруҳидан иборат.

XXI аср-интеллектуал ёшлар асри деб бежиз айтилмаган. Ёшларнинг интеллектуал ривожланиши муайян хусусиятлар мос тарзда кечади. Ўсиб боровчи фаоллик ёшлар интеллектуал тараққиётининг ажралмас қисми бўлиб, ёшларнинг турли гуруҳларида ўзига хос тарзда намоён бўлади. Масалан, ўқувчи ёшларда билим олишга, касб сирларини эгаллашга, мустақил равишда ўз устида ишлашга интилиш тарзида намоён бўлади.

Билим олишга ортиб боровчи қизиқиш ёшлар психологиясига хосдир.

Таълим олиш ва билимга интилиш, ахборотлар оқими ортиб бораётган, электрон техника ва ўқитишнинг замонавий воситалари такомиллашишда давом этаётган ҳозирги шароитда яққол кўзга ташланмоқда.

Меҳнат қилишга бўлган эҳтиёжнинг ортиб бориши. Маълумки республикамизнинг таълим -тарбия жараёни ёшларни меҳнатсеварлик руҳида тарбиялашга ҳам йўналтирилган.

Мамлакатнинг ижтимоий ҳаётида фаол иштирок этишга қизиқишнинг ривожланиши. Интеллектуал салоҳиятли ёшлар жамият ҳаётининг барча соҳаларида фаол иштирок этадилар. Ижтимоий фаол, юқори интеллектуал салоҳиятга эга мутахассисларни тайёрлаш долзарб вазифадир.

Интеллектуал фаол ёшлар асосий тушунчаларни ва маълумотларни тез ва осон эслаб қоладилар. Ахборотларни қайта ишлаш қобилиятининг юқорилиги уларга кўплаб билимларни эгаллаш имконини беради, фанларни муваффақиятли ўзлаштирадилар. Бундай ёшлар ўзлари муҳим деб ҳисоблаган математика, хорижий тил, физика ёки биология фанларини осон ўзлаштириб, муҳим деб ҳисобламаган фанларни қийинлик билан ўзлаштирадилар.

Шунингдек бошқа инсонлар билан ўзаро алоқаларни ўрната олиш қобилияти ҳам интеллектуал имкониятларга алоқадордир. Ижтимоий перцепция, ижтимоий ҳулқ, ахлоқий муҳокама, ташкилотчилик қобилияти каби психологик хусусиятлар бунда муҳим аҳамият касб этади. Мазкур хусусиятлар бир неча соҳаларда муваффақият қозонишни таъминлайди. Ўртадан юқори интеллект, қарор қабул қилиш кўникмаси, мавхум тушунчалар билан ишлаш, келажакни кўра билиш, вақтни тақсимлай олиш малакаси, мақсадни аниқлаш, эгилувчанлик, мослашувчанлик, маъсулият ҳисси, ўзига ва билимига ишонч, қатъиятлилик, ташкилотчилик, фикрни аниқ баён эта олиш ёшларнинг интеллектуал имкониятларини намоён этувчи кўрсаткичлардир.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. : Питер; СПб.; 2009.-320с.
2. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. - 2-е

изд., перераб.и доп. - СПб.: Питер, 2002. - 264 с.

## МАГИСТРАНТЛАРНИНГ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ ВА ВОСИТАЛАРИ

*Ганиева Гулрух Валижон қизи*  
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси катта ўқитувчиси*

Компетентлик ёндашуви магистрантнинг шахсий ва касбий ривожланишини мониторинг қилишни таъқозо этади, бу эса ўз навбатида, унинг компетенциялари ва касбга йўналтирилган сифатларини узлуксиз диагностика қилишни назарда тутади[1, 2, 3]. Компетентлик ёндашувнинг асосий ғояларидан бири бу магистрнинг фақат билим ва кўникмаларини шакллантириш эмас, балки уларни самарали бошқаришга, ижтимоий, касбий-таълимий ва ижодий вазифаларни муваффақиятли ҳал эта олишига тайёрлашдир. Шунинг учун таянч ва касбий компетенциялар шаклланганлигининг муҳим мезонларидан бири, бу операция компонент (билим ва кўникмалар) ва фаолият компонентларининг (билимларни қўллашнинг шахсий тажрибаси) ўртасидаги муносабат параметрлари ҳисобланади. Ҳар қандай компетенциянинг фаолият компонентини (муаммоли вазиятлардаги ҳаракати) баҳолаш мезонлари ўзига хос, яъни бу компонента магистрнинг табиати билан боғлиқ. Операция компонентни шакллантириш мезонлари, шунингдек операция ва фаолият компонентлари ўртасидаги муносабатларнинг параметрлари универсалдир, яъни компетентликка нисбатан инвариант[1, 2]. Ҳозирги вақтда компетенциялар диагностикасининг сифатини оширишда муайян ютуқларга эришилди.

Шундай бўлса-да, мавжуд баҳолаш мезонлари компетенцияларнинг операция компонентларини шаклланганлигини, шунингдек операция ва фаолият компонентлар ўртасидаги муносабатларни тўлиқ акс эттирмайди.

Компетенцияларнинг таркибига кирувчи ижтимоий-касбий сифатларнинг баҳолаш мезонлари ҳам кам ўрганилган.

Магистрантларнинг касбий компетенцияларини баҳолаш уларнинг ўз касбий вазифаларини бевосита бажариши билан боғлиқ муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш орқали магистрантнинг касбий маҳорати даражасини оширишга қаратилган. Магистрантларнинг касбий компетенцияларини баҳолаш бутун ўқиш даврида кириш, оралиқ ва якуний босқичларда амалга оширилади. Бундай баҳолаш магистрантнинг касбий фаолиятининг энг аҳамиятли жиҳатлари бўйича компетентлик даражасини аниқлаш мақсадида амалга оширилади.

Олдинги параграфларда билим, кўникма ва малакаларни баҳолашнинг мавжуд анъанавий усул ва воситалари магистратура талабасининг шаклланган компетенциялар даражасини етарли аниқликда баҳолашга имкон бермаслиги таъкидланди. Шу муносабат билан касбий компетенцияларни баҳолашнинг инновацион воситаларидан фойдаланган ҳолда диагностик усул ва воситаларни такомиллаштириш лозим. Шу билан бирга диагностик воситалар комплекс ўлчашлар имкониятини таъминлаши ҳамда битирувчиларнинг кейинги ижтимоий ва касбий соҳада ўз-ўзини англашга тайёрлигини катта аниқликда баҳолаш имконига эга бўлиш керак. Бундан ташқари, улар таълим натижаларини доимий мониторинг қилиш имконини бериши, шахснинг қадр-қимматига йўналтирилган йўналишини ва унинг ижодий фаолиятини кузатиши керак.

Магистрантларнинг гуманитар фанлар бўйича касбий компетентликларини баҳолашнинг анъанавий воситалари билан бир қаторда (оғзаки жавоблар, ёзма иш, тест ва бошқалар.), инновацион баҳолаш усуллари қўлланилади: кейс-усулар, контекстли вазифалар ва вазиятли масалалар.

Анъанавий ўлчов воситалари орасида баҳолашнинг энг самарали усуллардан бири оғзаки сўровдир.

Гуманитар фанлар бўйича магистрантларнинг касбий компетентликларини баҳолашнинг муҳим усулларидан яна бири ёзма ишдир. Ёзма ишнинг қуйидаги хусусиятлари мавжуд:

- таклиф этилаётган вазифаларнинг мураккаблик даражаси;



- ёзма ишни бажариш муддатлари;
- аввалги натижани бекор қилиш шарти билан ишни такроран бажариш;
- рухсат этилган ҳолларда қўшимча ахборот манбаларидан фойдаланиш ва бошқ.

Тестлар магистрантларнинг касбий компетентликларини баҳолашда энг кенг қўлланиладиган диагностика воситалардан бири ҳисобланади. Тестлардан магистратура дастурида ўқитишнинг дастлабки, оралик ва якуний босқичларида фойдаланилади. Уларни амалга ошириш натижалари магистрантларнинг фан тайёргарлик даражасини аниқлаш ва уларнинг касбий компетентликларининг билим компонентини шакллантириш имконини беради. Тестлардан компетенциянинг фаолият компонентининг шаклланишини назорат қилиш учун тестларга икки турдаги вазифаларни киритиш мумкин: улардан бири билимларни ўзлаштиришни назорат қилишга, иккинчиси эса кўникма, малака ва фаолият тажрибасини баҳолашга қаратилган. Шу билан бирга, вазифалар фанлараро ва амалиётга йўналтирилган хусусиятга эга бўлиши керак. Тест топшириқларининг шакллари очик ва ёпиқ турдаги бўлиши мумкин.

Тест топшириқлари давлат таълим стандартларини талабларига асосан ўқитилаётган модуль мавзулари бўйича шаклланади. Тест топшириқлари имкон даражасида қисқарок, муайян саволга қаратилиши мақсадга мувофиқдир.

Одатда, тестдаги вазифалар қуйидагича белгиланади:

1-жавобни танлаш билан боғлиқ вазифалар;

2-қисқа жавобли топшириқлар;

3-батафсил жавобли топшириқлар.

Вазифаларнинг қийинлик даражаси:

1- асосий (60-90% магистрантлар бажариши мумкин);

2- ўртача қийинликдаги топшириқлар (40-60%);

3- юқори қийинликдаги топшириқлар (40% дан кам).

Хулоса ўрнида анъанавий ўқитиш ва назорат усуллари фақат “билимли” таълим парадигмасида самаралидир. Шу билан бирга компетентликни, яъни фаолиятни ва касбга йўналтирилган шахс сифатларини баҳолашда етарли

даражада аниқликни ва сифатни бермайди. Компетентликка йўналтирилган ёндашув билим сифатини баҳолаш тизимига таъсир этади ва ушбу тизимни ўзгартиришни таъқозо этади. Назоратни мақсади фан бўйича билимларни баҳолашдан шаклланган компетенцияларни (фаолиятни, натижани) баҳолашга қаратилади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Рекомендации парламента и Совета Европы от 18 декабря 2016 г.: Ключевые компетенции для обучения в течении всей жизни – Европейские рамочные установки: пер.с англ. Р.Синельниковой // Адукатар, 2008.- №1(13).- С.14-18.

2. Шалашова М.М. Ключевые компетенции учащихся: проблема их формирования и измерения. XXI, 2008, № 10, с. 15., Шалашова М.М. Использование контекстных задач для оценивания компетенций учащихся. XXI, 2009, № 4, с. 24.

3. Шапошникова, Т.Л. Современные модели и методы диагностики конкурентоспособности выпускника вуза / Т.Л. Шапошникова, О.Н. Подольская, И.П. Пастухова // Научные труды Кубанского государственного технологического университета. – 2016. – № 8. – С. 385-398.

---

## DEVIANT XULQ –ATVOR TUSHUNCHASI

Yusupova Latofat  
Chinoz tumani 42-maktab psixologi

Hozirgi zamon shiddat bilan rivojlanib, jadallashib bormoqda. Ayrim oilalarimizda voyaga yetayotgan farzandlariga e'tibor, mehr, g'amho'rlik, hissiy bog'liqlik o'rniga moddiy bog'lanish, moddiyat tushunchasi birinchi uringa chiqib ularni hech kimdan kam qilmaslik, ruhiy olamidagi o'zgarishlar, ichki tuyg'ulari, ichki kechinmalar bilan deyarli suhbatlashishga va e'tibor berishga kamdan kam oila a'zolari

vaqt topmoqda. Buning oqibatida o'quvchilarimizda turli xil muammolar, hulk-atvorida o'zgarishlar, og'ishlar yuzaga kelmoqda. Bolalar va o'smirlarning bir qismi salbiy ta'sirlar doirasiga tushishi, noijtimoiy xatti-harakatlar, huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlarini sodir etish sabablari-oiladagi notinch axvol, bolalarni maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga yetarli darajada qamrab olinmaganligi, moddiy jihatdan ahvolning og'irligi...

Sizda savol tug'ilishi mumkin deviant so'zining ma'nosi nima? Deviant hulk-atvor hozirgi kunda nafakat maktab o'qituvchilari, psixologlari, ota-onalarni balki, jamiyatni xam o'ylantirayotgan muammolardan biridir. Chunki bu xatti-harakat, bu hulk-atvorning salbiy ta'sirlari bir oilaning yoki bir maktabning yoki boshka biror o'quv yurtining muammosi emas, jamiyatga katta ta'sir o'tkazadigan holatdir. Deviant lotin tilidan olingan bo'lib-«deviatsiya» chetga og'ishuvchi fe'l-atvor degan ma'noni bildiradi. Ya'ni “Bu hulk-atvor va o'z xatti-harakatlarining jamiyat normalariga mos bo'lmagan holatdagi ko'rinishi”. Bu tushuncha o'zi qaerdan paydo bo'ldi? Dastlab psixologiya fanida bu tushuncha Email Dyurkgeym tufayli paydo bo'ldi. Asosan uning fikricha huquqbuzarlik va o'zi bilan turib, boshqalarga zarar berish bu hulk-atvorning og'ishishi yoki deviant edi. Uning izdoshi Robert King Merton asarlarida esa bu tushunchalar yanada ko'proq yoritildi. Uning fikricha har qanday holatda ham deviant hulk-atvor rivojlanishi mumkin. Deviant shakllanishida yaqin atrofdagilarga foyda keltirishni istamaslik, o'z ustida ishlamaslik holatlari kuzatiladi. Xo'sh, deviant hulk-atvorni biz qanday bilishimiz mumkin? Ko'pincha maktab o'qituvchilari va amaliyotchi psixologlari o'rtasida ham deviant ko'rinishdagi o'quvchilar lo'plab muammolarga sabab bo'ldi. Ya'ni biz ularni aslida deviantmi yoki boshka psixologik xolatdaligini anik tashxis kila olishimiz kerak. O'quvchilardan test, metodikalar o'tkaziladi va tahlil natijasiga ko'ra deviant hulk-atvor yoki tarbiyasi og'ir bola deb aytiladi. Ularga xos xususiyat va uning xatti-harakatlari:

**Agressivlik-** o'z xatti-harakatlarini himoya qiladi. O'zining shaxsiy haqiqati bor. O'z pozitsiyasini himoya qilganda hech o'ylamay tajavvuzkorligini ko'rsata oladi.

**Nazoratsizlik-** Buzg'unchi hamma narsani buzishga harakat qiladi, bo'ysindirish va boshqarishga urinadi lekin aslida buni eplayolmasa qattiq asabiylashadi. Ularda

mantiqiy fikrlash va mulohaza qilish qobiliyati yo'qoladi. Gapirayotganida fikrlar ketma-ketligida adashadi. Bu holat uning kuchini susaytirib, xatto o'zidan shubhalanish holatlarini yuzaga chiqaradi. Tajavuzkor holatlarga yo'l lo'yib, ijtimoylashish aloqalari buzula boshlaydi. Har qanday sog'lom fikrga ega inson o'z xatti-harakatlarini boshqara oladi va ijtimoiy holatda ham mulohazali bo'ladi. Deviantlarda esa aksi kuzatiladi.

**Kayfiyatning o'zgarishi-** ularda hayotiy faoliyat jarayonida kayfiyatlarida “sakrashlar” kuzatiladi. His-tuyg'ularini boshqara olmaydilar. Hozir kayfiyati a'lo bo'lsa, birpasda yomonlashadi. Kayfiyatning keskin o'zgarishi esa asab tizimini toliqtirib, zo'riqtirishni boshlaydi. Yashirin- o'z fikr-mulohazalarini boshqalar bilan baham ko'rmaslik. His tuyg'ularini yashirish, hech kimga ishonmaslik, aldash, buzg'unchi haqiqatni aytolmaydi. Chunki unda boshqa “qonun-qoida”, jamiyatda esa boshqacha. Deviant bo'lishning sabablari- deviant xatti-harakatlar har doim xaddan tashqari ta'sirchanlik, zaiflik, ortib borayotgan tajavvuzkorlik va tushkunlik bilan ajralib turadi. Disfunksional muhit- bola rivojlanishidan boshlab unga eng katta ta'sir ko'rsatadigan muhit. Bola rivojlanishda davom etarkan atrof-muhitdagi salbiy muammolar, kamsitish, haqoratlar, xo'rlangan holatlar, ayblovlar, ajratishlar, taqqoslash, ruhiy tusiqlar, shaxsiga nisbatan tanqidiy fikrlar, xaddan ziyod ko'p cheklovlar, past nazar bilan qarash, shaxs sifatida anglanilmaganligi sabablardir keyin esa ular ajralib odamovi bo'lishni boshlaydilar. Bunday muhit odamni atrofga salbiy munosabatlarini va salbiy his tuyg'ularini paydo qiladi. Deviant hulq-atvor to'satdan emas, darhol shakllanadi. Ular hayotdan odamlardan vaziyatlardan norozi bo'lishadi. Doimo qoniqmaslik hissi, kimnidir kamchiliklarini qidirishga va uni omma oldida hijolat qilishga moyil bo'lishadi. Dunyoga o'zining oshkora da'volarini ocha boshlaydi. Spirtli ichimliklar, giyohvand va psixoaktiv moddalarni iste'mol qilib ko'rishga moyillik paydo bo'la boshlaydi. Ular o'zlarini mustaqil fikri yo'qligi va ongning zaxarlanishi natijasida ham xulqi buziladi, jamiyatda yaqinlari orasida ajralib nafrat, noroziliklarni kpaytiradi. DOIMIY TANQID- bu yana bir sabab, bolalikdan doimiy ayblanish va tanqid qilinish. O'ziga bo'lgan atrofdagilarga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, o'zini yakkalashi oila tengdoshlari to'g'risidagi salbiy hislarning yuzaga kelishi. Boshqalar tomonidan ham bolani tushunmaslik, uning fikri bilan qiziqmaslik, o'zini keraksiz

buyumdek his qilishi, mehr bermaslik o'ziga bo'lgan shubhalarni va salbiy o'ylarni keltirib chiqaradi. SHu sabab bolaning rivojlanishida har bir davrida uchraydigan inqiroz yoshidagi holatlarga katta ahamiyat va e'tibor berish lozim. Bolaning har toq ya'ni 3,9,11,13,15 yoshida, inqiroz holati bo'ladi faqat bu hammada turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Bunda bolani haddan ortiq nazorat, qo'pol muommala ko'rsatmasdan aksincha murosa va do'stona muloqat va munosabat o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda albatta kompleks ish foyda beradi chunk bu holat 26-32kungacha davom etib, o'tib ketadi faqat ruhiy holatda travmatik ko'rinishida qolmasa bas. Ota-ona-o'qituvchi-psixolog kerak bo'lsa tor doiradagi mutaxassislar bilan ham maslahatlashib ish olib borilsa maqsadga muvofiqdir. Bolaga bu tashxisni mutaxassis qo'ya oladi. Ota-ona ham ustozlar ham emas aynan bu xatti-harakatlarni tushuna oladigan, diagnostika qila oladigan mutaxassis qo'ya oladi. Bolaga bu "nomni" to'g'ridan-to'g'ri qo'yish bolaning holatini yanada salbiy tomonga o'zgartirishi mumkin. Har bir rivojlanayotgan individ "SHAXS" bo'lib rivojlanar ekan, uning ijobiy ruhiyatida o'sishini, holatlarini, fikrlarini, qobiliyatlari hatto kamchiliklarini ham e'tiborga olish kerak. Har bir bola individual xususiyatga ega. Bolani to'g'ri yo'naltirish, qobiliyati va qiziqishlarini doimo rag'batlantirib, rivojlantirilib borilsa , bola o'zidagi imkoniyat va layoqatlarini shakllantirib qobiliyatga aylantiradi. Bunda albatta oilaning qo'llab-quvvatlashi va ma'naviy,ruhiy tomonidan motivatsiya berilsa,maktabda ham o'z o'rne va mavkeyga ega bo'ladi. Balki shunda turli salbiy oqibatlar va og'irshlarni oldini olgan bo'lar edikmi?

Zero qadimdan ma'lumki,sog'lom inson,sog'lom fikr,hulq-atvor oilada shakllantirilib,maktabda rivojlantiriladi va yosh insonning kelajak hayotida mustahkamlanadi. Natijada unda erkin kasb tanlash va tanlagan kasbi bo'yicha halol mehnat qilish, o'z vaqtini qiziqarli tashkil qilish va faol dam olish, nihoyatda o'ziga o'zgalarga va jamiyatga foydali bo'lish ko'nikmalarini shakllantiradi. Oila- tarbiya o'chog'i. Oilaning –ko'zgusi farzand! Jmiyatimizning tayanch poydevorlaridir!

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDAGI UYATCHAN VA YIG'LOQI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR**

*Talipova Umida Mamajanovna*

*Shayxontohur tumani XTB Bolalarni ijtimoiy psixologik  
qo'llab-quvvatlash markazi psixolog-metodisti*

Nima uchun uyatchanlik paydo bo'ladi?

Uyatchanlik odatda besh yoshdan etti yoshgacha ikki xil ko'rinishda paydo bo'lishi mumkin. Birinchidan, bu har doim juda yoshligidan bo'lgan bolalarda paydo bo'lishi mumkin.

Ikkinchisi, har qanday sabablarga ko'ra ilgari "normallashtirilgan" xatti-harakatni ko'rsatgan bola uni o'zgartirishni boshlaydi, shunda u endi tortinib, uyatchan xatti-harakatlarni namoyish etadi.

Taxminlarga ko'ra, odamlarning 20% dan 48% gacha uyatchanligi bor, chunki bolalar uyatchanlikka moyil bo'lib tug'iladi, ammo bu tendentsiyani o'zgartirish yoki mustahkamlashda atrof-muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuning uchun, irsiy tarkibiy qism mavjud, ammo bizning yashash tarzimiz asosan biz yoshligimizdan qabul qiladigan turtki turlarining natijasidir.

Uyatchan bolalarga ko'proq do'stona va ochiq bo'lishga yordam berish muhimdir, chunki ularning ijtimoiy munosabatlarida va hayotlarining boshqa jihatlarida muammolar bo'lishi mumkin. Ko'pgina hollarda uyatchanlik genetik kelib chiqishi bo'lishi mumkin, ammo tashqi ko'rinishiga genetik kelib chiqishidan farqli ravishda biz boshqaradigan tashqi kelib chiqish omillari ham ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu bolalar odatda har qanday xatti-harakatlarida muammolarga duch kelmasliklari sababli, ular uyda ham, maktabda ham beparvo qolishlari mumkin. Biroq, ba'zi hollarda siz tashvish, ishonchsizlik va qo'rquv hissiyotlarini namoyon qilishingiz mumkin.

Nima uchun 1-sinfga kelgan o'quvchilardan ayrimlari juda uyatchan va yig'loqi bo'ladi? Ayniqsa 1-sinf o'qituvchilari shu jarayonda qiynalishadi, muammolarga duch kelishadi.

Yig'loqilik o'zi nima?

Birinchi – bu ayrim bola shaxsiyatidagi juda keng tarqalgan va ko'p qirrali hususiyatdir. Yig'loqi deganda odamovilik, ishonchsizlik, jur'atsizlik, sezgirlik, uyalish holatlari sifatida tushuniladi.

Yig'loqilik – bu turli shakllarda nomoyon bo'luvchi bir so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan qo'rquv hissidir. Yig'loqilikning fiziologik belgilari – yurak urishi tez bo'ladi, qorinda esa bo'shlik hissi paydo bo'ladi, terlash holati, o'ziga hos fizik simptomi – berkitib bo'lmaydigan yuz qismining qizarishidir.

Ikkinchi – yig'loqilikdan darak beruvchi tashqi xulq-atvor:

- bolalardan qochis hissi;
- ovozini o'ta yumshoq bo'lishi;
- suhbatlarga qo'shilmasligi;
- odamoviligi;

Bu o'quvchilar tabiat to'g'risidagi nato'g'ri munosabatga ega. Bu holatlarning barchasi, ayniqsa, o'quvchi to'g'ridan-to'g'ri uyidan maktabga kelganligi, yoki maktabgacha ta'lim muassasasiga bormaganligi, oilasida yolg'iz farzand bo'lsa, moddiy kelishmovchilik sababli dalalarda, shiyponlarda yashaydigan oilalarning farzandlariga hos xususiyatdir, bugungi kunda mana shunday ayanchli holatlarga ko'z yumib bo'lmaydi. Hozirda maktablarda kam ta'minlangan oilalarining farzandlarining 70 %i so'ngi kuzatuv va tahlillarga ko'ra huddi mana shu holat o'quv jarayonida aks etmoqda.

Uyatchan va yig'loqi bolalar bilan quyidagi korreksion ishlar amalgam oshirish mumkin:

1. sababi aniqlandi, sabablarlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- muomila uquvining yo'qligi;
- bolaning oila a'zolari bilan munosabatlarining uyg'unlashmaganligi;
- o'quvchining ba'zi – bir hususiyatlari muomilaga to'siq bo'layotganligi (jismoniy nuqsoni, talaffuzi va nutqidagi kamchiliklar va hakoza);



- bolaning o'ziga o'zi to'g'ri baho bera olmayotganligi;

Yig'loqi va uyatchan bola bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy maqsadi o'quvchining tengdoshlari va kattalar bilan to'laqonli muloqatga kirishishni ta'minlashdan iborat. Yig'loqi bola yopiq xonaga o'xshaydi faqat birinchi kichik oynasi ochiq halos. Korreksiyada bu imkoniyatda foydalanib qolish kerak. Bunda maktab psixologlari, sinf rahbarlar, ota-onalar va shifokorlar bilan birgalikda bolani yaxshi tomonga o'zgarishiga yo'l qo'yishi kerak. Korreksianing bu prinsiplari (Uyatchan va yig'loqi bolalarning korreksiyash prinsiplari bir birlariga chambarchas bo'g'liqdir).

Korreksiyaning prinsiplari quyidagilar:

- Bu holatga olib keluvchi sabablarni aniqlash;
- bolada ota-onasi, o'rtoqlari bilan muloqatga ehtiyoj uyg'otish;
- bolani oila, maktab va o'rtoqlari bilan muloqatda bo'lishini ta'minlash;
- bolani muloqatchanlikka o'rgatish;

Yig'loqi bolani korreksiya qilish juda ham nozik ish bo'lib psixologlar o'ta ehtiyotkor bolishi kerak. Uyatchan va yig'loqi bolani diognostika qilish quyidagicha bo'ladi:

- psixolog bola bilan uchrashuvda unga to'g'ridan to'g'ri savol bermaslik (Sening isming nima, ko'ziga tik qaramaslik, qo'pollik qilmaslik, keragidan ortiq savollar berib qo'rqitib yubormaslik).

- muloqatda bolaning tempramentida qiziqishlarida va harakteridan kelib chiqqan holda ish olib borish;

- bolani kuzatib turib o'zlashtiriladigan darslar sirdan tekshirib va kuzatib boriladi, psixolog faqatgina bolaning yaxshi ko'rgan o'yini o'rqli va treninglar yordamida yoqimli ta'surot qoldirishi munkun;

- keyinchalik ijobiy natijalarga erishilsa bolaning o'quvchilar bilan munosabatlarini kengaytirib borish munkun;

- bu ishlarning samarasi sifatida o'quvchida muloqatga kirish ehtiyoji tug'uladi va o'zining ishlaridan qoniqish hislari hosil bo'ladi;

- yig'loqi va uyatchan boshlang'ich sinf o'quvchilarini muloqatga kirishish jarayoni asta sekin murakkablashadi;

- tadbirlar jarayonida psixolog trening va mashg'ulotlarga yangi elementlarni kiritishga juda ham ehtiyotkorona bo'lishi kerak;

- o'quvchining affektiv muloqatgan kiritishni qattiy nazoratga olishi kerak, bu holning davomiyligi u ijobiy bo'lsa ham o'quvchining kattalarga bo'lgan muloqatga kirishish ehtiyojini yo'q qilib yuborishi munkun;

- o'quvchi bilan hamma o'ta ehtiyotkor bo'lishi kerak, bunday paytda o'quvchilar bilan nizoga kirishni oldini olish kerak;

- psixologning asosiy vazifasi yig'loqi va uyatchan bola bilan faqat suhbatlashish emas balki sinfdoshlari bilan normal muloqatga kirishni ta'minlashdir.

Yig'loqi va uyatchan bolaning ota onasi bilan olib boriladigan ishlar.

Bunday o'quvchilarning ota-onasi bilan ishlaganda psixokorreksiya ishlarini olib borish juda ham qiyin eng avvalo, ularning fikri nato'g'ri bo'lsa ham ota-ona bilan chin dildan suhbatlashish kerak va ularning fikrlarini bilish zarur. Ota-ona va bolaning o'zaro hamkorlikdan asosiy maqsad farzandlarining harakatlarini tushunish va ko'proq muloqatda bo'lishidir. Bu jarayonda maktab psixoligi ko'proq induvidual yondashadi. Psixolog olgan test va so'rovnoma natijalarini ota-onalari bilan ham fikrlashib, har bir ota-onadan test va so'rovnoma olish kerak. Ota onalarga bola bilan ishlashda pedagogik-psixologik bilimlardan xabardor qilishi oilada yangi streslarni oldini olish va salbiy ta'sir ko'rsatmaslik. Har qanday ota-ona bolani har qanday streslardan himoya qilishi kerak bola tarbiyasida "salbiy" uslublar orasi 3 ta asosiy tavsiyanomani berish munkun:

- bolani o'zidan itarish ( oiladagi haqiqiy holatni, masalan oiladagi janjallar, nizo, qaynona va kelin o'rtasidagi kelishmovchilik va oiladagi moddiy yetishmovchilik kabilarni oshkora nomoyish etmaslik);

- o'quvchiga haddan tashqari talabchan munosabatda bo'lmaslik (doimiy tanqid, jismoniy jazolash);

- kuchli mexribonlik (haddan tashqari g'amxo'rlik) bu esa bola mustaqil harakat qilish imkonidan judo qilishdir;

Pandemiya sharoitida agar ota-onalar ham o'qituvchi, psixolog, hamshira va shifokorlar yagona reja va tavsiyanoma asosida ishlamasa hunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ko'p yillik ish tajribam shuni ko'rsatadiki yig'loqi va uyatchan o'quvchilar bilan ishlashda maktab logopedlari bilan ham birgalikda ishlash maqsadga muvofiqdir. Bugungi sharoitda men ham psixolog va defektolog sifatida quyidagi kompleks metodlarini tavsiya etaman;

1. mayday qo'l matorikasini tizimli rivojlantirish va muhtaxkamlash ishlari;
  - ovoz va nutq bilan tizimli bog'langan harakatlar;
  - kaptok bilan o'yinlar;
  - bolaning tafakkurini rivojlantiradigan mashqlar;
2. Logopedik massaj:
  - nafas mashqlari;
  - Artikulyatsion mashqlar;
  - Izotnik mashqlar;
3. logopedik mashqlar va o'yinlar;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumanazarov Y. Yosh davrlar psixologiyasi. Namangan 2013 y.
2. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005.
3. Raxmatullaev M. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.– 2001.
4. Karimova V.M Akramova F.A. “Psixologiya” (21-27b).
5. “Maktab va hayot” jurnali ( 2015 . 23-b).
6. Sh. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz” (480-b).
7. E.G'oziyev “Yosh va pedagog psixologiyasi”
8. M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi.

## TARBIYA JARAYONIDA SHAXSLARO MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI

*Yulchiboyeva Nazokat Iqboljon qizi*  
*O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi*  
*psixologiya (din psixologiyasi) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya jarayonida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolar, ularning ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar gavdalangan. Qolaversa, tarbiya jarayonida ijtimoiy muhitning o‘rni, shaxslararo munosabatlarga kirishishda to‘g‘ri berilgan tarbiyaning ahamiyati aks ettirilgan

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya, ta’lim, ijtimoiy muhit, shaxs , bola,shaxslararo munosabat.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta’lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o‘rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, ma’rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An’anaviy sharqona qarashga ko‘ra, ma’rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma’naviyat va go‘zal axloq degani hamdir.

Ta’lim jarayonining markazida shaxsning bilish va anglash jarayoni, uning qobiliyati, ilm o‘rganishi yotsa, undan farqli o‘laroq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga, uning dunyoqarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya — bu alohida jarayon emas, balki o‘qitishning bir tomoni bo‘lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga egadir. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko‘nikma olish mexanizmining o‘ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi, ijtimoiy xulq-atvori va shakllari nazarda tutilsa, o‘qitishda bilim, ko‘nikma va malakalar inobatga olinadi. Tarbiya jarayonida doimiy va o‘zgarmas maqsad qo‘yilmaydi, chunki o‘zgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos bo‘lavermaydi. Jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar o‘zgarishi bilan tarbiya maqsadi o‘zgaradi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar uchun xos bo‘lgan ba’zi bir

umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik g‘oyalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va ma’lum bir davomiylik mavjud. Jumladan, asrlar davomida dars maktabda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning asosiy shakli bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qolmoqda. Qator o‘quv predmetlari mazmuni ma’lum darajada saqlanib qolayapti.[1,497-b]

Konfutsiy: «Eskini o‘zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi», — degan edi. Konfutsiyning ushbu iborasi ham yuqoridagi fikrni yaqqol isboti bo‘la oladi ya’ni tarbiyada ma’lum bir andoza mavjud emas. Qaysidir mamlakatda tarbiyasizlik bo‘lgan odat qaysidir mamlakatning ramziy odati bo‘lishi mumkin. Qaysidir zamonlarda eng chiroyli hisoblangan kiyinish uslubi qaysidir zamonlarga kelib tarbiyasizlik bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham tarbiyada ma’lum bir tizim ishlab chiqish o‘zini oqlamasligi mumkin. Lekin shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va tartibga solishda psixologik jihatdan tarbiya jarayonini ma’lum bir mexanizmini ishlab chiqish mumkin.

“O‘qimishli bo‘lish miyani bilimga to‘ldirib tashlash yoki ko‘p bilish degani emas. Bu – nimani bilishing va nimani bilmasligingni ajrata olish degani.[2, 147-b] Xuddi shu kabi tarbiyada ham me’yor bo‘lishi kerak. Ko‘plab ota -onalar va o‘qituvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolardan biri ham shunda. Ota-ona farzandidan keragidan ortiq intizom, keragidan ortiq bilimli bo‘lishni talab qiladi. Unga nisbatan o‘ta qattiqo‘l bo‘ladi va cheklovlar qo‘yadi. Bu esa o‘z navbatida bolada mustaqil fikrlay olmaslik, o‘z fikrlarini bayon eta olmaslik holatlarni keltirib chiqaradi. Shaxslararo munosabatlarga kirishishda ham turli qiyinchiliklarga uchraydi. Bu kabi muammolarga uchragan bola yana ota-onasidan dakki eshitadi. Aslida xato ularning o‘zida ekanligi bilmaydi. Tarbiyada ham, ta’limda ham, ko‘ngilochar o‘yinlarda ham meyor bo‘lishi kerak. Bolaga katta odamning kichraytirilgan varinati deb qaramaslik uning qiziqishlari bilan ham hisoblashish kerak.

Ota-onalarning yana bir xatosi farzandini ko‘p kitob o‘qisin deb ko‘cha o‘yinlaridan butunlay mahrum qiladi. Oqibatda bolada odamovilikni shakllantirib qo‘yadi.Uyida o‘tirib faqat kitob o‘qigan boladan ko‘ra, kerak paytda kitob o‘qib kerak paytda ko‘cha changitib bolalar bilan o‘ynagan bolada ham fikrlash ham so‘z boyligi

yuqori bo‘ladi. Shaxslaro munosabatlarda ham kirishimli bo‘ladi. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir. “Bir bolaga yeti mahalla ota-ona ” degan maqol ham bekorga aytilmagan. Deylik , bitta mahallada inson shaxsining tarkib topishiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi yuzta o‘ziga xos ijtimoiy muhit bor. Ularning har biri yashash tarzi , odob-ahloqi, o‘zini tutishi bilan bir-biridan farq qiladi. Xohlaydimi yo‘qmi ularning har biri o‘zaro shaxslararo munosabatlarga kirishadi. O‘z navbatida bolalar bir-birlari bilan o‘ynaydi va bir-birlaridan turli xil odatlarni o‘zlashtirib oladi. Shu o‘rinda savol tug‘uladi, nima sabali ijtimoiy muhitning ta’siri bolaga unga beriladigan tarbiya yoki ta’limdan ko‘ra tezroq ta’sir ko‘rsatadi?

Birinchi, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta’sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkinchi, tashqi ijtimoiy muhit ta’sirining chuqurroq va mustahkamroq bo‘lishiga odamning o‘zi yordam beradi. Ma’lumki, bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra, ilk bolalik chog‘laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo‘ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti-harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o‘zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, ko‘cha-ko‘yda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o‘zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.[3,504-b]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham davr talabiga munosib bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash muammosi hamisha dolzarb ahamiyatga molik bo‘lib kelgan. Bolani shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda tarbiyalanganlikni oshirish uchun nimalarga ko‘proq e’tibor qaratishimiz lozim ?

1. Ta’lim-tarbiya deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya’ni bog‘cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta’lim-tarbiya tushuniladi. Biroq, bundan oilada bolaga beriladigan ta’lim-tarbiya mutlaqo mustasno emas. Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari, oilada beriladigan ta’lim-tarbiyaning ham

roli kattadir. Oilada ota-ona tomonidan berilgan tarbiyaning shaxslararo munosabatlarga ta'siri ham katta hisoblanadi.

2. Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf-odatlarining roli katta. Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

3. Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlamaganda, bola o'z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

4. Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni, tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bola nisbatan beriladigan mehrning me'yorida ortib ketishi yoki me'yorida kamayib ketishi Bolani egoist va qahr- qattiq bo'lib ulg'ayishiga sabab bo'ladi. Shu sababli ham bolani yaxshi ko'rishda me'yorga rioya qilish muhim hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. –T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”

2. Sattorov Sh. Sh. Biz g'alaba qozonamiz. -T.: “Bilim va intellectual salohiyat”

3. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. –T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”



## MAKTABGACHA TA'LIMDA PSIXOLINGVISTIKA ATAMASI

*Mirkasimova Zilola Alisherovna*

*MTTDMQTMOI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar, hususan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi psixolingvistika sohasi haqida so'z yuritiladi. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari va ularning bilish ko'nikmalariga bo'lgan ta'siri yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, psixolingvistika, idrok, nutq, bilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ona tili nutqini o'zlashtirishdagi asosiy nutq qobiliyatlaridan biri bu eshitilgan ma'lumotlarni idrok etish va tushunish qobiliyatidir. Tushunish nafaqat bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda, balki, ularning ongi va ongining ishlashini ta'minlaydigan eng muhim omil sifatida nutqni shakllantirishda asosiy vazifani bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlanishi kognitiv faoliyatning asosiy jihatlaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishidagi tushunish jarayonining katta ahamiyati va uning bolalar ta'lim psixologiyasi va rivojlanish psixolingvistikasida yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi va shu bilan birga maktabgacha lingvodidaktikada rivojlanish metodologiyasining to'liq rivojlanmaganligini hisobga olgan holda ushbu sohada mavjud yondashuvlarni tahlil qilsak.

"Psixolingvistika" fani endilikda "mustaqil fan sifatida o'zini tobora aniqroq anglab yetmoqda", garchi u o'rganayotgan muammolar doirasini tushunishda birdamlikka erishilmagan bo'lsada. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Bungungi kunda "Psixolingvistika" atamasi bilan bir qatorda "lingvopsixologiya" (I.A. Zimnyaya) va "nutq psixologiyasi" (T.N. Ushakova)

ishlatiladi. A. A. Leontev nutqni ishlab chiqarish va nutqni idrok etish jarayonlarining tuzilishini psixolingvistikaning predmeti sifatida ularni tilning (har qanday yoki ma'lum bir milliy) tuzilishi bilan bog'liqligini ko'radi.

Shu sababli, olimning fikricha, psixolingvistika har qanday tilshunos, jumladan, chet tili o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Hozirda psixolingvistikaning chegaralari va maqsadlari haqida bir qator tushunchalar mavjud: K.F.Sedovning fikricha psixolingvistikaning ob'ekti lingvistik shaxs (ya'ni nutqni yaratish va tushunish qobiliyatidagi shaxs), sub'ekti esa individual psixologik jihatdan ko'rib chiqiladigan kommunikativ kompetentsiya hisoblanadi. Psixologiya fani rivojlanishining hozirgi bosqichida tushunish jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan matnni semantik idrok etish faoliyati asosini tashkil etuvchi mexanizmlarni o'rganishga psixolingvistik yondashuv masalasi faol ko'tarilmoqda. (LV Zasekina, LA Kalmykova, T.N. Ushakova, S.N. Zeytlin va boshqalar).

Birinchi marta E.G.Bieva matnni semantik yaxlitlik sifatida tushunish muammosini hal qilishga psixolingvistika nuqtai nazaridan yondashishga harakat qildi.

Uning tadqiqot predmeti 3-7 yoshdagi bolalarning matn mazmunini umumiy til va kognitiv rivojlanish kontekstida tushunish faoliyatini o'rganish edi. Olim matnni tushunish ontogenezda nutqiy fikrlash faoliyatining alohida turi sifatida rivojlanishini isbotladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni matnlarni tushunishga o'rgatish ularning nutqini, shuningdek, tegishli kognitiv, hissiy va boshqa ko'nikmalar va qobiliyatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning ma'nosini shakllantirish uchun nutq motivatsiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu bolaning matnni tushunish va tushunishga tayyorligini aniqlaydi va shu bilan kommunikativ harakatni ta'minlaydi.

Bolaning nutq bayonotini idrok etish va tushunishga tayyorligi uning hissiy holatiga, diqqatni jamlagan tinglash uchun dastlabki sharoitga, nutq aloqasi ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Zimnyaya I. A. Lingvopsihologiya rechevoy deyatelnosti/–M.: Moskovskiy psixologo-sotsialniy institut, Voronej: NPO “MODEK”,2001.
2. Sedov K.F. Umumiy psixolingvistika:- M .: Labirint, 2004.
3. Leontiev A.A. Umumiy va pedagogik psixologiyada til va nutq faoliyati: Tanlangan psixologik asarlar. - M .: Moskva psixologik va ijtimoiy instituti nashriyoti; Voronej: "MODEK" , 2018.
4. Bieva E.G. Faktoril., vliyayushiye na ponimanie tekstov: dis. kand. fil. –M., 1984.-186s.

---

## ЖАМИЯТДА АЁЛЛАРНИНГ ТУРЛИ ОҚИМЛАРГА КИРИБ ҚОЛИШИ САБАБЛАРИ

*Рузибоев Темур,  
Абдулхаев Абдулхақ  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси,  
1-курс магистрантлари*

Бугунги кун кишилиқ жамиятининг ривожланиши кўп асрлик миллий анъаналар ва замонавий ижтимоий қарашлар таъсирида кечиб, унда гендер тенглик мавзуси доимий эътибор марказида бўлиб келган. Жамиятда эркак ва аёл мавқеининг ўзаро фарқли ва ўхшаш томонларини баҳолашда шу жамиятнинг аёл кишига бўлган қарашини тарихий жиҳатдан кўриб чиқиш зарур. Баъзи жамиятларда аёл кишининг мавқеи, унинг эркак билан тенглик ғоялари ҳамда унинг жамиятдаги аҳамиятига катта ўрин ажратилган бўлса, баъзи жамиятларда аёл кишининг роли кўпроқ маиший жиҳатдан чекланган ва кўпроқ оила муҳити билан боғланган бўлади.

Диний мутаассиблик ва унинг гендер хусусиятлари тўғрисида фикр юритилганда, шунингдек жазони ижро этиш муассасаларида бўлган, бу тоифага кирувчи аёлларнинг ресоциализацияси хақида алоҳида тўхталиш лозим. Чунки

аёл кишининг ижтимоий ҳаётда кўпроқ атрофдагиларга боғлиқлиги, уларнинг моддий ва маънавий қўллаб-қувватлашларига муҳтожлик даражаси юқори эканлигини ҳисобга олиб, уларни жамиятга қайтаришда ҳам мазкур омилларни ҳисобга олиш муҳим саналади. Шу туфайли ҳам, аёлларнинг зўравон экстремизмга жалб этилишига имкон яратган сабабларни ўрганиш, муҳокама қилиш масаласи алоҳида, кенг қамровли ҳамда индивидуал ёндашувни талаб қилмоқда. Бу тоифадаги аёлларни жамиятга қайтариш (ресоциализация) усулларини танлашда келгусидаги таҳдидлар хавфини ҳам эътиборга олиш ўта муҳим.

Аёлларни турли бузғунчи оқимларга жалб этишда жамиятдаги аёлнинг ролини нотўғри талқин этиш ва унинг итоаткор ҳамда пассив ижрочи ролида кўриш, психологик ожизлигидан фойдаланишда кўринмоқда. “Бу хусусиятлар миллий менталитет билан уйғунликда, психотроп ва гиёҳвандлик моддаларидан фойдаланиб, “зомбилаштириш, манқуртлаштириш” унсурларини бирлаштирган ҳолда профессионал психологик таъсир кўрсатиш воситасида қўлланганда аниқ натижалар бермоқда. Пойтахтимизда 2004 йил март ойи охири ва апрель ойи бошларидаги содир этилган террорчилик ҳаракатларида етти нафар аёлдан фойдаланилганлиги бунинг исботидир<sup>51</sup>.

Афсуски, бугунги кунгача Марказий Осиё республикаларида ресоциализация масалаларида гендер жиҳатларни ҳисобга олган (гендер хусусиятларга эътибор қаратган) тизим мавжуд эмас. Бу ўз-ўзидан диний мутаассиб аёлларнинг расоциализацияси муаммоларини ўрганишда қийинчиликларни келтириб чиқаради. Бу реабилитация (лотинча “rehabilitatio” – “қайта тиклаш”) жараёнида аёлларга кўрсатиладиган психологик ёрдамнинг индивидуаллик тамойилига эътибор қаратиш лозим. психолог З.Расуловага кўра, реабилитация – бу уч йўналишнинг энг оғир босқичи бўлиб, аксарият давлатларда ҳалигача бу

<sup>51</sup> Ғ.Б. Шоумаров, У.Д. Қодиров. Диннинг шахсга психологик таъсири. Ўзбекистонда дин психологиясининг илмий-назарий ва амалий масалалари / Илмий тўплам. Тошкент, 2019. Б-6.

босқичдаги фаолиятга етиб келингани йўқ. Чунки бу босқичда асосий қонидани ҳисобга олмайдилар: тобелик бошқа бир тобелик билан алмаштирилиши керак<sup>52</sup>.

Ресоциализация жараёнида аёлларнинг мутаасиб гуруҳлар даврасига жалб этилиш сабабларига эътибор қаратиш лозим. Мазкур сабабларни қуйидагича таснифлаш мумкин:

**Ижтимоий ва моддий қарамлик белгиларига кўра жалб этилувчи аёллар.** Аёлларнинг жамиятга боғлиқлик даражаси унинг ижтимоий ва моддий қарамлиги билан изоҳланиши мумкин. Аёлнинг турли экстремистик гуруҳлар таъсиридан чиқаришда ҳам бу омилни ҳисобга олиш зарур.

Ёшларни ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан мустақил фикрга эга бўлиши, маънавий жиҳатдан етук тарбияси бу каби салбий оқибатларни олдини олади. Оилага, умуман олганда ижтимоий муносабатларга тайёр бўлмаган ёшларни эрта турмуш қуришини олдини олиш, таълим тизимида аёл ва эркекларнинг тенглигини таъминлаш, жамият ҳаётида аёл-қизларнинг аҳамиятини оширишга қаратилган бир қатор ислоҳотлар ҳам мамлакатимиз ривожланишига хизмат қилади. Бу ҳақида Президентимиз Ш.М.Мирзиёев “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”<sup>53</sup> – деб таъкидлагани ҳам бежиз эмас.

**Оила қуриш истагига асосан жалб этилувчи аёллар.** Кузатувчиларнинг фикрига кўра, бу гуруҳга хос мотивация қуйидагилардан иборат:

- тезроқ турмушга чиқиш истаги;
- жинсий муносабатларни оқлаш ва қонунийлаштиришга уриниш.

Шунингдек, бугунги кунда интернет тармоғида оила қуриш истагидагиларнинг танишув сайтлари кўпайиб бораётганлиши, улар орасида маълумот алмашинуви имкониятлари ошиши, ахборотнинг оқими жадаллашиши

<sup>52</sup> З.А.Расулова. Диний мутаассиб оқим ва секталарга кириб қолган шахсларга психологик ёрдам кўрсатиш механизмлари. Ўзбекистонда дин психологиясининг илмий-назарий ва амалий масалалари / Илмий тўплам. Тошкент, 2019. Б-253.

<sup>53</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент, 2016.

ҳам ҳали ҳаёт ҳақидаги тасаввурлари ривожланмаган, тажрибасиз ёшларни виртуал оламда ўз “жуфтларини” топишларига ва бу орқали ўзлари англамаган ҳолда турли ғаразли оқимларга қўшилиб қолаётганларини таъкидлаш керак. Кузатишларда интернет ёки телефон орқали ҳам оила қуриш – никоҳ ўқитиш ҳолатлари ҳам учратиш мумкин.

### **Шахсининг ўзига хос психологик жиҳатларига кўра жалб этилган аёллар.**

Шахсининг ижтимоий муносабаларга мухтожлиги, унинг бошқаларга бўлган ғамхўрлик ҳиссининг ҳаддан зиёд ортиб кетиши туфайли ҳамда кўпинча узок муддатга озодликдан махрум қилинганлар ачиниш ҳисси ўз шахсий дунёқараши, фикрига эга бўлмаган аёлларнинг турли мутаассиб оқимлар ва террорчи ташкилотларга аъзо бўлишига сабаб бўлмоқда. Бунда ўз “мен”ига эга бўлмаган аёлларнинг ҳатто экстремистик оқим вакили бўлган маҳкумларга турмушга чиқиши ва қамоқхона билан доимий алоқаларни таъминловчи восита бўлиб хизмат қилиши ҳоллари ҳам кузатилмоқда. Баъзида улар турли аудио ва видео материалларни фаол тарқатувчилари ҳам бўладилар.

Альтруистик инстинкт соҳибалари ҳеч кимга “йўқ” деб айтолмайди. Агарда гап бегуноҳ болалар, жабрдийда аёллар ҳаётини қутқариш ва бошқа шу кабилар ҳақида бўлса, у ўзи ҳам англамаган ҳолда, террористик гуруҳларнинг радикал позициясини қўллаб-қувватлаши мумкин. Бу гуруҳга мансуб аёллар ўз “мен”ининг йўқлиги сабабли экстремистик гуруҳнинг радикал ғояларидан ҳимоялана олмайди ва бу орқали уларнинг талабларига мослашади.

### **Оилавий муносабатлардаги бузилишлар туфайли жалб этилган аёллар.**

Бу тоифа вакиллари ресоциализациясини ташкил этишда алоҳида этибор қаратиш зарур. уларда танлаш ҳуқуқи бўлмаган. Улар учун ҳамма нарсани эркак киши (отаси ёки эри) ҳал этган бўлиб, оилада аёлларнинг роли пастлиги ва эркакка итоаткорлик нормасининг меъёрдан ортиқлиги ва ўта мутлақлаштирилганлиги ортидан аёлларнинг зўравон экстремизмга жалб этилиши ҳолатлари кўп учрамоқда. Бу тоифадаги аёллар учун эркак – “доимий ҳимоячи”, “ҳеч қачон адашмайдиган шахс”, “мутлақ ҳукмрон”, “тўғри йўлга бошловчи” сифатида кўрилади. Шунингдек, турмушни бузиш ва ажримдан кейин

жамиятнинг аёлга бўладиган негатив қарашидан кўрқиш туфайли ўз оиласини сақлашга ва эрнинг талабларига кўникишга мажбурлик ҳам катта рол ўйнайди.

**Йўлбошчиликка (етакчиликка) ва ҳокимиятга интилиш хисси ортидан жалб этилувчи аёллар.** Радикал оқимларга кўшилган аёлларнинг бу тури оқимнинг мақсадини аввалдан билган ва ўз ҳоҳиши билан кўшилганлардир. Улар фаол етакчилар бўлиб, Сурия ва Ироқ каби мамлакатларга “хижрат учун” одам ёлловчилар бўлиб хизмат қиладилар.

Экстремистик оқимларнинг гендер тенгликка йўналтирилган тарғиботи туфайли ўзи яшаб турган жамиятда ўз ўрнини топа олмаётган аёллар ташкилотнинг юқори мартабаларига эришиш ва шу орқали ўзларини намоён этишга интиладилар. Шунингдек, ўзларини молиявий жиҳатдан мустақилликларини таъминлаш учун ҳам экстремистик оқимлар томонидан ваъда қилинадиган катта молиявий маблағларни ҳам мақсад қиладилар. Бу гуруҳга кирган аёлларнинг кўпчилиги олий маълумот олган, бир нечта хорижий тилларни биладиганлар ҳисобланади. Сиёсий янгиликларни доимий кузатиб боровчи ҳамдаўз фикрини осон етказиб бера оладиган тарғиботчилар диний масалаларда ўз фикрларини ҳимоя қила оладилар ва бошқаларга ҳам осон сингдирадилар. Уларда суҳбатдошни осонгина чалғитиш кўникмалари ҳам яхши ривожланган бўлиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, аёлларни қайта ижтимоийлашув жараёнида уларнинг қайси омиллар асосида бундай оқимларга қайдай сабабларга кўра кириб қолганлигига эътибор қаратиш лозим. Уларнинг бу омиллар асосида таснифлаш орқали реабилитация доирасида психологик хизмат жараёнини самарали олиб бориш мумкин. Ресоциализацияда аёлларнинг оилавий муносабатларидаги ролини тиклаш, таълим олишларига имконият яратиш, касб-хунарга йўналтириш вазифалари ҳам шундай омилларга асосланиши муҳим аҳамиятга эга.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М., Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент, 2016.



2. Шоумаров Ғ.Б., Қодиров У.Д. Диннинг шахсга психологик таъсири. Ўзбекистонда дин психологиясининг илмий-назарий ва амалий масалалари / Илмий тўплам. Тошкент, 2019.

3. Расулова З.А., Диний мутаассиб оқим ва секталарга кириб қолган шахсларга психологик ёрдам кўрсатиш механизмлари. Ўзбекистонда дин психологиясининг илмий-назарий ва амалий масалалари / Илмий тўплам. Тошкент, 2019.

## ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ДИНИЙ ЭЪТИҚОДНИНГ РОЛИ

*Исаева Муштарий Алишер қизи  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
Дин психологияси ва педагогика  
кафедраси ўқитувчиси*

Диннинг моҳияти турлича изоҳланса-да, унинг асосида ишонч, эътиқод туйғуси ётади. Дарҳақиқат, дин ишонмоқ туйғусидир. Ишонмоқ туйғуси инсониятнинг энг теран ва руҳий-маънавий эҳтиёжларидандир.[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғатида **дин** – эътиқод, ишонч маъносида келиб, Илоҳий кучга, Худога ишонишга асосланган дунёқараш, тасаввур, урф-одат ва маросимлар мажмуини билдиради.[2]

Психологик нуқтаи назардан таҳлил қиладиган бўлсак, дин инсон руҳиятининг намоён бўлишининг ўзига хос соҳаси бўлиб, ижтимоий гуруҳлар ва шахсларнинг ижтимоий онг (ижтимоий ҳаёт) шаклларида бири ҳисобланади. Инсонлар кўп ҳолатда динга маънавий ва психологик, мафкуравий бўшлиқни тўлдириш, ўзини шу йўналишда топиш ва ўзларининг кундалик муаммоларини мустақил равишда ҳал қила олмайдиган пайтларда мурожаат қиладилар. Диндорларнинг ўзлари динга бўлган илк мойилликларини “мўъжиза” билан, кутилмаган идрок ва маърифат билан, Худо билан мулоқот қилиш билан боғлашади.[3]

Агар **эътиқод** – шахс, гуруҳ ва оммани жипслаштирувчи, одамларни ижтимоий ҳаётнинг фаол аъзосига айлантирувчи омил бўлса, **диний эътиқод** илоҳий кучларга ишонувчи кучлар онгида бўлган диний тасаввурлар, образлар мажмуасидир. Диний эътиқод диний онгнинг асосий элементи сифатида диний ақидаларга, йўл-йўриқ ва кўрсатмаларга шак-шубҳасиз ишониш ҳамда уларга амал қилишдир. Демак, ҳар қандай диний онгнинг негизида диний эътиқод ётади.

Маълумки, **диний онг** – диндор кишилар онги бўлиб, диний ишонч-эътиқод мустаҳкамлигининг муҳим омилдир. Бироқ ҳар қандай эътиқод ҳам диний эътиқод бўлавермаслигини таъкидлаш жоиз. Зеро, диний иймон, эътиқод инсон психологиясида алоҳида барқарор ишончнинг мавжуд бўлишини тақозо этади. Ф.Абдурахмонов ва З.Абдурахмоновалар диний онг элементларига: диний психология; диний кечинма; диний ҳиссиёт; муҳаббат, кўрқинч, шодлик ҳамда диний мафкура; догматика; апологетика; диний нормаларларни киритади.[4]

Айтиш жоизки, онг даражасининг юқорилиги эътиқод ўртасидаги ирода ва ишончнинг тафаккур билан боғлиқ эҳтиёжмандлигини белгилайди. Бу эса оила, маҳалла, тарбия масканлари орқали ёшларга сингдирилади ҳамда уларнинг ўзаро уйғунлигини талаб этади. Шунингдек, жамиятимизнинг маънавий негизларини янада ривожлантириш, азалий миллий қадриятларни асраб-авайлаш ва мустаҳкамлаш, жамиятимизда юксак маънавий муҳитни кенг қарор топтириш, ўзбек миллий менталитетига мутлақо ёт бўлган ва кучайиб бораётган турли хил зарарли таъсирларга қарши туришда оиланинг ўрни ва аҳамиятини оширишни тақозо этади.

Демак, дин ижтимоий-сиёсий, маънавий-маданий соҳалар, миллатлараро муносабатлар билан бирга оилада ҳам муҳим роль ўйнайди. Зеро, дин одамлар ҳаёт тарзи, фикр ва хатти-ҳаракатларини санкциялаштиради, уларга олижаноблик бахш этади ёки гуноҳ сифатида қоралайди. Шу тариқа, дин оилага бевосита ўз таъсирини ўтказади.

Умуман олганда, инсон ҳаётининг том ва мукамал маъноси оилада мужассамланади. Жамиятимизда оила тушунчаси улуғланади ва эр-хотинликнинг муқаддаслиги ҳимоя қилинади. Хусусан, оилани мустаҳкамлаш ва

ривожлантириш, оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни яхшилаш, жамиятда энг ибратли оилавий анъаналарни сақлаб қолиш ҳамда тарғибот қилиш масалалари бугунги кунда энг долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Ўзбекларда оилавий муносабатлар исломий ва миллий қадриятларнинг чуқур тарихий илдизларига бориб тақалади. Ислом динида оилага катта эътибор берилиб, уни қандай ташкил қилиш, оила аъзоларининг ҳуқуқлари, фарзандлар тарбияси, оилада чиқадиган келишмовчиликларни муолажа қилиш, умуман оилавий ҳаётнинг барча масалаларига жавоб топиш мумкин. Ўз турмуш рафиқаси билан қандай муомала қилиш, ота-оналар ва фарзандлар билан қандай муносабат қилиш, оила аъзоларига нисбатан ҳурмат-эҳтиром зоҳир этиш каби оилавий турмушнинг ва эр-хотин муносабатларининг барча томонлари ислом динининг асосий манбалари ҳисобланган Қуръони карим, ҳадислар ва шаръий қонунларда ёритилган.

Аллоҳ таоло Қуръони каримда марҳамат қиладики: “Унинг аломатларидан (яна бири) – сизлар (нафсни қондириш жиҳатидан) таскин топишингиз учун ўзларингиздан жуфтлар яратгани ва ўртангизда иноқлик ва меҳрибонлик пайдо қилганидир. Албатта, бунда тафаккур қиладиган кишилар учун аломатлар бордир” (“Рум” сураси, 21-оят). Қуръони каримда оиладаги эр билан хотиннинг ўрни белгилаб берилган бўлиб, эркак кишининг масъулияти алоҳида қайд этилган. Яъни, эрнинг ўз хотини олдида ҳам ижтимоий, ҳам жисмоний, ҳам молиявий бурчи мавжуд. Қуръонда эрга оила бошлиғи сифатида муайян вазифалар юклатилган бўлиб, ислом дини ўз аёлларига нисбатан яхши муносабатда бўлган эркакларни инсонларнинг энг яхшилари қаторига қўшади. Умуман, Қуръондан эр-хотин ёхуд оилавий муносабатларга хос оятларни кўплаб келтириш мумкин.[5]

Ўзбек оилаларида ислом динининг ўрни катта экан, оила мустаҳкамлигини таъминлаш, баркамол инсонларни вояга етказишда нафақат диний қадриятларнинг роли, балки шахс диний йўналганлигининг ҳам аҳамияти каттадир.

Ислом манбаларида бола дунёга келмай туриб, унинг келажаги тўғрисида қайғуриш кераклиги ҳақида кўрсатмалар бор. Оиланинг зиммасидаги муқаддас бурчларнинг бири – улкан тарбия ўчоғи эканлиги шунда намоён бўлади. Оила ўз фарзандларини тарбиялаб, уларга умуминсоний қадриятларни сингдириш билан уларга бошланғич ижтимоий йўналиш беради. Ўз фарзандларини катта оқимга – жамиятга қўшиш билан эса оила жамият йўналиши, иқтисодиёти, маданияти ва маърифатини ҳам белгилашга ўз таъсирини кўрсатади.

Оила деганда кўз ўнгимизда эр-хотин ўртасидаги иттифоқ гавдаланади. Бу иттифоқ эса ўзаро ишонч, ҳурмат, меҳр-муҳаббат сингари инсоний ҳислатлар билан боғланган бўлсагина у мустаҳкам «қўрғонга» айланади. Жамиятимизда оила тушунчаси улуғланади ва эр-хотинликнинг муқаддаслиги ҳимоя қилинади.

Эр-хотинлик фақат қонуний никоҳ туфайлигина тан олинади. Бундан бошқаси ахлоқсизлик саналади. Бу табиий ҳол албатта. Чунки, қонун доирасида тузилган никоҳ орқалигина эр-хотинлар ўртасида ҳуқуқ ва мажбуриятлар пайдо бўлади.

*Дин шахс ва унинг атрофдагиларга бўлган муносабати шаклланишига таъсир этиб, ҳар томонлама мукамал инсон бўлишида муҳим рол ўйнайди. Дин одамзотни ҳеч қачон ёмон йўлга бошламайди. Дин бу дунёнинг ўтқинчи эканини, охирагани эслатиб туради, одам боласини хушёр бўлишига, ҳаром йўллардан узоқ юришига, яхши бўлишига, яхши из қолдиришига ундаб туради.*

Маълумки, муқаддас динимиз исломда, унинг асосий манбалари ҳисобланган "Қуръони Карим" ва Ҳадисларда ҳам оилавий турмушнинг ва эр-хотин муносабатларининг барча томонлари ҳақида қимматли маълумотлар ва шаръий қонунлар ёритилган. Қуръони Каримнинг оятида оиладаги эр билан хотиннинг ўрни белгилаб берилган. Шариат ҳукмича, эр аввало оиланинг барча молиявий ва маънавий тарафларига жавобгар, уни четдан бўладиган ҳар қандай хуружлардан ҳимоя қиладиган шахсдир. Мана шуларнинг эвазига ва эркак киши учун фазилат ҳисобланмиш оғир-босиқлик, оила рўзгор тебратишдаги тадбиркорлик каби сифатлар мавжудлиги сабабли у оиланинг бошлиғи саналади.

Яхши хотин эса диёнатли, эрнинг уйини обод қиладиган ва унга бир умр садокатли бўлган аёлдир. Қуръони Каримдан эр-хотин ёхуд оилавий муносабатларга хос ибратли мисолларни кўплаб келтириш мумкин.

Демак, оила мустаҳкамлигини таъминлашда, баркамол инсонларни вояга етказишда, аввало, шахснинг диний йўналганлигининг аҳамияти катта. Зеро, шахснинг диний йўналганлиги фарзандларнинг қандай диний билим олишига, диний қадриятларнинг оилада қандай ўрин тутиши ва бажарилишига бевосита таъсир кўрсатади. Ислом дини ўзбек халқида одат шариат қонунлари билан бир қаторда жамоа ҳаётини тартибга солишида муҳим роль ўйнашини ҳисобга оладиган бўлсак, мазкур омил катта аҳамият касб этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Диншунослик асослари: ўқув қўлланма. – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013. – Б.6.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2013. – Б.621.
3. Мельникова Н.А. Социальная психология: конспект лекций. – М.: 2008. – 160 с.
4. Абдурахмонов Ф., Абдурахмонова З. Дин психологияси. – Тошкент: ЎЗРФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011. - Б.36.
5. «Қуръони Карим» ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси / Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: «HILOL NASHR» нашриёт, 2018. – 628 б.
6. Allport G. The Person in psychology. Boston: Beacon, 1968, pp. 376-409. (Ruse d.: Olport Gordon V. Lichnost' v psikhologii. Moscow, "KSP+" Publ., St.Petersburg "Iuventa" Publ., 1998. 375 p.)

## БОЛАЛАРДА АГРЕССИВЛИКНИ ШАКЛЛАНИШИДА ОИЛАВИЙ МУХИТНИНГ ТАЪСИРИ

*Феруза Расулова*  
*Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника институти*  
*“Педагогика ва Психология” кафедраси доц.в.б.,*

*Дурдона Алиқулова*  
*ЁДЖУ техника институти 3 курс талабаси*

Оила-мукаддас даргоҳ. Жамият учун ниҳоятда аҳамиятли ҳисобланган ота-она ва бола муносабатлари билан боғлиқ бўлган муаммолар айнан шу оила негизида юзага келади. Инсон оилада камол топади, худди шу даргоҳда унинг биринчи қувончи ва ташвишлари юзага келади. Фарзандларининг ақлий, жисмоний, ахлоқий, эстетик жиҳатдан тарбияланишига ҳам оилада асос солинади. Инсон оила деб аталувчи бинонинг фақат пойдеворини қўйиш билангина чекланмасдан, балки унинг сўнги ғишти қўйилгунча ҳам жавобгардир. “Ота-она-санъаткор, бола санъат асари, бола тарбияси эса санъатнинг ўзидир” каби иборада ҳам ота-оналар бола тарбиясида жуда катта аҳамиятга эга эканлиги намоён бўлади. Оилада тарбия орқали дунёқараш, хулқ-атвор меъёрлари ва кўплаб сифатлар болага сингдирилади.

Баъзан ота-оналар фарзандларини ёшга оид психологик ўзгаришларини англамайдилар, маълум ёшда болада рўй берувчи инқироз даври ҳақида тушунчага эга бўлмайдилар. Натижада улар фарзандларининг инқироз ёшидаги ўзига хос психологик ўзгаришларини тарбиясизлик, ахлоқсизлик деб қабул қилиб, ўзига хос чораларни қўллашга ҳаракат қиладилар. Бу ҳолат ота-она ва фарзанд ўртасидаги илиқ муносабатга путур, боланинг психикасига жароҳат етади. Ота-онасидан эътибор ва меҳр етишмаслиги болада ўзига ишончсизлик, хавотирлик, мулоқот ва шахслараро муносабатларда қийинчилик ҳамда агрессивликни вужудга келтиради.

Жамиятда турли типдаги оилалар мавжуд. Маълумки, оиланинг тўлиқлиги, нотўлиқлиги ёки қайта тузилганлиги ҳам болалардаги агрессивликни

ривожланишига таъсир этувчи омиллардандир. Машҳур психолог Геттингнинг “Оиладаги агрессив болаларни ўрганиш” бўйича олиб борган махсус тадқиқотининг натижасига кўра, нотўлиқ оилаларда ўта қаҳрли, кўпол, агрессив ва шу билан бирга вояга етмаган жиноятчилар келиб чиқаётганлигини алоҳида кўрсатиб эътироф этди. Геттингнинг таъкидлашича, тўлиқ бўлган оилаларда ҳам нотўлиқ оилаларда ҳам соғлом ёки носоғлом оилавий муҳит мавжуд бўлади. Оиладаги доимий жанжаллар, можаролар оилада носоғлом муҳитни вужудга келтирувчи бош омиллардир. Носоғлом оила муҳитида асосий эътибор ўзаро зиддиятларга қаратилганлиги сабабли уларда бола тарбияси кўпинча таҳдид ва жисмоний жазолашдан иборат бўлади. Бундай носоғлом оила муҳитида вояга етган болалар ўта агрессив, жиззаки, жанжалкаш бўлиши кузатилган.

Зўравонликка мойиллик киши ҳаётининг илк босқичларида шаклланади ва боланинг ўз оиласида эгаллаган ўрни натижаси ҳисобланади. Бу ўриннинг моҳияти уни ота-онаси томонидан тан олинмаслиги, баъзан тўғридан-тўғри юз ўгиришдан иборат бўлади. Кузатиш ва тадқиқот натижаларидан маълум бўлишича, агрессивлик ҳолатида шахснинг хулқ-атвори ва хатти-ҳаракатлари ўзгаради. Бир қатор рухшуносларнинг таъкидлашича, фарзанди томонидан қилинган нотўғри, янглиш хатти-ҳаракатларга нисбатан ота-онанинг таъсирланиши, ота-она билан бола ўртасидаги ўзаро муносабат оиладаги иқлим, оилавий ҳамоҳанглик ёки аксинча келиша олмаслик, опа-сингиллари, ака-укалари билан яқинлик даражаси оилада шаклланиб келаётган боланинг агрессив хатти-ҳаракатларини белгилаб берувчи омиллар бўлиб ҳисобланади.

Ғарб психологи И.А.Фурмановнинг келтиришича, 2-3 ёшда болада “тадқиқотлик инстинкти” кучаяди ва айни вақтда гўдак унинг тажрибаси учун бир бутун янги тизим, таъқиқлар, чекловлар ва ижтимоий мажбуриятлар билан тўқнашади, деб таъкидлайди. Ўз-ўзидан юзага келадиган қизиқиш ва ота-онанинг “мумкин эмас”и ўртасидаги низоли вазиятга тушиб бола беихтиёр кучли депревацияни-ўз эҳтиёжларини қондириш имкониятининг чекловини ҳис қилади. Бошқа сўз билан айтганда, болани фрустрация ҳолатига олиб келади. Бола бу вазиятда ўзини ота-онаси томонидан рад этиш акти сифатида қабул қилади. Бу



низони хал қилишнинг имконсизлиги болада қаҳр, умидсизлик, тажовуз тенденцияларини уйғотади. Бироқ, ота-она авваллари боланинг хархашасига эркалаш билан жавоб қайтарган бўлсалар, энди улар таҳдид, урушиш, лаззатдан махрум қилиш, яккалатиб қўйиш орқали жазолашга ҳаракат қиладилар.

А.Фромм уч-тўрт ёшда тажовузкорликни одатий белгиларидан бири ҳисобланувчи “кўчириш” феномени мавжудлигини кўрсатади. Унинг моҳияти шундаки, бола бу ёшда ўзининг қаҳрини онасига очик соча олишга журъат қилмайди, у ўз ғазаб ва тажовузини бошқа бир ҳийла беозор объектга кўчиради. Бола ота-онасига бас келолмаслиги сабаби уларнинг катта одамлиги ва реал обрўга эга эканлигидир. Бу ёшда болалардан ота-оналарнинг ахлоқ тўғрисидаги тасаввурларига мос тушишлари талаб қилинади. Бу тасаввурлар эса буткул “итоатгўйликни” назарда тутаяди. Бироқ катталарнинг салбий муносабати устунлик қилишига қарамай, болалар барибир, доимо улар билан ижобий муносабат ўрнатишга интиладилар ва агар бу муносабат болани қониқтирмаса, унда чуқур аффектив кечинмалар юзага келади. Бу ҳолат тенгдошлари билан мулоқот фаоллигини аҳамиятли даражада пасайишига ёхуд уларга нисбатан тажовузкорликка олиб келади.

Кичик ёшдаги болаларда агрессия шаклланишида ота-онасининг тарбия таъсирини алоҳида параметрлар билан ажратиш мумкин:

**Биринчидан**, ота-оналар ўзлари агрессив хулқ-атворга намуна кўрсатадилар. Масалан, бошқалардан қандай фойдаланиш керак, қандай қилиб кучсиз инсонларни ўзига бўйсундириш ва тазийиқ ишлатиш йўли билан бирон мақсадга эришиш мумкинлиги бунга мисол бўлади.

**Иккинчидан**, оиладаги авторитар тарбия услубида болани оғир жисмоний жазолаш, тарбияда “қаттиққўллик”, боланинг атрофига кўринмас “тўсиқ”ларнинг ўрнатилиши, ўз истак ва эҳтиёжларини билдира олмаслиги, ота-онадан кўрқиш холлари унда негатив муносабатларни шакллантиради. Оқибатда бола писмиқ, «қулоқсиз», «ичимдагини топ», камгап бўлиб ўсади.

**Учинчидан**, жуда оғир жазо беришда бола нима учун жазоланганини англамаслиги, кучли қайғуриш, стресс оқибати ўз изини қолдиради. Жисмоний

зарар етказиш боланинг агрессив хулқ-атворини кучайтиради. Кузатишлар натижасида маълум бўлишича, зулмкор ва агрессив хулқ-атворли инсонлар орасида болалигида кўп тана жароҳати олганлар аниқланган. Ёшликда жисмонан зулм кўрган агрессив хулқ-атворли болалар ўзлари ота-она бўлганларида ҳам болаларига зулм ўтказишлари кўп бора кузатилган.

Болалардаги агрессия ота-онанинг ажралиб кетиш оқибатида ҳам келиб чиқиши мумкин. Бундай ҳолатнинг юзага келиши боланинг ёши ва жинсидан қатъий назар содир бўлади. 7 ёшли отасиз тарбияланаётган болада катталарга буйсунмаслик, асоциал хулқ юқори кўрсаткични кўрсатади. Таъкидлаш керакки, ажралишдан олдин ва кейин бўладиган ота-онанинг келишмовчилиги, уларнинг алоҳида яшаши, қайта никоҳдан ўтиш, улардан бирининг болага ёмон муносабатда бўлиши ёки бевақт вафоти бола хулқига салбий таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Агрессивлик хос бўлган болада оиланинг бошқа аъзолари муносабатида, айниқса ака ва опа-сингилларига нисбатан рашк ҳисси кўринишида бўлади. Бундай агрессиянинг замирида катталарнинг мухаббатини қозониш, ота-онасининг диққатини тортиш ётади. Баъзи оилада тарбиянинг тўғри йўлга қўйилмаганлиги, ота-оналар томонидан болага илиқлик ва меҳр етишмаслиги, боласига бефарқ муносабатда бўлиш, боланинг арзимас хатоси туфайли иззат нафсига тегадиган сўзлардан фойдаланиш, ҳақорат қилиш, сўкиш, бошқаларга жаҳл қилиб боладан аламини олиш ҳоллари ҳам болаларда агрессив хулқ-атвор юзага келади.

Юқоридаги омиллар натижасида болаларда психик бузилишларга сабаб бўлувчи салбий таъсирлар қуйидагиларда намоён бўлади:

- Шахслараро мулоқот ўрнатишда қийинчилик: ижтимоий муносабатларнинг ривожланмаслиги ва ижтимоий мослашувда қийинчиликлар; дўстлари сонининг камлиги; тенгдошлари билан мулоқотда қийинчилик.
- Интеллектуал соҳада: таълим олишда қийинчилик; билиш соҳасида камчиликлар; муаммони ҳал қилишда қийинчиликлар; ижодий тафаккурининг пастлиги.

- Ахлоқий ва ҳиссий соҳадаги қийинчиликлар: агрессия; синфда ўз хулқини бошқара олмаслик; аутоагрессия; хавотирлик; уят ва айбдорлик ҳисси; қахр ва ғазаб; тушқунлик ва негатив установакалар; катталарга қарамлик (қўллаб-қувватлашга, ёрдамга, )

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, оилавий муносабатларнинг тўғри йўлга қўйилганлиги, яъни ота-она ва фарзандлар ўртасида ўзаро ҳурмат, ишонч, меҳр-оқибат, эътибор ва ғамхўрлик ҳисларининг мавжудлиги эртамиз давомчилари бўлган ёш авлодни жисмонан, ахлоқан, руҳан ва маънан камол топишларида катта аҳамиятга эгадир.

### Адабиётлар рўйхати

1. Бютнер К. Жить с агрессивными детьми. –М.:1991 С.64-78
2. Фурманов И.А. Детская агрессивность: психодиагностика и коррекция.-М.: 1994 С.14-15
3. Крэйхи Б. Социальная психология агрессий. Питер.: 2003. 184-189с.

---

## ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУВАФФАҚИЯТ ОМИЛИ

*Алишер Ахунжонов*  
*Қ.Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти мустақил тадқиқотчиси*

Дунёда кечаётган глобаллашув жараёнлари барча давлатларининг ижтимоий-сиёсий соҳадаги сифат ўзгаришларини ХХІ аср талаблари билан узвий боғлаб қўймоқда. Бу эса ер куррасида яшаётган ҳар бир инсондан жамиятда муносиб ўрин топиши учун креатив фикр юритишни талаб қилмоқда. Бошқача қилиб айтганда, бугунги жамият ҳар бир соҳада креатив фикрлаш қобилиятига эга инсонларга эҳтиёж сезмоқда.

Тарихдан маълумки, ҳар бир даврда инсоният олдига қўйилган жамият талаблари таълим-тарбия орқали ўз ечимини топиб келган. Таъкидлаш жоизки, бугунги кундаги сифат ўзгаришлар ва янгиланишларга жавоб берадиган мустақил ва креатив фикрлайдиган ёш авлоднинг ҳар томонлама шакллантириш таълим-тарбия тизимиغا юклатилган долзарб вазифа ҳисобланади.

Мамлакатимизда барча соҳаларга инновацион технологияларни жорий этилаётганлиги, хусусан ишлаб чиқаришни рақамли технологиялар асосида ривожланиб бораётганлиги таълим тизимида маънавий баркамол, креатив фикрлайдиган, масъулиятни ўзига зиммасига оладиган, ёшларни тарбиялашни кун тартибига қўмоқда.

Узлуксиз таълим тизимида ёшлар таълим-тарбиясини янги сифат босқичига кўтаришда ўқитувчининг ижтимоий компетенцияларини жамият талаблари билан уйғун бўлиши муҳим аҳамиятга эга. Чунки, бугунги кунда мактабда креатив фикрлайдиган ўқувчиларни шакллантиришга қаратилган ўқув жараёнини ташкил қилиш давр талаби ҳисобланади. Шунинг учун ўқитувчи ўқувчиларни креативлигини шакллантиришга йўналтирадиган методик билимларга эга бўлиши, яъни ўз фаолиятини “Ақлий ҳужум”, “Муаммоли изланиш” каби бир қатор замонавий таълим технологиялари асосига қуриш керак. Бундай методикалар асосида таълим жараёнини ташкил қилишда ўқитувчи муаммоли вазият яратади, ўқувчиларни ушбу муаммони ечимини топишга йўналтиради.


Профессор А.Амированинг фикрича «Машғулотларда муаммоли вазиятларни ечимини топиш ўзлаштирилган билимларни кучи ва самарадорлигини оширади, ўқувчига ўқув машғулотида қўйилган муаммони ечимини топишда ўз иштирокини, муваффақият туйғуларини ҳис қилиш имкониятини беради[1]

Педагогик жараёнда ўқувчиларни креативлигини шакллантириш бўйича Ф.Т.Эхсонова қуйидаги фикрларни билдирган - Педагогиканинг асосий вазифаларидан бири барча болаларнинг креатив фаолияти ҳар томонлама ривожланишини таъминлайдиган шарт-шароитлар яратишдан иборат. Шу билан

бир қаторда муайян соҳаларда чуқур қизиқишларини, интилиши ва қобилиятини намоён қилаётган ўқувчиларни аниқлаш, уларга бундан кейинги ривожланиши учун барча имкониятларни яратиб бериш лозим. Бунинг учун эса: бошланғич синф ўқувчиларнинг креатив фаолиятини ривожлантиришга доир шарт-шароитлар яратиш муҳим аҳамият касб этади. Бу борада:

1. Ўқувчилар креатив фаолиятини ривожлантиришга доир инновацион фаолиятга тайёрлаш.
2. Ўқитувчи ва ўқувчилар муносабатида ҳамкорлик фаолиятини вужудга келтириш.
3. Ижодий фаолиятни ривожлантиришда билишга доир инновацион технологиялардан фойдаланиш[2].

Биз ҳам юқоридаги олимларнинг фикрига қўшилган ҳолда ўқувчиларнинг креативлигини шакллантиришга қаратилган қуйидаги тузилмани тавсия сифатида келтирамиз.



Замонавий педагогик технологиялар ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳамкорликда ўқув жараёнини ташкил қилишни назарда тутади. Юқорида

келтирилган тузилма асосида таълим жараёнини ташкил қилишда қуйидагиларга амал қилиш назарда тутилади.

-таълим жараёнида ўқувчиларнинг мотивациялаш ва инсонпарварлик, демократик шарт-шароитлар яратиш орқали ўқувчиларни ўқув жараёнидаги фаоллигини таъминлаш;

- ўқитувчи томонидан қўйилган муаммоларни ўқувчилар томонидан идрок эта олиш даражасини аниқлаш орқали уларни эмпирик билим даражаларини аниқлаш;

- замонавий методикалар асосида ўқувчилар билиш даражалари асосида уларни ижодкорлигини, креативлигини шакллантиришга қаратилган қатъий фактлар ва илмий фаразлар асосида илмий билимларини ривожлантиришдан иборат.

Юқоридаги жиҳат ва талаблар етарли даражада таъминланмаса, таълим жараёни кутилган натижани бермайди.

Хулоса ўрнида таъкидлаш мумкинки, таълим жараёнининг муваффақияти ўқитувчининг ташкилий ва педагогик шарт-шароит ярата олиш қобилиятига, таълим методологиясининг тўғри танланганлигига ҳамда ўқувчиларнинг фаоллигига боғлиқ. Бундай ташкилий-педагогик шарт-шароитларни яратилиши таълим жараёнида ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятларини, креатив қобилиятларини шакллантиради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. А.Амирова “Система методов создания и ситуации успеха для повкшения уровня усвоения матнериала в начальной школе: БГПУ им.Акмуллы”, Педагогические традиции и инновации в образование научной практические конференции, УФА-2019 год.

2. Ф.Т.Эхсонова “Бошланғич синф ўқувчиларида креативликни ривожлантиришнинг педагогик механизмини такомиллаштириш” Дисс. (PhD) автореферат 18 бет

## МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

*Yusupov Umidjon Salim o'g'li  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi,  
Bosimova Madina Zafar qizi  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, rivojlanish, shaxs, oila, tashqi muhit, irsiyat, tug'ma qobiliyat

Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlarida aholining sog'lig'i, jismonan salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasini oshirish, zararli odatlardan voz kechib, sog'lom kundalik hayotiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar sog'lom psixologik jihatdan rivojlanishi va oxirgi yillar davomida turli xil muammolar yuzaga keldi, bunga sabab, maktablarning karantinga yopilishi, turli xil ommaviy tadbirlarning bekor qilinishi, sayohatlar bolalar o'rtasidagi turli xil musobaqalar, tadbirlar, ko'rik tanlovlarning to'xtalishi. Shu yillar davomida ota-onalardagi turli xil muammolar, umidsizlik, ishonchsizlik holatlariga tushishi natijasida bolalar psixologik holatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik jihatdan sog'lom bo'lishi va oilaviy muhit, maktabdagi do'stlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishi ijtimoiy psixologik omillarning ta'siri beqiyos rol o'ynaydi. Bolalarning psixologik jihatdan rivojlanishida maktab hayotidan uzilib qolishi natijasida ulardagi turli xil fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi ulardagi psixik rivojlanishni ortga surdi. Ota-onalarning stress holatiga tushishi natijasida oilalardagi turli xil muammolarning ko'payishi bu farzandlar o'rtasidagi muammolarga ham ta'sir qilmasdan qolmadi. Uzoq vaqt davomida bolalarning uyda qolishi natijasida ularning aqliy jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Yurtimizda yoshlarni bo'sh vaqtlarini ijobiy tashkil etish uchun bir qator tadbirlar uyushtirildi. Bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish maqsadida televediniya orqali onlayn darslar turli xil fan olimpiadalari tashkil qilindi. O'zbekistondagi qat'iy karantin qoidalari tufayli hamma o'z odatiy kun tartibidan voz kechib uyda qolishga majbur bo'ldi. Bunday o'zgarishlarga ko'nikkunga qadar ayrim



oilalarda kelishmovchiliklar ham paydo bo'ldi. Bu holatlarning barchasi maktab yoshidagi bolalar psixikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi albatta. Birdaniga jamiyatdan uzilib qolgan bola rivojlanishida ayrim salbiy o'zgarishlar ham paydo bo'ldi. Karantin joriy etilgandan oz fursatlar o'tib televideniya orqali online darslar yo'lga qo'yildi. Bu bolalar bo'sh vaqtini samarali o'tkazishi va bilim olishdan orqada qolmasliklari uchun eng to'g'ri yo'l edi. Ammo insonning hayotiy tajribalarini bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tarzida o'zlashtirishga aloqador bo'lgan bir necha tushunchalar mavjud. Bu o'quv faoliyati, ta'lim, o'qish va o'rganishdir. Bunday faoliyat kishiga shu jumladan bolaga ham atrof-muhitga moslashish, o'zining shaxsiy ehtiyojlari, shuningdek aqliy o'sish va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. O'quv faoliyati shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini rivojlantirishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchining diqqatini rivojlantiruvchi omillardan hisoblanadi. Online darslarda esa bunday imkoniyat darajasi pastroq edi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning bilim olish darajasini, diqqatini o'z nazorati ostiga oladi, undan tashqari o'quvchining faollik darajasini ham oshirishga harakat qiladi. Dars jarayonida o'quvchining diqqati o'zgarib turadi, o'quvchi diqqatini materialga qaratish ham o'qituvchi mahoratiga bog'liq. O'qituvchi uzoqda turib o'quvchilarni kurmaydi ularning faollik yoki sustlik darajasini anglay olmaydi, yana shuni takidlash kerakki bola darsda o'tirib sotsial muhitda o'zini qanday tutishni o'rganadi muloqotga kirishadi, o'qituvchidan o'zi uchun qaysidir ma'noda o'rnak ham oladi. Bilim olish jarayonida emotsional holatlarning yuzaga kelishi ham muhim ahamiyatga ega, dars jarayonida yaxshi emotsional holatning yuzaga kelishi esda olib qolish jarayonini yaxshilaydi. O'quvchilar psixologik jihatdan ham bilim jihatdan ham yaxshi rivojlanishi uchun albatta sotsial muhit katta rol o'ynaydi.[478,479,480,481,] D.B.Elkonin boladagi psixologik yoshlar ketma-ketligini quyidagicha guruhlarga bo'ladi: chaqaloqlik davri inqirozi go'daklik ( 2 oydan 1 yoshgacha) kattalar bilan bevosita emotsional muloqot: 1 yosh inqirozi: ilk bolalik (1-3 yosh): vositali – predmetli faoliyat: 3 yosh inqirozi;

maktabgacha tarbiya yoshi ( 3-7 yosh) ; rolli o'yin; yetti yosh inqirozi ; o'smirlik yoshi (11-15 yosh) tengdoshlar bilan shaxsiy munosabat; 15 yosh inqirozi. Faoliyat ichida psixologik yangi tuzilmalar yuzaga keladi va rivojlanadi. Bu ketma – ketlik karantin tufayli anchagina buzildi, ayniqsa o'smirlik davridagi bolalar uchun, bu davrda ijtimoiy munosabatlar katta rol o'ynaydi. Muloqotda muammo bo'lgan bola kelajakda aqlan zaif va fe'li og'ir bo'lib yetishadi zero, inson jamiyat mahsuli va undan ayro yashay olmaydi” deyiladi. Bolalar bilan suhbatlashish, ularning dunyoqarashini har tomonlama rivojlanib boradi. Anton Simenovichning „Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli tasir ko'rsata olishiga ishonchim komil . Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa , bunga faqat tarbiyachilar ayibdorligiga aminman . Agar bola yaxshi bo'lsa , buning uchun u tarbiyadan va bolaligidan qarzdordir” degan. Kichik maktab yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati bolalarda nutq, tafakkur, qobilyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi. Maktabga kelgan bolalar bir birlari bilan muloqatda bo'ladilar bu orqali ularning ijtimoiy muhitga moslashishi atrofdegilar bilan munosabat o'rnatish jarayonlari shakllanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak COVID-19 pandemiyasi faqat O'zbekiston aholisi boshiga tushgan xavf emas, balki butun dunyo aholisi boshiga tushgan musibatdir. Albatta bu virus ham vaqti kelsa asta-sekinlik bilan yo'qolib boradi ammo undan qolgan turli xil psixologik ta'sirlar insonlar yuragida ancha vaqt saqlanib qoladi, insonlar bu virus ustidan g'alaba qozonadi . Bolalarning psixologik jihatdan sog'lom rivojlanishi pandemiya davrida ancha ortga surildi buning natijasida bu yo'qotishni tiklash uchun bizga ancha vaqt kerak. Bolalardagi turli xil stress va depress holatlaridan xalos qilish uchun psixolog mutaxassislar tomonidan ancha mehnat vaqt talab etiladi. Yurtimizda hozirgi kunda bolalarning sog'lom va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Keyingi yillarda yurtimizda ta'lim sohasidagi tub burilishlar ayniqsa maktab yoshidagi o'quvchilarimizning dunyo fan olimpiadalarida yuksak o'rinlarni egallayotgani, sport sohasida esa yohlarimizning erishayotgan yutuqlari diqqatga loyiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.I. Ivanov ,M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” O‘zbekiston fanlari milliy jamiyati 2014
2. Z.T.Nishonova , N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi . Pedagogik psixologiya” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT 2018
3. “Ilk qadam “davlat o‘quv dasturi .
4. E.G‘.G‘oziev „Sotsial psixologiya “ TOSHKENT -2012

---

## DINNING PSIXOTERAPEVTIK MOHIYATI

*Xakimova Muqaddas Sadriddinovna  
O‘ZXIA stajyor-tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Psixoterapiyaning bir bo‘limi sanalgan diniy psixoterapiya odamning azob-uqubatlarini engillashtirish va uni samarali holatga qaytarish uchun zararli ruhiy holatlarning etikasi sabablarini aniqlashga va depressiyaning alomatlari bo‘lgan zerikish va tushkunlik holatidan olib chiqishga yordam beradi. Musulmon kishi uchun Qur‘oni Karimdan oyatlarni va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini yetarlicha eshitadi, shunda uning ruhiy holati yengillashadi, chunki ularda haqiqat va hikmat bor. Diniy psixoterapiyada har bir din ulamosini din psixoterapevti deb ta‘riflash mumkin...

**Kalit so‘zlar:** Psixoterapiya, din, Qur‘oni Karim,Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini, ruh, davolash, Neyro-lingvistik dasturlash, islom, tushkunlik va zerikish...

Psixoterapiya mustaqil fan sifatida rasmiylashtirilgandan so‘ng, uning din bilan aloqasi haqida savol tug‘ilishi tabiiy. Agar Zigmund Freyd dinga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lib, uni psixoanalizga [1;15] qarshi qo‘ygan bo‘lsa, Freydning hamkasbi Karl Yung inson ruhini davolashda psixoterapevt va ruhoniylarning sa‘y-harakatlarini birlashtirish to‘g‘risida murojaat qilgan [2;34] [3;56], bu sohani

ta'kidlagan. Psixoterapiya va din aslida bir joyda kesishadi. Dinlar psixoterapiya tizimidir. Inson ongi, ruhiyati, ruhning azobidan xalos bo'lishiga harakat qilish, xuddi shu muammonlari dinlar hal qiladi. Shuning uchun Rabbimizning O'zi shifo beruvchidir, u shifokor, u kasallikni davolaydi va ruhiy kasalliklarni davolaydi, va bu biz o'sha psixoterapiya deb ataydigan narsaning ozidir.

Diniy ta'limotlarni psixoterapiya bilan sintez qilish yo'lidagi muhim qadam E. Frommning "Psixozanaliz va din" klassik asari bo'lib, unda "psixologiyadan faylasuflar" maktabi rahbari din va psixozanalitik terapiya pozitsiyasini batafsil asoslab bergan. Barcha buyuk Sharq va G'arb dinlarining asoschilari inson qalbi haqida qayg'urishni, muhabbat va aql kuchlarini ochib berishni hayotning oliy maqsadi deb bilganlar. Psixozanaliz bu erda hech qanday xavf tug'dirmaydi, aksincha, bu maqsadga erishishga katta hissa qo'shadi. Ruhiy tabib sifatida tahlilchi - inson ruhi va uning davolanishi bilan shug'ullanadi.

Biroq, bu nuqtai nazar hamma tomonidan qabul qilinmadi. Buni, masalan, logoterapiya yaratuvchisi Viktor Frankl inkor etib, psixoterapiya vazifalaridan farqli o'laroq, dinning maqsadi shifo emas, balki ruhi qutqarish ekanligini ta'kidladi [4;45]. Hozirgi vaqtda psixoterapiya va din o'rtasidagi munosabatlar masalasi hali ham munozarali [5;31]. Ba'zi mualliflar diniy ta'limotlarni psixoterapiya nazariyasi va amaliyotiga kiritish zarur va samarali deb hisoblaydilar [6;102], boshqalari esa bu imkoniyatni qat'iy rad etadilar [7;67]. Mamlakatimizda bu polemika, masalan, Makariev-Reshenskiy monastirining "Pravoslavlik nuri" nashriyoti veb-saytida [8;90], shuningdek, "Konsultativ psixologiya va psixoterapiya" jurnalida keng tarqalgan.

Shunga qaramay, psixoterapiyaning bir bo'limi sanalgan diniy psixoterapiya odamning azob-uqubatlarini engillashtirish va uni samarali holatga qaytarish uchun zararli ruhiy holatlarning etkasi sabablarini aniqlashga va depressiyaning alomatlari bo'lgan zerikish va tushkunlik holatidan olib chiqishga yordam beradi. Musulmon kishi uchun Qur'oni Karimdan oyatlarni va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini yetarlicha eshitadi, shunda uning ruhiy holati yengillashadi, chunki ularda haqiqat va hikmat bor. Diniy psixoterapiyada har bir din ulamosini din psixoterapevti deb ta'riflash mumkin. Har bir din psixoterapevti diniy bilimlarni ham mukammal

bilishi talab qilinadi. Psixoterapevt o'z ishini hayot (tarjimai hol) va kasallik tarixi (kasallik rivojlanish tarixi) to'plash bilan boshlaydi, u mijozning yashash sharoitlari va boshqa odamlar bilan munosabatlari bilan qiziqadi. U hamma narsani, psixotravma , temperament , travmatik miya jarohatlari va yomon odatlar mavjudligi hisobga oladi. Psixoterapevt har bir inson uchun hayot quvonchining ahamiyati, ishtiyoq va quvnoqlik kabi fazilatlar haqida gapiradi. Zerikish va xorlik, hayotga qiziqishning yo'qolishi va og'riqli passivlik, yo'qotish va xatti-harakatlar kelib chiqishi va uning tarkibi bilan ishlaydi, hayotning qiymatini izlaydi. Odamni ijobiy fikrlashga va yangi qadriyatlarni izlashga undaydi

Ko'rinib turibdiki, tushkunlik va zerikish ijobiy fikrlash orqali hayot ma'nosi bilan to'ldirish orqali psixoterapevtik "davolanadi" va iymonli odam aqlga va meditatsiya yo'naltirilgan bo'ladi va Qur'ondagi Qodir Allohning so'zlarini amalga oshirishni o'z zimmasiga olgan bo'ladi va Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hadislariga muvofiq amal qilishga harakat qiladi. Mo'minning hayot mazmunini izlashi shart emas, uning tayanchi, ijobiy fikrlashi Qur'on va hadislarda tayyor holga keltirilgan. Dinning asosini e'tiqod tashkil etar ekan, u insonga hayot mazmunini to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Hayotning ma'nosini bilmaslik va noto'g'ri tushunish esa, ko'plab olimlar - psixiatrlar, masalan, V.M. Myasishchev, Frank va boshqalar nevrozning asosiy sababini "ruhiy kasalliklar" deb atashgan. Nevrozlarning boshqa kasalliklardan asosiy farqi shundaki, nevroz bilan odamning ichki a'zolari zarar ko'rmaydi, nevrozlarning paydo bo'lishining asosiy sababi esa sof "ruhiy" - o'ziga xos "fikrlar chalkashligi"dir.

Diniy psixoterapiyaning mohiyati quyidagilardan iborat:

- Yaratgan kichik gunohlarimizni mag'firat qilishiga umid bag'ishlaydi;
- hayot sinovlarining vaqtinchaligini anglash kuchini beradi;
- O'z hayotining ma'nosini anglashga yordam beradi.
- Hayotda maqsad bilan yashashni o'rgatadi.

O'z maqsadini anglashni yaxshilash uchun "Kartezian maydoni" deb nomlangan mashhur texnika mavjud. Ushbu texnikaga amal qilgan holda bemor o'ziga 4 ta savol beradi:

-Men tuzalib ketsam nima bo'ladi?

- Yaxshilanmasam nima bo'ladi?

-Men tuzalib ketsam nima bo'lmaydi (bo'lmaydi)?

-Men tuzalmasam nima bo'lmaydi (qobiliyatga erishmaydi)?

Savollarning bunday keng qamrovli bayoni bizni kerakli maqsadga to'liqroq jamlash va uni "barcha ulug'vorligida" ko'rish imkonini beradi. Kompyuter so'zlari bilan aytganda, maqsad oldimizda 4D formatida paydo bo'ladi. Maqsadni to'g'ri qo'yish muhimligini ta'kidlab, taniqli psixoterapevt S.M.Kovalev shunday yozadi: "A nuqtadan uchadigan samolyot, katta ehtimol bilan B nuqtasi maqsadiga erishadi. A nuqtadan uchayotgan samolyotni hech kim qayerga uchayotganligini bilmaydi, u bemalol uchishi dargumon. U samolyot qayergadir favqulodda qo'nishga uchib ketadi." Hayotida hech qanday maqsadi yo'q odam oxir-oqibat qandaydir falokatga uchrashi xavfi ostida yashaydi. Shunday qilib, maqsadning qiymati katta, chunki rejalashtirish, unga erishish bosqichlarida sa'y-harakatlarni taqsimlash imkonini beradi. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: "Maqsadsiz yurmanglar", dedilar. Musulmonning o'z hayotidan maqsadini to'g'ri tushunishi uning hayotini osonlashtiradi, musulmonning hayotidan maqsadi solih amallar qilish va taqvodorlikdir.

Diniy psixoterapiyaning predmeti: Shaxsning ruhiy holati.

Diniy psixoterapiyaning maqsadi: psixoterapevtik davolash.

Diniy psixoterapiyaning vazifalari: nevrozni davolash, stressdan chiqarish, ichkilikbozlik yoki giyohvandlikdan va yomon odatlardan halos qilish.

Neyro-lingvistik dasturlash (NLP) bo'limida "resurslarni biriktirish" deb ataladigan usullarga katta e'tibor beriladi. NLP ta'kidlashicha, har bir inson o'zini har qanday ruhiy holat uchun dasturlashi mumkin (ko'pincha, afsuski, odamlar o'zlarini kasallik uchun dasturlashadi, yo mayda-chuyda "aylanishlar" orqali yoki yillar davomida eski shikoyatlarni eslab qolishadi). Oshqozon yarasi, gipertenziya, diabetes mellitus, psoriaz, bronxial astma va boshqa ba'zi kasalliklar (bu sohadagi tadqiqotlar doimiy ravishda ro'yxatni to'ldiradi) "psixogen sabablar" tufayli yuzaga keladi. Bular, bu og'ir va ba'zan o'limga olib keladigan kasalliklarning sabablari har qanday stressli vaziyatga etarli bo'lmagan psixologik reaksiyadir. Shuning uchun ular bu kasalliklarni "psixogeniya"

deb atashgan (bu "psixologik sabablar tufayli yuzaga keladigan kasalliklar" degan ma'noni anglatadi). Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, odam o'zining noto'g'ri javobi bilan, stressli vaziyatda "qotib qolgan" holda, o'zini kasallikka dasturlaydi. Gap shundaki, stressning har bir xotirasi tanada xuddi o'sha paytdagidek "fiziologik bo'ron"ni keltirib chiqaradi. Tabiiyki, buning sodir bo'lishi, ertami-kechmi har qanday kasallikning paydo bo'lishiga olib keladi. NLP asoschilari inson o'zini yaxshi dasturlashi mumkin bo'lgan usullarni ishlab chiqdi. NLP psixoterapiyasida quvonch, tinchlik, diqqatni jamlash, ishonch holati, "yaxshi" ekologik toza holatlar "resurs holatlari" deb ataladi[11;204]. Inson asosan uchta yo'l bilan eslaydi, har kim boshqacha eslaydi, unda "uch xil xotira" mavjud: Ba'zilar "ko'zlari bilan eslashadi", boshqalari - "quloqlari", boshqalari - "harakatlari" bilan eslaydi, lekin ulardan faqat biri ustunlik qiladi. Bu odam bilan aloqa o'rnatish - u bilan "bir tilda" gaplashish uchun kerak. Bazan salomatlik ham esga olinadi. Bunday vaziyatda extiyot bo'lib eslash tavsiya etiladi. Namozxon takbir aytgan holatda, trans holatida bo'ladi. Bu o'zgargan ong holati. Musulmon atrofdagi dunyodan ajralgan bo'ladi. U ongli, ya'ni eshitadi, ko'radi, his qiladi, hatto harakatlana oladi, lekin uning ongi sezgilar signallari qayta ishlamaydi. Qadimgi Xitoy qigong nafas olish gimnastikasi mavjud bo'lib, u "uzoq umr ko'rish gimnastikasi" deb ham ataladi. "Shu bilan birga, tanangiz xuddi Kosmos bilan aloqa qilish uchun o'ziga xos antennaga aylanadi", deydi qigong nafas olish mashqlarini bajaruvchilar. Qigong ustalarining fikriga ko'ra, hamma narsa to'g'ri ichki munosabat bilan ado etilsa bu holatda butun tanani davolaydigan "koinot energiyasi" olinadi. Psixoterapiya namoz vaqtidagi bir nuqtaga qarash texnikasi haqida quyidagicha tavsiflaydi. "Shifo beruvchi trans holati" deb ataladigan holat. Sog'ayish trans holatida bo'lish qon bosimini normallantiradi, yurak ishini barqarorlashtiradi, mushaklarni bo'shashtiradi va ularga dam beradi, og'riqqa sezgirlikni yo'qotadi, ichki organlarning faoliyatini normallantiradi, asabiy taranglik va stressni yengillashtiradi. Transning terapevtik ta'siri ro'yxati uzoq vaqt davomida davom ettirilishi mumkin. Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, transga kirish usullari maxsus kuchlar askarlari, skautlar, o't o'chiruvchilar va boshqa xavfli kasb egalariga o'rgatiladi. O't o'chiruvchilar trans holatida 4-qavat oynasi orqali sakrab tushib, hech qanday jarohat yoki jarohat olmagan,



trans holatiga tushib qolgan maxsus guruhlarning jangarilari esa hatto arterial qon ketishini to'xtatgan holatlar tasvirlangan. Islomiy manbalarda trans holatining foydalari quyidagicha bayon qilinadi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan yordam so'rab kelgan shaxsga payg'ambarimiz(s.a.v) quyidagicha maslahat beradilar: Yaradorni namoz o'qiyotgan paytda oyog'idan o'qni olib tashlash kerakligini aytadilar, chunki u bu vaqtda qimirlamadi. Yarador shaxs namozdan chiqqach, o'qning o'q bo'lganiga hayron bo'ldi. Jarohati yo'q bo'lganiga hayron qoladi, chunki u oyog'idan o'qni qanday tortib olinganini ham his qilmadi.

Shunga ko'ra, inson nafas olish mashqlarini bajarish uchun eng qulay bo'lgan pozitsiyani egallab, Qur'on o'qishni boshlaganda, chuqur nafas olish va uzoq nafas chiqarish bilan birga, yordamchi nafas olish mushaklari (qorin va yuqori yelka muskullari kiritiladi), ma'lum bo'ladiki, Qur'on o'qish bilan bir vaqtda haqiqiy nafas olish mashqlari amalga oshiriladi. Rukuning terapevtik ta'siri mushaklarning "cho'zilishi" deb ataladigan foydali ta'sir bilan bog'liq. Yoga, jang san'ati, sport va badiiy gimnastika mashqlari alohida rol o'ynaydi. To'g'ri qo'llarni tizzaga qo'yib dam olib, shu tariqa tizza bo'g'imlarida oyoqlarni iloji boricha to'g'rilab, namozxon orqa, sonning orqa va pastki oyoq mushaklarini cho'zadi. Shunday qilib, ko'rsatilgan hududlarda qon aylanishining faollashuvi mavjud. Bundan tashqari, mushaklarning yumshoq cho'zilishi tendonlarning elastikligini oshiradi, bu esa o'z navbatida ular biriktirilgan bo'g'inlarda harakatlanish oralig'ining oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, orqa mushaklarini cho'zish orqali, ibodat qiluvchi bir vaqtning o'zida umurtqa pog'onasini o'zi cho'zadi, uni to'g'rilaydi. Shu bilan birga, intervertebral ligamentlar biroz cho'ziladi, intervertebral disklardagi yuk kamayadi va ularning deformatsiyasi yo'q qilinadi. Shunday qilib, agar bu harakatlar muntazam ravishda amalga oshirilsa, osteoxondrozning oldini olish va umurtqa pog'onasi egriligiga erishiladi. Ammo bel kamonining shifobaxsh ta'siri shu bilan tugamaydi.

Ma'lumki, tizza bo'g'imi tanadagi eng murakkab bo'g'indir. Uning tuzilishi artikulyar yuzalarga qo'shimcha ravishda, ichki va tashqi menisklar, patella, ichki xoch ligamentlari. Bundan tashqari, bo'g'imning elastik kapsulasi bir nechta cho'ntaklar va sumkalar (burslar) hosil qiladi. Aytgancha, tizza bo'g'imining bursitlari (ya'ni, tizzaning

sumkasining yallig'lanishi) juda keng tarqalgan kasallikdir. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, tizza bo'g'imining maydoni biologik faol nuqtalar, massaj va hatto oddiy bosim bilan to'ldiriladi, ular ko'p qirrali terapevtik ta'sirga ega.

Ruku paytida namozxon qo'llarini tizzalariga qo'yadi, shunda kaftining o'rtasi "patella" ning o'rtasiga tushadi, hind gimnastikasidan "Uddiyana Bandha" mashqining tavsifi Hatha yoga: "Turib, oyoqlarini bir-biridan ajratib, torsonni oldinga egib, tekislangan qo'llarni egilgan tizzalarga qo'ying.

Terapevtik ta'siri: "Yo'g'on ichakning letargiyasiga qarshi, oshqozon, ichak, bachadonning sarkmasına qarshi yaxshi vosita."

Shunday qilib, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini to'g'ri bajarish, buning uchun va'da qilingan Allohning ajri va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning shafotlaridan tashqari qiyomat kuni, bu dunyoda allaqachon namozning holatini yaxshilashga yordam beradi. Nafas olish, konsentratsiya va tafakkurni o'rgatish uchun ishlatiladi. Ovqat hazm qilish jarayonlarini faollashtiradi, tizza bo'g'imlari va oyoq Bilagi zo'r ligamentlarning elastikligini rivojlantiradi. Namoz davomida, o'tirgan holda, namozxon engil trans holatida bo'ladi, bu u aytayotgan Qur'onning muqaddas matnlarini to'liq anglash va idrok etishga yordam beradi, keyin bir holatda qoladi. Yogis tomonidan diqqatni jamlash va tafakkur qilish uchun ishlatiladigan pozitsiya ibodatning psixoterapevtik ta'sirini yanada kuchaytiradi. Zero, musulmonlar biladilarki, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam har qanday qiyinchilikka duch kelganda avval namoz o'qigan, shundan keyingina qaror qabul qilgan. Yuqorida ta'riflanganidek, ibodat paytida markaziy asab tizimida ham, butun tanada reparativ (tiklash) jarayonlari faollashishiga asoslanib shunday deyish mumkin. Ibodat vaqtida diqqatni jamlash yuzaga keladi, o'z-o'zini tafakkur qilish uchun sharoitlar yaratiladi.

Islomning besh ustunidan faqat ikkitasini zamonaviy psixiatriya va psixoterapiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak va birinchi ustun iymon (Allohga iymon) bo'lib, biz faqat qisman quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Islom dinining e'tiqod tizimi inson oldida turgan barcha savollarga va birinchi navbatda, inson hayotining mazmuni haqidagi savollarga to'liq javob beradi.

2. Hayotning mazmunini islomiy tushuntirish mo'zinga kuch va ishonch bag'ishlaydi. Axir inson hayotini vaqtinchalik sinov sifatida tushuntirish unga duch keladigan muammolarni yengishini osonlashtiradi. Musulmonning qalbi nekbinlik va xotirjamlik bilan to'ladi.

3. O'z navbatida, bu nevroz va depressiya paydo bo'lishining oldini oladi (va depressiya ko'pincha o'z joniga qasd qilish bilan yakunlanadi). Demak, islomiy mamlakatlarda nevroz bilan kasallanish noislomiy mamlakatlarnikiga qaraganda 2 barobar kam.

4. Namozni muntazam va vijdonan bajarish axloqiy va jismoniy poklanish va davolanishga yordam beradi, bu ko'plab zamonaviy tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ethical Principles (2010) of the American Psychological Association, Standard 4: Privacy and Confidentiality online at "Arxivlangan nusxa".

2. Psychotherapy for mental illness in Europe: An exploration on the evidence base and the status quo 2015 yil 22-iyul

3. "Appendix 1a". from the original on 27 January 2011.

4. "PsychTh-APrV - Ausbildungs- und Prüfungsverordnung für Psychologische Psychotherapeuten". www.gesetze-im-internet.de. from the original on 28 September 2017.

5. A guide to psychotherapy in Germany: Where can I find help? 1 January 2016

6. "Regulation of the profession of the psychologist" 2015 yil 2 aprel.

7 Moreno, Manghi (December 2004). "Cosa regola effettivamente la legge Ossicini?" (PDF) (italyan tilida).

8. "Application for licence to practise as a psychotherapist". Socialstyrelsen [Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot milliy kengashi (Shvetsiya)]. 2014 yil 9-yanvar.

9. Jung K. G. Individualizatsiya jarayonini o'rganish // Tevistok ma'ruzalari: trans. ingliz tilidan / C.G. Jung. - M.: Refl-kitob; K.: Vakler, 1998. - S. 183.

10. Fromm E. Psixoanaliz va din // Xudolarning alacakaranligi. M.: Politizdat, 1990. - S. 208.

11. Psixoterapevtik ensiklopediya / Ed. B.D. Karvasarskiy. SPb., 2006 yil.

## ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ОБЛАСТИ ПРАВОВЕДЕНИЯ В МАЛАЙЗИИ

*Гўзал Шарипова  
базовый докторант  
Международной Исламской академии  
Узбекистан*

С провозглашением независимости Малайзии возникла совершенно новая политическая и социально-экономическая среда, в развитии страны. Для того, чтобы поддержать устойчивую и стабильную атмосферу в полиэтническом обществе необходимо проводить политику, не ущемляющую права и интересы многочисленных этнических меньшинств.

В свою очередь, религиозная толерантность является основой обеспечения внутренней стабильности и интеграции обществ, удерживающей их от потрясений, пресекающей раскол наций и государств и, наконец, нейтрализующей политические цели внешнего религиозного воздействия (миссионерство, внедрение и распространение сектантских движений). В условиях отсутствия религиозной толерантности религиозно-конфессиональное многообразие общества может привести к расколу и обессилению его изнутри, спровоцировать кровопролитные войны [11].

Чтобы избежать нетерпимости к религиозным чувствам и ценностям этнических меньшинств проживающих на одной территории необходимо не только проводить политику религиозной толерантности, а также необходимо ее закрепить на законодательном уровне. Что будет способствовать предотвращению всех видов нетерпимости и позволит обеспечить справедливую политику в области религиозной толерантности, опирающиеся на конституцию, право и нормы права справедливости.

На территории современной Малайзии, исторические события свидетельствуют, о пересечении представителей различных этнической групп и религий. Этнические малайцы и другие народы региона породнились с соседними культурами, что способствовало обогащению национальных традиций, так же

способствовало образованию уникальной культурной среды, ассимилирующую в себе азиатские и европейские компоненты.

В Малазийской истории много примеров межэтнического диалога, так как Малайзия расположена в самом центре Юго-Восточной Азии, между четырьмя государствами Индонезией, Индией, Пакистаном и Бангладешом [4]. Территориальная и историческая близость, так и взаимодействие культур этого региона способствовало мирному сосуществованию. Такое положение дел приводит к социокультурному взаимоуважению, межэтнической и межконфессиональной толерантности.

Малазийская федерация уникальна, она сумела сохранить правильное понимание многообразия культур. Этот регион соединил в себе все религии: буддизм, христианство, ислам, католицизм, протестантство, даосизм и другие религии. Такое многообразие религиозных верований способствовало формированию религиозной толерантности, уважению, а также способствует до сих пор обеспечению внутренней стабильности и интеграции общества в мировое сообщество.

Сегодня в Малайзии проживают 180 этнических меньшинств каждые, из которых не только исповедуют свою религию, но что самое главное свободно отмечают все религиозные праздники друг друга. В Малазийском календаре сегодня заложены несколько праздников способствующие объединению и сплочению общества. Такие праздники как: Новый год - 1 января; Китайский Новый год - январь или февраль; Нари Рая Пуаса - январь - февраль (конец Рамадана, трехдневный праздник); Праздник Весак - апрель или май; День труда - 1 мая; День рождения короля - 5 июня; День рождения Пророка - июль или август; День нации - 31 августа; Праздник лунного пирога - в районе сентября; Дипавали - октябрь/ноябрь; Рождество - 25 декабря. Эти праздники способствуют не только обогащению морально-этических ценностей, но и содействует развитию у граждан понимания свободного волеизъявления с элементами уважения к другим религиям. Поскольку один из самых важных принципов современности в области религиозной толерантности это правовая защита не только всех граждан,

но и защита права всех этнических меньшинств и конфессий, проживающих в Малайзии.

Стоит отметить, что правовой статус личности (гражданства) в Малайзии, как и во многих государствах, обуславливается определенным объемом прав, свобод и обязанностей.

Государственный режим, конституционная система, различные государственно-правовые и общественно-политические институты, международно правовые соглашения и другие органы страны составляют целостную правовую систему.

Особый интерес вызывает в многонациональном и поликонфессиональном обществе правовые вопросы гражданства. Действующая Конституция Малайзии 1963 г. является одной из самых пространных и детализированных не только в Азии, но и во всем современном мире[10].

Так Конституция Малайзии вступила в силу 31 августа 1957 года одновременно с провозглашением независимости Малайзии. А 16 сентября 1963 года в конституцию были внесены дополнения – Акт о Малайзии, после образования Федерации Малайзии.

По форме государственного устройства Малайзия является федеративным государством, по форме правления – гибридным государством: конституционной монархией с выборным главой государства.

Конституция включает в себя 14 частей и 10 приложений. Части конституции делятся на главы и статьи либо непосредственно состоят из статей. Приложения к конституции состоят из частей или перечней. Преамбула в Конституции Малайзии, как и в конституциях Сингапура и Таиланда, отсутствует. В приложениях закрепляются дополнительные положения регулирования общественной жизни общества[3].

Положение и обозначение правового статуса личности помещены в отдельные главы и разделы конституции. Основные личные права и свободы граждан Малайзии описаны во второй главе конституции. В этой главе рассматриваются такие понятия как право на жизнь, право на свободу, право на

личную неприкосновенность, право на свободу передвижения и выбора места жительства, право на запрещение высылки и право на свободный выбор вероисповедания. Особенно хотелось бы подчеркнуть, что в Малайзии все виды рабства и принудительного труда запрещены.

В 3-ей статье 1-го пункта Конституции Малайзии[7] гарантируется свобода религии, религия ислам является официальной религией Малайзии, а также другие религии могут исповедоваться в мире и согласии в любой части Федерации, что обеспечивает гарантию свободы вероисповедания в стране.

В 1 и 2 пункт 8 статьи Конституции Малайзии[9] говорится, что все граждане равны перед законом и пользуются равной защитой со стороны закона, а также запрещается дискриминация в отношении граждан только на основе религии, расы, происхождения или места рождения, запрещается дискриминация в назначении на должность, работу в государственное учреждение или администрацию. Что в свою очередь доказывает существование свободы совести и отсутствия принуждения при определении гражданином своего отношения к религии.

В 10-ой статье Конституции Малайзии[8] закреплено право всех граждан на свободу слова и самовыражение, все граждане имеют право собираться мирно и без оружия, а также, все граждане имеют право создавать ассоциации. Что означает, что все граждане имеют право собираться мирно, без оружия, проводить собрания, митинги\* и демонстрации\*... тем самым обеспечивается гарантия реализации гражданами права на проведение публичного мероприятия. Естественно с учетом четкого соблюдения порядка организации и проведения такого мероприятия. Стоит отметить, согласно исследованиям Института экономики и мира (The Institute for Economics & Peace) [1], Малайзия считается достаточно безопасной страной с точки зрения возможного совершения в ней терактов она находится на 91-м месте по степени опасности угрозы терроризма.

---

\*Митинг- массовое собрание для обсуждения политических и других злободневных вопросов текущей жизни, в поддержку каких-либо требований, для выражения солидарности или протеста; Информационный сайт: <https://dic.academic.ru> (дата обращения 23.02.2022г)



Это заслуживающий внимания факт, так как ближайшие соседи Малайзии, с которыми у нее общая граница (Таиланд, Филиппины и Индонезия), занимают 8, 10 и 29-е места соответственно[2].

В 3-ем пункте 12 статьи Конституции Малайзии[5] гарантирует не вмешательство в религиозные обряды немусульманских общин. Таким образом, конституция Малайзии гарантирует все своим гражданам защиту государства. Опираясь на вышеуказанные пункты конституционного положения можно сказать, что все права и свободы, одинаково относятся к представителям всех наций и народностей без исключения. Интернациональное и многоконфессиональное общество способствует утверждению духа взаимоуважения и межнациональной толерантности в Малайзии.

В заключение хотелось бы привести данные приведенные в ежегодном исследовании (Freedom in the World), о состоянии политических и гражданских свобод в странах мира, который выпускается международной неправительственной организацией Freedom House. Так Малайзия занимает 51 место [6]. Что свидетельствует о существовании свободного волеизъявления у граждан Малайзии.

Обобщая вышесказанное, следует отметить, что общественная и политическая стабильность, достигнутая в Малайзии, это результат мудрой политики, направленной на обеспечение межнационального мира и гражданского согласия в стране

### Литература

1. Global Terrorism Index Report. Capturing the Impact of Terrorism for the Last Decade. 2012 [Электронный ресурс] // Официальный сайт Института экономики и мира. – Режим доступа: [http://www.visionofhumanity.org/pdf/gti/2012\\_Global\\_Terrorism\\_Index\\_Report.pdf](http://www.visionofhumanity.org/pdf/gti/2012_Global_Terrorism_Index_Report.pdf).

2. Korobeev, Aleksandr I., Dremluga, Roman I. Legal experience of crime counteraction in foreign and national legal systems. Criminological description of

---

\* Демонстрация- это одна из форм публичного мероприятия, шествие и другие формы массового выражения общественных настроений; Информационный сайт: <https://dic.academic.ru> (дата обращения 23.02.2022г)

terrorism in the Malaysia. far Eastern Federal University. – Vladivostok, Russian Federation, 1996. – P. 152.

3. Ванюшин Я. Л., Доцкевич М. В. Основы конституционного строя стран АСЕАН. – 2014. С. 65-144

4. Ермакова Е. П. Исламский банкинг в Малайзии //Труды Института государства и права Российской академии наук. – 2017. – №. 5 (63). – С. 182-195.

5. Информационный сайт <https://worldconstitutions.ru/?p=655> CONST. OF MALAYSIA (дата обращения 22.02.2022г)

6. Информационный сайт: <https://freedomhouse.org/report/freedom-world/2021/democrasy-under-siege>(дата обращения 23.02.2022г)

7. Информационный сайт: <https://worldconstitutions.ru> CONST. OF MALAYSIA (дата обращения 4.02.2021г)

8. Информационный сайт: <https://worldconstitutions.ru> CONST. OF MALAYSIA (дата обращения 4.02.2021г)

9. Информационный сайт: <https://worldconstitutions.ru> CONST. OF MALAYSIA (дата обращения 4.02.2021г)

10. Кириленко В. П., Атнашев В. Р. Правовые аспекты защиты прав человека в странах малайско-индонезийского региона (Индонезия, Малайзия, Сингапур, Филиппины) //Управленческое консультирование. – 2015. – №. 8 (80). – С. 15-25.

11. Симаворян А., Овян В. Религиозная толерантность в современном обществе //21-й ВЕК. – 2013. – №. 1 (26). – С. 82-90.

## МУНДАРИЖА

Мирқосимова Марғуба	Шахс ривожланишининг ижтимоий педагогик ва психологик омиллари	4
Абдурахмонова Зуҳра	Шахс тарбиясида саноген тафаккурнинг илмий-амалий аҳамияти	8
Алимов Хўжакелди	Тасаввуфда маърифат тушунчаси	13
Shermatov Fayzullo	Yosh harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatini samarali tashkil etishda temperamentlarini hisobga olishdagi mavjud muammo va kamchiliklar	18
Акрамов Мирмуҳсин, Азиза Абдурахмонова	Маъсулиятлилик муаммосининг психологияда тадқиқ этилиши	23
Шойқулов Бахтиёр, Уматалиева Камила	Профессионал таълим муассасалари гуруҳ раҳбарларининг тарбиявий фаолияти самарадорлигини ошириш шарт-шароитлари	29
Расулов Абдимумин, Қаххоров Сарвар	Диний мутаассиблик муаммосини ижтимоий фанларда талқин этилиши	35
Zaripova Nilufar	Guruhlardagi rahbarlik va liderlik xususiyatlari	40
Курбанова Гульчехра	Чудесная сила искусства и ее Характеристики психологического воздействия на человека	44
Karimova Zarifa	Barkamol inson tarbiyasida mafkuraviy immunitetning oʻrni	51
Radjabova Sanobar	Mutafakkirlar ma'naviy merosining yoshlar ma'naviyatini shakllanishidagi ahamiyati	56
Абдуқаҳҳорова Гулноза	Девиант хулқли ўсмирларга ижтимоий-психологик хизмат кўрсатишнинг сабаб ва ечимлари.	60
Нодиржон Абдулаҳатов	Шахс тарақиётида илм-маърифатнинг ўрни	64
Шукуров Жаҳонгир	Эмоционал интеллект ривожланишининг психологик жиҳатлари	71
Sharafitdinov Abdulla, Yusupov Umidjon	Destruktiv xulq-atvor paydo boʻlishi va shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari	75
Азамат Назаров	Қарор қабул қилиш ижтимоий-психологик ҳодиса сифатида. Назарий таҳлил ва талқин.	79
Назирова Дилафруз	Социально – психологические проблемы образовательного процесса в современном вузе	83
Тойирова Лайло, Ўктамova Ниҳола	Инсон ёши улғайиши жараёнида хиссиётнинг ўзига хос томонларининг ўзгариши	87
Xusniddin Xolmatov	Samarqandagi Mirzo Ulugʻbek madrasasi tarixi va taʼlim tizimi	94
Диёрбек Тожибоев, Джамалов Хуршид	Ватан – муқаддас, уни ҳимоя қилиш шарафли бурчдир!	98
Yunusova Goʻzal	Oʻsmirlarda dezdaptatsiya holatlarini shakllanish omillari	105

Кубаев Маъруф	Ўсмир шахси хулқ-атворини тарбиялашда юзага келаётган психологик муаммолар	109
Avezova Durдона	Autist bolali oilalarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirishda psixologik vazifalarning o'rni va roli	112
Орзиқулова Чароз	Юксак маънавий ҳисларни ёшларда шакллантиришнинг ижтимоий психологик қирралари	120
Sodiqova Muattar	Tarbiya va ta'lim jarayonlarining ijtimoiy hamda pedagogik-psixologik muammolari	124
Shermatov Fayzullo, Mirzayev Tolibjon	Harbiy ta'lim jarayonida kursantlardagi kasbiy zo'riqishlar namoyon bo'lishining psixologik shart-sharoitlari	129
Қулматов Норқобил, Эгамбердиев Яраш	Ахборотлашув жараёнларининг ўқувчи ёшлар дунёқараши ва хулқ-атворининг шакилланишидаги ўрни ва аҳамияти	135
Мирзахмедова Шахноза	Таълим олувчиларни баҳолаш таълим сифатининг гаровидир	140
Жумаев Салим	Ҳарбий хизматчиларнинг касбий тайёргарлигининг ўзига хос психологик омиллари	149
Азамат Назаров, Убайдуллаев Шохрух	Бошқарув жараёнида музокаралардаги қийинчиликлар: тўсиқлар, конфликтлар, манипуляцияларнинг ижтимоий-психологик таҳлили	154
Mirsaid Yunusov	Eshitishda muammolari bo'lgan bolalar eshituv-nutqiy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashda "Speech viewer" dasturi imkoniyatlari	157
Элмуродов Улуғбек	Замонавий раҳбар шахсида лидерлик қобилиятини ривожлантиришда раҳбар бошқарув услубининг ўрни	162
Абдупаттаев Мумин Мирзо	Ёшларни интернетдаги ахборот хуружларидан асраш масалалари	172
Уматалиева Камила, Шойқулов Бахтиёр	Значение методической работы на современном этапе развития системы профессионального образования	176
Ахмедов Сайқал	Аллома абу баркот насафий "ал-вофий" асарининг иқтибоси	180
Nazarova Guljaxon	Psixologiyada shaxs faoliyati va uning tadbiq etilishi	181
Dusmuxamedova Shoira, Yuldosheva Gavhar	O'spirinlarda diniy ong va uni shakllantirish	186
Исмойилова Нафиса	Ёшларда мулоқот ва муомала кўникмаларини ривожлантиришнинг психологик асослари	189
Каримова Шахноза	Таълимни муваффақиятли амалга оширишда хотира жараёнининг ўрни	195
Kurbaniyozova Ra`no	Onkologik kasalliklar bilan og'rigan bemor bolalar ruhiy holatining psixologiyada o'rganilishi	199
Самира Рахимова	Социально-психологическое сопровождение	203

	проблемных семей	
Юсупова Гулбаҳор	Ўспиринлик даврининг ижтимоий-психологик хусусиятлари	206
Xaydarov Botir	Amaliy mashg'ulotlarda maqsadni belgilash smart texnologiyasidan foydalanish va o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	210
Turgunova Aziza Murodov Olim	Uyushmagan yoshlarni yot g'oyalardan asrashning pedagogik asoslari	214
Федюнина Диана	Здоровье и психологическое благополучие личности в глобальном мире	218
Nurabullaev Tanirbergen	Rahbar kadrlar innovatsion etakchiligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	224
Ахмадуллин Рафаэль	Ижтимоий муҳитни соғломлаштириш – ўсиб келаётган ёш авлодни тарбиялаш омили сифатида	229
О'г'илой Abdullayeva	Jadid ma'rifatparvarlarining ijtimoiy tarbiyaga oid qarashlari (hoji muin misolida)	236
Холмуминова Ойгул	Ёшларга таълим - тарбия беришда, олиб бориладиган ижтимоийлашувнинг узлуксизлигини таъминлаш йўллари	240
Ёкутой Ўктамова	Ёшлар ўртасида компьютерга тобеликни олдини олиш	246
Сатторова Махлиё	Ўспиринларда социал толерантликнинг шаклланиш мезонлари	250
Djanpeisova Gauhar, Igamberdiyeva Aziza	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruh bolalar tajribalari uchun laboratoriya tashkil etish yuzasidan muammoning o'rgangallik darajasi va laboratoriya hududini tashkil etishda kutilayotgan ijobiy natijalar	255
Жабборов Жамшид	Замонавий жамият эҳтиёжларини таснифлаш	259
Жабборова Малоҳат	Талабалар академик ўзлаштиришининг психологик детерминантлари долзарб муаммо сифатида	263
Абдурасулова Лобар	Таълим сифатини оширишда педагогик технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти.	267
Алибеков Даврон, Абдурақибова Динора	Ёшларга миллий кадриятларни сингдиришда инновацион ёндашув	271
Алибеков Даврон, Алибекова Олесия	Маънавий кадриятларни сингдириш орқали ёшларда экологик маданиятини шакллантириш	275
Orifova Saboat, Olimjonova Sadoqat	Pedagoglarni kasbiy komhetentligini oshirishda psixologik treninglardan foydalanish	279
Ibragimova Muqaddam, Tursunova Osiya	Bola shaxsini rivojlantirishda o'yinlarning roli	283
Худайбердиев Ўктам, Шорахимов Муротхон	Инновацион технологиялар замонавий таълим асоси сифатида	287
Indira Rahimova, Buriev Abror	Ijodkor talabalarning motivatsion sohasini tadqiq etish	296

Ismailov Kamolatdin, Ismailova Shamsiya	Zamonaviy boshqaruvda jamoani shakllantirishning ijtimoiy-psixologik muammolari	299
Зуфарова Малика	Мулоқот ва шахслараро зиддиятлар	304
Насиба Каримова	Таълим ислохотларини ривожлантиришда замонавий психологик хизматнинг тугган ўрни	314
Зухра Имомова	Замонавий ижтимоий психологик хизматнинг мазмуни ва йўналишлари	318
Nomozova Mohinur	Psixologik xizmatda psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar	321
Ахмедова Муяссар	Ёшлар тилнинг лексик қатламида ноадабий сўзлар	326
Шодиева Нодира	Нутқ инсон учун қудратли қурол	330
Азамат Бахриддинов	Суицидал терроризмнинг назарий-методологик таҳлили	333
Азамат Бахриддинов	Ҳуқуқни моҳофаза қилувчи орган ходимларининг оммавий чиқишларда фуқаролар билан ишончли муносабатлар ўрнатишининг психологик хусусиятлари	339
Мухиддинова Умида	Копинг-стратегиялар таснифига доир қарашлар	344
Мухиддинова Умида, Мухиддинова Феруза	Роль копинг-стратегий в спортивной деятельности	349
Курбанова Зарифа	Интеллектуал имкониятларни ривожлантиришнинг психологик хусусиятлари	354
Ганиева Гулрух	Магистрантларнинг компетентлигини ривожланганлик даражасини баҳолашнинг замонавий усуллари ва воситалари	358
Yusupova Latofat	Deviant xulq –atvor tushunchasi	361
Talipova Umida	Boshlang'ich sinflardagi uyatchan va yig'loqi bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar	365
Yulchiboyeva Nazokat	Tarbiya jarayonida shaxslaro munosabatlarni shakllantirish mexanizmi	370
Mirkasimova Zilola	Maktabgacha ta'limda psixolingvistika atamasi	374
Рузибоев Темур, Абдулхаев Абдулхак	Жамиятда аёлларнинг турли оқимларга кириб қолиши сабаблари	376
Исаева Муштарий	Оилавий муносабатларда диний эътиқоднинг роли	381
Феруза Расулова, Дурдона Алиқулова	Болаларда агрессивликни шаклланишида оилавий мухитнинг таъсири	386
Алишер Ахунжонов	Таълим тизимида замонавий таълим технологияларини жорий этиш муваффақият омили	390
Yusupov Umidjon, Bosimova Madina	Maktab yoshidagi bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	394
Xakimova Muqaddas	Dinning psixoterapevtik mohiyati	397
Гўзал Шарипова	Приоритетные направления религиозной толерантности в области правоведения в малайзии	405
<b>МУНДАРИЖА</b>		411

